

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT KAFEDRASI**

**Ravshanov A. B.**

**«QISHLOQ XO'JALIGIDA BUXGALTERIYA  
HISOBI VA STATISTIKA ASOSLARI» FANI  
BO'YICHA MA'Ruzalar MATNI**

**Q a r s h i - 2014**

**Ravshanov A. B.** «Qishloq xo'jaligida buxgaltyeriya hisobi va statistika asoslari» fani bo'yicha ma'ruzalar matni. Qarshi. Qarshi MII. 2014 – 229 b.

**Taqrizchilar:** i.f.n., dotsent Egambyerdieva S. (QMMI).  
B. Murtazaeva “O'zagrosug'urta” DAKS Qashqadaryo viloyat Direksiyasi bosh mutaxassisi.

Ushbu ma'ruzalar matni «Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrasining 201\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_-sonli, “Iqtisodiyot” fakulteti Uslubiy komissiyasining 201\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_-sonli yig'ilishlarida ko'rib chiqilgan va muhokama qilingan.

Ma'ruzalar matnlari institut uslubiy kengashi yig'ilishida (Bayon №\_\_ «\_\_» \_\_\_\_ 201\_y) va institut ilmiy kengashida (Bayon №\_\_ «\_\_» \_\_\_\_ 201\_y) ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.

Ushbu ma'ruzalar matnlari Davlat ta'lif standartlari asosida tayyorlangan bo'lib, unda «QMSDQIT» ta'lif yo'nalishi namunaviy dasturida ko'rsatilgan asosiy ma'ruzalarning mazmuni yoritilgan.

Institut uslubiy komissiyasi raisi: \_\_\_\_\_ dots. .R.Ubaydullaev  
(imzo)

Fakultet ilmiy kengashining raisi: \_\_\_\_\_ i.f.d. A.F.Xurramov  
(imzo)

Fakultet uslubiy komissiyasi raisi: \_\_\_\_\_ dots. Sh.Sh.Fayzieva  
(imzo)

Kafedra mudiri: \_\_\_\_\_ dots. S. Egamberdiyeva.  
(imzo)

## **ANNOTASIYA**

Ushbu «Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari» fanidan yozilgan muammoli ma'ruzalar matni O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan tavsiya etilgan o'quv dasturiga muvofiq tayyorlandi. Bu ma'ruzalar matnida qishloq xo'jaligida buxgalteriya va statistik hisobni tashkil etish asoslari, xo'jalik muomalalarini hujjatlashtirish hamda schyotlarda aks ettirish, buxgalteriya hisobotlarini tuzish tartibi muammolari batafsil yoritilgan.

## **АННОТАЦИЯ**

Текст лекций по предмету «Основы статистики и бухгалтерского учёта в сельском хозяйстве» подготовлен на основе учебной программы предложенной Министерством высшего и средне-специального образования Республики Узбекистан.

В тексте лекций полностью раскрыты проблемы создания перечня бухгалтерских отчетов, документации по хозяйственным отношениям, основам образования бухгалтерского и статистического учёта а в сельском хозяйстве.

## **ANNOTASIYA**

The collection of problem lectures on the discipline of “The accountance and statistic bases in agriculture” has been made on the base of the educational programme, recommended by the Ministry of Higher and Secondary Special Education of the Republic of Uzbekistan. This collection of lectures describes the bases of organizing the accountance and statistics, documents of agricultural attitudes, the content of making the accountant bills.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>5</b>
<b>1-ma'ruza. BUXGALTYERIYA HISOBINING PREDMETI VA USULLARI .....</b>	<b>7</b>
<b>2-ma'ruza. BUXGALTYERIYA BALANSI VA UNING TUZILISHI .....</b>	<b>27</b>
<b>3-ma'ruza. BUXGALTYERIYA HISOBI SCHYOTLAR TIZIMI VA IKKI YOQLAMA YOZUV .....</b>	<b>39</b>
<b>4-ma'ruza. QIShLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA BUXGALTYERIYA HISOBINI TASHkiL QILISH ASOSLARI .....</b>	<b>74</b>
<b>5-ma'ruza. QIShLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA PUL MABLAG'LARI HISOBI .....</b>	<b>83</b>
<b>6-ma'ruza. HISOB-KITOB, KREDIT VA SOLIQ MUOMALALARI HISOB .....</b>	<b>102</b>
<b>7-ma'ruza. ASOSIY VOSITALAR HISOBI .....</b>	<b>122</b>
<b>8-ma'ruza. IShLAB ChIQARiSh ZAHiRALARI, YORDAMChI VA UMUMiShLAB ChIQARiSh XARAJATLARINING HISOBI.....</b>	<b>137</b>
<b>9-ma'ruza. IShLAB ChIQARiSh XARAJATLARI HISOBI VA MAHSULOTLAR TANNARXINI KALKULYATSIYA QiLiSh .....</b>	<b>152</b>
<b>10-ma'ruza. QIShLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA MOLiYAViY NATiJA KO'RSA TkUCHLARI, SOLiQLAR VA MAJBURIY AJRATMALAR HISOBI. HISOBOT. .....</b>	<b>173</b>
<b>11-ma'ruza. STATISTIKA FANINING PREDMETI, USULLARI VA STATISTIK KO'ZATiSh .....</b>	<b>201</b>
<b>12-ma'ruza. QIShLOQ XO'JALiGi STATISTIKASI .....</b>	<b>214</b>
<b>ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>253</b>

## K I R I Sh

Qishloq xo'jaligi – O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblanadi. Bu tarmoq mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishslash sanoati tarmoqlarining esa xomashyoga bo'lgan talabini qondiradi. Oziq-ovqat mahsulotlarining 90 foizga yaqini agrar tarmoqda tayyorlanadi. Qishloq xo'jaligi respublikamizning iste'mol bozoriga oziq-ovqat mahsulotlari va qayta ishslash sanoatiga xomashyo etkazib byerish bilan birga, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati kabi bir qator tarmoqlar mahsulotlari uchun kafolatli bozor bo'lib ham hisoblanadi.

2011 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 17,1 foizi qishloq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keldi. Agrar tarmoq yurtimiz aholisining salmoqli qismini ish o'rirlari bilan ta'minlab kelmoqda. Shu jihatdan qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalasi respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Mamlakatimizda o'tgan, 2011 yili 6 million 800 ming tonna g'alla, 3 million 500 ming tonnaga yaqin paxta, 8 million 200 ming tonnadan ortiq sabzavot va poliz, qariyb 3 million tonna bog'dorchilik mahsulotlari etishtirildi.

2011 yilda 1990 yilga nisbatan paxta hosildorligi gektariga 22,6 sentnyerdan 25,6 sentnyerga yoki 113,3 foizga, donli ekinlar hosildorligi 20,2 sentnyerdan 44,2 sentnyerga yoki 218,8 foizga, kartoshka hosildorligi 80 sentnyerdan 194,9 sentnyerga yoki 243,6 foizga, sabzavot hosildorligi 192,0 sentnyerdan 252,5 sentnyerga yoki 131,5 foiz ga va poliz hosildorligi 115 sentnyerdan 192,6 sentnyerga yoki 167,5 foizga oshgan.

2011 yilga kelib aholi jon boshiga 60,1 kg meva (250,4 foiz), 35,1 kg uzum (146,2 foiz), 225 kg sabzavot (162,3 foiz), 60,5 kg kartoshka (400,6 foiz) va 42,0 kg poliz mahsulotlari (107,6 foiz) etishtirildi.

Puxta o'ylangan dastur asosida 2008-2010 yillar davomida o'tkazilgan maqbullashtirish jarayoni natijalariga ko'ra fermer xo'jaliklarining yer maydonlari hajmi maqbullashtirildi.

Amalga oshirilgan maqbullashtirish jarayoni natijasida, 2011 yil yakuniga ko'ra, respublikamizdagi fermer xo'jaliklarining soni 215 776 tadan 66134 taga yoki 69,4 foizga kamaytirildi, bunda bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan o'rtacha yer maydoni hajmini 27,4 gektardan 80,1 gektargacha ko'paytirishga yerishildi. O'rtacha bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan yer maydonini tarmoqlar bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich paxtachilik va g'allachilikda 106,3 gektarga, sabzavotchilik va polizchilikda 23,5 gektarga, bog'dorchilik va uzumchilikda 13,1 gektarga, chorvachilikda 205 gektarga teng bo'lmoqda.

Respublikada o'tgan 2011 yilda 1.1 mln tonna paxta tolasi ishlab chiqarilib, ularni qayta ishslash 14,5 foizni tashkil etgan<sup>1</sup>.

Ma'ruzalar kursida asosiy e'tibor qishloq xo'jalik korxonalarida pul mablag'larining shakllanishi, hisob-kitob muomalalarini hisobga olinishi, asosiy vositalar, ishlab chiqarish zahiralari, dehqonchilik va chorvachilik sohalarida asosiy va yordamchi ishlab chiqarish hamda umumilab chiqarish xarajatlari hisobi, etishtirilgan mahsulotlar tannarxini aniqlash tartibi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingan daromadlar, davr xarajatlari, yakuniy moliyaviy natijalar, soliq to'lovlari, majburiy ajratmalar hisobi, shuningdek moliyaviy hisobotni tuzish xususiyatlariga qaratilagan.

Ma'ruzalar kursi iqtisodiy yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarining noiqtisodiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan. Undan boshqa o'quv yo'nalishidagi talabalar, magistrlar, o'qituvchilar, fermer xo'jaliklari rahbarlari va buxgaltyerlari, auditorlar, soliq organi xodimlari ham foydalanishlari mumkin.

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" mavzusi (2012 yilning 19 yanvarida)

## **1-Mavzu. BUXGALTERIYA HISOBINING PREDMETI VA USULLARI**

**Ma'ruzaning asosiy maqsadi** talabalarga quyidagi tayanch iboralar va tushunchalar to'g'risidagi bilimlarni byerish hisoblanadi:

*Xo'jalik hisobi, aktivlar, passivlar, mablag'lari, ulchov birliklar, tamoyillar, operativ hisob, statistik hisob, buxgaltyeriya hisobi, ishlab chiqarish, noishlab chiqarish, xo'jalik jarayonlari, ikki yoqlama yozuv, daromad, xarajat, debet, Kredit.*

### ***Ma'ruza rejasi:***

- 1. Xo'jalik hisobi haqida tushuncha va unga qo'yilgan talablar***
- 2. Hisobning predmeti, vazifalari va uning turlari***
- 3. Xo'jalik jarayonlari***
- 4. Xo'jalik mablag'lari va ularning manbalari tasnifi***
- 5. Buxgaltyeriya hisobining usullari.***

## **MAVZUNI CHUQUR O'RGANISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ME'YORIY-HUQUQIY HUJJATLAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining «Buxgaltyeriya hisobi to'g'risida»gi qonuni. 1996 yil 30 avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'naliishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotining yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha UUU. –T.: Iqtisodiyot.-2011.-377 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'naliishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. –T.: Iqtisodiyot.-2012.-282 b. (2012 yilning 19 yanvarida).
4. Jo'raev N., Bobojonov O. va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik.-T.:2007.-312 b.
5. Do'smuratov R.D. Buxgaltyeriya hisobi nazariyasi.-T.:“Yangiyo'l poligrafpsyervis”-2007 y.
6. Hoshimov B. Buxgaltyeriya hisobi nazariyasi. Darslik.-T.: “Yangi asr avlod”-2004 y.

### ***1.1. Xo'jalik hisobi haqida tushuncha va unga qo'yilgan talablar***

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyoti bozor munosabatlarini yerkinlashtirish yo'lli orqali rivojlanmoqda. Bozor iqtisodiyotini yerkinlashtirish, davlat mulkini xususiylashtirish jarayonini chuqurlashtirish, mulkchilikning turli - tuman shakllaridagi korxonalarini yaratish hamda sog'lom raqobatchilikni rivojlantirish asosida amalga oshiriladi. Yirik ijtimoiy ishlab chiqarishga, yuqori sifatli ishlab chiqarishga va boshqarishga raqobatsiz yerishib bo'lmaydi.

Korxonalarni boshqarish, uning oldiga qo'yilgan reja ko'rsatkichlari topshiriqlarini bajarish maqsadida xo'jalik faoliyati ustidan kundalik kuzatib borishni talab qiladi. Bunday kuzatish va boshqarish xo'jalik hisobi yordamida amalga oshiriladi.

**Hisob deganda** olingan ma'lumotlardan ma'lum bir amaliy yoki ilmiy maqsadlarda keyinchalik foydalanish uchun yoki boshqa voqealar, harakatlar, dalillarni qayd etishni tushunmoq kerak.

**Xo'jalik hisobi** deb xo'jalik faoliyatining rivojlanish istiqbollarini aniqlash, uni boshqarish va nazorat qilish maqsadida shu jarayonni miqdoriy (qiymat, mehnat) aks ettirish va sifat jihatidan tavsiflashga aytildi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkdorlar xo'jalik hisobidan maksimal darajada foyda undirish uchun foydalanadi va bunda mulk egalari uning yordamida qo'yilgan mablag'lar va Kapitalning yuqori samarali ishlatilishi ustidan kuzatishni amalga oshirishga harakat qilishadi.

Bozor iqtisodiyotidagi xo'jalik hisobining maqsadi foydaning shakllanish jarayoni ustidan kuzatish hisoblanib, uning yordamida tadbirkorlar ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulot (ish, xizmat)lar sifatini yaxshilash hamda yaratilgan mahsulot tannarxini kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Hisob ko'rsatkichlarining reja ko'rsatkichlari bilan solishtiruvchanligi - hisob ko'rsatkichlarining markazlashtirilgan tartibda belgilangan reja ko'rsatkichlari bilan solishtirish mumkinligini ta'minlashni nazarda tutadi. O'z vaqtidaligi, aniqligi va ob'ektivligi talabiga Kelsak, shuni aytishimiz lozimki, xalqaro standartlarga binoan o'rinnilik, ahamiyatlilik va moddiylilikiga ko'proq ahamiyat berilganadi. Buxgaltyeriya hisobida nazariyadan ko'ra amaliy tomonga ko'proq e'tibor berilganishi kerak.

Tejamlligi va hammabopliligi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu talab chegaralangan bo'ladi. Tejamllikni nazarda tutganda axborotni uni hosil qilish sarflari bilan solishtirish asosida uning muhimliligidan kelib chiqish lozim.

O'zbekiston Respublikasining «Buxgaltyeriya hisobi to'g'risida»gi Qonuniga binoan maxsus talablar bilan belgilangan va ularga asoslangan holda hisob yuritilishi hamda hisobot tuzilishi lozim bo'lgan buxgaltyeriya hisobining asosiy tamoyillari quyidagilardir: **ikkiyoqlama yozuv; uzlusizlik; xo'jalik operasiyalari, aktivlar va passivlarning pulda baholanishi; aniqlik; hisoblash; ehtiyyotkorlik; mazmunning shakldan ustunligi; ko'rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi; moliyaviy hisobotning betarafligi; hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi; aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi.**

**Buxgaltyeriya hisobining ikki yoqlama yozish usuli bilan yuritish prinsipi** xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda va byudjet tashkildotlarida xo'jalik operasiyalarini buxgaltyeriya hisobida ikki yoqlama yozish asosida ro'yxatga olib borish kerakligini bildiradi. Ikki yoqlama yozish tizimi aynan bir operasiyaning summasini bir vaqtning o'zida buxgaltyeriya hisobining ikki schyotida- birining debetida va boshqasining Kreditida aks ettirishdan iborat bo'ladi.

**Buxgaltyeriya hisobining uzlusizlik prinsipi** xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda va byudjet tashkildotlarida doimiy faoliyat ko'rsatadigan va noma'lum uzoq muddatgacha o'z faoliyatini davom ettiradigan bo'lishini hamda buxgaltyeriya hisobini yuritish muddati xo'jalik yurituvchi sub'ektning va byudjet tashkilotining faoliyat ko'rsatish muddatiga mos kelishi kerakligini bildiradi.

**Xo'jalik operasiyalarini, aktivlarni va passivlarni pulda baholanishi prinsipi** barcha xo'jalik operasiyalar, hodisalar, aktivlar va passivlar yagona, bir turdag'i pul bahosida o'lchanishi kerakligini bildiradi. O'zbekiston Respublikasida milliy pul o'lchovi bo'lib so'm va uning qismi tiyin hisoblanadi.

**Buxgaltyeriya hisobining ishonchlilik prinsipi** axborot, qachonki unda jiddiy yoki oldindan o'ylab kiritilgan xatolar bo'lmasa hamda foydalanuvchilar unga ishonsalar, ishonchli hisoblanishini bildiradi. Xo'jalik operasiyalar yoki hodisalar ishonchli boshlang'ich hisob hujjatlari bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

**Hisoblash prinsipi** aktivlar, passivlar, daromadlar, xarajatlar, xo'jalik operasiyalarini va xodisalar sodir etilgan paytda buxgaltyeriya hisobida aks ettirilishini bildiradi. Buxgaltyeriya yozuvlari hisobda hisoblash prinsiplaridan foydalanilgan holda xo'jalik operasiyalarini sodir bo'lgan vaqtida amalga oshiriladi.

**Ehtiyyotkorlik prinsipi** hisobotda aktivlar va daromadlar orttirilgan holda baholanishiga va majburiyatlar yoki xarajatlar pasaytirilgan holda baholanishiga yo'l qo'yilmasligini anglatadi.

**Mazmunning shakldan ustunligi prinsipi** agar axborotlar hisob hujjatlarda va hisobotlarda operasiyalar va hodisalarning mazmunini ishonchli aks ettirsa, bu axborotlar hisobga olingan va hisobotda taqdim etilgan bo'lishini bildiradi.

**ko'rsatkichlarning qiyosiyligi prinsipi** axborotlar nafli va mazmunli bo'lishi uchun u har xil hisobot davrlari uchun qiyosiy bo'lishini bildiradi.

**Hisobotning betarafligi prinsipi** hisobotda keltirilgan axborot, uning ishonchliligin ta'minlash uchun oldindan bichib-to'qib qo'yishdan holi bo'lishi kerakligini bildiradi.

**Hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi prinsipi** muayyan davrda shu davr daromadlarining olinishini shart qilgan xarajatlarnigina aks ettirilishini bildiradi. Agar xarajatlar va daromadlarning ayrim turlari o'rtasida bevosita bog'liqlikni aniqlash qiyin bo'lsa, xarajatlar bir necha hisobot davrlari o'rtasida taqsimlashning biror-bir tizimi asosida taqsimlanadi.

**Aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi prinsipi** aktivlar va majburiyatlarning asosiy baholanishi ularning tannarxi yoki sotib olingan qiymati bo'lishini nazarda tutadi.

Xo'jalik hisobi tomonidan qamrab olinadigan ob'ektlar raqam ko'rsatkichlari vositasida aks ettiriladi. Ularni olish uchun xo'jalik hisobida **moddiy, mehnat va qiymat** o'lchovlari qo'llaniladi.

**Moddiy o'lchov** ma'lumotlarni sanash, tortish, o'lhash yo'li bilan olish uchun xizmat qiladi. Bu uzunlik (metr, santimetr, millimetrr), og'irlik (gramm, kilogramm, tonna), hajm (kvadrat metr, litr, Kubometr) va boshqa o'lchamlardir..

Demak, moddiy o'lchovlari yordamida korxonaning moddiy qiymatliklarini tavsiflovchi umumlashtirilgan ko'rsatkich olinishi mumkin emas.

**Mehnat o'lchovi** sarflangan mehnat miqdorini hisoblab chiqish uchun qo'llaniladi va kishi-kuni, kishi-soati birliklarida ifodalanadi. Mehnat o'lchovi yordamida mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari, korxona xodimlarining ish haqi hisoblab chiqiladi, ishchilarning ishlab chiqarish normalari belgilanadi va nazorat qilinadi. Bu o'lchov ko'pincha moddiy o'lchovi bilan birgalikda qo'llaniladi. Masalan, ishlab chiqarishning normalarini bajarilishini nazorat qilishda mahsulotning u yoki bu miqdorini ishlab chiqarish uchun qancha vaqt sarflanayotganligi hisoblab chiqiladi; mehnat unumdorligini hisoblab chiqishda - ularning vaqt birligvdagi (kun, soat) ishlab chiqarish miqdori qancha ekanligi va hokazolar hisoblab chiqiladi. Shunday qilib, mehnat o'lchovi yordamida u yoki bu jarayondagi mehnat sarflarining samaradorligi aniqlanadi.

**Qiymat o'lchovi** hisob ob'ektlarini yagona, bir xil ifodalashda qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasida pul o'lchovi vazifasini so'm va uning qismi bo'lgan tiyin bajaradi. Qiyamat o'lchov yordamida har xil bo'lgan xo'jalik mablag'lar va jarayonlarning umumlashtirilgan ko'rsatkichlari, masalan, korxonadagi har xil matyeriallarning umumiy hajmi yoki undagi ishlab chiqarilayotgan mahsulotga qilingan barcha xarajatlarning umumiy summasi hisoblab chiqiladi.

Qiyamat o'lchovi yordamida korxona faoliyatini rejorashtirish hamda korxona va uning tarkibiy qismi faoliyati natijalari ustidan nazorat amalga oshiriladi. U korxona va tashkilotlarning Kredit va hisob-kitob aloqalarini ifodalovchi vosita bo'lib hisoblanadi.

Binobarin, pul o'lchovi xo'jalik faoliyatining eng muhim bo'lgan miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari hisoblangan ishlab chiqarish hajmi, foyda, rentabellik, likvidlik korxonaning to'lov qobiliyati va boshqa ko'rsatkichlarni hisoblab chiqish uchun zarurdir. Qiyamat o'lchovi hisobda ko'pincha moddiy va mehnat o'lchovlari bilan birgalikda qo'llaniladi.

## 1.2. Hisobning turlari, predmeti vazifalari

Xo'jalik hisobining oldiga qo'yilgan vazifalariga qarab, ularning uch turi mavjud: **operativ texnik hisob, statistik hisob va buxgaltyeriya hisobi**.

Hisobning o'zaro chambarchas bog'langan uchta turi xalq xo'jalik hisobining yagona tizimini tashkil qiladi. Bu tizimning to'g'ri tuzilishi va doimiy rivojlantirilishi bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

### Operativ texnik hisob

Operativ hisob turli-tuman xo'jalik xodisalarni o'z ichiga olib, asosan ishlab chiqarish - texnika xususiyatidagi ko'rsatkichlar bilan ta'minlaydi. U mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha topshiriqlarning bajarilayotganligi, xarajatlar normativlaridan kundalik chetga chiqishlar, ish kuchidan foydalanish va asbob-uskunalarning yuklanganlik darajasi, shartnomalarga rioya qilinishi - mol etkazib beruvchilar va xaridorlar bilan tuzilgan Kontraktlarning bajarilishi haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Operativ hisobda o'lchovlarning hamma turlari -

moddiy, mehnat va qiymat o'lchovlaridan foydalaniladi. Lekin hisobning bu turi asosan bir turdag'i operasiyalarni aks ettirganligi va undan umumlashtirilgan ko'rsatkichlar talab qilinmaganligi sababli, unda asosan moddiy va mehnat o'lchovlaridan foydalaniladi.

Nazoratning operativligini ta'minlash uchun xo'jalik operasiyalarining borishi haqidagi axborotni tezroq olish kerak bo'ladi. Shuning uchun operativ hisobning ma'lumotlari iloji boricha osonroq yo'l bilan qayd qilinishi mumkin. Ularni bevosita kuzatish yo'li bilan etkazishadi, telefon, faks, modem orqali, kompyutyer aloqasi yordamida va boshqa yo'llar bilan xabar qilishadi.

Operativ hisobning ma'lumotlaridan mutlaq aniqlik talab etilmaydi, chunki ularning asosiy vazifasi - kuzatilayotgan ob'ektlarda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni tezlik bilan xabar qilishdir. Shuning uchun amaliyotda operativ hisobdan faqat taxminiy axborotni olish bilan Kifoyalanadilar. Lekin bu axborot etarli darajada to'g'ri bo'lishi kerak, zyeroki, unga qarab sodir bo'lgan o'zgarishlarning hajmi va tavsifi haqida ishonchli xulosa qilib, xatosiz bo'lgan boshqaruv qarorlarni qabul qilish mumkin bo'lsin.

Operativ hisob korxonaning har xil bo'linmalari - bolimlari, sexlari, omborlari va hokazolar tomonidan yuritiladi.

Operativ axborot yordamida - menejyerlar ishlab chiqarish, foya bo'yicha topshiriqni bajarilishining borishi, korxonani ta'minlash va mahsulot sotishi bo'yicha topshiriqlarning bajarilishi, tovar moddiy qiymatliklar zaxirasining darajasi hamda boshqa korxonalar, tashkilotlar, muassasalar bilan hisob-kitoblarning holati va borishi haqidagi ma'lumotlarni olishda foydalanishadi.

Operativ hisobning ma'lumotlari ulardan keyinchalik foydalanishda buxgaltyeriya yoki statistik hisobda qayta ishlanadi.

**Statistik hisob-** ommaviy xo'jalik hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va ishslash tizimidan iborat. Xo'jalik hisobining bu turi butun xo'jalik va uning tarmoqlarining rivojlanish jarayonini o'rganishga yo'naltirilgan. Undan korxona, tashkilot va muassasalarda sodir bo'layotgan turli-tuman ommaviy hodisalarни kuzatish uchun foydalaniladi. Uning yordamida xo'jalik faoliyatining turli-tuman miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari hisoblab chiqiladi. **Masalan**, ishlab chiqarish hajmi, o'rtacha ish haqi, ish vaqtidan foydalanish, mehnat unumdorligi darajasi o'sishi va hokazo ko'rsatkichlar kiradi. Dastlabki statistik kuzatuvlarning ma'lumotlari tumanlar, viloyatlar va umuman respublika xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlari bo'yicha umumlashtiriladi.

Xo'jalik xodisalari haqidagi ma'lumotlar statistik hisob tomonidan operativ va buxgaltyeriya hisobi korxona, tashkilot va muassasalarda mustaqil ravishda tashkil qilinadigan dastlabki hisobdan olinadi. Ba'zi ma'lumotlar statistik kuzatuvning alohida shakllari - qayta ro'yxatga olish va tekshirishlar yordamida olinadi. Uzluksiz kuzatib bo'lmaydigan ommaviy hodisalarini tavsiflash uchun dastlab kuzatish usulidan keng foydalaniladi.

Tarmoqlar, xalq xo'jaligi miqqosidagi xo'jalik hodisalarini tavsiflovchi ma'lumotlar asosan maxsus davlat statistika organlari - Makroiqtisodiyot va statistika vazirligining statistika boshqarmasi tomonidan olinadi va ishlab chiqiladi. Dastlabki matyeriallarni ilmiy ishslash va taxlil qilish olingan ko'rsatkichlarni ular tomonidan yig'ish va guruhash, o'rtacha sonlar usuli, nisbiy jamlash, indekslar, dinamik qatorlar va shu kabi maxsus usullardan foydalanish yordamida amalga oshiriladi.

Statistik hisobning ko'rsatkichlarini hisoblab chiqish uchun ham barcha mavjud o'lchovlar - natura, mehnat va pul o'lchovlaridan, o'rganilayotgan hodisaning mazmuni va qo'yilgan vazifalariga qarab foydalaniladi.

**Buxgaltyeriya hisobi-** ichki boshqarish va tashqi iste'molchilarning maqsadlari uchun joriy va yakuniy axborotni olish bilan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning xo'jalik faoliyati ustidan uzluksiz va o'zaro bog'liq bo'lgan kuzatish va nazorat qilish tizimidan iborat.

Buxgaltyeriya hisobi yordamida xo'jalikda mavjud bo'lgan har xil turdag'i moddiy qiymatliklar va pul mablag'larining miqdori, boshqa korxona va tashkilotlar bilan hisob-

kitoblarning holati, undagi boshqa resurslarning umumiyligi haqida ma'lumotlar olinadi; tayyorlangan matyeriallar, ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot hajmi va tannarxi aniqlanadi; xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari - foyda yoki zarar hisoblab chiqiladi; korxonaning rentabelligi hamda korxona va uning tarkibiy qismlari boshqa qator ko'rsatkichlari hisoblab aniqlanadi.

Buxgaltyeriya hisobining eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda barcha xo'jalik operasiyalari yoppasiga qayd qilinadi. Bu narsa barcha xo'jalik jarayonlarining to'la tavsifini olish uchun zarurdir.

Buxgaltyeriya hisobining boshqa xususiyati, uning hujjatlanishidir. Buxgaltyeriya hisobi tizimida qayd qilinadigan xar bir operasiya dastlab hujjatlashtirilishi kerak. Hujjat buxgaltyeriya hisobi ma'lumotlarining yagona manbai hisoblanadi. Barcha operasiyalarni qamrab oladigan hujjatlarning mavjudligi buxgaltyeriya hisobi ma'lumotlaridan moddiy javobgar shaxslar faoliyatini ustidan nazorat qilish uchun foydalanish va boshqarish uchun asoslangan ma'lumotlar olish imkoniyatini byeradi.

Buxgaltyeriya hisobida yig'ma yakunlangan ko'rsatkichlarni olish uchun yig'ilgan ma'lumotlarni ilmiy ishlashning maxsus usullaridan foydalaniladi. Bu usullarning muhim xususiyatlari shundan iboratki, ular alohida ajratib olingan korxona, tashkilotlar va muassasalarning butun xo'jalik faoliyatini uzuksiz va o'zaro bog'langan holda aks ettirilishini ta'minlaydi.

Buxgaltyeriya hisobining ma'lumotlari ayrim korxona, tashkilot va muassasalar hamda ma'lum bir kompaniya tarkibiga kiradigan korxonalar guruhi bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularning ishini audit qilish uchun audit manbai sifatida xizmat qiladi. Buxgaltyeriya hisobining qator ko'rsatkichlari umumlashtirilgan ko'rinishda korxonaning moliyaviy holatini baholashda ishlatiladi.

**Buxgaltyeriya hisobi** - bu faoliyat ko'rsatayotgan sub'ektning mulki, majburiyatlar, xo'jalik operasiyalari va ularning harakatini yoppasiga hamda uzuksiz hujjatlashtirish yo'lli bilan tartibli yig'ish, nazorat qilish, o'lchash, ro'yxatga olish, pul o'lchovida ishlov byerish tizimidir.

Buxgaltyeriya hisobining asosiy maqsadi - to'liq va ishonarli axborotlarni shakllantirish, ichki va tashqi foydalanuvchilarni u bilan ta'minlash, shuningdek boshqaruv va moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun axborotlardan foydalanish.

Demak, buxgaltyeriya hisobi bu -

sub'ektning iqtisodiyoti to'g'risida miqdoriy (moliyaviy) axborot beruvchi axborot tizimidir;

iqtisodiy axborotni aniqlash, nazorat qilish, o'lchash va uzatish jarayonidir;

cheklangan resurslardan foydalanish usulini tanlab olishda zarurdir.

Amaliyotda buxgaltyeriya hisobi oldiga an'anaviy ravishda quyidagi talablar qo'yilgan: hisob ko'rsatkichlarining reja ko'rsatkichlari bilan solishtiruvchanligi; o'z vaqtidaligi, aniqligi va ob'ektivligi; to'laligi; ravshanligi; tejamliligi va hammabopligi. va x.k.

Umumlashtirilgan ko'rsatkichlarning bir guruhi faoliyatni baholashda ko'pincha buxgaltyeriya hisobining ma'lumotlariga asoslanadigan statistika yordamida olinadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgaltyeriya hisobining yagona tizimi o'zaro bog'liq bo'lgan ikki qismdan rahbariyat tomonidan ichki foydalanish uchun o'lchanadigan, ishlanadigan va topshiriladigan hisob axborotining barcha turlarini o'z ichiga oladi. **Moliyaviy hisob** rahbariyat tomonidan firma ichida ishatiladigan axborotdan tashqari, tashkilotdan tashqaridagilarga xabar qilinadigan axborotdan iborat bo'ladi.

Buxgaltyeriya hisobida ham operativ va statistik hisobdag'i kabi barcha o'lchovlar - natura, mehnat va pul o'lchovlari qo'llaniladi. Lekin unda pul o'lchovga alohida ahamiyat berilganadi, chunki u buxgaltyeriya hisobining umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarini olish imkonini byeradi. Shuning uchun pul o'lchovda buxgaltyeriya hisobining barcha ob'ektlari, garchi ular natura va mehnat o'lchovlarida aks ettirilgan bo'lsa ham, albatta, pul o'lchovida ifodalananadi.

Pul o'lchovi yordamida buxgaltyeriya hisobi, masalan, quyidagi umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni byeradi: korxonaning barcha mablag'lari hajmi, ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar, davr xarajatlari, ko'zda tutilmagan xarajatlar, mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi, sotishdan olingan yalpi tushum, morjinal foyda va shu kabilar.

Shunday qilib, **buxgaltyeriya hisobining predmeti**- ishlab chiqarish jarayonidagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning samarali boshqarilishida mablag'lari holati hamda ulardan unumli foydalanish haqidagi axborotlarni shakllantirish hisoblanadi.

Jamiyat rivojlangan sari hisobning ahamiyati ham uzlusiz o'sib boradi. Bunda uning qo'llanish doirasigina emas, balki unda aks ettiriladigan predmeti va bajaradigan funksiyalari ham tobora kengayib boradi.

– Buxgaltyeriya hisobining **predmeti** bilan bir qatorda uning **ob'ektlarini** ham farqlab olish lozim. Buxgaltyeriya hisobining ob'ektlari deganda, muayyan korxona ega bo'lgan moddiy va pul mablag'lari, uning boshqa tashkilotlar va muassasalar bilan bo'lgan yuridik munosabatlari, shuningdek mablag'lar hamda munosabatlarni o'zgartrfadigan xo'jalik operasiyalari tushuniladi. korxonaning moddiy va pul qiymatliklari o'z faoliyatini amalga oshirish uchun foydalilaniladigan mablag'larini ifodalaydi. Xo'jalik muomalalari esa ishlab chiqarishning mazmunini ifodalovchi jarayonlarni tashkil qiladi.

– Xo'jalik hisobining vazifalari iqtisodiyot rivojlanishining har bir bosqichida amalga oshirilayotgan xo'jalik siyosati bilan belgilanadi va quyidagilardan:

– hisobda aks ettiriladigan ob'ektlarni boshqarish uchun ma'lumotlarni yig'ish, ularni filrlash va kerakli axborotni shakllantirish;

– korxonalar faoliyati natijalari haqidagi axborotni o'lhash va taqdim etish;

– soliq organlariga mahalliy soliqlar, ish haqiga olinadigan soliqlar va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, pensiya fondlari, ish bilan ta'minlash fondi, mulklar, transport vositalariga soliqlar, aksiz yig'implari va qo'shilgan qiymat soliqlari va hokazolar bo'yicha to'lovlarining to'g'rilingini nazorat qilish;

– xo'jalik hisobini mustahkamlashga yordam byerish;

– xo'jalik operasiyalarini samarali boshqarishdan iboratdir;

### 1.3. Xo'jalik jarayonlari

Turli mulkchilik shakllarida faoliyat yurituvchi korxonalarning vazifasi, o'z faoliyati jarayonida mahsulot ishlab chiqarishdan iborat. Bu vazifani bajarish uchun birinchi navbatda **ta'minot jarayonini** bosib o'tishi, **ishlab chiqarish** va undan keyin esa uni **sotish jarayoniga** kelishi kerak. Bu uchta bosqich har doim bir -birlarining o'rnini egallaydi va shu bilan korxonada mablag'larning uzlusiz aylanishini hosil qiladi.

Mablag'lar aylanishidagi asosiy bosqich-moddiy boyliklarni yaratish jarayoni sodir bo'ladigan **ishlab chiqarish** bosqichidir. Bu yerda ishlab chiqarilgan buyumlar nafaqat tashqi ko'rinishi va xususiyati bilan, balki qiymatining hajmi bilan farq qiladigan yangi mahsulot tayyorlanadi. Yangidan tayyorlangan mahsulot, sarflangan ishlab chiqarish vositalarining xodimlar mehnati bilan yaratilgan zaruriy va qo'shimcha mahsulotdan tashkil topgan yangi qiymatlardan iborat bo'ladi.

Ishlab chiqarish jarayonini buxgaltyeriya hisobida aks ettirish, birinchidan, unga qilingan xarajatlar - sarflangan mablag'lari, ishchi kuchi va ikkinchidan, ishlab chiqarilgan mahsulotlar - tayyor buyumlarda qayd etiladi. Ishlab chiqarish xarajatlari pul shaklida hisobga olinadi. Bu ishlab chiqarish xarajatlarini yagona o'lchov birligida ifodalash, tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi haqida yig'ma ko'rsatkichni olish uchun zarur. Pul shakli bilan birgalikda, moddiy xarajat sarflari buxgaltyeriya hisobida tegishli tartibda natura va mehnat o'lchovlarda ham ko'rsatiladi. Bu o'lchovlar pulda baholash uchun asos hisoblanib, ulardan xarajatlar hajmini boshqarish uchun foydalilanadi. Buxgaltyeriya hisobi mehnat vositalari va ishchi kuchi sarfini aks ettira turib, ishlab chiharish jarayonining boshqa tomonini anglatadigan ishlab chiqarish iste'molini ham o'z ichiga oladi.

Ko'pgina korxonalarda ishlab chiqarish vositalari birdaniga tayyor mahsulotga

aylanmaydi. Chunki ularga mehnatning ta'siri yangitdan yaratilgan mehnat mahsuli sifatida, ma'lum vaqtini talab qiladi. Shu vaqtning o'tishi davomida ular tugallanmagan ishlab chiqarish shaklida bo'lib turadi.

Ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan milliy daromadni taqsimlash jarayoni vujudga keladi. Taqsimlash paytida zaruriy mahsulotning puldagi ifodasi, korxona va davlatning markazlashtirilgan sof daromadining summasi hisoblab chiqiladi. Bunda korxonaning foydasi buxgaltyeriya hisobida keyinroq, ya'ni sotish tugagandan so'nggina aniqlanadi va qayd qilinadi. korxonaning mablag'lari boshqa bosqichlarda, ya'ni operasiya jarayonida sodir bo'ladi. Bu - korxona ta'minoti va tayyor buyumlarni sotish bosqichlari.

Ta'minot doirasida korxona pul mablag'lari hisobiga o'ziga zarur bo'lgan moddiy boyliklarni sotib oladi. Sotish bosqichida ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan mahsulotning iste'molchilarga sotish sodir bo'ladi. Bu bosqichning yakunida korxona zaxiralari yana pul shakliga kiradi.

Korxonaning ta'minoti va sotish jarayonlarini aks ettirishda buxgaltyeriya hisobi quyidagilarni qayd qilishi zarur: jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, ya'ni ishlab chiqarish vositalarini xarid qilish va mahsulot sotishiga qilingan xarajatlar; ta'minot jarayonida xarid qilinadigan buyumlar; sotish uchun mo'ljallangan va sotish jarayonida joylashgan ishlab chiqarish mahsulotlari hamda sotilgan buyumlar uchun korxonalar tomonidan olinadigan pul mablag'lari va h.k.

Sotilgan mahsulotning summasi ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar summasidan korxona tomonidan belgilangan sof daromad miqdoriga ko'p bo'ladi.

Shunday qilib, sotish jarayonining yakunlanishi moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan sof daromadni taqsimlash imkonini byeradi. Bu yerda buxgaltyeriya hisobi davlat daromadiga o'tkazilishi lozim bo'lgan, korxona tomonidan olingan summasi, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, foyda solig'i aniqlanadi va qayd qilinadi.

Sotish jarayoni tugagandan so'ng korxona tegishli organlarga berilganishi kerak bo'lgan summalarini o'tkazish imkoniga ega bo'ladi.

Tovar ishlab chiqarish sharoitida korxona mablag'larining aylanish davri uning boshqa korxonalar, tashkilotlar va muassasalar bilan xo'jalik aloqalarini yuzaga keltiradi. Bunday aloqalar korxonada mol etkazib beruvchilar va xaridorlar bilan ta'minot hamda mahsulot sotishni amalga oshirishda, bosh kompaniya bilan unga u yoki bu mablag'larni topshirish yoki olib qo'yish paytida, bank muassasalari bilan ulardan ssudalar olishda, byudjetdan tashqari tashkilotlar bilan ijtimoiy ehtiyojlarga doir hisob - kitoblarda yuzaga keladi. Xo'jalik aloqalar buxgaltyeriya hisobida korxona mablag'larini aylanish davrining tegishli bosqichlari aks ettirilayotgan paytdan qamrab olinadi.

Ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchini ishlab chiqarish maqsadlari uchun qilingan iste'moldan tashqari, korxonada noishlab chiqarish iste'mollari ham sodir bo'ladi.

Noishlab chiqarish iste'moliga korxona tasarrufidagi mablag'laridan foydalanish kiradi. Ularning tarkibiga uy-joy, maishiy xizmatlar, sog'liqni saqlash va boshqa shu kabi mablag'lari kiradi. Bu mablag'larning holati va ulardan foydalanishni ham buxgaltyeriya hisobida hisobga olinadi.

Korxona mablag'larining aylanish davri shundan iboratki, ular - ishlab chiqarishga, ishlab chiqarish - tovarlarga, tovarlar esa yana yul shakliga aylanadi. Demak, mablag'larning aylanish davri faqat uning xar xil bosqichlari ketma - ket uzluksiz kelib tursagina sodir bo'lishi mumkin.

Mablag'larning aylanish davrini to'g'ri tashkil qilish, ularni har bir bosqichini; bo'lgan muddatlarda bo'lishini talab qiladi. Korxonalarda vujudga keladigan jarayonlar odatda har doim, deyarli uzluksiz sodir bo'ladi. Shuning uchun ham, korxonalar har bir bosqichda, ya'ni uch shakldagi - pul, ishlab chiqarish va tovar mablag'lariga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga bu mablag'larning miqdori korxona faoliyatining xajmiga to'g'ri kelishi va har bir boskichda normal ishni ta'minlashi kerak.

Barcha jarayonlar - ta'minot, ishlab chiqarish va sotish - alohida xo'jalik

operasiyalaridan iborat. Masalan, ta'minot va sotish qator xarajatlar qilish - sotish hodisalaridan tashkil topadi. Ishlab chiqarishda mehnat buyumlarini mahsulot tayyorlashga sarflash, korxona xodimlariga bajargan ishlari uchun ish haqi hisoblash, mehnat vositalaridan mahsulot ishlab chiqarishda foydalanganlik uchun amortizasiya ajratmalarini hisoblash va xokazolarni qayta - qayta qiymatda amalga oshiradi.

Har bir operasiyaning asosiy mazmuni korxona mablag'larining harakati, ularning shakllari o'zgarishidan iborat. Masalan, matyeriallarni xarid qilishda korxona pul mablag'lari o'rniga o'zlariga kerak bo'lgan mehnat buyumlarini oladi va ularni sarflashda mehnat buyumlarini ishlab chiqarish jarayoni yuzaga kelib, tayyor mahsulot olinadi.

Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, xo'jalik operasiyalarini ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirshda korxona mablag'larining harakatidan iborat ekan.

Xo'jalik operasiyalarini buxgaltyeriya hisobida aks ettirish boshqarish ob'ekti haqida kerakli axborotlarni olish, mablag'lardan samarali foydalanish darajasini baholash imkonini byeradi. Shuning uchun ham ular buxgaltyeriya hisobining asosiy mazmunini tashkil qiladi.

#### **1.4. Xo'jalik mablag'lari va ularning manbalari tasnifi**

Xo'jalik jarayonlari ma'lum mablag'lar zaxirasini talab etadi. Shuning uchun ham, ishlab chiqarish korxonalari imoratlar, mashinalar, uskunalar, matyeriallar, pul mablag'lari, nomoddiy aktivlar va shu kabi boshqa mablag'larga ega bo'ladi. korxona mablag'larining manbalari- davlat jamg'armasidan, aksiyalarni chiqarish va sotishdan, muassislarining badallaridan, banklarning Kreditlari hamda boshqa korxonalar va tashkilotlardan olingan qarzlar hisobidan, foydadan va boshqalardan tashkil etiladi. Xo'jalik faoliyatini to'g'ri boshqarishda korxonaning qanday mablag'larga egaligi, ularning joylashuvi hamda bu mablag'lar manbalari va maqsadlarini bilish kerak.

Shunga qarab korxonaning barcha mablag'lari ikki qismga guruhlanadi: birinchidan, ularning turlari hamda joylashganligiga qarab va ikkinchidan, tashkil topish manbai va qanday maqsadlarga yo'naltirilganligiga qarab.

Mablag'larni turlari va joylanishi bo'yicha guruhlash korxonaning xo'jalik faoliyatini xususiyatlariiga bog'liq bo'ladi. Har qanday korxonalarga birinchi navbatda ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun etarli mablag'lar bo'tishi kerak. Undan tashqari u operasiya jarayonining ikki - ta'minot va sotish bosqichida ishlatiladigan mablag'larga ega bo'lishi kerak. Odatda korxonalar o'z xodimlarining ehtiyojlariga xizmat qiladigan noishlab chiqarish sohasidagi mablag'larga ham ega bo'ladi. Shunday qilib, korxona mablag'lari o'zlarining turlari va joylashishi bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'linadi: **ishlab chiqarish vositalari; operasiya sohasidagi mablag'lar; noishlab chiqarish sohasidagi mablag'lar.**

**Ishlab chiqarish** vositalari mehnat vositalari va mehnat buyumlaridan iborat bo'ladi.

**Mehnat vositalari** - insонning yaratayotgan buyumlariga o'z ta'sirini o'tkazuvchi vositalar hisoblanadi. Mehnat vositalari tarkibida ishlab chiqarish qurorollari etakchi rolni o'ynaydi. Ishlab chiqarish qurorollari yordamida ishchilar mehnat buyumlarining tashqi ko'rinishini o'zgartiradilar, ularga yangi tus byeradilar va mehnat mahsuliga aylantiradilar. Mehnat vositalariga, shuningdek imoratlar, inshootlar, transport vositalari va xo'jalik jihozlari ham kiradi. Ular ishlab chiqarish jarayonini normal amalga oshirish uchun kerakli sharoitlar yaratib, uni to'g'ri tashkil etishga yordam byeradi.

Barcha mehnat vositalarining xususiyatlari shundan iboratki, ular mahsulotni tayyorlash jarayonida uzoq muddat davomida qatnashadilar, ko'plab ishlab chiqarish jarayonlariga xizmat qiladilar va shu bilan birga o'z tashqi ko'rinishlari, xususiyatlarini o'zgartirmasdan saqlab qoladilar. Ayni bir vaqtda mehnat vositalari o'z qiymatini asta-sekin ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlar tannarxiga, davr xarajatlariga o'tkazadilar. Bu ularning eskirishiga va qiymatining kamayishiga olib keladi.

Undan tashqari, korxonalar nomoddiy aktivlarga ega bo'lib, Kapital qo'yilmalar hamda uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalarni amalga oshirishlari mumkin.

Nomoddiy aktivlar o'z egalariga uzoq muddatli huquqlar yoki afzalliklar byeradi. Ularga patentlar, mualliflik huquqlari, firmaning bahosi, savdo markalari, alohida imtiyozlar,

lisensiylar, formulalar, texnologiyalar, nou-xau, kompyutyer dasturlari va hokazolar kiradi. Nomoddiy aktivlar ham asosiy vositalar singari foydalanish muddatlarida o'zlarining qiymatini mahsulot ishlab chiqarish tannarxi va davr xarajatlariga asta-sekin o'tkazib boradi.

Korxonalar uzoq muddatli xaraktyerga ega bo'lgan boshqa aktivlarga ham Kapital qo'yilmalar qilishi mumkin. Ularning tarkibiga asosiy vositalarni sotib olish, yangi ob'ektlarni qurish va hokazolarni kiritish mumkin.

Uzoq muddathli moliyaviy qo'yilmalar pay va aksiyalarga, obligasiyalarga hamda boshqa korxonalarga qarz byerish uchun bo'sh qolgan pul mablag'larini qo'yishdan ham iborat.

**Mehnat buyumlari** mahsulot tayyorlashda boshlang'ich matyerialdan iborat. Ularga xom ashyo va matyeriallar, yarim tayyor mahsulotlar va tugallanmagan ishlab chiqarishlar kiradi. Shu guruhga yordamchi matyeriallar va yoqilg'ilar ham kiradi. Barcha mehnat vositalarining umumiyligi shundan iboratki, ular faqat birgina ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilinib, o'zlarining qiymatini tayyorlanayotgan mahsulot tannarxiga butunlay o'tkazadi.

Xom ashyo va asosiy matyeriallar deb, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning assosini tashkil qiluvchi mehnat buyumlariga aytildi. Masalan, mashinasozlik zavodida asosiy matyeriallar sifatida mashinalarning ehtiyyot qismlari tayyorlanadigan metalning har xil turlari tushuniladi.

Yordamchi matyeriallar asosiylardan farqli o'laroq, tayyorlanayotgan mahsulotning asosini tashkil qilmay, faqat uning yuzaga kelishida qatnashadi. Bunda ular mehnat vositalarining normal ishlashi uchun asosiy matyerialarga qo'shish yo'li bilan ularga sifat o'zgarishlarini kiritish uchun yoki mehnat jarayoniga xizmat qilish uchun binolarni yoritish, mehnat sharoitlarining kerakli sanitariya va gigi'enasini ta'minlab turish uchun ishlatiladi.

Yoqilg'i o'z mohiyatiga ko'ra yordamchi matyeriallarning bir turidir, yordamchi matyeriallar singari, ular mehnat vositalari tomonidan iste'mol qilinadi yoki asosiy matyerialarga qo'shiladi hamda mehnat jarayoniga xizmat qilish uchun ishlatiladi. Hisobda yoqilg'i yordamchi matyeriallar tarkibidan alohida guruhlarga ajratilgan. Yordamchi matyeriallarning ko'pchilik qismi singari, yoqilg'inining bu xosiyati natura shaklida yangi mahsulotning tarkibiga kirmaydi. Lekin sarflangan yoqilg'inining qiymati yordamchi matyeriallarning qiymatiga o'xshab, ishlab chiqarish chiqimlari sifatida butunlay shu mahsulotning tannarxiga kiritiladi.

Yarim tayyor mahsulotlar, ba'zi bir ishlov bosqichlarini o'tgan, lekin hali tayyor mahsulotga aylanmagan mehnat buyumlaridan iborat. Ularning xususiyati shundan iboratki, garchi ular mazkur bosqichdagi barcha ishlov operasiyalarini o'tgan bo'lsalar xam, lekin ishlov yoki yig'ish uchun navbatdagi bosqichga yo'naltirilishi kerak bo'ladi.

Mazkur korxonada tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar o'z ishlab chiqarishining yarim tayyor mahsuloti deb nomlanadi. Ulardan tashqari, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar ham bo'lishi mumkin. Sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar xom ashyo va asosiy matyeriallar guruhiга kiradi. Bu guruhga, shuningdek, ehtiyyot qismlar va idish matyeriallari ham kiradi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish bevosita ishlovda joylashgan mehnat buyumlaridan iborat. Shunday qilib, ular ham yarim tayyor mahsulotlarga o'xshab, ba'zi bir ishlov bosqichlarini o'tishi bilan hali tayyor mahsulotga aylanmagan mehnat buyumlaridan iborat bo'ladi. Lekin yarim tayyor mahsulotlar mazkur sexda barcha ishlovlardan to'la o'tgan bo'lsa, tugallanmagan ishlab chiqarishda joylashgan mehnat buyumlari bu yerda hali ishlanishi kerak bo'ladi.

Buxgaltyeriya hisobida inventar va xo'jalik jihozlari alohida guruhg'a ajratilgan holda hisobga olinadi. Ularga, xizmat qilish muddatidan qat'i nazar qiymati 50 ta minimal ish haqi miqdorigacha bo'lgan va qiymatidan qati nazar, bir yildan Kam xizmat qiladigan buyumlar kiradi.

Operasiya doirasidagi mablag'lar, ya'ni operasiya buyumlari, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va boshqa operasiyada xizmat qiluvchi mablag'lardan iborat.

Operasiya buyumlari korxonada ishlab chiqarilgan va sotish uchun mo'ljallangan tayyor mahsulotdan iborat. Joylashgan joyiga qarab muomala buyumlari ombordagi tayyor mahsulot va ortib jo'natilgan tovarga bo'linadi. Ortib jo'natilgan tovarlarni operasiya buyumlariga qo'shilishining boisi shundaki, xaridor uning uchun pul to'lago'nga qadar ular mazkur korxonaning mulki hisoblanadi. Hisoblash usulidan foydalanganda xaridorlarga ortib jo'natilgan mahsulot uni ishlab chiqaruvchi korxonaning mulki bo'lmay, balki sotib oluvchi korxonaning mulki hisoblanadi va to'lovning yo'qligi debitorlik qarzning yuzaga kelganligini anglatadi. Ushbu holda mazkur ob'ekt operasiya doirasidan hisob-kitobdag'i mablag'larga o'tadi.

Pul mablag'lari har xil to'lovlarni amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Pul mablag'lari yordamida korxona mol etkazib beruvchilar bilan hisob-kitob qiladi, o'z xodimlariga ish haqi to'laydi, davlat daromadlariga har xil to'lovlar va ajratmalar qiladi. Pul mablag'lari korxonaga xaridorlardan ularga sotilgan buyumlar uchun, banklardan-Kreditlar ko'rinishida, yuqori tashkilotlar hamda yuqori kompaniyalardan vaqtinchalik moliyaviy yordam tartibida kelib tushadi.


Pul mablag'lari o'zlarining joylashgan joyiga qarab taqsimlanadi. korxonalar o'zlarining pul mablag'larining asosiy qismini bankdagi hisob-kitob yoki valyuta schyotlarida saqlaydilar. Bunda hisob - kitob schyoti korxonalarning faqat bo'sh pul mablag'larini saqlash uchun mo'ljallangan bo'lmay, u egasining barcha asosiy hisoblashuvlarini mol etkazib beruvchilar hamda xaridorlar, Kredit muassasalari, tashkilotlar va hokazolar bilan amalga oshirish uchun ham mo'ljallangandir.

Korxonaning kechiktirib bo'lmaydigan, masalan, mehnat haqi, nafaqa to'lovlarni amalga oshirish uchun kerak bo'lgan naqd pul zaxiralari uning kassasida joylashgan bo'ladi. Naqd pullar kassaga asosan hisob-kitob schyotidan kelib tushadi. Foydalanilmay qolgan naqd pullar hisob-kitob schyotiga belgilangan muddatlarida qaytarib topshiriladi.

Korxonaning hisob-kitob schyotidagi ma'lum mablag'lar boshqa xo'jalik yuritish sub'ektlari yoki shaxslarining qarzlaridan ham iborat bo'ladi. Bunday mablag'larga, birinchi navbatda, mazkur korxonadan xaridor tomonidan sotib olingan mahsulotlar uchun qarzları hamda korxona xizmatchilariga har xil xarajatlarini qoplash maqsadida hisoblashish sharti bilan berilgangan pul summalar bo'yicha hisob-kitoblar kiradi. Topshiriqni bajarib bo'lgandan keyin, xodim tomonidan olingan summalarining sarflanganligi to'g'risida bo'nak hisoboti topshiriladi va ishlatilmay qolgan pullar korxona kassasiga qaytariladi. Bunday hisob-kitoblar hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar deb ataladi. korxonaga qarzlar boshqa operasiyalar bo'yicha ham bo'lishi mumkin. Ularga, mol etkazib beruvchilarga taqdim etilgan da'volar bo'yicha qarzları, ishchi va xizmatchilarining o'z extiyoylari uchun olgan bo'nak summalar bo'yicha qarzları kiradi. Bunday qarzdorlar boshqa debitorlar deb nomlanadi.

Operasiya sohasiga xizmat qiluvchi mablag'lar shu sohada xizmat qiladigan har xil binolar, asbob-uskunalar va jihozlardan iborat. Bunday mablag'larga tayyor mahsulot omborlarining binolari, ushbu ishlab chiqarish korxonasiga qarashli savdo imoratlari, shu bino va imoratlardagi asbob-uskunalar kiradi.

Noishlab chiqarish sohasidagi mablag'larga mazkur korxona ixtiyoridagi uy-joy xo'jaligi, madaniy - maishiy maqsadlarga mo'ljallangan va sog'liqni saqlash vositalari kiradi. Bular turar joylar, kinoteatrlar, bolalar bog'chalari, oromgohlar va dam olish joylari, hammomlar, kir yuvish va sartaroshxonalar, ambulatoriyalar, tibbiyot punktlarining binolari, shu binolarda joylashgan asbob-uskunalarini va inventar hamda ulardan foydalaniladigan matyeriallar, dori-darmonlardan iborat. Bu mablag'larning barchasi korxona xodimlariga xizmat qilish hamda ularga zarur bo'lgan maishiy sharoitlarni yaratish uchun mo'ljallangan. Buxgaltyeriya hisobida mablag'lar va ularning kelish chiqish manbalari alohida-alohida guruhlarga bo'lib hisobga olinadi.



1.1-chizma. Mablag'lar tarkibi

Har bir korxona tashkil qilinish daqiqasida o'z faoliyatining hajmi va xaraktyeriga qarab mablag'larini shakllantiradi. Agar ularda qo'shimcha mablag'ga vaqtinchalik ehtiyoj tug'ilib qolsa, unda mablag'larni muayyan manbalardan olishlari mumkin. Ishlab chiqarish natijasida olingan foydaning bir qismi yoki maxsus maqsadlarda jamg'arilgan zaxiralardan, davlat grantlari va subsidiyalardan foydalanadi. Shunday qilib, korxona mablag'larni hosil qilish rejali xaraktyerga egadir. korxona tomonidan har qanday manbadan olinadigan mablag'lari ma'lum maqsadlar uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Korxona mablag'larini tashkil topish manbalari va qanday maqsadlarga mo'ljallanganligi ularni ushbu korxonaga kelib tushish darajasiga qarab amalga oshiriladi. Mablag'lar manbalarining tusi mulkchilikning shaklini aks ettiradi. korxonalar eng avvalo o'zining butun yashash davri uchun umumdavlat jamg'armasidan yoki o'zlarining muassislaridan, banklardan, boshqa korxona, tashkilotlardan vaqtinchalik foydalanish uchun mablag'lari oladi.

Shunday qilib, korxona mablag'larining tashkil topish manbalari qanday maqsadlarga yo'naltirilganligiga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi: o'z va qarzga olingan mablag'lari manbalari.

O'z mablag'lari manbalari davlat korxonalarida, foliyatining hamma davrida berilganadi va unga biriktirib qo'yiladi.

Davlat korxonalarining mablag'laridan farqli o'laroq, boshqa mulkchilik shaklidagi korxonalarining o'z mablag'lari ayrim yuridik va jismoniy shaxslarning qo'shma yoki individual mulkidan iborat bo'ladi.

Davlat korxonalarining o'z mablag'lari byudjetdan moliyalash, zaxilarlar, taqsimlanmagan foyda va boshqa o'z mablag'lari manbaidan iborat.

Kapitallar - bozor iqtisodiyoti sharoitlaridan kelib chiqqan holda korxonaning ixтиёри bilan shakllantiriladigan ustav kapitali va zaxira kapitalidan tashkil topadi.

Ustav fondi, korxonaga uni tashkil qilish paytida umumdavlat zaxirasidan kelib tushgan mablag'larni ifodalab, u davlat korxonalari miqyosida foydalaniladigan buxgaltyeriya atamasidir. Ustav kapital esa aksincha, muassislardan kelib tushgan mablag'lardan iborat bo'lib, u nodavlat sektoridagi korxonalarining buxgaltyeriya hisobida foydalaniladigan

iqtisodiy atamadir. korxonalarga ishlab chiqarish vositalari, operasiya sohasining ba'zi bir mablag'lar turlari va noishlab chiqarish sohasining mablag'lari berilganadi. korxona tashkil qilinayotgan paytda hosil qilgan barcha o'z mablag'larining puldagi ifodasi ustav kapitalining hajmini ifodalaydi. Ustav kapitalining hajmi korxonaning Nizomida ko'rsatiladi.

Xo'jalik faoliyati jarayonida ustav kapitalining hajmi o'sadi yoki kamayadi va bunda tegishli o'zgarishlar ustav hamda zaxira kapitalida tegishli qismlari bo'yicha aks ettiriladi.

Ilgari, foyda hisobidan amalga oshiriladigan ishlab chiqarishni rivojlantirish xarajatlari, ya'ni yangi texnikani joriy etish, ishlab chiqarishni mexanizasiyalash va avtomatlashtirish, asosiy fondlarni yangilash, ishlab chiqarishni texnikaviy takomillashtirish, moddiy rag'batlantirish - xodimlarni mukofotlash, ularni alohida muhim topshriqlarni bajarganliklari uchun rag'batlantirish, ularga yakka tartibdagi yordam ko'rsatish; ijtimoiy - madaniy tadbirlar, turarjoylar va madaniy - maishiy muassasalarini qurish, ularni Kapital tuzatish hamda xizmatchilarga madaniy - maishiy xizmatlar ko'rsatishni yaxshilashga qilingan sarflar hisobot davrida sodir bo'lgan xarajatlar sifatida aks ettiriladi.

Byudjetdan moliyalash - bu davlat korxonasi tomonidan o'z faoliyatini kengaytirish uchun qo'shimcha ravishda oladigan mablag'lar manbaidir. Byudjetdan moliyalash tartibidagi mablag'lar davlat korxonalariga yangi mehnat vositalarini sotib olish yoki moddiy boyliklar zaxirasi, aylanma mablag'larning o'sishi va to'dirilishini moliyalash hamda boshqa extyojlariga, bolalar va madaniy - maorif muassasalarini saqlash, ilmiy - tadqiqot ishlarini bajarish, kadrlar tayyorlash va boshqalar uchun berilganadi.

Qarzga olingan mablag'lar korxonaga vaqtinchalik foydalanish uchun ma'lum bir vaqtga ma'lum shartlar asosida berilganadi va uning muddati tugagandan keyin ular o'z egalariga qaytarilishi kerak. Ularning manbai uzoq muddatli Kreditlar va qarzga olingan mablag'lar, qisqa muddatli Kreditorlik qarz va taqsimotga doir majburiyatlar hisoblanadi.

Kreditlar va jalb qilingan mablag'larga banklarning qisqa muddatli, uzoq muddatli hamda yuridik va jismoniy shaxslardan qarzga olingan mablag'lari kiradi. Qisqa muddatli bank Kreditlari va qarzga olingan mablag'lar korxonaning vaqtinchalik ehtiyojlarini uchun qo'shimcha mablag'larning asosiy manbai hisoblanadi. Bu tovar - moddiy boyliklar, yo'ldagi hisob-kitob hujjatlari va boshqalar yuzasidan olingan Kreditlardir. Ular qisqa muddatli Kreditlash tartibida, ya'ni uncha uzoq bo'limgan muddatga, shu muddatning o'tishi bilan ularni bankka albatta qaytarish sharti bilan berilganadi.

Uzoq muddatli bank Kreditlari va qarzlari korxonaga vaqtinchalik asosiy vositalarni sotib olish uchun berilganadi. Bunday Kreditlar, yangi texnikani joriy etish, ishlab chiqarishni mexanizasiyalash texnologiyasini yaxshilash; yangi mahsulot turlarni yaratish, ularning sifatini, ishonchlilagini va chidamlilagini ko'tarish, o'z mablag'lari hisobidan moliyalash o'rniga kapital sarflarga va boshqa ehtiyojlariga xarajatlar qilish uchun berilganadi.

Uzoq muddatli Kreditlar va qarzga olingan mablag'lar ham muddatli, qaytariladigan xususiyatlarga ega bo'lib, bir necha yilga berilganadi.

Shunday qilib, qisqa muddatli va uzoq muddatli Kreditlar hamda qarzga olingan mablag'lar uchun umumiylilik - ularning muddati va qaytarilishi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotida bank Kreditlari va qarzga olingan mablag'lar korxonalar tomonidan ehtiyojlar uchun boshqa tashkilotlardan vaqtinchalik qo'shimcha mablag'lar olishning muhim manbaidir.

Kreditorlik qarzlarining guruhi - mol etkazib beruvchilar va boshqa Kreditorlarga bo'lgan qarzlarni o'z ichiga oladi.

Mol etkazib beruvchilar deb, korxonaga moddiy boyliklarni sotadigan tashkilotlarga aytildi. Moddiy boyliklar bo'yicha qilinadigan hisob -kitob tizimiga binoan, boyliklarni olish vaqt bilan ularga xaq to'lanishi o'rtaida bir qancha vaqt o'tadi. Shu davr davomida mazkur korxona o'zlarining mol etkazib beruvchilari oldida qarzdor bo'lib qoladilar. Natijada mol etkazib beruvchilarga bo'lgan qarz ushbu korxona mablag'lari uchun vaqtinchalik qo'shimcha manbara aylanadi.

Boshqa Kreditorlarga - korxonaga boshqa operasiyalar bo'yicha qarzdor bo'lган

tashkilotlar kiradi. Ularga ijtimoiy sug'urta tashkilotlariga, pensiya, ish bilan ta'minlash jamg'armalariga va hokazolarga qarzlar, boshqa hisob-kitoblar kiradi. Bular - ishchi va xizmatchilarga ularning o'z ehtiyojlari uchun berilgangan ssudalar, sud tashkilotlarining qarori asosida ishchi va xizmatchilarning ish haqlaridan har xil tashkilot va ayrim shaxslar foydasiga ushlab qolning summalar, ishchi va xizmatchilar tomonidan o'z vaqtida talab qilib olinmagan ish haqlari bo'yicha korxonaning qarzlaridir.

Mol etkazib beruvchilarga va boshqa Kreditorlarga bo'lgan qarzlarning xususiyati shundan iboratki, olinadigan mablag'lar korxonaning biznes-rejasida nazarda tutilmaydi va korxona ularni juda cheklangan muddatga oladi.

Taqsimotta doir majburiyatlar guruhiha ishchi va xizmatchilarga ish haqi, kasaba uyushmasi tashkilotlariga ijtimoiy sug'urta ajratmalari, pensiya, ish bilan ta'minlash jamg'armalari va moliya muassasalariga - byudjetga to'lovlar bo'yicha majburiyatlar kiradi. Jalb qilingan mablag'larning bu guruhi milliy daromadni taqsimlashning ba'zi shakllarini aks ettiradi.


Jumladan, ishchi va xizmatchilar oldidagi majburiyatlar korxonada yaratilgan zaruriy mahsulotni taqsimlashning shaklini anglatadi. Gap shundaki, qabul qilingan qoidaga ko'ra, ishchi va xizmatchilarga ish haqi ularning korxonada ishlagan davri tugab, bir necha kun o'tgandan keyin berilganadi. Shu munosabat bilan ishchi va xizmatchilar oldida ish haqini byerishda uzeladigan majburiyatlarini yuzaga kelib turadi.

Ijtimoiy sug'urta, pensiya va ish bilan ta'minlash jamg'armalari bo'yicha majburiyatlar qo'shimcha mablag'larning taqsimlanishini aks ettiradi. korxonalar har oyda ijtimoiy sug'urtaga, pensiya, ish bilan ta'minlash jamg'armalariga ajratmalar qiladi va hisoblangan summalarini tegishli schyotlarga o'tkazadilar. Bu mablag'lar o'tkazilishiga qadar ular korxona ixtiyorida bo'ladi. Shu munosabat bilan uning yana tegishli summalarini o'tkazish bo'yicha doimo majburiyatlarini paydo bo'lib turadi.

Moliya tashkilotlari oldidagi majburiyatlar ham qo'shimcha mablag'lar taqsimlashni tavsiflaydi. korxonalar vaqtி-vaqtி bilan belgilangan to'lovlarini davlat daromadiga topshirib turadi. Demak, ularda ma'lum muddatlarda moliya tashkilotlari oldida shu to'lovlarini o'tkazishga doir majburiyatlarini paydo bo'lib turadi. Shu to'lovlar bo'yicha summalarini hisoblash daqiqasidan to'lash davrigacha ular korxona ixtiyorida bo'ladi.

Taqsimot bo'yicha majburiyatlarning umumiyligi shundan iboratki, bu manbalardan mablag'lar chetdan olish yo'li bilan emas, balki hisoblash yo'li bilan hosil qilinadi.

Yalpi daromad - bu korxonada olingan sof daromadning bir qismidir. Ma'lumki, yalpi foya amalda sotilgan mahsulot qiymati va ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida namoyon bo'ladi. U markazlashtirilgan davlat sof daromadi va korxona sof daromadiga bo'linadi. markazlashtirilgan davlat sof daromadi qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va foydadan ajratmalardan hosil bo'ladi. Qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i korxona mahsulotining sotishsi jarayonida qat'iy me'yorlar bo'yicha undiriladi, foydadan ajratmalar korxona tomonidan uni taqsimlash paytida davlat byudjetiga kiritiladi. Foydaning boshqa qismi korxonaning ixtiyorida qoldiriladi va davr xarajatlari, moliyaviy faoliyatdan talofotlar, dividendlarni to'lash va boshqa ehtiyojlar xarajatlarini qoplash uchun ishlatiladi.



1.2-chizma. Mablag'lar manbalari tarkibi.

Shunday qilib, korxona tomonidan olingan yalpi foyda ikki tomonlama yo'nalishga ega: uning bir qismi davlat daromadiga ajratiladi, boshqa qismi esa korxona ixtiyorida qoldiriladi. Shuning uchun uni taqsimlanishiga qadar o'z mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'lar manbaiga kiritish mumkin emas va shu sababdan u alohida guruhga ajratiladi.

Korxona foyda yoki zararini yaratilgan mahsulot sotishdan, ortiqcha moddiy boyliklarni sotishdan, moliyaviy faoliyatdan, jarimalar va peniyalar ko'rinishida, valyuta va qimmatli qog'ozlar bo'yicha oladi.

Buxgayatyeriya hisobi mazkur korxona va uning xo'jalik bo'linmalari tasarrufida bo'lgan mablag'lari va ulardan foydalanish sur'atini kerakli axborot bilan ta'minlagan holda, ularning samarasini oshirishga yordam byerishi kerak. Yuqorida harakatdagi Kapital manbalari chizmasi keltirilgan (1.2-chizmaga qarang).

### 1.5. Buxgayatyeriya hisobining usullari

Usul (metod yunoncha «metodos») tushunchasi ikki ma'noni bildiradi: ayrim voqealarni bilish, o'rganish usuli va alohida usul, harakat usuli yoki ko'rinishi.

Birinchi tushuncha kengroq ma'noga ega bo'lib, har bir fan kabi buxgayatyeriya hisobi o'z usuli bilan ta'riflanadi. Hisob yuritish tartibini belgilab beruvchi tarkibiy qism sifatida buxgayatyeriya hisobiga xos bo'lgan quyidagi usullar ma'lum; **hujjatlashtirish; inventarizasiya; baholash; kalkulasiya; buxgayatyeriya hisobi schyotlari; ikkiyoqlama yozuv; buxgayatyeriya balansi; hisobot.** Ushbu tushunchalar usul elementlari ham deyiladi.

**Hujjatlashtirish** buxgayatyeriya hisobining ob'ektlari ustidan yoppasiga va uzlusiz kuzatishni amalga oshirish imkonini byeradigan dastlabki aks ettirish usulidir. Buning uchun har bir alohida operasiya uchun yoki ularning bir turdag'i guruhi uchun dastlabki hisob axborotini muayyan moddiy tashuvchisi tuziladi. Unda amalga oshirilgan operasiyaning mazmuni qayd etiladi.

Hujjatlashtirish yordamida sodir bo'layotgan xo'jalik operasiyalari haqida mukammal ma'lumotlar olinadi. Bu ma'lumotlar ularni keyinchalik iqtisodiy jihatdan guruhlash va umumlashtirish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Huquqiy talablarga rioya qilingan holda hujjatlardan foydalanish buxgaltyeriya hisobining ma'lumotlariga isbotlovchi kuch bag'ishlaydi.

Shunday qilib, hujjatlashtirish va ro'yxatga olish buxgaltyeriya hisobining ob'ektlarini dastlabki kuzatishni amalga oshirish uchun qo'llaniladi. Ulardan foydalanish - mulkning but saqlanishi ustidan nazorat qilish imkonini byeradi. Hujjatlashtirish va ro'yxatga olishning ma'lumotlari moddiy-javobgar shaxslarning hatti-harakatlari, amalga oshirilayotgan muomalalarning qonuniyligi, mablag'larning to'g'ri saqlanishi, ulardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish va shu kabilar ustidan kuzatish imkonini byeradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, xo'jalik operasiyalari va mablag'lar turli-tumandir. Lekin buxgaltyeriya hisobi ular haqida yig'ma ko'rsatkichlarni byerishi kerak. Bu, yig'iladigan ma'lumotlar pul o'lchovlarida ifodalanadi. Buning uchun buxgaltyeriya hisobida **baholash** usuli qo'llaniladi. Baholash yordamida natura va mehnat ko'rsatkichlarini pul ko'rsatkichlariga aylantiriladi.

Xo'jalik jarayonini boshqarish uchun uni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan barcha chiqimlarni hisoblab chiqish, har bir jarayonda ishlatilgan ham jonli ham moddiylashtirilgan mehnatni hisoblab chiqish kerak. Bunda xar bir chiqim turining miqdorinigina emas, balki aniq bo'lgan, ularning ob'ektiga tegishli bo'lgan umumiylarini topish, ya'ni hisobga olinayotgan mahsulotlarning tannarxini aniqlab topish lozim bo'ladi. Mahsulot tannarxi - ishlab chiqarish xarajatlarining miqdori ustidan nazorat qilish uchun qo'llaniladigan **kalkulasiya** yordamida hisoblab topiladi. U ob'ektlarning haqiqiy tannarxini aniqlash imkonini byeradi.

Shunday qilib, **kalkulasiya** buxgaltyeriya hisobi ob'ektlarini qiymatli o'lchash uchun xizmat qiladi. Ularning qo'llanilishi tijorat hisob-kitobini mustahkamlash uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, tijorat hisob-kitobiga rioya qilish korxona xarajatlari bilan uning faoliyat natijalari o'rtaqidagi muvofiqlikni talab qiladi. Xarajatlar bilan natijalarni solishtirish haqiqiy tannarx kalkulasiyasi ma'lumotlariga asoslanadigan puldagi ifodalash yo'li bilan yerishiladi.

Xo'jalik mablag'lari va xo'jalik operasiyalarini aks ettirishda, ularni boshqarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olishda, buxgaltyeriya hisobi ob'ektlarini iqtisodiy jihatdan guruhlashda schyotlardan foydalaniladi.

Axborotni dastlabki tashuvchilardagi ma'lumotlar hisob ob'ektlariga faqat tarqoq bo'lgan tavsifni byeradi. Shu sababli schyotlarga ehtiyoj tug'iladi. Bu ma'lumotlarni umumlashtirgan holda guruhlash va summalashtirish lozim bo'ladi. Bunday funksiyani buxgaltyeriya hisobida schyotlar bajaradi.

Xo'jalik operasiyalarini buxgaltyeriya schyotlarida aks ettirish **ikkiyoqlama yozuv** vositasida amalga oshiriladi. Ikkiyoqlama yozuvning mohiyati har bir xo'jalik operasiyasi natijasida yuzaga keladigan ikki hodisani o'zaro bog'langan holda aks ettirishdan iborat. Masalan, matyeriallarni xarid qilish operasiyasini qayd eta turib, sotib olingan qiymatliklarning kelishi va mol etkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'larining sarflanishi ko'rsatkichlari o'zaro bog'lanadi yoki mahsulot tayyorlashga metyeriallar sarflashni aks ettira turib, o'zaro bog'liqlikda ishlab chiqarish chiqimlarining oshishi va korxona omboridagi matyeriallarning kamayishi ko'rsatiladi. Operasiyalarni bunday usul bilan yozish ularning iqtisodiy mazmunini ochib byeradi va xo'jalik faoliyatini chuqurroq o'rganishga yordam byeradi.

Shunday qilib, schyotlar va ikkiyoqlama yozuv buxgaltyeriya hisobi ob'ektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni joriy guruhlash maqsadida qo'llaniladi. Ular yordamida korxonani operativ boshqarish, moddiy javobgar shaxslar mulklarini but saqlanishi ustidan nazorat amalga oshiriladi. Ular xo'jalik faoliyatining yig'ma ko'rsatkichlarini hisoblab chiqish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni asta-sekin jamg'arish va tartibga solish imkonini byeradi.

Buxgaltyeriya hisobi, aniq ob'ektlarning keng bo'lgan tarkibi korxona xo'jalik mablag'larini doimiy ko'zdan kechirish zarurligini taqozo etadi. Buning uchun xo'jalik mablag'larini ikki, ya'ni ularning turlari va joylashishi hamda tashkil topish manbalari qanday maqsadga mo'ljallanganligiga qarab, ko'rsatadigan buxgaltyeriya balansi xizmat qiladi. Xo'jalik mablag'larini aks ettirishning bunday tartibi ularning barcha yig'indisini o'zaro bog'langan holda ko'rish imkonini byeradi va korxonaning ular bilan ta'minlanganligini tahlil qilishni engillashtiradi.

Xo'jalik jarayonlarini vaqtı-vaqtı bilan ko'zdan kechirish buxgaltyeriya hisobida ularni tavsiflovchi ko'rsatkichlar ustidan kuzatish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunday ko'rsatkichlar xo'jalik faoliyatining barcha asosiy uchastkalari bo'yicha belgilanadi. Bu ishlab chiqarish va sotish xajmi, foyda va rentabellik, tannarx va boshqalardir. Bularning hammasi hisob ma'lumotlari asosida byudjet bajarshshining yig'ma tizimini ifodalovchi hisobotda aks ettiriladi. Hisobot hisob-kitoblarning ilmiy asoslangan tizimi yordamida tuziladi. U hisoblab chiqariladigan ko'rsatkichlarnin to'g'riligini va ularning o'tgan davrdagi xuddi shunday ko'rsatkichlari bilan hamda korxonaning moliyaviy ahvolini baholash maqsadida boshqa korxonalarning xuddi shunday ko'rsatkichlari bilan solishtirish mumkinligini ta'minlaydi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, **balans** va **hisobot** buxgaltyeriya hisobi ma'lumotlarini yakunlovchi umumlashtirish usuli hisoblanadi, desak bo'ladi. Bu usullardan foydalanish buxgaltyeriya hisobining muhim vazifalari hisoblangan korxona va uning tarkibiy bo'linmalarini boshqarish, korxonaning moliyaviy ahvolini baholash kabi muhim bo'lgan vazifalarni echishni ta'minlaydi. korxonada operativ boshqarish hujjatlari va schyotlari ma'lumotlari bo'yicha har kuni amalga oshiriladi, lekin u uzoqroq bo'lgan muddatdagi korxonalar ishini chuqur tahlil qilish imkonini byermaydi. Xo'jalik faoliyati natijalarini uzoq bo'lgan vaqtlar uchun har tomonlama va mukammal taxlil qilishni faqat balans va hisobot yordamidagina amalga oshiriish mumkin.

Shu bilan, buxgaltyeriya hisobida qo'llaniladigan usullar mohiyatini ko'rib chiqishga yakun yasaymiz. Shunday qilib, buxgaltyeriya hisobining metodi quyidagi usullardan iborat ekan: hujjatlashtirish va yo'qlama qilish, baholash va kalkulasiya, schyotlar va ikkiyoqlamali yozuv, balans va hisobot.

Bu usullardan ba'zi birlari xo'jalik hisobining boshqa turlarida ham keng qo'llaniladi. Jumladan, keng miqyosda hujjatlashtirish, baholash, kalkulasiya, hisobot va ma'lum darajada balansli usul qo'llaniladi.

Buxgaltyeriya hisobining amaliyotida barcha usullar ajralgan holda emas, balki yagona butunlikning bir qismi sifatida quyidagi ketma-ketlikda qo'llaniladi. Hujjatlashtirishdan - xo'jalik operasiyalari haqida dastlabki ma'lumotlarni olish uchun foydalaniladi. Ma'lumotlarni hujjatlashtirish asosida xo'jalik faoliyatini buxgaltyeriya hisobida navbatdagi aks etgirish amalga oshiriladi. Hujjatlardan ma'lumotlar, albatta, umumlashtirilgan pul o'lchovida ifodalanadi. Buning uchun natura va mehnat ko'rsatkichlaridan pul ko'rsatkichlariga o'tkazish imkonini byeradigan baholash xizmat qiladi.

Hujjatlarda qayd etilgan buxgaltyeriya hisobi ob'ektlari to'g'risidagi ma'lumotlar iqtisodiy jihatdan guruhlanadi va summallashtiriladi. Buning uchun esa schyotlar va ikkiyoqlama yozuvdan foydalaniladi. Schyotlardan olinadigan ko'rsatkichlar ikkiyoqlama yozuv yordamida o'zaro bog'lanadi. Schyotlarda keltirilgan ma'lumotlar yo'qlama qilish jarayonida tekshiriladi va aniqlanadi. Tekshirilgan ma'lumotlar asosida u yoki boshqa ob'ektga tegishli bo'lgan chiqimlar, ya'ni ularning tannarxi hisoblab chiqiladi - kalkulasiya tuziladi.

Shunday tarzda joriy buxgaltyeriya hisobi yuritiladi hamda korxona va uning tarkibiy bo'linmalarining faoliyati boshqariladi. Buxgaltyeriya hisobi ob'ektlarini joriy aks ettirish mablag'larning turlari va ularning manbalari sinov balansida solishtirish bilan nazorat qilinadi va ichki hisobot yordamida joriy ma'lumotlarni vaqtı-vaqtı bilan yig'ib yakunlanadi.

Buxgaltyeriya hisobi usulini turli unsurlari bilan birga olib borish va ulardan amaliy

foydalanish mana shulardan iborat. Usulning unsurlari bir-birovlari bilan chambaras bog'liq bo'lib, ularning har biri oldingilaridan foydalanadi yoki o'zlar keyingilariga ma'lumotlar byeradi.

Shunday qilib, buxgaltyeriya hisobining usuli xo'jalik mablag'lari va jarayonlarini boshqarish uchun axborotni shakllantirish usullarining yig'indisidir.

Buxgaltyeriya hisobining usuli qator usullardan keng foydalanish bilan tavsiflanadi va ularning hap biri ma'lum maqsadlarga xizmat qilib, birgalikda yagona tizimni hosil qiladi. Buxgaltyeriya ob'ektlari unda yoppasiga va uzluksiz o'z aksini topadi. Buxgaltyeriya hisobining usuli hisobga olinayotgan ob'ektlarni o'zaro bog'langan holda aks ettirish imkonini byeradi va shu bilan ayrim hodisalar o'rtasidagi sababli bog'liqlikni yuzaga chiqaradi. Xo'jalik hodisalari buxgaltyeriya hisobida real ma'lumotlar asosida ko'rsatiladi va shu bilan uning ob'ektivligi ta'minlanadi.

Buxgaptierya hisobining usuli xo'jalik xayotining barcha xodisalari, xo'jalik faoliyatini jarayonida sodir bo'layotgan barcha ko'p sonli operasiyalarni kuzatish imkonini byeribgina qolmay, undan tashqari, ilmiy asoslangan boshqaruv 'echimlarini ishlab chiqish uchun katta ahamiyatga ega bo'lган ma'lumotlarni iqtisodiy jihatdan umumlashtirish imkoniyatini ham yaratadi. Buxgaltyeriya hisobi usulidan foydalanshpning bosh maqsadi xo'jalik faoliyatini boshqarishni amalga oshirish uchun talab qilinadigan ko'rsatkichlarni hisoblab chiqishdan iborat. Yuqorida yozilganlarga asoslanib buxgaltyeriya hisobi usulining mohiyatini quyidagicha ta'riflash mumkin.

Buxgaltyeriya hisobining usuli - buxgaltyeriya hisobi ob'ektlarini xo'jalik faoliyatini boshqarish orqali amalga oshirish maqsadida yoppasiga, uzluksiz, o'zaro bog'langan va ob'ektiv aks ettirishni ta'minlaydigan usullar tizimidan iborat.

## O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UChun TEST SAVOL-JAVOBLARI

### 1. Xo'jalik hisobini qanday tavsiflaysiz?

- a) Xo'jalik faoliyatining rivojlanish istiqbollarini aniqlaydi.
- b) Xo'jalik faoliyatini miqdoriy aks ettiradi.
- v) Xo'jalik faoliyatini sifat jihatidan tavsiflaydi.
- g) Noto'g'ri javob yo'q.

### 2. Buxgaltyeriya hisobi –bu:

- a) Sub'ektning iqtisodiyoti to'g'risida miqdoriy (moliyaviy) ma'lumot beruvchi axborot tizimidir.
- b) Iqtisodiy axborotlarni aniqlash, nazorat qilish, o'lchash va uzatish jarayonidir.
- v) Cheklangan resurslardan foydalanish usulini tanlab olishda zarurdir.
- g) Barcha javoblar to'g'ri.

### 3. Moliyaviy hisobot standartlariga bo'lган ehtiyoja nima sabab bo'ldi?

- a) Barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisobotlariga bir xilda yondashish.
- b) Investisiya qo'yishni osonlashtirish.
- v) Buxgaltyeriya hisobi yuritishni osonlashtirish.
- g) Hisobotlar tuzishni engillashtirish.

### 4. Xo'jalik mablag'lari va jarayonlarini qaysi o'lchov umumlashtirib ko'rsatadi?

- a) Natura o'lchovi.
- b) Mehnat o'lchovi.
- v) Pul o'lchovi.
- g) Noto'g'ri javob yo'q.

### 5. Tezkor hisobning asosiy vazifasi nimadan iborat?

- a) kuzatilayotgan ob'ektlarda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni tezlik bilan xabar qilish.
- b) Ishlab chiqarishdagi salbiy voqealarni ro'yxatga olish.
- v) Ishlab chiqarishdagi ijobjiy voqealarni ro'yxatga olish.
- g) Boshqaruvga ma'lumot byerish uchun.

### 6. Muomalalarning asosiy mazmuni nimadan iborat?

- a) Korxona mablag'larining harakati va ularning shakllarini o'zgarishidan.

- b) Muomalalarni pulda ifodalashdan.
- v) Boshqaruv axborotlarini shakllantirishdan.
- g) Mulkdorlar uchun ma'lumotlar to'plashdan.

**7. Korxona mablag'lari qanday guruhlarga bo'linadi?**

- a) Asosiy ishlab chiqarish va yordamchi ishlab chiqarish mablag'lar.
- b) Asosiy matyeriallar va mehnat xarajatlari.
- v) Ishlab chiqarish, noishlab chiqarish va muomala sohasidagi mablag'lar.
- g) Noishlab chiqarish va muomala sohasidagi mablag'lar.

**8. Ishlab chiqarish jarayoni qaysi elementlar ta'sirida amalga oshiriladi?**

- a) Faqat mehnat vositalari.
- b) Faqat mehnat buyumlari.
- v) Faqat ishchi kuchi.
- g) Barcha javoblar to'g'ri.

**9. Mehnat vositalari mehnat buyumlaridan nimasi bilan farqlanadi?**

- a) Ishlab chiqarishda uzoq muddat davomida qatnashishi bilan.
- b) O'z qiymatini tayyor mahsulotga qisman o'tkazishi bilan.
- v) O'z tashqi ko'rinishini o'zgartirmasligi bilan.
- g) Noto'g'ri javob yo'q.

**10. Harakatdagi Kapital nimalardan iborat?**

- a) Asosiy kapital va asosiy vositalar.
- b) Aylanma kapital va pul mablag'lar.
- v) Aylanma kapital va pul kapitali.
- g) Barcha javoblar to'g'ri.

**11. Korxonaning mablag'lari manbalari qanday guruhlarga bo'linadi?**

- a) O'z mablag'lari va ustav kapitali.
- b) Ustav kapitali va taqsimlanmagan foyda.
- v) O'z mablag'lari va majburiyatlar.
- g) To'g'ri javob yo'q.

**12. Korxonaning mablag'lari qanday guruhlarga bo'linadi?**

- a) Asosiy kapital va aylanma kapitali.
- b) Asosiy kapital va joriy aktivlar.
- v) Uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar.
- g) To'g'ri javob yo'q.

**O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UChun SAVOLLAR**

1. Xo'jalik hisobi turlarining vujudga kelishini izohlab byering?
2. Xalq xo'jaligidagi hisob turlari nimalardan iborat?
3. Xalq xo'jaligida buxgaltyeriya hisobining ahamiyati va o'rni.
4. Xalq xo'jaligidagi hisob turlarida qo'llaniladigan o'lchovlarni aytib byering.
5. Buxgaltyeriya hisobiga qo'yilgan qanaday talablar bor?
6. Buxgaltyeriya hisobi predmeti deganda nimani tushunasiz?
7. Xo'jalik jarayonlari o'z ichiga qaysi bosqichlarni qamrab oladi?
8. Ishlab chiqarish jarayoni bilan sotish jarayonining farqi nimada?
9. Buxgaltyeriya hisobining usuli bilan uslubining vazifalari nimadan iborat?
10. Buxgaltyeriya hisobining ob'ekti deganda nimani tushunasiz?
11. Buxgaltyeriya hisobida qo'llaniladigan usullarni sanab chiqing?
12. Hujjatlashtirish nima uchun zarur?
13. Inventarizasiyani mohiyati nimada?
14. Buxgaltyeriya hisobida baholash nima uchun zarur?
15. Ikki yoqlama yozuvning mohiyati nimada?

## **2-Mavzu. BUXGALTERIYA BALANSI VA UNING TUZILISHI**

**Ma'ruzaning asosiy maqsadi** talabalarga quyidagi tayanch iboralar va tushunchalar to'g'risidagi bilimlarni byerish hisoblanadi:

*Balans, aktivlar, passivlar, mablag'lari, uzoq muddatli aktivlar, joriy aktivlar, o'z mablag'lari manbalari, majburiyatlar, uzoq muddatli majburiyatlar, joriy majburiyatlar, ishlab chiqarish, noishlab chiqarish, xo'jalik jarayonlari, xo'jalik muomalalari, balansda ro'y byeradigan o'zgarishlar, ikki yoqlama yozuv, daromad, xarajat, debet, Kredit.*

***Ma'ruza rejasি:***

- 2.1. Buxgaltyeriya balansi to'g'risida tushuncha**
- 2.2. Balansning tuzilishi va uning moddalari**
- 2.3. Xo'jalik operasiyalari ta'sirida balansdagi o'zgarishlar.**

### **MAVZUNI CHUQUR O'RGANISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ME'YORIY-HUQUQIY HUJJATLAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI**

O'zbekiston Respublikasining «Buxgaltyeriya hisobi to'g'risida»gi qonuni. 1996 yil 30 avgust. 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'naliishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotining yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha UUU. –T.: Iqtisodiyot.-2011.-377 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'naliishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. –T.: Iqtisodiyot.-2012.-282 b. (2012 yilning 19 yanvarida).

4. Jo'raev N., Bobojonov O. va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik.-T.:2007.-312 b.

5. Do'smuratov R.D. Buxgaltyeriya hisobi nazariyasi.-T.:“Yangiyo'l poligrafsyervis”-2007 y.

6. Hoshimov B. Buxgaltyeriya hisobi nazariyasi. Darslik.-T.: “Yangi asr avlod”-2004 y.

#### **2.1. Buxgaltyeriya balansi to'g'risida tushuncha**

Xo'jalik sub'ektlarini boshqarish uchun, eng avvalo, ularagi mablag'lari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. Shu bilan birga ular, mablag'larning qanday turlariga ega va bu mablag'lari qanday manbalardan tashkil topganligini bilish kerak bo'ladi. Bunday ma'lumotlar umumlashtirilgan hoddasi pul ko'rsatkichlarida ma'lum bir sanaga berilganishi kerak. Mablag'lari tarkibi va qanday maqsadlarga mo'ljallanganligini o'rganish uchun ularni iqtisodiy jihatdan guruhash zarur. Mana shu ma'lumotlar buxgaltyeriya balansi yordamida olinadi.

**Buxgaltyeriya balansi** xo'jalik mablag'lari uarning turlari va tashkil topish manbalari bo'yicha muayyan bir davrga pulda ifodalanib, umumlashtirib aks ettirish va iqtisodiy guruhash usulidir.

Mablag'lari turlari va ularning manbalarini ajratib ko'rsatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 27 dekabrdagi 140-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan balans ikki qismdan iborat bo'lgan jadval shaklida tuzilgan. Uning chap tomonida mablag'lari turlari va ularning joylanishi keltiriladi va u aktiv qism deb nomlanadi, passiv qism deb nomlanadigan o'ng tomonida mablag'lari manbalari va ularning qanday maqsadlarga atalganligi ko'rsatiladi.

«Aktiv» atamasi lotincha faoliyatli, amal qilish, mavjud bo'lish degan so'zlardan kelib chiqqan. Shuning uchun aktiv deganda mablag'lari qanday amal qilayotganligini, ishlayotganligini ko'rsatuvchi mablag'lari guruhlanishini tushunish kerak.

Aktivlar oldingi amalga oshirilgan muammolarni yoki oldin sodir bo'lgan voqealar natijasida korxonaga kelib tushgan va ular kelajakda foyda keltiradigan iqtisodiy resurslardir. **aktivlar** uch xil xususiyatga ega bo'lishi kerak:

- a) kelajakdag'i iqtisodiy nafni o'zida mujassamlanishi, bevosita va bilvosita pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlarini ko'paytirish imkoniyati;
- b) bu iqtisodiy naflarni nazorat qilish qobliyatini mujassamlash;
- v) oldingi bitimlar yoki boshqa voqealarning natijasi bo'lishi.

«Passiv» atamasining ildizi ham lotinchay faolsiz, xolis turmoq, tushuntirish kabi so'zlarning ildizidan olingan. Tarixan bu atama dastlab faqat qarzga olingan mablag'larga nisbatan, ya'nini uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatlarga nisbatan qo'llanar edi. Bu bilan mulk egasi qarzga olingan mablag'larga bo'lgan munosabatda o'zboshimchalikdan o'zini tutishi kerakligi ta'kidlangan edi. keyinchalik «passiv» atamasi manbalarning boshqa moddalariga ham tarqatilgan bo'lib, faqat korxona majburiyatlarini tavsiflabgina emas, mablag'lar turlarini qanday maqsadlarga mo'ljallanganligini ham tavsiflash uchun ishlataladigan bo'ldi.

Manbalarning tarkibiy qismini majburiyatlar tashkil etadi. Sub'ektning majburiyatları bu oldingi amalga oshirilgan operasiyalarning natijasi yoki kelajakda o'zida mujassamlangan iqtisodiy nafni chiqib ketishi yoki yangi majburiyatlarini vujudga kelishi bilan yakunlanadi. Majburiyatlar uch xil xususiyatga ega bo'lishi kerak:

- a) aktivlarni chiqib ketishi yoki xizmat ko'rsatish yo'li bilan to'lashni vujudga keltiradigan mavjud doimiy majburiyatni o'zida majassamlashtirishi;
- b) sub'ekt uchun majburiyatning bajarilishi shartligi va qariyb muqarrarligi;
- v) oldingi bitim yoki voqealar natijasi bo'lishi.

Uning aktivsi va passividasi ham balans moddalarini ikkiga bo'lib ko'rsatiladi. aktivda: 1-bo'lim. Uzoq muddatli aktivlar va 2- bo'lim. Joriy aktivlar.

Passivda: 1- bo'lim. O'z mablag'larining manbalari va 2- bo'lim. Majburiyatlarga bo'linadi.

Balans ko'rsatkichlaridan quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlab olish mumkin. aktivlar aylanma va uzoq muddatli kapitallari yig'indisiga teng. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'z mablag'lari aktivlaridan majburiyatlarini ayirganiga teng.

aktiv va passivning xar bir elementi mablag'lar turi yoki ularning manbai balans moddasi deb ataladi. aktivda, masalan, quyidagi moddalar keltiriladi: «Asosiy vositalar», «Tugallanmagan ishlab chiqarish», «Tayyor mahsulot», «Hisob-kitob schyoti» va boshqalar; passivda «Ustav Kapitali (fondi)», «Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi», «Bank Kreditlari», «Mol etkazib beruvchilardan qarzlar» va boshqa moddalar.

Buxgaltyeriya balansining xususiyati aktiv va passivlar pullik yakunlarining tengligidan iborat. Bu talab har qanday korxona balansi uchun majburiydir. Bu talab aktivda ham, passivda ham mablag'larning bir xil hajmda, faqat har xil guruhlanishda ko'rsatiladi, ya'nini aktivda - turlari bo'yicha, passivda - manbalari bo'yicha. Balansning nomi ham shunga asoslangan, chunki «balans» so'zi tenglik, barobarlikni anglatadi. Shuning uchun ham balans aktivsi va passivi «balans» so'zi bilan belgilanadi.

Balans korxonaning xo'jalik mablag'larini ma'lum bir sanaga tavsiflab, uning o'tgan davrdagi barcha faoliyat natijasini qanday holatga olib kelganligini ko'rsatadi. Shunday qilib, balans korxona mablag'larining turlari va ularning manbalari haqidagi muhim axborotga ega bo'lgan xo'jalik yuritish sub'ektlari ishining yakunlari to'g'risidagi hisobotdir.

## 2.2. Balansning tuzilishi va uning moddalari

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003 yil 24 yanvarda ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 27 dekabrdan 140-sonli buyrug'i bilan moliyaviy hisobotlarning yangi shakllari tasdiqlangan. Quyida ushbu tasdiqlangan balans shaklini keltiramiz:

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot yili boshiga	Hisobot yili oxiriga
<b>A K t i v</b>			
<b>I. Uzoq muddatli aktivlar</b>			
<b>Asosiy vositalar:</b>			
Boshlang'ich (qayta tikdash) qiymati (0100, 0300)	010		
Amortizasiya (0200)	011		
Qoldiq qiymat (010 - 011)	012		
<b>Nomoddiy aktivlar:</b>			
Boshlang'ich qiymati (0400)	020		
Amortizasiya summasi (0500)	021		
Qoldiq qiymat (020-021)	022		
<b>Uzoq muddatli investisiyalar, jami (satr. 040+050 +060+070+080), shu jumladan:</b>	<b>030</b>		
Qimmatli qog'ozlar (0610)	040		
Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investisiyalar (0620)	050		
Qaram xo'jalik jamiyatlariga investisiyalar (0630)	060		
Chet el kapitali mavjud bo'lgan korxonalarga investisiyalar (0640)	070		
Boshqa uzoq muddatli investisiyalar (0690)	080		
O'rnatiladigan asbob-uskunalar (0700)	090		
Kapital qo'yilmalar (0800)	100		
<b>Uzoq muddatli debtorlik qarzları (0910, 0920, 0930, 0940)</b>	<b>110</b>		
shundan: muddati o'tgan	111		
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950, 0960, 0990)	120		
<b>I bo'lism bo'yicha jami (satr. 012+022+030+090+100+110+120)</b>	130		
<b>II. Joriy aktivlar</b>			
<b>Tovar-moddiy zaxiralari, jami (satr. 150+160+170+180), shu jumladan:</b>	<b>140</b>		
Ishlab chiqarish zaxiralari (1000, 1100, 1500, 1600)	150		
Tugallanmagan ishlab chiqarish (2000, 2100, 2300, 2700)	160		
Tayyor mahsulot (2800)	170		
Tovarlar (2900 dan 2980 ning ayirmasi)	180		
Kelgusidavr sarflari (3100)	190		
Kechiktirilgan xarajatlar (3200)	200		
<b>Debitorlar, jami (satr. 220+230+240+250+260 +270+280+290+300+310)</b>	<b>210</b>		
shundan: muddati o'tgan	211		
Xaridor va buyurtmachilarining qarzi (4000 dan 4900 ning ayirmasi)	220		
Ajratilgan bo'linmalarning qarzi (4110)	230		
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarning qarzi (4120)	240		
Xodimlarga berilgangan bo'naklar (4200)	250		
Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgangan bo'naklar (4300)	260		
Byudjetga soliq va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovleri (4400)	270		

Maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4500)	280		
Ta'sirchilarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi (4600)	290		
Xodimlarning boshqa operasiyalar bo'yicha qarzi (4700)	300		
Boshqa debitorlik qarzlari (4800)	310		
Pul mablag'lari, jami (satr. 330+340+350+360), shu jumladan:	<b>320</b>		
Kassadagi pul mablag'lari (5000)	330		
Hisoblashish schyotidagi pul mablag'lari (5100)	340		
Chet el valyutasidagi pul mablag'lari (5200)	350		
Boshqa pul mablag'lari va ekvivalentlari (5500,5600,5700)	360		
Qisqa muddatli investisiyalar (5800)	370		
Boshqa joriy aktivlar (5900)	380		
<b>II bo'lim bo'yicha jami (satr. 140+190+200+210 +320+370+380)</b>	<b>390</b>		
<b>Balans aktivi bo'yicha jami (satr. 130+390)</b>	<b>400</b>		

ko'rsatkichlar nomi	Satr Kodi	Hisobot yili boshiga	Hisobot yili oxiriga
<b>P a s s i v</b>			
<b>I. O'z mablag'lari manbalari</b>			
Ustav kapitali (8300)	410		
Qo'shilgan kapital (8400)	420		
Zahira kapitali (8500)	430		
Sotib olingan xususiy aksiyalar (8600)	440		
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700)	450		
Maqsadli tushumlar (8800)	460		
Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zahiralar (8900)	470		
<b>1 bo'lim bo'yicha jami (satr. 410+420+430-440+450 +460+470)</b>	<b>480</b>		
<b>II. Majburiyatlar</b>			
<i>Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (satr. 500+510 +520+540+550+560+570+580+590)</i>	<b>490</b>		
Shu jumladan: uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (satr. 500+520+540+560+590)	491		
Shundan: muddati o'tgan uzoq muddatli kreditorlik qarzlari	492		
Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarz (7000)	500		
Ajratilgan bo'linmalarga uzoq muddatli qarz (7110)	510		
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarga uzoq muddatli qarz (7120)	520		
Uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar (7210, 7220, 7130)	530		
Soliq va majburiy to'lovlari bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7240)	540		
Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7250, 7290)	550		

Xaridorlar va buyurtmachilardan olingen bo'naklar (7300)	560		
Uzoq muddatli bank kreditlari (7810)	570		
Uzoq muddatli qarzlar (7820, 7830, 7840)	580		
Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlar (7900)	590		
<b>Joriy majburiyatlar, jami (satr. 610+630+640+650+660+ 670+680+690+700+710+720 +730+740+750+760)</b>	<b>600</b>		
<i>Shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlari (satr. 610+630+650+670+680+690+700+710+720+760)</i>	601		
Shundan: muddati o'tgan joriy kreditorlik qarzlar	602		
Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz (6000)	610		
Ajratilgan bo'linmalarga qarz (6110)	620		
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarga qarz (6120)	630		
Kechiktirilgan daromadlar (6210, 6220, 6230)	640		
Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240)	650		
Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar (6250, 6290)	660		
Olingen bo'naklar (6300)	670		
Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (6400)	680		
Sug'urtalar bo'yicha qarz (6510)	690		
Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz (6520)	700		
Ta'sischilarga bo'lgan qarzlar (6600)	710		
Mehnatga haq bo'lash bo'yicha qarz (6700)	720		
Qisqa muddatli bank kreditlari (6810)	730		
Qisqa muddatli qarzlar (6820, 6830, 6840)	740		
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi (6950)	750		
Boshqa kreditorlik qarzlar (6950 dan tashqari 6900)	760		
<b>II bo'lim bo'yicha jami (satr. 490+600)</b>	<b>770</b>		
<b>Balans passivi bo'yicha jami (satr. 480+770)</b>	<b>780</b>		

Balans aktivida mazkur korxona ixtiyoridagi mablag'lar turi va ularning ma'lum davrda aylanishidagi joylanishi keltiriladi. Masalan, aktivning birinchi moddasida dastlabki qiymatda berilgangan «Nomoddiy aktivlar» korxona ixtiyoridagi sezilarsiz aktivlarning qiymatini tavsiflaydi. Navbatdagi «Amortizasiya» moddasi nomoddiy aktivlarning dastlabki qiymati qanchaga kamayganini ko'rsatadi. «Qoldiq qiymat» moddasi nomoddiy aktivlarning amortizasiya summasini ayirib tashlangandan keyingi qolgan qiymatini aks ettiradi.

«Asosiy vositalar» dastlabki qiymat moddasida korxona ixtiyoridagi mehnat vositalarining qiymatini ko'rsatadi. Shuningdek, qayta tiklash qiymati - eskirish va asosiy vositalarning qoldiq qiymati va hokazolarni aks ettiradi. «Ishlab chiqarish zaxiralari» moddasi korxona ixtiyoridagi «Xom-ashyo va matyeriallar», «Yordamchi matyeriallar», «Yoqilg'i» va ombordagi boshqa ishlab chiqarish zaxiralarining qiymatini umumiy summada aks ettiradi. «Tugallanmagan ishlab chiqarish» moddasi korxonaning har xil sexlarida tayyorlanishi hali oxirigacha etkazilmagan buyumlarga qilingan sarflar summalarini aks ettiradi. «Tayyor mahsulot» - bu mazkur korxonada tayyorlangan va sotish uchun mo'ljallangan buyumlardir. «Kassa» va «Hisob-kitob schyoti» moddalarida muayyan davrda korxona ixtiyoridagi pul mablag'larining summasi ko'rsatiladi. «Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgangan bo'naklao». «Boshqa debitoolik qarzlari» va hokazo moddalarida esa boshqa xo'jalik yuritish sub'ektlarning ushbu korxonaga undan sotib olingen mahsulot uchun («Xaridorlar») va boshqa operasiyalar bo'yicha («Boshqa debitorlar») qarzlari aks ettiriladi.

Ko'rinib turibdiki, aktiv moddalari juda aniq bo'lib, ularning mazmuni ko'p tushuntirishlarni talab qilmaydi. Passiv moddalari esa boshqachadir. Bu moddalardan

ba'zilarining mohiyatini ularning qanday maqsadga tayinlanishiga qarab aniqlab olish doim ham oson bo'lavyermaydi. Passivdagi har bir moddaning mazmunini aniq ko'z oldiga keltirish uchun passiv umuman nimani aks ettirishini yaxshi bilib olish lozim. Yuqorida aytilganidek, passiv aktivda ko'rsatilgan korxona mablag'larining manbaini aks ettiradi.

Passivning birinchi moddasi ustav kapitalidir. Uning summasi korxonaning yaratilish paytida shakllantirilgan mablag'lar miqdoridan iborat. Bunda korxonaning o'z mablag'larining umumiy summasi ko'rsatiladi va bu manbadan berilgangan mablag'larning o'zi balans aktivining moddalarida aniq gavdalantirilgan bo'ladi.

«Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» moddasida korxonaning faoliyat ko'rsatishi boshidan boshlab hisobot davrigacha bo'lgan vaqt ichida jamg'arilgan foyda summasini aks ettiradi.

«Uzoq muddatli Kreditlar» moddasida korxonaning bankka bo'lgan uzoq muddatli qarzi aks ettiriladi. Bu moddada ko'rsatilgan summa korxona tomonidan olingan uzoq muddatli bank Kreditini aks ettirib, belgilangan davrda qaytarilishi kerak. Mazkur modda korxona ixtiyorida hozircha bo'lgan pul mablag'larining miqdorini ko'rsatadi, deb o'yash noto'g'ri bo'ladi, chunki bank tomonidan Kredit ko'rinishida berilganadigan pul mablag'lari odatda korxonaning hisob-kitob schyotiga yozib qo'yiladi yoki mol etkazib beruvchilardan bo'lgan qarzni uzish uchun o'tkaziladi. Demak, bu mablag' balansning boshqa moddalarida aks ettiriladi.

«Kreditorlar» moddasining «Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar» qatorida keltirilgan summa korxonaning mol etkazib beruvchilardan sotib-olingen har xil moddiy boyliklari uchun qarzini ko'rsatadi.

«Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlar» moddasida korxonaning ishchilar va xizmatchilariga hisoblangan ish haqiga doir majburiyatlari aks ettiriladi. Boshqacha qilib aytganda, bu modda korxona tomonidan ishchi va xizmatchilarning bajargan ishlari uchun to'lanishi kerak bo'lgan ish xaqi summasi qancha ekanligini ko'rsatadi.

«Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz» moddasi korxonaning byudjet oldidagi undan undiriladigan har xil soliqpar va ajratmalarni to'lash bo'yicha majburiyatlarining summasini, ya'ni moliya tashkilotlariga bo'lgan qarzning miqdorini aks ettiradi. To'lanishi lozim bo'lgan summa aniqlangandan keyin, korxona o'z balansining passivida shu modda bo'yicha uning summasini ko'rsatadi. Buxgaltyeriya balansi quyidagi belgilariga qarab tasniflanadi:

1. Tuzish vaqtiga qarab: kirish balansi; joriy (davriy) balans; tugatish balansi; ajralish balansi; qo'shilish balansi; sanasiya balansi.

2. Tuzish manbalariga qarab: inventar balanslari. Faqat inventar vositalari asosida tuziladi; ular qisqartirilgan variantda hisoblanadi. Bunday balanslar mavjud mulk asosida yangi korxonalar vujudga kelganda yoki xo'jaliklar o'z shaklini o'zgartirganda talab qilinadi; daftar balansi - inventarizasiya o'tkazish yo'li bilan oldindan tekshirilmasdan faqat daftarlardagi yozuvlar asosida tuziladi; bosh balans - hisob va inventarizasiya ma'lumotlariga asosan tuziladi.

3. Axborot hajmi bo'yicha: yakka balans - faqat bir korxona axborotini aks ettiradi; yig'ma balans - barcha korxonalar mablag'larining umumiy holatini aks ettiruvchi summalarini mexanik qo'shish yo'li bilan tuziladi; konsolidallashgan balans.

4. Faoliyat xaraktyeri bo'yicha: asosiy balans - korxonaning asosiy faoliyat turi va ustaviga to'g'ri keladigan balans; asosiy bo'limgan balans - korxonaning boshqa faoliyat turlari bo'yicha tuziladigan balans.

5. Mulk shakli bo'yicha: davlat korxonalari balansi; aksionyer jamiyatlari balansi; munisipal balansi; qo'shma korxonalar, kichik va xususiy korxonalar balansi.

6. Aks ettirish ob'ekti bo'yicha: huquqiy shaxs bo'lgan korxonaning mustaqil balansi; alohida balans.

7. Tozalanish usuli bo'yicha: brutto-balansi - bu barcha tartibga soluvchi moddalarni o'z ichiga oluvchi balans; netto-balans - bu barcha tartibga soluvchi moddalarni chiqarib tashlab tuzilgan balans. Bizning Respublikamizda netto-balansi qo'llaniladi.

### 2.3. Xo'jalik operasiyalari ta'sirida balansdagi o'zgarishlar

Har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida ko'plab xo'jalik operasiyalarini sodir etadi. Barcha xilma-xil xo'jalik operasiyalarining soni ikki mingga yaqin bo'lishi mumkin. Bu xo'jalik operasiyalarining har biri sodir bo'lganda balansga ta'sir qilib, balans moddalari summalarini o'zgartirib yuboradi. Lekin bu xo'jaklik operasiyalarini balansga faqat to'rt xil yo'l bilan ta'sir etadi.

**Birinchisi**, shunday xo'jalik operasiyalarini borki, ular balansning faqat aktiviga ta'sir etadi. Bunda balansning aktivida bir modda summasi ko'payib, ikkinchi modda summasi ayni shu summaga kamayadi, lekin balansning umumiy summasi o'zgarmaydi.

**Ikkinchisi**, shunday xo'jalik operasiyalarini sodir bo'ladiki, ular balansning faqat passiviga ta'sir qilib, passivda bir modda summasi ko'payib, ikkinchi modda summasi ayni shu summaga kamayadi. Bunda ham balansning umumiy summasi o'zgarmaydi.

**Uchinchisi**, shunday xo'jalik operasiyalarini sodir bo'ladiki, ular balansning aktiviga va passiviga ham ta'sir etib, ular summasini ko'paytirib yuboradi.

**To'rtinchisi**, shunday xo'jalik operasiyalarini sodir bo'ladiki, ular balansning aktiviga ham passiviga ham ta'sir etib, ular summasini kamaytirib yuboradi. Balansga ta'sir qiladigan bunday o'zgarishlarni misollarda keltiramiz.

Buxgaltyeriya balansi hisobot davrining 1-kuniga tuziladi. Xo'jalik faoliyatiny amalga oshirishda xo'jalik mablag'lari tarkibi va hajmi sodir bo'layotgan operasiyalar ta'sirida uzlusiz o'zgarib turadi. Bu o'zgarishlar balansga, albatta, ta'sir etadi. Faraz qilaylik, hisobot davrining boshiga korxona balansi quyidagicha bo'lgan:

**BALANS**

Aktiv		Passiv	
Mablag'lar turi va ularning joyylanishi	Summa	Mablag'lar manbai va ularning tayinlanishi	Summa
Asosiy vositalar	350000	Ustav kapitali	400000
Xom-ashyo va matyeriallar	100000	Foyda	30000
Kassa	100	Bank Kreditlari	20000
Hisob-kitob schyoti	49900	Mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashishlar	50000
<b>JAMI</b>	<b>500000</b>	<b>JAMI</b>	<b>500000</b>

Misolni ko'rib chiqayotganda korxona mablag'lari xo'jalik operasiyalarida qatnashayotganda, o'zgarmasdan qolmasligiga e'tibor byeramiz; keyinchalik ular yangi xususiyatga ega bo'ladilar yoki bir shakldan ikkinchi shaklga o'tadilar. Shuning uchun davr boshiga ko'rsatilgan dastlabki xolati katta o'zgarishlarga duch keladi. Lekin bunda mablag'lari turining umumiy summasi bilan ularning manbalarining umumiy qiymati o'rtasidagi tenglik hech qachon buzilmaydi.

**Birinchi operasiya.** *Kassadan korxona xodimlariga hisobdorlik shartlari bilan 60 so'm berilgandi. Pul berilgangandan keyin «Kassa» moddasidagi summa 60 so'mga kamayadi va 40 (100-60) so'mni tashkil qiladi. Shu bilan bir vaqtida pullarning hisobdorlik shartlari bilan berilganishi hisobdor shaxsnинг ushbu korxonaga qarzining paydo bo'lishiga olib keladi.*

Demak, balans aktivida hisobdor shaxsning korxonaga bo'lgan 60 so'mlik qarzi aks ettiriladigan «Debitorlar» moddasi paydo bo'ladi. Bunda ushbu operasiya ta'sir etgan har ikkala balans moddasi ham aktivdir. Mazkur xodisadan mablag'lari aktivining bir moddasidan ikkinchisiga o'tipshgina sodir bo'ldi. aktivning jami o'zgarmaydi va aktiv hamda passiv summalar o'rtasidagi tenglik saqlanib qoladi. Birinchi operasiyadan keyin balans quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

### BALANS (birinchi operasiyadan keyin)

Aktiv		Passiv	
Mablag'lar turi va ularning joylanishi	Summa	Mablag'lar manbai va ularning tayinlanishi	Summa
Asosiy vositalar	350000	Ustav kapitali	400000
Xom ashyo va matyeriallar	100000	Foyda	30000
Kassa	40	Bank kreditlari	20000
Hisob-kitob schyoti	49900	Mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashishlar	50000
Debitorlar	60		
<b>JAMI</b>	<b>500000</b>	<b>JAMI</b>	<b>500000</b>

**Ikkinci operasiya.** Sof foydaning bir qismi (10000 so'm) hisobidan korxona ishining natijalarini yakunlashda qabul qilingan qarorga binoan zaxira kapitali tashkil etilgan.

Mazkur operasiya korxonaning taqsimlanmagan foydasini 10000 so'mga kamaytiradi, lekin balansda yangi modda paydo bo'ladi: xuddi shu summaga zaxira kapitali ko'payadi. Demak, endi foyda miqdori 20000 (30000-10000) so'mni, zaxira fondi esa 10000 so'mni tashkil qiladi. Ikkinci operasiya natijasida faqat mablag'lar manba'zgaradi. Bir manba (foyda)ning kamayishi hisobiga boshqa (zaxira fondi) manba paydo bo'ladi. Bu operasiya faqat passiv moddalarga tegishlidir. Bunda passivning jami summasi o'zgarmaydi. Demak, aktiv va passiv summalaridagi tenglik ham buzilmaydi.( BALANS (ikkinci operasiyadan keyin)ga qarang!)

### BALANS (ikkinci operasiyadan keyin)

Aktiv		Passiv	
Mablag'lar turi va ularning joylanishi	Summa	Mablag'lar manbai va ularning tayinlanishi	Summa
Asosiy vositalar	350000	Ustav kapitali	400000
Xom ashyo va matyeriallar	100000	Zahira kapitali	10000
Kassa	40	Foyda	20000
Hisob-kitob schyoti	49900	Bank Kreditlari	20000
Debitorlar	60	Mol etkazib beruvchi pudratchilar bilan hisoblashishlar	50000
<b>JAMI</b>	<b>500000</b>	<b>JAMI</b>	<b>500000</b>

**Uchinchi operasiya.** Mol etkazib beruvchilardan sotib olingan 25000 so'mlik matyeriallar korxonaga kelib tushdi, lekin puli to'lanmadidi. Mazkur operasiya, birinchidan, matyerialarning miqdori ko'payishiga olib keladi. Demak, balansning «Xom ashyo va matyeriallar» moddasi 25000 so'mga oshadi. Ikkinchidan, matyeriallar mol etkazib beruvchilardan sotib olinib, puli hali to'lanmagani uchun, korxonaning mol etkazib beruvchilar oldida qarzi paydo bo'ladi. Balansda bu «Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar» moddasi bo'yicha aks ettirilib, uning summasi ham 25000 so'mga oshadi va 75000 so'mga teng bo'ladi.

Balansda aks ettirilish tavsiyi bo'yicha ushbu operasiya oldingisidan farq qiladi. U bir vaqtning o'zida aktiv va passivga tegishlidir. Lekin uning aktivda xam, passivda xam yuzaga keltirgan o'zgarishlari bir xil summada ifodalanadi va bir tomoniga yo'naltirilgandir. Demak, aktiv va passivning jami summalarini bir xilda o'zgaradi, ularning o'rtaсидаги tenglik saqlanib qoladi.

### BALANS (uchinchi operasiyadan keyin)

Aktiv		Passiv	
Mablag'lar turi va ularning joylanishi	Summa	Mablag'lar manbai va ularning tayinlanishi	Summa
Asosiy vositalar	350000	Ustav kapitali	400000
Xom ashyo va matyeriallar	125000	Zahira kapitali	10000
Kassa	40	Foyda	20000
Hisob-kitob schyoti	49900	Bank Kreditlari	20000
Debitorlar	60	Mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashishlar	75000
<b>JAMI</b>	<b>525000</b>	<b>JAMI</b>	<b>525000</b>

**To'rtinchi operasiya.** Hisob-kitob schyotidan bankka Kredit bo'yicha qarzni uzish uchun 20000 so'm o'tkazilgan. Bu operasiya hisob-kitob schyotidagi pul mablag'larining kamayishiga olib keladi va bir vaqtning o'zida korxonaning Kreditlar bo'yicha qarzining qisqarishiga olib keladi. Demak, balansda «Hisob-kitob» schyoti bo'yicha summa 29900 (49900 - 20000) so'mgacha kamayadi va «Bank Kreditlari» passiv moddasi bo'yicha 0 (20000 - 20000) gacha kamayadi, ya'ni bu modda passiv moddasidan chiqarib tashlanadi.

To'rtinchi operasiya balans yakunlarini bir miqdordagi summaga kamaytirdi. Shuning uchun balans aktivi va passivi yakuniy summalari o'rtasidagi tenglik bu operasiyadan keyin ham saqlanib qoladi.


Bunga o'xshagan operasiyalar xo'jalik faoliyatida ko'plab uchraydi. keltirilgan to'rtta operasiyalar ularni balansda aks ettirishning sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalarni o'z ichiga oladi.

### BALANS (to'rtinchi operasiyadan keyin)

Aktiv		Passiv	
Mablag'lar turi va ularning joylanishi	Summa	Mablag'lar manbai va ularning tayinlanishi	Summa
Asosiy vositalar	350000	Ustav kapitali	400000
Xom ashyo va matyeriallar	125000	Zahira kapitali	10000
Kassa	40	Foyda	20000
Hisob-kitob schyoti	29900	Bank Kreditlari	-
Debitorlar	60	Mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashishlar	75000
<b>JAMI</b>	<b>505000</b>	<b>JAMI</b>	<b>505000</b>

Boshida balansning faqat aktiviga yoki passiviga ta'sir qiladigan voqealar (birinchi va ikkinchi operasiyalar) ko'rsatilgan edi. Bunda balansning aktivi va passivinio'zgartirmaydigan summalarining faqat qayta guruhlantirilishi bo'lib o'tgan edi. Bu balans o'zgarishlarining birinchi va ikkinchi turlaridir. Boshqa operasiyalar balansning aktiviga ham passiviga ham ta'sir etadi. Bunda har ikkala ta'sir qilinadigan moddalar ularning ko'payishi (uchinchi operasiya) yoki kamayishini (to'rtinchi operasiya) yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi bayonlarga asoslanib, balansli o'zgarishlar turlarini quyidagi tarzda ifodalash mumkin:



2.1-chizma. Balansdagi o'zgarishlar turlari

Balansli o'zgarishlar turlarining mohiyatini aniqlash balans xususiyatlarini, ya'ni har qanday operasiya uning, albatta, ikki moddasiga ta'sir etishini va hech qachon aktiv bilan passiv o'rtaсидиги tenglikni buzmasligini tushunib olish uchun zarurdir. Operasiyalarning iqtisodiy mazmunini o'rganishga ushbu guruhashning hech qanday aloqasi yo'q.

### O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN TEST SAVOL-JAVOBLARI

#### 1. Amaldagi balans shakli qachon qabul qilingan?

- a) 1997 yil 27 yanvarda.
- b) 2002 yil 27 dekabrdra.
- v) 2004 yil 1 yanvarda.
- g) 2002 yil 1 yanvarda.

#### 2. Amaldagi buxgaltyeriya balansi necha qismdan va satrdan iborat?

- a) 2 qism, 780 satrdan.
- b) 2 qism, 560 satrdan.
- v) 4 qism, 550 satrdan.
- g) 4 qism, 560 satrdan.

#### 3. Oldingi amalga oshirilgan muomalalarni yoki oldin sodir bo'lgan voqealar natijasida korxonaga kelib tushgan va kelajakda foyda keltiradigan iqtisodiy resurslar – bu ...

- a) Mablag'lardir.
- b) Mablag'lar manbasidir.
- v) aktivlardir.
- g) Passivlardir.

#### 4. Kelajakda iqtisodiy naf keltiradigan yoki pul mablag'lari ekvivalentlarini ko'paytirish imkonini byeradigan va oldingi bitimlar natijasi bo'lislilik – bu ...

- a) Passivlarga xos xususiyatdir.
- b) Mablag'lari manbasiga xos xususiyatdir.
- v) aktivlarga xos xususiyatdir.
- g) To'g'ri javob yo'q.

#### 5. Aktivlarni chiqib ketishi yoki xizmat ko'rsatish bilan sundirilishi, olingi bitim natijasi bo'lislilik va majburiyatlarning bajarilishini sharligi – bu ...

- a) Passivlarga xos xususiyatdir.
- b) Majburiyatlarga xos xususiyatdir.
- v) aktivlarga xos xususiyatdir.
- g) To'g'ri javob yo'q.

**6. Korxona xo'jalik mablag'lari va manbalarini ma'lum bir sanaga bo'lgan holatini o'zida mujassamlashtiruvchi hisobotga ....**

- a) Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot deyiladi.
- b) Balans deyiladi.
- v) Pul oqimlari hisoboti deyiladi.
- g) Baholash deyiladi.

**7. Barcha tartibga soluvchi moddalarni o'z ichiga oluvchi balans ....**

- a) Asosiy balans deyiladi.
- b) Netto – balans deyiladi.
- v) Brutto – balans deyiladi.
- g) Yig'ma balans deyiladi.

**8. Bizning Respublikamizda ... .**

- a) Asosiy balans qo'llaniladi.
- b) Netto – balansi qo'llaniladi.
- v) Brutto – balansi qo'llaniladi.
- g) Yig'ma balans qo'llaniladi.

**9. Xo'jalik muomalalarining buxgaltyeriya balansiga necha xil turdag'i ta'sir mavjud?**

- a) 2 xil.
- b) 3 xil.
- v) 4 xil.
- g) 5 xil.

**O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR**

1. Balans tushunchasini qanday ifodalaysiz?
2. Aktivlar deganda nimani tushunasiz?
3. Passivlar deganda nimani tushunasiz va ularning qanday xususiyatlari bor?
4. Balansning aktiv va passivlarida qanday bo'limlar mavjud?
5. Tuziladigan balansning qanday turlarini bilasiz?
6. Xo'jalik operasiyalari ta'sirida balansning birinchi tur o'zgarishlariga uchta misol keltiring.
7. Xo'jalik operasiyalari ta'sirida balansning ikkinchi tur o'zgarishlariga uchta misol keltiring.
8. Xo'jalik operasiyalari ta'sirida balansning uchinchi tur o'zgarishlariga uchta misol keltiring.
9. Xo'jalik operasiyalari ta'sirida balansning to'rtinchi tur o'zgarishlariga uchta misol keltiring.

### **3-Mavzu. BUXGALTYERIYA HISOBI SCHYOTLAR TIZIMI VA IKKI YOQLAMA YOZUV**

**Ma'ruzaning asosiy maqsadi** talabalarga quyidagi tayanch iboralar va tushunchalar to'g'risidagi bilimlarni byerish hisoblanadi:

*Buxgaltyeriya hisobi schyotlar tizimi, asosiy schyotlar, tartibga soluvchi schyotlar, yig'ib taqsimlovchi schyotlar, Kalkulyasiya schyotlari, solishtiruvchi (taqqoslovchi) schyotlar, balansdan tashqari schyotlar, ikki yoqlama yozuv, xronologik va tizimli yozuvlar, sintetik va tahhliliy (analitik) hisob, joriy buxgaltyeriya hisobining ma'lumotlarini umumlashtirish, buxgaltyeriya hisobi schyotlarining rejasi, ikki yoqlama yozuv.*

*Ma'ruza rejasi:*

- 3.1. Schyotlar to'g'risida tushuncha va ularning turkumlanishi**
- 3.2. Asosiy va tartibga soluvchi schyotlar**
- 3.3. Yig'ib taqsimlovchi va kalkulyasiya schyotlari**
- 3.4. Solishtiruvchi (taqqoslovchi) va balansdan tashqari schyotlar**
- 3.5. Buxgaltyeriya hisobi schyotlar rejasi**
- 3.6. Ikki yoqlama yozuv.**

### **MAVZUNI CHUQUR O'RGANISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ME'YORIY-HUQUQIY HUJJATLAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Xoshimov B. Buxgaltyeriya hisobi nazariysi: Darslik. -T.: 2004. - 279 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi buxgaltyeriya hisobining milliy standarti (21-BHMS),-T.:2005 y.
3. Jo'raev N., Bobojonov O., Abduvaxidov F., Sotvoldieva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. -T.: 2007 y
4. Sotivoldiev A. S. Zamonaviy buxgaltyeriya hisobi. Darslik. –T. BAMA, 2005 y .
5. Xasanov B.A., Xoshimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. –T.: «Sharq», 2005.
6. Bobojonov O. Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2004.
7. Xasanov B.A. va boshqalar. Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot. zO'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya , 2004.-208 b.
8. Intyernet saytlari:  
[www.gaap.ru](http://www.gaap.ru) (Xalqaro buxgaltyeriya standartlari);  
[www.cip.com](http://www.cip.com) (Xalqaro Syertifikatli Buxgaltyer);  
[www.aicpa.org](http://www.aicpa.org) (Amerikan Institute of Cyertified Publik Accountants);  
[www.buhgalt.ru](http://www.buhgalt.ru) (“Buxgaltyerskiy uchet” jurnali (RF). [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).

#### **3.1. Schyotlar to'g'risida tushuncha va ularning turkumlanishi**

Korxonaning xo'jalik muomalalari axborot tashuvchilar sifatidagi schyotlarda aks ettiriladi hamda ushbu schyotlarda mayjud mablag'lari va ularning manbalari aks ettiriladi. Shu bilan bir vaqtda schyotlar yig'ma ko'rsatkichlarni olish va xo'jalik faoliyatining borishi ustidan tezkor nazoratni yuritish imkonini byeradi.

Demak, schyotlarni – bu xo'jalik mablag'lari va ularning manbalarini, muomalalarini joriy aks ettiruvchi va ular ustidan tezkor nazorat qilishni ta'minlash usuli deb ta'riflasak bo'ladi. Schyotlardagi yozuvlar hisobga olinayotgan ob'ektlarning xususiyatidan kelib chiqib har xil- natura, mehnat va pul o'lchagichlarda olib borilishi mumkin. Lekin, yakuniy ko'rsatkichlarni olish uchun barcha ma'lumotlar umumlashtirilgan pul o'lchagichida ko'rsatilishi zarurdir.

Korxona xo'jalik mablag'larining harakati tegishli balans moddalarining ko'payishi yoki kamayishiga olib keladi. Masalan, kassadagi naqd pullarning harakatiga doir muomala hisoblangan, g'aznaga pullarni kelib tushishi “Milliy valyutadagi pul mablag'lari” moddasining ko'payishiga yoki, aksincha g'aznadan pullarni berilganishi “Milliy valyutadagi pul mablag'lari” moddasining kamayishi bilan tavsiflanadi. Xuddi shuningdek, mol etkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblarning harakatiga doir muomala hisoblangan, tovarlarni mol etkazib beruvchilardan qabul qilinishi qarzning ko'payishini ya'ni, “Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar” moddasining ko'payishiga, aksincha, bu qarzni

uzilishi “Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to’lanadigan schyotlar” muddasining kamayishiga olib keladi.

Belgilangan schyotdagи umumiy summani hisoblab chiqishni osonlashtirish uchun mablag'larning ko'payishini, ularning kamayishidan alohida ajratib ko'rsatish va muomalalarni umumaylanishini hisoblash uchun schyot ikki qismga bo'linadi: chap va o'ng tomonga. Bu tomonlarning biri chap tomoni –debet, boshqa ikkinchi o'ng tomoni –Kredit deb nomlanadi.

Hisobning har bir ob'eki hamda mablag'lар va uning manbalarining har bir turi uchun alohida belgilangan schyotlar ochiladi. Debet va Kredit bo'yicha yozilgan muomalalar summalarining jami aylanma (oborot) deb nomlanadi. Schyotning har- debet va Kredit tomonida qayd etilgan summalar o'rtasidagi farq qoldiq yoki saldo deb nomlanadi. Qoldiqlar schyotning qaysi tomonida qolishiga qarab debetli yoki Kreditli bo'lishi mumkin. Agar qoldiq bo'lmasa schyot yopilgan hisoblanadi. Schyotning yangi qoldig'ini aniqlash uchun qoldiq mavjud bo'lgan (debet yoki Kredit) tomonning qoliq summasi oborot (jami aylanma) summasiga qo'shib, unga teskari bo'lgan tomonning oborot (jami aylanma) summasi ayiladi. Schyotlardagi qoldiq schyotning tavsifiga bog'liq bo'lib, aktiv schyotlarning qoldig'i doimo debet tomonida, passiv schyotlarning qolig'i esa Kredit tomonida bo'ladi.

Quyida aktiv, passiv va tranzit schyotlarning ta'rifini keltiramiz:

aktiv schyot		Passiv schyot		Tranzit schyot	
D-t	K-t	D-t	K-t	D-t	K-t
<b>Q<sub>ob</sub></b>			<b>Q<sub>ob</sub></b>	-	-
<b>D-t<sub>o</sub></b>	<b>K-t<sub>o</sub></b>	<b>D-t<sub>o</sub></b>	<b>K-t<sub>o</sub></b>	<b>D-t<sub>o</sub></b>	<b>K-t<sub>o</sub></b>
<b>Q<sub>oo</sub></b>			<b>Q<sub>oo</sub></b>	-	-

Bu yerda: **Q<sub>ob</sub>** - Qoldiq (saldo) oy boshiga;

**D-t<sub>o</sub>** – Debet oborot (aylanma);

**K-t<sub>o</sub>** – Kredit oborot (aylanma);

**Q<sub>oo</sub>** – Qoldiq (saldo) oy oxiriga.

Ya'ni, aktiv schyotning oy oxiriga qoldig'ini topish uchun:  $Q_{oo} = Q_{ob} + D-t_o - K-t_o$   
passiv schyotning oy oxiriga qoldig'ini topish uchun:  $Q_{oo} = Q_{ob} + K-t_o - D-t_o$   
tranzit schyotda esa qoliq bo'lmaydi (yopilib ketaidi).

**1.1-muomala.** Faraz qilaylik oy boshida kassada (“Milliy valyutadagi pul mablag'i”) 2000 so'm bor. Oy davomida 5-sanada bankdagi hisob-kitob schyotidan 20000 so'm kassaga qabul qilindi, 6-sanada kassadan ish haqiga 19000 so'm berilgandi, 15-sanada kassaga savdo pulidan 15000 so'm qabul qilindi va shu 15-sanada bankdagi hisob-kitob schyotiga 15000 so'm savdo puli topshirildi.

Bu to'rtta muomala kassa- “Milliy valyutadagi pul mablag'i” schyotida quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

#### 5010- “Milliy valyutadagi pul mablag'i” schyoti

D-t	K-t
<b>Q<sub>ob</sub> =2000</b>	
1) 20000	2) 19000
3) 15000	4) 15000
<b>D-t<sub>o</sub> = 35000</b>	<b>K-t<sub>o</sub> = 34000</b>
<b>Q<sub>oo</sub> = 3000</b>	

Bu schyotdagи oxirgi qoldiq faqat debetda bo'ladi. Chunki, mavjud naqd puldan ortiqcha (yo'q pulni) sarflash mumkin emas.

**1.2-muomala.** “Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to’lanadigan schyotlar” muddasi korxona mablag'lari manbaini aks ettiradi. Balansda unga yozilgan summa-

korxonaning mol etkazib beruvchilarga bo'lgan qarzi miqdorini ko'rsatadi. Bu modda bo'yicha boshlang'ich qoldiq 40000 so'mga teng deylik. Bu modda bo'yicha bo'ladijan o'zgarishlar (muomalalar) korxonaning qarzini oshishini yoki kamayishini bildiradi. *Faraz qilaylik, uchta xo'jalik muomalasi sodir bo'lgan: 1-si- korxona mol etkazib beruvchidan bo'lgan qarzini joriy oyning 5-sanasida 15000 so'mga uzgan, 2-si- 10-sanada korxona mol etkazib beruvchidan 20000 so'mlik tovarlar qabul qilgan, 3si- 25-sanada korxona mol etkazib beruvchidan bo'lgan qarzini 35000 so'mga uzgan.*

Mol etkazib beruvchilarga doir muomalalarini hisobga olish uchun schyotlar rejasida 6010- "Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar" passiv schyot belgilangan. Bu xo'jalik muomalalarini ushbu schyotda aks ettirilishi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

#### 6010- "Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar" schyoti

<b>D-t</b>	<b>K-t</b>
1) 15000 3) 35000	<b>Q<sub>ob</sub> = 40000</b> 2) 20000
<b>D-t<sub>o</sub> = 50000</b>	<b>K-t<sub>o</sub> = 20000</b>
	<b>Q<sub>oo</sub> = 10000</b>

Ya'ni,  $(40000+20000) - 50000 = 10000$  so'm.

Shunday qilib, mablag'lar turlarini yoki ularning manbalarini hisobga olishga qarab, schyotlar **aktiv** va **passiv schyotlarga** bo'linadi.

Mablag'lar turlarini hisobga oluvchi schyotlar aktiv, ularning manbalarini aks ettiruvchi schyotlar esa – passiv schyotlar deb ataladi.

Xo'jalik mablag'larining turlarini aks ettiruvchi – aktiv schyotlarda hisobga olinadigan ob'ektlarning qoldiqlari va ko'payishi debetiga, kamayishi esa Kreditiga yoziladi. Mablag'lar manbalarini hisobga olish uchun xizmat qiladigan – passiv schyotlarda qoliqlar va ko'payishlari Kreditida, kamayishi esa – debetda ko'rsatiladi.

Lekin, buxgaltyeriya hisobida qator murakkab schyotlar ham borki, ular o'zlarining tuzilishiga ko'ra bunday oddiy tarzdagi schyotlardan farq qiladi. Bu schyotlarga xo'jalik jarayonlari, xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari, topshiriqlarning bajarilishini hisobga oladigan schyotlar kiradi. Ya'ni, bu schyotlarga kontr-aktiv, kontr-passiv va tranzit schyotlarni kiritish mumkin. Bu schyotlarda hisobga olinadigan ob'ektlarning xususiyatlari aks ettirilib, ular ham aktiv va passiv schyotlarga mansubdir.


Schyotlardan to'g'ri foydalanish uchun- u yoki bu schyot yordamida qanday ob'ektlar hisobga olinishini bilish maqsadida ularni tasniflash lozim.

Bunday schyotlarni turkumlash ikki belgi asosida tuziladi: qanday maqsadda tayinlanishi va iqtisodiy mazmuniga qarab.

Schyotlarning **qanday maqsadlarda** tayinlanishi deganda, u yoki bu schyot qanday ob'ektni hisobga olish uchun muljallangani hamda ularning debeti yoki Kreditga yozilishining mazmuni qanday, ularning saldosи qanday xususiyatga ega ekanligi tushuniladi.

Schyotlarning **iqtisodiy mazmuniga** ko'ra turkumlanishi deganda, u yoki bu schyotda nima hisobga olinadi, ya'ni unda qanday aniq iqtisodiy ob'ektni aks ettirilishi tushuniladi.

Schyotlarning xususiyatlarini bilish va ulardan amaliyotda to'g'ri foydalanish uchun ularni tayinlanish maqsadini va iqtisodiy mazmunini o'rganish zarur. Shunday keyingina ulardan boshqaruv ishlarida to'g'ri foydalanish mumkin. Schyotlarni qanday maqsadlarga mo'ljallanganligi va iqtisodiy mazmuniga ko'ra turkumlanishini Quyidagi chizma asosida ifodalash mumkin (3.1-chizma):



### **3.1-chizma. Buxgaltyeriya hisobi schyotlarining tuzilishi va tayinlanishi bo'yicha tasnifi**

#### **3.2. Asosiy va tartibga soluvchi schyotlar**


**Asosiy schyotlar.** Bu schyotlar mablag'lar turlarining (aktiv) mavjudligi va harakati ustidan hamda ularning manbalarini (passiv) nazorat qilish uchun ishlatalidi.

Asosiy schyotlarning xususiyati shundan iboratki, agar ularda qoldiq mavjud bo'lsa, ularni hammasi balans tarkibiga kiritiladi.

O'zining tuzilishi va qanday maqsadga mo'ljallanganligiga qarab asosiy schyotlar asosiy aktiv hamda asosiy passiv schyotlarga bo'linadi.

**Asosiy aktiv schyotlar** moddiy va pul mablag'larining mavjudligini, harakatini hisobga olish hamda debetorlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Asosiy aktiv schyotlarni quyidagi chizma asosida guruhlash mumkin (3.2-chizma):



### 3.2-chizma. Asosiy aktiv schyotlarning guruhlanishi


Xulosa qilib aytganimizda, bu asosiy aktiv schyotlarning ko'payishi uning debet tomonida, kamayishi esa Kredit tomonida aks ettiriladi. Schyotning saldosi ham doimo debet tomonida qoladi va agar bu schyotlarning saldosi mavjud bo'lsa balans tarkibiga kiritiladi (saldo summasi balansa aks ettiriladi).

Buni qisqacha qilib quyidagicha ifodalash mumkin:

D-t	K-t
Boshlang'ich qoliq (saldo)-+ moddiy va pul mablag'larining kirimi (asosiy aktiv schyotlarning ko'payishi)	Moddiy va pul mablag'larining kamayishi, qarzlarning uzilishi (asosiy aktiv schyotlarning kamayishi)
Oxirgi qoldiq (saldo)	

**Asosiy passiv schyotlarda** mablag'larning manbalari aks ettirilib, bu schyotlar manbalarni nazorat qilish uchun ishlataladi.

Asosiy passiv schyotlarni quyidagi chizma asosida guruhlash mumkin (3.3-chizma):



### 3.3-chizma. Asosiy passiv schyotlarning guruhanishi

Xulosa qilib aytganimizda, bu asosiy passiv schyotlarning ko'payishi uning Kredit tomonida, kamayishi esa debet tomonida aks ettiriladi. Schyotning saldosini ham doimo Kredit tomonida qoladi va agar bu schyotlarning saldosini mavjud bo'lsa balans tarkibiga kiritiladi (saldo summasi balansa aks ettiriladi).

Buni qisqacha qilib quyidagicha ifodalash mumkin:

D-t	K-t
Aylanma kapitalning kamayishi (qarz-larning uzilishi yoki korxonaga oldin berilgangan mablag'larning olib qo'yilishi), moliyalashning hisobdan chiqarilishi, korxona majburiyatlari yoki qarzlarining kamayishi.	Boshlanfich қолик (сальдо)- + korxonaning mavjud fondi, olgan moliyaviy majburiyatlari yoki qarzining ko'payishi. Aylanma fondining ko'payishi, (qoshimcha qo'yilmalar, fondlarga ajratmalar).
Oxirgi qoldiq (saldo)	

**Tartibga soluvchi schyotlar.** Bu schyotlar mablag'larning baholanishi yoki mablag'lar manbalarining summalarini tuzatish (korrektivlash) uchun muljallangan. Bu yerda tuzatish uchun joriy buxgaltyeriya hisobi tizimidagi asosiy schyotlardan tashqari u bilan bog'langan holda alohida schyot kiritish va bu schyot summasini mazkur ob'ektning haqiqiy bahosini topish maqsadida asosiy schyotning summasidan ayirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tartibga soluvchi schyotlardan foydalanish hisob ob'ektlarini har tomonlama tavsiflovchi real hisob ma'lumotlarini olish imkoniyatini byeradi.

Tartibga soluvchi schyotlar hisob ob'ektlarini ikki xil summada (baholashda) aks ettiruvchi ikki ko'rsatkichga ega bo'lish imkonini ham byeradi.

Tartibga soluvchi schyotlar kontrar, to'ldiruvchi va kontrar-to'ldiruvchi schyotlarga bo'linadi.

**Kontrar schyotlar** tartibga solinuvchi ob'ektning haqiqiy hajmini topish uchun tartibga soluvchi schyot summasini ushbu ob'ektning dastlabki bahosidan ayirib tashlash yo'li bilan aniqlashga xizmat qiladi. Uning ikki turi mavjud: **kontraktiv** va **kontrpassiv** (ya'ni, aktivga qarshi va passivga qarshi). Kontraktiv schyotlar asosiy aktiv schyotlarga qarama-

qarshi qo'yiladi va passiv schyot hisoblanadi. Kontrpassiv schyotlar esa aksincha, asosiy passiv schyotlarga qarama-qarshi qo'yiladi va aktiv schyot hisoblanadi.

**Kontraktiv schyotga** misol qilib, “Asosiy vositalarning eskirishi” schyotini olish mumkin. Bu schyot yordamida olinadigan ma'lumotlarni xususiyatini aniqlash uchun bu schyotga bog'liq bo'lgan –asosiy vositaning boshlang'ich qoldig'i summasini ifodalaydigan “Asosiy vositalar” schyotini ham olamiz.

Buni quyidagicha ifodalash mumkin:



$$\mathbf{A - B = V}$$

Bu yerda: A – tartibga solinuvchi moddaning boshlang'ich qiymati (asosiy aktiv schyot);

B – boshlang'ich bahosidan ayirib tashlanadigan tartibga soluvchi moddaning summasi (kontraktiv schyot);

V – tartibga solinadigan moddaning haqiqiy summasi.

**Kontraktiv schyotlar tarkibiga** 0200-“Asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlar”, 0500-“Nomoddiy aktivlar amortizasiyasini hisobga oluvchi schyotlar”, 2980-“Savdo ustamasi”, 4910-“Dargumon qarzlar bo'yicha rezyerv” schyotlari kiradi.

**Kontrpassiv schyotlar qatoriga** 8600-“Sotib olingan o'z aksiyalari”, 9040-“Sotilgan tovarlarni qaytarish” va 9050-“Xaridor va buyurtmachilarga berilgangan chegirmalar” schyotlarini kiritilgan.

Kontrpassiv schyotlarning tuzilishini 8600-“Sotib olingan o'z aksiyalari” schyoti misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu schyot 8310-“Oddiy aksiyalar” va 8310-“Imtiyozli aksiyalar” schyotlariga nisbatan kontrpassiv bo'lib, aksionyerlik jamiyatining aksiyadorlik kapitalini kamayishini ko'rsatadi va balansa ko'rsatiladigan ustav kapitalining umumiy summasidan chegiriladigan summa hisoblanadi.

Buni quyidagicha ifodalash mumkin:



$$\mathbf{G - D = E}$$

Bu yerda: G – tartibga solinuvchi moddaning boshlang'ich qiymati (asosiy passiv schyot);

D – boshlang'ich summadan ayirib tashlanadigan tartibga soluvchi moddaning summasi (Kontrpassiv schyot);

E – tartibga solinadigan moddaning haqiqiy summasi.

Kontrar schyotlarning saldolari hech qachon tartibga solinuvchi schyotning mavjud bo'lgan summasidan oshmaydi yoki shu summa miqdoridagina aks ettiriladi.

**To'ldiruvchi schyotlar** tartibga solinuvchi ob'ektlarning haqiqiy miqdorini aniqlash uchun moljallangan. Ya'ni, uning dastlabki baholanishiga tartibga soluvchi schyot summasini qo'shish yo'li bilan aniqlash uchun mo'ljallangan. To'ldiruvchi schyotlar tarkibiga xususan 1610-“Matyeriallar qiymatidagi og'ishishlar” aktiv schyoti kiradi.

Matyeriallar buxgaltyeriya hisobida yagona hisob bahosida yuritilganda, sotib olingan matyeriallarning hisob bahosidan og'ishishi hisobga olinadi. Matyeriallarning haqiqiy

qiymatini aniqlashda 1000-schytolardagi yagona hisob bahosiga 1610- “Matyeriallar qiymatidagi og'ishishlar” schyotining summasi qo'shilib hisobotda ko'rsatiladi.

### 3.3. Yig'ib taqsimlovchi va kalkulyatsiya schyotlari

Yig'ib taqsimlovchi schyotlar korxonaning ba'zi xarajatlari ustidan nazorat qilish va ularning to'g'ri taqsimlanishini ta'minlash (shu jumladan, ayrim faoliyat tannarxini ham aniqlash) uchun tayinlangan.

Yig'ib taqsimlovchi schyotlar u yoki bu xo'jalik jarayonlari bo'yicha xarajatlarni, keyinchalik taqsimlash maqsadida yig'ish uchun qo'llaniladi. Ular aktiv schyotlardir, chunki ularda mablag'lар (xarajatlar) harakati hisobga olinadi. Bu schyotlarda yig'iladigan summalar mazkur ob'ekt bo'yicha barcha xarajatlar hisobga olinadigan schyotlarga o'tkaziladi (hisobdan chiqariladi). Yig'ib taqsimlovchi schyotlar ikki sababga ko'ra zarurdir: birinchidan, ba'zi xarajatlarni bir necha ob'ektlar o'ttasida taqsimlash kerak bo'ladi. Ya'ni, bu xarajatlar egri (bilvosita) xarajatlar hisoblanib, ularga umumishlab chiqarish xarajatlari kiradi. Ikkinchidan, bu schyotlar shu sarflar smetasining bajarilishi ustidan nazorat qilish uchun qo'llaniladi. Shu sababli ham ular bir turdag'i faoliyat ko'rsatadigan va egri xarajatlarni taqsimlashga ehtiyoji bo'lman korxonalarda ham yuritilishi mumkin.

Biz buni 2510- “Umumishlab chiqarish xarajatlari” schyoti misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu schyotning debetida umumishlab chiqarishga xizmat qilish va uni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar yig'iladi. Kreditida esa, ularning summalarini tegishli xarajat ob'ektlariga (faoliyat turlari bo'yicha schyotlarga o'tkazilishi) taqsimlanib hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi. Bunda umumishlab chiqarish xarajatlarining katta qismi “Asosiy ishlab chiqarish” schyotiga o'tkaziladi, ya'ni mahsulot tannarxiga kiritiladi. Umumishlab chiqarish xarajatlari hisobot davrining oxirida hisobdan chiqariladi va taqsimlanadi. Bunda debetda yig'ilgan hamma summa hisobdan chiqarilib, hisobot davrining oxiriga hech qanday qoldiq bo'lmaydi.

Yig'ib taqsimlovchi schyotlarini quyidagi ko'rinishda ta'riflash mumkin:

A schyot	Yig'ib-taqsimlovchi schyot		G schyot
D-t	K-t	D-t	K-t
qoldiq	1za	1za	4zg
B schyot			D schyot
D-t	K-t	D-t	K-t
qoldiq	2zb	2zb	4zd
V schyot			E schyot
D-t	K-t	D-t	K-t
qoldiq	3zv	3zv	4ze

**a+b+v = M = g+d+e**

Bu yerda: 1,2,3-muomalalar-har xil xarajatlarning yig'ilishi;

4- muomala- xarajatlarning xarajat ob'ektlari bo'yicha taqsimlanishi, hisobdan chiqarilishi.

Bu schyotlar bo'yicha xarajatlar belgilangan tartibda xarajat ob'ektlari o'ttasida taqsimlanadi.

Bundan tashqari, bu schyotlar yordamida xarajatlar va daromadlar bir -biriga bog'liq holda davrlar bilan chegaralanadi va ular qachon amalga oshirilganidan (olanganidan) qat'i nazar, tegishli davrlarning xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlariga kiritiladi.

Taqsimlovchi schyotlar kelgusi davr xarajatlari va daromadlari schyotlariga hamda kelajakda qilinadigan xarajatlar va olinadigan daromadlar schyotlariga bo'lindi. Amaliyotda bu schyotlardan foydalanish biroz cheklangan. Asosan, 3100- “kelgusi davr xarajatlari” aktiv schyoti, “Kulgusi davr daromadlari” (6200,7200) va 4910-“Dargumon qarzlar bo'yicha zahiralar” deb nomlangan passiv schyotlardan foydalanyladi.

“Kelgusi davr xarajatlari hisobi” schyotida joriy davrda qilingan, lekin kelgusi davrlarga tegishli bo’lgan korx’ona xarajatlarini anglatuvchi ijara to’lovlar, xizmatlar haqi va boshqa kelgusi davr xarajatlari aks ettiriladi. keyinchalik bu summa “Umumishlab chiqarish xarajatlari” schyotiga o’tkaziladi va qaysi davrga tegishli bo’lsa, o’sha davr xizmatlari tannarxiga kiritiladi. Ularni hisobdan chiqarish bosqichma-bosqich bir necha davr mobaynida qilingan ijara to’lovlariga muvofiq miqdorlarda amalga oshiriladi.

Kelgusi davr xarajatlarini hisobga olishni quyidagicha ifodalash mumkin:

“Turli Kreditorlardan qarzlar”		“Kelgusi davr xarajatlari hisobi” schyoti		“Asosiy ishlab chiqarish” schyoti	
D-t	K-t	D-t	K-t	D-t	K-t
1za 2010 y.da	1za yanvarda 3zb 4zg martda	2zb 2010 y.	3zb 4zg 2010 y. y. va h.K.	2zb	

### “Kelgusi davr xarajatlari hisobi” schyoti

D-t	K-t
Boshlang’ich qoldiq –ya’ni o’tgan davrlarda qilingan, lekin joriy yoki kelgusi davrlarga tegishli xarajatlar.	
Aylanma- ya’ni kegusi davrlar uchun joriy davrda qilingan xarajatlar.	Aylanma- ya’ni o’tgan davrlarda qilingan xarajatlarni qaysi davrga tegishli bo’lsa, o’sha davr chiqimlariga hisobdan chiqarilishi.
Debetli oxirgi qoldiq -	

“Kelgusi davr xarajatlari hisobi” schyotida olingan yangi mahsulot turlarini o’zlashtirish xarajatlaridan tashqari rasionalizasiyalash, takliflarni tayyorlash bo'yicha va shu kabi xarajatlar ham hisobga olinadi.

“Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar” schyoti hisobot davrida olingan, lekin kelgusi davrlarga tegishli bo’lgan daromadlarni hisobga olish uchun mo’ljallangan. Jumladan, unda oldindan olingan ijara yoki kvartira haqi, kommunal xizmatlar uchun to’lovlar, aloqa vositalaridan foydalanganlik uchun abonent to’lovi va shu kabi daromadlar aks ettiriladi.

Oldindan olingan ijara haqi (6230, 7230) bilan bog’liq bo’lgan muomalalarni aks ettirilishi misolida ko’rib chiqamiz.

**3.1-muomala.** Hisob-kitob schyotiga 2012 yil 1-choragi hisobidan 2011 yilning dekabrida mazkur korxona tomonidan vaqtincha bo’sh to’rgan ombor binosini ijaraga berilganligi uchun ijara haqi kelib tushgan- 45000 so’m.

**3.2-muomala.** 2012 yil yanvarining daromadi hisoblangan ijara haqi hisobidan chiqarilgan -15000 so’m.

Bu holda ularni schyotlarda aks ettirilishi quyidagicha bo’ladi:

“Qisqa muddatli ijaraidan olinadigan daromadlar” (6230)	“Boshqa muddat uzaytirilgan daromadlar” (7230) schyoti	“Hisob-kitob” (5110) schyoti
---	--	------------------------------

D-t	K-t	D-t	K-t	D-t	K-t
2) 15000		2) 15000	1) 45000	1) 45000	

Misoldan ko'riniib turibdiki, kelgusi davr daromadlarini hisobga olishda mazkur davrda kelib tushgan, lekin kelgusi davrlarga tegishli bo'lgan daromad summalarini "Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar" (7230) schyotining Kreditida ("hisob-kitob" (5110) schyotining debeti bilan bog'liqlikda) aks ettirib, so'ng ular tegishli bo'lgan davrlar etib kelgandan keyin shu schyotning debetida "Qisqa muddatli ijaradan olinadigan daromadlar" (6230) schyotining Kreditiga ushbu davrning daromadi sifatida hisobdan chiqariladi.

Bunda "Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar" (7230) schyotining tafsifi quyidagicha bo'ladi:

### **"Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar" (7230) schyotining tavsifi**

<b>D-t</b>	<b>K-t</b>
	Boshlang'ich qoldiq -ya'ni o'tgan davrlarda olingen, lekin joriy yoki kelgusi davrlarga tegishli bo'lgan daromadlar.
Aylanma- ya'ni o'tgan davrlarda olin-gan daromadlarni ular tegishli bo'lgan foydasiga hisobdan chiqarilishi.	Aylanma- ya'ni kelgusi davrlar hisobi-dan mazkur (joriy) davrda olingen davr daromadlar.
	Kreditli oxirgi qoldiq -

"Dargumon qarzlar bo'yicha zahiralar" schyoti uzilish muddati o'tib ketgan va ular haqiqiy kuchga ega bo'lgan zaruriy hujjatlar (majburiyatlar yoki kafilliklar) bilan ta'minlanmagan debetorlik qarzlarini qoplash maqsadidagi summalarini hisobga olish uchun mo'ljallangan.

Dargumon qarzlarni uzish uchun rezyerv kapitaliga ajratmalar summasini hisob-kitob qilishning ikki usuli qo'llaniladi.

**Birinchi usulning** mohiyati shundan iboratki, ko'p yillik (bir necha yil uchun) kuzatuvalar asosida hisob-kitob qilish uchun asos bo'lib hisoblanadigan xaridorlar va buyurtmachilarining debetorlik qarzlarini umumiyligi summasida dargumon qarzlarning foizi aniqlanadi. Dargumon qarzlarni uzish uchun rezyerv kapitali sof foya hisobidan hosil qilinadi, yil davomida debetorlardan undirilmagan qarzlar esa "Dargumon qarzlar bo'yicha zahiralar" schyotiga o'tkazilib boriladi. Hisobot yilining oxirida zahira summasi etmay qolsa, xaridorlar va buyurtmachilarining debetorlik qarzlarining haqiqiy summalariga muvofiq ravishda qo'shimcha zahira ajratiladi.

**Ikkinci usul** hisobot sanasiga dargumon deb hisoblangan har bir qarz bo'yicha zahira (rezyerv kapitali)ga ajratmalar qilinishi nazarda tutiladi.

Dargumon qarzlar bo'yicha zahira-sotishdan olingen tushumni yuklab jo'natish (hisoblash) usuli bo'yicha hisob yuritadigan korxonalar tomonidan tashkil etiladi.

Dargumon qarzlarni uzish uchun zahira korxonaning debetorlik qarzlarini yo'qlama qilish natijalari bo'yicha yaratiladi. Zahiraning zaruriy summasi qarzdorning moliyaviy ahvoli va to'lov qobiliyatiga, qarzning to'la yoki qisman uzilish ehtimolining baholanishiga qarab, har bir dargumon qarz bo'yicha alohida aniqlanadi. Agar zahira yaratilgan yildan keyingi yil oxirigacha aniq bir dargumon qarz bo'yicha zahiradan foydalanilmasa, zahiraning summasi shu yilning foydasiga qo'shib qo'yiladi.

Undirib olishi dargumon bo'lgan debetorlik qarzining zahira schyotiga hisobdan chiqarilishi, da'vo qilish muddatiga, arbitraj va sud tashkilotlarining qarzlarni undirish haqidagi da'volarni inkor qilishi qarorlarini olish yoki qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi e'lon qilinganligiga qarab amalga oshiriladi.

**Kalkulyasiya schyotlari.** Bu schyotlar xo'jalik mablag'lari- kelib tushgan matyeriallar (mahsulotlar), bajaligan ishlar va xizmatlar tannarxini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Tannarxni hisoblab chiqishga yordam byeradigan hisob-kitob **kalkulyasiya** deb nomlanadi. Shundan kelib chiqib, kalkulyasiyani tuzish uchun kerakli ma'lumotlarni beruvchi schyotlar **kalkulyasiya schyotlari** deb ataladi.

**Tannarx** kalkulyasiyalanadigan ob'ektlarga tegishli bo'lgan chiqimlarni ushbu schyotlarning debetida yig'ish yo'li bilan hisoblab chiqiladi, chunki bu chiqimlar summalarini mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmatlarni bajarish uchun qilingan sarflardir. Shuning uchun kalkulyasiya schyotlari aktiv schyotlar hisoblanadi.

Kalkulyasiya schyotlarining tuzilishini “Asosiy ishlab chiqarish” (2010) schyoti misolida ko'rib chiqamiz.

**1-muomala.** *Makkajo'xori etishtirish mavsumida 2 ga ekin maydoniga 60000 so'mlik agrotexnika tadirlari uchun xarajatlar amalga oshirildi.*

**2-muomala.** *Ekin maydoniga 40 kgdan 80 kg, 96000 so'mlik urug'lik sarflandi.*

**3-muomala.** *Ekin maydoniga 300 kg- 210000 so'mlik azotli o'g'it, 200 kg-60000 so'mlik fosforli o'g'it, 110 kg- 27500 so'mlik Kaliyli o'g'it, jami-297500 so'mlik o'g'itlar sarflangan.*

**4-muomala.** *Ekin maydoni ishchilariga makkajo'xorini etishtirish davri mobaynida 420000 so'm ish haqi hisoblangan.*

**5-muomala.** *Hisoblangan ish haqi fondiga nisbatan 105000 so'm yagona ijtimoiy to'lov majburiy ajratmasi hisoblangan.*

**6-muomala.** *Ekin maydonidagi makkajo'xorini etishtirish va yig'ishtirib olishda ishtirok etgan texnika hamda transport vositalariga 16700 so'mlik eskirish hisoblangan.*

**7-muomala.** *Boshqa qilingan bilvostita xarajatlar -23300 so'mni tashkil etgan.*

**8-muomala.** *Agar makkajo'xori maydonining yarimidan 280 s makka silosi yig'ishtirib olingan bo'lsa, uning reja tannarxi 560000 so'mni tashkil etsa.*

Bu xo'jalik muomalalarini “Asosiy ishlab chiqarish” (2010) schyotida quyidagicha aks ettirish mumkin:

Bu schyotning debetda keltirilgan 7 ta xo'jalik muomalalari makka silosi ishlab chiqarish uchun sarflangan turli xarajatlarni anglatadi, 8-muomalaning summasi esa, olingan tayyor em-xashak (tayyor mahsulot)ning reja tannarxida hisobdan chiqarilishini bildiradi. Qishloq xo'jaligida haqiqiy tannarx tayyor mahsulotlar to'liq yig'ishtirib olingandan so'ng aniqlanadi va agar reja tannarxi haqiqiy tannarxdan kam bo'lsa tannarx farqi summasi qo'shib, haqiqiy tannarxga etkazib qo'yiladi. aksincha bo'lsa, farq summasi ayrilib haqiqiy tannarx summasiga tenglashtirilib qo'yiladi.

### “Asosiy ishlab chiqarish” (2010) schyoti

<b>D-t</b>	<b>K-t</b>
Boshlang'ich qoldiq –0.	
1) 60000	8) 560000
2) 96000	
3) 297500	
4) 420000	
5) 105000	
6) 16700	
7) 23300	
Debet aylanma jami – 1018500 so'm	Kredit aylanma jami - 560000 so'm
Debetli oxirgi qoldiq – 458500 so'm	

Kalkulyasiya schyotlarining tafsifi quyidagicha bo'ladi:

### Kalkulyasiya schyotlarining tavsifi

<b>D-t</b>	<b>K-t</b>
Boshlang'ich qoldiq –ya'ni tugallanmagan ob'ektlar (ishlab chiqarilishi tugallanmagan mahsulot, ish, xizmatlar tugallanmagan ta'mirlash va b.) bo'yicha o'tgan davrlarda qilingan chiqimlar.	

Aylanma- ya'ni kalkulyasiyalanadigan ob'ektlarbo'yichajoriy davr chiqimlari.

Aylanma- ya'ni tugallangan ob'ektlar (tayyorlangan mahsulot, bajarilgan ishlar va xizmatlar) tannarxini hisobdan chiqarilishi.

—Debetli oxirgi qoldiq —

Kalkulyasiya schyotlarining debetida mahsulot, ish va xizmatlar tannarxi kelib chiqadigan barcha xarajatlar (sarflar) yig'iladi. Uning Kreditidan mahsulot, ish va xizmatlar tannarxi hisobdan chiqariladi. Bu schyotlardagi qoldiq faqat debetli bo'ladi va u tugallanmagan ishlab chiqarishga (ish va xizmatlarga) qilingan xarajatlarni, ya'ni tugallanmagan ishlab chiqarish (ish va xizmatlar) tannarxini anglatadi.

Kalkulyasiya schyotlar tarkibiga 2010-“Asosiy ishlab chiqarish”, 0800- “Kapital qo'yilmalar”, 2310- “Yordamchi ishlab chiqarish”, 2610- “Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulot”, 2710- “Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar” schyotlari kiradi.

### **3.4. Solishtiruvchi (taqqoslovchi) va balansdan tashqari schyotlar**

Solishtiruvchi schyotlar xo'jalik jaryonidan olingen moliyaviy natijalarini aniqlash uchun mo'ljallangan. Oligan moliyaviy natijalar ushbu jarayonlarni tafsiflovchi ikki har xil (debet va Kredit) aylanma (oborot)larni solishtirish yo'li bilan topiladi. Shundan kelib chiqqan holda, xo'jalik jarayonlarining moliyaviy natijalarini aniqlash uchun qo'llaniladigan schyotlarga **solistiruvchi schyotlar** deyiladi. Bu schyotlardagi aylanmalarni solishtirish, ularning birini –debetda, boshqasining esa-Kreditida aks ettirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Debet bilan Kredit o'tasidagi farq qidirilayotgan natijani anglatadi. Bunda aks ettirilayotgan muomalalarning xususiyatiga qarab, farq debetda yoki Kreditda bo'lishi mumkin.

Solishtiruvchi schyotlarning tuzilishini “Yakuniy moliyaviy natija” (9910) schyoti misolida ko'rib chiqamiz.

Foydalar “Yakuniy moliyaviy natija” schyotining Kreditida, zararlar esa- debetda yig'ilib boriladi. korxona ish faoliyatining pirovard moliyaviy natijalarini ushbu schyotning debet bilan Kreditini solishtirish yo'li bilan aniqlanadi.

Agar korxonaning yalpi foydasi summasini ko'rsatuvchi Kredit tomon aylanmasi ushbu korxona tomonidan qilingan xarajatlar, yalpi zararlar (debet tomon aylanmasi) summasidan ko'p bo'lsa, unda debet va Kredit o'tasidagi farq korxona tomonidan olingen foydani anglatadi. Agar Kredit aylanma debet aylanmadan Kam bo'lsa, debet saldo (qoldiq) ko'rilgan zararni anglatadi.

Solishtiruvchi schyotlarining tafsifi quyidagicha bo'ladi:

#### **Solishtiruvchi schyotlarining tavsifi**

**D-t**

**K-t**

Aylanma – ya'ni, korxona tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar (sotilgan resurslar to'la tannarxi va b.lar) solishtiriluvchi summa.

Aylanma – ya'ni, korxonaning foydasi, sotilgan resurslarning sotish qiymati va b.lar. solishtiriluvchi summa.

Solishtiruvchi (taqqoslovchi) schyotlar tarkibiga 9910 - “Yakuniy moliyaviy natija”, 9210 – “Asosiy vositalarning tugatilishi” va 9220 –“Boshqa aktivlarning tugatilishi” schyotlarini kiritish mumkin. Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning tugatish jarayoni nihoyasiga etganidan so'ng bu schyotlarning debet va Kredit aylanma summalarini o'zaro solishtirilib moliyaviy natija aniqlanadi. Shuning uchun ham bu schyotlarni taqqoslovchi schyotlar deyish mumkin.

**Balansdan tashqari schyotlar.** Buxgaltyeriya schyotida qo'llaniladigan schyotlar balansa har xil tarzda aks ettiriladi. Qoldiqqa ega bo'lgan schyotlar balans jadvalida uning moddalari sifatida aks ettirilib, ularning summalarini balans yakuniga kiritiladi. Ba'zi bir schyotlar esa, garchi ularning qoliqlari bo'lsa ham balansa kiritilmaydi. Balki balans

yakuni tagida, balansdan tashqaridagi moddalar sifatida ko'rsatiladi va ularning summalari balans yakuniga qo'shilmaydi. Buning sababi, u yoki bu schyotlarda hisobga olinadigan mablag'larning kimga tegishliliga bog'liq. Balansa faqat ushbu korxonaga tegishli va korxona rahbariyati ixtiyori bilan foydalanish mumkin bo'lgan mablag'lar aks ettiriladi. Ushbu korxonaniki bo'limgan, lekin uning cheklangan foydalanishida yoki ixtiyorida bo'lgan mablag'lar, balans yakunining tashqarisida ko'rsatilishi kerak.

Ushbu schyotlarda korxonaga tegishli bo'limgan, lekin vaqtinchalik foydalanilayotgan yoki korxona javobgarligida bo'lgan, ixtiyorida bo'lgan (qisqa muddatli ijara molingan asosiy vositalar, ma'sul saqlashga va qayta ishlovga qabul qilingan moddiy qiymatliklar va b.lar) mavjud qiymatliklar, shartli huquq va majburiyatlarning mavjudligi va harakati to'g'risidagi axborotni umumlashtirish shuningdek, alohida xo'jalik muomalalari ustidan nazorat qilish uchun muljallangan.

Korxonada vaqtinchalik joylashgan mablag'lar moddalarini balansga kiritish uning resurslari hajmingi oshirib ko'rsatishga sabab bo'lar edi. Chunki, bu mablag'lar mulkiy jihatdan boshqa korxonaga tegishlidir.

Shuning uchun ham balansga bo'lgan munosabatiga qarab schyotlar ikki guruhga bo'linadi: *balansli va balansdan tashqari schyotlar*.

*Balansli schyotlarga* korxonaning to'la ixtiyorida bo'lgan mablag'lar holati va foydalanishini hisobga oladigan schyotlar kiradi. Ularni bir-biri bilan bog'liqligi o'zaro korrespondensiyalanishi ikki yoqlama yozuv asosida amalga oshiriladi.

*Balansdan tashqari* schyotlar nafaqat o'zaro bir-birlari bilan bog'liqlikda bo'lmaydi, balki ular boshqa balansli schyotlar bilan ham korrespondensiyalashmaydi (bog'liqlikda bo'lmaydi). Ular hisobning oddiy tizimi deb nomlangan tartibda yuritiladi. Bu schyotlar bo'yicha barcha muomalalar faqat bir tomonli yozuv bilan amalga oshiriladi. Ya'ni, schyotning kirimi va chiqimi faqat debetda yoki Kreditda yoziladi.

Ikki juft schyot o'rnilida bitta balansdan tashqari schyotning kiritilishi uning maqsadi va tuzilishini o'zgartirishga olib keladi, hisob yozuvlari sonini qisqartiradi, hisob texnikasini soddalashtiradi va uning nazorat xususiyatini hamda hisob ma'lumotlari sifatini saqlab qoladi.

Hozirgi vaqtida qo'llanilayotgan balansdan tashqari schyotlarning tavsifi quyidagi ko'rinishga ega:

### Balansdan tashqari schyotlarning tavsifi

<b>kirim</b>	<b>Chiqim</b>
Boshlang'ich qoldiq -ya'ni korxonaning cheklangan foydalanishida bo'lgan mavjud qiymatliklar hamda shu qiymatliklarga doir majburiyatlar.	
Aylanma- ya'ni shunday qiymatdiklarning kelib tushishi va ularni qaytarishga doir majburiyatlarning ko'payishi.	Aylanma- ya'ni korxonaning cheklangan foydalanishida joylashgan qiymatliklarning chiqib ketishi va shu qiymatliklarni egasiga qaytarishga doir majburiyatlarning kamayishi.
kirim oxirgi qoldiq -	

### 3.5. Buxgaltyeriya hisobi schyotlar rejasি

Bozor iqtisodiyoti sharoitida turli mulkchilik shaklidagi korxonalarining vujudga kelishi va rivojlanishi, xalqaro andozalarga mos bo'lgan hisob tizimi va schyotlar rejasini ishlab chiqishni talab qildi. Shu munosabati bilan Respublikamizda xalqaro andoza talablariga mos bo'lgan yangi buxgaltyeriya hisobi schyotlari rejası ishlab chiqildi. U O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 9 sentyabrdagi 103-sonli buyrug'i bilan O'zbekiston Respublikasi buxgaltyeriya hisobining milliy standarti (21-BHMS) – "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgaltyeriya hisobi schyotlar rejası va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnomasi"ni tasdiqladi va u O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirli tomonidan 2002 yil 23 oktyabrdan 1181-son bilan qayd qilindi.

Mazkur andoza O'zbekiston Respublikasi "Buxgaltyeriya hisobi to'g'risida" gi Qonunning 5- moddasiga muvofiq ishlab chiqarilgan va u byudjet muassasalari va banklardan tashqari, mulk shaklidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan 2004 yil 1 yanvardan boshlab ijro etilishi shart etib belgilandi.

Buxgaltyeriya hisobining schyotlari, xo'jalik yurituvchi sube'Ktlarning iqtisodiy resurslari holati va harakati to'g'risida buxgaltyeriya axborotlarini qayd qilish, saqlash, ma'lumotlarni umumlashtirish va nazorat qilish usulidir.

Buxgaltyeriya hisobi schyotlari balansga munosabatiga qarab ikki guruhga: balansli va balansdan tashqari schyotlarga bo'linadi.

Balansli schyotlar o'z navbatida qoldiqqa ega bo'lishiga ko'ra: qoldiqli (doimiy), yig'ib taqsimlovchi va qoldiqsiz (tranzit) schyotlarga bo'linadi.

Doimiy schyotlar, hisobot davrining oxirida qoldiqqa ega bo'lgan va buxgaltyeriya balansida aks ettiriladigan aktivlar, majburiyatlar va Kapital schyotlaridir. Doimiy schyotlar aktiv, passiv, kontraktiv va kontrpassivlarga bo'linadi.

Yangi schyotlar rejasida jami bo'lib 249 ta balansli va 14 ta balansdan tashqari schyotlardan iborat bo'lib, u moliyaviy hisobotlarni tuzishga moslashtirilgan.

Barcha schyotlar oltita qism bo'yicha tizimga keltirilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- I. Uzoq muddatli aktivlar;
- II. Joriy aktivlar;
- III. Majburiyatlar;
- IV. Xususiy Kapital;
- V. Moliyaviy natijalarning shakllanishi va ishlatilishi;
- VI. Balansdan tashqari schyotlar.

Birinchi va to'rt qism schyotlarining ma'lumotlariga asosan moliyaviy hisobotning 1-shakli – "Buxgaltyeriya balansi" tuziladi. Beshinchi qism "Moliyaviy natijalarning shakllanishi va ishlatilishi" schyotining ma'lumotlariga asosan "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" -2-shakl tuziladi.

Schyotlar rejasida barcha schyotlar 9 bo'limda tizimga keltirilib ko'rsatilgan:  
1-bo'lim. Asosiy vositalar, nomoddiy va boshqa uzoq muddatli aktivlar;  
2-bo'lim. Tovar- moddiy zahiralari;  
3-bo'lim. Kelgusi davr xarajatlari va muddati uzaytirilgan xarajatlar- joriy qismi;  
4-bo'lim. Olinadigan schyotlar – joriy qismi;  
5-bo'lim. Pul mablag'lari, qisqa muddatli investisiyalar va boshqa joriy aktivlar;  
6-bo'lim. Joriy majburiyatlar;  
7-bo'lim. Uzoq muddatli majburiyatlar;  
8-bo'lim. Kapital, taqsimlanmagan foyda va rezyervlar;  
9-bo'lim. Daromadlar va xarajatlar.

Birinchidan sakkizinchi bo'limgacha bo'lgan schyotlar balans tuzishga mos kelsa, 9-bo'lim schyotlari moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot tuzishga mos keladi.

Schyotlar rejasining birinchi qismi bir (1-bo'lim), ikkinchi qismi to'rt (2, 3, 4 va 5-bo'lim) lardan, uchinchi qismi ikki (6 va 7-bo'lim)lardan, to'rtinchi qismi bir (8-bo'lim)dan va beshinchi qismi (9-bo'lim)lardan iborat.

Yangi schyotlar rejasida schyotlar besh guruhlarga bo'lib ko'rsatilgan:

1. Aktiv schyotlar (**A**) – xo'jalik aktivlarini aks ettiradigan va iqtisodiy resurslarning hisobot davri boshidagi qoldig'ini va hisobot davridagi ko'payishini debet tomonida va shu davrdagi kamayishini Kredit tomonida aks ettiradigan schyotlar.

2. Passiv schyotlar (**P**) – xo'jalikning majburiyatlari va kapitalini aks ettirish uchun tayinlangan, hisobot davri boshidagi qoldiqni, hisobot davri mobaynidagi majburiyatlarni va kapitalning o'sishini Kredit tomonida va shu davrdagi majburiyatlar va kapitalning kamayishini debet tomonida aks ettiradigan schyotlardir.

3. Kontr – aktiv schyot (**КА**) – bu shunday schyotki, moliyaviy hisobotda aktivning sof qiymatini aks ettirish uchun uning qoldig'i unga bog'liq, bo'lgan aktiv schyotning qoldig'idan chegirib tashlanadi.

4. Kontr – passiv schyot (**KP**) – bu shunday schyotki, moliyaviy hisobotda majburiyat yoki kapitalning sof qiymatini aks ettirish uchun uning qoldig'i unga bog'liq bo'lgan passiv schyotning qoldig'idan chegirib tashlanadi.

5. Tranzit schyotlar (**T**) – hisobot davrida foydalaniladigan, lekin yopilib ketaidigan va hisobot davri oxirida qoldig'i bo'lmaydigan daromad va xarajatlarning vaqtinchalik schyotlaridir, bu schyotlarning ma'lumotlari moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladi.

Bundan tashqari schyotlar rejasida balansdan tashqari schyotlar ham mavjuddir.

Balansdan tashqari schyotlar (**BT**) – korxonaga tegishli bo'lмаган, ammo vaqtinchalik uning foydalanishida to'rgan mavjud aktivlar, shartli huquq va majburiyatlar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun tayinlangan schyotlardir.

Yangi schyotlar rejasida har bir balansli schyot to'rt raqamli, balansdan tashqari schyotlar esa uch raqamli kodlar bilan belgilangan. Schyotlar uchun belgilangan raqamlar ***schyotlarning kodi*** deyiladi.

Schyotlar rejasidagi schyotlar kodlaridan tashqari nomiga ham ega. ***Schyotning nomi*** – bu tub ma'noda schyotning o'zidir. Chunki, har bir shaxsning o'z familiyasi, nomi bo'lganidek schyotning nomi uning o'zini anglatadi.

Ayrim sub'ektlar tomonidan qo'llaniladigan schyotlar ro'yxatida farqlarning mavjudligi ikki xil schyotlar rejasini taqazo etadi: birinchisi – namunali, qonunchilik bilan belgilangan schyotlar rejasi, ikkinchisi – buxgaltyeriya hisobining ish schyotlar rejasi.

Har bir korxona umumiy qonunchilik bilan belgilangan schyotlar rejasiga asosan o'z ish schyotlari rejasini tuzib olishlari kerak. Ish schyotlar rejasida tanlab olingan schyotlar miqdori xo'jalik faoliyati turiga qarab barcha amalga oshiriladigan xo'jalik muomalalari hisobini ta'minlashi kerak.

Barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar namunali schyotlar rejasidan foydalanishga majburdir. Schyotlar rejasida ko'rsatilmagan schyotlarni qo'llash faqat O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

### **Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy – xo'jalik faoliyatining buxgaltyeriya hisobi schyotlar rejasi**

<b><i>Schyot lar T/r</i></b>	<b><i>Schyotlarning nomi</i></b>	<b><i>Schyot lar turi</i></b>
<b><i>I</i></b>	<b><i>2</i></b>	<b><i>3</i></b>
<b><i>I QISM. UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR</i></b>		
<b><i>1 – BO'LIM. ASOSIY VOSITALAR, NOMODDIY VA BOSHQ UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR</i></b>		
<b><i>0100</i></b>	<b><i>ASOSIY VOSITALARNI HISOBGA OLUVChI SChYoTLAR</i></b>	<b><i>A</i></b>
0110	Yer	
0111	Yerni obodonlashtirish	
0112	Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish	
0120	Bino, inshoot va uzatuvchi moslamalar	
0130	Mashina va asbob- uskunalar	
0140	Mebel va ofis jihozlari	
0150	Kompyutyer jihozlari va hisoblash texnikasi	
0160	Transport vositalari	
0170	Ishchi va mahsuldor hayvonlar	
0180	Ko'p yillik o'simliklar	

0190	Boshqa asosiy vositalar	
0199	Konsyervasiya qilingan asosiy vositalar	
<b>0200</b>	<b>ASOSIY VOSITALAR ESKIRISHINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>KA</b>
0211	Obodonlashtirilgan yerning eskirishi	
0212	Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi	
0220	Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalarning eskirishi	
0230	Mashina va asbob-uskunalarning eskirishi	
0240	Mebel va ofis jihozlarining eskirishi	
0250	Kompyutyer jihozlari va hisoblash texnikasining eskirishi	
0260	Transport vositalari eskirishi	
0270	Ishchi hayvonlarning eskirishi	
0280	Ko'p yillik o'simliklarning eskirishi	
0290	Boshqa asosiy vositalarning eskirishi	
0299	Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi	
<b>0300</b>	<b>UZOQ MUDDATLI IJARA SHARTNOMASI BO'YICHA OLINGAN ASOSIY VOSITALARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
0310	Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar	
<b>0400</b>	<b>NOMODDIY AKTIVLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
0410	Patentlar, lesenziyalar va nou – xau	
0420	Savdo markalar va tovar belgilari va sanoat namunalar	
0430	Dasturiy ta'minot	
0440	Yer va tabiat resurslaridan foydalanish huquqi	
0450	Tashkiliy xarajatlar	
0460	Franchayz	
0470	Mualliflik huquqlari	
0480	Gudvill	
0490	Boshqa nomoddiy aktivlar	
<b>0500</b>	<b>NOMODDIY AKTIVLARNING ESKIRISHINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>KA</b>
0510	Patentlar, lesenziyalar va nou – xauning amortizasiyasi	
0520	Savdo markalari, tovar belgilari va sanoat namunalarining amortizasiyasi	
0530	Dasturiy ta'minotning amortizasiyasi	
0540	Yer va tabiat resurslaridan foydalanish huquqining amortizasiyasi	
0550	Tashkiliy xarajatlarning amortizasiyasi	
0560	Franchayzning amortizasiyasi	
0570	Mualliflik huquqlarining amortizasiyasi	
0590	Boshqa nomoddiy aktivlarning amortizasiyasi	
<b>0600</b>	<b>UZOQ MUDDATLI INVESTISIYALARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
0610	Qimmatli qog'ozlar	
0620	Sho"ba xo'jalik jamiyatlariga investisiyalar	
0630	Qaram xo'jalik jamiyatlariga investisiyalar	
0640	Chet el kapitali mavjud bo'lgan korxonalarga investisiyalar	
0690	Boshqa uzoq muddatli investisiyalar	
<b>0700</b>	<b>O'R NATILADIGAN ASBOB-USKUNALARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
0710	O'rnatiladigan asbob-uskunalat – mahalliy	
0720	O'rnatiladigan asbob-uskunalat – xorijiy	

<b>0800</b>	<b>KAPITAL QO'YILMALARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
0810	Tugallanmagan qurilish	
0820	Asosiy vositalarni xarid qilish	
0830	Nomoddiy aktivlarni xarid qilish	
0840	Asosiy podani shakllantirish	
0850	Yerni obodonlashtirish uchun kapital qo'yilmalar	
0860	Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarga kapital qo'yilmalar	
0890	Boshqa kapital qo'yilmalar	
<b>0900</b>	<b>UZOQ MUDDATLI DEBITORLIK QARZLARI VA KECHIKTIRILGAN XARAJATLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
0910	Olingan veksellar	
0920	Uzoq muddatli ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar	
0930	Xodimlarning uzoq muddatli qarzlari	
0940	Boshqa uzoq muddatli debtorlik qarzlar	
0950	Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan daromad (foyda) solig'i	
0960	Diskont (cheirma)lar bo'yicha muddati kechiktirilgan uzoq muddatli xarajatlar	
0990	Boshqa uzoq muddati kechiktirilgan xarajatlar	
<b><i>II QISM. JORIY AKTIVLAR</i></b>		
<b>2 – BO'LIM. TOVAR – MODDIY ZAHIRALAR</b>		
<b>1000</b>	<b>MATYERIALLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
1010	Xom – ashyo va matyeriallar	
1020	Sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlar	
1030	Yoqilg'i	
1040	Ehtiyyot qismlar	
1050	Qurilish matyeriallar	
1060	Idish va idish matyeriallar	
1070	Chetga qayta ishlash uchun berilgangan matyeriallar	
1080	Inventar va xo'jalik ashyolari	
1090	Boshqa matyeriallar	
<b>1100</b>	<b>O'STIRISHDAGI VA BOQUVDAGI HAYVONLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
1110	O'stirishdagi hayvonlar	
1120	Bo'rdoqidagi hayvonlar	
<b>1200</b>		
<b>1300</b>		
<b>1400</b>		
<b>1500</b>	<b>MATYERIALLARNI TAYYORLASH VA XARID QILISHNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
1510	Matyeriallarni tayyorlash va xarid qilish	
<b>1600</b>	<b>MATYERIALLAR QIYMATIDAGI OG'ISHLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
1610	Matyeriallar qiymatidagi farqlar	
1700		
1800		
1900		
<b>2000</b>	<b>ASOSIY ISHLAB CHIQARISHNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>

2010	Asosiy ishlab chiqarish	
<b>2100</b>	<b>O'ZIDA ISHLAB CHIQARGAN YARIM TAYYOR MAHSULOTLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
2110	O'zida ishlab chiqargan yarim tayyor mahsulotlar	
<b>2200</b>		
<b>2300</b>	<b>YORDAMCHI ISHLAB CHIQARISHNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
2310	Yordamchi ishlab chiqarish	
<b>2400</b>		
<b>2500</b>	<b>UMUMISHLABCHIQARISH XARAJATLARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
2510	Umumishlab chiqarish xarajatlari	
<b>2600</b>	<b>ISHLAB CHIQARISHDAGI YAROQSIZ MAHSULOTLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
2610	Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar	
<b>2700</b>	<b>XIZMAT KO'RSATUVCHI XO'JALIKLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
2710	Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar	
<b>2800</b>	<b>TAYYOR MAHSULOTLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
2810	Ombordagi tayyor mahsulot	
2820	Ko'rgazmadagi tayyor mahsulot	
2830	Komissiyaga berilgangan tayyor mahsulot	
<b>2900</b>	<b>TOVARLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
2910	Ombordagi tovarlar	
2920	Chakana savdodagi tovarlar	
2930	Ko'rgazmadagi tovarlar	
2940	Prokatdag'i (ijara) buyumlar	
2950	Tovalar bilan band va bo'sh idishlar	
2960	Komissiyaga berilgangan tovarlar	
2970	Yo'l dagi tovarlar	
2980	Savdo ustamasi	
2990	Boshqa tovarlar	
	<b>3 – BO'LIM. KELGUSI DAVR XARAJATLARI VA MUDDATI KECHIKTIRILGAN XARAJATLAR – JORIY QISMI</b>	
<b>3000</b>		
<b>3100</b>	<b>KELGUSI DAVR XARAJATLARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
3110	Oldindan to'langan ijara haqi	
3120	Oldindan to'langan xizmat haqi	
3190	Boshqa kelgusi darv xarajatlar	
<b>3200</b>	<b>KECHIKTIRILGAN XARAJATLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
3210	Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan daromad (foyda) solig'i	
3220	Diskont (cheirma) lar bo'yicha kechiktirilgan xarajatlar	
3230	Boshqa kechiktirilgan xarajatlar	
<b>3300</b>		
<b>3400</b>		
<b>3500</b>		
<b>3600</b>		
<b>3700</b>		
<b>3800</b>		

<b>3900</b>		
<b>4 – BO'LIM. OLINGAN SCHYOTLAR – JORIY QISMI</b>		
<b>4000</b>	<b>OLINGAN SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
4010	Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar	
4020	Olingan veksellar	
<b>4100</b>	<b>AJRATILGAN BO'LINMALAR, SHO'BA VA QARAM XO'JALIK JAMIYATLARIDAN OLINADIGAN SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
4110	Ajratilgan bo'linmalardan olinadigan schyotlar	
4120	Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar	
<b>4200</b>	<b>XODIMLARGA BERILGANGAN BO'NAKLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
4210	Mehnatga haq to'lash uchun berilgangan bo'naklar	
4220	Xizmat safariga berilgangan bo'naklar	
4230	Ummumxo'jalik xarajatlari uchun berilgangan bo'naklar	
4290	Xodimga berilgangan boshqa bo'naklar	
<b>4300</b>	<b>MOL YETKAZIB BERUVCHILAR VA PUDRATCHILARGA BERILGANGAN BO'NAKLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
4310	TMQlari uchun mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgangan bo'naklar	
4320	Uzoq muddatli aktivlar uchun mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgangan bo'naklar	
4330	Boshqa berilgangan bo'naklar	
<b>4400</b>	<b>BYUDJETGA BO'NAK TO'LOVLARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
4410	Byudjetga soliq va yig'imlar (turlari bo'yicha) bo'yicha bo'nak to'lovlari	
<b>4500</b>	<b>MAQSADLI DAVLAT JAMG'ARMALARIGA VA SUG'URTALAR BO'YICHA BO'NAK TO'LOVLARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
4510	Sug'urta bo'yicha bo'nak to'lovlari	
4520	Maqsadli davlat jamg'armalariga bo'nak to'lovlari	
<b>4600</b>	<b>USTAV KAPITALIGA TA'SISCHILARNING ULUSHLARI BO'YICHA QARZLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
4610	Ustav Kapitaliga ta'sischilarning ulushlari bo'yicha qarzi	
<b>4700</b>	<b>XODIMLARNING BOSHQA MUOMALALAR BO'YICHA QARZINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
4710	Kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha xodimlarning qarzi	
4720	Berilgangan qarzlar bo'yicha xodimlarning qarzi	
4730	Moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimlarning qarzi	
4790	Xodimlarning boshqa qarzlari	
<b>4800</b>	<b>TURLI DEBITORLIK QARZLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>A</b>
4810	Uzoq muddatli ijara bo'yicha olinadigan joriy to'lovlari	
4820	Qisqa muddatli ijara bo'yicha olinadigan to'lovlari	
4830	Olinadigan foizlar	
4840	Olinadigan dividendlar	
4850	Olinadigan roylati	
4860	Da'volar bo'yicha olinadigan schyotlar	
4890	Boshqa debitorlarning qarzlari	
<b>4900</b>	<b>DARGUMON QARZLAR BO'YICHA REZYERVLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>KA</b>

4910	Dargumon qarzlar bo'yicha rezyerv	
	<b>5 – BO'LIM. PUL MABLAG'LARI, QISQA MUDDATLI INVESTISIYALAR VA BOSHQA JORIY AKTIVLAR</b>	
<b>5000</b>	<b>KASSADAGI PUL MABLAG'LARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	A
5010	Milliy valyutadagi pul mablag'lari	
5020	Chet el valyutasidagi pul mablag'lari	
<b>5100</b>	<b>HISOB – KITOBI SCHYOTIDAGI PUL MABLAG'LARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	A
5110	Hisob – kitob schyoti	
<b>5200</b>	<b>CHET EL VALYUTASIDAGI PUL MABLAG'LARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	A
5210	Mamlakat ichkarisidagi valyuta schyotlari	
5220	Chet eldagi valyuta schyotlari	
<b>5300</b>		
<b>5400</b>		
<b>5500</b>	<b>BANKDAGI MAXSUS SCHYOTLARDAGI PUL MABLAG'LARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	A
5510	Akkreditivlar	
5520	Chek daftarchalari	
5530	Boshqa maxsus schyotlar	
<b>5600</b>	<b>PUL EKVIVALENTLARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	A
5610	Pul ekvivalentlari (turlari bo'yicha)	
<b>5700</b>	<b>YO'LDAGI PUL MABLAG'LARI (O'TKAZMALARI)NI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	A
5710	Yo'ldagi pul mablag' (o'tkazma) lari	
<b>5800</b>	<b>QISQA MUDDATLI INVESTISIYALARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	A
5810	Qimmatli qog'ozlar	
5820	Berilgangan qisqa muddatli qarzlar	
5890	Boshqa joriy investisiyalar	
<b>5900</b>	<b>QIYMATLIKLER VA BOSHQA JORIY AKTIVLARNING KAMOMADI HAMDA BUZILISHIDAN YO'QOTISHLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	A
5910	Qiymatliklar va boshqa joriy aktivlarning kamomadi va buzilishidan yo'qotishlar	
5920	Boshqa joriy aktivlar	
	<b>III QISM. MAJBURIYATLARI</b>	
	<b>6 – BO'LIM. JORIY MAJBURIYATLAR</b>	
<b>6000</b>	<b>MOL YETKAZIB BERUVCHILAR VA PUDRATCHILARGA TO'LANADIGAN SCHYOTLAR</b>	P
6010	Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar	
6020	Berilgangan veksellar	
<b>6100</b>	<b>AJRATILGAN BO'LINMALAR, SHO'BA VA QARAM XO'JALIK JAMIYATLARIGA TO'LANADIGAN SCHYOTLAR</b>	P
6110	Ajratilgan bo'linmalarga to'lanadigan schyotlar	
6120	Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga to'lanadigan schyotlar	
<b>6200</b>	<b>MUDDATI KECHIKTIRILGAN MAJBURIYATLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	P
6210	Diskont (cheirma) lar ko'rinishidagi kechiktirilgan daromadlar	
6220	Mukofat (ustama) lar ko'rinishidagi kechiktirilgan daromadlar	

6230	Boshqa kechiktirilgan daromadlar	
6240	Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar	
6250	Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan daromad (foyda) solig'i bo'yicha majburiyatlar	
6290	Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar	
<b>6300</b>	<b>OLINGAN BO'NAKLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>P</b>
6310	Xaridor va buyurmachilardan olingan bo'naklar	
6320	Aksiyalarga obunachilardan (yozilgan shaxslardan) olingan bo'naklar	
6390	Boshqa olingan bo'naklar	
<b>6400</b>	<b>BYUDJYETLARGA TO'LOVLAR BO'YICHA QARZLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>P</b>
6410	Byujetlarga to'lovlar bo'yicha qarzlart (turlari bo'yicha)	
<b>6500</b>	<b>SUG'URTA VA MAQSADLI DAVLAT JAMG'ARMALARIGA TO'LOVLAR BO'YICHA QARZLARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>P</b>
6510	Sug'urta bo'yicha to'lovlar	
6520	Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar	
<b>6600</b>	<b>TA'SISCHILARGA BO'LGAN QARZLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>P</b>
6610	To'lanadigan dividendlar	
6620	Chiqib ketaiyotgan ta'sischilarga ulishlari bo'yicha qarz	
<b>6700</b>	<b>MEHNAT HAQI BO'YICHA XODIM BILAN HISOBLASHISHLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>P</b>
6710	Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlar	
6720	Deponentlashtirilgan ish haqi	
<b>6800</b>	<b>QISQA MUDDATLI KREDITLAR VA QARZLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>P</b>
6810	Qisqa muddatli bank Kreditlari	
6820	Qisqa muddatli qarzlar	
6830	To'lanadigan obligasiyalar	
6840	To'lanadigan veksellar	
<b>6900</b>	<b>TURLI KREDITORLARGA BO'LGAN QARZLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>P</b>
6910	To'langan qisqa muddatli ijara	
6920	Hisoblangan foizlar	
6930	Rolyati bo'yicha qarzlar	
6940	kafolatlar bo'yicha qarzlar	
6950	Uzoq muddatli majburiyatlar – joriy qismi	
6960	Da'volar bo'yicha to'lanadigan schyotlar	
6970	Hisobdor shaxslarga bo'lgan qarz	
6990	Boshqa majburiyatlar	
	<b>7- bo'lim UZOQ MUDDATLI MAJBURIYATLAR</b>	
<b>7000</b>	<b>MOL YETKAZIB BERUVCHILAR VA PUDRATCHILARGA TO'LANADIGAN UZOQ MUDDATLI SCHYOTLAR</b>	<b>P</b>
7010	Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan uzoq muddatli schyotlar	
7020	Berilgangan veksellar	
<b>7100</b>	<b>AJRATILGAN BO'LINMALAR, SHO'BA VA QARAM XO'JALIK JAMIYATLARIGA BO'LGAN UZOQ MUDDATLI QARZLAR</b>	<b>P</b>
7110	Ajratilgan bo'linmalarga bo'lgan uzoq muddatli qarzlar	
7120	Sho'ba va qaram xo'jaliklar jamiyati bo'lgan uzoq muddatli qarzlar	

<b>7200</b>	<b>KECHIKTIRILGAN UZOQ MUDDATLI MAJBURIYATLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>P</b>
7210	Diskont (cheirma) lar ko'inishidagi uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar	
7220	Mukofot (ustama) lar ko'inishidagi uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar	
7230	Boshqa uzoq muddati kechiktirilgan daromadlar	
7240	Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar	
7250	Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan daromad (foyda) solig'i bo'yicha uzoq muddati majburiyatlar	
7290	Boshqa uzoq muddati kechiktirilgan majburiyatlar	
<b>7300</b>	<b>XARIDORLAR VA BUYURTMA CHILARDAN OLINGAN BO'NAKLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>P</b>
7310	Xaridor va buyurtmachilardan olingan bo'naklar	
<b>7400</b>		
<b>7500</b>		
<b>7600</b>		
<b>7700</b>		
<b>7800</b>	<b>UZOQ MUDDATLI KREDITLAR VA QARZLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>P</b>
7810	Bankning uzoq muddati kreditlar	
7820	Uzoq muddatli qarzlar	
7830	To'lana digan obligasiyalar	
7840	To'lana digan veksellar	
<b>7900</b>	<b>TURLI KREDITORLARGA BO'LGAN UZOQ MUDDATLI QARZLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>P</b>
7910	To'lana digan uzoq muddatli ijara	
7920	Turli kreditorlarga bo'lgan boshqa uzoq muddatli qarzlar	
	<i>IV QISM. O'Z (XUSUSIY) KAPITALI</i>	
	<b>8 – BO'LIM. KAPITAL, TAQSIMLANMAGAN FOYDA VA RYEZYERVLAR</b>	
<b>8000</b>		
<b>8100</b>		
<b>8200</b>		
<b>8300</b>	<b>USTAV KAPITALINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>P</b>
8310	Oddiy aksiyalar	
8320	Imtiyozli aksiyalar	
8330	Pay va ulushlar	
<b>8400</b>	<b>QO'SHILGAN KAPITALINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>P</b>
8410	Emissiya daromadi	
8420	Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi	
<b>8500</b>	<b>REZYERV KAPITALINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>P</b>
8510	Mol – mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar	
8520	Rezyerv kapital	
8530	Beg'araz yordam tarzida (tekinga) olingan mol – mulk	
<b>8600</b>	<b>SOTIB OLINGAN O'Z (XUSUSIY) AKSIYALARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>KP</b>
8610	Sotib olingan o'z (xususiy) aksiyalari – oddiy	
8620	Sotib olingan o'z (xususiy) aksiyalari – imtiyozli	
<b>8700</b>	<b>TAQSIMLANMAGAN FOYDA (QOPLANMAGAN ZARAR) NI</b>	

<b>HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>		
8710	Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)	
8720	Jamg'arilgan foyda (qoplanmagan zarar)	
<b>MAQSADLI TUSHUMLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>		
8810	Grantlar	
8820	Subsidiyalar	
8830	A'zolik badallari	
8840	Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari	
8890	Boshqa maqsadli tushumlar	
<b>KELGUSI XARAJATLAR VA TO'LOVLAR REZYERVLARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>		
8910	Kelgusi xarajatlar va to'lov larning rezyervlari	
<b>V QISM. MOLIYAVIY NATIJALARING SHAKLLANISHI VA ISHLATILISHI</b>		
<b>9 – BO'LIM. DAROMADLAR VA XARAJATLAR</b>		
<b>9000</b>	Asosiy (operasion) faoliyatdan olinadigan daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar	<b>T</b>
9010	Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromadlar	
9020	Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar	
9030	Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar	
9040	Sotilgan tovarlarni qaytishi	
9050	Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgangan chegirmalar	
<b>9100</b>	<b>SOTILGAN MAHSULOT (TOVAR, ISH, XIZMAT)LARNING TANNARXINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>T</b>
9110	Sotilgan tayyor mahsulotning tannarxi	
9120	Sotilgan tovarning tannarxi	
9130	Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi	
9140	Davriy hisobda TMZ ni sotib olish (xarid qilish)	
9150	Davriy hisobda TMZ bo'yicha tuzatishlar	
<b>9200</b>	<b>ASOSIY VOSITALAR VA BOSHQA AKTIVLARNING CHIQIB KETISHINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>T</b>
9210	Asosiy vositalarning chiqib ketishi	
9220	Boshqa aktivlarning chiqib ketishi	
<b>9300</b>	<b>ASOSIY FAOLIYATNING BOSHQA DAROMADLARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>T</b>
9310	Asosiy vositalarning chiqib ketishidan olingan foyda	
9320	Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan olingan foyda	
9330	Undirilgan jarima, penya va ustamalar	
9340	O'tgan yillar foydalari	
9350	Qisqa muddatli ijara dan olingan daromadlar	
9360	Kreditorlik va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar	
9370	Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarning daromadlari	
9380	Tekin (beg'araz) qaytarilmaydigan moliyaviy yordam	
9390	Boshqa operas ion daromadlar	
<b>9400</b>	<b>DAVR XARAJATLARINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>T</b>
9410	Sotish xarajatlari	
9420	Ma'muriy xarajatlari	
9430	Boshqa operas ion xarajatlari	
9440	Kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari	
<b>9500</b>	<b>MOLIYAVIY FAOLIYAT DAROMADLARINI HISOBGA</b>	<b>T</b>

<b>OLUVCHI SCHYOTLAR</b>		
9510	Royalti ko'rinishidagi daromadlar	
9520	Dividendlar ko'rinishidagi daromadlar	
9530	Foizlar ko'rinishidagi daromadlar	
9540	Valyutalar kursilaridagi farqdan olinadigan daromadlar	
9550	Uzoq muddatli ijaradan olinadigan daromadlar	
9560	Qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan daromadlar	
9590	Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlar	
<b>9600</b>	<b>MOLIYAVIY FAOLIYAT BO'YICHA XARAJATLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>T</b>
9610	Foizli ko'rinishdagi xarajatlar	
9620	Valyutalar kurslaridagi farqdan ko'rildigan zararlar	
9630	Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar	
9690	Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar	
<b>9700</b>	<b>FAVQULODDAGI FOYDA (ZARAR) LARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>T</b>
9710	Favquloddagi foydalar	
9720	Favquloddagi zararlar	
<b>9800</b>	<b>SOLIQLAR VA YIG'IMLARNI TO'LASH UCHUN FOYDANING ISHLATILISHINI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	<b>T</b>
9810	Daromad (foyda) solig'i bo'yicha xarajatlar	
9820	Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va yig'imlar bo'yicha xarajatlar	
<b>9900</b>	<b>YAKUNIY MOLIYAVIY NATIJANI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR</b>	
9910	Yakuniy moliyaviy natija	

<b>VI QISM. BALANS DAN TASHQARI SCHYOTLAR</b>		
001	Qisqa muddatli ijaraga olingan asosiy vositalar	<b>B. T</b>
002	Ma'sul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy qiymatliklar	<b>B. T</b>
003	Qayta ishslashga qabul qilingan matyeriallar	<b>B. T</b>
004	Komissiyaga qabul qilingan tovarlar	<b>B. T</b>
005	O'rnatish (montaj qilish) uchun qabul qilingan asbob – uskunalar	<b>B. T</b>
006	Qat'iy hisobda turuvchi blankalari	<b>B. T</b>
007	To'lashga qobiliyatsiz debitorlarning zararga o'tkazilib hisobdan chiqarilgan qarzi	<b>B. T</b>
008	Majburiyatlar va to'lovlarni ta'minlash – olingan	<b>B. T</b>
009	Majburiyatlar va to'lovlarni ta'minlash – berilgangan	<b>B. T</b>
010	Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha berilgangan asosiy vositalar	<b>B. T</b>
011	Ssuda shartnomasi bo'yicha olingan mol – mulk	<b>B. T</b>
012	Kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar	<b>B. T</b>
013	Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo'yicha)	<b>B. T</b>
014	Foydalanishdagi inventar va xo'jalik jihozlari	<b>B. T</b>

### **3.6. Ikkiyoqlama yozuv**

1996 yil 30 avgustda qabul qilingan "Buxgaltyeriya hisobi to'g'risida"gi Qonunda (6-moddasida) O'zbekiston Respublikasida buxgaltyeriya hisobini yuritishning asosiy prinsiplaridan biri buxgaltyeriya hisobini ikkiyoqlamali usulda yuritish ekanligi aytib o'tilgan.

Xo'jalik muomalalarini ikkiyoqlamali yozuv tizimini tarixda birinchi kashf etgan olim italiyalik matematik Luka Pacholi 1494 yili "Schyotlar va yozuvlar to'g'risida traktat (ilmiy asarini)" chop etib ikkiyoqlama yozuv tizimiga asos solgan.

Ikkiyoqlama yozuv har bir xo'jalik muomalasining o'zaro bog'liq bo'lgan schyotlarida qayd etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Buning natijasida bir xo'jalik muomalasi summasi

o'zaro bog'liqlikda bo'lgan ikkita schyotda ya'ni bir schyotning debetida, ikkinchi bir schyotning Kreditida aks ettiriladi. Bu xo'jalik jarayonlarida bir shakldagi muomala ob'ekti boshqa shaklga o'tadi, lekin shakl qiymatlarining umumiyligi summasi teng bo'ladi. **Masalan**, ta'minot jarayonidagi qiymatlar moddiy shaklda bo'ladi. keyinchalik ular ishlab chiqarish jarayonida tayyor mahsulot shakliga o'tadi, so'ngra esa, sotish natijasida pul shakliga o'tadi. Bu jarayonlarni buxgaltyeriya hisobida aks ettirish uchun ikkiyoqlama yozuv usulidan foydalilanadi. Shu sababli ham o'zaro bog'liq bo'lgan schyotlar debeti va Kreditiga tegishli summalar, albatta bir -biroviga teng bo'ladi hamda balansli bo'lishni ta'minlaydi.

#### **6.1-muomala: hisob-kitob schyotidan korxona kassasiga 1500000 so'm naqd pul olindi.**

Bu muomala aktivlarning ikki moddasiga- kassadagi naqd pullar va bankdagi hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lariga ta'sir etadi. Natijada kassadagi pullar 1500000 so'mga ko'paydi va aksincha, hisob-kitob schyotidagi pullar shu summaga kamaydi. Chunki, ikki modda ham aktiv bo'lib, aktivlar debetda ko'paysa, Kreditda kamayadi.

Bu muomalaning schyotlarda (ikkiyoqlama yozuv usulida) quyidagicha yozish mumkin:

**D-t 5010- "Milliy valyutadagi pul mablag'lari" 1500000 so'm.**

**K-t 5110- "Hisob-kitob schyoti" 1500000 so'm.**

Xo'jalik muomalasini debet va Kredit schyotlarda ko'rsatilishiga (buxgaltyeriya yozuviga) o'tkazma yoki provodka deb ataladi.

Yuqoridagi muomalani schyotda quyidagicha soddaroq qilib aks ettirish mumkin:

“Hisob-kitob schyoti”		“Milliy valyutadagi pul mablag'lari”	
D-t	K-t	D-t	K-t
Qoldiq	1) 1500000	1) 1500000	

Xo'jalik muomalalarini ikkiyoqlamali yozish schyotlarning o'zaro bog'lanishiga olib keladi. Bunday bog'lanishlarga schyotlar korrespondensiyasi (bog'lanishi) deb ataladi.

Schyotlar korrespondensiyasi – xo'jalik muomalasi bilan yuzaga keltiriladigan ikki hodisaning schyotlarda aks ettirish paytida paydo bo'ladi va u schyotlarning o'zaro aloqasini namoyon bo'lishlik shaklidir.

Yana bir **6.2-muomala: faraz qilaylik, korxona mol etkazib beruvchilardan 700000 so'mlik matyeriallar va 500000 so'mlik yoqilg'i, hammasi bo'lib 1200000 so'mlik qiymatliklar kelib tushdi.**

Mazkur muomalaga quyidagi buxgaltyeriya yozuvi berilganadi:

**D-t 1010- "Xom-ashyo va matyeriallar" 700000 so'm.**

**D-t 1030- "Yoqilg'ilalar" 500000 so'm.**

**K-t 6010- "Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotilar" 1200000 so'm.**

Bu muomalani schyotda quyidagicha soddaroq qilib aks ettirish mumkin:

“Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar”		“Xom-ashyo va matyeriallar” schyoti		“Yoqilg'ilalar” schyoti	
D-t	K-t	D-t	K-t	D-t	K-t
	2) 1200000	2) 700000		2) 500000	

Bundan ko'rinish turibdiki, 6.1-muomala bo'yicha tuzilgan yozuv ikki schyotni, 6.2-muomala bo'yicha tuzilgan yozuv esa, uchta schyotni o'z ichiga oladi.

Ikki schyotga ta'sir etadigan yozuv (o'tkazma)lar oddiy, uchta va undan ko'proq schyotlarga ta'sir etadiganlari esa murakkab yozuv (o'tkazma)lar deb nomlanadi.

Haqiqatda, 6.2-muomala bo'yicha yozuvni ikki oddiy o'tkazmaga ajratish mumkin:

**1) D-t 1010- "Xom-ashyo va matyeriallar" 700000 so'm.**

**K-t 6010-“Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotilar”  
700000 so'm.**

- 2) D-t 1030- “Yoqilg'ilar”                            500000 so'm.  
K-t 6010-“Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotilar”  
500000 so'm.**

Murakkab yozuvlarni tuzish ularning sonini kamaytiradi va shu bilan hisob xodimlarining mehnatini engillashtiradi.

Buxgaltyeriya hisobida ba'zida ikkiyoqlama yozuv yordamida muomalalarni schyotlarda aks ettirishning boshqa tartiblari ham qo'llaniladi. Bu yozuvning stornoli usulidir, U manfiy sonlardan foydalanishga asoslanadi. Bu usulda schyotning mazkur qismiga qilingan yozuvlardan chegirib tashlanadigan summalar uning qarama - qarshi qismida emas, balki o'sha qismining o'zida, lekin qizil siyoh bilan aks ettiriladi, Yozuvning bunday tartibi schyotlardi aylanmalarning iqtisodiy jihatdan to'g'rilibini saqlash uchun juda katta ahamiyatga egadir. Bu aylanmalar xo'jalik faoliyatining ma'lum ko'rsatkichlarini ifodalaydi va ularning har qanday buzib ko'rsatilishi korxona ishini noto'g'ri tavsiflashga olib kelgan bo'lar edi.

Manfiy sonlar buxgaltyeriya hisobi tizimida shartli hajmlarda foydalanilayotgan paytlarda, masalan, rejali baholash (bu baholashlarni kayinchalik haqiqiy baholashga o'tkaziladigan bo'lsa) hamda noto'g'ri yozuvlarni to'g'irlash uchun qo'llaniladi.

Manfiy sonlardan foydalanishni matyeriallar xarajatlarini schyotlarda aks ettirish misolida ko'rib chiqamiz.

Matyeriallarni hisobdan xarajatga chiqarishda ular ko'pincha reja tannarxida baxolanadi. **Faraz qilaylik**, ishlab chiqarishga sarflangan matyeriallarning rejadagi tannarxi 300000 so'mni tashkil qildi. Shu summaga quyidagi yozuv tuziladi:

D – t - „Asosiy ishlab chiqarish schyoti	- 300000 so'm
K – t - „Xom ashyo va matyeriallar schyoti	- 300000 so'm

„Asosiy ishlab chiqarish” schyoti aktivdir; u debetlanadi, chunki matyeriallarning sarflanishi ishlab chiqarish xarajatlarining ko'payishiga olib keladi, „Xom ashyo va matyeriallar” subschyoti (u ham aktivdir) esa Kreditlanadi, chunki ombordagi matyeriallar kamaymoqda.

Matyeriallarning haqiqiy tannarxi oy oxirida 294000 so'mni tashkil qildi. Demak, korxona shu matyeriallarning rejadagi tannarxiga nisbatan 6000 so'mli (300000 – 294000) tejamga ega bo'lgan. Albatta, tejalgan ushbu summaga matyeriallar sarfini rejadagi tannarxda qilingan yozuvni kamaytirish lozim bo'ladi, chunki ularning real baholanishi haqiqiy tannarxdan iboratdir.

Schyotlardi aylanmalarni buzib ko'rsatmaslik maqsadida, tejam summasini manfiy sonlarda ko'rsatish kerak. Buning uchun birinchi yozuvdagagi kabi yozuv qilinadi, lekin uning summasi minus belgisi bilan qo'yiladi:

D – t - „Asosiy ishlab chiqarish schyoti	- 6000 so'm
K – t - „Xom ashyo va matyeriallar schyoti	- 6000 so'm

Schyotlarda bu yozuvlar quyidagicha aks ettiriladi:

„Xom ashyo va matyeriallar” schyoti		„Asosiy ishlab chiqarish” schyoti	
D – t	K – t	D-t	K-t
Sal'do (haqiqiy tannarx bo'yicha)	1) 300000 2) -6000	1) 300000 2) -6000	
	Aylanma 294000		Aylanma 294000

Tejamning manfiy sonlar bilan aks ettirilishi matyeriallar sarfini real baholanishda, ya'ni haqiqiy tannarxda aks ettirilishiga (294000 so'm) olib keldi.

## Xato yozuvlar tasnifi va tuzatish usullari.

Buxgaltyeriya hisobida yo'l quyilgan xatolar quyidagi belgilari bo'yicha tavsiflanadi:

1. Hujjatlar rekvizitlaridagi xatolar; Bunday xatolar to'ldirilgan rekvizit to'g'risiga o'zgartirish yo'li bilan to'g'rilanadi va imzo qo'yiladi. Xato o'stiga bitta chiziq tortiladi. Agarda o'chirish va to'g'risiga o'zgartirish yoki ustidan chizish imkoniyati bo'lmasa, tuzatilgan raqamga shunday izoh berilganadi: “\_\_\_\_\_ga tuzatilganligiga ishonilsin”, “ustiga chizilgani \_\_\_\_\_ qo'shilmasin” deb tegishli lavozimli shaxsning imzosi qo'yiladi, ayrim hollarda muhr ham ta'lab qilinadi.

2. Xatoga yo'l qo'ygan shaxs; (moddiy javobgar shaxs, buxgaltyer, ishchi va b.)

3. Xatoni yuzaga kelish sababiga ko'ra; (G'arazli va beg'araz) G'arazli xatolar. (soliqdan qochish, o'z manfaati uchun va b); Beg'araz xatolar (charchash, toliqish, beparvolik, texnik nosozlik vab.);

4. Soliqqa tortishga ta'siriga ko'ra xatolar;

5. Xatolarni keyingi hujjatlarda qaytarilishiga ko'ra; (takrorlanadigan, takrorlanmaydigan).

6. Boshqaruq qarorlariga ta'sir qilishiga ko'ra xatolar; (ta'sirli va ta'sirsiz).

7. Xarolar xaraktyeriga ko'ra (to'g'rila bo'ladigan va to'g'rila bo'lmaydigan).

Kassa va bank muomalalariga doir noto'g'ri hujjatlarni to'g'rilashga ro'xsat etilmaydi. Bu hujjatlar xatosiz bo'lishi lozim.

Hisobotlarda yo'l quyilgan xatolarni soliq organlariga taqdim etishgacha bo'lgan vaqtida tugatish mumkin. Chunki, topshirilgandan so'ng uni qaytarishning iloji yo'q.

Buxgaltyeriya yozuvlaridagi xatolar quyidagi usullar bilan tuzatiladi:

### I. Qo'shimcha yozuv byerish usuli.

**Masalan:** Asosiy ishlab chiqarishga haqiqatda sarflangan matyeriallar 500 000 so'm, lekin xato qilinib 400 000 so'm yozilgan. Bunda xatoni tuzatish uchun qo'shimcha provodka berilganadi va u quyidagicha aks ettiriladi:

1010 schyot		2010 schyot	
D-t	K-t	D-t	K-t
		1) 400 000	
	1) 400 000	2) 100 000	2) 100 000

### II. Teskari provodka byerish usuli.

**Masalan:** Asosiy ishlab chiqarishga haqiqatda sarflangan matyeriallar 400 000 so'm, lekin xato qilinib 500 000 so'm yozilgan. Bunda xatoni tuzatish uchun qo'shimcha provodka berilganadi va u quyidagicha aks ettiriladi:

1010 schyot		2010 schyot	
D-t	K-t	D-t	K-t
→ 2) 100 000	1) 500 000	1) 400 000	2) 100 000 ←

Agar schyotlar korrespondensiyasida xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, oldin teskari yozuv berilganadi, so'ng to'g'risi yoziladi.

### Masalan:

1. Asosiy ishlab chiqarishga matyeriallar sarflandi -500000 so'm xato yozuv berilgangan:

D-t 2310 – “Yordamchi ishlab chiqarish” -500000 so'm.

K-t 1010 – “Xom-ashyo va matyeriallar” -500000 so'm.

To'g'ri yozuv:

D-t 2010 – “Asosiy ishlab chiqarish” -500000 so'm.

K-t 1010 – “Xom-ashyo va matyeriallar” -500000 so'm.

Xato berilgangan muomalalarni tuzatish usuli:

2. Oldin xato berilgangan muomalalarning teskarisi berilganadi:

D-t 1010 – “Xom-ashyo va matyeriallar”	-500000 so'm.
K-t 2310 – “Yordamchi ishlab chiqarish”	-500000 so'm.

3. So'ng to'g'ri muomala berilganadi:

D-t 2010 – “Asosiy ishlab chiqarish”	-500000 so'm.
K-t 1010 – “Xom-ashyo va matyeriallar”	-500000 so'm.

Buni soddarroq qilib quyidagicha ko'rsatish mumkin:

2010		1010		2310	
D-t	K-t	D-t	K-t	D-t	K-t
3) 500000		2) 500000	1) 500000 3) 500000	1) 500000	2) 500000
500000	----	500000	1000000	500000	500000
500000	-----		500000	-----	-----

### III. ko'chirish usulida xatolarni to'g'rilesh.

ko'chirish usulidagi yozuvni byeramiz:

D-t 2010 – “Asosiy ishlab chiqarish”	-500000 so'm.
K-t 2310 – “Yordamchi ishlab chiqarish”	-500000 so'm.

Yuqorida keltirilgan misolda ko'rib chiqamiz:

2010 schyot		2310 schyot	
D-t	K-t	D-t	K-t
4) 500 000			4) 500 000

### IV. Aralash yozuv usulida xatolarni to'g'rilesh.

Bunda xato yozilgan summa qizil siyohda takroran yoziladi, to'g'risi esa oddiy siyohda yozib qo'yiladi. Bu usulda ikki yoqlama yozuv tamoyili buziladi. Buni yuqoridagi muomala misolda ko'radigan bo'lsak:

1010		2310		2010	
D-t	K-t	D-t	K-t	D-t	K-t
C.	1) 500000	1) 500000	2) 500000	2) 500000	
500000	-----	-----	-----	500000	500000

### Sintetik va analitik (tahliliy) hisob.

Buxgaltyeriya hisobining schyotlari yordamida xo'jalik mablag'lari va xo'jalik jarayonlari to'g'risida umumlashtirilgan ma'lumotlar olinadi. **Masalan**, korxonaga kelib tushgan matyeriallar qiymatining summasi yoki hamma sotilgan mahsulotlar uchun tushumning miqdori va hokazo.

Lekin, korxonani boshqarishda faqat umumiylar ko'rsatkichlar bilan kifoyalanim bo'lmaydi. Moddiy javobgar shaxslar (omorchilar, sex boshliqlari (menejyerlar) va boshqalar)ning hatti-harakati ustidan nazorat qilish uchun, korxonaning zarur bo'lgan

mablag'lar bilan ta'minlanganliklarini kuzatish, debitorlar bilan hisob-kitoblarni tashkil qilish va boshqalar uchun hisob ob'ektining har birining holati va harakatini tavsiflovchi mukammal ma'lumotlar kerak bo'ladi. Shu bilan birga moddiy boyliklar yoki hisob-kitoblar to'g'risidagi ma'lumotlar faqat pul ifodasida emas, balki natura va mehnat ko'rsatkichlarida ham ifodalangan bo'lishi kerak. **Masalan**, matyeriallar hisobi ombordagi matyeriallar, kelib tushgan, chiqib ketgan matyeriallarning umumiyligi summasi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan birgalikda shu matyeriallarning ayrim turlari, sortlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ham ta'minlanishi kerak.

Xo'jalik mablag'lari va jarayonlarini umumlashtirilgan ko'rsatkichlarda aks ettirilishiga **sintetik hisob** deb ataladi, ularni batafsil ko'rsatkichlarda aks ettirishiga **analitik (tahliliy) hisob** deb ataladi. Sintetik va analitik (tahliliy) schyotlar xususiyatlarini matyeriallar hisobida ko'rib chiqamiz.

**Faraz qilaylik**, "Xom-ashyo va matyeriallar" schyoti quyidagi ma'lumotlarga ega:

#### “Xom-ashyo va matyeriallar” schyoti

<b>D-t</b>	<b>K-t</b>
<b>Boshlang'ich qoldiq (sal'do) – 800 000</b>	
Aylanma: 1) 950 000	Aylanma: 2) 450 000 3) 550000
<b>D-T aylanma jami: 950 000</b>	<b>K-t aylanma jami: 1000 000</b>
<b>Oxirgi qoldiq (sal'do)- 750 000</b>	

Yuqoridagi bu schyotda xom-ashyo va matyeriallarning mavjudligi, kelib tushishi va sarflanishi haqida umumlashtirilgan ko'rsatkichlar bor. Lekin, korxonada qanday matyeriallar borligi, uning turlari, qancha miqdorda mavjudligi haqidagi ma'lumotlarni byermaydi. Shuning uchun bunday schyot sintetik schyot hisoblanadi. Batafsil ma'lumotlarni olish uchun tahliliy schyotlar kerak bo'ladi.

Keltirilgan misolni soddalashtirish uchun korxonada faqat ikki turdagiga (A va B) matyeriallar bor deb faraz qilaylik. U holda ushbu sintetik schyot ma'lumotlarini analitik (tahliliy) schyotlarda quyidagicha aks ettirish mumkin:

#### A matyeriallari

Debet (kirim)				Kredit (chiqim)			
Muomala raqami	Hajmi kg	Narxi so'm	Summa so'm	Muomala raqami	Hajmi kg	Narxi so'm	Summa so'm
<b>Sal'do</b>	<b>1000</b>	<b>500</b>	<b>500000</b>				
1	700	500	350000	2	500	500	250000
				3	800	500	400000
<b>aylanma</b>	<b>700</b>	<b>500</b>	<b>350000</b>	<b>aylanma</b>	<b>1300</b>	<b>500</b>	<b>650000</b>
<b>Sal'do</b>	<b>400</b>	<b>500</b>	<b>200000</b>				

#### B matyeriallari

Debet (кирим)				Кредит (чиқим)			
Muomala raqami	Hajmi kg	Narxi so'm	Summa so'm	Muomala raqami	Hajmi kg	Narxi so'm	Summa so'm
<b>Sal'do</b>	<b>300</b>	<b>1000</b>	<b>300000</b>				
1	600	1000	600000	2	200	1000	200000
				3	150	1000	150000
<b>aylanma</b>	<b>600</b>	<b>1000</b>	<b>600000</b>	<b>aylanma</b>	<b>350</b>	<b>1000</b>	<b>350000</b>
<b>Sal'do</b>	<b>550</b>	<b>1000</b>	<b>550000</b>				

Shunday qilib, analitik (tahliliy) schyotlar hisob ob'ekti haqida batafsilroq ma'lumotlarni olish uchun xizmat qiladi.

Analitik (tahliliy) schyotlar bo'yicha ochilgan barcha schyotlardagi yozuvlarning umumiylarini summasi shu schyot bo'yicha sintetik schyot yozuvlari summasiga teng bo'lishi lozim. Bizning misolda bu:

Sintetik schyotning boshlang'ich qoldig'i - 800 000 ( $A = 500\ 000 + B = 300\ 000$ ) so'm;

Sintetik schyot debeti aylanmasi – 950 000 ( $A = 350\ 000 + B = 600\ 000$ ) so'm;

Sintetik schyot Kredit aylanmasi- 1000 000 so'm ya'ni 2-muomala -450 000 so'm + 3-muomala -550 000 so'm).

Analitik (tahliliy) schyotning Kredit aylanmasi ham 1000 000 so'mga teng. Ya'ni A matyeriallar 650 000 so'm (2-muomalada-250 000 + 3-muomalada -400 000 so'm), B matyeriallar 350 000 so'm (2-muomalada – 200 000 + 3-muomalada – 150 000 so'm).

Sintetik schyotning oxirgi qoldig'i – 750 000 ( $A = 200\ 000 + B = 550\ 000$ ) so'm.

Qisqacha qilib aytganda, sintetik schyotning ko'rsatkichlari shu schyot bo'yicha ochilgan analitik schyotlarning jami ko'rsatkichlari summasiga teng bo'lishi lozim. Hisob davri yakunini chiqarish paytida sintetik va analik schyotlar ko'rsatkichlari bir-biri bilan solishtirilib, summalarining to'g'rilingiga ishonch hosil qilinishi kerak.

### **Joriy buxgaltyeriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish.**

Korxona xo'jalik jarayonlarida sodir bo'ladigan har bir voqe va hodisalar javobgarlik chegaralari doirasida moddiy javobgar shaxslar tomonidan kuzatilib, o'z vaqtida hujjatlashtirib boriladi. Bu xo'jalik jarayonida sodir bo'ladigan voqe va hodisalarni hujjatlashtirishda qonunchilikda belgilangan hujjatlarning maxsus shakllaridan va an'naviy, voqe va hodisalarga guvoh bo'lgan ko'pchilik tomonidan imzolangan shakli tasdiqlanmagan hujjatlardan (daloatnomalardan) foydalanadi. Ushbu tuzilgan hujjatlar tuzilgan joyiga qarab moddiy javobgarlik chegaralarini belgilab byeradi va moddiy javobgar shaxslar javobgarligini belgilash uchun xizmat qiladi.


Moddiy javobgar shaxslar javobgarligidagi mol-mulk va boshqa majburiyatlarga doir tuzilgan hujjatlar ular tomonidan tuzilib, taqdim etiladigan hisobotlari tarkibiga kiritiladi. Ular tomonidan topshirilgan hisobotlar korxonaning tegishli boshqaruva bo'limlarida qayta ishlanib, korxona buxgaltyeriyasiga kelib tushadi va u yerda tegishli buxgaltyeriya xodimlari tomonidan tekshirilib, to'g'rilingiga ishonch hosil qilingach tegishli buxgaltyeriya yozuvlari berilganadi.

Xo'jalik jarayonida sodir bo'lgan muomalalar har bir schyotlar bo'yicha ochiladigan jurnal ordyerlarga buxgaltyeriya yozuvlari asosida aks ettiriladi va schyotlarni kirimi va chiqimi bo'yicha ma'lumotlar umumlashtiriladi. **Masalan**, matyeriallar turlari va harakati to'g'risidagi yakuniy ma'lumotlarni olish uchun dastlab har bir moddiy javobgar shaxs (ombor mudiri)larning hisobotlari qabul qilib olingach, bu hisobotlarning to'g'riliqi tekshiriladi va hisobot ma'lumotlar har bir moddiy javobgar shaxs javobgarligidagi matyeriallar hisobi bo'yicha ochilgan jurnal-ordyerlarga tegishli schyotlar provodkalari asosida o'tkaziladi hamda har bir javobgar shaxs javobgarligidagi matyeriallar bo'yicha umumlashtirilgan buxgaltyeriya ma'lumotlari olinadi. So'ngra, bu har bir javobgar shaxs javobgarligidagi jurnal-ordyer ma'lumotlar umumlashtiruvchi jurnal-ordyerga o'tkazilib, korxona bo'yicha umumiylar bo'lgan matyeriallar to'g'risidagi ma'lumotlar olinadi. keyingi bosqichda bu ma'lumotlar bosh qitobga yoki sintetik schyotlar bo'yicha aylanma vedomostga o'tkaziladi va yopiladigan tranzit schyotlar yopilib (foyda va zararlar aniqlanib), balansli schyotlar qoliqlari hisoblab chiqiladi. Balansli schyot qoliqlariga asosan korxona balansi va xususiy kapital to'g'risidagi hisobot, yopiladigan, tranzit schyot ma'lumotlari asosida moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot tuziladi.

Hozirgi vaqtida buxgaltyeriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish va hisobotlar tuzish asosan kompyutyerlashtirilgan maxsus dasturlar asosida amalga oshirilmoqda.

Korxonalarning qo'l mehnatiga asosalangan buxgaltyeriyasida ham buxgaltyeriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish va hisobotlar tuzishning soddalashtirilgan quyidagi shaklidan foydalanilmoqda:

## **Buxgaltyeriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan shakli**



## O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN TEST SAVOL-JAVOBLARI

### **1. Asosiy schyotlar nima uchun ishlataladi?**

- a) Mablag'lar turlari (aktiv) mavjudligini nazorat qilish uchun.
  - b) Manbalarni (passiv) nazorat qilish uchun.
  - v) A va B.
  - g) Asosiy vositalarni nazorat qilish uchun.

## **2. Tartibga soluvchi schyotlar qanday schyotlarga bo'linadi?**

- a) aktiv, passiv va aktiv-passiv schyotlarga.
  - b) Kontrar, to'ldiruvchi va kontrar-to'ldiruvchi schyotlar.
  - v) Balansli va balansdan tashqari schyotlar.
  - g) aktiv - passiv schyotlar.

### **3. Kontrar schyotlar qanday bo'ladi?**



#### **4. Yig'ib tarqatuvchi schyotlarning tayinlanishi.**

- a) Faqat xarajatlar ustidan nazorat qilish.
  - b) Faqat xarajatlarni to'g'ri taqsimlanishini nazorat qilish.
  - v) Faqat ayrim faoliyat tannarxini aniqlash.
  - g) Barcha javoblar to'g'ri.

##### **5. Kalkulyasiya schyotlari qaysi maqsad uchun qo'llaniladi?**

- a) Mahsulot sotishdan olingan yalpi foydani aniqlash uchun.
  - b) Ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlar tannarxini aniqlash.
  - v) Mehnat haqi sarfini aniqlash. g) Barcha javoblar to'g'ri.

## **6. Solishtiruvchi schyotlar qanday maqsad uchun tayinlanadi?**

- a) Mahsulot tannarxini aniqlash uchun.
  - b) Asosiy vositalarning qoldiq qiymatini aniqlash.
  - v) korxonaning likvidlik holatini aniqlash.
  - g) Xo'jalik jarayonidan olingan moliyaviy natijalarni aniqlash.

**7. Ikkiyoqlamali yozuv tizimini birinchi kim kashf etgan?**

  - a) Kapyernik.
  - b) Nyuton.

v) Al-Xorazmiy. g) Pacholi.

**8. Muomalalar summasi ikkiyoqlamali yozuvda qanday aks ettiriladi?**

- a) Bir schyotning debeti va ikkinchi schyotning ham debetida.
- b) Bir schyotning Krediti va ikkinchi schyotning ham Kreditida.
- v) Balansli schyotning debetida va balansdan tashqari schyotning Kreditida.
- g) Bir balansli schyotning debetida va ikkinchi balansli schyotning Kreditida.

**9. Buxgaltyeriya muomalasi deganda nimani tushunasiz?**

- a) Muomalalar mazmuniga qarab ikkita debetlanuvchi schyotlarni aniqlash.
- b) Muomalalarning mazmuniga qarab ikkita Kreditlanuvchi schyotlarni aniqlash.
- v) Muomalalarni mazmuniga qarab debetlanuvchi va Kreditlanuvchi schyotlarni belgilab qo'yish.
- g) To'g'ri javob yo'q.

**10. Oddiy muomala deganda nimani tushunasiz?**

- a) Bir schyotning debeti va ikkinchi schyotning ham debetiga yozilishi.
- b) Bir schyotning Krediti va ikkinchi schyotning ham Kreditiga yozilishi.
- v) Bir schyotning debeti va ikkinchi schyotning Kreditiga yozilishi.
- g) Bir schyotning debeti ikki va undan ortiq schyotlarning Kreditiga yozilishi.

**11. Murakkab muomala deganda nimani tushunasiz?**

- a) Bir schyotning debeti hamda ikki va undan ortiq schyotlarning Krediti.
- b) Ikki va undan ortiq schyotlarning debeti va bir schyotning Krediti.
- v) Bir necha schyotning debeti va bir necha schyotlarning Krediti.
- g) A va B.

**12. Buxgaltyeriya hisobida xronologik yozuv deganda nimani tushunasiz?**

- a) Xo'jalik muomalalarini bir yo'la yozish.
- b) Xo'jalik muomalalarini bir oyligini jamlab, oy oxirida daftarga yozish.
- v) Iqtisodiy jihatdan bir xil bo'lgan muomalalarni ketma-ket (navbat bilan) daftarda aks ettirish.
- g) Xo'jalik muomalalarining bir oyligini jamlab, yil oxirida bosh daftarga yozish.

**13. Buxgaltyeriya hisobida tizimli (sistematik) yozuv deganda nimani tushunasiz?**

- a) Muomalalar summasini daftarga ketma-ketlikda aks ettirish.
- b) Muomalalar summasini guruhash.
- v) Bosh daftarga xronologik tartibda yozilgan muomalalar summasini schyotlarning debeti va Kreditiga tizimli yozib borish. g) A va B.

**14. Sintetik schyotlar qanday ma'lumotlarni byeradi?**

- a) Natura o'lchovidagi ma'lumotlarni. b) Pul o'lchovidagi ma'lumotlarni.
- v) Mehnat o'lchovidagi ma'lumotlarni.
- g) Xo'jalik mablag'lari va muomalalari haqida umumlashtirilgan ko'rsatkichlarni.

**15. Analitik (tahliliy) schyotlarda nimalar ko'rsatiladi?**

- a) Sintetik schyot ma'lumotlarini batafsil ko'rsatib byeradi va unda umumiy ko'rinishda aks ettiriladigan mablag'larning tarkibiy qismlarini ko'rsatadi.
- b) Faqat natura ko'rsatkichida aks ettiriladi.
- v) Bir necha analitik (tahliliy) schyotlar ma'lumotlari bir necha sintetik schyotlar ma'lumotlariga tengligini ko'rsatadi.
- g) Tashkiliy schyotlarda mas'uliyatlar faqat summa ko'rsatkichida aks ettiriladi.

**16. Bir sintetik schyot bo'yicha ochilgan bir necha analitik (tahliliy) schyotlarning qaysi ko'rsatkichlari o'zaro teng bo'lishi kerak?**

- a) Faqat dastlabki saldolari. b) Faqat debet va Kredit oborot (aylama)lari.
- v) Faqat oxirgi saldolari. g) Noto'g'ri javoblar yo'q.

**17. Aylanma (oborot) vedomost (qaydnoma)larn nima uchun xizmat qiladi?**

- a) Joriy hisob ma'lumotlarini umumlashtirish uchun.
- b) Sintetik va analitik schyotlar ma'lumotlarini taqqoslash uchun.
- v) Balans tuzish uchun. g) Noto'g'ri javoblar yo'q.

**18. Aylanma (oborot) vedomost (qaydnoma)da schyotlarning oxirgi qoldiqlari qanday topiladi?**

- a) aktiv schyotlar bo'yicha dastlabki qoldiqqa Kredit aylanmasini qo'shib debet aylanmasini ayirish kerak.
- b) Passiv schyotlar bo'yicha dastlabki qoldiqqa Kredit aylanmasini qo'shib debet aylanmasini ayirish kerak.
- v) aktiv schyotlar bo'yicha dastlabki qoldiqqa debet aylanmasini qo'shib Kredit aylanmasini ayirish kerak. g) A va V.

**19. Nima uchun aylanma vedomostida debet va Kredit aylanmalari o'zaro teng bo'ladi?**

- a) Muomalalar summasi schyotlarning debeti va Kreditiga bir xilda yozilganligi uchun.
- b) Muomalalar summasi schyotlarning debetiga ikki marta yozilganligi uchun.
- v) Muomalalar summasi schyotlarning Kreditiga ikki marta yozilganligi uchun.
- g) Muomalalar summasi bir schyotning debetiga ko'p, ikkinchi schyotlarning Kreditiga Kam yozilganligi uchun.

**20. Schyotlar rejasini qanday ta'riflaysiz va u qanday maqsadlar uchun moslashtirilgan?**

- a) Schyotlar ro'yxati va u boshqaruv hisobotini tuzishga moslashtirilgan.
- b) Schyotlar ta'rifi bo'lib statistika hisobotini tuzishga moslashtirilgan.
- v) Tizimga keltirilgan schyotlar ro'yxati bo'lib, u moliyaviy hisobotlarni tuzishga moslashtirilgan. g) A va B javoblar to'g'ri.

**21. Yangi schyotlar rejasida nechta schyot, qism va bo'lim bor?**

- a) 249 ta balansli schyot, 20 ta balansdan tashqari schyot, 7 ta qism, 10 ta bo'lim bor.
- b) 249 ta balansli schyot, 14 ta balansdan tashqari schyot, 6 ta qism, 9 ta bo'lim bor.
- v) 249 ta balansli schyot, 18 ta balansdan tashqari schyot, 9 ta qism, 6 ta bo'lim bor.
- g) 239 ta balansli schyot, 12 ta balansdan tashqari schyot, 9 ta qism, 6 ta bo'lim bor.

**22. Schyotlarni raqamlashning zarurati nimada?**

- a) Hisob registrlariga yozish uchun.
- b) Ochilgan schyotlarni adashtirmaslik uchun.
- v) Hisob yuritish va schyotlarni eslab qolishni osonlashtirish hamda axborotlarni avtomatlashtirish zaruriyati uchun. g) A va B javoblar.

**23. Yozuvdagagi xatolar nechta usulda tuzatiladi?**

- a) 2 ta usulda. b) 3 ta usulda.
- v) 4 ta usulda. g) 6 ta usulda.

**O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR**

1. Schyotlarga qanday ta'rif byerasiz?
2. Aktiv schyotlarning qoldiqlari qanday aniqlanadi?
3. Passiv schyotlarning qoldiqlari qanday aniqlanadi?
4. Schyotlar nima uchun tasniflanadi?
5. Schyotlar tasniflanganda qanday schyotlarga bo'linadi?
6. Balansli schyotlarda nimalar hisobga olinadi?
7. Balansdan tashqari schyotlarda nimalar hisobga olinadi?
8. Ikki yoqlamali yozuv deganda nimani tushunasiz?
9. Sintetik schyotlar deganda nimani tushunasiz?
10. Analitik (tahliliy) schyotlar deganda nimani tushunasiz?
11. Joriy buxgaltyeriya hisobi ma'lumotlari qanday umumlashtiriladi?
12. Yozuvdagagi xatolar qanday to'g'rilanadi?

## **4-ma'ruza. QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA BUXGALTYERIYA HISOBINI TASHKIL QILISH ASOSLARI**

**Ma'ruzaning asosiy maqsadi** talabalarga quyidagi tayanch iboralar va tushunchalar to'g'risidagi bilimlarni byerish hisoblanadi:

*Qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi korxonasi, fermer xo'jaligi, dehqon-fermer xo'jaligi, agrofirmalar, agrosanoat birlashmalari, dehqonchilik, chorvachilik, dehqonchilik yo'nalishlari, chorvachilik yo'nalishlari, qishloq xo'jaligi davri, qishloq xo'jaligi mavsumi, qishloq xo'jaligi jarayoni, qishloq xo'jaligi mahsuloti, qishloq xo'jaligi korxonasining hisob siyosati, qishloq xo'jaligida buxgaltyeriya hisobining asosiy vazifalari.*

***Ma'ruza rejasi:***

- 4.1. Qishloq xo'jalik korxonalarining buxgaltyeriya hisobi sub'ekti sifatidagi tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari***
- 4.2. Qishloq xo'jaligi korxonalari hisob siyosatining xaraktyerli xususiyatlari***
- 4.3. Qishloq xo'jalik korxonalarida buxgaltyeriya hisobining asosiy vazifalari.***

### **MAVZUNI CHUQUR O'RGANISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ME'YORIY- HUQUQIY HUJJATLAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- 1 “Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini daplat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 martdagi qarori, № PQ-304.
2. “2007 yilda qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006+ yil 15 noyabrdagi qarori, № PQ-512
3. Fermer xo'jaliklarida buxgaltyeriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to'g'risida Nizom. Moliya vazirligi va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 2008 yil 21 yanvardagi 1, 1z2-son qarori bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 26 martda 1781-son bilan ro'yxatga olingan.
4. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. –T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2008.
5. “Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom”. O'z R VMning 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.
6. BHMS № 1 “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot”. O'zR. AV tomonidan 1998 yil 14 avgustda ro'yxatga olingan, № 474.
7. Voxidov S.V va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgaltyeriya hisobi xususiyatlari.-T.: “O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti”, 2004.
8. Sanaev N.S. Qishloq xo'jaligida buxgaltyeriya hisobi, nazorat va moliyalashtirishning dolzarb masalalari – Toshkent: “Mehnat”, 1991-104 b.
9. Sanaev N.S. Fermer xo'jaliklarida buxgaltyeriya hisobining xususiyatlari . - Toshkent: “Alishyer Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy Kutubxonasi” 2006.-145b
10. Do'stmurodov R, Masharipov O. Fermer xo'jaligida buxgaltyeriya hisobi va hisobotini tashkil etish. O'quv qo'llanma- Toshent, 2007-94 b.
11. Olimjonov O. va boshqalar. Fermerlik faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari. –T.: “Univyersitet” nashriyoti, 2005.
12. Urazov K.V.Boshqa tarmoqlarda buxgaltyeriya hisobining xususiyatlari. O'quv qo'llanma.-T.: , 2010.

#### **4.1. Qishloq xo'jalik korxonalariing buxgaltyeriya hisobi sub'ekti sifatidagi tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari**

Rejali iqtisodiyotdan bozor munosabatlarga asoslangan iqtisodiyotga o'tish respublikamizda qishloq xo'jalik tarmog'ining quyi bo'g'inini tashkil qiluvchi sub'ektlarning

tashkiliy va huquqiy maqomida turli o'zgarishlarga olib keldi. Ilgarilari asosan davlat va jamoa xo'jaliklaridan iborat bo'lgan qishloq xo'jalik korxonalari mustaqillik yillarida tugatildi, ularning o'rniga shirkat xo'jaliklari va qishloq xo'jalik kooperativlari, keyinchalik esa agrofirmalar, dehqon-fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari, shuningdek ularning uyushmalari tashkil qilindi.

Davlatimizning qishloq xo'jaligini isloh qilish borasidagi hozirgi siyosati negizida eng ustuvor yo'naliш sifatida yerni o'z egalariga, dehqonlarga, fermerlarga byerish, shu asosida dehqon xo'jaliklari va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish yotadi. 2008-2010 yillar davomida o'tkazilgan maqbullashtirish jarayoni natijasida, 2011 yil yakuniga ko'ra, respublikamizdagi fermer xo'jaliklarining soni 215 776 tadan 66134 taga yoki 69,4 foizga kamaytirildi, bunda bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan o'rtacha yer maydoni hajmini 27,4 gektardan 80,1 gektargacha ko'paytirishga yerishildi. Ularda 1,4 million kishi mehnat qilmoqda.

Mamlakatimizda o'tgan, 2011 yili 6 million 800 ming tonna g'alla, 3 million 500 ming tonnaga yaqin paxta, 8 million 200 ming tonnadan ortiq sabzavot va poliz, qariyib 3 million tonna bog'dorchilik mahsulotlari etishtirildi.<sup>2</sup>

Qishloq xo'jalik korxonalarini buxgaltyeriya hisobi sub'ektlari sifatida turlicha tasniflash mumkin. Ushbu tasnifiy belgilari ichida qishloq xo'jalik korxonalarining turlari, sohasi, ixtisoslashganligi, xodimlarning soni, soliq to'lash rejimi muhim o'rinni tutadi.

**Turlariga ko'ra** qishloq xo'jalik korxonalarini fermer xo'jaliklariga, dehqon-fermer xo'jaliklariga, shirkat xo'jaliklariga, agrofirmalarga bo'linadi.

**Sohasiga ko'ra** qishloq xo'jalik korxonalarini dehqonchilik va chorvachilik, shuningdek ushbu sohalarning har ikkalasiga ham doir bo'lgan korxonalarga bo'linadi.

**Ixtisoslashganligiga ko'ra** qishloq xo'jalik korxonalarini dehqonchilik va chorvachilikning turli yo'naliшidagi korxonalaga bo'linadi. Masalan, chorvachilik sohasidagi qishloq xo'jalik korxonalarini qoramolchilik, qo'ychilik, yilqichilik, cho'chqachilik, parrandachilik va boshqa shu kabi sohalarga ixtisoslashgan. Dehqonchilik sohasidagi qishloq xo'jalik korxonalarini bog'dorchilik, g'allachilik, tamakachilik va boshqa yo'naliшlardagi xo'jaliklarga bo'linadi. Agrofirmalar ham qishloq xo'jaligining u yoki bu sohasiga, shuningdek aralash sohalarga doir korxonalar hisoblanadi.

**Xodimlarning soniga ko'ra** qishloq xo'jalik korxonalarini mikrofirmalar, kichik korxonalar, o'rta va yirik korxonalarga bo'linadi. Respublikamizning qonun hujjatlari ko'ra qishloq xo'jalik tarmog'ida mikrofirmalar toifasiga kiruvchi korxonalar bo'lib xodimlarning soni 20 tagacha bo'lgan, kichik korxonalar bo'lib xodimlarning soni 50 tagacha bo'lgan korxonalar hisoblanadi. O'rta va yirik qishloq xo'jalik korxonalarini xodimlari sonining aniq miqdori qonun hujjatlari bilanbelgilangan.

Soliq to'lash rejimiga ko'ra qishloq xo'jalik korxonalarini umumbelgilangan va ixchamlashtirilgan soliq rejimlarida ishlovchi korxonalarga bo'linadi. Respublikamizning soliq qonunchiligi hujjatlari muvofiq qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtiruvchi hamda ularning qayta ishlovchi qishloq xo'jalik korxonalarini faqat yagona yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanadilar.

Sotib olingan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash faoliyati, shuningdek savdo, vositachilik, xizmat ko'rsatish va boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi qishloq xo'jalik korxonalar ushbu faoliyat turlari bo'yicha xodimlarning soniga qarab umumbelgilangan soliqlar yoki ixchamlashtirilgan soliq to'lovini ham to'laydilar.

Qishloq xo'jalik korxonalarida yuritiladgan buxgaltyeriya hisobining eng muhim ob'ektlari bo'lib ularning faoliyat turlari, xo'jalik jarayonlari va operasiyalari, mablag'lar, mablag'larni tashkil topish manbalari, daromad, xarajat, foyda va zararlar hisoblanadi.

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'naliшlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" mavzusi (2012 yilning 19 yanvarida)

Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyati **asosiy** va **asosiy bo'lImagan** faoliyat turlariga bo'linadi. Ularning asosiy faoliyatiga bevosita qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish bilan bog'liq faoliyat, asosiy bo'lImagan faoliyatga esa qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirishga bevosita aloqasi bo'lImagan moliyaviy, investisiya va boshqa faoliyat turlari kiradi.

Quyida qishloq xo'jalik korxonalarining asosiy faoliyat turlarining mohiyatiga, xususiyatlariiga, ularni buxgaltyeriya hisobini tashkil qilishga ta'sir ko'rsatish jihatlariga qisqacha to'xtalamiz.

Qishloq xo'jalik korxonalarining qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish bo'yicha faoliyati ikki turga – dehqonchilik va chorvachilikka bo'linadi. Ushbu faoliyat turlari maxsus lisensiya talab qilmaydigan faoliyat hisoblanadi.

**Dehqonchilik** – bu bevosita inson va jonli hayvonlar tomonidan iste'mol qilinadigan, ishlab chiqarishga moddiy asos bo'lib hisoblanadigan o'simliklar, ekinlar, xom-ashyo va matyeriallarni etishtirish (ishlab chiqish) bilan bog'liq jarayonlar majmuasi.

**chorvachilik** - deganda mahsulot va nasl byeradigan barcha jonli hayvonlarni etishtirish bilan bog'liq jarayonlar majmuasi tushuniladi.

Dehqonchilik va chorvachilik sohalarining buxgaltyeriya hisobi ob'ektlari sifatidagi xususiyatlari quydagilarni kiritish mumkin.

**Birinchidan**, dehqonchilik va chorvachilik faoliyatları turli jarayonlardan tashkil topadi. Chunonchi, dehqonchilik o'z ichiga yerni shudgorlash va ekishga tayyorlash, urug'ni ekishga tayyorlash, urug'lik qardash, ekinni parvarishlash (sug'orish, yaganalash, chilpish, defoliasiya qilish), hosilni tyerib olish va topshirish kabi xo'jalik ishlarini bajarishni talab qiladi. choravchilik mollarning tug'ilganligidan (sotib olinganligidan) boshlab, to, ularni xo'jalik balansida to'rgan davri ichida parvarishlash, mahsulot (nasl) olish, mahsulotni topshirishgacha bo'lgan juda ham xilma-xil bo'lgan xo'jalik jarayonlarini bajarishni taqozo etadi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida yuz byerayotgan ushbu jarayonlar son va sifat jihatidan turli o'lchov birliklarida o'z aksini buxgaltyeriya hisobida topadi.

**Ikkinchidan**, dehqonchilik va chorvachilik boshqa ishlab chiqarish turlaridan o'zlarining davomiyligi, shuningdek mavsumiyligi bilan farq qiladi. Misol uchun paxtani etishtirish faoliyati yerni ekishga tayyorlashdan tortib, to hosilni yig'ishtirib olgo'nga qadar kamida 7-8 oy mobaynida olib boriladi. Buzoqni katta ona mollar tarkibiga o'tqazish uning uning birinchi birinchi tug'ishiga etib kelganigacha qadar bo'lgan davrni (odatda, kamida ikki – uch yil) o'z ichiga oladi, xo'kizchani katta mollar tarkibiga o'tkazish eng kamida 18 oy yoki 1.5 yil davom etadi. Demak, dehqonchilik va chorvachilikning davomiylilik xaraktyeriga ega bo'lishligi ularga qilinayotgan sarflarni va olinadigan mahsulotlar davrlarini bir-biriga mos emasligini ko'rsatadi. Chunonchi, mahsulotni etishtirishga ketaidigan jonli va buyumlashgan mehnat sarflari to'xtovsiz, butun yil mobaynida davom etadi, hosilni yig'ishtirib olish esa yilning ma'lum davriga to'g'ri keladi. Bu o'z navbatida dehqonchilik va chorvachilikda tugallanmagan ishlab chiqarish jarayonini hisobot yili oylari bo'yicha, shuningdek kelgusi davr uchun uzlusiz hisobga olib borish zaruratini tug'diradi. Aksariyat qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtishtirishning mavsumiy xaraktyeriga ega bo'lish mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan notejis foydalanishga, shuningdek mavsumiy zahiralarni yaratishni zarurat qilib qo'yadi.

**Uchunchidan**, qishloq xo'jalik korxonalarida etishtiriladigan mahsulotlar asosiy va qo'shimcha mahsulotlarga bo'linadi. Tannarxni kalkulyasiya qilish ob'ekti bo'lib asosiy mahsulot hisoblanadi. Lekin, qilingan xarajatlar ham asosiy, ham qo'shimcha mahsulotga tegshishli bo'ladi. Shu bois ham xarajatlarni asosiy va qo'shimcha mahsulotlar o'rtasiga taqismlash ular har birining reja va haqiqiy tannarxlarini, kirim qiymatini va sotish baholarini to'g'ri aniqlash zaruratini tug'iladi. Chunonchi, bu ishlar har bir mahsulotturi bo'uicha individual yondashishni talab qiladi.

**To'rtinchidan**, qishloq xo'jalik korxonalarida etishtirilagn mahsulotlar mavsum davomida faqat reja tannarxida kirim qilib boriladi. Ularning haqiqiy tannarxi, yerishilgan

moliyaviy natijalar faqat qishloq xo'jalik taqvim yil tugagandan keyingina,buxgaltyeriya hisobida barcha turdag'i daromad va xarajatlar to'liq aks ettirilgandan so'ng aniqlanadi.

**Beshinchidan**, etishtirilgan mahsulotlarining tez buzilishiga moyilligi, maxsus saqlash joylarini talab etishi, ishlatilish maqsadi va boshqa jihatlari ularni turli usullarda kirim qilishni va haridorlarga jo'natishni taqozo etadi. Masalan, tyerilgan paxta bevosita daladan paxta punktlariga topshiriladi. Xuddi shunday tez bo'ziladigan meva-sabzavotlar, poliz ekinlari, chovakchilik mahsulotlari ularni qayta ishslash koxonalarga bevosita daladan (fyermalardan) yuklatiladi. G'alla qishloq xo'jalik korxonasining omborlariga yoki to'g'ridan to'g'ri g'alla qabul tayyorlov korxonalarga topshiriladi. Tez buzilmaydigan mevalar, poliz ekinlari, chovachilik mahsulotlari qishloq xo'jalik korxonalarining maxsus saqlash joylarga kirim qilinadi.

**Oltinchidan**, qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish qishloq xo'jalik korxonalarida bu soha bo'yicha ixtisoslikka ega bo'lgan mutaxassislardan iborat bo'lgan mehnat jamoalarini shakllantirishini shuningdek ular mehnatga haq to'lashni turli shakllarida hamda tizimlarda tashkil etishni taqozo etadi. Qishloq xo'jlik korxonalarining o'ziga xos mutaxassislariga agronomlar, zootexniklar, vetyerinarlar, miroblar, cho'ponlar, sut sog'uvchilar, traktorchilar, ishchilar va boshqalar kiradi. Qishloq xo'jaligi asosan jamoa mehnatiga tayanadi. Shu bois ham bu tarmoq korxonalarda mehnat va unga haq to'lashning brigada shakli keng qo'llaniladi.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, qishloq xo'jaligi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ishlab chiqarish tarmog'i hisoblanadi. Bu tarmoqning xususiyatlari qishloq xo'jalik korxonalarida buxgaltyeriya hisobini tashkil etishning o'ziga xos jihatlarini ham belgilaydi. Shu bois ham, qishloq xo'jaligiga mutaxassis tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida qishloq xo'jaligida buxgaltyeriya hisobi maxsus fan sifatida o'rganiladi.

Qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari ushbu tarmoq korxonalarida umumbelgilangan hamda tarmoq ahamiyatiga ega bo'lgan tartib qoidalarga asoslangan hisob siyosatini shakllantirishni, shuningdek ushbu hisob siyosatiga qat'iy aml qilish vazifasini qo'yadi.

#### **4.2. Qishloq xo'jalik korxonalari hisob siyosatining xaraktyerli xususiyatlari**

Qishloq xo'jalik korxonlari hisob siyosatining xaraktyerli xususiyatlari bevosita buxgaltyeriya hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarida, ularda qo'llaniladigan schyotlar rejasida, xo'jalik muomalalarini hujjatli rasmiylashtirilishida, hisob ma'lumotlarini qayd etish, guruhlash, jamlash va foydalanuvchilarga uzatishda, moliyaviy hisobot shakllari moddalarini to'lg'azish tartibida hamda boshqa jihatlarida yorqin namoyon bo'ladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida buxgaltyeriya hisobining tashkiliy shakliga ushbu xo'jaliklarning katta-kichikligi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yirik qishloq xo'jalik korxonalarida buxgaltyeriya hisobi maxsus bo'linmani , ya'ni buxgaltyeriyanı tashkil qilish yo'li bilan olib boriladi. Kichik qishloq xo'jalik korxonalarida maxsus buxgaltyeriyanı tuzish zarurati bo'lmaydi.Ularda hisob ishlari mehnat shartnomasi asosida ishga olingan yagona buxgaltyer tomonidan yuritiladi. Kichik fermer xo'jaliklarida hisob-kitob ishlarini bevosita xo'jalik rahbarining o'zi ham olib borishi mumkin. Shuningdek, ularda buxgaltyeriya hisobi tuzilgan shartnomasi asosida professional xizmatlani ko'rsatuvchi auditorlik tashkilotlari tomonidan ham yuritilishi respublikamiz qonunchilik hujjatlarida ta'qilanganmagan.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ining xususiyatlari ushbu tarmoq korxonalarida yuz byerayotgan jarayonlar, xo'jalik muomalalarini tizimli ravishda aks ettirishga mo'ljallangan buxgaltyeriya hisobi schyotlar rejasini qo'llashni taqozo etadi. Chunonchi, ularda olib borilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish faoliyati umumbelgilangan tartibdagi 2000 "Asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar" tizimida maxsus "Dehqonchilik" va "chovachilik" kabi schyotlarni nazarda tutishni taqozo etadi. Ushbu schyotlar tarkibida, o'z navbatida, alohida olingan qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlarini hisobi uchun mo'ljallangan schyotlar ochilishi ham mumkin. Qishloq xo'jalik korxonalari "Dehqonchilik" va "chovachilik" schyotlarida aks ettiriladigan xarajatlarning tarkibini belgilashda respublikamizda amalda bo'lgan Mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish va

sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida” Nizomda keltirilgan tartiblarga amal qilishlari lozim. Qishloq xo'jalik korxonalarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ushbu schyotlarning ochilishi, yuritilishi va yopilishi tartiblariga keyingi ma'ruzalarda alohida to'xtalamiz.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning uzluksizligi, etishtirilgan mahsulotlarning tannarxi, ularni sotishdan olingan moliyaviy natijalar qishloq xo'jalik korxonalarida ta'minot va sotish jarayonlarini to'g'ri tashkil etilganligiga, ishlab chiqarish zahiralarining o'z vaqtida olinganligiga, ularni tegishli miqdorda mavjudligiga, butligi, sifati, sotib olish qiymati (tannarxi) hamda boshqa jihatlariga bevosita bog'liqidir. Bu xususiyatlар qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zahiralari holati, kirimi, sarfi va boshqa chiqimlari ustidan uzluksiz tizimli nazorat o'rnatishni talab qiladi. Buning uchun ishchi schyotlar rejasida ishlab chiqarish zahiralari hisobi uchun mo'ljallangan maxsus schyotlarni nazarda tutish, ularda matyeriallar holati va harakatiga doir ma'lumotlarni uzluksiz, hujjatli asosda jamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo'jalik korxonalarining bu xususiyatlari ularning ishchi schyotlar rejasida “Urug'liklar”, “O'g'it”, “Yem-xashak”, “Dori-darmonlar” va boshqalar shu kabi maxsus schyotlarni ochish hamda yuritishni taqazo etadi.

Etishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining tannarxiga sarflangan matyeriallar qiymatini (tannarxini) baholash usullari ( FIFO, AVEKO) ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarini o'zlarining hisob siyosatidan ushbu ikkala usuldan tanlab olinganini yoki ularning har ikkalasini qaysi turdag'i ishlab chiqarish zahiralari bo'yicha qo'llash tartibini belgilab olishlari lozim.

Qishloq xo'jalik korxonalarida, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirishning uzoq davomiyligi hamda mavsumiyligi tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatini hisob-kitob qilish va inventarizasiyadan o'tqazishning aniq tartibini belgilashni taqozo etadi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar haqqoniy tannarxini ular kirimi paytida aniqlash imkonining mavjud emasligi hisob siysatida ular kirimi hisobini yil mobaynida reja yoki normativ tannarxi bo'yicha olib borish, yil oxirida esa mahsulotlarning haqqoniy tannarxi aniq bo'lgach, ular holati va harakatiga doir buxgaltyeriya yozuvlarigatuzatishlar kiritish tartibini o'rnatish talabini qo'yadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining daromadi asosan etishtirilgan mahsulotlarni sotishdan olinadi. Mahsulotlarni sotish davlat tomonidan qat'iy belgilangan narxlarda, shuningdek yerkin bozor narxlarida amalga oshiriladi. Davlat tomonidan qat'iy belgilangan narxlar ayrim mahsulotlar bo'yicha, masalan paxta, g'alla, pilla, tamaki va boshqa umumdavlat ahamiyatiga molik qishloq xo'jalik mahsulotlari bo'yicha belgilanadi. Shuningdek, ularga davlatga topshirish rejasidan ortiq etishtirilgan mahsulotlarni (paxta va pilladan tashqari) yerkin naxlarda naqd va naqd pulsiz, shuningdek mehnat haqi evaziga natural to'lov sifatida byerish ruxsat etiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarni sotishningushbu xususiyatlari sotishdan olingan daromadlarni hisoblash tamoyiliga asosan tan olish, ularni to'g'ri va o'z vaqtida hujjatli rasmiylashtirish hamda tegishli schyotlarda aks ettirish tartiblaiga qat'iy amal qilish talabini qo'yadi.

Qishloq xo'jalik korxonalari o'zlarining asosiy vositalari, joriy aktivlari, xususiy kapital va majburiyatlarning tarkibi, ularni shakllantirish tartibi bo'yicha ham, bir tomonidan, boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan farqli jihatlariga ega. Chunonchi, asosiy podani shakllantirish, yosh mollarni asosiy podaga o'tkazish, texnika va transport vositalarini dala ishlari, tyerim mavsumlariga tayyorlan, xususiy mulkni ustav kapitaliga kiritish, olingan foydani ishlatish, paychilar o'rtasida taqsimlash kabilardagi xususiyatlarni qishloq xo'jalik korxonalarining hisob siyosatida ular hisobini yuritish tartiblarini aniq ifodalashni taqozo etadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida yuz byerayotgan xo'jalik operasiyalarini hujjatli rasmiylashtirish turilicha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, traktorlarda yerni shudgor qilish, paxta qatorlariga texnika yoki qo'l mehnatida ishlov byerish, urug'lik qadash, minyeral o'g'itlash, em-xashaklarni mollarga ozuqa rasioni hamda belgilangan ozuqa kunlari bo'yicha

sarflashdagи xususiyatlar ushbu operasiyalarni rasmiylashtirish uchun mo'ljallangan boshlang'ich hujjatlar klassifikatorini qishloq xo'jalik korxonalari hisob siyosatining tarkibiy elementi sifatida ishlab chiqishni hamda ularga to'liq amal qilish talabini qo'yadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarini o'zlarining hisob siyosatida buxgaltyeriya hisobining umumbelgilangan shakllaridan birini tanlab olishlari mumkin. Bunday shakllar bo'lib buxgaltyeriya hisobining memorial-ordyer, jurnal-ordyer, komptyerlashtirilashtirilgan shakl, soddalashtirilagn shakllar hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligining xususiyatlarini e'tiborga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi o'zlarining 2008 yil 21 yanvardagi 1, 1/2-son qarori bilan maxsus "Fermer xo'jaliklarida buxgaltyeriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to'g'risida nizom"ni tasdiqladilar. Ushbu nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 26 martda 1781-sod bilan ro'yxatga olindi. Ushbu Nizomga muvofiq fermer xo'jaliklari uchun maxsus moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgaltyeriya hisobi namunaviy schyotlar rejasiga tasdiqlandi. Fermer xo'jaliklarida buxgaltyeriya hisobining soddalashtirilgan shakli quyidagi shakllar bo'yicha yuritilishi mumkin:

- a) buxgaltyeriya hisobining oddiy shakli;
  - b) buxgaltyeriya hisobining Kombinasiyalashgan shakli.

Fermer xo'jaligi o'zining ishlab chiqarish va boshqaruva talablaridan kelib chiqqan holda ushbu tavsiya etilgan ikkita shakldan birini mustqil tanlaydilar.

Nizomga muvofiq fermer xo'jaliklarida buxgaltyeriya hisobining tanlangan shaklidan qat'iy nazar, hisobot davrining xo'jalik operasiyalari xronologik tartibda "Xo'jalik operasiyalarini qayd etish jurnalida" ro'yxatga olib boriladi. Xo'jalik operasiyalarini vayd etish jurnalni kitob shaklida yuritiladi, unda xo'jalik operasiyalarining qayd etilishi va hisobi hisobot davri uchun oylar yoki choraklar Kesimida yuritiladi. Bunda, xo'jalik operasiyalarini qayd etish jurnalni tikilgan va raqamlangan bo'lishi shart. Xo'jalik operasiyalarini qayd etish jurnalining so'ngi varag'ida fermerning imzosi bilan "Mazkur jurnalda ... varaq raqamlangan" deb yoziladi va muhr bilan tasdiqlanadi. Varaqlar soni yozuv bilan yoziladi.

Buxgaltyeriya hisobining oddiy shaklida fermer xo'jaliklarida xo'jalik operasiyalari hisobini yuritish uchun maxsus "Xo'jalik operasiyalarini hisobga olish kitobi" registri qo'llaniladi. Xo'jalik operasiyalarini hisobga olish kitobida operasiyalar hisobi butun hisobot yili davomida yuritiladi. Bunda, xo'jalik operasiyalarini hisobga olish kitobi tikelgan va raqamlangan bo'lishi shart. Xo'jalik operasiyalarini hisobga olish kitobining so'nggi varag'ida fermerning imzosi bilan "Mazkur kitobda..... varaq raqamlangan" deb yoziladi va muhr bilan tasdiqlanadi. Varaqlar soni yozuv bilan yoziladi.

Xo'jalik operasiyalarini hisobga olish kitobida xo'jalik operasiyalari natijalari aktivlarni, majburiyatlarni, xususiy kapitalni, daromadlar, xarajatlar, foyda va zararlarni hisobga oluvchi schyotlarda aks ettiriladi.

Xo'jalik operasiyalarini hisobga olish kitobida yozuvlar tizimli tartibda "Xo'jalik operasiyalarini qayd etish jurnal"da keltirilgan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Xo'jalik operasiyalarini hisobga olish kitobi kombinasiyalashgan registr hisoblanadi, unda fermer xo'jaliklari tomonidan qo'llaniladigan barcha schtlar mavjud bo'ladi va ularning har birida xo'jalik operasiyalari hisobini yuritish imkoniyatini yaratadi. Bunda, balansning tegishli moddalarining mazmunini asoslab byerish uchun u etarli darajada batafsil bo'lishi lozim. Xo'jalik operasiyalarini hisobga olish kitobida har bir qo'llanilayotgan buxgaltyeriya schyoti uchun aniq buxgaltyeriya schyotlari bo'yicha o'tgan yillarning tajribasini hisobga olgan holda, xo'jalik operasiyalarining kutilayotgan hajmidan kelib chiqqan holda, ma'lum betlar airatiladi.

Xo'jalik operasiyalarini hisobga olish kitobi "20\_\_ yil \_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi qoldiq" qatorida aktivlarning, majburiyatlarning va xususiy kapitalning har bir turi bo'yicha hisobot davrining boshida mayjud bo'lgan qoldiq summasi yozuvi bilan ochiladi, aktiv schvotning

qoldig'i ushbu schyotlarning debetida, passiv schyotlar bo'yicha qoldiq esa ushbu schyotlar Kreditida yoziladi.

Har bar qatorda tegishli buxgaltyeriya schyoti bo'yicha yozuvlar xo'jalik operasiyalarini qayd etish jurnalida keltirilganbuxgaltyeriya yozuvlari ma'lumotlari asosida pozisiya usulida xronologik ketma-ketlikda amalgalashadi.

Har bir oyning (chorakning) oxirida xo'jalik operasiyalarini hisobga olish kitobida yakun chiqariladi va unga asosan fermer xo'jaligi faoliyatining natijasi aniqlanadi.

Xo'jalik operasiyalarini hisobga olish kitobida yuritilgan aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitalni hisobga oluvchi schyotlarning qoldiqlari 1-sonli shakl "Buxgaltyeriya balansi"ga o'tkaziladi.

Xo'jalik operasiyalarini hisobga olish kitobida yuritilgan daromadlar va xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarning hisobot davridagi aylanmasi 2-sonli shakl "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"ga o'tkaziladi.

Buxgaltyeriya hisobining kombinasiyalashgan shaklini yuritishda buxgaltyeriya hisobining quyidagi hisob qaydnomalaridan foydalaniladi:

- a) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni hisobga olish qaydnimasi;
- b) moliyaviy investisiyalarni hisobga olish faydnomasi;
- v) kapital qo'yilmalarni hisobga olish qaydnomasi;
- g) tovar-moddiy zahiralarini hisobga olish qaydnomasi;
- d) boquvdagi va o'stirishdagi hayvonlarni hisobga olish qaydnomasi;
- e) haridor va buyurtmachilar bilan hisob kitoblarni hisobga olish qaydnomasi;
- j) boshqa debitorlik qarzlarini hisobga olish qaydnomasi;
- z) pul mablag'larini hisobga olish qaydnomasi;
- i) mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish qaydnomasi;
- k) hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish qaydnomasi;
- l) mehnatga xaq to'lash bo'yicha hisob-kitoblarni hisobga olish qaydnomasi;
- m) boshqa majburiyatlarni hisobga olish qaydnomasi;
- n) xususiy kapitalni hisobga olish qaydnomasi;
- o) hisobot davri xarajat (sarflarini hisobga olish qaydnomasi;
- p) dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasi;
- r) chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasi;
- s) yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari va xizmatlarini hisobga olish qaydnomasi;
- t) sof foya (zarar)ni hisoblash qaydnomasi;
- u) xo'jalik operasiyalarini hisobga olish jamlanma qaydnomasi;

Alohibda ob'ektlar uchun mo'ljallangan ushbu qaydnomalarning yuritilish tartibiga keyingi ma'ruzalarda maxsus to'xtalamiz.

#### **4.3. Qishloq xo'jalik korxonalarida buxgaltyeriya hisobining asosiy vazifalari**

Davlatimiz tomonidan iqtisodiyotni yerkinlashtirish va modyernizasiya qilish borasida olib borilayotgan tadbirlar bevosita qishloq xo'jaligiga ham dahldordir. Dehqonchilik va chorvachilik sohalari moddiy texnika bazasini yangi texnika va texnologiyalar kiritish asosida yaxshilash, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modyernizasiyalash, kengaytirish va rekonstruksiya qilish, suv ta'minoti va yerlarining melorativ holatini yaxshilash buxgaltyeriya hisobi oldiga ushbu ishlarga sarf xarajatlarini to'g'ri va o'z vaqtida hujjatlashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish jarayonlari sintetik va analitik hisobini yuritish, tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatishni to'g'ri aniqlash, sotilgan mahsulotlar tannarxini aniq boholash va kalkulyasiya qilish, ularni hisobot davriga daromadlariga hisoblash tamoyiliga asosan kiritish, o'zaro hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirish kabi muhim vazifalarni qo'yadi.

Qishloq xo'jaligining xususiyatlari fermer xo'jaliklarida ularning mulki hamda bu mulkni tashkil qilish manbalari hisobi oldiga ham muhim vazifalar qo'yadi. Chunonchi, asosiy vositalar, hisobi va hisobot tizimi ushbu aktivlar tarkibidagi qimmat turdag'i qishloq xo'jaligi texnikasi, omborxonalar, maxsus bino va inshoatlarining holati va harakati, ularning ish faoliyati, amortizasiyalanishi va boshqa jihatlari to'g'risida batafsil ma'lumotlarni byerish lozim.

Qishloq xo'jaligi ishlarini belgilangan muddatda bajarish tegishli hom ashyo va matyeriallarning o'z vaqtidan kelib tushishiga ular bo'yicha tasdiqlangan limitning mavjudligi, butligi va sifatiga bevosita bog'liqidir. Bundan tashqari kelib tushayotgan matyeriallar qiymatini (tannarxini) to'g'ri baholash, ular hisobini baholashning u yoki bu usulda yuritilishi etishtirilayotgan mahsulotlarning tannarxiga ularni sotishdan olingan daromadlarga, fermer xo'jaliklarining sof foydasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ularning barcha qishloq xo'jaligi korxonalarida matyeriallari hisobi oldiga ular qiymatini to'g'ri baholash, matyeriallar holati va harakati ustidan uzliksiz nazorat olib borish, ular kirim va chiqimga doir hujjatlarini to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirish ushbu boyliklar ombor va buxgaltyeriya hisob registrasiyalarini belgilangan tartibda yuritishdek muhim vazifa qo'yadi.

Qishloq xo'jaligi ishlari boshqa ishlardan farqli o'laroq kollektiv mehnatiga tayanadi, ya'ni ular olib borishida mehnatni tashkil qilishning brigada shakli keng qo'laniadi. Mos ravishda bajarilgan ish va hizmatlarga xaq to'lashda va mehnatning brigada shakli asos qilib olinadi. Qishloq xo'jalik ishlarining yaxlit brigada a'zolari tomonidan bajarilishi jami hisoblangan ish haqini, unga qo'shimchalarni brigada a'zolari o'rtasida ularning mehnatidagi haqiqiy ishtirokiga mos tarzda to'g'ri taqsimlab chiqish va hisobini yuritish vazifasini qo'yadi.

Qishloq xo'jalik korxonalar o'z faoliyatini yuritishda xo'jalik hisobi tamoyiliga asoslanuvchi sub'ektlar hisoblanadi, ya'ni ular o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlashlari olingan daromadlar evaziga xarajatlarni to'liq qoplashlari va pirovardida foyda olishlari lozim. Bu tamoyilga amal qilish talabi buxgaltyeriya hisobi tizimi oldiga daromadlar, xarajatlar va yakuniy moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarini milliy pul birligida tizimli aks ettrishdek muhim vazifa qo'yadi.

Qishloq xo'jalik korxonalar boshqa korxonalar singari davlatimizning soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan soliqlar va ajratmalarining to'lovchilari hisoblanadi. Buxgaltyeriya hisobi tizimi qishloq xo'jalik korxonalar tomonidan to'lanadigan tegishli soliqlar va majburiy ajratmalar to'g'ri hisoblanishi, ularni o'z vaqtida byudjetga o'tkazib berilganishiga xizmat qilishi lozim.

## O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN TEST SAVOL-JAVOBLARI

### 1. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining quyi bo'g'ini –bu ...

- a) qishloq va suv xo'jaligi vaziligi.
- b) qishloq xo'jalik boshqarmalari.
- v) qishloq xo'jaligi korxonalar.
- g) tuman fermerlar uyushmasi.

### 2. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining sohalari ...

- a) chorvachilik.
- b) dehqonchilik.
- v) qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslash.
- g) yuqorida keltirilganlarning barchasi.

### 3.Tuxum etishtirish kiradi ...

- a) qishloq xo'jalik tarmog'iga.
- b) qishloq xo'jalik sohasiga.
- v) mahsulot olish yo'nalishiga.
- g) yuqorida javoblarda keltirilganlarning barchasi.

### 4. Qishloq xo'jalik korxonasining hozirgi davrdagi asosiy tashkiliy – huquqiy shakliga kiradi ...

- a) shirkatlar.
- b) jamoa xo'jaliklar.

v) fermer xo'jaliklari. g) qishloq xo'jaligi trestlari.

**5. Qishloq xo'jaligining buxgaltyeriya hisobiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy xususiyatlariga kiradi ...**

- a) mavsumiylik. b) davomiylik.  
v) xarajat qilish va mahsulot olish davrlarining mos emasligi.  
g) yuqorida keltirilganlarning barchasi.

**6. Fermer xo'jaligi ...**

- a) o'z hisobi siyosatiga ega bo'lishi sharti.  
b) o'z hisobi siyosatiga ega bo'lishi shart emas.  
v) o'z hisobi siyosatini boshqalardan ko'chirib oladi.  
g) xech ham hisob siyosatini yuritmaydi.

**7. Fermer xo'jaligi ...**

- a) buxgaltyeriyaga ega bo'lism shart.  
b) buxgaltyeriya hisobini yuritish shart emas.  
v) xoxlagan shaklda hisobni yuritadi.  
g) hisobni faqat yuritish kerak.

**8. Qishloq xo'jalik korxonasida hisob ...**

- a) memorial-ordyer shaklda yuritilishi mumkin.  
b) jurnal-ordyer shaklda yuritilishi mumkin.  
v) soddalashtirilgan shaklda yuritilishi mumkin.  
g) yuqorida keltirilganlardan biri bo'yicha yuritilshi mumkin.

**O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR**

1. Qishloq xo'jaligi korxonalari deganda qanday korxonalarini tushunasiz?
2. Qishloq xo'jalik korxonalari qanday belgilariiga ko'ra tasniflanadi?
3. Qishloq xo'jalik korxonalarining tashkiliy huquqiy asoslari to'g'risida gapirib byering?
4. Qishloq xo'jalik korxonalarining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib byering?
5. Qishloq xo'jalik korxonalarining hisob siyosati deganda nimani tushunasiz?
6. Qishloq xo'jalie korxonalarida buxgaltyeriya hisobining vazifalari nimalardan iborat?

## **5-ma'ruza. QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA PUL MABLAG'LARI HISOBI**

**Ma'ruzaning asosiy maqsadi** talabalarga quyidagi tayanch iboralar va tushunchalar to'g'risidagi bilimlarni byerish hisoblanadi:

*Pul mablag'lari, kassa, kassa tushumlari, kassa chiqimlari, naqd pul hujjatlari, kirim va chiqim kassa ordyeri, kassa hisoboti (kitobi), bank hisobvaraqlari schyoti, akkreditiv schyot, chek schyoti, valyuta schyoti, naqd pul cheki, to'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnomasi, memorial-ordyer, bank ko'chirmasi (vipiska), bank Krediti, maxsus schyotlar.*

### ***Ma'ruza rejasি:***

- 5.1. Qishloq xo'jalik korxonalarining pul mablag'lari to'g'risida tushuncha va ularni hisobining vazifalari.***
- 5.2. Kassa operasiyalarini hisobga olish.***
- 5.3. Hisob – kitob schyoti bo'yicha operasiyalarni hisobga olish.***
- 5.4. Valyuta schyoti bo'yicha amalga oshirilgan operasiyalarni hisobga olish.***
- 5.5 Maxsus schyotlar bo'yicha amalga oshirilgan operasiyalarni hisobga olish.***

### **MAVZUNI CHUQUR O'RGANISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN MYE'YORIY- HUQUQIY HUJJATLAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Jo'raev N., Bobojonov O., Abduvaxidov F., Sotvoldieva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. -T.: 2007 y.
2. BHMS № 9 "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot". O'zR. AV tomonidan 1998 yil 4 noyabrda ro'yxatga olingan, № 519.
3. Voxidov S.V va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgaltyeriya hisobi xususiyatlari.-T.: "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti", 2004.
4. Sanaev N.S. Qishloq xo'jaligida buxgaltyeriya hisobi, nazarat va moliyalashtirishning dolzarb masalalari – Toshkent: "Mehnat", 1991-104 b.
5. Sanaev N.S. Fermer xo'jaliklarida buxgaltyeriya hisobining xususiyatlari .- Toshkent: "Alishyer Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy Kutubxonasi" 2006.-145b.
6. Do'stmurodov R, Masharipov O. Fermer xo'jaligida buxgaltyeriya hisobi va hisobotini tashkil etish. O'quv qo'llanma- Toshkent, 2007-94 b.
7. Olimjonov O. va boshqalar. Fermerlik faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari. –T.: "Univytersitet" nashriyoti, 2005.
8. Urazov K.V.Boshqa tarmoqlarda buxgaltyeriya hisobining xususiyatlari. O'quv qo'llanma.-T.: , 2010.
9. BHMS № 22 "Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi". O'zR. AV tomonidan 2004 yil 21 mayda ro'yxatga olingan, № 1364.
10. Intyernetsaytlari:
  - www. gaap.ru (Xalqaro buxgaltyeriya standartlari);
  - www. cip.com (Xalqaro Syertifikatli Buxgaltyer);
  - www. aicpa.ord (Amyerican Institute of Cyertified Publik Accountants);
  - www. buhgalt.ru ("Бухгалтуерский учет" jurnalı (РФ)).
  - www.ziyonet.uz.

### ***5.1. Qishloq xo'jalik korxonalarining pul mablag'lari to'g'risida tushuncha va ularni hisobining vazifalari***

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jalik korxonalari ham ishlab chiqarish jarayonida doimo boshqa xo'jaliklar bilan iqtisodiy aloqada bo'ladilar. Bunday aloqalarini olib borish xo'jaliklarning asosiy faoliyati hisoblanadi va ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi, mahsulotlarni o'z vaqtida jo'natish hamda sotish jarayoni ta'minlanadi. Xo'jalik aloqalari shartnomalar bilan rasmiylashtirilib, ularga asosan bir tomon mahsulot (ish va

xizmat) larni taklif etuvchi (sotuvchi), ikkinchi tomon esa – xaridor sifatida qatnashib, to'lovni amalga oshiruvchi bo'lib qatnashadi.

Mahsulot (ish va xizmat) larni etkazib beruvchi bilan uning haqini to'lovchilar orasidagi hisoblashishlar o'z vaqtida tashkil etilishi aylanma mablag'larning aylanish tezlashishiga ta'sir qilib, olinadigan va to'lanadigan mablag'larning paydo bo'lishiga barham byeradi.

Shuningdek, xo'jaliklarning byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tegishli idoralar hamda ishlab chiqarishda, boshqaruv apparatida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar bilan hisoblashishlar vujudga keladi.

Xo'jalikning boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hisoblashishlari naqd pullik yoki naqd pulsiz, ya'ni pul o'tkazish yo'li orqali to'lovni oluvchining hisob raqami ochilgan bankka o'tkazib berilganadi. Bugo'ngi kunda sub'ektlar o'rtasida o'zaro hisob-kitob operasiyalari bo'yicha hisoblashishlar nizomga<sup>3</sup> ko'ra pul o'tkazish yo'li orqali amalga oshiriladi.

Tijorat banklari yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh turgan mablag'larini jalb qilish, ularning boshqa xo'jalik hamda tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro hisob – kitoblarini amalga oshirish, shuningdek, qaytarib olish to'lovlik va muddatlik sharti bilan bo'sh mablag'larni joylashtirish maqsadida tashkil etilganligidir.

Respublikamizda bank tizimi davlat markaziy banki va tijorat banklaridan tashkil topgan bo'lib, ular o'z mijozlariga shartnomaga asosida xizmat ko'rsatadi. Mijozlar bank xizmatlaridan foydalanishda mustaqil ravishda o'zlarini tanlagan bir yoki bir nechta banklarda hisob-kitob-pul bilan bog'liq operasiyalari amalga oshiradi.<sup>2</sup>

Shu bilan birga ishlab chiqarish faoliyati kengaytirish maqsadida bankning Kredit resurslaridan foydalanishlarilari va maqsadli Kredit munosabatlari yuzasidan Kredit shartnomalarini rasmiylashtirishlari mumkin. korxonalar banklarda hisob-kitob va valyuta schyotlaridan tashqari, maxsus joriy schyotlari (limitlashtirilgan chek daftarchalari, akkreditivlar, maxsus schyotlar va b.)dan ham foydalanishlari mumkin. Shu sababli ham qishloq xo'jalik korxonalarining pul mablag'lari deganda, xo'jalikning Kassasidagi, banklardagi hisob-kitob, valyuta schyotlaridagi, maxsus joriy schyotlari (limitlashtirilgan chek daftarchalari, akkreditivlar, maxsus schyotlar va b.)dagi pul mablag'lari tushuniladi. Bu pul mablag'lari mahsulotlarni sotish, ish va xizmatlarni bajarish, bankdan va boshqa Kreditorlardan olingan qarzlar hisobiga ko'payib, o'z ehtiyoji uchun mol-mulk va boshqa aktivlarni sotib olish, qarzlarni, soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarini to'lash, ishchilarga ish haqi byerish va boshqa xarajatlarni amalga oshirilganida kamayib turadi.

1.Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning pul mablag'lar hisobi buxgaltyeriya hisobi schyotlar rejasining beshinchi bo'limi, majburiyatlari bo'yicha hisob-kitoblar esa oltinchi va ettinchi bo'limida tayinlangan schyotlarda yuritiladi.

2.Xo'jaliklarda mayjud pul mablag'laridan maqsadli foydalanish va ularni samarali boshqarish, shuningdek, olinadigan mablag'lar va majburiyatlarni o'z vaqtida so'ndirish buxgaltyeriya hisobi orqali nazorat qilinadi. Shu boisdan, ushbu nazoratni to'g'ri va o'z vaqtida tashkil etishda uning oldiga bir qator vazifalarni bajarishni taqozo etadi. Ular quyidagilardan iborat:

3. Pul mablag'lari va hisob-kitob operasiyalarini o'z vaqtida tegishli hujjatlarda to'g'ri rasmiylashtirib borish;

4. Kassadagi kirim va chiqim qilinayotgan mablag'larni to'g'ri rasmiylashtirish hamda ularni Kassa daftarida qayd qilib borish;

5. Kassadagi naqd pul mablag'lari va unga ekvivalent bo'lgan pul hujjatlari, qimmatli qog'ozlarning butligini kundalik nazorat qilib borish;

6. Pul mablag'laridan to'g'ri foydalanish va ularning maqsadli sarflanishini doimiy nazorat qilish;

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to'g'risida yo'riqnomasi. O'zR AV 29.09.2003 y. 1080-1-son bilan ro'yxatga olingan

7. Byudjet, byudjetdan tashqari mablag'lar, banklar, xodimlar va boshqa tashkilotlar, xaridor va buyurtmachilar bilan shartnomada belgilangan to'lov shakllariga amal qilib borishni nazorat qilish;

8. Qarzlarni qaytarish muddatidan o'tkazib yubormaslik maqsadida debitor va Kreditorlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarni o'z vaqtida taqqoslama dalolatnomalar bilan rasmiylashtirish hamda uni so'ndirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish;

10 Xo'jalikning pul mablag'lari harakatini oldindan prognozlash va pul oqimini me'yorlashtirish bo'yicha tegishli tadbirlar ishlab chiqishda iboratdir.

## **5.2. Kassa operasiyalarini hisobga olish**

Korxonaning kassasi buxgaltyeriya apparatining tarkibida bo'lib, unga naqd pul mablag'lari va boshqa qimmatliklar (qimmatli qog'ozlar, pulli hujjatlar, pochta markalari va boshqa)ni qabul qilish, byerish hamda saqlash operasiyalarini amalga oshirish majburiyati yuklatilgan.

Pul mablag'larining butligi, kassa operasiyalarini bajarish bo'yicha moddiy javobgarlik korxona rahbari tomonidan tayinlanadigan kassirga biriktirilgan. kassa operasiyalarini yuritish amaldagi qoidaga ko'ra tartibga solinadi.<sup>3</sup>

Kassada kechiktirib bo'lmaydigan xarajatlarni qoplash uchun zarur bo'lgan belgilangan limit doirasida qoldiq bo'lishi mumkin. Belgilangan limitdan ortiqcha naqd pul kassada faqat ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya byerish kunlari, bank muassasasidan pul olingan kun ham qo'shilgan holda, uch kun ichida saqlanishi mumkin.

Kassaga pulni qabul qilish bosh buxgaltyer yoki uning yordamchisi tomonidan imzolangan kassa kirim ordyeri (KO-1-shakl) bilan rasmiylashtiriladi. Bunda pul topshiruvchiga kassir va bosh buxgaltyer tomonidan imzolangan (0402004-kvitansiya) kvitansiya berilganadi.

Kassadan naqd pul kassa chiqim ordyeri (KO-2-shakl) yoki kassa chiqim ordyeri rekvizitlari o'rnini bosuvchi maxsus shtamp qo'yilgan talabga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlar (to'lov qaydnomai, pul byerish to'g'risida ariza, schyotlar va b.) bo'yicha berilganadi.

Kassadan pul rahbar va bosh buxgaltyer yoki ular vakolat byergan shaxslar tomonidan imzolangan hujjatlar bo'yicha berilganadi. Agar kassa chiqim ordyerlariga ilova qilinadigan pul byerish to'g'risidagi hujjatlarda rahbarning imzosi bo'lsa, kassa chiqim ordyerlariga imzo qo'yish shart emas.

Kirim kassa ordyerlari, uning kvitansiyalari va kassa chiqim ordyerlari buxgaltyer tomonidan aniq qilib yoziladi. Bu hujjatlarda xech qanday o'chirish yoki to'g'rakashga ham yo'l qo'yilmaydi. korxonada ishlamaydigan shaxslarga pul byerishda ularning shaxslarini tasdiqlovchi pasport yoki boshqa hujjat talab qilinadi, kassa chiqim ordyerning pul olganligi to'g'risida imzo qo'yiladigan joyida taqdim etilgan hujjatning ma'lumotlari ko'rsatiladi.

Ish haqi va unga tenglashtirilgan mablag'lar uchun naqd pul bankdagi hisob-kitob schyotidan pul chek daftarchasiga asosan olinadi.

Pul chek daftarchasi hisob-kitob schyotidan unda ko'rsatilgan naqd pulni byerish to'g'risida korxonaning bankka byergan buyrug'i bo'lib hisoblanadi. Ish haqi, pensiya nafaqa, mukofotlar to'langanda har bir oluvchiga kassa chiqim ordyeri tuzilmasdan to'lov qaydnomasi bo'yicha to'lanadi. Ish haqi tarqatilgandan so'ng to'lov qaydnomasi bo'yicha umumiyl to'langan summaga buxgaltyer kassa chiqim ordyeri tuzadi. Kassa ordyerlari bo'yicha pul qabul qilish va to'lash faqat hujjatlar tuzilgan kuni amalga oshiriladi.

Barcha kassa kirim va chiqim ordyerlarini buxgaltyer kassa kirim va chiqim hujjatlarini ro'yxatga olish jurnaliga yozib (KO-3-shakl) kassirga byeradi. Pul olingandan yoki berilgangandan so'ng kassir zudlik bilan kirim va chiqim ordyerlariga imzo qo'yadi hamda ularga ilova qilingan hujjatlarga sanasini ko'rsatib shtamp yoki qo'lda: kirim hujjatlariga – «Olindi», chiqim hujjatlariga – «To'landi» deb belgi qo'yadi.

<sup>3</sup> O'zR Markaziy bank boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan «Yuridik shaxslar tomonidan kassa operasiyalarini yuritish» qoidalari. 376-sonli qarori. 1998 y. 24 yanvar.

Ro'yxatga olish jurnali ma'lumotlariga asosan olingan va sarflangan naqd pul maqsadli ishlatalishi korxona tomonidan nazorat qilinadi hamda kassir tomonidan amalga oshirilgan operasiyalarning to'lqligi tekshiriladi.

Naqd pul harakatini kassir raqamlangan, tikelgan va korxona muhri bosilgan kassa daftarida hisobga oladi. Kassa daftaridagi varaqlar soni korxona rahbari va bosh buxgaltyerning imzolari bilan tasdiqlanadi.

Kassa daftari ikki nusxada yuritilib, ikkinchi nusxasi yirtib olinib kassirning hisoboti sifatida foydalaniladi. Birinchi nusxasi esa kassa daftarida qoladi. Kassa daftarida o'chirib tuzatish va tuzatishlarga yo'l qo'yilmaydi. Talabga muvofiq qilingan tuzatishlar kassir va bosh buxgaltyer yoki uni o'rnini bosuvchi shaxs tomonidan imzolanib tasdiqlanadi. Har bir ordyer bo'yicha pul qabul qilingandan yoki berilgangandan so'ng kassa daftariga yozib boriladi.

Har kuni ish vaqtin tugagandan so'ng kassir kunlik operasiyalar jamlanib, kassada keyingi kun boshiga qoldiqni chiqaradi va shu kunning o'zida kassa kirim, chiqim ordyerlari hamda ularga ilova qilingan hujjatlar bilan birga hisobot (daftarning yirtib oladigan varag'i)ni kassa daftari (birinchi nusxasi)ga imzo qo'yib bosh buxgaltyerga topshiradi.

Naqd pul mablag'lari harakati 5010 – «Milliy valyutadagi pul mablag'lari» schyotida hisobga olinadi. Bu schyotning debetida naqd pulning kirimi, Kreditida – chiqimi aks ettiriladi. Schyotning saldosi hisobot davri boshiga kassada qolgan naqd pulni ko'rsatadi. 5010 – schyotning Kredit oboroti 1 – jurnal-ordyerda aks ettiriladi. Debet oborotlari turli jurnal-ordyerlarga yoziladi, bundan tashqari, 1-qaydnomaga bilan nazorat qilinadi.

1 – jurnal-ordyer va 1-qaydnomaga yozish uchun kassirning hisoboti asos bo'lib hisoblanadi. Registrda kassirning har bir hisoboti bir qatorga yoziladi. Demak, jurnal-ordyer va qaydnomada band qilingan qatorlar soni kassirning topshirgan hisobotlar soniga teng bo'lishi kerak.

5010- schyot bo'yicha maxsus analistik hisob yuritilmaydi. Analistik registrlari bo'lib kassa daftari, kassirning hisobotlari yoki ularning o'rnini bosuvchi mashinogrammalar hisoblanadi.

Kassir moddiy javobgar shaxs bo'lib, korxonaga etkazilgan zarar uchun javobgardir. Kassir lavozimiga qabul qilingan shaxsni korxona rahbari kassa operasiyalarini yuritish tartibi bilan tanishtirtib, u bilan moddiy javobgarlik to'g'risida yozma majburiyat (shartnama) tuzadi. Kassadagi pul mablag'lari oyiga kamida bir marta inventarizasiya qilinadi. korxona rahbari buyrug'i bilan tashkil etilgan komissiya tomonidan kassirning ishtirokida kassa to'satdan tekshiriladi. Bunda naqd pul, pulli hujjatlar, qimmatli qog'ozlar va qat'iy hisobot blankalarii to'liq tekshiriladi. Kassa chiqim ordyerlari bilan rasmiylashtirilmagan tilxatlar Kassa bo'yicha qoldiqqa kiritilmaydi. korxonaga tegishli bo'limgan pul mablag'lari kassada saqlash taqilanganadi.

Kassada ortiqcha yoki kamomad aniqlansa, inventarizasiya dalolatnomasining orqa tomonida sodir bo'lgan ortiqcha va kamomadning sabablarini ko'rsatib kassir tushintirish xati yozadi, korxona rahbari esa tekshirish natijasi bo'yicha inventarizasiya komissiyasi qarorini tasdiqlaydi. Aniqlangan ortiqcha naqd pul quyidagicha buxgaltyeriya yozuvi bilan kassaga kirim qilinadi: Dt 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag'lari» schyoti, Kt 9390 «Boshqa operasion daromadlar» schyoti.

Aniqlangan kamomad esa quyidagicha buxgaltyeriya yozuvi bilan kassirdan undirib olinadi: D-t 4730 «Moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimlarining qarzi» schyoti, K-t 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag'lari» schyoti.

Agar korxonaning valyuta schyotida mablag'lar bo'lsa, naqd valyutadan foydalanish zaruriyati vujudga kelishi mumkin va u amaldagi qoida talablari asosida tartibga solinadi.<sup>4</sup>

Naqd valyutani hisobga olish uchun alohida 5020 «Chet el valyutasidagi pul mablag'lari» schyoti tayinlangan. Naqd xorijiy valyuta harakatining hisobi kassa daftarida

<sup>4</sup> O'zRMB naqd chet el valyutasiga oid operasiyalarni amalga oshirish qoidalari. O'zR AV 15.04.2004 yilda 957-1-son bilan ro'yxatga olingan.

yuritiladi. Bu daftarda xorijiy valyuta operasiyalarining hajmiga qarab taxminan bir necha betlar ajratiladi. Bankdan naqd xorijiy valyutani olinishi quyidagicha buxgaltyeriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi: D-t 5020 «Chet el valyutasidagi pul mablag'lari» schyoti, K-t 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti.

Agar korxonada biror hisobdor shaxsga safar xarajatlari berilganganda: D-t 4220 «Xizmat safarlariga berilangan bo'naklar» schyoti, K-t 5020 «Chet el valyutasidagi pul mablag'lari» schyoti.

Naqd xorijiy valyuta harakatining hisobi ikki xil bahoda yuritiladi: valyuta turlari bo'yicha va so'mda. Sintetik hisob faqat so'mda yuritiladi. Jurnal-ordyer shaklida hisob yuritilganda naqd xorijiy valyutasi uchun 1/1 – jurnal-ordyeri va 1/1 qaydnomasi qo'llaniladi.

Kassadagi naqd xorijiy valyuta qoldig'i vaqtiga vaqt bilan so'mga nisbatan qaytadan baholanib turiladi. Ijobiy va salbiy kurs farqi 5020 «Chet el valyutasidagi pul mablag'lari» schyotida tegishli 9540 «Valyutalar kurslari farqlaridan foydalar» yoki 9620 «Valyutalar kurslari farqlaridan zararlar» schyotlari bilan bog'liqlikda aks ettiriladi.

### **5.3. Hisob – kitob schyoti bo'yicha operasiyalarni hisobga olish**

Yuridik shaxs sifati faoliyat ko'rsatayotgan va mustaqil balansiga ega bo'lgan korxonalar tijorat banklaridan birida o'zlarining hisob–kitob schyotini ochadilar. markaziy Bank yo'riqnomasiga binoan korxona o'zi tanlagan bankda pul mablag'larini saqlash, barcha turdag'i hisob-kitoblarni, Kredit va kassa operasiyalarini amalga oshirish uchun so'mda va talab qilib olgo'ngacha valyuta depozit schyotini ochishlari mumkin.<sup>5</sup> Talab qilib olgo'ngacha bo'lgan so'mdagi depozit schyotlarini ochish uchun yuridik shaxs – rezidentlar bankka quyidagi hujjatlarni topshiradilar:

yuqorida keltirilgan yo'riqnomaning 1 – ilovasida keltirilgan shaklda schyot ochish uchun ariza;

davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi hujjat;

imzo namunalari va muhrning izi tushirilgan kartochka;

Davlat korxonlari, aksionyer jamiyatları, qishloq xo'jalik uyushmalari (shirkatlar), mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, uyushmalar, birlashmalar, konsyernlar, korporasiyalar, qo'shma korxonalar, xalqaro birlashmalar va boshqa korxonalar tomonidan talab qilib olguncha depozit schyotlarini ochish uchun zikr qilingan hujjatlarga qo'shimcha qilib bankka yuqorida keltirilgan yo'riqnomaga binoan yana boshqa hujjatlar topshiradilar.

Barcha hujjatlar topshirilgandan so'ng bank xizmatini ko'rsatish bo'yicha shartnoma imzolanadi va bank boshqaruvchisining buyrug'i bilan korxonaga tegishli hisob–kitob schyoti raqami belgilanadi va bankning buxgaltyeriya apparati tomonidan pul mablag'lari harakatini hisobga olish uchun shaxsiy schyot ochiladi. Boshqa shahar yoki aholi punktlarida joylashgan xo'jalik hisobida bo'lмаган filiallar, magazinlar, ishlab chiqarish birligi va boshqa bo'linmalarga mahalliy bank muassasasida cheklangan operasiyalarni aks ettirish uchun joriy schyot ochiladi. Bu cheklanish asosiy hisob–kitob schyotini idora qiluvchi bosh korxona tomonidan belgilanadi.

Ochilgan hisob–kitob schyotida bo'sh pul mablag'lari va mahsulot (ish va xizmat) lar sotishdan tushgan pul, bankdan olingan uzoq va qisqa muddatli Kreditlar hamda boshqa tushumlar saqlanadi.

Hisob–kitob schyotidan korxonaning olingan matyeriallar, asosiy vositalar uchun mol yuboruvchiga to'lanmalari, byudjetdan, ijtimoiy sug'urtadan bo'lgan qarzni to'lash, ish haqi byerish uchun kassaga olingan pul va boshqa zaruriyatlar uchun to'langan pul mablag'lari aks ettiriladi.

Odatda bank tomonidan har qanday pul o'tkazib byerish yoki naqd pul byerish korxona yoki hisob–kitob schyotini tasarruf etuvchining buyrug'i yoki u bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to'g'risida yo'riqnomasi. O'zR AV 29.09.2003 y. 1080-1-son bilan ro'yxatga olingan.

Lekin, bank quyidagi hollarda korxona roziligini olmay boshqa tashkilotlarning hujjatlari bo'yicha uning hisob-kitob schyotidan pulni majburiy o'tkazib byeradi: moliya va soliq organlarining buyrug'i bo'yicha to'lanmagan soliq va yig'imlar, shuningdek ular bo'yicha jarima va boqimandalar summasini; qondirilgan da'volar summasini – ijro varaqalari, xo'jalik sudining bo'yrug'i bo'yicha; Kreditdan foydalanganligi uchun foiz summasini, muddatida to'lanmagan Kredit summasini; bank tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar summasini.

Yuridik shaxsning talab qilib olguncha depozit schyotida etarli darajada pul mablag'lari bo'lsa, pul o'tkazib byerish uning buyrug'i yoki boshqa to'lov hujjatlari bilan amalga oshiriladi.

Yuridik shaxsning talab qilib olguncha depozit schyotida pul mablag'lari etarli bo'lmasa, amaldagi yo'riqnomaga binoan birinchi navbatda byudjetga, pensiya fondiga va ish haqiga to'lashni nazarda tutuvchi hujjatlar bo'yicha mutanosib to'lanadi.<sup>6</sup>

Yuridik shaxsning bankdagi schyotiga bo'lgan boshqa barcha to'lanmalar yuqorida ko'rsatilgan talablar qondirilgandan so'ng to'lanadi. Hisob-kitob schyotida sodir bo'ladigan pul mablag'lar harakati (pulni qabul qilish va byerish yoki naqd pulsiz kirim va chiqim) bank tomonidan chiqarilgan mahsus hujjatlar shakllariga asosan rismiyashtiriladi.

Ularning kengroq tarqalganlari quyidagilar: naqd pul topshirish e'loni, pul cheki, hisoblashish cheki, to'lov topshirig'i, to'lov talabnomasi. Pul to'lash to'g'risidagi ushbu *e'lon* hisob-kitob schyotiga naqd pul o'tkazishda yoziladi. Pulni qabul qilib olganligi to'g'risida bank pul to'lovchiga isbotlovchi hujjat sifatida kvitansiya byeradi.

*To'lov topshirig'i* hisob-kitob schyotidan pul oluvchining schyotiga tegishli summani o'tkazib byerish to'g'risida bankka berilgangan buyruq bo'lib hisoblanadi. Turli mol yuboruvchi korxonalar, tashkilotlar, moliya organlari, sug'urta va boshqa tashkilotlar pul oluvchilar bo'lishi mumkin. Pul oluvchining hisob-kitob schyoti bankning qaysi filialida bo'lishiga qarab to'lov topshirig'i ikki yoki uch nusxada yoziladi. Shahar ichidagi va shaharlararo hisoblashishlarda ham korxona tomonidan to'lov topshirig'inining yagona shakli qo'llaniladi.

Bir vaqtning o'zida bir necha tashkilotlarga pul o'tkazib berilgansa, korxona tomonidan topshiriqning mahsus yig'ma shakli qo'llaniladi. U bitta bank bo'limi xizmat qiladigan bir necha pul oluvchilar uchun yozib berilganadi. O'tkazib berilganadigan summaning jamiga bir marta imzo qo'yilib muhr bosiladi. Bu hisob - kitob va boshqa schyotlar bo'yicha operasiyalarni rismiyashtirish jarayonini anchaga qisqartiradi.

Hisoblashishning aksept shaklida jo'natilgan mahsulotlar uchun mol yuboruvchilar to'lov talabnoma-topshiriq yozadi.

Bank belgilangan vaqtida korxonaga uning hisob-kitob schyotidan tegishli dastlabki hujjatlarni ilova qilib *ko'chirma* byerib turadi.

*Hisob-kitob schyotining ko'chirmasida* mablag'larning qoldig'i va hisob-kitob schyotiga kirim Kreditiga yoziladi, chunki bank korxonaning pulini saqlab o'zini korxonadan qarzdor deb biladi, o'zining qarzini kamayishi esa – debetiga yoziladi. Buxgaltyer ko'chirmani ishlab chiqishda bu xususiyatni esda tutib qoldiq va tushum hisob-kitob schyotining debetiga, chiqimi esa – Kreditiga yoziladi.

Hisob-kitob schyotidan berilganadigan ko'chirma ma'lum ko'rsatkichlarga ega bo'lib, yozuvlarni qisqartirish maqsadida ularning bir qismi kodlashtirilgan. ko'chirmani ishlab chiqayotgan buxgaltyer bu kodlar ma'nosini bilishi kerak.

ko'chirmalar olingen kuni ular tekshiriladi va ishlab chiqiladi. Bunda barcha yozuvlar ilovada keltirilgan hujjatlar bilan solishtiriladi va xato yozuvlar bo'lmasa bu hujjatlarga «Qayd etildi» degan shtamp qo'yib o'chiriladi. Tekshirilgan ko'chirmaning har bir summasining to'g'risiga va hujjatlarga 5110 - «Hisob-kitob schyoti» bilan bog'lanuvchi schyotlarning raqamlari qo'yib chiqiladi. Bundan tashqari, hujjatlarga ko'chirmada keltirilgan yozuvlarning

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bank schetlardidan pul mablag'larini chiqarish tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomasi. 1998 yil 12 fevral.

tartib raqami yozib qo'yiladi. Буларниң ҳаммаси рул мавлағлари харакатини назорат қилиш, ҳисоб изхларини автоматластириш ва хужжатларни сақлаш учун керак.

Hisob-kitob schyotidan noto'g'ri chiqarilgan yoki unga xato o'tkazilgan summalarни aniqlash maqsadida ular 4860-«Da'volar bo'yicha olinadigan schyotlar» schyotida hisobga olinadi, aniqlash va tegishli o'zgarishlar kiritish uchun bankka xabar berilganadi. To'g'rilaqan summa bankning navbatdagi ko'chirmalarida aks ettiriladi, korxona buxgaltyeriya hisobida esa bu qarz 4860 - «Da'volar bo'yicha olinadigan schyotlar» schyotidan hisobdan chiqariladi. ko'chirmaga ilova qilingan xarajatlar hujjatda nizomga binoan qo'shimcha xarajat elementlari va moddalarining raqamlari qo'yiladi.<sup>7</sup> Buning zaruriyati shundaki, ko'p schyotlar bo'yicha analitik hisob xarajat elementlari va moddalari bo'yicha tashkil etiladi. Xarajat elementlari va moddalari bo'yicha guruhlash ma'lumotnomalarida olib boriladi. Ular har oyda ishlab chiqarish bo'linmalarini bo'yicha ochilib, tegishli jurnal-ordyerlar hujjatlar ma'lumotlari bo'yicha to'ldiriladi.

Hisob-kitob schyoti bo'yicha sodir bo'ladijan operasiyalarni hisobga olish uchun korxonada 5110 - «Hisob-kitob schyoti» ochiladi. Bu schyot aktiv bo'lib, uning debetida hisob-kitob schyotiga tushgan barcha tushumlar, Kreditida esa - hisob-kitob schyotidan barcha sarflangan pul mablag'lari aks ettiriladi. Bu schyotning debet saldosi hisob-kitob schyotida pul mablag'larining qolgan qoldig'ini ko'rsatadi. Bu schyotda boshqa aktiv schyotlar kabi Kredit qoldiq bo'lmaydi.

5110- «Hisob-kitob schyoti» bo'yicha operasiyalar tekshirilgan bank ko'chirmasi va unga ilova qilingan pul hujjatlariga asosan aks ettiriladi. 5110-schyotning saldosi hisob-kitob schyotidan berilgangan ko'chirmada ko'rsatilgan qoldiqqa teng kelishi shart. Bu schyot bo'yicha analitik hisob bankning ko'chirmalari bo'yicha yuritiladi. Basharti korxonada boshqa hisob-kitob analitik schyoti bo'lsa, operasiyalar shu analitik hisob bo'yicha yuritiladi.

Buxgaltyeriya hisobi jurnal-ordyerlarda yuritilsa, 5110 - schyotning Kredit oborotlari 2 - jurnal-ordyerida aks ettiriladi. 5110 - schyotning debet oborotlari turli jurnal-ordyerlarga yoziladi va undan tashqari, 2-qaydnomaga yozib nazorat qilinadi. Bu registrlar tekshirilgan va ishlab chiqilgan bank ko'chirmalariga asosan to'ldiriladi.

Hisob-kitob schyotidan olingan ko'chirmada ko'rsatilgan bir xildagi bog'lanuvchi schyotlarning summalarini 2 – jurnal-ordyer va 2 – qaydnomaga jamlab yoziladi.

2 - jurnal-ordyer va 2 - qaydnomani yuritish bir oyga mo'ljallanganligi uchun bankdan olingan har bir ko'chirma ma'lumotlari bir qatorga yoziladi. Demak, 2 -jurnal-ordyer va 2 - qaydnomada band qilingan qatorlar soni shu davr ichida bankdan olingan ko'chirmalar soniga teng bo'lishi kerak. Registrlarda summalar 5110-schyotning debeti va Krediti bilan korrespondentlashgan schyotlar bo'yicha yoziladi. bir hisobot (kun, oy) davriga bunday ko'rsatkichlarning mavjudligi buxgaltyeriya xodimlariga korxona hisob-kitob schyotiga pul mablag'larining kelib tushish manbalarini tahlil qilish, maqsadli foydalanimishini, tasdiqlangan moliyaviy to'lanmalar kalender grafigiga binoan byudjetga va boshqa organlarga mablag' o'tkazilishi ustidan nazorat qilish imkoniyatini byeradi.

#### **5.4. Valyuta schyoti bo'yicha amalga oshirilgan operasiyalarni hisobga olish**

Xorijiy valyutadagi pul mablag'larini va xorijiy valyuta operasiyalarini har bir korxona amalga oshirishi mumkin. Xorijiy valyuta operasiyalarini rasmiylashtirish uchun bankda valyuta joriy schyotini ochish kerak. O'zbekiston Respublikasi markaziy banki tomonidan xorijiy valyuta operasiyalarini amalga oshirishga ruxsat (lisensiya) berilgangan banklarda valyuta schyoti ochish mumkin. Bunday lisensiya olgan banklarni vakillik banklari deyiladi. O'zbekiston Respublikasi markaziy bankining vaqtி-vaqtி bilan chop etiladigan byulletenida keltirilgan xorijiy valyutalarda schyotlar ochish mumkin.

Valyuta schyotini ochish uchun bank quyidagi hujjatlarni talab qiladi:

-valyuta schyotini ochish to'g'risida ariza;

<sup>7</sup> O'zR VMsining «Mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarinin tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish haqida»gi Nizomi. 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori.

-ta'sis hujjatlar ko'chirmasi (notariusda yoki ro'yxatga oluvchi organ tomonidan tasdiqlangan ustav, ta'sis shartnomalari);

-notariusda tasdiqlangan ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi hujjatlarning ko'chirmasi;

-korxonani ro'yxatdan o'tgan joyidan soliq inspeKsiysi va pensiya fondida hisobga olinganligi to'g'risida ma'lumotnoma;

-imzolar nusxalari qo'yilgan va yumoloq muhr tushirilgan kartochka;

-qo'shma korxonalar va xorijiy firmalar qo'shimcha qilib O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan ularni xorijiy investisiyali korxonalar reestriga kiritilganligi to'g'risida berilganadigan guvohnoma topshiradilar.

Valyuta schyoti ochilgandan so'ng bank bilan korxona o'rtasida hisoblashish-kassa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuziladi. Unda bankning ko'rsatadigan xizmatlar ro'yxati, xizmatlari uchun to'lanadigan haq tariflari, mablag'larni joylashtirish shartlari, tomonlarning huquq va burchlari va boshqalar ko'rsatiladi.

Amaldagi Nizomga binoan mulk shaklidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi xududida xorijiy valyuta operasiyalarini amalga oshiruvchi barcha xo'jalik yuratuvchi sub'ektlar 2001 yil 1 noyabrdan boshlab xorijiy valyutadagi operasiyalarni buxgaltyeriya hisobida quyidagicha aks ettirish tartibi belgilangan.<sup>8</sup>

Xorijiy valyuta mablag'lari, qiymatliklari va operasiyalar xo'jalik operasiyalari sodir bo'lgan sanaga markaziy bank kursi bo'yicha so'm ekvivalentida aks ettiriladi. Jumladan quyidagilar bo'yicha:

a) Kassadagi valyuta mablag'lari, bankdagi depozit va ssuda schyotlari, akkreditivlar, valyuta ssuda qarzlar;

b) xorijiy valyutadagi debitor va Kreditor qarzlar;

v) tuzilgan shartnomalar bo'yicha yuk boj deklarasiyasini rasmiylashtirish sanasiga import qilingan tovar-matyerial qiymatliklar va boshqa aktivlarning kirimi;

g) bojxona to'lovlarining amalga oshirilishi;

d) xorijiy valyuta ko'rinishidagi pulli hujjatlar;

e) xorijiy valyutadagi qimmatli qog'ozlar.

Xorijiy valyutani sotish va sotib olish buxgaltyeriya hisobida operasiya sodir bo'lgan sanaga bo'lgan markaziy bank kursi bo'yicha aks ettiriladi.

Xorijiy valyutani sotish (sotib olish)da sodir bo'ladigan kursdagi farq (ijobi yoki salbiy) ijobi bo'lsa – 9540 «kurs farqlaridan olingan daromadlar» schyotida, salbiy bo'lsa – 9620 «kurs farqlaridan zararlar» schyotida hisobga olinadi.

Xorijiy valyutani sotilishi buxgaltyeriya hisobida quyidagi tartibda aks ettiriladi:

a) valyuta schyotidan xorijiy valyutani markaziy bank kursi bo'yicha o'tkazilishi: Dt 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyotining «Tranzit» schyoti, Kt -5020 «Valyuta schyoti».

b) markaziy bank kursi bo'yicha xorijiy valyutani «Blokschyot» dan chiqarilishi: Dt 9220 «Boshqa aktivlarning sotili va boshqacha chiqib ketishi», Kt 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyotining «Tranzit» schyoti.

v) valyuta bozorida kelishilgan kurs bo'yicha sotilgan xorijiy valyutaning so'm ekvivalentini hisob-kitob schyotiga o'tkazilishi: D-t 5110 «Hisob-kitob schyoti», K-t 9220 «Boshqa aktivlarning sotili va boshqacha chiqib ketishi» schyoti.

g) Xorijiy valyutani sotishda hosil bo'lgan ijobi kurs farqini markaziy bank kursidan ortig'ini aks ettirilishi: D-t 9220 «Boshqa aktivlarning sotili va boshqacha chiqib ketishi», K-t 9540 «kurs farqlaridan olingan daromadlar» schyoti.

d) Xorijiy valyutani sotishda hosil bo'lgan salbiy kurs farqini (markaziy bank kursidan Kam) aks ettirilishi: D-t 9620 «kurs farqlaridan zararlar», K-t 9220 «Boshqa aktivlarning sotili va boshqacha chiqib ketishi» schyoti.

<sup>8</sup> O'zR Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, makroekonomika va statistika Vazirligi va Markaziy bankning 119, 2001-11, 34 va 205-8 sonli qarori bilan tasdiqlangan «Buxgalteriya hisobi, statistika va boshqa hisobotda xorijiy valyutadagi operasiyalarni aks ettirish tartibi to'g'risida»gi Nizomi. 2001 yil 7 noyabr

O'zining mahsulot (ish, xizmat)lari narxi (tariflari)ni xorijiy valyuta ekvivalentida belgilaydigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zaro hisob-kitoblarni milliy valyuta-so'mda olib bopadilar. Xizmat ko'rcatgan sanadan týulanmalarni tyshgan sanasi gacha markaziy bank kursining o'zgarishi natijasida sodir bo'ladi gan farq moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromad (xarajat) sifatida xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy natijalariga olib boriladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar har bir hisobot oyining oxirgi sanasiga balansning valyuta – moddalarini markaziy bank kursi bo'yicha qaytadan baholaydi va sodir bo'lgan kurs farqlari ijobiy bo'lsa 9540 «Kurs farqlaridan olingan daromadlar» schyotiga, salbiy bo'lsa - 9620 «Kurs farqlaridan zararlar» schyotiga o'tkaziladi.

Balansning valyuta moddalariga quyidagilar kiritiladi: a) kassadagi, bankning depozit, ssuda schyotlaridagi, shu jumladan akkreditivlardagi valyuta mablag'lari; b) xorijiy valyutadagi pulli hujjatlar; v) xorijiy valyuta ko'rinishidagi qisqa va uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar; g) xorijiy valyuta ko'rinishidagi debtor va Kreditor qarzlar, Kreditlar va qarzlar.

Quyidagi qiymatliklar qaytadan baholanmaydi: a) xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan xorijiy valyutaga sotib olingan mulk (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tovar-matyerial qiymatliklar, inventar va xo'jalik jihozlari); b) xorijiy investisiyali korxona ham qo'shilgan holda, xo'jalik yurituvchi sub'ektning ustav kapitali hajmi va ta'sischilarning ulushlari.

Oldindan yig'ilib kelingan va har oygi balans valyuta moddalarini qayta baholashdan hosil bo'lgan ijobiy va salbiy kurs farqlari tegishli «kelgusi davrlar daromadlar» va «kelgusi davrlar xarajatlari» schyotlarida aks ettirilib quyidagi tartibda moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalariga o'tkaziladi:

- a) xorijiy valyuta debtor va Kreditor qarzlar bo'yicha ularning qaytarilishiga qarab;
- b) qolgan boshqa hollarda – balansning tegishli valyuta moddalarini bilan xo'jalik operasiyalarini sodir bo'lishiga qarab.

Moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalariga o'tkazilgan ijobiy kurs farqi 9540 «kurs farqlaridan olingan daromadlar» schyotining Krediti bo'yicha aks ettirilib daromad (foyda) solig'iga tortiladigan bazani ko'paytiradi, salbiy kurs farqi esa 9620 «Kurs farqlaridan zararlar» schyotining debetida aks ettirilib daromad (foyda) solig'iga tortiladigan bazadan chegirib tashlanadi.

Yalpi daromaddan soliq to'lovchilar uchun kurs farqi qismida soliqqa tortish ob'ekti bo'lib «Moliyaviy faoliyatdan olingan foyda va zarar» schyotining saldosi hisoblanadi.

Yagona soliq to'lovchilar uchun kurs farqi qismida soliqqa tortish ob'ekti bo'lib ijobiy kurs farqi hisoblanadi. Bunda yagona soliqni hisoblab chiqarishda salbiy kurs farqi soliqqa tortiladigan bazani kamaytirmaydi.

Korxonaning ustav kapitalini shakllanishida ta'sis hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazish sanasi bilan ustav kapitaliga mablag'lar qo'yilgan haqiqiy sanadagi markaziy bank kurslari orasidagi farqi buxgaltyeriya hisobida qo'shilgan kapital hisoblanib 8410 «Emission daromad» schyotida hisobga olinadi.

Valyuta operasiyalarini tartibga solish qonuniga binoan korxonalar vakolatli banklar orqali O'zbekiston Respublikasi markaziy banki tomonidan belgilangan tartib va maqsadlar uchun O'zbekiston Respublikasi ichki valyuta bozoridan xorijiy valyuta sotib olishi mumkin. Chunonchi, safar xarajatlari uchun, shartnoma-kontrakt majburiyatlarini bajarilish operasiyalarini va boshqalar uchun xorijiy valyutalar sotib olishi mumkin.

Xorijiy valyutani sotib olish operasiyalarini buxgaltyeriya hisobida quyidagi yozuvlar bilan rasmiylashtiriladi: valyuta bozorida kelishilgan kurs bo'yicha xorijiy valyutani sotib olish kuniga.

a) Xorijiy valyutani sotib olish uchun hisob-kitob schyotidan so'm ko'rinishidagi mablag'larni valyuta bozorida kelishilgan sotib olish kuniga bo'lgan kurs bo'yicha o'tkazib berilganishi: D-t 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyotining «Tranzit» schyoti,

K-t 5110 «Hisob-kitob» schyoti.

b) markaziy bank kursi bo'yicha xorijiy valyutani valyuta schyotiga o'tkazilishi:

D-t 5210 «Valyuta schyoti», K-t 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyotining «Tranzit» schyoti.

v) Xorijiy valyutani markaziy bank kursidan past kursda sotib olish natijasida sodir bo'lgan ijobiy kurs farqini aks ettirilishi:

D-t 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyotining «Tranzit» schyoti, K-t 9540 «kurs farqlaridan olingen daromadlar» schyoti.

g) Xorijiy valyutani markaziy bank kursidan yuqori kursda sotib olish natijasida sodir bo'lgan salbiy kurs farqnini aks ettirilishi: D-t 9620 «kurs farqlaridan zararlar», K-t 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyotining «Tranzit» schyoti.

Xorijiy valyuta harakati to'g'risidagi ma'lumotni bank muassasasi korxonaga valyuta schyotidan ko'chirma byerish yo'li bilan xabar byeradi. 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlar»ni Kredit oboroti 2/1 – jurnal-ordyerida aks ettiriladi. Bu schyotning debet oboroti 2/1 qaydnomaini yuritish bilan nazorat qilinadi. Valyuta schyoti bo'yicha analitik hisob kartochkalarda valyutalarning nomlari bo'yicha yuritiladi.

### **5.5 Maxsus schyotlar bo'yicha amalga oshirilgan operasiyalarni hisobga olish**

21-BHMSga asosan korxonalar pul mablag'larining mavjudligi va harakati to'g'risida shuningdek, maqsadli moliyalashtirish (tushumlar) pul mablag'larining alohida saqlanadigan qismining harakati to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

5510-“Akkreditivlar”;

5520 – “Chek daftarchalari”;

5530 –“Boshqa maxsus schyotlar”.

**Akkreditiv** so'zi lotin tilidan olingen bo'lib, “ishonchli” degan ma'noni bildiradi.

**Akkreditiv-** bu mol sotib oluvchining bankining boshqa shahardagi mol yuboruvchining bankiga jo'natilgan tovar, bajarilgan ish va xizmatlar uchun mol yuboruvchining schyotiga pul o'tkazib byerish to'g'risidagi buyrug'idir.

Akkreditiv shaklidagi hisob-kitob mol sotib oluvchi uchun noqulay hisob-kitob shakli hisoblanib, bo'sh pul mablag'lari tovarsiz turib qolishiga, ya'ni chetga jalb qilinib akkreditiv schyotiga o'tkazib qo'yishga majbur etiladi.

Akkreditiv qo'yidagi hollarda qo'llaniladi:

- mol sotib oluvchi bilan mol yuboruvchilar o'rtaidagi shartnoma bo'yicha;

- mol sotib oluvchi bilan mol yuboruvchilar o'rtaidagi hisob-kitoblar o'z vaqtida olib borilmasa;

- hukumat qarori va buyrug'i bilan;

- mol oluvchiga nisbatan sanksiya tartibida vab.

Akkreditiv schyotini ochish uchun mol oluvchi bankka belgilangan shaklda ariza topshiradi. Arizada akKreditvning muddati (25 kungacha, ayrim hollarda 45 kungacha bo'lishi mumkin), mol yuboruvchinining nomi, uning manzili, schyotni to'lash tartibi va xizmatlarning nomi hamda akkreditivning summasi ko'rsatiladi.

Akkreditivning summasi, uning muddati, qo'llanish holatlari va rasmiylashtirish tartibi markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Akkreditiv korxonaning o'z mablag'lari yoki bank Krediti hisobiga ochilishi mumkin. Akkreditiv muddati tugagach, belgilangan limit summasidan Kam mablag' qolsa, mol oluvchining buyrug'i bilan, mol yuboruvchining akkreditivdan voz Kechish to'g'risidagi arizasiga binoan yopiladi. Foydalanimagan akkredjitiv summasi mol oluvchining asosiy schyotiga yoki bank Kreditini qaytarishga yo'naltirilishi mumkin.

Har bir akkreditiv bo'yicha faqat bitta maqsadli mol yuboruvchi bilan hisoblashish mumkin, boshqa mol yuboruvchiga o'zgartirilmaydi. Akkreditiv summasi to'liq yoki qisman to'lanishi mumkin, lekin naqd pul berilganmaydi.

Korxonalar o'ziga xizmat ko'rsatuvchi banklarda akkreditiv schyotiga ham ega bo'lib, bu schyotdagi pul mablag'lari 5510-“Akkreditivlar” aktiv schyotida hisobga olinadi. Bu schyotdagi pul mablag'lari o'z mablag'lari hisobidan ochilsa, 5510-“Akkreditivlar”

debetlanib, 5110-“Hisob-kitob schyoti” kreditlanadi. Qisqa muddatli bank Krediti schyotidan ochilsa- 6810-“Qisqa muddatli bank kreditlari”, uzoq muddatli bank Krediti hisobidan ochilsa – 7810 “Uzoq muddatli bank kreditlari” schyotlari Kreditlanadi.

Akkreditiv summasi mol yuboruvchilarga o’tkazib berilgansa- 6010 “Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to’lanadigan schyotlar” debitlanib, 5510-“Akkreditivlar” schyoti Kreditlanadi. Foydalanilmagan akkreditiv summasi qaytarilganda 5110, 6810 va 7810-schyotlar debetlanib, 5510-schyot Kreditlanadi.

Bu hisob-kitoblarning sintetik va analitik hisobi bankning ko’chirmasiga asosan 3 – jurnal-ordyerda yuritiladi.

**Chek daftarchalari** - naqd pul bilan naqd pulsiz hisoblashishlarni amalga oshirishda qo’llaniladigan chek blanklarining daftarchalaridir. Chek daftarchalari ikki xil bo’ladi: bankdan **naqd pul olish** va **naqd pulsiz hisoblashish** daftarchalari. Chek daftarchalari tijorat banklari buyurtmasiga asosan ularga kerakli miqdorda markaziy bankning “Davlat belgisi” tomonidan tayyorlanadi. Cheklarda chekning raqami va syeriysi, bank emitentining nomi va firma belgisi bosma usulda chop etiladi. Naqd pul cheki faqat bankdan naqd pul olishda ishlataladi.

Hisoblashish cheklari tovar (ish, xizmat)lar uchun jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirdorlar o’rtasidagi faqat naqd pulsiz hisob-kitoblarda qo’llaniladi. Chekning maksimal summasi markaziy bank tomonidan, minimal summasi esa- xizmat ko’rsatayotgan tijorat banklari tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Chek ikki qismidan iborat, ya’ni chekning o’zi va uning milki (koreshogi). Milkda chekda ko’rsatilgan summani tasdiqlovchi nazorat raqamlari ko’rsatiladi. Chekning amal qilish muddati tijorat banklari tomonidan belgilanadi. Chekning amal qilish muddati tugasa, bank qarshiliksiz chek egasining pasporti (yoki unga tenglashtirilgan boshqa hujjat) asosida chekni qabul qilishi va to’lab byerishi lozim.

Chek daftarchasini byerayotganda bankning javobgar xodimi quyidagi rekvizitlarni to’ldirishi shart:

- chek berilgangan sana;
- chek bo'yicha berilganadigan summa raqamlarda va so'z bilan;
- jismoniy shaxsning (chek beruvchining) familiyasi, ismi, otasining ismi;
- pasporti (yoki unga tenglashtirilgan boshqa hujjati)ning syeriysi, tartib raqami va kim tomonidan berilganligi;
- chek beruvchining talab qilib olinadigan depozit schyoti;
- chek byergan bankning xos raqami va nomi;
- chek amalda bo'ladijan oxirgi sana.

Limitlashtirilgan chek daftarchalari olti oygacha muddatga berilganib, unda hisoblashish chek daftarchasidan o’tkazib berilganishi mumkin bo’lgan summa ko’rsatiladi. Chek, yozib berilgangan kunni hisobga olmaganda, 10 kungacha o’z kuchini yo’qotmaydi. Oldindan e’lon qilingan limit summasi to’lovchining hisob-kitob schyotidan maxsus schyotga o’tkazib qo'yiladi, shuning uchun limitdan ortiqcha summaga yozib berilgangan chek bekor qilinadi va bank tomonidan to’lanmaydi. Limitlashtirilgan chek daftarchasi bo'yicha summa 100 so'mdan kam bo'lmasligi kerak.

Limitlashtirilmagan chek daftarchalari bir yil muddatiga berilganib, ularni byergan bankning ssudasi bilan ta'minlanadi. Ular mablag'larni maxsus schyotda oldindan deponentlashni talab qilmaydi.

Hisoblashish cheklari olingan tovar yoki ko’rsatilgan xizmatlarning aniq summasiga yozib berilganadi. Ularni bank hujjalari imzolash huquqiga ega bo’lgan shaxslar yoki ishonch qog’ozi bilan vakolat qilingan lavozimli shaxslar imzolaydilar. Chek daftarchasidan foydalanish muddati tugagach foydalanilmagan limit summasi daftarchani tasarruf etuvchining hisob-kitob schyotiga o’tkaziladi. Chek daftarchasini tasarruf etuvchining iltimosiga ko’ra daftarcha bo'yicha sarflash limiti ko’paytirilishi mumkin. korxonada chek daftarchalari qat’iy hisobot blankalarii sifatida saqlanadi.

Chek daftarchalarini byerishda pul mablag'larini deponentlash 5520 – “Chek daftarchalari” schyotining debeti va 5110-“Hisob-kitob schyoti”, 5210 –“Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari”, 5220- “Chet eldag'i valyuta schyotlari”, 6810-“Qisqa muddatli bank Kreditlari”, 7810 “Uzoq muddatli bank Kreditlari” schyotlari Kreditida aks ettiriladi. Hisob-kitoblar chek bilan to'langanda 5520 – “Chek daftarchalari” schyoti Kreditlanib, 6010-“Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar”, 6810-“Qisqa muddatli bank Kreditlari”, 6910, 6920, 6950, 6990 va boshqa majburiyatlar schyotlari debetlanadi.

5520 – “Chek daftarchalari” schyoti bo'yicha analitik hisob har bir olingen chek daftarchalari bo'yicha alohida yuritiladi.

Limitlashtirilgan chek daftarchalari bo'yicha sodir bo'ladijan operasiyalar 5520 «Chek daftarchalari» schyoti bo'yicha 3 – jurnal-ordyerda yuritiladi.

**Boshqa maxsus schyotlar.** Bu schyotda bankda maxsus saqlanadigan maqsadli moliyalashtiriladigan (tushumlar) mablag'lar, shu jumladan ijtimoiy muassasalar, ob'ektlar (bolalar bog'chasi va boshqalar)ni saqlash uchun ota-onalardan, boshqa maqsadlarda foydalanish uchun kelib tushgan pul mablag'lari, maqsadli pul mablag'lari, kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish mablag'lari, davlatning maqsadli subsidiyalari harakati hisobga olinadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida bu schyotlarda ijtimoiy ta'minot organlaridan kelib tushgan maqsadli tushumlar, moliya vazirligi fondidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun ajratilgan maqsadli mablag'lar, moliyaviy yordam tushumlari va boshqalar kiradi.

Maxsus schyotlar qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, hukumatimiz tomonidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rag'batlantirish va qo'llab quvvatlash maqsadida ko'plab maqsadli moliyalashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu mablag'lardan maqsadli, samarali foydalanishni nazorat qilish maqsadida va ularning harakati bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlarni olish imkoniyatini ta'minlash maqsadida buxgaltyeriya hisobida 5530 –“Boshqa maxsus schyotlar” schyoti belgilangan.

Bu schyot aktiv hisoblanib, maqsadli pul mablag'lari kelib tushganda 5530 –“Boshqa maxsus schyotlar” debetlanib, 6310 – “Xaridorlar va buyurtmachilardan olingen bo'naklar”, 4890-“Boshqa debetorlik qarzlar”, 8810-“Grantlar”, 8820-“Subsidiyalar”, 8890-“Boshqa maqsadli tushumlar” schyotlari Kreditlanadi.

Hisob-kitoblar maxsus schyotlardan amalga oshirilganda 5530 –“Boshqa maxsus schyotlar” schyoti Kreditlanib, 4310- “TMQlari uchun mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgangan bo'naklar”, 6010-“Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar”, 6410 –“Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz”, 6510- “Sug'urta bo'yicha to'lovlar”, 6810-“Qisqa muddatli bank Kreditlari”, 6910, 6920, 6950, 6990 va boshqa majburiyatlar schyotlari debetlanadi.

5530 –“Boshqa maxsus schyotlar” schyoti bo'yicha analitik hisob har bir olingen maqsadli tushum bo'yicha alohida yuritiladi.

## O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN TEST SAVOL-JAVOBLARI

### 1. Pul mablag'lari deganda qaysi mablag'lar tushuniladi?

- a) Kassadagi, bank hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lari.
- b) Kassadagi, bank hisob-kitob, valyuta schyotlaridagi pul mablag'lari.
- v) Kassadagi, bank hisob-kitob, valyuta va maxsus schyotlaridagi pul mablag'lari.
- g) Kassadagi, bank hisob-kitob, valyuta va maxsus schyotlaridagi pul mablag'lari hamda pul ekvivaletlari, yo'ldagi pul mablag'lari.

### 2. Kassadagi pul mablag'lari harakati qaysi hujjatlar bilan hujjatlashtiriladi?

- a) Kassa kirim ordyeri. b) Kassa chiqim ordyeri.
- v) Kassa kirim ordyeri va chiqim ordyeri. g) To'g'ri javoblar yo'q.

### 3. Korxona kassiri hisob siyosatida belgilangan vaqtida korxona buxgaltyeriyasiga qanday hisobotni taqdim etishi lozim?

- a) Matyeriallar hisobotini. b) Avans hisobotini.
- v) Balansni. g) Kassa hisobotini.

**4. Kassa hisoboti necha nusxada tuziladi?**

- a) Bir nusxada.                    b) Ikki nusxada.  
v) Uch nusxada.                    g) To'rt nusxada.

**5. Kassa hisobotiga qaysi hujjatlar ilova qilinib, orqasiga tiqiladi ?**

- a) kirim ordyeri.                    b) Chiqim ordyeri.  
v) Hisobot davridagi pullarni kirimi va chiqimiga doir barcha hujjatlar.  
g) To'g'ri javob yo'q.

**6. Kassaga bank hisob-varag'idan qabul qilib olingan ish haqi summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- a) Dt 5010                        Kt 6710.                        b) Dt 5010                        Kt 5110.  
v) Dt 6710                        Kt 5110.                        g) Dt 5110                        Kt 5010.

**7. Tayyor mahsulotlarni sotishdan olingen tushumlar summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- a) Dt 5010                        Kt 2810.                        b) Dt 2810                        Kt 5010.  
v) Dt 5010                        Kt 9010.                        g) Dt 9010                        Kt 5010.

**8. Xodimlar tomonidan cassaga to'langan kamomad summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- a) Dt 5010                        Kt 5910.                        b) Dt 5910                        Kt 5010.  
v) Dt 4730                        Kt 5010.                        g) Dt 5010                        Kt 4730.

**9. Ish-xodimlarga cassadan berilgangan ish haqi summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- a) Dt 6710                        Kt 5010.                        b) Dt 5010                        Kt 6710.  
v) Dt 4210                        Kt 5010.                        g) Dt 5010                        Kt 4210.

**10. Ish-xodimlarga cassadan berilgangan ish haqi avansi summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- a) Dt 6710                        Kt 5010.                        b) Dt 5010                        Kt 6710.  
v) Dt 4210                        Kt 5010.                        g) Dt 5010                        Kt 4210.

**11. Xizmat safaridan qaytgan xodimga cassadan berilgangan hisobdorlik summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- a) Dt 6970                        Kt 5010.                        b) Dt 5010                        Kt 6970.  
v) Dt 4220                        Kt 5010.                        g) Dt 5010                        Kt 4220.

**12. Xizmat safariga ketaiyotgan xodimga cassadan berilgangan hisobdorlik summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- a) Dt 6970                        Kt 5010.                        b) Dt 5010                        Kt 6970.  
v) Dt 4220                        Kt 5010.                        g) Dt 5010                        Kt 4220.

**13. Bank hisob-kitob schyotiga topshirigan savdo tushumi summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- a) Dt 5510                        Kt 5010.                        b) Dt 5010                        Kt 5110.  
v) Dt 9020                        Kt 5010.                        g) Dt 5110                        Kt 5010.

**14. Bank hisob-kitob schyotigi pul mablag'larining harakati qaysi hujjatlar bilan hujjatlashtiriladi?**

- a) To'lov topshiriqnomasi.  
b) To'lov topshiriqnomasi va to'lov talabnomasi.  
v) To'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnomasi va inkassa talabnomasi.  
g) To'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnomasi, inkassa talabnomasi va memorial-ordyer.

**15. To'lov topshiriqnomasi bankka kim tomonidan taqdim etiladi va unda nimalar ko'rsatiladi?**

- a) Pul o'tkazuvchi korxona, topshirqnomalarraqami, sanasi, to'lovchi va oluvchining nomi.  
b) To'lovchi va oluvchining hisob hamda identifikasiya raqami, banki nomi, bank kodi, to'lov summasi va maqsadi.  
v) A va B javoblar.  
g) To'g'ri javoblar yo'q.

**16. Qanday holatlarda hisobraqamidagi pul mablag'larini kirimi yoki chiqimi memorial-ordyer bilan hujjatlashtiriladi?**

- a) Pul o'tkazuvchi yoki oluvchi byudjet tashkiloti bo'lsa.
- b) Pul o'tkazadigan yoki oladigan tashkilotning bir nechta tashkilotlardan qarzi bo'lsa.
- v) Pul o'tkazuvchining hisobraqamida etarli miqdordagi pul mavjud bo'lmasa.
- g) A va B javoblar.

**16. Bank hisobraqamiga sotilgan mahsulotlar summasi kelib tushganida qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- a) Dt 5110 Kt 9010.
- b) Dt 5110 Kt 4010.
- v) Dt 9010 Kt 5110.
- g) Dt 4010 Kt 5110.

**17. Bank hisobraqamiga mahsulot olish mijozlardan avans summasi kelib tushganida qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- a) Dt 5110 Kt 6310.
- b) Dt 5110 Kt 4010.
- v) Dt 5110 Kt 6310.
- g) Dt 5110 Kt 4310.

**18. Bank hisobraqamiga mahsulot sotib olish uchun sotuvchiga ilgari to'langan avans summasi qaytib kelib tushganida qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- a) Dt 5110 Kt 6310.
- b) Dt 5110 Kt 4010.
- v) Dt 5110 Kt 6310.
- g) Dt 5110 Kt 4310.

**19. Bank hisobraqamidan hisoblangan soliq summasi to'lab berilganganda qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- a) Dt 6510 Kt 5110.
- b) Dt 6410 Kt 5110.
- v) Dt 5110 Kt 6410.
- g) Dt 5110 Kt 6510.

**20. Bank hisobraqamidan kelgusi oylar uchun soliq summasi to'lab berilganganda qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- a) Dt 4410 Kt 5110.
- b) Dt 6410 Kt 5110.
- v) Dt 5110 Kt 6410.
- g) Dt 5110 Kt 4410.

**21. Bank hisobraqamidan hisoblangan sug'urta summasi to'lab berilganganda qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- a) Dt 6520 Kt 5110.
- b) Dt 6510 Kt 5110.
- v) Dt 5110 Kt 6510.
- g) Dt 5110 Kt 6520.

**22. Bank hisobraqamidan hisoblangan maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar summasi to'lab berilganganda qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- a) Dt 6520 Kt 5110.
- b) Dt 6510 Kt 5110.
- v) Dt 5110 Kt 6510.
- g) Dt 5110 Kt 6520.

**23. Bank hisobraqamidan kelgusi oylar uchun maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar summasi to'lab berilganganda qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- a) Dt 4510 Kt 5110.
- b) Dt 4520 Kt 5110.
- v) Dt 5110 Kt 4510.
- g) Dt 5110 Kt 4520.

**24. Bank hisobraqamiga sotilgan chet el valyutasining kurs bo'yicha summasi kelib tushganida qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- a) Dt 5210 Kt 5110.
- b) Dt 9220 Kt 5110.
- v) Dt 5110 Kt 9220.
- g) Dt 5110 Kt 5210.

**25. Bank hisobraqamiga sotilgan chet el valyutasining kursi bo'yicha ijobiy farqi summasi kelib tushganida qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- a) Dt 9540 Kt 5110.
- b) Dt 9220 Kt 5110.
- v) Dt 5110 Kt 9220.
- g) Dt 5110 Kt 9540.

**26. Bank hisobraqamiga sotilgan chet el valyutasining kursi bo'yicha salbiy farqi summasi kelib tushganida qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- a) Dt 9220 Kt 5110.
- b) Dt 9220 Kt 5110.
- v) Dt 5110 Kt 9220.
- g) Dt 9620 Kt 9220.

**27. Bank hisobraqamiga sud ijrochilar tomonidan o'ndirilgan mijozlarga bildirilgan da'vo summasi kelib tushganida qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- |            |          |            |          |
|------------|----------|------------|----------|
| a) Dt 6960 | Kt 5110. | b) Dt 4860 | Kt 5110. |
| v) Dt 5110 | Kt 4860. | g) Dt 9620 | Kt 6960. |

**28. Bank hisobraqamidan hisoblangan bank krediti foizi summasi to'lab berilganganda qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- |            |          |            |          |
|------------|----------|------------|----------|
| a) Dt 4830 | Kt 5110. | b) Dt 6920 | Kt 5110. |
| v) Dt 5110 | Kt 6920. | g) Dt 5110 | Kt 4830. |

**29. Bank ko'chirmasi (vipiskasi) nima?**

- a) Bankning operasiyalari ro'yxati, bankka kirim va chiqim bo'lган mablag'lar.
- b) Hisobraqami orqali amalga oshirilgan muomalalarini aks ettiruvchi hujjat.
- v) Hisobraqam orqali amalga oshirilgan muomalalarini tasdiqlovchi hujjat..
- g) B va V javoblar.

**30. Bank ko'chirmasi (vipiskasi)da nimalar aks ettiriladi?**

- a) Hisobraqam egasining nomi, hisobraqami, muomalalar amalga oshirilgan sana, kirim va chiqim summasi, asos bo'luvchi hujjat raqami.
- b) Hisobraqami uchun ma'sul bank xodimining ismi-sharifi, boshlang'ich va oxirgi qoldiq, oluvchi va o'tkazuvchining hisobraqami, bank kodi, yuridik shaxs kodi.
- v) A va B javoblar.
- g) To'g'ri javob yo'q.

**31. Paxta etishtirish uchun xo'jalik hisobraqamiga kelib tushgan paxta transhi summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- |            |          |            |          |
|------------|----------|------------|----------|
| a) Dt 6310 | Kt 5530. | b) Dt 4010 | Kt 5530. |
| v) Dt 5530 | Kt 6310. | g) Dt 5530 | Kt 4010. |

**32. Paxta etishtirishni rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan berilgangan moliyaviy yordam summasi hisobraqamiga kelib tushganda qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- |            |          |            |          |
|------------|----------|------------|----------|
| a) Dt 8810 | Kt 5530. | b) Dt 8820 | Kt 5530. |
| v) Dt 5530 | Kt 8810. | g) Dt 5530 | Kt 8820. |

**33. Hisobraqamiga ijtimoiy ta'minotdan ishchilarga berilganadigan pensiya summasi kelib tushganda qanday buxgaltyeriya yozuvi (provodkasi) berilganadi?**

- |            |          |            |          |
|------------|----------|------------|----------|
| a) Dt 4890 | Kt 5530. | b) Dt 6510 | Kt 5530. |
| v) Dt 5530 | Kt 4890. | g) Dt 5530 | Kt 6520. |

## **1. O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR**

1. Pul mablag'lari va hisob-kitoblar hisobining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Hisob-kitob schyotidan ko'chirilgan pul mablag'lar qanday nazorat qilinadi?
3. Bankda valyuta schyotini ochish uchun qanday hujjatlar topshiriladi?
4. Kassaga pul mablag'larining kirimi va ularning chiqimi qanday hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi?
5. Kassaga pul mablag'lari qaysi manbalardan kelib tushadi va qanday maqsadlarda sarflanadi?
6. Kassa hisoboti nima va u qanday ma'lumotlarni o'z ichiga oladi?
7. Bank hisobraqamiga pul mablag'lari qaysi manbalardan kelib tushadi va qanday maqsadlarda sarflanadi?
8. Bankdagi pul mablag'larining harakati qaysi hujjatlar bilan hujjatlashtiriladi?
9. Valyuta schyoti nima?
10. Bankdagi maxsus schyotlarga qaysi schyotlar kiradi?
11. Akkreditiv nima va u nima uchun ochiladi?
12. Chek daftarchalari nima?
13. Pul ekvivalentlari va yo'ldagi pul mablag'lari deganda nimani tushunasiz?

## **6-ma'ruza. HISOB-KITOB, KREDIT VA SOLIQ MUOMALALARI HISOBI**

**Ma'ruzaning asosiy maqsadi** talabalarga quyidagi tayanch iboralar va tushunchalar to'g'risidagi bilimlarni byerish hisoblanadi:

*Hisobdorlar, hisobdor shaxs, safar guvohnomasi, avans, avans hisoboti, shartnomalar, tovar operasiyalari (muomalalari), mol etkazib beruvchilar, pudratchilar, tayyor mahsulot, xaridorlar va buyurtmachilar, turli debetorlar, turli Kreditorlar, Kreditlar, qisqa muddatli Kredit, uzoq muddatli Kredit, soliq hisob-kitoblari, soliqlar, mahalliy soliqlar, Respublika byudeti soliqlari, to'g'ri va egri soliqlari.*

*Ma'ruza rejasi:*

- 6.1. Hisobdor shaxslar bilan bo'ladigan hisob-kitoblar hisobi.**
- 6.2. Boshqa hisob-kitob operasiyalarini hisobga olish.**
- 6.3. Turli debitorlik va kreditorlik qarzlarni hisobga olish.**
- 6.4. Bank kreditlari hisobini yuritish.**
- 6.5. Soliqlar hisobini yuritish.**

### **MAVZUNI CHUQUR O'RGANISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ME'YORIY- HUQUQIY HUJJATLAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. Qonunchilik palatasi tomonidan 23.11.2007 yil qabul qilingan (25.12.2007 y.O'RQ-136-son).
2. Jo'raev N., Bobojonov O., Abduvaxidov F., Sotvoldieva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. -T.: 2007 y.
3. Voxidov S.V va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgaltyeriya hisobi xususiyatlari.-T.: "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti", 2004.
4. Sanaev N.S. Qishloq xo'jaligida buxgaltyeriya hisobi, nazorat va moliyalashtirishning dolzarb masalalari – Toshkent: "Mehnat", 1991-104 b.
5. Sanaev N.S. Fermer xo'jaliklarida buxgaltyeriya hisobining xususiyatlari .- Toshkent: "Alishyer Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy Kutubxonasi" 2006.-145b.
6. Do'stmurodov R, Masharipov O. Fermer xo'jaligida buxgaltyeriya hisobi va hisobotini tashkil etish. O'quv qo'llanma- Toshent, 2007-94 b.
7. Olimjonov O. va boshqalar. Fermerlik faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari. –T.: "Univyersitet" nashriyoti, 2005.
8. Urazov K.V.Boshqa tarmoqlarda buxgaltyeriya hisobining xususiyatlari. O'quv qo'llanma.-T.: , 2010.
9. Intyernetsaytlari:
  - www. gaap.ru (Xalqaro buxgaltyeriya standartlari);
  - www. cip.com (Xalqaro Syertifikatli Buxgaltyer);
  - www. aicpa.org (Amyerican Institute of Cyertified Publik Accountants);
  - www. buhgalt.ru ("Бухгалтуерский учет" jurnali (РФ)).
  - www.ziyonet. uz.

#### **6.1. Hisobdor shaxslar bilan bo'ladigan hisob-kitoblar hisobi**

Hisobdor shaxslar bilan hisoblashishlar mayda xo'jalik xarajatlarini va xizmat safar xarajatlarini to'lashda sodir bo'ladi. Demak, **hisobdor shaxslar** – kelgusi ma'muriy-xo'jalik va safar xarajatlari uchun pul mablag'larini oldindan olgan xodimlardir. Hisobdor shaxs sifatida Kassadan naqd pul oladigan xodimlarning ro'yxati korxona rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Berilganadigan pul miqdori cheklangan: xo'jalik ehtiyojlari uchun berilganadigan naqd pul korxona smetasida nazarda tutiladi; safar xarajatlari uchun berilganadigan pul safar muddati va boradigan joyiga bog'liq. Safar xarajatiga pul byerishda yo'lkira (ikki tomonga), sutkalik va yotoq (turar joy ijarasi) xarajatlari hisoblab chiqiladi.

Xizmat safariga yuborish joyiga qarab O'zbekiston Respublikasi ichidagi va tashqarisidagi xizmat safariga bo'linadi. Ichki xizmat safari Moliya vazirligi hamda Mehnat va

aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan 2003 yil 24 iyulda qabul qilingan “O’zbekiston Respublikasida xizmat safari to’g’risidagi yo’riqnomani tasdiqlash to’g’risida”gi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Xizmat safari davrida xodimning asosiy ish joyidagi ish haqisi saqlanadi. Safar uchun hisobdor shaxsga pul byerish rahbarning buyrug’i va safar guvohnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Berilganadigan pul hisoblab chiqilgandan so’ng buxgaltyeriya tomonidan Kassa chiqim ordyeri rasmiylashtiriladi.

Belgilangan me’yor doirasida yoki undan ortiq qilingan safar xarajatlari, maqsadli tayinlanishiga qarab, yoki ishlab chiqarish xarajatlariga, yoki davr xarajatlariga o’tkaziladi. Basharti safar xarajatlari ishlab chiqarish jarayoniga o’tkazilsa, mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga hamda boshqaruv xodimlarining safar xarajatlari esa – davr xarajatlariga o’tkaziladi.<sup>9</sup>

Korxona rahbarining qarori bilan istisno shaklida qonunchilikda nazarda tutilgan me’yordan ortiq qilingan safar xarajatlari soliqqa tortiladigan bazani ko’paytiradi. Belgilangan vazifa bajarilgandan so’ng uch kun ichida hisobdor shaxs qilingan xarajatlar to’g’risida avans hisoboti topshirishi shart. Qilingan xarajatlarni isbotlovchi, tasdiqlovchi hujjatlarni va safar guvohnomasini avans hisobotiga ilova qiladi.

Safarning maqsadli tayinlanishga qarab sex, bo’lim boshliqlari qilingan xarajatlarni maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi. Avans hisoboti tuzilib summasi aniqlangandan so’ng avans hisoboti korxona rahbari tomonidan tasdiqlanadi va tegishli buxgaltyeriya yozuvlari bilan rasmiylashtiriladi. Foydalanimay qolgan summa avans hisoboti topshirgan kuni hisobdor shaxs tomonidan kassaga kirim ordyeri bilan topshiriladi, ortiqcha qilingan xarajat summasi kassadan chiqim ordyeri bilan berilganadi.

Hisobdor shaxsga berilgangan summa maqsadli xaraktyerga ega bo’lib, birovga byerish yoki buyurish taqiqilanadi. Oldingi berilgangan avans bo’yicha qarzi bo’lmagan holdagina yangi avans berilganadi. Basharti belgilangan muddatda avans hisoboti topshirilmasa yoki foydalanimagan summa kassaga qaytarib topshirilmasa, qonunchilikda belgilangan tartibda buxgaltyeriya bu qarzni hisoblangan ish haqidan ushlab qolishi mumkin. Shuni ham bilish kerakki, belgilangan me’yordan ortiqcha qilingan sutkalik xarajati hisobdor shaxsning ish haqisiga qo’shib daromad solig’iga tortiladi. Sutkalik xarajatlар shuningdek turar joy ijara xarajatlari me’yori eng kam ish haqi miqdoridan koeffisientda belgilanadi.

Safarda va yo’lda bo’lgan har bir kun uchun mehnat shartnomasida nazarda tutilgan miqdorda, lekin eng kam ish haqidan: **Toshkent shahri va viloyat markazlarida** -0,1 koeffisient (10%), **boshqa shahar va aholi punktlarida** – 0,08 koeffisient (8%) miqdorida belgilangan. Bu xarajatlarni qoplanish uchun hech qanday hujjat talab qilinmaydi. Ayrim hollarda korxonalar o’z faoliyatları natijasidan kelib chiqib, yuqori tashkiloti yoki kasaba uyushmasi qaroriga asosan bundan yuqori qilib ham belgilashlari mumkin.

Safarda bo’lgan kunlar uchun turar joyni ijara olish haqiqiy xarajati (*lyuks nomyerlardan tashqari*) tasdiqlovchi hujjatlarga asosan (hamma xarajatlar qo’shilgan holda) qoplanadi. Mehmonxonaning *lyuks nomyerlarida* to’rganligi uchun hujjat taqdim etsa, bu nomyerlar qiymatining 70% i qoplanadi. Turar joy uchun **tegishli hujjat taqdim etmasa**, har kun uchun eng kam ish haqining 2% i miqdorida qoplanadi. Agar safar joyiga har kuni borib kelish imkoniyati bo’lsa, sutkalik pul to’lanmaydi.

Yo’l xarajatlari yo’l hujjatlari asosan qoplanadi. Yo’l hujjatlari *bo’lmagan taqdirda*, xarajatlar temir yo’l transportidagi (agar u bo’lmasa, shaharlararo avtobusidagi) yo’l haqi qiymati miqdorida, lekin avtochipta qiymatining 30%dan ko’p bo’lmagan miqdorida belgilanadi.

Xizmat safari xarajatlari oldindan ma’lum bo’lgan hollarda, korxona rahbari isbotlovchi hujjatlar topshirmsandan safar xarajatlarini to’lashga ruxsat byerish huquqiga ega. Bunda safar xarajatlari summasining raschyoti, korxona rahbari va safarga borayotgan xodim tomonidan imzolanib, korxona buxgaltyeriyasida saqlanadi. Safardan qaytgandan so’ng talabga muvofiq

<sup>9</sup> «Xarajatlar tarkibi to’g’risida»gi Nizomning 1.5.2 va 2.2.12.- moddalari.

rasmiylashtirilgan safar guvohnomasi buxgaltyeriyaga topshiriladi, qilingan xarajatlar summasi to'g'risida hisobot topshirilmaydi.

Safar muddati korxona rahbarining buyrug'i bilan aniqlanadi, safarda bo'lgan haqiqiy vaqt esa – safar guvohnomasidagi imzolar va muhr bilan tasdiqlangan tartibda safar joyiga kelgan va ketgan kuni to'g'risidagi belgi bilan aniqlanadi. Bunda safarga ketgan va safardan kelgan kunlari to'liq kun hisoblanadi.

Korxonada safarga ketgan va kelgan shaxslarni ro'yxatga olish jurnali yuritiladi. Barcha hisobdor summa operasiyalari korxona buxgaltyeriyasida 4220 - «Xizmat safarlari uchun berilgangan bo'naklar» schyotlarida hisobga olinadi. Bu aktiv schyot bo'lib, debet qoldig'i hisobdor shaxsining korxonadan bo'lgan qarzini ko'rsatadi. Bu schyotning debetiga kassa chiqim ordyeriga asosan yangi avans summasi berilganganda, Kreditga esa – avans hisobotiga asosan sarflangan va kirim kassa ordyeriga asosan qaytarib topshirilgan foydalanilmagan summa yoziladi.

Hisobdor shaxslar oldindan olingan bo'nak summasidan ortiqcha xarajat qilgan bo'lsa, hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan ortiqcha qilingan xarajatlar summasiga 6970 «Hisobdor shaxslarga qarzlar» schyoti Kreditlanadi. Ushbu ortiqcha qilingan xarajat summasi hisobdor shaxsga qaytarilganda 6970 schyoti debetlanib, 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag'lari» schyoti Kreditlanadi. Ushbu jurnal-ordyer kombinlashgan registr bo'lib, bir qatorga yozish yo'li bilan sintetik va analitik hisobni o'zida mujassamlashtirgan. Bunda har bir hisobdor shaxsga berilgangan summa uchun jurnal-ordyerda bir qator ochilib, unga hisobdor shaxsning avans hisoboti bo'yicha sarflangan xarajat, qaytarib topshirilgan foydalanilmagan summa yozib boriladi. Bunda 7- jurnal-ordyer shaklidan foydalaniladi.

Arifmetik va ma'naviy jihatdan tekshirilgan va korxona rahbari tomonidan tasdiqlangan avans hisobotlarini buxgaltyer, hujjatlarga bog'lanuvchi schyotlarni qo'yan holda, ishlab chiqadi. 7 – jurnal-ordyerda yozish uchun asos bo'lib hisobdor shaxsga berilgangan avans summasi bo'yicha – kassa chiqim ordyeri, sarflangan summa bo'yicha tasdiqlangan avans hisoboti, qaytarib topshirilgan summa bo'yicha – kirim kassa ordyeri, ortiqcha qilingan xarajatlar summasini qaytarish bo'yicha – kassa chiqim ordyeri hisoblanadi. Ushbu jurnal ordyerning shakli yangi schyotlar rejasi talabiga to'liq javob byermaydi. U qaytadan ishlab chiqilishi kerak.

Agar korxona tashqi iqtisodiy faoliyati bilan shug'llansa, xorijiy safar bo'yicha xarajatlarni hisobga olish zaruriyati tug'iladi. Xorijiy safar xarajatlari uchun pul O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan belgilangan me'yor bo'yicha to'lanadi. Xorijiy valyutada qilingan safar xarajatlari maqsadli tayinlanishiga qarab 4220 schyotidan mahsulot (ish va xizmat) lar tannarxiga (2010-schyot) yoki davr xarajatlariga (9400-schyot) yoki xorijdan sotib olingan asbob-uskunalarga (0720-schyot), matyeriallarga (1000-schyot), tovarlarga (2910-schyot) o'tkaziladi. Schyotlarga xarajatlar xorijiy valyuta va so'm ekvivalentida yoziladi. Hisobdor shaxslarda qolgan valyuta ham qaytadan baholanib natija 9620 yoki 9540 - schyotlarga o'tkaziladi.

## 6.2. Boshqa hisob-kitob operasiyalarini hisobga olish

Yuridik shaxslar orasidagi hisob-kitoblar mahsulot (ish va xizmat) lar bo'yicha sotuvchi va xaridorlar, faqat pul mablag'larining harakati bilan bog'liq bo'lgan tovarsiz operasiyalar (byudjetdan, bankdan, ijtimoiy sug'urta organlaridan bo'lgan qarzlarni to'lash) bo'yicha yuzaga kelishi mumkin.

Tovar operasiyalari bo'yicha hisob-kitoblar, ularning joylashgan joylariga qarab, shahar ichidagi va shaharlararo bo'lishi mumkin. O'zaro hisob-kitob munosabatlarining zaruriy sharti bo'lib, vujudga keladigan o'zaro majburiyatlar uchun pulni o'z vaqtida o'tkazib byerish hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida korxonalarda naqd pulsiz hisob-kitoblarning quyidagi: to'lov topshiriqlari, to'lov talabnomalar-topshiriqlari, akkreditivlar va maxsus schyotlar, rejali to'lovlar,

aloqa vazirligi korxonalari orqali pul o'tkazishlar, pul chek daftarchalari orqali amalga oshiriladi.<sup>10</sup>

Mol sotib oluvchilar tomonidan matyerial qiymatliklarni olgan vaqt bilan pul to'lash vaqtidagi oraliqni qisqartirish, debitor va Kreditor qarzlarni vujudga kelishi va yo'ldagi tovar-matyerial qiymatliklar qoldig'ini ko'payishiga barham byerish maqsadida hisob-kitobning eng qulay shakllarini tanlab olish zarur.

***To'lov topshiriqlari bilan hisob-kitoblar.*** **To'lov topshiriqnomasi** - bu to'lovchi mijozning bankdagi depozit hisobvarag'idagi pul mablaqlarining ma'lum bir summasini boshqa mijozning hisobvarag'iga o'tkazish haqida o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bankka byergan topshirig'idir. To'lov topshiriqnomasi 0505411002 shakldagi maxsus blanka bo'lib, to'lovchi tomonidan rasmiylashtiriladi va quyidagi to'lovlarni: tovarlar va xizmatlar uchun hisob-kitoblar; notovar operasiyalar bo'yicha hisob-kitoblar; markaziy bankning me'yoriy hujjatlarida ko'zda tutilgan bo'lsa, bank Kreditlari va unga hisoblangan foizlarni undirish uchun mablag'larni o'tkazishda; hukumat qarorlari va bank qoidalarida belgilangan hollardagi to'lovlarni amalga oshirishda qo'llaniladi.

Shuningdek, transport va aloqa tashkilotlari, shuningdek zarur bo'lgan hollarda olingan tovar va foydalanilgan xizmatlar bo'yicha bir yo'la hisob-kitoblar olib borish uchun bank tomonidan akseptlangan, ko'rsatilgan summa oldindan bankda deponentlangan holda, to'lov topshiriqlari qo'llanilishi mumkin.

Ish haqi va ayrim shaxslarga alimentlar summasi o'tkazib berilgangan aloqa bo'limlari orqali pul o'tkazish shaklidan foydalaniladi. Bunda oluvchilarni, ularning oladigan pulini, turar joylarini ko'rsatib ro'yxat tuziladi. O'tkaziladigan pulning umumiyligi summasiga to'lov topshirig'i tuzilib ro'yxat bilan birga bankka topshiriladi. Bankda bu hujjat akseptlanadi.

Bank tomonidan akseptlangan to'lov topshirig'i ro'yxat bilan birga pochta bo'limiga o'tkazib berilgangan pulni rasmiylashtirish uchun topshiriladi. Pul o'tkazib byerish bo'yicha pochta bo'limining ko'rsatgan xizmat xarajatlari topshiriq summasiga qo'shiladi yoki pochtaga naqd pul bilan to'lanadi. To'lov topshirig'i bilan pul o'tkazib berilgangan quyidagi yozuvlar berilganadi: Dt 6410 «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz», Dt 6520 «Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar», Dt 6990 «Boshqa majburiyatlar», Kt 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyotlari.

**To'lov talabnomasi** – bu mahsulot etkazib beruvchi va mablag' oluvchilarning belgilangan summani to'lovchi bank orqali to'lashi to'g'risidagi talabnomani o'z ichiga olgan hisob-kitob hujjatidir. To'lov talabnomasi bo'yicha hisob-kitoblar “aksept” shaklidagi hisob-kitoblar ham deb yuritiladi.

Aksept shaklida hisoblashish asosida to'lov talabnomasi-topshiriqlari bilan olib boriladigan hisob-kitoblar vujudga keladi. Ularning mohiyati quyidagilardan iborat: mol yuboruvchi molni jo'natib mol sotib oluvchi nomiga to'lov talabnomasini to'ldirib unga jo'natadi. Mol oluvchi (to'lovchi) to'lov talabnomasini olib uning ikkinchi qismi-to'lov topshirig'in to'ldiradi. Shu bilan to'lovchi o'zining hisob-kitob schyotidan, mol yuborish yoki xizmat ko'rsatish bo'yicha mol yuboruvchi tomonidan shartnoma shartlari bajarilganligi uchun ko'rsatilgan summani o'tkazib byerish bo'yicha bankka topshiriq byeradi. O'z navbatida bank to'lovchining hisob-kitob schyotidan pulni chiqarib uni mol yuboruvchilar schyotiga o'tkazib byerish uchun hujjatlarni mol yuboruvchining bankiga jo'natadi.

To'lovchi pul to'lashni rad etish huquqiga ega. To'lashni rad etish to'liq va qisman bo'lishi mumkin. To'lashni to'liq rad etish quyidagi hollarda sodir bo'lishi mumkin: mol oluvchining rozilagini olmay tovarlar muddatidan oldin kelib tushsa; tovarlarni komplekt emasligi va sifasizligi hujjatlar bilan tasdiqlansa; tovarlarning narxlari to'g'risida kelishilmagan bo'lsa; to'langan tovarlar uchun yana qaytadan talabnomaga taqdim etilsa. To'lashni qisman rad etish quyidagi hollarda sodir bo'lishi mumkin: buyurtilgan tovar bilan

<sup>10</sup> “O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi” Nizom. O'zR AV tomonidan 13.12.2004 yilda 1122-2-son bilan ro'yxatga olingan (yangi tahriri).

birga buyurtilmagan tovar kelib tushsa; schyotda ko'rsatilgandan ortiqcha tovar kelib tushsa; past navli bo'lsa; qisman tovarlar bo'yicha narxlari kelishilmagan bo'lsa; talabnomada arifmetik xatolar bo'lsa; tovarlar kam kelsa. Iste'mol qilingan Kommunal xizmatlari (gaz, suv), elektroenergiya, telefon bo'yicha abonement to'lovchilari summalarini to'lovchining roziligidan to'lanadi.

To'lash rad etilsa, kelib tushgan tovarlarni mol oluvchi mas'uliyatli saqlashga qabul qilib 002-«Mas'ul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy boyliklar» balansdan tashqari schyotida, mol yuboruvchidan boshqa joyga jo'natish to'g'risida ko'rsatma kelguncha, hisobga oladi.

Tovarlarni jo'natish va pul mablag'larini hisob-kitob schyotlariga o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan operasiyalar buxgaltyeriya hisobida quyidagicha rasmiylashtiriladi: tovarlar jo'natilishi bilan mol yuboruvchida – D-t 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar», K-t 9010-«Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromad», 9020 - «Tovarlarni sotishdan olingan daromad», 9030-«Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar» schyoti.

Mol yuboruvchining hisob-kitob schyotiga pul o'tkazilganda: D-t 5110 «Hisob-kitob schyoti», K-t 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti.

Agar matyeriallar kelib tushishganda mol oluvchilarda: D-t 1010 «Xom-ashyo va matyeriallar», K-t 6010 «Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar» schyoti.

Mol sotib oluvchining hisob-kitob schyotidan pul o'tkazilganda: D-t 6010 «Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar», K-t 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti.

Rejali to'lovlar tartibidagi hisob-kitoblar korxonalar orasida muttasil tovar-matyerial qiymatliklar jo'natilib yoki xizmatlar ko'rsatilib (non magazinlariga non mahsulotlarini jo'natish, kundalik iste'mol qilinadigan mahsulotni korxonalar omborida saqlash huquqiga ega bo'lmay jo'natib turish) turilsa amalgalashiriladi.

Iste'molchi va mol yuboruvchi shartnomaga binoan har kuni to'lab turiladigan mahsulot yoki xizmatlar qiymatining reja summasini belgilaydilar. Pul to'lash to'lov topshirig'i yoki to'lov talabnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Hisob-kitoblar shartnomada belgilangan muddatlarda tartibga keltiriladi, ya'ni o'tkazib berilgangan summa haqiqiy olingan mahsulot yoki foydalanilgan xizmatlar qiymati (hajmi) bilan taqqoslanib farqi aniqlanadi.

To'langan summa kam chiqsa qo'shimcha to'lanadi, ortiqcha chiqsa, yoki mol sotib oluvchiga qaytarib berilganadi yoki keyingi to'lovlar hisobga olinadi. Rejali to'lovlar orqali olib boriladigan hisob-kitoblar hisobi mol yuboruvchining balansida 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyotining «Rejali to'lovlar hisob-kitobi» analitik schyotida yuritiladi. Mol yuboruvchi o'z vazifasini bajarsa bu analitik schyotni debetlab 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlar» schyotini Kreditlaydi, jo'natilgan mahsulotlar uchun pul kelib tushsa, 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti debetlanib, 4010 – schyotning rejali to'lovlar analitik schyotini Kreditlaydi. Analitik hisob 7- qaydnomada har bir debitor bo'yicha yuritsa, sintetik hisob 11 – jurnal-ordyerda (Krediti bo'yicha oboroti) yuritiladi.

Mol sotib oluvchining hisob-kitob schyoti holatidan qat'iy nazar pul o'tkazib byerishni kafolatlovchi muttasil hisob-kitoblarni olib borish zaruriyati tug'ilganda hisoblashish cheklari qo'llaniladi. Hisoblashish cheklar daftarchasida 10, 20, 25, 50ta cheklar bo'lib ular bank tomonidan berilganadi.

Korxonaning barcha yuridik va jismoniy shaxslar bilan olib boriladigan hisob-kitoblari, shuningdek ichki xo'jalik hisoblashishlari to'g'risidagi axborotlarni hisobga olish va umumlashtirish uchun schyotlar rejasida quyidagi schyotlar ajratilgan: 6010 «Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar». Bu schyot mol yuboruvchi va pudratchilar bilan olingan tovar-matyerial qiymatliklar, bajarilgan ish va foydalanilgan

xizmatlar bo'yicha olib boriladigan hisob-kitoblar to'g'risidagi axborotni umumlashtirish uchun tayinlangan.

4310 «TMQlar uchun mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgangan bo'naklar» schyoti moddiy qiyamatliklar yoki bajariladigan ishlar uchun berilgangan avanslar bo'yicha hisob-kitoblar to'g'risidagi, shuningdek buyurtmachilardan olingan qisman tayyori bo'lgan ishlarni to'lash bo'yicha axborotni umumlashtirish uchun tayinlangan.

4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti mol oluvchi va buyurtmachilar bilan jo'natilgan mahsulot (ish va xizmatlar) bo'yicha olib boriladigan hisob-kitoblar to'g'risidagi axborotni umumlashtirish uchun tayinlangan.

4860 «Da'volar bo'yicha olinadigan schyotlar» schyoti mol yuboruvchi, pudratchi, transport va boshqa tashkilotlariga taqdim etilgan da'volar bo'yicha hisob-kitoblar, shuningdek ularga taqdim etilgan va tan olingan yoki hukm etilgan jarima, boqimanda, neustoyKalar bo'yicha axborotni umumlashtirish uchun tayinlangan.

6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar» schyoti moddiy qiyamatliklarni etkazib byerish uchun yoki bajariladigan ishlar uchun olingan avanslar bo'yicha, shuningdek buyurtmachilar uchun bajarilgan qisman tayg'r bo'lgan mahsulot va ishlarni to'lash bo'yicha olib boriladigan hisob-kitoblar to'g'risidagi axborotni umumlashtirish uchun tayinlangan.

6510 «Sug'urta bo'yicha to'lovlar» schyoti korxona mulki va xodimlari sug'urtasi bo'yicha korxona sug'urtachi bo'lib hisoblangan hollarda olib boriladigan hisob-kitoblar to'g'risidagi axborotni umumlashtirish uchun tayinlangan.

6520 «Maqsadli davlat jamg'armariga to'lovlar» schyoti maqsadli davlat fondlariga ajratmalar bo'yicha qarzlar to'g'risidagi axborotni umumlashtirish uchun tayinlangan.

6410 «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz» schyoti korxona tomonidan to'lanadigan soliqlar va shu korxona xodimlaridan olinadigan soliqlar bo'yicha byudjet bilan olib boriladigan hisob-kitoblar to'g'risidagi axborotni umumlashtirish uchun tayinlangan.

6710 «Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar» schyoti mehnat haqi, shuningdek mazkur korxonaning aksiyalari va qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlarni to'lash uchun korxona ro'yxati tarkibida bo'lgan va bo'lмаган xodimlar bilan olib boriladigan hisob-kitoblar to'g'risidagi axborotni umumlashtirish uchun tayinlangan.

4200 «Xodimlarga berilgangan bo'naklarni hisobga oladigan schyotlar» hisobotini keyinchalik topshirish yo'li bilan ma'muriy - xo'jalik va operasion xarajatlari, shuningdek xizmat safarlari uchun berilgangan summalar bo'yicha korxona xodimlari bilan olib boriladigan hisob-kitoblar to'g'risidagi axborotni umumlashtirish uchun tayinlangan.

4700 «Boshqa operasiyalar bo'yicha xodimlar qarzlarini hisobga oluvchi» schyotlar mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar va hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblardan tashqari, korxona xodimlari bilan olib boriladigan barcha hisob-kitoblar to'g'risidagi axborotni umumlashtirish uchun tayinlangan.

4610 «Ustav kapitaliga ta'sischilarning ulushlari bo'yicha qarzi», 6610 «To'lanadigan dividendlar» va 6620 «Chiqib ketaiyotgan ta'sischilarga ulushlari bo'yicha qarz» schyotlari korxona ta'sis etuvchilari bilan olib boriladigan barcha turdag'i hisob-kitoblar; korxona ustav Kapitaliga qo'yilmalar bo'yicha, daromadlarni to'lash bo'yicha va boshqalar to'g'risidagi axborotni umumlashtirish uchun tayinlangan.

4800 «Turli debtorlik qarzlari», 6720 «Deponentlashtirilgan ish haqi» va 6900 «Turli Kreditorlarga bo'lgan majburiyatlar» schyotlarda yuqorida keltirilgan schyotlarda aytilmagan barcha operasiyalar bo'yicha debtorlar va Kreditorlar bilan olib boriladigan o'zaro hisob-kitoblar to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish uchun tayinlangan: tijorat xaraktyeriga ega bo'lмаган operasiyalar bo'yicha turli tashkilotlar, o'quv yurtlari, ilmiy tashkilotlar va h. k. bilan; cheklar bilan to'lanadigan transport tashkilotlarining xizmatlari uchun; mukofat va boshqa shunga o'xshash to'lovlar summasi bo'yicha; sud organlarining ijro hujjatlari yoki hukumlariga asosan korxona xodimlari ish haqidani turli tashkilot va shaxslar foydasiga ushlangan summalar va boshqalar hisobga olinadi.

### **6.3. Turli debtorlik va kreditorlik qarzlarni hisobga olish**

Debitor qarz har doim boshqa tashkilotlarning aktivlariga qilingan da'vo bo'lib hisoblanadi. Debitor qarzi bilan bog'liq bo'lgan asosiy buxgaltyeriya operasiyalari bo'lib tan olish va baholash hisoblanadi. Debitor qarzlarini undirib olish imkoniyati – bu debtor qarzlarini o'lchash va ularni hisobotiga ta'sir qiluvchi asosiy masaladir. Undirib olish imkoniyati qarz aks ettirilganligiga (tan olish tamoyili) va uning summasiga (baholash tamoyili) ta'sir qiladi. Buxgaltyeriya hisobi Milliy andazasining 2-soniga binoan xo'jalik yurituvchi sub'ektga daromadlarning kelib tushish ehtimoli bo'lsa, ular alohida aks ettiriladi.

Turli debtor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar quyidagi hollarda vujudga keladi: korxonaning o'zidan yoki uning mehnat jamoasi a'zolaridan ijro varaqalariga asosan pul undiriladigan bo'lsa; kommunal xizmati, turar joy haqi, turar joy bo'limgan xonalarni ijara haqlari bo'yicha; mehnat jamoasi a'zolarining buyrug'i bilan Xalq banki va boshqa joylarga pul o'tkazish bo'yicha. Da'volar va korxonaga etkazilgan moddiy zararlarni undirish bo'yicha hisob-kitoblar 4860 «Da'volar bo'yicha oliga doir schyotlar», 4730 «Xodimlarning moddiy zararni qoplash bo'yicha qarzlari» schyotlarida hisobga olinadi.

Bundan tashqari, turli debtorlar tarkibida moliyanadigan va operativ lizinglar bo'yicha olinadigan to'lovlar, olinadigan foizlar va dividendlar, royalti va gonorar bo'yicha olinadigan schyotlar va boshqa shaxslarning qarzlari (joriy qismi) hisobga olinadi. Bu operasiyalarning hisobi 4800 «Turli debtorlar qarzlarini hisobga oluvchi schyotlar» schyoti tarkibidagi tegishli (4810, 4820, 4830, 4840, 4850, 4860 va 4890) schyotlarda aks ettiriladi.

Korxonaning turli Kreditorlardan bo'lgan qarzlari tarkibiga moliyanadigan va operativ lizinglari bo'yicha to'lanadigan summalar, to'lanadigan foizlar, royalti va gonorarlar bo'yicha qarzlar, da'volar bo'yicha to'lanadigan schyotlar, hisobdor shaxslardan bo'lgan qarzlar va boshqa majburiyatlar kiradi. Bunday operasiyalarning hisobi 6900 – «Turli Kreditorlarga bo'lgan majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar» schyoti tarkibidagi tegishli (6910, 6920, 6930, 6940, 6950, 6960, 6970 va 6990) schyotlarda aks ettiriladi.

4000, 4100, 4300, 4610, 4800, 6100, 6300, 6500, 6600, va 6900-schyotlar bo'yicha analitik hisob 7-qaydnoma yuritiladi. Boshqa schyotlar bo'yicha ham shu shaklda 7-qaydnoma yuritiladi. Oy oxirida analitik hisob qaydnomai bo'yicha jami chiqarilib keyingi oy boshiga qoldiq yoziladi. Kredit oborotlari korrespondentlanuvchi schyotlar doirasida 7-qaydnomadan 4000, 4100, 4300, 4700, 4800, 6100, 6400, 6900 va boshqa schyotlarning Krediti bo'yicha 8 – jurnal-ordyerga yozib qo'yiladi.

4100, 4700 schyotlar bo'yicha yozuvlar jurnal-ordyerda bir qatorda ko'rsatiladi, 4800, 6900 – schyotlar bo'yicha bir oyligi jamlab yoziladi. 4100, 6100, 6400 – schyotlar bo'yicha sintetik va analitik hisob birga ko'rsatiladi.

Xodimlarning ta'tilga, pensiyaga chiqishlarida va ishdan bo'shayotgan hollarida, ish haqi byerish uchun belgilangan kunni kutmasdan, ish haqi ta'tilga chiqish, ishdan bo'shash, pensiyaga chiqish kunidan keyingi kundan kechiktirilmay berilganishi kerak. Bunday to'lovlar hisoblashish davri orasidagi to'lovlar deyiladi. Ushbu maqsadlar uchun pul kassa chiqim ordyerlari yoki (uch va undan ortiq xodimlar bo'lsa) to'lov qaydnomalariga asosan berilganadi.

### **6.4. Bank kreditlari hisobini yuritish**

Qishloq xo'jalik korxonalarida bank krediti korxonalarning qarzga oladigan mablag'larining muhim manbai bo'lib hisoblanadi. Bozor munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar ta'sirida ko'p tarmoqli davlat va tijorat banklari shakllanib, ular korxonalarning tashkiliy - huquqiy shakllaridan qat'iy nazar hisob - kitob, kassa muomalalarini amalga oshirish bo'yicha xizmat qiladi.

Korxonalarning banklar bilan olib boriladigan kredit - hisoblashish munosabatlari ixtiyoriy asosda bo'lib, ikkala tomonlarning manfaatdorligi asosida tuziladi. Kreditlar xo'jalik hisobida turgan, mustaqil balansi va o'z aylanma mablag'lariga ega bo'lgan korxonalarga, odatda, yiriklashtirilgan kredit ob'ektlari uchun berilganadi.

Hisob - kitob munosabatlari tamoyillari va talablarini inobatga olgan holda ob'ektlar uchun Kredit byerishdan sub'ektga, aniq yuridik va jismoniy shaxsga yoki iqtisodiy va ijtimoiy dasturlar majmuini kreditlashga o'tish amalga oshirilmoqda.

Banklar amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan va tomonlar bilan kelishilgan holda kreditni qaytarib byerish, muddatlilik, to'lovlik va ta'minlanganlik tamoyillariga qat'iy amal qilib byeradi. Banklar faoliyatining huquqiy asosini qonuniy va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi.<sup>11</sup>

Kredit byerish va uni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalar bank qoidalari va bank bilan kredit oluvchi korxonalar o'rtasida tuzilgan shartnomalar asosida tartibga solinadi. Tuzilgan kredit shartnomalarda quyidagilar kelishib olinadi: Kredit byerish ob'ekti va kreditning muddati, kredit byerish sharti, uni byerish va qaytarish tartibi, majburiyatlarni ta'minlash sharti, foiz stavkalari, ularni to'lash tartibi, kredit byerish va qaytarish bo'yicha tomonlarning majburiyatlari, huquqlari va mas'uliyati, hujjatlar ro'yxati va ularni topshirish muddatlari va boshqa shartlar.

Kredit olishda korxonalar bankka asoslangan ariza va unga quyidagi hujjatlarni ilova qilib kreditni qaytarilishini ta'minlanishini tasdiqlovchi ta'sis va boshqa hujjatlar topshiradi.

Shartnomalardan bank korxonaning to'lash qobilyatini sinchiklab tekshiradi. Buning uchun bank korxonadan olgan hujjatlardan va hisobotlardan foydalanadi, kerak bo'lsa joylarda oldindan tekshiruv o'tkaziladi. Agar bu hujjatlarning barchasi talabga javob byersa, bank xodimlari korxonaga kredit byerishga qaror qiladi. keyinchalik, xo'jalik yurituvchi sub'ekt kredit olgandan so'ng kreditni to'liq qaytargo'nga qadar kredit shartnomasida ko'rsatilgan tartib va muddatlarda bankka buxgaltyeriya hisoboti va korxonaning xo'jalik - moliyaviy faoliyati ustidan nazorat qilish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarni topshirib turadi.

Muddatiga qarab bank kreditlari qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'ladi. Kreditning muddatliligi uning qaytarish muddati bilan belgilanadi. Chunonchi, qisqa muddatli Kredit bir yildan kam muddatga berilganadi, masalan, yuklangan tovarlar uchun berilganadigan Kredit muddati haqiqiy tovaraylanish muddatiga teng, lekin 30 kundan oshmasligi kerak.

Uzoq muddatli kreditlar bir yildan ortiq muddatga, odatda, yangi texnikani tadbiq etishga, ishlab chiqarishni kengaytirishga, uning qaytadan tiklanishiga, qimmat asbob - uskunalarni sotib olishga va boshqa maqsadli dasturlarni amalga oshirishga olinadi.

Bugo'ngi kunda amaldagi qonun va qarorlar asosida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga, xususan davlat buyurtmasidagi paxta va g'alla ishlab chiqaruvchi xo'jaliklarga imtiyozli kredit byerishning yangi mexanizmi shakllangan va ishlab chiqaruvchilarga har tomonlama qo'l kelmoqda. Bunda kredit ta'minoti bo'lib etishtirilgan hosil hisoblanadi.

Bank Kreditlarini olish bilan bog'liq bo'lgan muomalalar hisobi 6810 «Qisqa muddatli bank Kreditlari» va 7810 «Uzoq muddatli bank Kreditlari» schyotlarida aks ettiriladi. Bu schyotlar passiv bo'lib, ularning qoldiqlari hisobot davri boshiga qaytarilmagan qarzlar summasini ko'rsatadi, debet oboroti - kreditni qaytarilishini, kredit oboroti esa olingan Kredit summasini aks ettiradi.

Kreditlar olinganda 6810 va 7810 schyotlar kreditlanib quyidagi schyotlar debetlanadi: 5010, 5110, 5210, 5510, 6010 schyotlar.

6810 va 7810- schyotlarning debitida kreditlarni qisman yoki to'liq qaytarilishi aks ettirilib 5110, 5210 va 5510- schyotlar bilan korrespondentlanadi.

Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomga binoan qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditdan foydalanganligi uchun to'lanadigan foiz summasi moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatga o'tkaziladi. Demak kreditdan foydalanganligi uchun hisoblangan foiz summasiga 9610 «Foizlar ko'rinishidagi xarajatlar» schyoti debetlanib, 6920 «Hisoblangan foizlar»

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasining «Banklar va banklar faoliyati to'g'risida» 1996 yil 25 aprel, O'zbekiston Respublikasi Qonuni «Markaziy bank to'g'risida» gi qonunlari 2005y 25 dekabr.

schyoti kreditlanadi. Foiz summasi bank muassasalariga o'tkazib berilganganda 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti debetlanib, 5110 «Hisob - kitob» schyoti kreditlanadi.

Bank kreditlarining analitik hisobi kredit turlari va kredit byergan banklar va alohida muddatida qaytarilmagan kreditlar bo'yicha yuritiladi. Bank kreditlarining hisobi 4- jurnal - ordyerda olib boriladi.

Hozirgi vaqtida ishchi va xizmatchilarga yakka uy - joy qurish, dalabog' uylarini qurish, ishchi va xizmatchilarga kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha savdo tashkilotlari bilan hisob - kitob qilish uchun banklardan kredit olish keng rivojlanmoqda.

Yuqorida aytib o'tilgan kreditlar ham qaytarish muddatiga qarab 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari» va 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyotlarida hisobga olinadi. Bu muomalalar bo'yicha xodimlar bilan olib boriladigan hisob - kitoblar 4710 «Kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha xodimlarning qarzi» va 4720 «Berilgangan qarzlar bo'yicha xodimlarning qarzi» schyotlarida yuritiladi. Bu schyotlar aktiv bo'lib, debetida xodimlarga berilgangan qarzlar, kreditida ushbu qarzlarning qaytarilishi aks ettiriladi. Bu muomalalar quyidagi yozuvlar bilan rasmiylashtiriladi:

Kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha topshiriq - majburiyatni to'lash uchun bankdan Kredit olindi, D-t 4710 «Kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha xodimlarning qarzi», K-t 6810 yoki 7810 schyoti.

Ishchi va xizmatchilar kreditga olingan tovarlar bo'yicha o'z qarzlarini qaytarganda, D-t 5010 yoki 6710, K-t 4710 schyoti.

Kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha banklardan olingan qarz qaytarilganda, D-t 6810 yoki 7810, K-t 5110 «Hisob - kitob schyoti» schyoti.

Ishchi va xizmatchilarga uy-joy qurilishi, dalabog' qurilishi uchun banklardan kredit olinganda, D-t 5010 yoki 5110, K-t 6810 yoki 7810 schyoti.

Ishchi va xizmatchilarga uy-joy qurilishi va dalabog' uylarini qurish uchun kredit berilganganda, D-t 4720 «Berilgangan qarzlar bo'yicha xodimlarning qarzi», K-t 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag'lari» yoki 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyotlari. Ushbu qarzlar qaytarilganda, D-t 5010 yoki 6710, K-t 4720 schyot. Bankdan olingan qarz to'langanda, D-t 6810 yoki 7810, K-t 5110 schyot.

Yuqorida aytib o'tilgan kreditlardan tashqari, ishchi va xizmatchilar ga foizsiz kreditlar ham berilganishi mumkin. Bu kreditlar qurilish, kapital ta'mirlash, uy-joylarini kengaytirish uy-ro'zg'orlari bilan ta'minlanish uchun korxonaning bo'sh mablag'lari hisobidan berilganadi. Bunday kreditlar berilganganda quyidagicha buxgaltyeriya yozuvi rasmiylashtiriladi: D-t 4790 «Xodimlarning boshqa qarzi», K-t 5010 yoki 5110 schyot. Ushbu kreditlar qaytarilganda aksincha rasmiylashtiriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar boshqa korxona va tashkilotlardan kredit (qarz) olishi mumkin. Qaytarish muddatiga qarab bu kreditlar qisqa muddatli (bir yilgacha muddatga) va uzoq muddatli (bir yildan ortiq muddatga) bo'lishi mumkin. korxonaning qarz beruvchilar bilan bo'ladigan hisob-kitob muomalalari 6820 «Qisqa muddatli qarzlar» va 7820 «Uzoq muddatli qarzlar» schyotlarida hisobga olinadi.

Bu schyotlar passiv bo'lib, mamlakat ichidagi va xorijdag'i qarz beruvchilardan davlat va xorijiy valyutalarda olingan kreditlar va boshqa jalb qilingan mablag'lari bo'yicha hisob-kitoblar holati to'g'risidagi axborotni umumlashtirish uchun tayinlangan.

Bunday qarzlar olingan vaqtida 5110, 5210 - schyotlar debetlanib 6820 va 7820 schyotlari kreditlanadi. Bunday qarzlar qaytarilganda aksincha provodkalar berilganadi. korxona tomonidan qisqa muddatli va uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar, xususan aksiyalar, obligasiyalar chiqarib sotish yo'li bilan chetdan mablag'lari jalb qilish, shuningdek berilgangan veksellar bo'yicha qarzlar bilan bog'liq bo'lgan muomalalar 6830 «To'lanadigan obligasiyalar», 6840 «To'lanadigan veksellar», 7830 «To'lanadigan obligasiyalar» va 7840 «To'lanadigan veksellar» schyotlarida hisobga olinadi.

Bu schyotlar passiv bo'lib qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar chiqarib sotilsa yoki veksellar berilgansa, pul mablag'larini hisobga oladigan schyotlar debetlanib 6830 yoki 6840-

schyotlar Kreditlanadi. Qimmatli qog'ozlar sotib olinsa yoki berilgangan veksellar summasi to'lansa, aksincha o'tkazmalar amalga oshiriladi. Uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarning sotilishi yoki veksellarning berilganishi va ularning sotib olinishi yoki veksellar summasining to'lanishi 7830 va 7840- schyotlarini qo'llagan holda shunday rasmiylashtiriladi.

Qisqa va uzoq muddatli kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar summasiga 9610 «Foizlar ko'rinishidagi xarajatlar» schyoti debetlanib, 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti Kreditlanadi. Ushbu foizlar to'lansa 6920- schyoti debetlanib 5010, 5110- schyotlari Kreditlanadi.

Yuqorida keltirilgan schyotlarning analitik hisobi olingan qarzlarning shakllari, qarz beruvchilar va kreditni qaytarish muddatlari bo'yicha yuritiladi. Qisqa muddatli qarzlar ko'pincha qarz majburiyatları bo'yicha olingan tijorat kredit xaraktyeriga ega.

## **6.5. Soliqlar hisobini yuritish**

2004 yilning 1 yanvaridan mulk shaklidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda qo'llaniladigan yangi schyotlar rejasida byudjet bilan olib boriladigan operasiyalarni hisobga olib borish uchun 11 ta balansli va 2 ta balansdan tashqari schyotlar belgilangan bo'lib, ular quyidagilar:

Balansli schyotlar: 0950 «Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan daromad (foyda) solig'i»; 3210 «Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan daromad (foyda) solig'i»; 4410 «Byudjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari»; 6240 «Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar»; 6250 «Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan daromad (foyda) solig'i bo'yicha majburiyatlar»; 6410 «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz»; 7240 «Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar»; 7250 «Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan daromad (foyda) solig'i bo'yicha uzoq muddatli majburiyatlar»; 8840 «Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari»; 9810 «Daromad (foyda) solig'i bo'yicha xarajatlar»; 9820 «Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va yig'imlar bo'yicha xarajatlar» schyotlarni o'z ichiga oladi.

Balansdan tashqari schyotlarga esa: 012 «Kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajat» 013 «Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo'yicha)» schyotlar kiradi.

Yuqorida keltirilgan schyotlarning oldiga qo'yilgan vazifalar turlicha. Bu vazifalarni buxgaltyerlar chuqur anglab amaliyotda ulardan to'g'ri foydalanishlari zarur.

0950 «Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan daromad (foyda) solig'i» schyotida hisobot davrida to'lanadigan soliqning kechiktirilgan qismi hisobga olinadi. Shu bilan birga ushbu summa balansdan tashqari 012 «Kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar» schyotning kirimiga yozib qo'yiladi.

Hisobot davri oxirida ushbu summa soliqqa tortiladigan bazaga qo'shib daromad (foyda) solig'iga tortiladi.

4410 «Byudjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari» schyotida bo'nak soliq summalarini, xususan, xarid qilingan xom-ashyo, matyeriallar, yarim tayyor mahsulotlar va boshqa turdag'i ishlab chiqarish zahiralari bo'yicha hisoblashish hujjatlarida alohida ko'rsatilgan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) hisobga olinadi.

4410 schyotida yig'ilgan soliq summalarini hisobdan chiqarish tartibi qonuniy va me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Buxgaltyeriya hisobida 4410 «Byudjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari» schyotidan chiqarish operasiyasi quyidagi buxgaltyeriya hisobi yozuvi bilan rasmiylashtiriladi: matyerial resurslari, tovarlar, ishlar va hizmatlarga tegishli QQS summasi qarz surishishga (zachetga) qabul qilinganda: D-t 6410 «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz», K-t 4410 «Soliqlar bo'yicha bo'nak to'lovlari» schyoti.

Amaldagi Nizom qonunchiligi asosida soliqlar bo'yicha imtiyozlar berilgangan quyidagi xo'jalik sub'ektlariga tegishli:<sup>12</sup>

- soliq, bojxona va majburiy to'lovlardan ozod qilish natijasida hosil bo'lgan mablag'larni maqsadli vazifalarni bajarishga yo'naltiradigan xo'jaliklar;
- soliq to'lovlaridan vaqtinchalik ozod qilish natijasida hosil bo'lgan mablag'larni maqsadli foydalanishga yo'naltirmaydigan xo'jaliklar.

Amaldagi soliq Kodeksining (2007 yil 25 dekabrdagi O'RQ-136-son "O'zRning soliq Kodeksini tasdiqlash to'g'risidagi") 367-moddasiga asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish va qayta ishlash umumiylajmiy hajmida Kamida 50 foizini tashkil etgan yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan boshlab 2 yil muddatga yagona yer solig'i to'lashdan ozod qilinadi.

Byudjetga soliq to'lashdan berilgangan imtiyozlar yangi schyotlar Rejasি bo'yicha 8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari» schyotida hisobga olinadi.

Ayrim xo'jalik yurituvchi sub'ektlar daromad (foyda)dan ajratma solig'i dan qonunchilikka binoan vaqtinchalik imtiyozlarga aga bo'lishi mumkin. Bunday vaqtarda umumiylajmiy belgilangan tartibda hisoblangan daromad (foyda)dan ajratma solig'i summasiga quyidagicha yozuv rasmiylashtiriladi: D-t 9810 «Daromad (foyda) solig'i bo'yicha xarajatlar», K-t 6410 «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz» schyoti bo'yicha ochilgan «Daromad (foyda) solig'i bo'yicha imtiyozlar» schyoti.

Ushbu hisoblangan soliq summasi byudjetga o'tkazilmaydi, balki maqsadli foydalanish uchun berilgangan soliq imtiyozlari schyotiga o'tkaziladi: Dt 6410 «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz» schyoti bo'yicha ochilgan «Daromad (foyda) solig'i bo'yicha imtiyozlar», 8840 «Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari» schyoti.

8840 – schyotda hisobga olinadigan qonunchilik bo'yicha soliqlardan ozod qilish natijasida hosil bo'lgan summa, agar imtiyozli davr ko'rsatilgan bo'lsa, ko'rsatilgan davr oxirida, boshqa hollarda esa har yili quyidagi hisobdan chiqariladi: D-t 8840 «Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari», K-t 8520 «Rezyerv kapitali» schyoti.

Maqsadli foydalanish uchun rezyerv Kapitaliga o'tkazilgan mablag'dan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zlarining moddiy-teknika va ijtimoiy bazasini mustahkamlash, shuningdek xodimlarni moddiy rag'batlantirish uchun foydalanganda 8520 «Rezyerv kapitali» schyoti debetlanib tayinlanishiga qarab tegishli schyotlar Kreditlanadi.

Soliqlar, bojxona va majburiy to'lovlardan ozod qilinishi natijasida hosil bo'lgan mablag'lardan maqsadli foydalanganligini tasdiqlash uchun korxona va tashkilotlar har yili yillik moliyaviy hisoboti bilan birga ushbu mablag'lardan foydalanishi to'g'risidagi hisob-kitobini topshiradi.

Soliq organlari tomonidan tekshirilganda soliqlar, bojxona va majburiy to'lovlardan ozod qilinishi natijasida hosil bo'lgan mablag'larning belgilangan maqsadlarga emas, boshqa maqsadlar uchun foydalanganligi aniqlansa yoki imtiyozli davr tugaganga qadar import qilingan tovarlar sotilsa yoki boshqa tashkilotga berilgansa, belgilangan maqsad bo'yicha foydalanimagan mablag'lar summasi, shuningdek, sotilgan mulklar bo'yicha bojxona to'lovleri summasi jarima choralarini qo'llagan holda boqimandasini undirib olinadi.

Soliq organlariga topshirilgan hisob-kitoblarning to'g'riliqi va o'z vaqtida topshirilishiga korxona va tashkilotlar javobgardir. Qonunchilik asosida soliq to'lovlaridan vaqtinchalik ozod qilish natijasidada hosil bo'lgan mablag'larni maqsadli foydalanishga yo'naltirmaydigan korxona va tashkilotlarga misol qilib shuni ko'rsatish lozimki, yangi tashkil etilgan korxonalar ro'yxatdan o'tgan vaqtadan boshlab ikki yil davomida byudjetga mulk solig'i to'lashdan ozod qilinadi. Ushbu soliqdan ozod qilish natijasida hosil bo'lgan mablag' maqsadli

<sup>12</sup> «Soliqlar, boj va majburiy to'lovlarini byudjetga to'lash bo'yicha yuridik shaxslarga berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobida aks ettirish to'g'risida»gi Nizom. 2002 yil 22 iyunda O'zR Adliya vazirligi tomonidan 1155-son bilan ro'yxatga olingan.

foydalanishga yo'naltirilmaydi. Shunday shart bilan qonunchilikka binoan ayrim xo'jalik yurituvchi sub'ektlar boshqa soliq, bojxona va majburiy to'lovlardan ozod qilinishi mumkin.

Hisoblangan boj to'lovlar, soliqlar (QQS to'lovchilar uchun QQS summasidan tashqari) va majburiy to'lovlar summasini tovarning sotish qiymatiga ham qo'shmaydi. Bunday xo'jalik yurituvchi sub'ektlar har bir byudjetga to'lov turi bo'yicha balansdan tashqari 013 «Vaqtinchalik soliq imtiyozlari» schyotida hisob yuritadi.

Umumiy belgilangan tartibda byudjetga hisoblangan soliq va to'lovlar summasi 013-schyotning kirimiga yozib boriladi. Byudjetga hisoblangan majburiy to'lovlar va soliqlar summasi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks ettirilmaydi va moliyaviy natijalarni shakllanishiga ta'sir etmaydi.

Soliqdan ozod qilish imtiyozli davri tugashi bilan soliqliqdan ozod qilish natijasida hosil bo'lgan mablag'lar balansdan tashqari 013 «Vaqtinchalik soliq imtiyozlari» schyotidan chiqim qilinadi. Bunda hisobdan chiqarilgan mablag'lar to'g'risidagi axborot imtiyozli davri tugagandan so'ng 5 yil ichida korxonada saqlanishi kerak.

7240 «Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli Kechiktirilgan majburiyatlar» schyotida qonunchilikka binoan vaklotli hukumat organlari qarori bilan to'lashni bir necha yilga uzaytirishga ruxsat etilgan soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha byudjet oldidagi uzoq muddatli qarz aks ettiriladi.

Joriy yoki undan uzoqroq davrlarda to'lanishi kerak bo'lgan to'lovlar summasi korxonaning kechiktirilgan majburiyatlar deb tan olinadi va ular kelajakda qaytariladi. Bu schyotning Kreditida tegishli soliq va majburiy to'lovlarini hisobga oladigan schyotlar bilan korrespondentlangan holda uzoq muddatli kechiktirilgan to'lovlar summasi hisobga olinadi.

Masalan, korxonaga qonunchilikka binoan vakolati huquqiy organlari qarori bilan soliq to'lashni bir necha yilga uzaytirishga ruxsat etilgan bo'lsa, quyidagicha yozuv bilan rasmiylashtiriladi: D-t 6410 «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)», K-t 7240 «Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» schyoti.

Shuningdek boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha to'lash muddati bir necha yilga kechiktirilgan hollarda 6510 «Sug'urta bo'yicha to'lovlar», 6520 «Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar» schyotlari debetlanib 7240 «Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» schyoti Kreditlanadi.

Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlarning joriy yilda to'lanadigan qismi 6240 «Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» schyotining Kreditida quyidagi aks ettiriladi: D-t 7240 «Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar», K-t 6240 «Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» schyoti.

Bunday summani joriy yilda byudjetga o'tkazish hisoblanganda 6240 «Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» schyoti debetlanib, 6410 «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)» yoki 6510 «Sug'urta bo'yicha to'lovlar», 6520 «Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar» schyotlari Kreditlanadi.

Ushbu summa byudjetga yoki sug'urta organlariga o'tkazib berilganganda yuqoridagi 6410, 6510 va 6520 schyotlari debetlanib, 5110 «Hisob-kitob schyoti» Kreditlanadi.

7250 «Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan daromad (foyda) solig'i bo'yicha uzoq muddatli majburiyatlar» schyotida vaqtinchalik farqlarning mavjudligi tufayli vujudga keladigan kechiktirilgan daromad (foyda) solig'i summasi aks ettiriladi.

Daromad (foyda) solig'i bo'yicha xarajat hisob daromadidan hisoblab topiladi, to'lanadigan daromad (foyda) solig'i esa soliqqa tortiladigan daromad (foyda)dan hisoblab topiladi. Hisob daromadi (foydas) va soliqqa tortiladigan daromadi (foydas)dan olinadigan soliqni aniqlashdagi yondoshishlar orasidagi farqi moliyaviy hisobotda inobatga olinishi kerak.

Korxonaning hisob siyosatiga binoan hisob ma'lumotlari bo'yicha aniqlangan daromad (foyda) solig'i daromad olish moboynida korxona tomonidan qilingan xarajat deb qaraladi va u tegishli daromad va xarajatlar qaysi davrda vujudga kelgan bo'lsa, shu davrda hisoblanadi

ham korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladi. Bunda hisob daromadidan hisoblab topilgan daromad (foyda) solig'i xarajati bilan soliqqa tortiladigan daromaddan hisoblab topilgan to'lashga tegishli daromad (foyda) solig'i orasidagi farq vaqtinchalik farq sifatida hisobga olinib 7250 «Vaqtinchalik farqlar bo'yicha Kechiktirilgan daromad (foyda) solig'i bo'yicha uzoq muddatli majburiyatlar» schyotining Kreditida quyidagi aks ettiriladi: D-t 9810 «Daromad (foyda) solig'i bo'yicha xarajatlar», K-t 7250 «Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan daromad (foyda) solig'i bo'yicha uzoq muddatli majburiyatlar» schyoti.

Har yili daromad (foyda) solig'i bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlarning bir qismi daromad (foyda) solig'i bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlarning joriy qismidek 6250 «Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan daromad (foyda) solig'i bo'yicha majburiyatlar» schyotida quyidagi aks ettiriladi: D-t 7250 «Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan daromad (foyda) solig'i bo'yicha uzoq muddatli majburiyatlar», K-t 6250 «Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan daromad (foyda) solig'i bo'yicha majburiyatlar» schyoti.

Bunday summani joriy yilda byudjetga o'tkazish hisoblanganda 6250 «Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan daromad (foyda) solig'i bo'yicha majburiyatlar» schyoti debetlanib, 6410 «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)» schyoti Kreditlanadi. Ushbu summa byudjetga o'tkazib berilgansa 6410 «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)» schyoti debetlanib, 5110 «Hisob-kitob schyoti» Kreditlanadi.

O'zbekiston Respublikasi soliq Kodeksining 43-moddasiga binoan yilning hisobot choragida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizasiya qilishdan eng kam ish haqining ikki yuz barobaridan ko'proq miqdorda daromad (foyda) olgan yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'i bo'yicha joriy to'lovlar har oyning 10 va 25 kunlarida yilning choragi bo'yicha daromad (foyda) solig'i summasining oltidan bir qismi miqdorida to'laydi.

Bu vaqtda hisoblangan bo'nak daromad (foyda) solig'i summasi 9810 «Daromad (foyda) solig'i bo'yicha xarajatlar» schyotining debetida quyidagicha yoziladi: D-t 9810 «Daromad (foyda) solig'i bo'yicha xarajatlar», K-t 6410 «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)» schyoti.

Ushbu summa belgilangan muddatlarda byudjetga o'tkazib berilgansa 6410 «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)» schyoti debetlanib, 5110 «Hisob-kitob schyoti» Kreditlanadi.

Hisobot davri tugagach yilik moliyaviy hisobot tuzishda 9810 «Daromad (foyda) solig'i bo'yicha xarajatlar» va 9820 «Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va yig'imlar bo'yicha xarajatlar» schyotlarining debetida hisobga olingan soliqlar summasi 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyotining debetiga o'tkaziladi: D-t 9910 «Yakuniy moliyaviy natija», K-t 9810 «Daromad (foyda) solig'i bo'yicha xarajatlar» va 9820 «Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va yig'imlar bo'yicha xarajatlar» schyotlari.

Demak, daromad (foyda) solig'ini to'lago'nga qadar foya (zarar) summasidan daromad (foyda) solig'ini (9810-schyoti) va foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va yig'imlar (9820-schyoti) summasini ayrib tashlagandan so'ng hisobot davrining sof foydasi (zarari) chiqadi va u moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-sonli shaklning 270-satrida ko'rsatiladi).

## O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN TEST SAVOL-JAVOBLARI

**1. Kelgusi ma'muriy-xo'jalik va safar xarajatlari uchun pul mablag'larini oldindan olgan xodimlar.**

- a) Ombor mudiri.
- b) Agronom.
- v) Hisobdor shaxs.
- g) To'g'ri javob yo'q.

**2. Safar xarajatlariga kiradi.**

- a) Sutkalik, yo'llkira va turar joy xarajatlari.
- b) Sutkalik, yo'llkira, turar joy va tomosha xarajatlari.
- v) Dam olish o'ylarida dam olish xarajatlari.
- g) Barcha javoblar to'g'ri.

**3. Xizmat safariga borish quyidagi hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi:**

- a) Ariza va buyruq. b) Ariza, buyruq va safar guvohnomasi.  
v) Buyruq va safar guvohnomasi. g) A va V javoblar to'g'ri.

**4. Malaka oshirish uchun xizmat safariga ketaiyotgan ishlab chiqarish ishchisining safar xarajatlari summasi qaysi xarajatga kiritiladi.**

- a) Ma'muriy xarajatga. b) Boshqa operasion xarajatlarga.  
v) Ishlab chiqarish xarajatlariga. g) To'g'ri javob yo'q.

**5. Xizmat safaridan qaytib kelgan ishchi necha kun ichida qanday hisobot topshirishi lozim?**

- a) 5 kun ichida, hisobdorlik hisobotini. b) 2 kun ichida, avans hisobotini.  
v) 3 kun ichida avans hisobotini. g) 3 kun ichida, hisobdorlik hisobotini.

**6. Safar guvohnomasida qanday ma'lumotlar bo'ladi?**

- a) Guvohnoma raqami va sanasi, korxona nomi, hisobdor shaxsning ismi sharifi.  
b) Safarga borilayotgan manzil, safar muddati, boshlanishi va tugashi sanasi.  
v) korxona rahbarining buyrug'i raqami va sanasi.  
g) Barcha javoblar to'g'ri.

**7. Toshkent shahri va viloyat markazlarida bo'lganda safardagi har bir kun uchun eng kam ish haqining necha foizi miqdorida haq to'lash belgilangan?**

- a) Eng kam ish haqining 10% miqdorida.  
b) Eng kam ish haqining 8% miqdorida.  
v) Eng kam ish haqining 30% miqdorida.  
g) Eng kam ish haqining 15% miqdorida.

**8. Tuman shaharlari va aholi punktlarida bo'lganda safardagi har bir kun uchun eng kam ish haqining necha foizi miqdorida haq to'lash belgilangan?**

- a) Eng kam ish haqining 10% miqdorida.  
b) Eng kam ish haqining 8% miqdorida.  
v) Eng kam ish haqining 30% miqdorida.  
g) Eng kam ish haqining 15% miqdorida.

**9. Agar safarda bo'lgan xodim tomonidan mehmonxonaning lyuks nomyerida to'rganligi haqidagi hujjat taqdim etilsa uning qiymatini necha foizi qoplanadi?**

- a) Eng kam ish haqining 2% miqdorida.  
b) Eng kam ish haqining 30% miqdorida.  
v) Eng kam ish haqining 70% miqdorida.  
g) Eng kam ish haqining 50% miqdorida.

**10. Agar safarda bo'lgan xodim tomonidan turar joyga tegishli hech qanday hujjat taqdim etilmasa turar joy xarajatlari uchun qanday haq to'lanadi?**

- a) Eng kam ish haqining 2% miqdorida.  
b) Eng kam ish haqining 30% miqdorida.  
v) Eng kam ish haqining 70% miqdorida.  
g) Eng kam ish haqining 50% miqdorida.

**11. Xizmat safaridan qaytgan xodim tomonidan ortiqcha, tejalgan hisobdorlik summasini kassaga qaytarib topshirilgan summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- a) Dt 5010 Kt 4220. b) Dt 5010 Kt 6970.  
v) Dt 6970 Kt 5110. g) Dt 4220 Kt 5010.

**12. Xizmat safaridan qaytgan xodimning avans hisobotida olingan avans summasidan ortiqcha xarajat qilganligi aniqlansa va bu xarajatlarning to'g'ri sarflanganligi tasdiqlansa, ortiqcha xarajat summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- a) Dt 9420 Kt 4220. b) Dt 9420 Kt 6970.  
v) Dt 4220 Kt 9420. g) Dt 6970 Kt 5010.

**13. Xizmat safaridan qaytgan xodimning avans hisobotida olingan avans summasidan ortiqcha xarajat qilganligi aniqlansa va bu xarajatlar noo'rin qilingan xarajatlar deb topilsa, ortiqcha xarajat summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- a) Dt 9420 Kt 4220.      b) Dt 4730 Kt 4220.  
v) Dt 4220 Kt 9420.      g) Dt 4220 Kt 4730.

**14. Yuridik shaxslar orasidagi mahsulot (ish va xizmat)lar bo'yicha hisob-kitoblar kimlar bilan amalga oshiriladi?**

- a) Sotuvchi, xaridorlar va buyurtmachilar bilan.  
b) Sotuvchilar, xaridorlar va byudjet tashkilotlari bilan.  
v) Byudjet tashkilotlari, banklar, ijtimoiy sug'urta organlari.  
g) To'g'ri javoblar yo'q.

**15. Tovarsiz operasiyalar bo'yicha hisob-kitoblar kimlar bilan amalga oshiriladi?**

- a) Sotuvchi, xaridorlar va buyurtmachilar bilan.  
b) Sotuvchilar, xaridorlar va byudjet tashkilotlari bilan.  
v) Byudjet tashkilotlari, banklar, ijtimoiy sug'urta organlari.  
g) To'g'ri javoblar yo'q.

**16. Tovarsiz operasiyalar bo'yicha hisob-kitoblar kimlar bilan amalga oshiriladi?**

- a) Sotuvchi, xaridorlar va buyurtmachilar bilan.  
b) Sotuvchilar, xaridorlar va byudjet tashkilotlari bilan.  
v) Byudjet tashkilotlari, banklar, ijtimoiy sug'urta organlari.  
g) To'g'ri javoblar yo'q.

**17. "Qishloqxo'jalikkimyo" OHJga sotib olingan o'g'itlar summasi hisobraqamdan to'lab berilganganda qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- a) Dt 6310 Kt 5110.      b) Dt 6010 Kt 5110.  
v) Dt 4010 Kt 5110.      g) Dt 1010 Kt 5110.

**18. "Qarshineft mahsulotlari" OHJga sotib olingan yoqilg'i summasi hisobraqamdan to'lab berilganganda qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- a) Dt 6310 Kt 5110.      b) Dt 6010 Kt 5110.  
v) Dt 4010 Kt 5110.      g) Dt 1030 Kt 5110.

**19. "Qarshineft mahsulotlari" OHJga sotib olinadigan yoqilg'i uchun yoqilg'i summasi hisobraqamdan to'lab berilganganda qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- a) Dt 6310 Kt 5110.      b) Dt 6010 Kt 5110.  
v) Dt 4310 Kt 5110.      g) Dt 1030 Kt 5110.

**20. "Qarshineft mahsulotlari" OHJga sotib olingan yoqilg'inining kamomadi uchun da'vo bildirilganda, bildirilgan da'vo summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- a) Dt 6960 Kt 1030.      b) Dt 4860 Kt 1030.  
v) Dt 1030 Kt 6960.      g) Dt 1030 Kt 4860.

**20. "Qarshineft mahsulotlari" OHJ vaqtida to'lab berilganmagan kreditorlik qarzi uchun xo'jalikka da'vo bildirganda va bu da'vo xo'jalik sud ijrochilari deportamenti tomonidan qondirilib, xo'jalik jarimaga tortilganida jarima summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- a) Dt 9430 Kt 6960.      b) Dt 9430 Kt 6010.  
v) Dt 1030 Kt 6960.      g) Dt 1030 Kt 4860.

**21. Xo'jalik tomonidan 3 oy muddatga ijaraga berilgangan binoni hisoblangan ijara haqi summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- a) Dt 0120 Kt 9350.      b) Dt 4820 Kt 9350.  
v) Dt 4810 Kt 9350.      g) Dt 9350 Kt 4820.

**22. Xo'jalik tomonidan 3 oy muddatga ijaraga berilgangan binoga hisoblangan ijara haqi summasi hisobraqamga kelib tushganda qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- a) Dt 5110 Kt 9350.      b) Dt 5110 Kt 4820.  
v) Dt 4820 Kt 5110.      g) Dt 9350 Kt 5110.

**23. Xo'jalik tomonidan 24 dekabr kuni, 2 yil muddatga ijaraga berilgangan binoga hisoblangan ijara haqi summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- |            |          |            |          |
|------------|----------|------------|----------|
| a) Dt 0920 | Kt 7230. | b) Dt 0920 | Kt 6230. |
| v) Dt 7230 | Kt 0920. | g) Dt 0920 | Kt 9350. |

**24. Xo'jalik tomonidan 2 yil muddatga ijaraga berilgangan binoga hisoblangan ijara haqi summasining joriy yilga to'g'ri kelgan ijara to'lovi summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- |            |          |            |          |
|------------|----------|------------|----------|
| a) Dt 0920 | Kt 6230. | b) Dt 7230 | Kt 6230. |
| v) Dt 4810 | Kt 0920. | g) Dt 0920 | Kt 9350. |

**25. Har oyda hisobraqamiga kelib tushgan uzoq muddatli ijaraning joriy to'lovi summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- |            |          |            |          |
|------------|----------|------------|----------|
| a) Dt 5110 | Kt 4810  | b) Dt 5110 | Kt 6230. |
| v) Dt 4810 | Kt 5110. | g) Dt 6230 | Kt 5110. |

**26. Xo'jalik tomonidan 2 yil muddatga ijaraga berilgangan binoga hisoblangan ijara haqidan olinadigan daromad summasining joriy yilga to'g'ri kelgan olingan daromad summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- |            |          |            |          |
|------------|----------|------------|----------|
| a) Dt 7230 | Kt 6230. | b) Dt 6230 | Kt 9550. |
| v) Dt 6230 | Kt 7230. | g) Dt 0920 | Kt 9550. |

**27. Uzoq muddatli ijaradan olinadigan daromad summasining har oyda hisobraqimiga kelib tushgan daromadi summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- |            |          |            |          |
|------------|----------|------------|----------|
| a) Dt 7230 | Kt 9550. | b) Dt 6230 | Kt 9550. |
| v) Dt 6230 | Kt 7230. | g) Dt 0920 | Kt 9550. |

**28. Xo'jalikda ishlayotgan pensiyanyerlarga hisoblangan pensiya summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- |            |          |            |          |
|------------|----------|------------|----------|
| a) Dt 4890 | Kt 6710. | b) Dt 6990 | Kt 6710. |
| v) Dt 6710 | Kt 4890. | g) Dt 6710 | Kt 6990. |

**29. Ish haqidan ushlab qolingan alyument summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- |            |          |            |          |
|------------|----------|------------|----------|
| a) Dt 4890 | Kt 6710. | b) Dt 6990 | Kt 6710. |
| v) Dt 6710 | Kt 4890. | g) Dt 6710 | Kt 6990. |

**30. Xo'jalik tomonidan etishtirilgan mahsulotlarni saqlash uchun 3 oy muddatga ijaraga olingan ombor binsiga shartnomaga asosan hisoblangan ijara haqi summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- |            |          |            |          |
|------------|----------|------------|----------|
| a) Dt 3110 | Kt 6910. | b) Dt 6910 | Kt 3110. |
| v) Dt 2010 | Kt 4820. | g) Dt 4820 | Kt 2010. |

**31. Xo'jalik tomonidan 3 oy muddatga ijaraga olingan ombor binsiga shartnomaga asosan hisoblangan ijara haqi summasi hisobraqamdan o'tkazib berilganganda qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- |            |          |            |          |
|------------|----------|------------|----------|
| a) Dt 5110 | Kt 6910. | b) Dt 6910 | Kt 5110. |
| v) Dt 2010 | Kt 4820. | g) Dt 4820 | Kt 2010. |

**32. Xo'jalik tomonidan 3 oy muddatga ijaraga olingan ombor binsiga shartnomaga asosan hisoblangan ijara haqi summasini joriy oyga tegishli qismi xarajatlarga kiritilganida qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- |            |          |            |          |
|------------|----------|------------|----------|
| a) Dt 2010 | Kt 3110. | b) Dt 3110 | Kt 2010. |
| v) Dt 2810 | Kt 2010. | g) Dt 2010 | Kt 2810. |

**33. 3 oy muddatga olingan bank kreditiga foizlar hisoblanganda, foiz summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- |            |          |            |          |
|------------|----------|------------|----------|
| a) Dt 9610 | Kt 4830. | b) Dt 4830 | Kt 9610. |
| v) Dt 9610 | Kt 6920. | g) Dt 6920 | Kt 9610. |

**34. Hisoblangan bank krediti foizi hisobraqamdan o'tkazib berilganganda, bu summaga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- |            |          |            |          |
|------------|----------|------------|----------|
| a) Dt 9610 | Kt 5110. | b) Dt 4830 | Kt 5110. |
|------------|----------|------------|----------|

v) Dt 5110 Kt 6920. g) Dt 6920 Kt 5110.

**35. Qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirish uchun sarflangan elektr enyergiyasiga hisoblangan summaga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- a) Dt 2510 Kt 4890. b) Dt 4890 Kt 2510.  
v) Dt 6990 Kt 2510. g) Dt 2510 Kt 6990.

**36. Qaytarib byerish, muddatlilik, to'lovlik va ta'minlanganlik tamoyillariga qat'iy amal qilinadi.**

- a) Kredit olishda. b) Soliqlarni hisoblashda.  
v) Soliqlani to'lashda. g) To'g'ri javoblar yo'q.

**37. Xo'jalik tomonidan 5 yil muddatga asosiy vosita sotib olish uchun olingan imtiyozli kredit summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- a) Dt 5530 Kt 7810. b) Dt 5530 Kt 6810.  
v) Dt 6810 Kt 5530. g) Dt 5110 Kt 6810.

**38. Xo'jalikning matyeriallar yuboruvchilardan bo'lган qarzdorlik summasi 5 oy muddatga rasmiylashtirilgan imtiyozli kredit hisobidan o'tkazib berilganganda qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- a) Dt 6010 Kt 6810. b) Dt 6810 Kt 6010.  
v) Dt 1010 Kt 6810. g) Dt 6010 Kt 5530.

**39. Xo'jalik tomonidan 5 yil muddatga olingan imtiyozli kredit summasining joriy yildagi to'lovi summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- a) Dt 6950 Kt 7810. b) Dt 7810 Kt 6950.  
v) Dt 6810 Kt 7810. g) Dt 7810 Kt 6810.

**40. Davlat byudjetdan amalga oshiriladigan xarajatlarni qoplash uchun qaytarib byermaslik sharti bilan yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan to'lovlari.**

- a) Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlardir. b) Kredit to'lovidir.  
v) Soliqlardir. g) Barcha javoblar to'g'ri.

**41. Mahsulotlarining umumiyoj hajmida 50%dan oshig'ini qishloq xo'jalik mahsulotlari tashkil etadigan korxonalar.**

- a) Dehqonchilik korxonalari hisoblanadi. b) chovachilik korxonalari hisoblanadi.  
v) Qishloq xo'jalik korxonalari hisoblanadi. g) Ishlab chiqarish korxonalari hisoblanadi.

**42. Mikrofirma va kichik korxonalar tarkibiga kiruvchi qishloq xo'jalik korxonalari.**

- a) Yagona soliq to'lovchisi hisoblanadi.  
b) Yagona yer solig'i to'lovchisi hisoblanadi.  
v) Umumbelgilangan soliq to'lovchi hisoblanadi.  
g) Yalpi daroma solig'i to'lovchisi hisoblanadi.

**43. Xo'jalikda hisoblangan yagona yer solig'i summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- a) Dt 9820 Kt 6240. b) Dt 9430 Kt 6410.  
v) Dt 6240 Kt 9820. g) Dt 6410 Kt 9430.

**44. Xo'jalikning to'lov muddati kelgan yagona yer solig'i summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- a) Dt 6410 Kt 6240. b) Dt 6240 Kt 6410.  
v) Dt 6240 Kt 4410. g) Dt 6410 Kt 4410.

**45. Yagona yer solig'ini to'lashdan 2 yilga ozod qilingan imtiyozli xo'jaliklarda hisoblangan soliq summasi maqsadli yo'naltirilganda bu summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- a) Dt 6410 Kt 5110. b) Dt 8840 Kt 6410.  
v) Dt 6240 Kt 8840. g) Dt 6410 Kt 8840.

## **O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR**

1. Safar uchun hisobdor shaxsga pul byerish qanday hujjat bilan rasmiylashtiriladi?
2. Avans hisobotiga qanday hujjatlar ilova qilinadi?
3. Xizmat safari sutkalik xarajatlari me'yori qanday belgilanadi?
4. Safar muddati qanday hujjat bilan belgilanadi?
5. Barcha hisobdor summa operasiyalari korxona buxgaltyeriyasida qaysi schyotda hisobga olinadi?
6. To'lov topshiriqnomasining mazmunini izoxlang.
7. To'lov talabnomasining mazmunini izoxlang.
8. Korxonada kimlar hisobdor shaxs bo'la oladi?
9. To'lov topshiriqlari bilan qaysi vaqtarda hisob-kitob qilinadi?
10. Moddiy javobgar shaxslarning aybi bilan sodir bo'lgan kamomad qanday undirib olinadi?
11. Hisobdor shaxsga berilgangan avans to'lovlari va xizmat safari xarajatlari qanday hisobga olinadi?
12. Bankdan olingan xodimlarning qisqa muddatli kreditlar bo'yicha qarzlari qanday so'ndiriladi?
13. Korxonaning soliqlar bo'yicha qarzlari qaysi schyotlarda hisobga olinadi?
14. Kredit olishda korxonalar bankka qanday hujjatlar topshiradi?
15. Tuzilgan kredit shartnomasida qanday shartlar kursatiladi?
16. Kredit olishda korxonalar bankka qanday hujjatlarni taqdim qiladi?
17. Muddatiga qarab bank Kreditlari qanday turlarga bo'linadi?
18. Bankdan olingan xodimlarning qisqa muddatli kreditlar bo'yicha qarzlari qanday so'ndiriladi?
19. Korxonaning soliqlar bo'yicha qarzlari qaysi schyotlarda hisobga olinadi?

## **7-ma'ruza. QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI**

**Ma'ruzaning asosiy maqsadi** talabalarga quyidagi tayanch iboralar va tushunchalar to'g'risidagi bilimlarni byerish hisoblanadi:

*Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish asosiy vositalari, noishlab chiqarish asosiy vositalari, qishloq xo'jalik texnikasi, ishchi va nasldor hayvonlar, ko'p yillik o'simliklar, asosiy vositalar hisoblanmaydigan hayvonlar, ishchi va mahsuldar hayvonlarning hisobi va balans qiymati, ko'p yillik o'simliklarning hisob va balans qiymati, ishchi va mahsuldar hayvonlarni kirim dalolatnomasi, hayvonlarni guruhdan-guruhga o'tkazish dalolatnomasi, o'lgan mollarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi, asosiy podani shakllantirish, o'stirishdagi va boquvdagi mollarni asosiy podaga o'tkazish, ishchi hayvonlarga eskirish hisoblash, ko'p yillik o'simliklarga eskirish hisoblash, amortizasiya xarajatlarini taqsimlash.*

### ***Ma'ruza rejasi:***

- 7.1. *Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalarning tasnifi, tavsifi va baholanishi.*
- 7.2. *Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalar harakatini hujjatlashtirish va hisobi.*
- 7.3. *Qishloq ho'jalik korxonalarida asosiy podani shakllantirish va ular kirimining hisobi.*
- 7.4. *Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalarga eskirish hisoblashning xususiyatlari va hisobi.*
- 7.5. *Lizingga olingan asosiy vositalarning hisobi.*

### **MAVZUNI CHUQUR O'RGANISY UCYUN TAVSIYA ETILADIGAN ME'YORIY-HUQUQIY HUJJATLAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. "Lizing to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasining qonuni 14.04.1999 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi (34-bob-Mulkni yollash -ijara, §6. Lizing 587-599-bandlar).
3. "Buxgaltyeriya hisobida lizing operasiyalarini aks ettirish tartibi to'g'risidagi Nizom" (O'zR MV 12.05.2004 y. 74-sun buyrug'i).
4. "1 yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom" (O'zR MV 29.10.2002 y. 129-sun).
5. Fermer xo'jaliklarida buxgaltyeriya hisobining soddalashtirilgan «tizimini tashkil etish to'g'risida Nizom. Moliya vazirligi va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 2008 yil 21 yanvardagi 1, 1z2-sun qarori bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 26 martda 1781 -son bilan ro'yxatga olingan.
6. O'zbekiston: Respublikasi Soliq Kodeksi. -T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2008. " ..;
7. «Mahsulot (ish, xizmatlarni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalari shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom». O'zR VMning 1999 yil 5 fevraldagi 54-sun qarori bilan tasdiqlangan.
8. BHMS № 5 «Asosiy vositalar». O'z.R: AV tomonidan 1998 yil 23 avgustda ro'yxatga olingan, № 491.
9. BHMS-6- "Ijara hisobi" O'z.R: AV tomonidan 2004 yil 22 iyunda ro'yxatga olingan, № 1374.
10. Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgaltyeriya hisobi xususiyatlari. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.
11. Sanaev N. S. Qishloq xo'jaligida buxgaltyeriya hisobi, nazorat va moliyalashtirishning dolzarb masalalari-Toshkent: «Mehnat», 1991.- 104 b.
12. Do'stmurodov R, Masharipov O. Fermer xo'jaligida buxgaltyerya hisobi va hisobotini tashkil etish.O'quv qo'llanma-Toshkent, 2007.- 94 b.
13. Urazov K. B. Boshqa tarmoqlarda buxgaltyeriya hisobining xususiyatlari.Darslik.-T.: 2010 y..

## **7.1. Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalarning tasnifi, tavsifi va baholanishi**

Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalarni tasniflash, tavsiflash, baholash hamda hisobini yuritish xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun belgilangan umumiy tartiblarga asoslanadi. Shu bilan birga asosiy vositalarning o'ziga xos tarkibi ularning maqsadi, ishlatalishi va boshqa jihatlari ular hisobida ayrim o'ziga xos xususiyatlar mavjudligidan darak byeradi. Bu xususiyatlar qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalar hisobiga o'ziga xos vazifalarni ham yuklaydi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalar hisobining vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- asosiy vositalarni boshqaruv, nazorat, hisob va hisobot talablaridan kelib chiqib, tegishli guruhlarga ajratish, har bir guruhgaga bo'yicha unga kiruvchi asosiy vositalar tarkibini aniq belgilash;
- kirim qilingan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati, tiklangan qiymati va qoldiq qiymatini aniq hisob kitob qilish;
- asosiy vositalar harakatiga doir operasiyalarni to'g'ri va o'z vaqtida tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirish;
- asosiy vositalar eskirishi, ularga doir keyingi sarflarni mazmun va mohiyatidan kelib chiqib tegishli schyotlarda hisobga olish;
- asosiy vositalar holati va harakatini hisob va hisobotda to'g'ri aks ettirish;
- asosiy vositalarning mavjudligi va butligini ta'minlash, samarali foydalanishni nazorat qilish maqsadida ularni belgilangan muddatlarda inventarizasiya qilish;
- yarovsiz holga kelgan, samara byermaydigan asosiy vositalarning o'z vaqtida hisobdan chiqarish va boshqalar.

Qishloq xo'jalik korxonalarida barcha asosiy vositalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- **qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishga mo'ljallangan asosiy vositalar** - omborlar, shiyonlar, mashina va asbob-uskunalar, qishloq xo'jaligi texnikasi, transport vositalari, ishchi va mahsuldor hayvonla, xo'jalik inventarlari;
- **qishloq xo'jalik ishlab chiqarishga mo'ljallangan asosiy vositalar** - ma'muriyat binosi, ofis mebeli va jihozlari, kompyuterylar, boshqaruvga xizmat qiladigan engil avtomobillar, ijtimoiy – madaniy soha ob'eqilar va boshqalar.

Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalarini guruhlashda ishchi va mahsuldor hayvonlar alohida guruhga ajratiladi. Ushbu guruhga ishchi kuchi sifatida ishlataladigan hamda mahsuldor hayvonlar (ot, tuya, xo'kiz, tanalar, eshaklar, ona va mollar) kiradi. Bu guruhga kiruvchi asosiy vositalarning hisobi maxsus 0170 "Ishchi va mahsuldor hayvonlar" schyotida yuritiladi. Qolgan guruhga kiruvchi asosiy vositalarning hisobi, barcha tarmoqlardagi singari, 21-son BHMSda nazarda tutilgan mos ravishdagi schyotlarda olib boriladi.

Qishloq xo'jalik iashkilotlarida asosiy vositalar qiymatini baholash 5-son BHMS "Asosiy vositalar"ga muvofiq umumbelgilangan tartibda amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalarining hisob bahosi bo'lib ularning boshlang'ich qiymati hisoblanadi. Buxgalityeriya balansida asosiy vositalar ularning qoldiq qiymatida aks ettiriladi.

O'z xo'jaligida boqilgan, shunindek chetdan harid qilingan mahsuldor va ishchi hayvonlarni asosiy vositalarga irim qilishda boshlang'ich qiymat bo'lib ularni parvarishlashga (sotib olish)ga ketgan jami xarajatlarning birgalikda olingan qiymati (tannarxi) hisoblanadi.

Asosiy vositalar tarkibiga kiritiladigan ko'r yillik ekinlar (mevali bog'lar, tokzorlar, choy plantasiyalari, ixota o'rmonlari va shu kabilar)ning boshlang'ich qiymati, ularning yoshidan qat'iy nazar, nihollar qiymati hamda nihollarni ekish, parvarish qilish va o'stirishga sarflangan haradatlardan tashkil topadi.

Yerlarni yaxshilashga yo'langan kapital qo'yilmalar, chunonchi, botqoq yerlarini quritish, sho'rni quvishga qilingan investisiyalar joriy yilda sarflangan tegishli xarajatlarning haqiqiy miqdori bo'yicha baholanadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida boshqa turdag'i asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini umumbelgilangan tartiblarga ko'ra aniqlanadi.

kim qilingan asosiy vositalarga ular bo'yicha yakka tartibda yoki guruh bo'yicha yuritiladigan hisob kartochkalari (kitobi) ochiladi. Ushbu hisob kartochkalar (kitobi) asosiy vositalarining qishloq xo'jalik korxonalarida foydali xizmat muddati davomida saqlanadi. Ulaga asosiy vositalarining boshlang'ich qiymati, eskirish va qoldiq qiymatini o'zgarishiga doir, shuningdek joyi va kapital ta'mirlanishiga oid ma'lumotlar yozib boriladi.

## **7.2. Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalar harakatini hujjatlashtirish va hisobi**

Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalarining kirimi va chiqimini rasmiylashtirishda davlat organlari tomonidan tasdiqlangan boshlang'ich hujjatlarining namunaviy shakllaridan foydalaniladi. Chunonchi, yangi qurilishdan olingan asosiy vositalar, yordamida xo'jaliklardan olingan ko'p yillik o'simliklarning nihollari qabul qilish-topshirish dalolatnomalari bilan rasmiylashtiriladi.

Mollarni bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tkazishga "Guruhdan guruhga o'tkazish dalolatnomasi" tuziladi.

Ta'minotchilardan naqd pulsiz hisob-kitob yo'li bilan sotib oliga asosiy vositalar schyoi fakturalar asosida kirim qilinadi.

Chorva mollarini, ko'p yillik o'simliklarni aholidan bozorlarda naqd pulga sotib olish kirim Kvitanziyalari bilan rasmiylashtiriladi. Ularni sotib olish baholari bozorlar ma'muriyatining o'rtacha baholari to'g'risidagi ma'lumotnomalari bilan tasdiqlanadi.

Qishloq xo'jalik korxonalariga asosiy vositalarni ta'sischilardan kirim qilinishi ta'sis shartnomalaridan ko'rsatilgan baholarda amalga oshiriladi va schyot-fakturalar bilan rasmiylashtiriladi.

Boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan bepul oliga asosiy vositalar shartnomalarda ko'rsatilgan baholarda schyot-fakturalar asosida kirim qilinadi.

Barcha kirim qilingan asosiy vositalar tegishli moddiy javobgar shaxslarga biriktiriladi. Moddiy javobgar shaxslar bo'ltb brigadirlar, fyarma mudirlari, cho'ponlar, shiypon mudirlari, ombor mudirlari va boshqa ma'sul shaxslar hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik korxonalariga kirim qilingan asosiy vositalarning sintetik hisobi 0100 "Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar" tizimida ularning alohida guruhlari uchun ochilan schyotlarda yuritiladi. Buxgaltyeriya hisobining kombinasiyalashgan shaklida asosiy vositalarining hisobi maxsus "Asosiy vositalarini hisobga olish qaydnomasasi"da yuritiladi. Bu qaydnomaning shakli 4- ilovada keltirilgan.

Qishloq xo'jalik korxonalarini balansidan asosiy vositalar turli sabablarga ko'ra chiqarilishi mumkin. Chunonchi, ularni balansdan chiqarish to'liq eskirganligi, foydalanishga yaroqsiz holatga kelganligi, tabiiy ofat kasalligi va boshqa sabablarga ko'ra o'lganligi, katta yoshli mahsuldor va ishchi hayvonlarni brakka chiqarish, boquvdagi mollar tarkibiga o'tkazish, shuningdek) asosiy vositalarni sotish natijasida sodir bo'lishi mumkin.

Asosiy vositalarni foydalanishga yaroqsizligini aniqlash hamda ularni hisobdan chiqarishni tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirish maqsadlarida maxsus komissiyalar tuziladi. Yaroqsiz holatga kelgan acociy vositalar tugatish va hisobdan chiqarish dalolatnomalari asosida balansdan chiqariladi.

Asosiy vositalarni nakd pulsiz hisob-kitoblar asosida sotish, bepul byerish, ta'sis badali sifatida kiritish schyot-faktura bilan rasmiylashtiriladi.

Asosiy vositalarni balansdan chiqarishga doir operasiyalar hisob birinchi bo'limda qurilish tashkilotlari misolida ko'rib chikilgan tartiblarga to'lik uxshaydi. Sotilgan asosiy vositalarning sotish qiymati ularning qoldiq qiymatiga mos kelmagan hollarda olingan moliyaviy natija (foyda yoki zarar) aniqlanadi. Olingan foyda 9310 «Asosiy vositalarning

chiqib ketishidan foyda» schyotida, ko'rilgan zarar esa 9430 «Boshqa operasjoni xarajatlar» schyotida hisobga olinadi.

Hozirgi sharoitda qishlok xo'jalik texnikalari, chunonchi qimmat turuvchi xorijdan olingan Kombaynlar, traktorlar, shuningdek ko'p yillik mevali bog'lar, tokzorlar uzoq muddatli ijaraga byerish yo'li bilan ham sotilmokda va hisobdan chiqarilmokda. Ushbu operasiyalar hisobda quyidagicha aks ettiriladi.(7.1 -jadval).

### **7.1- jadval**

#### **Qishloq xo'jalik texnikalari va ko'p yillik o'simliklarni uzoq muddatli ijaraga sotib olish sharti bilan berilganishiga doir operasiyalarni schyotlarda aks ettirish**

№	<b>Operasiyaning mazmuni</b>	<b>korr.schyot</b>		<b>Asos</b>
		<b>Dt</b>	<b>Kt</b>	
1.	Asosiy vositaning boshlang'ich qiymatida hisobdan chiqarilishiga.	9210	0160, 0180	Shartnoma, schet faktura
2.	Asosiy vosita bo'yicha hisoblangan jamlangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishiga	0260, 0280	9210	Shartnoma, schet faktura
3.	Asosiy vosita bo'yicha uzoq muddatli ijaraga berilgangan mulkiing kelishuv qiymatidagi debitorlik qarz summasiga	0920	9210	Shartnoma, schet faktura
4.	Ijaraga berilgangan mulk bo'yicha uzoq muddatli qarzning joriy qismiga	4810	0920	Shartnoma, schet faktura, hisob-kitob.
5.	Ijaraga berilgangan mulk bo'yicha har oyda shartnoma asosida hisoblanadigan foiz summasiga	4830	9530	Shartnoma, schet faktura, hisob-kitob.
6.	Ijara bo'yicha uzoq muddatli qarzning joriy qismi summasini kelib tushishi yoki nakd olinishiga	5110, 5010	4810	Bank ko'chirmasi, kirim Kassa ordyeri
7.	Ijara bo'yicha foiz summasini kelib tushishi yoki nakd olinishiga	5110, 5010	4820	Bank ko'chirmasi, kirim Kassa ordyeri

Asosiy vositalar tarkibidan katta yoshli mahsuldar va ishchi hayvonlarning, bog'lar hamda tokzorlarning mahsuldarlikni kamayishi, kasallanishi, lat eyishi, o'lishi natijasida balansdan chiqarilishiga tegishli vetyerinariya va agronomiya xulosalari olinadi. Agar ushbu asosiy vositalar sug'urtalangan bo'lsa, ularni balansdan chiqarish natijasida ko'rilgan zararlar sug'urta tushumi hisobidan qoplanadi. Sug'urta tashkilotining qoplash bo'yicha o'z bo'yincha olgan qarziga quyidagi yozuv qilinadi:

**Debet 4890** «Boshqa debitorlik qarz» schyoti;

**Kredit 9210** «Asosiy vositalarning chiqimi» schyoti.

*Sug'urta to'lovining kelib tushishiga:*

**Debet 5110** «Hisob-kitob » schyoti;

**Kredit 4890** «Boshqa debitorlik qarz» schyoti.

Asosiy vositalarning (jonsiz asosiy vositalarning) boshlang'ich qiymati ikki holatda o'zgarishi mumkin:

1-si, har yili 1 yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni qayta baholash o'tkazilganda;

2-si, asosiy fondlarni rekonstruksiya qilish (kengaytirmsadan qayta o'zgartirish), ya'ni takomillashtirish, iqtisodiy darajasini (quvvatini) oshirish va mehnat unumdarligini oshirish natijasida uning bozor qiymatini oshirish.

**Masalan:** Xo'jalikdagi mavjud TTZ-80 markali traktorning balansdagi boshlang'ich qiymati -28300 000 so'm, eskirish qiymati – 21933 000 so'm bo'lsin. Bu asosiy vositalarni e'lon qilingan qayta baholash bo'yicha tegishli indeksi 1,1 qilib belgilangan bo'lса, uning qayta baholangan yangi boshlang'ich qiymati 28300 000 x 1,1 = 31130 000 so'mni, eskirish qiymati – 21933 000 x 1,1 = 24126 300 so'mni tashkil etadi.

Qayta baholash natijasida oshgan boshlang'ich summasi – 2830 000 (31130 000 -28300 000) so'm, eskirish summasi – 2193 300 (24126 300 – 21933 000) so'm.

Bu muomalalar buxgaltyeriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- oshgan boshlang'ich qiymati summasiga:

**Debet 0160** «Transport vositalari» schyoti - 2830 000 so'm;

**Kredit 8510** «Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» schyoti - 2830 000 so'm.

- oshgan eskirish qiymati summasiga:

**Debet 8510** «Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» schyoti - 2193 300 so'm;

**Kredit 0260** «Transport vositalarining eskirishi» schyoti - 2193 300 so'm.

Asosiy fondlarni rekonstruksiya qilishda rekonstruksiya qilishga sarflangan, matyeriallar, mehnatga haq to'lash va boshqa barcha xarajatlar xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarda emas, balki kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi (0800) schyotlarning debetiga yozilib, rekonstruksiya ishlari tugallanib, foydalanishga topshirilgach tegishli asosiy vositalar schyotiga (0100) o'tkaziladi va asosiy vositaning boshlang'ich qiymatini oshiradi.

### **7.3. Qishloq ho'jalik korxonalarida asosiy podani shakllantirish va ular kirimining hisobi**

Qishlok xo'jalik korxonalari tomonidan olib boriladigan kapital investisiyalarning muhim turlaridan biri bo'lib asosiy podani shakllashirishga qilingan kapital sarflar hisoblanadi.

**Asosiy podani shakllantirishga Kapital investisiyalar** deganda mollarni yosh hayvonlar guruhidan katta hayvonlar guruhiga o'tkazishgacha ularni o'stirish va parvarishlashga qilingan xarajatlar, shuningdek katta hayvonlarni chetdan harid qilish, tashib keltirish va bu bilan bog'lik barcha boshqa xarajatlarning majmuasi tushuniladi.

Asosiy podani shakllantirishga yo'naltirilgan «Kapital investisiyalarning -hisobi 0840 «Asosiy podani shakllantirish» schyotida yuritiladi. Ushbu schyotda, chunonchi, quyidagi xarajatlar hisobga olinadi:

- asosiy podaga o'tkaziladigizn xo'jalikdagi yosh mahsuldor va ishchi hayvonlarni o'stirish bo'yicha xarajatlar;

- asosiy poda uchun harid qilingan katta yoshdagi va ishchi hayvonlarni sotib olish qiymati;

- hayvonlarni etkazib kelish bilan bog'lik sarflar;

- boshqa shaxslardan tekinga olingan katta yoshdagi hayvonlarni xo'jalikka olib kelish bilan bog'lik sarflar.

Yosh hayvonlar asosiy podaga o'tkazilgo'nga qadar 1110 «O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar» schyotida hisobga olinadi. Hisobot davrida ularni asosiy podaga o'tkazish haqiqiy vazniga ko'ra reja tannarxi bo'yicha amalga oshiriladi O'stirishdagi va boquvdagi mollarni asosiy podaga o'tkazish maxsus dalolatnomaga bilan rasmiylashtiriladi. Tuzilgan dalolatnomaga asosida buxgaltyeriya quyidagicha yozuv qilinadi:

**Debet 0840** -«Asosiy podani shakllantirish» schyoti;

**Kredit 1110** -«O'stirishdagi va boquvdagi mollar» schyoti;

Bir paytning o'zida asosiy podaga o'tkazilgan yosh mollar mos ravishda ularning guruhlariga qarab hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

- *ishchi hayvonlar guruhiga o'tkazilgan mollarga:*

**Debet 0170** - «Ishchi hayvonlari» schyoti;

**Kredit 0840** -«Asosiy podani shakllantirish» schyoti;

- *mahsuldor hayvonlar guruhiga o'tkazilgan mollarga:*

**Debet 0171** -«Mahsuldor hayvonlari» schyoti;

**Kredit 0840- «Asosiy podani shakllantirish» schyoti;**

Hisobot yili oxirida o'stirishdagi va boquvdagi mollarning xaqiqiy tannarxi aniq bol'gach, ularning asosiy poda tarkibiga kirim qilingan reja tannarxidan farqi topiladi.. Ushbu farq summasiga mos ravishda qo'shimcha yozuv yoki storno usullaridan biri bo'yicha yuqoridagi buxgaltyeriya yozuvlari berilganadi. Aynan shu yo'l bilan asosiy podani shakllantirish xarajatlari kirim qilingan ishchi va mahsuldor hayvonlar qiymati ularning haqqoniy tannarxiga etkaziladi.

Asosiy podani chetdan harid qilish yo'li bilan shakllantirii xarajatlari bevosita 0840 «Asosiy podani shakllantirish» schyotining debetida to'planadi. Chunonchi, asosiy podaga kiritiladigan mollarni boshqa qishloq xo'jalik korxonalaridan tuzilgan shartnomalar asosida sotib olinishiga quyidagicha yozuv qilinadi:

**Debet 0840 -«Asosiy podani shakllantirish» schyoti;**

**Kredit 6010- «Ta'minotchi va pudratchilarga to'lanadigan » schyoti;**

Sotib olishga doir sarflangan qo'shimcha haqlar, masalan tendyerda qatnashish, vositachilik, transport xizmatlari haqlari summasiga quyidagi buxgaltyeriya yozuvi berilganadi:

**Debet 0840- «Asosiy podani shakllantirish» schyoti;**

**Kredit 6990 -«Boshqa majburiyatlar» schyoti;**

Asosiy poda aholidan bevosita bozorlardan ham nakd pulga sotib olinishi mumkin. Bu operasiyalar hisobda quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi.

*1. Asosiy podani sotib olish uchun kassadan hisobdor shaxsga bo'nak hammasini berilganishiga:*

**Debet 4290- «Xodimga berilgangan boshqa bo'naklar» schyoti;**

**Kredit 5010 -«Kassa» schyoti;**

*2. Hisobdor shaxsga berilgangan bo'nak summasini kapital investisiya sifatida tan olinishiga:*

**Debet 0840 -«Asosiy podani shakllantirish» schyoti;**

**Kredit 4290-«Xodimga berilgangan boshqa bo'naklar» schyoti;**

*3. Bir vaqtning o'zida sarflangan kapital investisiyalarni kirim qilingan ishchi va mahsuldor hayvonlarning boshlangich qiymatiga kiritilishiga:*

**Debet 0170 -«Ishchi hayvonlari» schyoti;**

**Kredit 0840- «Asosiy podani shakllantirish» schyoti;**

Asosiy podani shakllantirishga qilingan kapital sarflarnpng analitik hisobini turli maqsadlarda turlicha yuritish maqsadga muvofiq. Chunonchi, bunday analitik hisob qilingan xarajatlarni ishchi va maxsuldor hayvonlarning turlari bo'yicha (yirik shohli; hayvonlar, chuchqalar, qo'ylar, otlar va boshqalar) axborotlarni olish imkonini byerishi kerak.

Ta'kidlash joizki, qishlok xo'jalik korxonalarining ayrim hayvonlarni sotib olishga sarflagan mablag'lari asosiy podani shakllantirish xarajatlari sifatida tan olinmaydi. Chunonchi, parrandalar, quyonlar, qimmataho mo'ynali hayvonlar, asalarilar, qo'rikchi itlar va boshqa shu kabi hayvonlar, ularning qiymatida qatiy nazar, asosiy poda tarkibida hisobga olinmaydi. Ular joriy aktivlar tarkibiga kiritiladi va mos ravishda 1100 «O'stirishda va boquvda mollar» schyotida hisobga olinadi.

#### **7.4. Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalarga eskirish hisoblashning xususiyatlari va hisobi**

Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalar, boshqa tarmoq korxonalar singari, amortizasiyalanadigan va amortizasiyalanmaydigan asosiy vositalarga bo'linadi.

Respublikamizda qabul qilingan 5-son BHMS «Asosiy vositalar»ga muvofiq qishlok xo'jalik korxonalarida amortizasiya hisoblanmaydigan asosiy vositalarga quyidagilar kiritiladi:

- mulk sifatida sotib olingan yer uchastkalari;
- mahsuldor hayvonlar;

- qiymatidan qatiy nazar o'stirishdagi va boquvdagi mollar guruhiga kiritiladiga mollar (parrandalar, quyonlar, asalarilar, qimmatbaho muynali hayvonlar, qo'riqchi itlar va boshqa shu kabi hayvonlar);

- to'liq amortizasiyalangan asosiy vositalar;
- belgilagan tartiblarga ko'ra konsyervasiya qilingan asosiy vositalar;
- kutubxona fondi;
- muzey eksponatlari va boshqalar.

Qishloq xo'jalik korxonalarining boshqa asosiy vositalari umumbelgilangan tartibda, shuningdek hisob siyosatida ko'rsatilgan tartiblarga ko'ra amortizasiyalanadi. Chunonchi, qishlok xo'jalik korxonalarida yillik amortizasiya bino va inshoatlar bo'yicha yillik 5 foiz, qishloq xo'jalik texnikasi va asbob-uskunalar, ofis mebeli va jihozlari, yuk tashish mashinalari, avtobuslar bo'yicha 15 foiz, kompyutyer texnikasi, engil avtomobillar va yo'llarda ishlataladigan avtotraktor texnikasi bo'yicha 20 foiz, suv chiqarish nasoslari, elektrdvigatellar, genyeratorlar, truboprovodlar bo'yicha 8 foiz miqdorida hisoblanadi. Demak, qishloq xo'jalik korxonalarida ushbu asosiy vositalari bo'yicha eskirish hisoblash me'yordi va tartibi barcha boshqa tarmoqdar uchun belgilangan tartibga to'liq o'xshaydi. Birok, ishchi hayvonlar, ko'p yillik o'simliklar kabi asosiy vositalar eskirish hisoblash masalasida turli munozalar tug'diradigan, shuningdek o'ziga xos yondashishlarni talab Qiladigan asosiy vositalar hisoblanadi.

Respublikamiz Soliq Kodeksiga muvofiq ishchi hayvonlar va ko'p yillik o'simliklar yiliga 10 foiz me'yorida amortizasiya qilinadigan asosiy vositalar guruhiga kiradi. Lekin, ushbu asosiy vositalarning foydali xizmat muddatini aynan o'n yil qilib belgilash juda ham nisbiydir. Odatda, ishchi hayvonlar o'n yil ham xizmat qilmasliklari yoki undan bir necha bor ko'p muddatda xizmat qilishlari mumkin. ko'p yillik o'simliklarning qariyb yarim asr, hattoki bir asrgacha hosil byeradigan turlarining borligi ham sir emas. Shu bois ham ishchi hayvonlar va ko'p yillik o'simliklar bo'yicha amortizasiya hisoblash bo'yicha belgilangan muddatlarni eng kam xizmat muddati sifatida e'tirof etilishi maqsadga muvofiqdir.

Chorva mollarini, odatda, bir vaqtning o'zida ham ishchi hayvonlar ham mahsuldor hayvonlar bo'lib hisoblanadi. Masalan, ot yoki tuyani yuk tashish bo'yicha ishchi hayvon, nasl yoki mahsulot (Go'sht, sut) byerishiga ko'ra, mahsuldor hayvon, deb atash mumkin. Shu bois ham, qishlok xo'jalik korxonalarida ishchi hayvonlar bo'yicha amortizasiya hisobini to'g'ri yuritishning muhim shartlaridan biri bo'lib ushbu guruhga kiruvchi hayvonlarning tarkibi va ro'yxatini aniq belgilash hisoblanadi.

Ko'p yillik o'simliklar ham ekilganligidan hosil byermaydi. Ular odatda, 2-3 yildan keyin hosilga kiradi. Shu bois ham, ushbu asosiy vositalar bo'yicha amortizasiyanı ularni parvarishlash boshlangandan keyin qaysi muddatdan boshlab hisoblanish vaqtini aniq belgilash muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida, boshqa tarmoqdardan farqli o'larok, ko'pchilik asosiy vositalar, ayniqsa traktorlar, priseplar, suv quvurlari va nasoslari, genyeratorlar, yuk tashish mashinalari, ishchi hayvonlar hisobot davri davomida ham chorvachilik, ham dehqonchilik sohalariga xizmat ko'rsatishi mumkin. Traktorlar, priseplar va yuk tashish transportlari ishlab chiqarish sohalaridan tashqari etishtirilgan mahsulotlarni haridorlarga jo'natish va sotishga ham xizmatlarni ko'rsatadilar. Bu xususiyat buxgaltyeriya hisobida asosiy vositalar bo'yicha hisoblangan eskirish ularini mos ravishdagi sohalar, bu sohalarda etishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari xarajatlari hamda sotishga doir xarajatlar o'rtasida taqsimlab chiqish zaruriyatini tug'diradi.

Asosiy vositalar bo'yicha hisoblangan eskirish summalarini taqsimlash va ular hisobini tegishli schyotlarga olib borish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

**Birinchidan**, qishlok xo'jalik korxonasining u yoki bu sohasiga bevosita aloqador asosiy vositalarga hisoblangan amortizasiya summasi mos ravishdagi «Dehqonchilik» va «chorvachilik» schyotlariga olib boriladi. Bunda ushbu soha xarajatlariga olib borilgan

eskirish summasini ifodalovchi summaga asosiy vositalarning mos ravishdagi guruhlari bo'yicha eskirishi hisobi uchun mo'ljallangan schyotlar (0210-0290) Kreditlanadi.

**Ikkinchidan**, qishloq xo'jalik korxonasing har ikkala ishlab chiqarish sohasiga hamda sotish jarayoniga xizmat qiluvchi asosiy vositalar bo'yicha hisoblangan eskirish summasi dastlab 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari» schyotida to'planadi. Shundan so'ng, hisob siyosatida ko'rsatilgan tartib-qoidalarga, masalan asosiy vositalarni alohida olingan sohalarga ko'rsatgan xizmatlariga ketgan vaqtiga ko'ra jami hisoblangan eskirish summasi mos ravishda «Dehqonchilik», «chorvachilik», «Davr xarajatlari» schyotlariga olib boriladi.

**Uchinchidan**, qishloq xo'jalik korxonalarining har bir sohasi bo'yicha «Dehqonchilik» va «chorvachilik» schyotlariga olib borilgan amortizasiya summalari ularda etishtirilgan mahsulotlarning turlari o'rtasida tannarxni kalkulyasiya qilishga asos qilib olingan tartib-qoidalarga ko'ra taqsimlab chiqiladi. Masalan, «Dehqonchilik» xarajatlari olib borilgan amortizasiya xarajatlari paxta, boshqoli don, poliz ekinlari va boshqa shu kabi mahsulotlar o'rtasida bo'lib chiqiladi. Xuddi shunday tartibda chorvachilik sohasiga to'g'ri keluvchi amortizasiya xarajatlari bu sohada etishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari, masalan, Go'sht, sut, tuxum, jun va shu kabilar o'rtasida taqsimlanadi.

*Umumishlab chiqarish xarajatlari kiritilgan amortizasiya ajratmali buxgaltyeriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:*

**Debet 2510** -«Umumishlab chiqarish xarajatlari» schyoti;

**Kredit 0200**-«Asosiy vositalar eskirishini hisobga oluvchi» schyoti;

*Hisoblangan va umumxo'jalik xarajatlari kiriilgan amortizasiya xarajatlarining mos ravishda tegishli ishlab chiqarish va sotish jarayonlari xarajatlari taqsimot asosida kiritilishiga quyidagi buxgaltyeriya yozuvi berilganadi:*

**Debet 2011** -«Dehqonchilik» schyoti;

**2012**- «Chorvachilik» schyoti;

**9410**- «Sotish xarajatlari» schyoti;

**Kredit 2510** -«Umumishlab chiqarish xarajatlari» schyoti.

### **7.5. Lizingga olingan asosiy vositalarning hisobi.**

Bugo'ngi kunda qishloq xo'jaligi korxonalarining asosiy vositalari ta'minotida lizingga olingan asosiy vositalar muhim rol o'ynaydi.

“*Lizing*” so'zi inglizcha bo'lib, “*Lease*” fe'lidan kelib chiqib, “*mulkni ijaraga byerish*” yoki “*mulkni ijaraga olish*” ma'nolarini ifodalaydi.

Lizing qishloq xo'jalik korxonalariga investisiya kiritishning eng samarali usuli hisoblanib, u xo'jalik uchun bir qancha qo'layliklar yaratidi:

1-dan, lizing yangi ilg'or texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etish imkoniyatini byeradi;

2-dan, sotib olishdan ko'ra ancha kam pul mablag'larini talab qiladi, natijada xo'jalikning zarur pul mablag'larini ishlab chiqarishdan chetlashishini oldi olinadi;

3-dan, lizing ob'ekti ham ishlab chiqarish jarayonida ishtirop etib, xo'jalikning pul mablag'larini ko'paytirishda ishtirop etadi va lizing to'lovlarini o'z vaqtida to'lanishiga hissa qo'shadi;

4-dan, lizingda bank Kreditidan farqli ravishda boshqa ta'minot talab qilinmaydi, lizing ob'ekti ta'minot vazifasini ham bajaradi va b.lar.

Lizing muomalalari hisobi “Lizing to'g'risidagi” O'zbekiston Respublikasining qonuni (14.04.1999 y.), O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi (34-bob-Mulkni yollash – ijara, §6. Lizing 587-599-bandlar), BHMS-6- “Ijara hisobi” va “Buxgaltyeriya hisobida lizing operasiyalarini aks ettirish tartibi to'g'risidagi Nizom” (O'zR MV 12.05.2004 y. 74-son buyrug'i) bilan tartibga solinadi.

Moliyaviy lizingda lizing ob'ekti lizing oluvchining balansida hisobga olinadi. Lizing oluvchisi lizing ob'ektini shartnomadagi joriy bahoda kirim qiladi va lizing ob'ektiga amortizasiya hisoblaydi.

BHMS-21- “Xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy-xo’jalik faoliyati buxgaltyeriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo’llash bo'yicha yo'riqnomasi”ga asosan lizing muomalalarini hisobga olish uchun quyidagi schyotlar belgilangan:

0112- “Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish”;

0212- “Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi”;

0299- “Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi”;

0310 –“ Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar”;

7910 –“To'lanadigan uzoq muddatli ijara”.

1) Lizing shartnomasi bo'yicha olib kelingan asosiy vositalarga quyidagicha buxgaltyeriya yozuvlari berilganadi:

a) *Lizingga olingan asosiy vositani tan olingan qiymati bo'yicha kirim qilinishiga:*

**Debet 0860** “Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarga kapital qo'yilmalar”,

**Kredit 7910** “To'lanadigan uzoq muddatli ijara”.

b) *Lizingga olingan asosiy vositani ishga tushirish (foydanishga yaroqli holga keltirish) bilan bog'liq bo'lган xarajatlar summasiga:*

**Debet 0860** “Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarga kapital qo'yilmalar”,

**Kredit 1000** “Matyeriallar”, 6710-“Mehnat haqi ...”, 6520-“YaIS (25%)” va b. schyotlar.

v) *Lizingga olingan asosiy vositani boshlang'ich qiymati bo'yicha foydanishga topshirilishi summasiga:*

**Debet 0310** “Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar”,

**Kredit 0860** “Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarga Kapital qo'yilmalar”.

2) Lizingga olingan asosiy vositalardan foydalanish bilan bog'liq xarajatlarga buxgaltyeriya hisobida quyidagi yozuvlar berilganadi:

a) *Lizingga olingan asosiy vositalarga eskirish hisoblansa:*

**Debet 2010, 2110, 2310, 2510, 2610, 2710, 9400** cchëtlap,

**Kredit 0299** “Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi”.

b) *Lizingga olingan asosiy vositalarni ishchi holatda saqlash bilan bog'liq xarajatlar summasiga:*

**Debet 2010, 2110, 2310, 2510, 2610, 2710, 9400** schyotlar,

**Kredit 1000, 6710, 6520** va boshqa tegishli schyotlar.

3) Lizing bo'yicha foizlarni hisoblash va lizing to'lovlarini to'lash bo'yicha muomalalar buxgaltyeriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) *Lizing to'lovlarini jadvaliga asosan uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi summasiga:*

**Debet 7910** “To'lanadigan uzoq muddatli ijara”,

**Kredit 6950** “Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi”.

b) *Lizing bo'yicha hisoblangan foizlar summasiga:*

**Debet 9610** “Foiz ko'rinishidagi xarajatlar”,

**Kredit 6920** ”Hisoblangan foizlar”.

v) *Lizingga beruvchiga to'langan to'lovlarining joriy qismi summasiga:*

**Debet 6950** “Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi”,

**Debet 6920** ”Hisoblangan foizlar”;

**Kredit 5110, 5210, 5530** va boshqa tegishli schyotlar.

4) Lizingga olingan asosiy vositalarni yaxshilash (obodonlashtirish, rekonstruksiya, modyernizasiya qilish va b.) xarajatlari ular qiymatini ko'paytiruvchi kapital qo'yilmalar sifatida buxgaltyeriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

*a) kapital qo'yilmalar amalga oshirilganda:*

**Debet 0860** "Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarga kapital qo'yilmalar",

**Kredit 1000** "Matyeriallar", 6710—"Mehnat haqi ...", 6520—"YaIS (25%)" va b. schyotlar.

*b) Kapital qo'yilmalarni asosiy vositalar tarkibiga o'tkazilganida:*

**Debet 0112** "Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish",

**Kredit 0860** "Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarga kapital qo'yilmalar".

*v) lizingga olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishga eskirish hisoblansa:*

**Debet 2010, 2110, 2310, 2510, 2610, 2710, 9400** schyotlar,

**Kredit 0212** "Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi".

5) Lizingga olingan asosiy vositalarni muddati tugab, xo'jalik mulkiga o'tishi buxgaltyeriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

*a) lizingga olingan asosiy vositalarni xo'jalikning xususiy asosiy vositalari tarkibiga o'tkazilishiga:*

**Debet 0100** "Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar" (turi bo'yicha),

**Kredit 0310** "Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar" (boslang'ich qiymatiga);

**Kredit 0112** "Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish" (boslang'ich qiymatiga).

*b) lizingga olingan asosiy vositalarni xo'jalikning xususiy asosiy vositalari tarkibiga o'tkazilganda, ularning jamg'arilgan eskirish summasini ham o'tkazish (ko'chirish) lozim, bunga:*

**Debet 0299** "Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi";

**Debet 0212** "Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi",

**Kredit 0200** "Asosiy vositalarning eskirishi" (turi bo'yicha eskirish qiymatiga).

*v) lizing shartnomasi bo'yicha asosiy qarzning qoplanmagshan qoldig'i summasini to'lab berilganishiga:*

**Debet 6950** "Uzoq muddatli majburiyatlar joriy qismi",

**Debet 7910** "To'lanaqidigan uzoq muddatli ijara";

**Kredit 5110, 5530** va b. pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar.

6) Lizingga beruvchiga lizing shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar qaytarilganda quyidagi buxgaltyeriya yozuvlari amalga oshiriladi:

*a) boslang'ich qiymatiga:*

**Debet 9210** "Asosiy vositalarning chiqib ketishi" (turi bo'yicha),

**Kredit 0310** "Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar" (boslang'ich qiymatiga);

**Kredit 0112** "Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish" (boslang'ich qiymatiga).

*b) jamg'arilgan eskirish summasiga:*

**Debet 0299** "Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi",

**Debet 0212** "Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi";

## **Kredit 9210 “Asosiy vositalarning chiqib ketishi”.**

v) lizingga olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish qiymatining lizingga beruvchi tomonidan qoplanadigan summasiga:

**Debet 4890** “Boshqa debetorlik qarzlari”,

### **Kredit 9210 “Asosiy vositalarning chiqib ketishi”.**

g) lizingga olingan asosiy vositalarning qayta baholash natijasida jamg'arilgan qayta baholash summasini hisobdan chiqarilishiga:

**Debet 8510** “Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar”,

### **Kredit 9210 “Asosiy vositalarning chiqib ketishi”.**

*d) lizingga olingan asosiy vositalarning lizing to'lovlari jadvali bo'yicha asosiy qarzning qoplanmagan qoldig'i summasini hisobdan chiqarilishiga:*

**Debet 6950** “Uzoq muddatli majburiyatlar joriy qismi”,

**Debet 7910 “To’lanadigan uzoq muddatli ijara”,**

### **Kredit 9210 “Asosiy vositalarning chiqib ketishi”.**

e) lizingga olingan asosiy vositalarning lizing beruvchisiga qaytarish bo'yicha lizing oluvchisi tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar summasiga (buzish, tashish, ish haqi va b.):

## **Debet 9210 “Asosiy vositalarning chiqib ketishi”,**

**Kredit 1000, 6010, 2310, 2510, 6710, 6520** va b. tegishli schyotlar.

j) lizingga olingan asosiy vositalarni lizing beruvchisiga qaytarishdan foyda ko'rilsa:

### **Debet 9210 “Asosiy vositalarning chiqib ketishi”,**

**Kredit 9310** “Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda”.

z) lizingga olingan asosiy vositalarni lizing beruvchisiga qaytarishdan zarar ko'rilsa:

#### **Debet 9410 “Boshqa operasion xarajatlar”,**

## **Kredit 9210 “Asosiy vositalarning chiqib ketishi”.**

#### O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN TEST SAVOL-JAVOBLARI

## **1. Asosiy vositaga kiradi**

- a) buzoq; b) sigir;  
 v) boquvdagi ho'kiz; g) quyon.

## **2. Bozordan sotib olingan ishchi otning boshlang'ich qiymatiga kirmaydi:**

- a) sotib olish bahosi;
  - b) olingan mikrokreditlar uchun foiz to'lovi;
  - v) bozor ma'muriyati byergan ma'lumotnomalar haqi;
  - g) yuqorida keltirilgan javoblarning barchasi.

### **3. Bozordan sotib olingan ishchi otning boshlang'ich qiymati aniqlanadi:**

- a) schyot-faktura asosida; b) kirim dalolatnomasi;  
v)boshlang'ich qiymatini hisoblash hisob kitobi asosida ;  
g)yuqorida javoblarda keltirilganlarning barchasi asosida.

#### **4.O'lgan ishchi va mahsuldor hayvonlar balansdan chiqarildi:**



#### 5. Ko'p villik o'simliklarga amortizasiva hisoblandi:



6. "Belorus" traktorining boshlang'ich qiymati 15000 ming so'm. Foydalanish muddatiga 5 yil. Jami ishlash vaqt me'yori besh yilda 10000 soat. Hisobot yilda ishlagan vaqtiga jami -2100 soat, shundan dehqonchilik sohasida-1600 soat, chorvachilik sohasida -500 soat. Dehqonchilik sohasiga sarflangan vaqt miqdori quyidagicha taqsimlangan: a) paxta etishtirishga-900 soat; b) g'alla etishitishga -400 soat; v) poliz ekinlarini etishtirishga-200 soat; g) etishtirilgan mahsulotlarni topshirish va sotish ishlariga -100 soat.

**Bir maromli usulda traktorning yillik amortizasiya summasi teng bo'ladi:**

- a) 3000 ming so'm; b) 1500 ming so'm;  
v) 2250 ming so'm; g) 750 ming so'm.

**7. 6-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida ish hajmiga proporsional hisoblash usuli bo'yicha hisobot yilidagi amortizasiya summasi teng bo'ladi:**

- a) 3000000 so'm; b) 3150000 so'm;  
 v) 2400000 so'm; g) 750000 so'm.

8. 6-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida ish hajmiga proporsional hisoblash usuli bo'yicha hisobot yilida chorvachilik xarajatlariga olib boriladigan amortizasiya summasi ish hajmiga proporsional hisoblash usuli bo'yicha teng bo'ladi:

- a) 3000000 so'm;                      b) 3150000 so'm;  
v) 2400000 so'm;                      g) 750000 so'm.

9. 6-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida ish hajmiga proporsional hisoblash usuli bo'yicha hisobot yilda dehqonchilik xarajatlariga olib boriladigan amortizasiya summasi ish hajmiga proporsional hisoblash usuli bo'yicha teng bo'ladи:

- a) 3000000 so'm;                  b) 3150000 so'm;  
 v) 2400000 so'm;                  g) 750000 so'm.

**10. 6-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida ish hajmiga proporsional hisoblash usuli bo'yicha hisobot yilda paxtachilik xarajatlariga olib boriladigan amortizasiya summasi ish hajmiga proporsional hisoblash usuli bo'yicha teng bo'ladi:**

- a) 3150000 so'm;                  b) 1350000 so'm;  
  v) 1195000 so'm;                  g) 150000 so'm.

11. 6-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida ish hajmiga proporsional hisoblash usuli bo'yicha hisobot yilda g'allachilik xarajatlariga olib boriladigan amortizasiya summasi ish hajmiga proporsional hisoblash usuli bo'yicha teng bo'ladi:

- a) 1350000 so'm;                    b) 600000 so'm;  
v) 60000 so'm;                    g) 120000 so'm.

12. 6-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida ish hajmiga proporsional hisoblash usuli bo'yicha hisobot yilda poliz ekinlari ishlab chiqarish xarajatlariga olib boriladigan amortizasiya summasi ish hajmiga proporsional hisoblash usuli bo'yicha teng bo'ladi:

- a) 135000 so'm; b) 300000 so'm;  
 v) 119520 so'm; g) 150000 so'm.

13. 6-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida ish hajmiga proporsional hisoblash usuli bo'yicha hisobot yilida davr xarajatlariga olib boriladigan amortizasiya summasi ish hajmiga proporsional hisoblash usuli bo'yicha teng bo'ladi:

- a) 135000 so'm;  
 v) 119520 so'm;

**14. Lizing shartnomasi bo'yicha lizingga olingan TTZ-80 traktorining shartnoma qiymati summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

- a) Dt 0160 Kt 7910. b) Dt 0310 Kt 6010.  
 v) Dt 0860 Kt 7910. g) Dt 0310 Kt 7010.

15. Lizing shartnomasi bo'yicha lizingga olingan TTZ-80 traktorining sug'urta qilish summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?

- |            |          |            |          |
|------------|----------|------------|----------|
| a) Dt 0860 | Kt 6510. | b) Dt 0160 | Kt 6510. |
| v) Dt 0310 | Kt 0860. | g) Dt 0310 | Kt 6510. |

16. Lizing shartnomasi bo'yicha lizingga olingan TTZ-80 traktor boshlang'ich qiymati bo'yicha foydalanishga topshirilganda qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?

- |            |          |            |          |
|------------|----------|------------|----------|
| a) Dt 0860 | Kt 6510. | b) Dt 0160 | Kt 6510. |
| v) Dt 0310 | Kt 0860. | g) Dt 0310 | Kt 6510. |

17. Lizing shartnomasi bo'yicha lizingga olingan TTZ-80 traktorga eskirish hisoblanganda qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?

- a) Dt 0299 Kt 0260. b) Dt 0299 Kt 2510.

v) Dt 2310 Kt 0260. g) Dt 2310 Kt 0299.

**18. Lizing shartnomasi bo'yicha lizingga olingan, foydalanishda bo'lgan TTZ-80 traktorni ishchi holatida saqlash uchun eskirgan shinasi o'rniga yangisi qo'yilganda qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

a) Dt 0860 Kt 1040. b) Dt 0310 Kt 1040.  
v) Dt 2310 Kt 1040. g) Dt 1040 Kt 7910.

**19. Lizing to'lovlarini jadvaliga asosan uzoq muddati majburiyatlarning joriy qismiga o'tkazilishiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

a) Dt 7910 Kt 6010. b) Dt 7910 Kt 6950.  
v) Dt 7910 Kt 7010. g) Dt 6010 Kt 7910.

**20. Lizing bo'yicha hisoblangan foizlar summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

a) Dt 9430 Kt 6920. b) Dt 9610 Kt 4830.  
v) Dt 9610 Kt 6920. g) Dt 2010 Kt 6920.

**21. Lizing to'lovlarini jadvaliga asosan to'lov muddati kelmagan lizing to'lovlarini hisobraqamdan o'tkazib berilganganda qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

a) Dt 4330 Kt 5110. b) Dt 6310 Kt 5110.  
v) Dt 4320 Kt 5110. g) Dt 6950 Kt 5110.

**22. Lizingga beruvchiga lizing shartnomasi bo'yicha olingan TTZ-80 traktori qaytarib berilganganida boshlang'ich qiymati summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

a) Dt 7910 Kt 0310. b) Dt 9210 Kt 0310.  
v) Dt 0310 Kt 6950. g) Dt 0310 Kt 7910.

**23. Lizingga beruvchiga lizing shartnomasi bo'yicha olingan TTZ-80 traktori qaytarib berilganganida eskirish summasiga qanday buxgaltyeriya yozuvi berilganadi?**

a) Dt 7910 Kt 0299. b) Dt 9210 Kt 0299.  
v) Dt 0299 Kt 9210. g) Dt 0299 Kt 7910.

### **O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR**

1. Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalarning tavsifilanishini tushuntirib byering?
2. Asosiy vositalarning baholanishini tushuntirib byering?
3. Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalar harakati qanday hujjatlar bilan hujjatlashtiriladi?
4. Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalar harakatini hisobga olinishini misollar yordamida tushuntiring?
5. Qishloq ho'jalik korxonalarida asosiy poda qanday shakllanriladi?
6. Qishloq ho'jalik korxonalarida asosiy podani kirimini hisobga olinishini misollar yordamida tushuntiring?
7. Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalarga eskirish hisoblashning xususiyatlari va usullarini misollar yordamida tushuntiring?
8. Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalarga hisoblangan eskirish summasini hisobga olinishini tushuntirib byering?
9. Lizingga olingan asosiy vositalar bo'yicha amalga oshiriladigan muomalalarini tushuntirib byering?
10. Lizing muomalalarini hisobga olinishini misollar yordamida tushuntirib byering?

## **8-ma'ruza. ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARI, YORDAMCHI VA UMUMISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINING HISOBI**

**Ma'ruzaning asosiy maqsadi** talabalarga quyidagi tayanch iboralar va tushunchalar to'g'risidagi bilimlarni byerish hisoblanadi:

*Ishlab chiqarish zahiralari: urug'lik, minyeral ug'itlar, em-xashaklar, dori-darmon, to'shash matyerallari, qop va qonorlar, xo'jalik inventarlari. O'stirishdagi mollar, yosh mollarning asosiy podaga o'tkazilishi, o'stirishdagi va boquvdagi mollarni saqlash xarajatlari, yosh mollarni guruhdan guruhga o'tkazish, ko'p yillik o'simliklar, o'lgan yosh mollarni hisobdan chiqarish. Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi, Umumishlab chiqarish xarajatlarning hisobi, Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining taqsimoti, Umumishlab chiqarish xarajatlarning taqsimoti.*

**Ma'ruza rejasি:**

- 8.1. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zahiralaring tasnifi, tavsifi va baholash.**
- 8.2. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zahiralari harakatini hujjatlashtirish va ularning ombor hisobi.**
- 8.3. Ishlab chiqarish zahiralaring sintetik hisobi.**
- 8.4. O'stirishdagi va boquvdagi mollarning hisobi.**
- 8.5. Qishloq xo'jalik korxonalarida yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi va ularning taqsimlanishi.**
- 8.6. Qishloq xo'jalik korxonalarida umumishlab chiqarish xarajatlarining hisobi va ularning taqsimlanishi.**

## **MAVZUNI CHUQUR O'RGANISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ME'YORIY-HUQUQIY HUJJATLAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Fermer xo'jaliklarida buxgaltyeriya hisobining soddalashtirilgan «tizimini tashkil etish to'g'risida Nizom. Moliya vazirligi va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 2008 yil 21 yanvardagi 1, 1z2-son qarori bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 26 martda 1781 -son bilan ro'yxatga olingan.
2. O'zbekiston: Respublikasi Soliq Kodeksi. -T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2008.
3. «Mahsulot (ish, xizmatlarni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalari shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom». O'zR VMning 1999 yil 5 fevraldag'i 54-son qarori bilan tasdiqlangan.
4. BHMS № 1 «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot». O'z.R. AV tomonidan 1998 yil 14 avgustda ro'yxatga olingan, № 474
5. BHMS № 4 «Tovar – moddiy zahiralari». O'z.R: AV tomonidan 2006 yil 17 iyulda ro'yxatga olingan, № 1595
6. Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgaltyeriya hisobi xususiyatlari. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.
7. Sanaev N. S. Qishloq xo'jaligida buxgaltyeriya hisobi, nazorat va moliyalashtirish-ning dolzarb masalalari-Toshkent: «Mehnat», 1991.- 104 b.
8. Sanaev N. S. Fermer xo'jaliklarida buxgaltyeriya hisobinyang xususiyatlari. Toshkent: «Alishyer Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy Kutubxonasi», 2006.-145 b.
9. Do'stmurodov R, Masharipov O. Fermer xo'jaligida buxgaltyerya hisobi va hisobotini tashkil etish.O'quv qo'llanma-Toshkent, 2007.- 94 b.
10. Urazov K. B. Boshqa tarmoqlarda buxgaltyeriya hisobining xususiyatlari. Darslik.-T.: 2010 y.

## **8.1. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zahiralarining tasnifi, tavsifi va baholash**

Qishlok, xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zahiralari deganda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini etishtirishning moddiy negizi va tashkil etuvchi xom-ashyo va matyeriallar tushuniladi. Xaraktyerlisi shundaki, qishloq xo'jalik korxonalarining bir sohasidan olingen asosiy va qo'shimcha mahsulotlar ularning boshqa sohasi uchun xom-ashyo va matyerial bo'lib ham hisoblanadi. Chunonchi, dehqonchilik sohasida etishtirilgan boshqoli donlar, beda, makkapoya, turli xas va xashaklar chorvachilik uchun ishlatiladigan ishlab chiqarish zahiralari bo'lib hisoblanadi. O'z navbatida, chorvachilikdan olingen qo'shimcha mahsulotlar, masalan, nuri dehqonchilikda minyeral o'g'itlar sifatida ishlatiladi.

Qishloq xo'jalik korxonalari buxgaltyeriyasiga ishlab chiqarish zahiralari hisobi bo'yicha quyidagi vazifalari bajarish yuklatiladi:

- ishlab chiqarish zahiralarini turli belgilari bo'yicha to'g'ri tasniflash va tavsiflash;
- ularning kirim va chiqim qiymatlarini to'g'ri shakllantirish;
- ishlab chiqarish zahiralarining holati va harakati ustidan uziksiz nazoratni olib borish;
- ishlab chiqarish zahiralari harakatiga doir operasiyalarni to'g'ri va o'z vaqtida tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirish;
- ishlab chiqarish zahiralari bo'yicha moddiy javobgar shaxslar tomonidan matyerial hisobotlarini belgilangan muddatlarda tuzish va taqdim etilishini ta'minlash;
- ishlab chiqarish zahiralari bo'yicha inventarizasiyalarni belgilangan muddatlarda o'tkazish hamda ular natijalarida o'z vaqtida tegishli schyotlarda aks ettirish;
- ishlab chiqarish zahiralari sintetik va analitik hisobini yuritish;
- ishlab chiqarish zahiralari holati va harakati to'g'risidagi axborotlarni foydalanuvchilarga o'z vaqtida etkazish.

Qishloq xo'jalik korxonalari ishlab chiqarish zahiralarini turli belgilari bo'yicha tasniflash va tavsiflash mumkin.

***Qishloq, xo'jalik ishlab chiqarishida to'tgan o'rning ko'ra*** qishloq xo'jalik korxonalarining ishlab chiqarish zahiralari assosiy va yordamchi ishlab chiqarish zahiralariga bo'linadi.

Qishloq xo'jalik xo'jaliklarida assosiy ishlab chiqarish zahiralariga dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarni etishtirishda ishlatiladigan urug'liklar, minyeral o'g'itlar, em-xashak, dori-darmonlar va shu kabi boshqa matyeriallar kiradi. Ushbu ishlab chiqarish zahiralarisiz dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini etishtirib bo'lmaydi.

***Yordamchi ishlab chiqarish zahiralariga*** dehqonchilik va chorvachilikda ishlatiladigan turli xo'jalik matyeriallari, ehtiyyot qismlar, yoqilg'i, moylash matyeriallari, idish va idishbop matyeriallар, plenKalar, urov matyeriallari va shu kabilar kiradi.

***Saqlash usuliga ko'ra*** qishloq xo'jalik korxonalarida ishlatiladigan ishlab chiqarish zahiralari ochiq va yopiq usullarda saqlanadigan matyeriallarga bo'linadi. Urug'liklar, minyeral o'g'itlar, dorilangan don, dori-darmonlar maxsus joylarida va moslamalarda saklanadi. Yantok, Karrak, somon, beda shy kabi em-xashaklar ochiq joylarda, usti yopik ayvonlarda, shuningdsK omlarda saqlanadi.

***Kelib tushish manbalariga ko'ra*** qishloq xo'jalik korxonalarida ishlatiladigan ishlab chiqarish zahiralari ularning o'zлari tomonidan etishtirilgan hamda chetdan sotib olingen guruhlarga ajratiladi. Yordamchi ishlab chiqarish bo'linmalari tomonidan o'z maqsadlarida ishlab chiqilgan ko'k massa, makkapoya, somon, arpa, bug'doy, urug'liklar o'z ishlab chiqarishidan olingen matyeriallar hisoblanadi. Ta'minotchilardan, ta'sischilardan va boshiqa tashqi manbalar kelib tushgan ishlab chiqarish zahiralari o'zi ishlab chikmagan matyeriallar hisoblanadi.

***Ishlab chiqilgan mamlakatiga ko'ra*** dehqonchilik va chorvachilik sohalarida qo'llaniladigan ishlab chiqarish zahiralari mahalliy va xorijdan keltirilgan ishlab chiqarish zahiralariga bo'linadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlataladigan har bir ishlab chiqarish zahirasini nomi, navi, hosildorligi va boshqa jihatlari bo'yicha tasniflash hamda hisobga olish zarurati ham mavjud. Bu, chunonchi, urug'lik va o'g'itlarga bevosita tegishli. Olinadigan mahsulotning hosildorligi ushbu ishlab chiqarish zahiralarining aniq navlariga, sepilgan minyeral o'g'itlarning turiga bevosita bog'liqdir. Masalan, g'allachilikda ishlataladigan urug'likning «Elita» navi boshqa navlarga nisbatan hosildorlikni ko'proq byeradi. kartoshkaning ayrim mahalliy navlari 60-70 sentnyergacha hosil byersa, uning Gollandiya navi Respublikamizning iqlim sharoitida gektariga 400 sentnyergacha hosil byerishi mumkin. Xuddi shunday chigitning turli navlari paxtani tez yoki kech pishishiga, shuningdek har chanokdan turlicha miqdorda hosil olinishiga olib keladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zahiralariga turli maqsadlarda ishlataladigan xo'jalik inventarlari va anjomlari ham kiradi. Bunday ishlab chiqarish zahiralar bo'lib, chunonchi dehqonchilik va chorvachilikda ko'p ishlataladigan ketmon, ko'rak, panshaxa, tirnagichlar, xalatlar, qo'lqoplar, fartuklar, samavar, qozon, o'chok, kosa va tovoklar, bidonlar, flyagalar, xaltalar, ip, arqon, to'l, brezent va shu kabi ko'plab boshqa turdag'i xo'jalik inventarlari va anjomlari hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zahiralarining muxim turlaridan biri - bu o'stirishdagi va boquvdagi mollaradir. chorvachilik ishlab chiqarishida ushbu ishlab chiqarish zahiralar, bir tomonidan ishlab chiqarish natijasi, ikkinchi tomonidan esa, bevosita uning mahsus yo'naliishi hisoblanadi. Shu bois ham qishloq xo'jalik korxonalarida o'stirishdagi va boquvdagi mollar hisobining xususiyatlari darslikning keyingi qismlarida alohida to'xtalamiz.

Qishloq xo'jalik korxonalarida buxgaltyeriya hisobining muhim vazifalaridan biri bo'lib ishlab chiqarish zahiralar qiymatini to'g'ri baholash hisoblanadi, Respublikamizning 4-son BHMS «Tovar-moddiy zahralar»ga muvofiq ishlab chiqarishida ushbu ishlab chiqarish zahiralar, bir tomonidan ishlab chiqarish natijasi, ikkinchi tomonidan esa, bevosita uning mahsus yo'naliishi hisoblanadi. Ishlab chiqarish zahiralarining tannarxi ularning kelib tushish manbasiga ko'ra turli elementlardan tashkil topadi. Chunonchi, sotib olingan ishlab chiqarish zahiralarining tannarxi o'z ichiga ularning sotib olish baholardagi qiymatini hamda sotib olishga doir barcha qo'shimcha xarajatlar (tashib keltirish, bojxona to'lovlar, syertikatlash, brokyerlarning xizmat hakdari va boshqalar)ni oladi. Sotib olishda ta'minotchilarga to'langan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) summasi ham qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zahiralar qiymatiga qo'shildi. Chunki, ular etishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish bo'yicha qo'shilgangan Kdymat soligini tudovchilar bo'lib hisoblanmaydilar. O'z ishlab chiqarishidan olingan ishlab chiqarish zahiralarining tannarxi ularni ishlab chiqarish bilan bog'lik barcha moddiy, mehnat va boshqa xarajatlardan tashkil topadi. Bunda ishlab chiqarish zahiralar bir birligining o'rtacha tannarxi kalkulyasiya qilish yo'li bilan topiladi.

Ta'sischilardan, shuningdek bepul olingan ishlab chiqarish zahiralarining tannarxi ularning shartnomalarda ko'rsatilgan baholardagi qiymatidan tashkil topadi.

Turli manbalardan kelib tushgan ishlab chiqarish zahiralar qishloq xo'jalik korxonalarida, boshqa tarmoq korxonalaridagidek, FIFO yoki AVEKO usullardan biri asosida hisoblangan qiymati (tannarxi) bo'yicha hisobdan chiqarib boriladi.

## **8.2. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zahiralari harakatini hujjatlashtirish va ularning ombor hisobi**

Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zahiralarini ta'minotchilardan sotib olinishi, ta'sischilardan ta'sis badali sifatida kirim qilinishi, boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan bepul olinishi xalq xo'jaligining boshqa tarmoq korxonalaridagidek schyot-fakturalar, shuningdek ularga ilova qilinadigan turli hujjatlar (TTN, vagon spesifikasiyasi sifat syertifikati, o'lchov-tahlil qaydnomalari, dalolatnomalar va boshqalar) bilan rasmiylashtiriladi.

Ishlab chiqarish zahiralarini aholidan nakd pulga sotib olinishi hisobdor shaxslarning bo'nak hisobotlariga kiritilgan turli kvitansiyalar, dalolatnomalar, cheklar, bozorlar ma'muriyatlari tomonidan berilgangan ma'lumotnomadar bilan tasdiqlanadi.

Ishlab chiqarish zahiralarini chiqimi quyidagi hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi:

- schyot-faktura - ishlab chiqarish zahiralarining turli boshqa korxonalarga va xodimlarga sotilishida;

- limit - zabor kartasi, talabnama, nakladnoy - ishlab chiqarish zahiralarining sarflanishida.

- minyeral, organiq va baktyeriologik o'g'itlar, zaharli ximikatlar gyerbisidlarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi - minyeral va boshqa o'gitlar zaharli ximikatlar va gyerbisidlarning sarflanishida.

- tovar-transport nakladnoyi - o'simlikchilik mahsulotlari tayyorlov tashkilotiga jo'natish (sotish)da;

- nakladnoy - ishlab chiqarish zahiralarining ichki xo'jalik ehtiyoji uchun foydalanishda;

- em-xashak sarflash qaydnomasi - chorva mollarini ozuqlantirish uchun em-xashak sarflash vaqtida;

- urug'lik va ekish matyeriallarini sarflash dalolatnomasi - urug'lik va ko'chat matyeriallarini sarflashda.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish zahiralarining saqlanishini ta'minlash uchun ombor xo'jaligi tashkil etiladi. Omborlar umumiylar maxsus omborlarga bo'linadi. Umumiy omborlarda korxona ehtiyoji uchun zarur bo'lgan inventarlar, qop-qanorlar, idishlar va boshqa matyerial boyliklar saqlanadi. Maxsus omborlar ma'lum turdag'i zahiralarni saqlash uchun tashkil ztiladi, masalan, yoqilg'i ombori, o'g'itlar ombori va x.k.

Ombor xo'jaligini tashkil etilishi, tegishli uskunalar bilan jihozlanashi uchun korxona rahbari mas'ul hisoblanadi. Omborda saqlanadigan zahiralar uchun ombor mudiri moddiy-javobgar shaxs hisoblanadi, Ombor mudiri ombor xo'jaligi hisobini yuritadi. Bunday hisob registrlari, bo'lib "Ombor hisobi daftari" yoki "Ombor hisobi kartochkasi" hisoblanadm. Ushbu hisobotlar ishlab chiqarish zahiralari kirimi va chiqimini aks ettiruvchi hujjatlar asosida yuritiladi.

### **8.3. Ishlab chiqarish zahiralarining sintetik hisobi**

Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zahiralarining sintetik hisobi 1000 «Matyerialarni hisobga oluvchi schyotlar» tizimiga kiruvchi schyotlarda yuritiladi. Chunonchi:

-1010 "Xom-ashyo va matyeriallar" schyotida o'z ishlab chiqarishida qayta ishlash uchun mo'ljallangan qishloq xo'jalik mahsulotlari hisobga olib boriladi;

-1020 "Sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlar" schyotida sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlar hisobga olib boriladi;

-1030 "Yog'ilgi" schyotida qishloq xo'jalik korxonasi transporti va texnikasi uchun zarur bo'lgan barcha turdag'i (qattiq va suyuq) yoqilg'ilar hisobga olib boriladi;

-1040 "Ehtiyyot qismlar" schyotida qishloq xo'jalik texnikasi uchun sotib olingan barcha turdag'i ehtiyyot qismlar hisobga olinadi;

- 1050- "Qurilish matyeriallari" schyotida qishloq xo'jaligi korxonasida turli maqsadlarda ishlatish uchun sotib olingan qurilish matyeriallari hisobga olinadi;

- 1060- "Idish va idishbop matyeriallar" schyotida barcha turdag'i idishlar idish matyeriallari (qoplar, bochkalar va boshqalar) hisobga olinadi;

- 1070 -"Chetga qayta ishlash uchun berilgangan matyeriallar" schyotida qayta ishlash uchun boshqa tashkilotlarga berilgangan matyeriallar hisobga olib boriladi;

- 1080 "Inventar va xo'jalik jihozlari" schyotida qishloq xo'jaligi korxonasidagi inventar va xo'jalik jihozlari hisobga olib boriladi;

- 1090- "Boshqa matyeriallar" schyotida em-xashaklar, urug'lik, o'g'itlar, asosiy vositalarni tugatishdan olingen metallolom, eskirgan shinalar, qayta ishlangan moylar va boshqa matyeriallar hisobga olib boriladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zahiralari kirimi va chiqimi yuqorida nomlari zikr etilgan schyotlarda hisob bahosida aks ettiriladi. Hisob bahosi bo'lib ularning sotib olish qiymati (haqiqiy tannarxi), reja tannarxi, o'rtacha baho va boshqalar hisoblanadi. Ishlab chiqarish zahiralarini tanlab olingen hisob bahosining aniq turi qishloq xo'jalik korxonasi hisob siyosatida belgilanadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zahiralari kirimining hisobi boshqa tashkilotlardagi singari **bevosita** va **bilvosita usullardan** biri bo'yicha olib boriladi. Chunonchi, **bevosita usulda** ularning barcha manbalardan kirim qilinishi matyeriallar hisobi schyotlarining (1010-1090 schyotlar) debetida to'g'ridan-to'g'ri aks ettiriladi. Bunda matyeriallarning kelib tushish manbalarini aks ettiruvchi schyotlar (6010, 4290, 5010, 4610 va boshqalar) Kreditlanadi.

**Bilvosita usulda** qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish zahiralarining ta'minotchilardan, o'zining ishlab chiqarishidan kirim qilinishi dastlab 1510 «Matyeriallarni tayyorlash va harid qilish» schyotining debetida aks ettiriladi. Bunda matyeriallarning kelib tushish manbalarini ifodalovchi schyotlar (6010, 6990, 2310 va boshqalar) Kreditlanadi. Matyeriallar boyliklarning omborlarga kirim qilinishi 1510 schyotning Kreditida va 1010-1090 schyotlarning debetida aks ettiriladi. Bu usulda matyeriallarning hisob bahosidagi qiymati va harid qiymati o'rtasidagi farq summasi hisobot davrida alohida 1610 «Matyeriallar qiyamatidagi farqlar» schyotida hisobga olinadi. Hisobot davri oxirida matyeriallar qiyamatidagi farq summalarini quyidagicha hisobdan chiqariladi:

- *kelib tushgan matyeral boyliklarning harid bahosidagi qiymati (tannarxi) hisob bahosidan past bo'lganda:*

**Debet 1510**- «Matyeriallarni tayyorlash va harid qilish» schyoti;

**Kredit 1610**- «Matyeriallar qiyamatidagi farqlar» schyoti;

- *kelib tushgan matyeral boyliklarning harid bahosidagi qiymati (tannarxi) hisob bahosidan yuqori bo'lganda:*

**Debet 1610** «Matyeriallar qiyamatidagi farqlar» schyoti;

**Kredit 1510** «Matyeriallarni tayyorlash va harid qilish» schyoti;

1610 «Matyeriallar qiyamatidagi farqlar» schyotida to'plangan matyeriallarning hisob bahosidagi qiymati va harid qiymati o'rtasidagi farq summasi xarajatlarni aks ettiruvchi schyotlarning (2010, 2310, 2510, 9410, 9420, 9430) debetiga sarflangan matyeriallarning hisob bahosiga mutanosib tarzda qo'shimcha yozuv yoki qizil yozuv (storno) asosida hisobdan chiqariladi.

Ishlab chiqarish zahiralarining qishloq xo'jalik ishlariga sarflanishi, shuningdek ularning sotilishi, bepul berilganishi, boshqa korxonalarga ta'sis badali sifatida kiritilishi, ish haki va moddiy yordam sifatida berilganishi, shuningdek turli boshqa chiqimlari guvohlik beruvchi hujjatlar asosida hisobda quyidagicha aks ettiriladi (8.1-jadval).

#### 8.1-jadval

#### **Qishloq xo'jalik korxonalarida matyeriallarning ishlatilishi va boshqa chiqimlarini schyotlarda aks ettirish**

No	Operasiyaning mazmuni	Summa	Debet schet	Kredit schet	Asos bo'lувчи hujjat
1.	Matyeriallarning ishlab chiqarishga sarflanishi	5000000	2010, 2310, 2510	1010- 1090	Matyerial хисоботлари, далолатномалар
2.	Matyeriallarning sotilishi: -sotish qiymatiga - matyeriallarning hisob bahosida moddiy javobgar	500000	4010,	9220	Shartnoma, schyot-faktura hisob-kitoblar, matyerial

	shaxs bo'ynidan soqit qilinishiga -sotishdan olingan foydaga -sotishdan ko'rilgan zararga	400000 100000 --	9210 9220 9430	1010-1090 9320 9220	hisoboti
3.	Matyeriallarning bepul berilganishi: -byerish qiymatiga -matyeriallarning hisob bahosida moddiy javobgar shaxs bo'ynidan soqit qilinishiga -sotishdan ko'rilgan zararga	500000 500000 500000	4010 9220 9430	9220 1010-1090 4010	Shartnomा, schyt-faktura, hisob-kitoblar, matyerial hisoboti
4.	Ta'sis badali sifatida berilganishi: - kiritish qiymatiga -matyeriallarning hisob bahosida moddiy javobgar shaxs bo'ynidan soqit qilinishiga	500000 500000	0610 -0690 9220	9220 1010-1090	Shartnomа, schyt-faktura, hisob-kitoblar, matyerial hisoboti
5.	Matyeriallarning ish haqi va moddiy yordam sifatida berilganishi: -byerish qiymatiga -matyeriallarning hisob bahosida moddiy javobgar shaxs bo'ynidan soqit qilinishiga	500000 500000	6710 9220	9220 1010-1090	Ariza, schyt-faktura, hisob-kitoblar, matyerial hisoboti

Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zahiralarining analitik hisobi ularning alohida turlari, chunonchi urug'lik va ekish matyeriallari, o'g'itlar, turli xil ximikatlar, dori-darmonlar va boshqalar bo'yicha alohida ochilgan analitik hisob registrlarida yuritiladi. Buxgaltyeriya hisobining kombinasiyalashgan shaklida ishlab chiqarish zahiralarining hisobi maxsus «Tovar-moddiy zahiralarni hisobga olish qaydnomasi»da yuritiladi.

#### 8.4. O'stirishdagi va boquvdagi mollarning hisobi

Qishloq xo'jalik korxonalarida o'stirishdagi va boquvdagi mollar aylanma aktivlarning muhim turini tashkil etadi. Ularni boqish jarayonida jonli mehnat sarfi, em-xashak va boshqa xarajatlar qilinadi. Ma'lum yoshga etganidan so'ng, O'stirishdagi mollar asosiy podaga o'tkaziladi va aksincha, asosiy podadan brak qilingan mollar boquvga qo'yilib, aylanma aktivlarga o'tkaziladi.

O'stirishdagi va boquvdagi mollar quyidagicha baholanadi:

- sut yo'nalishidagi qoramolchilikdan olingan buzoqlar reja tannarxida baholanadi;
- Go'sht yo'nalishidagi qoramolchilikdan olingan buzoqlar tirik vaznni tirik vaznning reja tannarxiga ko'paytirilib baholanadi;
  - chuchqachilikdan olingan chuchqa bolalari tirik vaznni tirik vaznning reja tannarxiga ko'paytirilib baholanadi;
  - ishchi hayvonlardan olingan nasl ishchi hayvonning 60 ozuqa-kuni reja tannarxiga tenglashtirilib olib baholanadi;
  - tuyalardan olingan nasl 120 ozuqa-kuni reja tannarxida baholanadi;
  - parranda bolalari inkubasiyaning sutkalik parranda reja tannarxida baholanadi.
  - yangi asalari uyalari reja tannarxida baholanadi;
  - chetdan sotib olingan o'stirishdagi va boquvdagi mollar sotib olish bahosiga, barcha sotib olish va tashib keltirishga ketgan xarajatlar qo'shib baholanadi;

- asosiy podadan brak qilinib, boquvga qo'yilgan mollar balans bahosida baholanadi;
- asosiy podaga o'tkazilgan yosh mollar haqiqiy tannarxida baholanadi.

Har oyda o'stirishdagi va boquvdagi mollar vazni o'lchanib, ularning oshgan vazni evaziga yangi qiymati topiladi. Yil oxirida o'sgan vaznning haqiqiy tannarxi aniqlangandan so'ng, reja va haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq topiladi, ushbu farq summasi tuzatish yozuvlari qilinib o'stirishdagi va boquvdagi mollarning haqiqiy tannarxi aniqlanadi.

O'stirishdagi va boquvdagi mollar hisobining asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- 1) o'stirishdagi va bog'uvdag'i mollarning bosh soni oshishi va saqlanishi ustidan nazorat qilish;
- 2) poda tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida hisobga olib borish;
- 3) o'stirishdagi va boquvdagi mollarni parvarishlash va boqish natijalarini to'g'ri aniqlash;
- 4) o'stirishdagi va boquvdagi mollar harakatini to'g'ri hujjatli rasmiylashtirish va ulari hisobini o'z vaqtida belgilangan tartibda yuritish.

1. *Tug'ilgan hayvon naslini kirim qilish dalolatnomasi* (95-shakl). Bu hujjat buzoq, chuchqa, qo'y va ishchi hayvonlarning bolalarini kirim qilishda fyerma mudiri yoki zootexnik tomonidan ikki nusxada tuziladi. Hujjatda nasl byergan hayvon kimga birikilganligi, uning lakabi, nomyeri, tug'ilgan nasl soni, jinsi, berilgangan tartib raqami, ajralib turadigan belgilari ko'rsatiladi.

2. *Hayvonlarni guruhdan-guruhga o'tkazish dalolatnomasi* (97-shakl). Bu hujjat korxona rahbari tomonidan tuzilgan komissiya tomonidan tuziladi. Unda bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tkazilgan hayvon turi, vazni, qaysi guruhdan qaysi guruhga o'tkazilganligi, kimga birikilganligi ko'rsatiladi.

3. *Mollar vaznini tortish qaydnomasi* (98-shakl). Ushbu hujjat har oy oxirida tuziladi va unda har bir hayvonning oy boshi va oy oxiridagi vazni asosida o'sgan vazn aniqlanadi.

4. *Mollar va parrandalarni jo'natish-qabul qilish tovar-transport nakladnoyi* (1-K/x(chor)). Bu hujjatga asosan haridor va buyurtmachilarga sotilgan hayvonlar hisobga olinib, jo'natilgan mollar bosh soni, tirik vazni va boshqa ma'lumotlar aks ettiriladi.

5. *Mollar va parrandalarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi* (100-shakl). Ushbu hujjat mollar so'yilganda, kasalligi tufayli nobud bo'lganda tuziladi, unda mollarning hisobdan chiqish sabablari ko'rsatiladi.

6. *Schet-faktura*. Bu hujjat o'stirishdagi va boquvdagi mollarning chetdan sotib olinishi va chetga sotilishida tuziladi. Nasldor bo'lgan yosh mollar bo'yicha schyot fakturalarga ularning "nasldorlik guvohnomasi" ilova qilinadi.

7. *Sutkalik yosh parrandalarning chiqishi va saralash dalolatnomasi* (106-shakl). Ixtisoslashgan xo'jaliklarda inkubasiyadan chiqqan jo'ja va boshqa parrandalarni hisobga olishda tuziladi.

Chorvalik fyermalarida o'stirishdagi va boquvdagi mollarni hisobga olish daftari (34-shakl) yuritiladi. Ushbu daftarda yuqorida nomlari keltirilgan hujjatlar asosida hayvon va parrandalar tarkibidagi o'zgarishlar hisobi yuritiladi. Har oyning oxirida daftardagi ma'lumotlar jamlanadi ular asosda "Mollar va parrandalar harakati to'g'risida hisobot" (102-shakl) to'ziladi. Ushbu hisobot ikki nusxada tuzilib, bir nusxasi fyermada, ikkinchi nusxasi boshlang'ich hujjatlar ilova qilingan holda buxgaltyeriyaga topshiriladi.

O'stirishdagi va boquvdagi mollarning, chunonchi qoramol, chuchqa, ishchi hayvonlar, qo'y va echqilarning bolalari, boquvga qo'yilgan hayvonlar, asosiy podadan brak qilinib burdoqiga qo'yilgan hayvonlar, parrandalar, yovvoyi hayvonlar, quyonlar, asalari oilalari va boshqa hayvonlarning hisobi 1110 «O'stirishdagi va boquvdagi mollar» schyotida olib boriladi. Ushbu hayvonlarning saqlash xarajatlari 2000 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotlar tizimining 2020 "chorvachilik" schyotida hisobga olib boriladi.

1110- "O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar" schyotida ularning harakati qo'yidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

- mahsuldar hayvonlardan olingan nasl yoqularning o'sgan vazni summasiga:

**Debet 1110**- «O'stirishdagi va boquvdagi mollar» schyoti;

**Kredit 2020**- «chorvachilik». schyoti;

- ishchi hayvonlardan olingan nasl yoki ularning o'sgan vazni summasiga:

**Debet 1110** -«O'stirishdagi va boquvdagi mollar» schyoti;

**Kredit 2310** -«Yordamchi ishlab chiqarish». schyoti;

- o'stirishdagi va boquvdagi mollarning ta'minotchilardan sotib olinishiga:

**Debet 1110** -«O'stirishdagi va boquvdagi mollar» schyoti;

**Kredit 6010** -«Ta'minotchilarga to'lanadigan schyotlar». schyoti;

- mollarni bozorlardan berilgangan hisobdor summa evaziga sotib olinishiga:

**Debet 1110** -«O'stirishdagi va boquvdagi mollar» schyoti;

**Kredit 4290**- «Xodimlarga berilgangan boshqa bo'naklar». schyoti;

- asosiy podadan brak qilinib, boquvgaga qo'yilgan mollar summasiga:

**Debet 1110**- «O'stirishdagi va boquvdagi mollar» schyoti;

**Kredit 9210** -«Asosiy vositalarning chiqimlari». schyoti;

- ta'sischilardan ta'sis badali sifatida olingan mollarga:

**Debet 1110** -«O'stirishdagi va boquvdagi mollar» schyoti;

**Kredit 4610** «Ta'sischilarining ustav kapitaliga badali bo'yicha qarzlari».

schyoti;

- mollarni tekinga olinishiga:

**Debet 1110** «O'stirishdagi va boquvdagi mollar» schyoti;

**Kredit 8530** «Beg'araz olingan mult». schyoti;

- O'stirishdagi mollarni boquvdagi mollar guruhiga o'tkazilishiga:

**Debet 1110** «O'stirishdagi va boquvdagi mollar» schyoti;

**Kredit 1110** «O'stirishdagi va boquvdagi mollar» schyoti;

- yosh mollarning podaga o'tkazilishiga:

**Debet 0840** «Asosiy podani shaklantirilishi» schyoti;

**Kredit 1110** «O'stirishdagi va boquvdagi mollar». schyoti;

- sotilgan yosh va burdoqidagi mollar summasiga:

**Debet 9220** «Boshqa aktivlarning chiqimlari». schyoti;

**Kredit 1110** «O'stirishdagi va boquvdagi mollar» schyoti;

- inventarizasiya natijasida kam chiqqan mollar summasiga:

**Debet 5910** «Kamomadlar» schyoti;

**Kredit 1110** «O'stirishdagi va boquvdagi mollar» schyoti;

1110 "O'stirishdagi va boquvdagi mollar" schyoti bo'yicha analitik hisob o'stirishdagi va boquvdagi mollarning turlari, yoshi, jinsi, guruhlari bo'yicha olib boriladi. Buxgaltyeriya hisobiyaing kombinasiyalashgan shaklida boquvdagi va o'stirishdagi mollarning hisobi maxsus «Boquvdagi va o'stirishdagi hayvonlarni hisobga olish qaydnomasida»da yuritiladi.

## **8.5. Qishloq xo'jalik korxonalarida yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi va ularning taqsimlanishi**

Qishlok xo'jalik korxonalarini yordamchi ishlab chiqarish xo'jaliklarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yordamchi ishlab chiqarish xo'jaliklari deganda qishloq xo'jaligi korxonasing asosiy faoliyat turlariga xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar tushuniladi. Ularning asosiyalariga quyidagilar kiradi:

- mashina-traktor parki (MTP);

- ta'mirlash ustaxonalari;

- avtotransport xo'jaligi;

- elektr, gaz va suv ta'minoti xo'jaligi;

- ishchi hayvonlarni saqlash xo'jaligi va boshqalar.

Ushbu va boshqa turdag'i yordamchi ishlab chiqarish xo'jaliklari qishloq xo'jaligi korxonalarining barcha tarmoq va sohalariga xizmat ko'rsatadi. Bu xo'jaliklarning xarajatlari qishloq xo'jaligi korxonasi tomonidan etishtirilgan u yoki bu turdag'i mahsulotlarni

etishtirishga bevosita taalluqli bo'limganligi uchun ularni dastlab alohida schyotlarda yig'ish, so'ngra esa hisobot davri oxirida biror mezonga asosan taqsimlash zarurat tug'iladi. Bunday xarajatlar hisobi dastlab maxsus 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari» schyotida olib boriladi. Ushbu schyotning debetida yordamchi ishlab chiqarish xo'jaliklariga haqiqatda sarflangan xarajatlar to'planadi, uning Kreditida esa yordamchi ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarning qishloq xo'jalik korxonasing tarmoq va sohalari bo'yicha asosiy ishlab chiqarish hamda sotish va boshqarish xarajatlari schyotlari o'rtasda taqsimlanishi (hisobdan chiqarilishi) aks ettiriladi. Xarajatlar hisobini hisobot davrlari (oy, chorak, yil) mobaynida reja tannarxda yurituvchi korxonalarda 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari» schyotining Kreditida xarajatlar taqsimoti reja tannarxida hisobdan chiqarib boriladi va yilning oxirida haqiqiy xarajatlar aniq bo'lgach, kalkulyasiya farqi «qizil yozuv» yoki «qo'shimcha yozuv» usullariga muvofiq ushbu schyotning Kreditida aks ettiriladi.

Qishloq xo'jalik korxonalar o'zlarining hisob siyosatiga ko'ra ishchi schyotlar rejasida 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari» schyoti tizimida har bir yordamchi ishlab chiqarish bo'linmasi xarajatlari hisobi uchun alohida schyotlarni ham ochishlari mumkin, masalan:

- 2311 «MTP xarajatlari»;
- 2312 «Ta'mirlar ustaxonasi xarajatlari»;
- 2313 «Avtotransport xo'jaligi xarajatlari»;
- 2314 «Suv xo'jaligi xarajatlari»;
- 2315 «Elektr ta'minoti xo'jaligi xarajatlari»;
- 2316 «Ishchi hayvonlarni saqlash xarajatlari»;
- 2317 «Boshqa yordamchi ishlab chiqarish xo'jaliklari xarajatlari».

2310 «Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari» schyotlar tizimida ochilgan barcha schyotlarni yuritishga turli boshlang'ich hujjatlar, oraliq va yig'ma hisob registrlari ma'lumotlari asos bo'lib hisoblanadi. Ularning asosiylariga quyidagilar kiradi:

1. «Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha hisobot» (186- shakl);
2. «Ta'mirlash ustaxonasi xarajatlari hisobi jurnali»;
3. «Nuqsonlar va ularni bartaraf etishga ketgan sarf-xarajatlar qaydnomasi»;
4. Yo'l varaqalari, TTN, naklodnoylar
5. «Transport xarajatlari yig'ma qaydnomasi»;
6. «MTPdan foydalanish xarajatlarining yig'ma qaydnomasi»;
7. Schyot fakturalar;
8. Naryadlar va boshqalar;

«Mahsulot (ish xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida nizom»ga ko'ra yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari hisobi uchun mo'ljallangan schyotlarda xarajatlar ularning quyidagi moddalari bo'yicha aks ettirilishi lozim:

- matyerial xarajatlari;
- asosiy va qo'shimcha ish haqlari;
- ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- amortizasiya xarajatlari;
- boshqa ishlab chiqarish xarajatlar».

Yordamchi ishlab chiqarish, xarajatlari hisobi uchun mo'ljallangan schyotlarning har birining (2311, 2312, 2313, 2314 va boshqalar) debetida yuqorida keltirilgan xarajat moddalariga guvohlik beruvchi hujjatlar, asosida quyidigi yozuvlar qilinadi:

**Debet 2311-2317 Kredit 2010-1090 -matyerial xarajatlariga;**

**Debet 2311-2317 Kredit 6710 - mehnat haqi xarajatlariga;**

**Debet 2311-2317 Kredit 6520 - ijtimosh sug'urga xarajatlariga;**

**Debet 2311-2317 Kredit 6510 –sug'ortalash xarajatlari**

**Debet 2311-2317 Kredit 6010, 6990 - ish, xizmat xarajatlariga;**

**Debet** 2311-2317 **Kredit** 2510- umumishlab chiqarish xarajatlarining hisobdan chiqarilishiga.

Har bir yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari schyotining debetida to'plangan xarajatlar qishloq xo'jalik korxonalarida qabul qilingan tartiblarga ko'ra dastlab asosiy ishlab chiqarish tarmoqlari, ushbu tarmoqlar ichida alohida sohlar, sohalar ichida esa mahsulot turlari o'rtasida taqsimlanadi. Chunki:

- **mashina-traktor parki xizmatlari** dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari xarajatlari schyotlariga bevosita ko'rsatilgan xizmatlarni tasdiqlovchi hujjatlar asosida olib boriladi, misol uchun yerni shudgorlash, ekish, yagonalash, hosilni o'rib byerish, yig'ish va tashish kabi xizmat haqlari bevosita dehqonchilik xarajatlariga olib boriladi; dehqonchilnK xarajatlariga olib borilgan yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari olingan mahsulotlar (paxta, bug'doy, sabzavotlar va boshqalar) o'rtasida ushbu mahsulotlarga ajratilgan yer maydonlari hajmiga, ko'rsatilgan xizmatlar soniga qarab taqsimlanadi.

- **ta'mirlash ustaxonalari xarajatlari** ularning Qaysi tarmoqqa va sohaga tegishliligiga qarab taqsimlanadi.

- **ko'rsatilgan agrotexnik xizmatlar** xarajatlari ham xuddi yuqoridagi tartibga o'xshash tarzda tarmoqlar va sohalar o'rtasida taqsimlanadi.

- **suv taminoti xo'jaligi xarajatlari** jami sarflangan suv xarajatlarini ekin turlari o'rtasida ular egallagan maydonga, sug'orish soniga va suv sarfi me'yorlariga ko'ra bosh mirob tomonidan tuzilgan va xo'jalik rahbari tomonidan tasdiqlangan hisob-kitob asosida taqsimlab chiqiladi.

- **elektr ta'minoti xo'jaligi xarajatlari** bosh enyergetik tomonidan tuzilgan va xo'jalik rahbari tomonidan tasdiqlangan hisob-kitob asosida tarmoqlar va sohalar, ular o'rtasida esa mahsulotlar bo'yicha taqsimlanadi.

- **ishchi xayvonlarni saqlash xarajatlari** ularni qaysi tarmoqda foydalanilganlik vaqtiga, bajargan ishlari miqdoriga qarab taqsimlanadi.

Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli xarajatlar schyotlariga olib borilishiga quyidagicha yozuvlar qilinadi:

a) *asosiy ishlab chiqarish schyotlariga olib borilganda:*

**Debet** 2010 (tegishli schyotlar) **Kredit** 2310 (tegishli schyotlar);

b) *Kapital qurilish schyotlariga olib borilganda:*

**Debet** 0810,0890 **Kredit** 2310 (tegishli schyotlar);

v) *davr xarajatlari schyotlariga olib borilganda:*

**Debet** 9410,9420 **Kredit** 2310 (tegishli schyotlar).

**Masalan:** Xo'jalikning mavjud TTZ-80-10 traktori sentyabr oyida 40 ga yerni shudgorladi. Shundan 30 ga yerga bug'doy, 10 ga yerga arpa ekish muljallangan. TTZ-80-10 traktorining 1 ga yerni shudgorlash reja tannarxi 12860 so'm bo'lsa, 40 ga yerni shudgorlash reja tannarxi 514400 so'm bo'ladi. Bu mashina-traktor parki xizmati xarajatlari summasi etishtiriladigan bug'doy va arpaning ishlab chiqarish xarajatlariga quyidagi tartibda o'tkaziladi:

a) *bug'doy etishtirishga qilingan xarajatlarning reja tannarxiga – 385800 (30\*12860) so'mga:*

**Debet** 2011 (bug'doy) **Kredit** 2311 (MTP xarajatlari) -385800 so'm.

b) *arpa etishtirishga qilingan xarajatlarning reja tannarxiga – 128600 (10\*12860) so'mga:*

**Debet** 2012 (arpa) **Kredit** 2311 (MTP xarajatlari) -128600 so'm.

Buxgaltyeriya hisobining soddalashtirilgan shaklida yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi maxsus «Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari va xizmatlarini hisobga olish qaydnomasi»da yuritiladi.

## **8.6. Qishloq xo'jalik korxonalarida umumishlab chiqarish xarajatlarining hisobi va ularning taqsimlanishi**

Qishloq xo'jalik korxonalarida umumishlab chiqarish xarajatlari deganda ularning ishlab chiqarish tarmoqlari va sohalariga umumiyl holda tegishli bo'lgan hamda u yoki bu mahsulot tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri kiritib bo'lmaydigan, balki ularning tannarxiga bilvosita, ya'ni taqsimlash yo'li bilan olib boriladigan xarajatlar tushuniladi. Odatda, qishloq xo'jalik korxonalarida umumishlab chiqarish xarajatlari dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarini boshqarish, bir vaqtning o'zida turli tarmoq va sohalarga xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalar xarajatlarini o'z ichiga oladi.

Dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari va ularning turli sohalariga ixtisoslashgan qishloq xo'jalik korxonalarida umumishlab chiqarish xarajatlari quyidagi moddalari bo'yicha guruhanadi:

**- asosiy va qo'shimcha ish haqi xarajatlari** - bu guruhga dehqonchilik va chorvachilik sohasi mutaxassislari, xodimlari va ishchilariga, chunonchi, agronomlar, zootexniklar, vetrach, vettexniklar, labarotoriya mudiri va xodimlari, brigadirlar, fyerma mudirlari, hisobchilar, qorovullar va shu kabi boshqa umumishlab chiqarish maqsadidagi xodimlarga hisoblangan mehnat haqlari kiritiladi;

**- ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar** - bu guruhga dehqonchilik va chorvachilik sohasi mutaxassislari, xodimlari va ishchilariga, chunonchi, agronomlar, zootyoxniklar, vetrach, vettexniklar, laboratoriya mudiri va xodimlari, brigadirlar, fyerma mudirlari, hisobchilar, qorovullar va shu kabi boshqa umumishlab chiqarish maqsadidagi hodimlarga hisoblangan mehnat haqidan ijtimoiy sug'urtaga qilingan ajratmalar kiritiladi;

**- mehnat himoyasi va texnika xavfsizligi xarajatlari** - bu guruhga dehqonchilik va chorvachilik sohasida mehnat himoyasi va texnika xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirdarga sarflashdigan xarajatlar kiritiladi;

**- xo'jalik inventarlari va buyumlariga doir xarajatlar** - bu guruhga dehqonchilik va chorvachilik sohasi xodimlariga berilgangan maxsus Kiyimlar, poyafzal, inventarlari, ishlatilgan vetpriborlar, dori-darmonlar va boshqa xo'jalik buyumlari qiymati kiritiladi;

**- asosiy vositalar amortizasiysi va ularni saqlash xarajatlari** -bu guruhga umumishlab chiqarish maqsadidagi asosiy vositalarga hisoblangan amortizasiya ajratmalari, ularni saqlash, ta'mirlash, bino va inshoatlarni isitish, yoritish, tozalash xarajatlar kiritiladi;

**- dala shiyponlarini saqlash va ishchilarni ovqatlantirish xarajatlari** - bu guruhga dehqonchilik tarmog'iga mo'ljallangan dalalarda joylashgan shiyponlar, palatkalar, vaqtinchalik notitul inshoatlarni saqlash, ulardagi asosiy vositalarga qilingan amortizasiya ajratmalari, joriy va kapital ta'mirlash, ishchilarni issiq ovqat bilan ta'minlash xarajatlar kiritiladi;

**- boshqa umumishlab chiqarish xarajatlari** - umumxo'jalik maqsadidagi asosiy vositalarni ijaraga olish, ularni sug'urta qilish, o'simliklarni va mollarni karantin qilish va boshqa umumishlab chiqarishga doir tadbirdarga sarflangan xarajatlar kiritiladi.

Umumishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish uchun qishloq xo'jalik korxonasining ishlab chiqarish bo'linmalari rahbarlari har oyda «Umumishlab chiqarish xarajatlari to'g'risida hisobot» (18v-shakl) tuzadilar va uni buxgaltyeriya topshiradilar. Ushbu hisobotda belgilangan moddalari kesimida hisobot oyda va yil boshidan boshlab qilingan xarajatlar aks ettiriladi Yil boshidan boshlab qilingan jami xarajatlar summasi hisobotning oldingi davr va hisobot oyi ma'lumotlarini jamlash yo'li bilan aniqlanadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida umumishlab chiqarish xarajatlarining sintetik hisobi 2500 «Umumishlab chiqarish xarajatlari» schyotida yuritiladi. Hisob siyosatida belgilangan tartibga ko'ra qishloq xo'jalik korxonalari ushbu schyotlar tizimida quyidagi schyotlarni ochishlari mumkin: 2510 «Dehqonchilik umumishlab chiqarish xarajatlari», 2520 «chorvachilik umumishlab chiqarish xarajatlari». Ushbu aktiv schyotlarning debetida nomlari yuqorida zikr etilgan moddalari bo'yicha haqiqatda sarflangan xarajatlar to'planadi. Bu schyotlarning kreditida umumishlab chiqarish xarajatlarining hisobdan chiqarilishi aks

ettiriladi. Agar umumishlab chiqarish xarajatlari hisobini hisobot davrlari (oy, chorak, yil) mobaynida reja tannarxda yuritilsa, u holda 2510 «Dehqonchilik umumishlab chiqarish xarajatlari», 2520 «chorvachilik umumishlab chiqarish xarajatlari» schyotlarining kreditida xarajatlar taqsimoti reja tannarxida hisobdan chiqarib boriladi va yilning oxirida haqiqiy xarajatlar aniq bo'lgach, kalkulyasiya farqi «qizil yozuv» yoki «qo'shimcha yozuv» usullariga muvofiq ushbu schyotlarning kreditida aks ettiriladi.

2510 «Dehqonchilik, umumishlab chiqarish xarajatlari», 2520 «chorvachilik umumishlab chiqarish xarajatlari» schyotlarining analitik hisobi qishloq xo'jaligi korxonasi tarmoqlarining tarkibiy bo'linmalari (brigadalar, fyermalar) bo'yicha 10g va 10d qaydnomalarda yuritiladi, Ushbu qaydnomalarga yozuvlar tarkibiy bo'linmalar tomonidan taqdim etilgan «Umumishlab chiqarish xarajatlari to'g'risida hisobot» (18v-shakl) ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu schyotlarning kreditida bo'linmalar bo'yicha ake ettirilgan ma'lumotlar 10z2 jurnal-ordyerga utkaziladi.

2510 «Dehqonchilik umumishlab chiqarish xarajatlari», 2520 «chorvachilik umumishlab chiqarish xarajatlari» schyotlarining debetida yuqorida keltirilgan xarajat moddalariga guvohlik beruvchi hujjatlar asosida quyidagi yozuvlar qilinadi:

**Debet** 2510-2520 **Kredit** 1010-1090 - matyerial xarajatlariga;

**Debet** 2510-2520 **Kredit** 6710 - mehnat haqi xarajatlariga;

**Debet** 2510-2520 **Kredit** 6520 - ijtimoiy sug'urta xarajatlariga;

**Debet** 2510-2520 **Kredit** 6510 - sug'ortalash xarajatlariga;

**Debet** 2510-2520 **Kredit** 6010, 6990 - ish, xizmat xarajatlariga;

**Debet** 2510-2520 **Kredit** 2310- yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining hisobdan chiqarilishiga.

2510 «Dehqonchilik umumishlab chiqarish xarajatlari», 2520 (chorvachilik umumishlab chiqarish xarajatlari) schyotlarining debetida to'plangan xarajatlar qishloq xo'jalik korxonalarida qabul qilingan tartiblarga ko'ra va mezonlarga (masalan, ishlovchi xodimlar ish haqlarining hissasi, etishtirilgan mahsulotlarni sotish baholaridagi qiymatining hissasi, yer maydonlarining hissasi va boshqalar) asosan taqsimlanadi.

Qishloq xo'jalik korxonasining alohida tarmoklariga doir umumishlab chiqarish xarajatlari quyidagicha taqsimlanadi:

- **dehqonchilik tarmog'ida** - umumxo'jalik xarajatlari brigadalar bo'yicha taqsimlanadi va hisob ob'ektlari (alohida olingan dehqonchilik mahsulotlari yoki mahsulot guruhlari) tannarxiga olib boriladi;

- **chorvachilik tarmog'ida** - umumxo'jalik xarajatlari fyermalar bo'yicha taqsimlanadi va hisob ob'ektlari (alohida olingan chorvachilik mahsulotlari yoki mahsulot guruhlari) tannarxiga olib boriladi.

Umumishlab chiqarish xarajatlarining tegishli xarajatlar schyotlariga olib borilishiga quyidagicha yozuvlar qilinadi:

a) *asosiy ishlab chiqarish schyotlariga olib borilganda:*

**Debet** 2010 (tegishli schyotlar) **Kredit** 2510,2520 (tegishli schyotlar);

b) *Kapital qurilish schyotlariga olib borilganda:*

**Debet** 0810,0890 **Kredit** 2510,2520 (tegishli schyotlar);

v) *davr xarajatlari schyotlariga olib borilganda:*

**Debet** 9410,9420 **Kredit** 2510, 2520 (tegishli schyotlar).

**Masalan:** Xo'jalikning dehqonchilik qilinadigan umumiyl yer maydoni 70 ga bo'lib, shundan 30 ga yerga bug'doy, 40 ga yeriga paxta ekin eqiladi. Hisobot oyida dehqonchilik ishlarini bajaruvchi ishchi va xodimlarga 300000 so'mlik maxsus Kiyimlar, 42000 so'mlik ketmon va lopatkalar foydalanish uchun berilgangan (**D-t 2511** (dehqonchilik) **K-t 1080** -342000 so'm). Bu umumishlab chiqarish xarajatlari summasini dehqonchilik ekinlari tannarxiga taqsimlash uchun eng avval 1 ga ekin maydoniga to'g'ri kelgan xarajat summasi topiladi:

342000 : 70 ga = 4885,71 so'm.

a) etishtiriladigan bug'doy tannarxiga kiritiladigan xarajatlar summasi-146571,43 so'mga (30\*4885,71):

**Debet** 2011 (bug'doy) **Kredit** 2511 (dehqonchilik) 146571, 43 so'm.

b) etishtiriladigan paxta tannarxiga kiritiladigan xarajatlar summasi-195428,57 so'mga (40\*4885,71):

**Debet** 2013 (paxta) **Kredit** 2511 (dehqonchilik) 195428,57 so'm.

Buxgaltyeriya hisobining soddalashtirilgan shaklida yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi maxsus «Umumishlab chiqarish xarajatlari va xizmatlarini hisobga olish qaydmasi»da yuritiladi.

### **O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN TEST SAVOL-JAVOBLARI**

#### **1.O'stirishdagi mollarga kirmaydi**

- a) buzoq;
- b) sigir;
- v) boquvdagi xo'kiz;
- g) quyon.

#### **2. Bozordan sotib olingan buzoqning boshlang'ich qiymatiga kirmaydi:**

- a) sotib olish bahosi;
- b) olingan mikrokredit uchun foiz to'lovi;
- v) bozor ma'muriyati byergan ma'lumotnomasi haki;
- g) buzoqni tashib keltirishga to'langan haki

#### **3. O'lgan yosh mollar balansdan chiqariladi:**

- a) boshlang'ich qiymatida;
- b) qiymatida;
- v) sotish baholarida;
- g) qayta baholangan qiymatida.

#### **4. O'stirishdagi va boquvdagi mollarga sarflangan em-xashaklar hisobda qanday aks ettiriladi?**

- a) em-xashak sarfi dalolatnomasi asosida;
- b) Chiqim naklodnoyi asosida;
- v) schyot-faktura asosida;
- g) kirim naklodnoyi asosida.

#### **5.O'lgan yosh mollar balansdan chiqariladi:**

- a) bildirgi asosida;
- b) hisobdan chiqarish dalolatnomasi asosida;
- v) kirim dalolatnomasi asosida;
- g) so'yish dalolatnomasi asosida.

#### **6.O'stirishdagi va boquvdagi mollarning saqlash xarajatlari hisobda qanday aks ettiriladi?**

- a) 0840 «Asosiy podani shakllantirish» schyotining debetida;
- b) 2010 «Asosiy ishlab chiqarish»schyotining debetida;
- v) 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyotida;
- g) 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari» schyotida.

#### **7. Yordamchi ishlab chiqarish xo'jaliklari -bu:**

- a) asosiy xo'jaliklarga xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar;
- b) mustaqil xo'jaliklar;
- v) alohida tarmoqlar;
- g) hammasi to'g'ri.

#### **8. Ishchi xayvonlarni saqlash xarajatlari qaysi yozuvda to'g'ri va to'liq berilgangan?**

- a) Debet 2010 Kredit 1010, 6710, 6520,0200
- b) Debet 2310 Kredit 1010,6710,6520,6990,0200
- v) Debet 2510 Kredit 1010, 6710,6520,6996,0200
- g) Debet 2710 Kredit 1010, 6710, 6520,6990, 0200

**9. Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari qishloq tarmog'lari o'rtasida qanday taqsimlanadi?**

- a) hisob siyosatiga ko'ra
- b) rahbarning buyrug'i bilan
- v) ma'lum mezonlar asosida
- g) A va V javob to'g'ri

**10. 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti hisobot yili oxirida qaysi schyotga yopiladi?**

- a) Faqat 2510 schyotga
- b) 2010,2510 schyotlarga
- v) 9010 schyotga
- g) 2810 schyotga

**11. Dala shiyponni saqlash xarajatlari qanday xarajatlar turiga kiradi?**

- a) asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga
- b) umumishlab chiqarish xarajatlariga
- v) yordamchi ishlab chiqarish xarajatlariga
- g) davr xarajatlariga

**12. MTP xizmatlari qaysi guruh xarajatlarga kiradi?**

- a) asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga
- b) umumishlab chiqarish xarajatlariga
- v) yordamchi ishlab chiqarish xarajatlariga
- g) davr xarajatlariga

**13. chorvachilik tarmognda umumishlab chiqarish xarajatlari qanday taqsimlanadi?**

- a) chorva mollari o'rtasida
- b) fyermalar va chorvachilik mahsulotlari o'rtasida
- v) yordamchi ishlab chiqarish xo'jaliklari o'rtasida
- g) to'gri javob yo'q.

### **O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR**

1. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zahiralarining tasnifilanishini tushuntiring?
2. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zahiralarining tavsifi va baholanishini tushuntirib byering?
3. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zahiralari harakatini hujjatlashtirilishini tushuntiring?
4. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zahiralari omborda hisobiga olinishini tushuntiring?
5. Ishlab chiqarish zahiralarining sintetik schyotlarda hisobiga olinishini tushuntiring?
6. O'stirishdagi va boquvdagi mollarni hisobga olinishini tushuntiring?
7. Qishloq xo'jalik korxonalar yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarini tushuntirib byering?
8. Qishloq xo'jalik korxonalarida yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining hisobiga olinishi va ularning taqsimlanishini tushuntirib byering?
9. Qishloq xo'jalik korxonalar umumishlab chiqarish xarajatlarini tushuntirib byering?
10. Qishloq xo'jalik korxonalarida umumishlab chiqarish xarajatlarining hisobiga olinishi va ularning taqsimlanishini tushuntirib byering?

## **9-ma'ruza. IShLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBI VA MAHSULOTLAR TANNARXINI KALKULYASIYA QILISH**

**Ma'ruzaning asosiy maqsadi** talabalarga quyidagi tayanch iboralar va tushunchalar to'g'risidagi bilimlarni byerish hisoblanadi:

*Dehqonchilik ishlab chiqarnish jarayonlari: yerni ekishga tayyorlash, ekish, parvarishlash, hosilni yig'ib olish. Ishlab chiqarish xarajatlari: moddiy xarajatlar, mehnat haqi xarajatlari, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, amortizasiya xarajatlari, yordamchi va umumishlab chiqarish xarajatlari. Asosiy mahsulot tannarxi, yondosh mahsulot tannarxi, yordamchi mahsulot tannarxi. chorvachilik sohalari: qoramolchilik, qo'ychilik, yilqichilik, parrandachilik, chuchqachilik, asalarichilik. chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlari: moddiy xarajatlar, mehnat haqi xarajatlari, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, amortizasiya xarajatlari, yordamchi va umumishlab chiqarish xarajatlari. Asosiy mahsulot tannarxi, yondosh mahsulot tannarxi, yordamchi mahsulot tannarxi, o'sgan vaznning tannarxi, tirik vaznning tannarxi.*

### ***Ma'ruza rejasi:***

- 9.1. Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarining tasnifi, tarkibi va tavsifi.**
- 9.2. Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot kirimining dastlabki hisobi.**
- 9.3. Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik va analitik hisobi.**
- 9.4. Dehqonchilik mahsulotlari tannarxini aniqlash usullari.**
- 9.5. Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarining tasnifi, tarkibi va tavsifi.**
- 9.6. chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot kirimining dastlabki hisobi.**
- 9.7. chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik va analitik hisobi.**
- 9.8. chorvachilik mahsulotlari tannarxini aniqlash usullari.**

### **MAVZUNI CHUQUR O'RGANISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ME'YORIY- HUQUQIY HUJJATLAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Fermer xo'jaliklarida buxgaltyeriya hisobining soddalashtirilgan «tizimini tashkil etish to'g'risida Nizom. Moliya vazirligi va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 2008 yil 21 yanvardagi 1, 1z2-son qarori bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 26 martda 1781 -son bilan ro'yxatga olingan.
2. O'zbekiston: Respublikasi Soliq Kodeksi. -T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2008.  
" .;
3. «Mahsulot (ish, xizmatlarni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalari shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom». O'zR VMning 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.
4. BHMS № 1 «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot». O'z.R. AV tomonidan 1998 yil 14 avgustda ro'yxatga olingan, № 474
5. BHMS № 5 «Asosiy vositalar». O'z.R: AV tomonidan 1998 yil 23 avgustda ro'yxatga olingan, № 491
6. Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgaltyeriya hisobi xususiyatlari. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.
7. Sanaev N. S. Qishloq xo'jaligida buxgaltyeriya hisobi, nazorat va moliyalashtirishning dolzarb masalalari-Toshkent: «Mehnat», 1991.- 104 b.
8. Sanaev N. S. Fermer xo'jaliklarida buxgaltyeriya hisobinyang xususiyatlari. Toshkent: «Alishyer Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy Kutubxonasi», 2006.-145 b.
9. Do'stmurodov R, Masharipov O. Fermer xo'jaligida buxgaltyerya hisobi va hisobotini tashkil etish.O'quv qo'llanma-Toshkent, 2007.- 94 b.
10. Urazov K. B. Boshqa tarmoqlarda buxgaltyeriya hisobining xususiyatlari. Darslik.-T.: 2010 y.

## **9.1. Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarning tasnifi, tarkibi va tavsifi**

Dehqonchilik- bu moddiy ishlab chiqarish bo'lib, o'z ichiga quyidagi jarayonlarni oladi:

- yerni ekishga tayyorlash- shudgorlash, zaxni qochirish, juyaklash va boshqalar;
- ekish- niholni o'stirish, urug'ni ekishga tayyorlash, uni qadash, baranalash;
- parvarishlash - sug'orish, kultivasiya, dorilash, chopish, yaganalash va boshqalar;
- hosilni yig'ib olish - hosili tyerish, tashish, omborlarga topshirish va saqlash.

Mos ravishda, dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari o'z ichiga quyidagilarn oladi:

- yerni ekishga tayyorlash xarajatlari;
- ekish xarajatlari;
- ekinni parvarishlash xarajatlari;
- hosilni yig'ib olish, omborga etkazish va uni saqlash bilan bog'lik; barcha xarajatlar.

Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarini turli belgilari bo'yicha tasniflash mumkin.

**Moddiyligiga ko'ra** dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari moddiy va moddiy bo'limgan xarajatlarga bo'linadi. Moddiy xarajatlar bo'lib dehqonchilikka sarflangan urug'liklar, o'g'it, dori-darmonlar, em-xashaklar va boshqa matyeriallar hisoblanadi. Moddiy bo'limgan xarajatlarga ish haqi, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, amortizasiya, sug'urta, ish va xizmatlarga doir xarajatlar kiritiladi.

**Tannarxga kiritish usuliga ko'ra** dehqonchilik xarajatlari bevosita va bilvosita xarajatlarga bo'linadi, Bevosita xarajatlar bo'lib dehqonchilikka sarflangan bevosita matyerial xarajatlari, bevosita mehnat haqi xarajatlari va boshqa xarajatlars hisoblanadi. Bilvosita xarajatlarga amortizasiya, yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari, umumishlab chiqarish xarajatlari kiradi.

**Iqtisodiy mazmuniga ko'ra** dehqonchilik xarajatlari quyidagi beshta guruuga ajratiladi;

- moddiy xarajatlar - dehqonchilik ishlab chiqarishga sarflangan barcha matyerial xarajatlari (urug'lik, o'g'it, dori-darmonlar, em-xashaklar, yoqilg'i va boshqa matyeriallar);
- mehnat xarajatlari - dehqonchilik ishlab chiqarish bilan band bo'lgan xodimlarga hisoblangan asosiy va qo'shimcha ish haqlari;
- ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar - dehqonchilik ishlab chiqarish bilan band bo'lgan xodimlarga hisoblangan ish haqi fondidan pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma;
- amortizasiya - dehqonchilik ishlab chiqarishga aloqador asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga hisoblangan eskirish summasi;
- boshqa xarajatlar - dehqonchilik ishlab chiqarishga tegishli barcha yordamchi va umumishlab chiqarish xarajatlari.

**Kalkulyasiya moddalari bo'yicha** dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risida hisobotda (18-shakl) quyidagi moddalarga ajratilgan holda aks ettiriladi:

1. Mehnatga haq to'lash va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
2. Urug'lik;
3. O'g'itlar;
4. O'simliklarni himoya qilish vositalari;
5. Ish va xizmatlar;
6. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari;
7. Ishlab chiqarish va boshqaruvni tashkil etish xarajatlari;
8. Cug'o'rta to'lovlar;
9. Boshqa xarajatlar.

**«Mehnatga haq to'lash va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar»** moddasida bevosita ekin o'stirish bilan band bo'lgan ishchilar mehnatiga haq to'lash, navbatdagi va qo'shimcha ta'tyllarga haq to'lash hamda bu summalarga nisbatan hisoblangan tegishli ijtimoiy sug'urta ajratmalari hisobga olinadi. Bu xarajatlar boshlang'ich hujjalalar asosida bevosita tegishli ekinlar va ish turlariga o'tkaziladi. Qo'shimcha mehnat haqi summalarini to'g'ri ish haqiga mutanosib taqsimlanadi.

**«Urug'lik»** moddasida qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish uchun sarflangan urug'liklar hisobga olinadi. Urug'larni ekishga tayyorlash, ularni ekish joyiga tashib keltirish xarajatlari urug'lar qiymatiga kiritilmaydi, balki ekinlarga tegishli xarajatlar moddalari bo'yicha o'tkaziladi.

**«O'g'it»** moddasida qishloq xo'jalik ekinlari uchun tuproqqa solinadigan o'g'itlar, shu jumladan sanoatda ishlab chiqiladigan minyeral, baktyerial va boshqa o'g'itlar hamda organiq o'g'itlar xarajatlari hisobga olinadi. Xarajatlar analistik hisobga olishda minyeral va organiq o'g'itlar bo'yicha alohida aks ettiriladi. O'g'itlarni tayyorlash va yerga solish xarajatlari bevosita muayyan qishloq xo'jalik ekiniga tegishli xarajatlar moddalari bo'yicha o'tkazilib, bu moddaga kiritilmaydi.

**«O'simliklarni himoya qilish vositalari»** moddasida begona o'tlar, qishloq xo'jalik ekinlari zararkunanda va Kasalliklarga qarshi kurashda ishlatiladigan pestisid, kimyoviy dorilar, gyerbisid va boshqa kimyoviy, shuningdek biologik vositalarni harid qilish va saqlash xarajatlari kiritiladi. Xo'jalikning o'zi bu vositalar bilan ko'chatlar, ekinlarga ishlov byergandagi xarajatlar moddalari bo'yicha ekining tannarxiga o'tkaziladi.

**«Ish va xizmatlar»** moddasi o'z korxonasining ishlab chiqarish ehtiyojlarini qonduruvchi yordamchi ishlab chiqarishlarning xizmatlari hamda shu korxonaga boshqa korxona va tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan ishlab chiqarish xaraktyeridagi xizmatlarga haq to'lash xarajatlari aks ettiriladi.

**«Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari»** moddasida bevosita ishlab chiqarishda foydalanyladigan asosiy vositalarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq xarajatlar kiritiladi. Ularga bu asosiy vositalarga xizmat ko'rsatish va ulardan foydalanish xarajatlari, amortizasiyasi ajratmalari va tuzatish xarajatlari kiritiladi.

Asosiy vositalarni saqlash va ulardan foydalanish xarajatlariga asosiy vositalarga xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning mehnat haqlari, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, yoqilg'i va moylash matyeriallari, yordamchi ishlab chiqarish, shuningdek chet tashkilotlar xizmatlari va boshqa xarajatlari kiritiladi.

Tuzatish xarajatlariga eng avvalo o'zining ta'mirlash ustaxonalarining xarajatlari kiritiladi.

Amortizasiya xarajatlarini asosiy vositalar bo'yicha amortizasiya ajratmalari tashkil qiladi. Amortizasiya ajratmalari har oyda alohida «Dehqonchilikda ishlatiladigan asosiy vositalar bo'yicha taqsimlangan amortizasiya» analistik schyotida qayd etib boriladi. Yil oxirida asosiy vositalarning eskirish summasi ekin va ish turlari bo'yicha taqsimlanadi va bu maxsus qaydnoma orqali rasmiylashtiriladi. «Yordamchi ishlab chiqarishlar» schyotida hisobga olingan joriy tuzatish xarajatlari amortizasiya summasiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

**«Ishlab chiqarish va boshqaruvni tashkil etish xarajatlari»** moddasida umumishlab chiqarish xarajatlari aks ettiriladi.

**«Cyg'ypa to'lovlari»** moddasida qishloq xo'jalik ekinlarining hosili va ko'p yillik ekinlar, qishloq xo'jalik hayvonlari, quyon, asalari oilalari va shu kabilar bo'yicha davlat majburiy sug'urta to'lovlariiga oid xarajatlar hisobga olinadi. Bu to'lovlardan tegishli ekinlarning tannarxiga bevosita olib boriladi. Bu moddada mahsulotni ishlab chiqarishda bevosita foydalilanadigan bino, inshoot, mashina, uskuna, inventar va boshqa asosiy vositalarning sug'urta to'lovlari ham hisobga olib boriladi. Bunday sug'urta to'lovlari mahsulotni ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlarga mutanosib ravishda ekin va mahsulot turlari bo'yicha taqsimlanadi.

**«Boshqa xarajatlar»** moddasida mahsulotni ishlab chiqarishga bevosita daxldor, ammo yuqorida ko'rib chiqilgan moddalardan birortasi ham kiritilmaydigan xarajatlar aks ettiriladi.

## 9.2. Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot kirimining dastlabki hisobi

Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarining dastlabki hisobi ularning alohida moddalari bo'yicha quyidagi tartiblarga ko'ra va guvohlik beruvchi boshlang'ich hujjatlar asosida yuritiladi (9.1-jadval).

9.1-jadval

### Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish tartibi

Xarajat moddalari	Hisobga olish tartibi	Guvohlik beruvchi hujjat
1 .Mehnat xarajatlari	Naryad bo'yicha ishlangan soat miqdorini 1 soatlik tarifga, ko'paytirish yo'li bilan topiladi.	Naryad, tabel, hisob-to'lov qaydnomasi
2. Ijtimoiy sug'urtaga ajratma	Ajratmaga tortiladigan hisoblangan ish haqini belgilangan stavkaga ko'paytirish yo'li bilan topiladi.	Maxsus hisob-kitob
3.Urug'lik sarfi	Ekin turi bo'yicha ekilgan maydon hajmini 1 ga yerga sarflangan urug'lik miqdoriga va 1 kg urug'likning haqiqiy tannarxiga ko'paytirish yo'li bilan topiladi.	Urug'lik sarfi dalolatnomasi
4. O'g'it sarfi	Ekin turi bo'yicha ekilgan maydon xajmini 1 ga yerga sarflangan o'g'it miqdoriga va 1 t o'g'itning haqiqiy tannarxiga ko'paytirish yo'li bilan topiladi.	O'g'it sarfi dalolatnomasi
5. Yoqilg'i sarfi	Ekin turlar o'rtasida qishloq xo'jalik texnikasi va boshqa transportlarni har bir sohada ishlagan vaqt miqdoriga (soatiga) qarab taqsimlanadi.	Mexaniqning rapporti, naryadlar yo'l varaqalari
6. Sug'urta to'lovlar	Har bir mahsulot turi bo'yicha hisoblangan sug'urta to'lovi aniqlanadi.	Sug'urta polisi, shartnoma
7. Ish va xizmatlar	Hisob siyosatida belgilangan tartib bo'yicha taqsimlanadi.	Bosh agronom tomondan tuziladigan maxsus taqsimlash hisob-kitobi
8. Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlar	Hisob siyosatida belgilangan tartib bo'yicha taqsimlanadi.	Maxsus taqsimlash hisob-kitobi
9. Umumishlab chiqarish xarajatlari	Hisob siyosatida belgilangan tartib bo'yicha taqsimlanadi.	Maxsus taqsimlash hisob-kitobi

Dehqonchilik ishlab chiqarishning pirovard natijasi bo'lib etishtirilgan mahsulotlar hisoblanadi. Mahsulot tannarxiga ularning kirim qilish-topshirish joyigacha qilingan xarajatlar kiritiladi. Mahsulotlarning kirim-topshirish joyi bo'lib quyidagilar hisoblanadi (9.2-jadval).

9.2-jadval

### Dehqonchilik mahsulotlarini kirim qilish va topshirish joylari

Mahsulot turi	kirim-topshirish joyi
1. Paxta	Franko - dala
2. Don	Franko - dala (saqlash joyi)
3. Kartoshka, poliz ekinlari, sabzavot, qand lavlagi	Franko - dala (saqlash joyi)

4. Mevalar, rezavor, uzum, tamaki, maxorka va choy bargi, dorivor efir moy ekinlari va gulchilik mahsulotlari	Franko – qabul qilish (saqlash) joylari
5. O't, zig'ir, sabzavot va boshqa ekinlar urug'lari	Franko - saqlash joylari
6. Oziqa uchun ko'k massa	Franko – istemol joyi
7. Comon, xashak	Franko - saqlash joyi

Dehqonchilik mahsulotlari kirimi quyidagi hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi:

**1. Don va boshqa mahsulotlarni daladan jo'natish reestri** - donli ekin mahsulotlarini kirimi rasmiylashtiriladi.

**2. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini kelish kundagi** - sabzavot, meva, poliz mahsulotlarini kirim qilishda rasmiylashtiriladi.

**3. Paxta tyerimi to'g'risida kunlik ma'lumot** - paxta xom-ashyosini kirim qilishda tuziladi.

**4. Dag'al va shirali ozuqalarini kirim dalolatnomasi** - ozuqalarni kirim qilinishi rasmiylashtiriladi.

**5. O'simlikchilik mahsulotlarini saralash va quritish dalolatnomasi** - donli ekin mahsulotlarini saralashda rasmiylashtiriladi.

**6. Don va boshqa mahsulotlar harakati qaydnomasi**-donli ekin mahsulotlarini yig'ishtirib olish mavso'mi davrida rasmiylashtiriladi.

### **9.3. Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik va analistik hisobi**

Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik hisobi 2000 «Asosiy ishlab chiqarish schyotlari» tizimida olib boriladi. Ushbu schyotlar tizimida dehqonchilik sohalariga qarab quyidagi schyotlarni ishchi schyotlar rejasida ochish mumkin: 2011 «Bug'doy», 2012 «Arpa», 2013 «Paxtachilik», 2014 «Sabzavotchilik» va boshqalar.

Ishlab chiqarish xarajatlarining analistik hisobi dehqonchilik sohalarining yo'nalishlariga qarab yuritiladi. **Masalan**, 2014 «Sabzavotchilik» schyoti bo'yicha quyidagi analistik schyotlarni ochish mumkin kartoshka; pomidor; piyoz; sabzi; karam va boshqalar.

Qishloq xo'jalik, korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari schyotlarining (2011, 2012, 2013) debetida haqiqatda qilingan xarajatlar aks ettiriladi. Bunda, mos ravishda xarajatlarning moddalariga ko'ra quyidagi yozuvlar qilinadi:

**Debet** 2011,2012,2013 **Kredit** 1010-1090 - matyerial xarajatlariga;

**Debet** 2011,2012,2013 **Kredit** 6710 - mehnat haqi xarajatlariga;

**Debet** 2011,2012,2013 **Kredit** 6520 - ijtimoiy sug'urta xarajatlariga;

**Debet** 2011,2012,2013 **Kredit** 6510 - ekinlarni sug'ortalash xarajatlariga;

**Debet** 2011,2012,2013 **Kredit** 6010, 6990 - ish, xizmat xarajatlariga;

**Debet** 2011,2012,2013 **Kredit** 2310 - yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarini hisobdan chiqarilishiha;

**Debet** 2011,2012,2013 **Kredit** 2510 - umumishlab chiqarish xarajatlarining hisobdan chiqarilishiha.

Ishlab chiqarish xarajatlari schyotlarining kreditida hisobot yili davomida olingan mahsulotlar reja tannarxi bo'yicha aks ettiriladi, ya'ni unga quyidagicha yozuv qilinadi:

**Debet** 2810 **Kredit** 2011,2012,2013.

Yil boshidagi tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobot davr xarajatlariga kiritiladi. Yil oxiridagi tugallanmagan ishlab chiqarish kuzgi ekinlarni ekish xarajatlari bo'yicha inventarizasiya yo'lli bilan topiladi.

Hisobot yili oxirida har bir soha bo'yicha etishtirilgan mahsulotlarning reja tannarxi va haqiqiy tannarxi o'rtaqidagi farq summalarini hisob-kitob qilinadi.

Reja tannarx va haqiqiy tannarx o'rtaqidagi farq summasi barcha mahsulotlar bo'yicha quyidagicha topiladi:

## **Tf = (Tx-Tr) \* Ms**

Bu yerda:

**Tf** - bir birlik mahsulot reja va haqiqiy tannarxlari o'rtasidagi farq summasi;

**Tx** - bir birlik mahsulotning haqiqiy tannarxi;

**Tr** - bir birlik mahsulotning reja tannarxi;

**Ms** - etishtirilgan mahsulotning miqdori (s.)

Reja tannarx va haqiqiy tannarx o'rtasidagi farq summasi mos ravishda ishlab chiqarish xarajatlari schyotlarida «qizil yozuv» yoki «qo'shimcha yozuv» usullari bo'yicha aks ettiriladi. Bunda reja tannarxi haqiqiy tannarxdan yuqori bo'lgan hollarda «qizil yozuv» usuli, reja tannarxi haqiqiy tannarxdan past bo'lganda esa «qo'shimcha yozuv» usulidan foydalaniladi.

Qizil yozuvlar yoki qo'shimcha yozuvlarni qaysi korrespondensiyalanadigan schyotlarga berilganishini aniqlashda etishtirilgan mahsulotlarning to'lik sotib yuborilganligi, ishlatilganligi hamda omborda tayyor mahsulot sifatida saklanayotganligi e'tiborga olinishi kerak. Chunonchi, to'lik sotib yuborilgan mahsulotlar bo'yicha reja tannarx va haqiqiy tannarx o'rtasidagi farq summalarini bevosita 9130 «Sotish tannarxi» schyotiga, qisman sotilgan mahsulotlar bo'yicha ushbu farq ularning sotilgan va omborda saqlanayotgan qismlarini aks ettiruvchi schyotlar o'rtasida taqsimlanishi lozim. O'z maqsadlarida ishlatilgan mahsulotlar (masalan, em-xashaklarni chorva mollariga berilganishi) bo'yicha reja tannarxi va haqiqiy tannarx o'rtasidagi farq mos ravishdagi ishlab chiqarish schyotlariga olib borilishi kerak.

Barcha etishtirilgan mahsulotlar bo'yicha haqiqiy tannarx va reja tannarx o'rtasidagi farq summalarining hisob-kitobi hamda ularni tegishli schyotlarda aks ettirish tartibi misol tariqasida 9.3-jadvalda keltirilgan.

9.3-jadval

### **Dehqonchilik tarmogi sohalarida etishtirilgan mahsulotlarning reja va haqiqiy tannarxlari o'rtasidagi farq hisob-kitobi**

<b>Mahsulot</b>	<b>Miqdori (s. da)</b>	<b>1 birlik tannarxi, so'm</b>			<b>Summa, so'm</b>	<b>Korr. Schyotlar</b>	
		<b>Reja</b>	<b>Haqiqat</b>	<b>Farq (+;-)</b>		<b>Dt</b>	<b>Kt</b>
Paxta	1500	38000	37000	-1000	-1500000	9110	2010
Don	2250	15500	14000	-500	-1125000	9110	2010
Don chiqiti	1000	7725	8000	+275	+275000		
a) sotilgan	800				+220000	9110	2010
b) chorvaga	200				+55000	2020	2010
Somon	2300	150	155	+5	+11500		
a) sotilgan	300				+1500	9110	2010
b) chorvaga	2000				+10000	2020	2010
Pomidor	350	10000	11000	+1000	+350000	9110	2010
Piyoz	200	20000	20600	+600	+120000		
a) sotilgan	150				+90000	9110	2010
b) qoldiq	50				+30000	2810	2010
Karam	250	5000	6000	+1000	+250000	9110	2010
kartoshka	200	32000	33500	+1500	+300000		
a) sotilgan	150				+225000	9110	2010
b) qoldiq	50				+75000	2810	2010
Sabzi	320	8000	8500	+500	+160000	9110	2010

Ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar maxsus «Ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risida hisobot»da (18-shakl) jamlanadi.

Buxgaltyeriya hisobining kombinasiyalashgan shaklida ishlab chiqarish xarajatlari hisobi quyidagi maxsus reestrlarda yuritiladi:

-«Hisobot davri xarajat (sarflarini hisobga olish qaydnomasida yuritiladi;

-«Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasi».

#### **9.4. Dehqonchilik mahsulotlari tannarxini aniqlash usullari**

Dehqonchilik ishlab chiqarishida asosiy, yondosh va yordamchi mahsulot tushunchalari bir-biridan farqlanadi.

**Asosiy mahsulot deganda** qishloq xo'jaligining ixtisoslashgan sohasini yuritishda etishtirilishi bosh maqsad qilib olingan mahsulot turi tushuniladi.

**Yondosh mahsulot** asosiy ekinlardan asosiy mahsulotlar bilan bir vaqtida olinadi va ise'mol xususiyatlariga ko'ra asosiy mahsulotga o'xshash mahsulotdir.

**Yordamchi mahsulot** - bu asosiy mahsulot bilan bir vaqtida olinadigan, ammo xususiyatiga ko'ra ikkinchi darajali mahsulot.

Dehqonchilikda har bir alohida qishloq xo'jalik ekinidan olinadigan mahsulot turi Kalkulyasiya ob'ekti hisoblanadi. Bir ekindan ayni bir vaqtida har xil xususiyatdagi mahsulot olinishi tufayli dehqonchilik mahsuloti tannarxini kalkulyasiya qilishda bevosita va bilvosita usullardan foydalilaniladi. Chunonchi, xarajatlarni mahsulot tannarxiga bevosita o'tkazish usuli bir ekindan faqat bitta mahsulot turi olinadigan hollarda foydalilaniladi. Bunda bir birlikning tannarxi mazkur ekinni etishtirishga sarflangan jami xarajatlar summasini olingan mahsulot miqdoriga bo'lish orqali topiladi. Ayrim qishloq xo'jalik ekinlaridan turli mahsulotlar olinganda alohida mahsulot turlari birligi tannarxini aniqlashda jami xarajatlarni umumiy bo'lgan belgilaridan birining miqdoriy qiymatiga mutanosib taqsimlash usuli qo'llaniladi.

Dehqonchilik mahsulotlari tannarxini hisoblash xususiyatlarini ularning ayrim turlari bo'yicha ko'rib chiqamiz.

Don ekinlari. Don ekinlarini ekish va yig'ishtirish xarajatlari (donni xirmonda tozalash va quritish xarajatlari qo'shib) don, don chiqitlari va somonning tannarxini tashkil qiladi. Don va don chiqitlarning tannarxini aniqlash uchun, avvalambor, unga tegishli jami xarajatlarda somonning belgilangan qiymati chegirib tashlanadi. Qolgan xarajatlar don va don chiqitlarining tannarxini tashkil etadi. Donning tannarxini aniqlash uchun don chiqitlari (laboratoriya da aniqlangan donning miqdoriga qarab) sof donga aylantiriladi. So'ngra ularga tegishli jami xarajatlar shartli don miqdoriga bo'linib 1 sentnyer (s) donning tannarxi aniqlanadi. Yuqorida tartibga ko'ra don bo'yicha bir birlik (1 s) mahsulotning haqiqiy tannarxi joriy hisob registrlari ma'lumotlari bo'yicha quyidagi formula asosida hisob-kitob qilinadi:

**(Xj-To)-Srt**

**Th = -----**

**(D + Chdm)**

Bu yerda:

**Xj** - jami xarajatlar (2020 schyotning bosh qoldig'i va debet oboroti summalarini birlashtirishda olinganda);

**To** - yil oxiriga tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari;

**Srt** - somonning reja qiymati;

**D** - donning miqdori (s.);

**Chdm** - chiqitning donga aylantirilgan miqdori (s.).

O'z nabatida:

**Ch x F**

**Chdm = -----**

**100 %**

Bu yerda:

**Ch** - don chiqiti miqdori (s.);

**F** - chiqitdan don chiqish foizi.

**Misol.** kuzgi bug'doy hosili yig'ishtirib va tozalab olingandan keyii 1000 s don, 200 s don chiqiti va 600 s somon olingan, deylik. Ushbu hosilni etishtirish va xirmonda tozalash uchun 13600000 so'm sarflangan, Somonning me'yoriy xarajatlar qiymati 600000 so'mni tashkil etadi. 1 s somonning tannarxi esa - (600000:600) 1000 so'mni tashkil etdi. U holda don va don chiqitiga tegishli xarajatlar 13000000 (13600000-600000) so'mga teng.

Don chiqiti (chori)ni donga o'tkazish foizi-50% desak, u holda donga aylantirilgan chiqit miqdori 100 s (200\* 50%), jami shartli don miqdori esa 1100 s (1000+100)ga teng.

1 s shartli donning tannarxi 11818 so'mni (13000000:1100) tashkil etadi.

Comon kabi jo'xoripoya bargi, g'o'zapoya, kungaboqar tupguli, karam bargi, shox-shabba (tut) va boshqa yordamchi mahsulotlarning tannarxi ushbu mahsulotlarni yig'ishtirish, presslash, tashish, garamlash va tayyorlashga oid boshqa ishlar xarajatlari asosida belgilangan me'yorlar bo'yicha ularga sarflangan xarajatlardan kelib chiqib aniqlanadi.

**Poliz ekinlari.** Poliz ekinlari bo'yicha xarajatlar umumiy holda olib borilganda ularning ayrim turlari bo'yicha 1s hosilning tannarxi o'stirish va hosilni yig'ishtirishga taallukli barcha xarajatlarni mahsulot massasiga taqsimlab aniqlanadi. Bunda xarajatlar ayrim ekinlarga mahsulot realizasiyasidan tushgan daromadga mutanosib taqsimlanadi. Chunonchi, sabzavotchilik sohasida alohida mahsulot turiga to'g'ri keladigan haqiqiy xarajatlar (Mx) har bir mahsulot sotish qiymatini jami sabzavotlarni sotishdan olingan sof tushumdag'i hissasiga (Sx) qarab quyidagicha aniqlanadi:

**X<sub>j</sub> x S<sub>x</sub>**

$$M_x = \frac{X_j}{S_{j\bar{m}}} \times 100\%$$

O'z navbatida:

**S<sub>m</sub>**

$$S_x = \frac{S_m}{S_{j\bar{m}}} \times 100\%$$

Bu yerda:

**X<sub>j</sub>** - jami xarajatlar;

**S<sub>m</sub>** - har bir mahsulot bo'yicha sotish hajmi;

**S<sub>j\bar{m}</sub>** - jami mahsulotlar bo'yicha sotish hajmi.

Sabzavotchilik sohasiga sarflangan xarajatlarni etishtirilgan mahsulotlar o'rtasida taqsimlash tartibi misol tariqasida 9.4-jadvalda keltirilgan.

9.4-jad val

#### **Sabzavotchilik sohasi xarajatlarini mahsulotlar o'rtasida taqsimoti**

Mahsulot turi	Hosil, s	1s. sotish bahosi, so'm	Sotish qiymati, so'm	Hissasi, %	Xarajat summasi, so'm	1 birlik mahsulot tannarxi, so'm
1	2	3	4	5	6	7
Pomidor	100	15000	1500000	9,1	1228550	12285
Piyoz	150	20000	3000000	18,3	2470610	16470
Karam	120	8000	960000	5,8	783035	6525
kartoshka	200	45000	9000000	54,7	7384830	36924
Sabzi	110	18000	1980000	12,1	1633575	14850
<b>Jami:</b>	<b>x</b>	<b>x</b>	<b>16440000</b>	<b>100,0</b>	<b>13500600</b>	<b>x</b>

Izox: a) 6-ustunda har bir mahsulot turlariga to'g'ri keladigan xarajatlar ularning sotish hajmini jami mahsulot sotishdagi hissasini (5-ustun) barcha mahsulot turlariga qilingan jami xarajatlar summasiga (6-ustunning jami summasiga) ko'paytirish va 100 foizga bo'lish orqali topiladi;

b) 7-ustun = 6-ustunz 2-ustun.

**Makkajo'xori.** 1 s makkajo'xori donining tannarxini hisoblashda don qabul qilish punktlarida sutkalik o'rtacha namunalarni sutkadagi donning bazis namligini (makkajo'xori sutasidagi donning bazis namligi 22 foiz ko'lamida qabul qilingan) hisobga olib yanchish natijasida aniqdangan sutalardan quruq donga o'tkazish xo'jalikning davlatga sotgan makkajo'xori sutalaridan bazis namlikdagi don chiqishining o'rtacha foizidan aniqlanadi. Bu foiz qabul qilingan don nakladnoylari registrlarining ma'lumotlaridan olinadi. 1 s makkajo'xori donining tannarxi ishlab chiqarish xarajatlarini jo'xoripoyalarini yig'ishtirish sarflari va qiymatini istisno qilib, don massasiga taqsimlab aniqlanadi.

**Paxta.** 1 s paxtaning tannarxi uni etishtirish va yig'ishtirish (g'uzapoya bundan mustasno) xarajatlari summasini uning hisobga olingan (kondisiya) miqdoriga taqsimlab aniqlanadi. Paxtaning tannarxi alohida navlar bo'yicha aniqlanganda xarajatlarning umumiyligi summasi uning harid narxlarining qiymatiga mutanosib taqsimlanadi.

**Lavlagi.** 1s lavlagi ildiz mevasining ishlab chiqarish tannarxi (fabrikada ishlatiladigan va tug'anagi) ularni qand lavlagining (foydalaniladigan bargining qiymati xarajatlardan chegirib tashlangach) fizik massasiga bo'lib aniqlanadi.

**Tamaki.** Tamaki va moxorka xom ashysining tannarxi ishlab chiqarish xarajatlarining umumiyligi summasi va xom ashysining hisobga olingan massasidan kelib chiqib, xarajatlarni mahsulotning alohida turlariga ularning harid baholaridagi qiymatiga mutanosib taqsimlab aniqlanadi. Urug'chilikda 1 s tamaki, moxorka xom ashysi, urug'ning tannarxi muayyan mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli summasi va xom ashyo, urug'ning hisobga olingan massasidan kelib chiqib aniqlanadi.

**Kartoshka.** 1 s kartoshkaning tannarxi kartoshkani etishtirishga taalluqli barcha xarajatlarni palak qiymatini chegirib, kartoshka hosiliga taqsimlab aniqlanadi.

**Meva va uzumlar.** 1s meva va uzum tannarxi xarajatlarining umumiyligi summasini mahsulot massasiga (turlar, navlar bo'yicha) taqsimlab aniqlanadi.

**Choy.** Saralangan choy bargi tannarxini aniqlashda xarajatlarning umumiyligi summasidan dag'al choy bargi, kofein uchun tarkibiy matyerial va urug'ning harid narxlaridagi bahosi chegiriladi. 1s saralangan choyning tannarxi shu mahsulotga o'tkazilgan xarajatlarni saralangan choy bargi massasiga bo'lib aniqlanadi.

### 9.5. Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarining tasnifi, tarkibi va tavsifi

Chorvachilik dehqonchilik singari qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i hisoblanadi. Bu tarmoq oldida to'rgan bosh vazifa bo'lib aholini go'sht, sut, tuxum, baliq va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlash, shuningdek ishlab chiqarish korxonalarini chorvachilikdan olinadigan xom ashyo va matyeriallar bilan ta'minlash hisoblanadi.

Chorvachilik tarmog'i o'z ichiga qoramolchilik, qo'ychilik, chuchqachilik, parrandachilik, yilqichilik, pillachilik, asalarichilik, baliqchilik, va boshqalarni oladi. chorvachilikning har bir tarmog'i, o'z navbatida, turli guruhlarga bo'linadi. Chunonchi, respublikamizda keng tarqalgan chorvachilikning alohida tarmoqlari quyidagi guruhlarga ajratiladi (9.5-jadval).

9.5 – jadval

#### chorvachilik tarmoqlari va ularda xarajat ob'ektlari

Tarmoqlar	Xarajat ob'ektlari
1. Qoramolchilik	1.Sut yo'nalishida: <ul style="list-style-type: none"> <li>• asosiy poda</li> <li>• yosh va boquvdagi mollar</li> </ul> 2. Go'sht yo'nalishida <ul style="list-style-type: none"> <li>• asosiy poda va sakkiz oygacha bo'lган mollar</li> <li>• sakkiz oydan katta buqalar va boquvdagi mollar</li> </ul>
2. Qo'ychilik	Go'sht yo'nalishida <ul style="list-style-type: none"> <li>• asosiy poda va sakkiz oygacha bo'lган</li> </ul>

	qo'ylar • sakkiz oydan katta qo'chqorlar va boquvdagi qo'ylar
3. Chuchqachilik	1. Asosiy poda 2. Ikki oydan to'rt oylikkacha bo'lgan chuchqalar Z. To'rt oylikdan katta chuchqalar
4. Parrandachilik	1. Tuxum yo'nalishida 2. Go'sht yo'nalishida

Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarini xuddi dehqonchilik ishlab chiqarishdagidek turli belgilari bo'yicha tasniflash mumkin. Chunonchi, *iqtisodiy mazmuniga ko'ra* chorvachilik xarajatlari quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- **moddiy xarajatlar** - chorvachilik ishlab chiqarishga sarflangan barcha matyerial xarajatlari (em-xashak, dori-darmonlar, tushash matyeriallari, yoqilg'i va boshqa matyeriallar);

- **mehnat xarajatlari** - chorvachilik ishlab chiqarish bilan band bo'lgan xodimlarga hisoblangan asosiy va qo'shimcha ish haklari;

- **ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar** - chorvachilik ishlab chiqarish bilan band bo'lgan xodimlarga hisoblangan ish haqi fondidan pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma;

- **amortizasiya** - chorvachilik ishlab chiqarishga aloqador asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga hisoblangan eskirish summasi;

- **boshqa xarajatlar** - chorvachilik ishlab chiqarishga tegishli barcha yordamchi va umumishlab chiqarish xarajatlari.

**Kalkulyasiya moddaları bo'yicha** chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi moddalarga ajratilgan holda aks ettiriladi:

1. Mehnatga hak to'lash va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
2. Yom-xashak;
3. Dori-darmonlar;
4. To'shash matyeriallari;
5. Ish va xizmatlar;
6. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari;
7. Ishlab chiqarish va boshqaruvni tashkil etish xarajatlari;
8. Sug'urta to'lovleri;
9. Boshqa xarajatlar.

«**Mehnatga haq to'lash va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar**» moddasida chorva mollarini o'stirish, parvarishlash, boqish, sog'ish, junni qirqish va shu kabi boshqa ishlar bilan band bo'lgan ishchilar mehnatiga haq to'lash, mehnat ta'tillariga haq to'lash hamda bu summalarga nisbatan hisoblangan tegishli ijtimoiy sug'urta ajratmalari hisobga olinadi. Bu xarajatlar boshlang'ich hujjalalar asosida bevosita tegishli chorva mollari va ish turlariga o'tkaziladi.

«**Em-xashak**» moddasida chorva mollarini boqish uchun sarflangan em-xashaklar hisobga olinadi.

«**Dori-darmonlar**» moddasida chorva mollarini parvarishlashda sarflangan dori-darmon preparatlari xarajatlari hisobga olinadi.

«**Tushash matyeriallari**» moddasida chorva mollari saqlanayotgan joylarda mollar tagiga to'shaladigan matyerial xarajatlari kiritiladi.

«**Ish va xizmatlar**» moddasida chorvachilik fyermalariga boshqa korxona va tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan ishlab chiqarish xaraktyeridagi xizmatlarga haq to'lash xarajatlari aks ettiriladi.

«**Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari**» moddasida bevosita ishlab chiqarishda foydalaniladigan asosiy vositalarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog'lik xarajatlar

kiritiladi. Ularga bu asosiy vositalarga xizmat ko'rsatish va ulardan foydalanish xarajatlari, amortizasiysi ajratmalari va tuzatish xarajatlari kiritiladi.

Asosiy vositalarni saqlash va ulardan foydalanish xarajatlariga asosiy vositalarga xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning mehnat haqlari, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, yoqilg'i va moylash matyeriallari, yordamchi ishlab chiqarish, shuningdek chet tashkilotlar xizmatlari va boshqa xarajatlari kiritiladi.

Tuzatish xarajatlariga eng avvalo o'zining ta'mirlash ustaxonalarining xarajatlari kiritiladi.

Amortizasiya xarajatlarini asosiy vositalar bo'yicha amortizasiya ajratmalari tashkil Qiladi. Amortizasiya ajratmalari har oyda alohida «chorvachilikda ishlataladigan asosiy vositalar bo'yicha taqsimlangan amortizasiya analitik schyotida qayd etib boriladi. Yil oxirida asosiy vositalarni eskirish summasi chorva mollari guruhlari va ish turlari bo'yicha taqsimlanadi va bu maxsus qaydnoma orqali rasmiylashtiriladi. «Yordamchi ishlab chiqarishlar» schyotida hisobga olingan joriy tuzatish xarajatlari amortizasiya summasiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

**«Ishlab chiqarish va boshqaruvni tashkil etish xarajatlari»** moddasida chorvachilikka doir umumishlab chiqarish xarajatlari aks ettiriladi.

**«Sug'urta to'lovlar»** moddasida chorvalarini sug'urta qilish xarajatlari hisobga olinadi.

**«Boshqa xarajatlar»** moddasida chorvachilik ishlab chiqarishga bevosita daxldor, ammo yuqorida ko'rib chiqilgan moddalarga kiritilmagan xarajatlar aks ettiriladi.

## **9.6. Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot kirimining dastlabki hisobi**

Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarining dastlabki hisobi ularning alohida moddalari bo'yicha guvohlik beruvchi boshlang'ich hujjatlar asosida yuritiladi. Chunki:

- **mehnat xarajatlari** - chorva mollarini parvarishlash, boqish, sovish va boshqa ishlarni bevosita olib boruvchi ishchilar (cho'ponlar, sut sog'uvchilar, jun qirqivchilar va boshqalar) tomonidan bajarilgan ishlarga guvohlik beruvchi naryad, tabel, sut sog'ish hisobi jurnali, hisob-to'lov qaydnomalari asosida hisobga olinadi;

- **ijtimoiy sug'urtaga majburiy ajratmalar** maxsus hisob-kitob asosida hisobga olinadi;

- **em-xashak xarajatlari** «YEm-xashak sarflash qaydnomasi» (94-shakl) asosida hisob-kitob qilinadi;

- **dori-darmonlar, tushash matyeriallarining sarfi** maxsus dalolatnomalar asosida hisobga olinadi;

- **boshqa turdag'i ishlab chiqarish xarajatlari** tegishli hujjatlar asosida hisobga olinadi.

Chorvachilik tarmog'ida etishtiriladigan mahsulotlar turli tumandir. Ularning asosiyлари bo'lib go'sht, sut, jun, tuxum, go'ng, nasl hisoblanadi. Aynan ushbu chorvachilik mahsulotlari va ularni eg'ishtirishga doir ishlar xarajatlar ob'ekti, mos ravishda, kalkulyasiya ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Chorvachilik mahsulotlari kirimi quyidagi hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi:

1. Sut sogish hisobi jurnali (112-shakl) va sut harakati qaydnomasi (114- shakl) - ushbu hujjatlar asosida sigirlarni sog'ishdan olingan sutning kunlik hisobi fyerma mudirlari tomonidan yuritiladi.

2. Mollarni so'yish qaydnomasi (100-shakl) va nakladnoylar - mollarni so'yishda Komissiya tomonidan tuziladi.

3. Junni qirqish va kirimi dalolatnomasi (116-shakl) - jun qirqish paytida komissiya tomonidan tuziladi.

4. Qishlok xo'jalik mahsulotlari kirimi kundaligi (81-shakl) - asal, pilla, baliq va boshqa mahsulotlar bo'yicha yuritiladi.

5. Tuxumlarni qabul qilish va saralash dalolatnomasi (109-shakl).

6. Tug'ilgan mollarni qabul qilish dalolatnomasi (95-shakl).

7. Mollar vaznini tortish qaydnomasi (98-shakl).

8.Tirik vaznning o'sishini aniqdash hisob-kitobi (98 a-shakl).

### **9.7. Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik va analitik hisobi**

Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik hisobi 2020 «Asosiy ishlab chiqarish schyotlari» tizimida olib boriladi. Ushbu schyotlar tizimida chorvachilik sohalariga qarab turli schyotlarni ishchi schyotlar rejasida ochish mumkin, masalan: 2021 «Qoramolchilik»; 2022 «Qo'yichilik»; 2023 «Parrandachilik» va boshqalar.

Ishlab chiqarish xarajatlarining analitik hisobi chorvachilik sohalarining yo'nalishlariga qarab yuritiladi. Masalan, 2023 «Parrandachilik» schyoti bo'yicha quyidagi analitik schyotlarni ochish mumkin: tuxum; go'sht va boshqalar.

Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari schyotlarining (2021, 2022, 2023) debetida haqiqatda qilingan xarajatlar aks ettiriladi. Bunda, mos ravishda xarajatlarning moddalariga ko'ra quyidigi yozuvlar qilinadi:

**Debet** 2021,2022,2023      **Kredit** 1010-1090 - matyerial xarajatlariga;

**Debet** 2021,2022,2023      **Kredit** 1110-o'stirishda va boquvdagi o'lgan mollarning qiymatiga;

**Debet** 2021,2022,2023      **Kredit** 6710 - mehnat haqi xarajatlariga;

**Debet** 2021,2022,2023      **Kredit** 6520 - ijtimoiy sug'urta xarajatlariga;

**Debet** 2021,2022,2023      **Kredit** 6510 - Mollarni sug'ortalash xarajatlariga;

**Debet** 2021,2022,2023      **Kredit** 6010,6990 - ish, xizmat xarajatlariga;

**Debet** 2021,2022,2023      **Kredit** 2310 - yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarini hisobdan chiqarilishiga;

**Debet** 2021,2022,2023      **Kredit** 2510 - umumishlab chiqarish xarajatlarining hisobdan chiqarilishiga.

Ishlab chiqarish xarajatlari schyotlarining kreditida hisobot yili davomida olingen mahsulotlar reja tannarxi bo'yicha aks ettiriladi, ya'ni unga quyidagicha yozuv qilinadi:

**Debet** 2810      **Kredit** 2021,2022,2023. :

Hisobot yili oxirida chorvachilik ishlab chiqarishining har bir sohasi bo'yicha etishtirilgan mahsulotlarning reja tannarxi va haqiqiy tannarxi o'rtaisdagi farq summalarini hisob-kitob qilinadi.

Reja tannarx va haqiqiy tannarx o'rtaisdagi farq summasi barcha mahsulotlar bo'yicha quyidagicha topiladi:

$$Tf = (Tx - Tr) \times Ms$$

**Tf** - bir birlik mahsulot reja va haqiqiy tannarxlari o'rtaisdagi farq summasi;

**Tx** - bir birlik mahsulotning haqiqiy tannarxi;

**Tr** - bir birlik mahsulotning reja tannarxi;

**Ms** - etishtiridgai maxsulstning miqdori.

Reja tannarx va, haqiqiy tannarx o'rtaisdagi farq summasi mos ravishda ishlab chiqarish xarajatlari schyotlarida «qizil yozuv» yoki «Qo'shimcha yozuv»; usullari bo'yicha aks ettiriladi. Bunda reja tannarxi haqiqiy tannarxdan yuqori bo'lgan hollarda «qizil yozuv» usuli, reja tannarxi haqiqiy tannarxdan past bo'lganda esa «qo'shimcha yozuv» usulidan foydalilanadi.

Qizil yozuvlar yoki, qo'shimcha, yozuvlarni qaysi korrespondensiyalanadigan schyotlarga berilganishini aniqlada olingen mahsulotlarning to'liq sotib yuborilganligi, ishlatalganligi hamda omborda tayyor mahsulot sifatida saqlanayotganligi e'tiborga olinishi kerak. Chunonchi, olingen naslning reja tannarxi va haqiqiy tannarxi o'rtaisdagi, farq, summalarini bevosita 1110-«O'stirishdagi va boquvdagi mollar» schyotiga, to'liq sotib yuborilgan mahsulotlar bo'yicha reja tannarx va haqiqiy tannarx o'rtaisdagi farq summalarini bevosita 9130 «Sotish tannarxi» schyotiga qisman sotilgan mahsulotlar bo'yicha ushbu farq ularning sotilgan va omborda saqlanayotgan qismlarini aks ettiruvchi schyotlar o'rtaida taqsimlanishi lozim.

Buxgaltyeriya hisobining kombinasiyalashgan shaklida chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlari hisobi quyidagi maxsus reestrlarda yuritiladi.

-«Hisobot davri xarajat (sarflarini hisobga olish «qaydmomasi»da yuritiladi;

-«Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatdari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasi».

### **9.8. Chorvachilik mahsulotlari tannarxini aniqlash usullari**

chorvachilikdan olingan mahsulotlar asosiy va yordamchi mahsulotlarga bo'linadi.

**chorvachilik tarmog'ida asosiy mahsulot** deganda .chorvachilikning ixtisoslashgan sohasini yuritishda olinishi bosh maqsad qilib olingan mahsulot turi tushuniladi. Chunonchi, qoramolchilikda bosh mahsulot bo'lib go'sht, sut, nasl (buzoq), o'sgan vazn hisoblanadi. Parrandachilikda tuxum va parranda go'shti bosh mahsulot hisoblanadi. Qo'ychilikda bosh mahsulot bo'lib olingan qo'zi va jun hisoblanadi.

**Chorvachilik sohasida yordamchi mahsulot deganda** asosiy mahsulot bilan bir vaqtda olinadigan, ammo xususiyatiga ko'ra ikkinchi darajali mahsulot tushuniladi, masalan go'ng, pat, qil, tyeri va boshqalar.

Chorvachilikda uning har sohasi, bu sohalarning alohida yo'nalishlarida kalkulyasiya ob'ekti bo'lib turli mahsulotlar hisoblanadi. Quyida chorvachilikning ayrim sohalari va yo'nalishlarida mahsulot tannarxini aniqlash usullari va tartibiga to'xtalamiz.

**Sut yo'nalishidagi yirik shoxli qoramolchilik.** Sut yo'nalishidagi yirik shoxli qoramolchilik sohasida kalkulyasiya ob'ekti bo'lib sut va nasl (buzoq) hisoblanadi. Bu sohada tannarxni kalkulyasiya qilish birligi bo'lib 1 sentnyer sut hamda bir bosh nasl (buzoq) hisoblanadi. Ushbu mahsulotlarning tannarxini ikkita usulda aniqlash mumkin:

**1-usul** - shartli mahsulot tannarxi orqali hisoblash usuli.

**2-usul** — har bir mahsulot tannarxini individual hisoblash usuli.

1-usul sobiq sovet davrida eng keng tarkalgan usul edi. Unga muvofiq sut yo'nalishidagi qoramolchilikda sut asosiy mahsulot, nasl (buzoq) esa sutga tenglashtiriladigan shartli mahsulot, deb qaralar edi. Olingan nasl (buzoq) 1,5 koeffisientda shartli mahsulotga, ya'ni sutga tenglashtirilar edi, 1 sentnyer sut va 1 bosh naslning tannarxini aniqlash uchun ushbu usulda dastlab sut yo'nalishidagi qoramolchilikka sarflangan jami haqiqiy xarajatlardan olingan yordamchi mahsulotlar (go'ng va boshqalar)ning qiymati chegirib tashlanadi. Shundan sung, topilgan haqiqiy xarajatlar sutga aylantirilib olingan mahsulotning shartli birligidagi miqdoriga bo'linadi va shu yo'l bilan 1 sentnyer sutning tannarxi topiladi. 1 sentnyer sutning tannarxiga asoslangan holda keyin 1 bosh naslning qiymati baholanadi.

Sut yo'nalishidagi qoramolchilikda asosiy mahsulot bo'lgan sut va nasl (buzoq) tannarxining 1-usulga muvofiq hisob-kitob qilish tartibini quyidagi misolda ko'rib chiqaylik. **Misol.** Fermer xo'jaligining sut yo'nalishidagi asosiy podasini boqish va parvarishlash xarajati 32505 ming so'm. Yil mobaynida olingan mahsulotlar: sut 1200 s, buzoqlar - 40 bosh, go'ng 310 t va qil - 0,3 s. Bir tonna go'ngning reja tannarxi 4000 so'm, bir sentnyer qilning reja tannarxi 50000 so'm.

Yuqoridagi shartli ma'lumotlar asosida quyidagi hisob-kitoblarni qilamiz.

(1). Yordamchi mahsulotning jami reja tannarxi 1255 ming so'm ( $310 \times 4000 + 0,3 \times 50000$ ).

(2). Kalkulyasiya qilinadigan shartli mahsulot (sut)ning miqdori 1260 sentnyer ( $1200 + 40 \times 1,5$ ),

(3). Bir sentnyer sutning tannarxi 24,8 ming so'm [ $(32505 - 1255) / 1260$ ].

(4). Jami buzoqlarning tannarxi 1488 ming so'm ( $60 \times 24,8$ ).

(5) Bir bosh buzoqning tannarxi 37,2 ming so'm ( $1488 / 40$ ).

Sut yo'nalishidagi qoramolchilikdan olingan sut va buzoqning tannarxini aniqlashning 2-usuli hozirgi paytda respublikamizda keng qo'llanilmokda. Bu usulga muvofiq olingan sut va buzoq tannarxini aniqlash uchun dastlab sut yo'nalishidagi qoramolchilikka sarflangan jami haqiqiy xarajatlar (yordamchi mahsulotlar qiymati chegirilgan holda) aniqlanadi. Shundan so'ng jami haqiqiy xarajatlarning 10 foizi buzoq tannarxiga, qolgan 90 foizi sut tannarxiga

olib boriladi. Yuqorida keltirilgan misoldagi ma'lumotlar asosida ushbu usulga ko'ra sut va buzoq tannarxi quyidagicha hisob-kitob qilinadi:

(1) jami ishlab chiqarish xarajatlari - 32505,ming so'm;

(2) tannarxni hisoblashda chegirib tashlanadigan yordamchi mahsulotning qiymati 1255 ming so'm ( $310 * 4000 + 0,3 * 50000$ );

(3) tannarxni hisoblashga asos qilib olinadigan haqiqiy ishlab chiqarish xarajatlari 31250 ming so'm (32505 - 1255);

(4) sutning jami tannarxi 28125 ming so'm ( $31250 * 90\%$ );

(5) buzoqlarning jami tannarxi 3125 ming so'm  $31250 * 10\%$ );

(6) 1 s sutning tannarxi 23,4 ming so'm ( $28125 / 1200$ );

(7) 1 bosh buzoqning tannarxi 78,1 ming so'm ( $3125 / 40$ ).

Yirik shoxli qoramollar bolalari hamda boquvdagi mollarni kelgusida parvarish (o'stirish)ga sarflangan xarajatlarni hisob-kitob qilishda Kalkulyasiya ob'ekti bo'lib ularning o'sgan vazni va tirik vazni hisoblanadi.

Hisobot yilda mollarning o'sgan vaznnini ( $O'v$ ) ularning har bir hisob guruhi bo'yicha quyidagi arifmetik qurilma asosida topish mumkin:

$$O'v = (V_{do} + V_{ch}) - (V_n + V_s + V_{db})$$

Bu yerda:

**V<sub>do</sub>** - guruhga kiruvchi mollar boshining hisobot davri oxiridagi jami tirik vazni;

**V<sub>ch</sub>** - guruhga kiruvchi mollarning hisobot davrida chiqimga olingan boshining jami tirik vazni (o'lgan mollarning tirik vaznisiz);

**V<sub>n</sub>** - hisobot davrda olingan naslning (mol bolalarining) tirik vazni;

**V<sub>s</sub>** - hisobot davrda chetdan o'tirishga va boquvgaga kirim qilingan mollarning tirik vazni;

**V<sub>db</sub>** - hisobot davri boshiga jami mavjud mollarning tirik vazni.

Guruhga kiruvchi mollarning 1 sentnyer o'sgan vaznining tannarxi shu guruhga kiruvchi mollarni parvarishlash va o'stirishga qilingan ishlab chiqarish xarajatlaridan yordamchi mahsulotlar (go'ng va qil) qiymatini chegirib tashlagandan so'ng qolgan summani hisobot davrida guruh bo'yicha aniqlangan o'sgan vazn miqdoriga bo'lish orqali topiladi.

Guruhga kiruvchi mollar bo'yicha 1 sentnyer tirik vaznning tannarxi ( $Ttv$ ) quyidagi arifmetik qurilma yordamida aniqlanadi:

$$T_{bbq} + T_{b} + T_K + T_n$$

$$T_{tv} = \frac{T_{do} + T_{ch}}{T_{do} + T_{ch}}$$

Bu yerda:

**T<sub>bbq</sub>** - guruhga kiruvchi mollarning davr boshidagi balans qiymati;

**T<sub>b</sub>** - hisobot davrida guruhga kiruvchi mollarni o'stirish va parvarishlash xarajatlari (yordamchi mahsulotlar qiymatisiz)

**T<sub>K</sub>** - hisobot davrda chetdan kirim qilingan mollarning qiymati;

**T<sub>n</sub>** - joriy yilda olingan nasl (mol bolalari)ning qiymati;

**T<sub>do</sub>** - davr oxiriga guruhga kiruvchi mollarning jami tirik vazni;

**T<sub>ch</sub>** - hisobot davrida chiqimga olingan mollarning jami tirik vazni (o'lgan mollarning tirik vaznisiz).

(Guruhga kiruvchi mollarning tirik vazni ularning har birini torozida tortish yo'li bilan aniqlanadi va maxsus dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.)

O'stirishdagi va boquvdagi mollar bo'yicha 1 s o'sgan vazn va 1 s tirik vazni tannarxini yuqorida keltirilgan arifmetik qurilma asosida kalkulyasiya qilish tartibi 9.6-jadvalda keltirilgan.

**O'stirishdagi va boquvdagi mollar bo'yicha 1 s o'sgan vazn va 1 s tirik vazn  
tannarxi Kalkulyasiyasi**

ko'rsatkichlar	Qoramollar soni	Tirik vazn, s	Tannarx, ming so'm
<b>1. Yil boshiga qoldiq</b>	<b>45</b>	<b>45</b>	<b>26400,0</b>
<b>2. Hisobot yilda olindi:</b>	<b>46</b>	<b>20</b>	<b>11878,0</b>
* nasl	40	5	1488,0
* o'sgan vazn	-	15	7790,0
* chetdan olindi	6	4	2600,0
<b>3. Jami (1+2)</b>	<b>91</b>	<b>65</b>	<b>38278,0</b>
<b>4. Chiqim:</b>	<b>16</b>	<b>24,3</b>	<b>14134,0</b>
* asosiy podaga o'tkazildi	10	15	8834,0
* sotildi va boshqa chiqimlar	5	9	5300,0
* o'ldi	1	0,3	-
<b>5. Yil oxirga qoldiq (3-4)</b>	<b>75</b>	<b>40,7</b>	<b>24144,0</b>
<b>5. Tannarx:</b>			-
* 1 s tirik vazn (3t/3tv)			588,90
* 1 s o'sgan vazn (2o'vet/2o've)			519,30

9.6-jadvaldan ko'rinish turibdiki, 1 sentnyer tirik vaznning tannarxi 588,9 ming so'mni (38278,0 / 65), 1 s o'sgan vaznning tannarxi 519,3 ming so'mni (7790,0 / 15) tashkil etgan. Guruhga kiruvchi mollar chiqimining qiymati, mos ravishda, (1) asosiy podaga o'tkazilgan yosh mollar bo'yicha 8834,0 ming so'mni (15\*588,90), (2) sotilgan va mollar bo'yicha 5300,0 ming so'mni (9\*588,9) tashkil etgan.

**Go'sht yo'nalishidagi yirik shoxli qoramolchilik.** Go'sht yo'nalishidagi yirik shoxli qoramolchilik sohasida kalkulyasiya ob'ekti bo'lib o'sgan vazn, 8 oygacha bo'lган buzoqlar va tirik vazn, shuningdek 8 oydan oshgan yosh mollar hamda boquvdagi yirik mollar bo'yicha ularning o'sgan vazni va tirik vazni aniqlanadi.

**8 oygacha o'lgan buzoqlar bo'yicha 1 s o'sgan vaznning tannarxi** quyidagi ketma-ketlikda va tartibda aniqlanadi.

(1). Asosiy poda (sigirlar va xo'kizlar), 2 yoshdan oshgan buqa va boquvdagi mollarni boqish va parvarishlashga, shuningdek 8 oygacha bo'lган buzoqlarni parvarishlashga ketgan jami xarajatlar (yordamchi mahsulot qiymati chegirilgan holda) topiladi.

(2). 8 oygacha bo'lган buzoqlarning hisobot davrida o'sgan vazni topiladi.

(3). Yuqoridagi tartibning 1-bandida topilgan jami summa 8 oygacha bo'lган buzoqlarning o'sgan vazniga bo'linadi. Shu yo'l bilan topilgan summa 8 oygacha bo'lган buzoqlar bo'yicha 1 s o'sgan vazning tannarxini tashkil etadi.

**8 oygacha bo'lган buzoqlar bo'yicha 1 s tirik vaznning tannarxini** aniqlash uchun dastlab asosiy podaga ketgan sarf-xarajatlarga (yordamchi mahsulot qiymati chegirilgan xolda) ushbu guruhga kiruvchi buzoqlarning hisobot yili boshidagi balans qiymati hamda chetdan olingan buzoqlarning qiymati qo'shilib ularning jami qiymati topiladi. Topilgan summani yil oxiridagi 8 oygacha bo'lган buzoqlar hamda hisobot yilida chiqim bo'lган (o'lganlardan tashqari) buzoqlarning jami vazniga bo'lish orqali 1 s tirik vaznning o'rtacha tannarxi aniqlanadi. Ushbu o'rtacha tannarx jami 8 oygacha bo'lган buzoqlarning jami qiymatini, shuningdek emizikli buzoqlarning hisobot yili oxiridagi qiymatini aniqlashga asos bo'ladi.

8 oydan oshgan yosh mollar hamda boquvdagi yirik mollar bo'yicha ularning o'sgan vazni va tirik vaznining tannarxi ham yuqoridagi tartibga o'xshash tarzda aniqlanadi.

**Qo'ychilik.** Qo'ychilikda Kalkulyasiya ob'ekt bo'lib asosan o'sgan vazn (go'sht), tirik vazn, qo'zi, jun hisoblanadi. Asosiy mahsulotning tannarxi sohaga qilingan jami ishlab chiqarish xarajatlaridan yordamchi mahsulotlar (go'ng, o'lik tug'ilgan va tug'ilgandan keyin

o'lgan qo'zilar tyerisi, texnik maqsadlarda ishlatilgan o'lgan mol go'shti) qiymatini ayirgandan keyin qolgan summadan iborat bo'ladi. Ushbu summa olingan mahsulotlar o'rtasida ularning sotish bahosi qiymatidagi hissasiga qarab taqsimlanadi.

**Misol:** Go'sht, jun qo'zi yo'nalishiga ixtisoslashgan fermer xo'jaligining jami xarajatlari 285500 ming so'm. Olingan mahsulotlar: (1) o'sgan vazn (go'sht) 400 s; jun 100 s; olingan qo'zilar soni 500 bosh. Sotish hajmi (sotish baholarida): go'sht - 30000 ming so'm; jun - 20000 ming so'm; qo'zi - 3750 ming so'm.

Yuqoridagi - misolda keltirilgan shartli ma'lumotlarga asosan qo'ychilikdan olingan mahsulotlar tannarxining hisob-kitobi 9.7-jadvalda keltirilgan.

9.7-jadvaldan ko'rinish turibdiki, o'sgan vazn (go'sht)ning jami tannarxi 264658 ming so'mni (285500\*92,7%), 1 sentnyer go'shtning tannarxi 661,6 ming so'mni (264658/400), jun etishtirishga sarflangan jami xarajatlar 17701 ming so'mni (285500\*6,2%), 1 sentnyer junning tannarxi esa 177 ming so'mni (17701/100), qo'zi etishtirishning jami tannarxi 3141 ming so'mni (28550\*1,1%), olingan 1 bosh qo'zining tannarxi 6,28 ming so'mni (3141 /500) tashkil etgan.

9.7-jadval

#### Quychilik sohasida mahsulot tannarxini aniqlash hisob-kitobi

Mahsulot turi	O'lchov bir-ligi	Mahsulot soni	Mahsulotlarni sotish baxolaridagi qiymati, ming so'm	Mahsulotning sotish xajmidagi xissasi, %	Ishlab chiqarish xarajatlari, ming so'm	Bir birlik mahsulot tannar-xi, ming so'm
Go'sht	s	400	300000	92,7	264658	661,6
Jun	s	100	20000	6,2	17701	177,0
Qo'zi	bosh	500	3750	1,1	3141	6,28
<b>Jami:</b>	-	-	<b>323750</b>	<b>100,0</b>	<b>285500</b>	-

**Parrandachilik.** Parrandachilikda ishlab chiqarishning turli yo'nalishlari hamda bosqichlariga qarab turlicha asosiy mahsulotlar olinadi. Chunonchi, tuxum yo'nalishidagi parrandachilik ishlab chiqarishining birinchi bosqichida 1 kunlik jo'ja, ikkinchi bosqichida boquvdagi jo'jalarning o'sgan vazni, keyingi bosqichida esa olingan tuxum asosiy mahsulot hisoblanadi. Mos ravishda, ushbu mahsulotlar tannarxi kalkulyasiya qilinadi.

1 kunlik jo'jalarning tannarxi inkubasiyaga qo'yilgan tuxumlar qiymati hamda inKubasiya xarajatlari (mehnat haqi, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, elektr enyergiyasi, isitish va boshqa turdag'i xarajatlar) birgapikda olingan summadan yordamchi mahsulot qiymatini chegirib tashlagandan so'ng qolgan summani olingan 1 kunlik jo'jalar soniga bo'lish orqali topiladi. Misol uchun, fermer xo'jaligi 21 kundan iborat inkubasion davrga qo'yilgan 50000 dona tuxumdan 49500 dona 1 kunlik jo'ja olgan, inKubasion sexning jami 1 xarajatlari jami 20500 ming so'mdan iborat bo'lgan deylik. U holda 1 dona bir kunlik jo'janing tannarxi o'rtacha 414 so'mni (20500/49500) tashkil qiladi.

Bir kunlik jo'jalar kirim qilingan kundan boshlab, to 4-5 oygacha o'stirishdagi va boquvdagi mollar guruhiga kiritiladi. Ushbu davrda kalkulyasiya ob'ekta bo'lib o'sgan vazn hisoblanadi. O'sgan vaznning tannarxini topish uchun o'stirishdagi va boquvdagi tovuqlarga sarflangan xarajatlar (yordamchi mahsulotlar qiymati chegirilgan holda) summasi hisobot davrida o'stirishdagi va boquvdagi tovuqlarning o'sgan vazni miqdoriga bo'linadi.

O'stirishdagi va boquvdagi tovuqlarning tuxum beruvchi tovuqlar guruhiga o'tkazilgan kundan boshlab kalkulyasiya ob'ekti bo'lib tuxum hisoblanadi. Bir birlit tuxum tannarxini topish uchun tuxum beruvchi tovuqlar guruhiga sarflangan jami ishlab chiqarish xarajatlari (go'ng, pat, qanot qiymati chegirilgan holda) jami yig'ishtirib olingan tuxumlar soniga bo'linadi.

**Asalarichilik.** Asal yo'naliqidagi asalarichilikda kalkulyasiya ob'ekti bo'lib asal, asalari uyasi, asalari suti, yangi oila kabi asosiy va yondosh mahsulotlar hisoblanadi. Ushbu mahsulotlar tannarxini kalkulyasiya qilishda ularning barchasi belgilangan koeffisientlarda shartli mahsulotga (asalga) o'tkaziladi. Shundan so'ng barcha turdag'i shartli mahsulotlarning jami shartli mahsulotdagi hissasi topiladi, Ushbu hissa asosida asalarichilikka sarflangan jami xarajatlar mahsulotlar o'rtasida taqsimlab chiqiladi. Har bir turdag'i shartli mahsulot bo'yicha topilgan xarajat shu turdag'i mahsulotning olingan miqdoriga bo'linib bir birlik mahsulotning tannarxi topiladi.

**Baliqchilik.** Baliqchilikda kalkulyasiya ob'ekti bo'lib baliq va baliq bolalari hisoblanadi. Ushbu mahsulotlar tannarxini kalkulyasiya qilishda ularning barchasi belgilangan koeffisientlarda shartli mahsulotga (baliqKa) o'tkaziladi. Shundan so'ng barcha turdag'i shartli mahsulotlarning jami shartli mahsulotdagi hissasi topiladi. Ushbu hissa asosida baliqchilikka sarflangan jami xarajatlar mahsulotlar o'rtasida taqsimlab chiqiladi. Har bir turdag'i shartli mahsulot bo'yicha topilgan xarajat shu turdag'i mahsulotning olingan miqdoriga bo'linib, bir birlik mahsulotning tannarxi topiladi. Baliq bolalariga to'g'ri keladigan xarajatlar baliqchilik sohasi uchun tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari sifatida kelgusi hisobot davriga o'tkaziladi.

### O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN TEST SAVOL-JAVOBLARI

#### 1. Dehqonchilikda xarajatlar ob'ekti bo'lib hisoblanmaydi:

- |                   |                    |
|-------------------|--------------------|
| a) Bog'dorchilik; | b) Polizchilik ;   |
| v) quychilik ;    | g) sabzavotchilik. |

#### 2. "Yangi asr" fermer xo'jaligida 2011 yilda paxta va don etishtirishga quyidagi xarajatlar qilingan:

Xarajat moddalari	Summasi
Ish haqi xarajatlari: -paxtaga -donga	6000000 2000000
Ish haqidan ijtimoiy sug'urtaga ajratma: -paxtaga -donga	1440000 480000
Urug'lik: -paxtaga -donga	1200000 560000
O'g'itlar: -paxtaga -donga	3800000 1500000
Yoqilg'i moylash matyeriallari: -paxtaga -donga	2500000 680000
Sug'urta to'lovlari: -paxtaga -donga	500000 100000
Ish va xizmatlar: -paxtaga -donga	800000 200000
Yordamchi va umumishlab chiqarish xarajatlari: -paxtaga -donga	1100000 700000

#### Qo'shimcha ma'lumotlar:

1.20\_\_ yilda olingan yalpi hosil:

-paxta bo'yicha 600 s, 1s. reja tannarxi 30 000 so'm;

-don bo'yicha: don 260 s., 1 s. reja tannarxi 20 000 so'm, don chiqiti 20 s. (don chiqish foizi -50 %), 1 s. reja tannarxi 10 000 so'm, somon 50 s., 1 s reja tannarxi 4000 so'm.

2.O'rtacha 1 s. mahsulotning sotish bahosi: paxta 50 000 so'm, don 34 000 so'm, don chiqiti 17 000 so'm;

3.Donli ekinlar bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarish yil boshiga 3000 000 so'm, yil oxiriga 2900 000 so'm.

4.Olingan paxta,don va don chiqiti to'liq sotilgan, somon esa, to'liq chorvaga berilgangan.

**Olingan paxtaning reja tannarxi summasini toping va unga buxgaltyeriya yozuvini byering.**

- a) Dt 2810 Kt 2010 18000 000;      b) Dt 2810 Kt 2010 17340 000;  
v) Dt 9110 Kt 2010 18000 000;      g) Dt 9110 Kt 2010 17340 000;

**3. 2-test ma'lumotlari asosida paxtaning haqiqiy va reja tannarxi o'rtasidagi farq summasini aniqlang va unga buxgaltyeriya yozuvini byering:**

- a) Dt 2810 Kt 2010 420 000-qizil yozuv;  
b) Dt 2810 Kt 2010 660 000- qo'shimcha yozuv;  
v) Dt 9110 Kt 2010 660 000-qizil yozuv;  
g) Dt 9110 Kt 2010 420 000-qo'shimcha yozuv;

**4. 2-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida somonning reja tannarxi buxgaltyeriya yozuvini byering:**

- a) Dt 1110 Kt 2010 200 000;      b) Dt 2090 Kt 2010 200 000;  
v) Dt 2810 Kt 2010 300 000;      g) Dt 9110 Kt 2010 200 000;

**5. 2-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida 1 s donning haqiqiy tannarxini toping:**

- a) 22666,67 so'm;      b) 24333,33 so'm;  
v) 20000,0 so'm;      g) 20866,67 so'm;

**6. 2-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida 1 s don chiqitining haqiqiy tannarxini toping:**

- a) 11333,33 so'm;      b) 12166,67 so'm;  
v) 10000,0 so'm;      g) 10433,34 so'm;

**7. 2-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida olingan donning reja va haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq summasini toping va unga buxgaltyeriya yozuvini byering:**

- a) Dt 9010 Kt 2010 693334,2 so'm - qo'shimcha yozuv;  
b) Dt 2810 Kt 2010 1126665,8 so'm- qizil yozuv;  
v) Dt 2090 Kt 2010 1126665,8 so'm -qizil yozuv;  
g) Dt 9110 Kt 2010 693334,2 so'm -qo'shimcha yozuv;

**8. 2-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida olingan don chiqiti reja va haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq summasini toping va unga buxgaltyeriya yozuvini byering:**

- a) Dt 9010 Kt 2010 26666,6 so'm - qo'shimcha yozuv;  
b) Dt 2810 Kt 2010 43333,4 so'm- qizil yozuv;  
v) Dt 2090 Kt 2010 43333,4 so'm -qizil yozuv;  
g) Dt 9110 Kt 2010 26666,6 so'm -qo'shimcha yozuv;

**9. Qishloq xo'jalik mahsulotlari hisobot yili mobaynida qaysi bahosiga ko'ra kirim qilinadi?**

- a) Sotish baholarida;      b) Haqiqiy tannarxida;  
v) Reja tannarxida;      g) O'rtacha baholarda.

**10. Chorvachilik tarmog'iga quyidagilarning qaysilarini kiradi:**

- a) qoramolchilik;      b) chuchqachilik;  
v) asalarichilik;      g) hammasi.

**11. Chorvachilik tarmog'iga quyidagilarning qaysi biri kirmaydi:**

- a) quychilik;      b) parandachilik;  
v) yilqichilik;      g) to'g'ri javob yo'q.

**12. Chorvachilik xarajatlari ob'ektlariga kiradi:**

- a) boquvdagi mollar;                            b) parandalar;  
v) asal;    g) hammasi.

**13. 2021 "Qoramolchilik" schyoti bo'yicha haqiqiy xarajatlar 10000000 so'm. O'sgan vazn 98 sentnyer, 1 s reja tannarxi - 105000 so'm, olingan go'ng - 1500 tonna (dehqonchilik tarmog'iga ishlatalgan), 1 tonna go'ngning reja tannarxi-2000 so'm.**

**O'sgan vazn reja tannarxini toping va unga buxgaltyeriya yozushi byering:**

- a)  $98 \cdot 100000 = 9800000$  (Dt 1110 Kt 2011)  
b)  $98 \cdot 105000 = 10290000$  (Dt 1110 Kt 2011)  
v)  $98 \cdot 105000 = 10290000$  (Dt 2810 Kt 2011)  
g)  $98 \cdot 105000 = 10290000$  (Dt 2010 Kt 2011)

**14. 13-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida olingan go'ngga buxgaltyeriya yozuvini byering.**

- a)  $1500 \cdot 2000 = 3000000$  (Dt 2010 Kt 2021)  
b)  $1500 \cdot 2000 = 3000000$  (Dt 2011 Kt 2820)  
v)  $1500 \cdot 2000 = 3000000$  (Dt 2820 Kt 2021)  
g)  $1500 \cdot 2000 = 3000000$  (Dt 2010 Kt 2010)

**15. 13-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida 1s vaznning haqiqiy tannarxini aniqlang:**

- a)  $(10000 / 98) \cdot 1000 = 102041$  so'm  
b)  $((10000 - 3000) / 98) \cdot 1000 = 71429$  so'm  
v)  $((10000 + 3000) / 98) \cdot 1000 = 103653$  so'm  
g) to'g'ri javob yo'q

**O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR**

1. Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarining tasniflanishini tushuntirib byering?
2. Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibini xarajat moddalarini bo'yicha tavsiflanishini tushuntirib byering?
3. Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarini hujjatlashtirilishi va hisobda aks ettirilishini tushuntirib byering?
4. Dehqonchilik mahsulotlari kirimining dastlabki hujjatlashtirilishi va hisobda aks ettirilishini tushuntirib byering?
5. Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik va analitik hisobini tushuntiring?
6. Dehqonchilik mahsulotlari tannarxini aniqlash usullarini tushuntiring?
7. chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarining tasniflanishini tushuntiring?
8. chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarining xarajat moddalarini bo'yicha tarkibi va tavsiflanishini tushuntiring?
9. chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarini hujjatlashtirilishi va hisobda aks ettirilishini tushuntirib byering?
10. chorvachilik mahsulotlari kirimining dastlabki hujjatlashtirilishi va hisobda aks ettirilishini tushuntirib byering?
11. chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik va analitik hisobini tushuntiring?
12. chorvachilik mahsulotlari tannarxini aniqlash usullarini tushuntiring?

## **10-ma'ruza. QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA MOLIYAVIY NATIJA KO'RSATKICHLARI, SOLIQLAR VA MAJBURIY AJRATMALAR HISOBI**

**Ma'ruzaning asosiy maqsadi** talabalarga quyidagi tayanch iboralar va tushunchalar to'g'risidagi bilimlarni byerish hisoblanadi:

*Qishloq xo'jalik korxonalarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari, qishloq xo'jalik korxonalarini soliqqa tortish, soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar, soddalashtirilgan tartibda soliq to'lovchilar, yagona yer solig'i, umumbelgilangan soliqlar, davlat byudjeti va mahalliy byudjet soliqlari, majburiy ajratmalar, daromad, foyda, sof foyda. Moliyaviy hisobot, hisobot davri, hisobotni tuzish va taqdim etish, buxgaltyeriya balansini to'lg'azish, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotni to'lg'azish, pul oqimlari to'g'risida hisobotni to'lg'azish, xususiy kapital to'g'risida hisobotni to'lg'azish, debtorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risida ma'lumotnoma, moliyaviy hisobotga tushuntirish xati.*

### ***Ma'ruza rejasi:***

- 10.1. Qishloq xo'jalik korxonalarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari va ularning hisobi.**
- 10.2. Qishloq xo'jalik korxonalarini soliqqa tortish bo'yicha davlat siyosati va soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarning hisobi.**
- 10.3. Qishloq xo'jalik korxonalarida majburiy ajratmlar va to'lovlar-ning hisobi.**
- 10.4. Qishloq xo'jalik korxonalarida moliyaviy hisobotning turlari, tarkibi va uni taqdim etish muddatlari.**
- 10.5. Qishloq xo'jalik korxonalarida moliyaviy hisobot shakllarini to'lg'azish xususiyatlari.**

### **MAVZUNI CHUQUR O'RGANISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ME'YORIY- HUQUQIY HUJJATLAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Fermer xo'jaliklarida buxgaltyeriya hisobining soddalashtirilgan «tizimini tashkil etish to'g'risida Nizom. Moliya vazirligi va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 2008 yil 21 yanvardagi 1, 1z2-son qarori bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 26 martda 1781 -son bilan ro'yxatga olingan.
2. O'zbekiston: Respublikasi Soliq Kodeksi. -T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2008. " .;
3. «Mahsulot (ish, xizmatlarni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalari shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom». O'zR VMning 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.
4. BHMS № 1 «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot». O'z.R. AV tomonidan 1998 yil 14 avgustda ro'yxatga olingan, № 474
5. BHMS № 5 «Asosiy vositalar». O'z.R: AV tomonidan 1998 yil 23 avgustda ro'yxatga olingan, № 491
6. Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgaltyeriya hisobi xususiyatlari. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.
7. Sanaev N. S. Qishloq xo'jaligida buxgaltyeriya hisobi, nazorat va moliyalashtirishning dolzarb masalalari-Toshkent: «Mehnat», 1991.- 104 b.
8. Sanaev N. S. Fermer xo'jaliklarida buxgaltyeriya hisobinyang xususiyatlari. Toshkent: «Alishyer Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi», 2006.-145 b.
9. Do'stmurodov R, Masharipov O. Fermer xo'jaligida buxgaltyerya hisobi va hisobotini tashkil etish.O'quv qo'llanma-Toshkent, 2007.- 94 b.
10. Urazov K.B. Buxgaltyeriya hisobi va audit.Oliy o`quv yurtlari uchun.-T.: “O`qituvchi” 2004.

## **10.1. Qishloq xo'jalik korxonalarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari va ularning hisobi**

**Sotishdan olingan daromadning hisobi.** Qishloq xo'jalik korxonalarida etishtirilgan mahsulotlar turli yo'llar bilan sotiladi. Chunonchi, paxta to'liq davlat buyurtmasi asosida davlatga tasdiqlangan sotish baholarida sotiladi. Etishtirilgan g'allaning 50 foizi davlatga tasdiqlangan sotish baholarida, qolgan qismi esa yerkin kelishuv baholarida boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga souiladi. Davlat buyurtmasi ro'yxatiga kirtilmagan barcha boshqa turdag'i qishloq xo'jalik mahsulotlari o'zga yuridik shaxslarga tuzilgan shartnomalar asosida kelishuv narxlarida, shuningdek bozorlarda aholiga bozor baholarida sotiladi. Bundan tashqari qishloq xo'jalik korxonalari etishtirgan mahsulotlarini o'z xodimlariga mehnat haqi uchun natural to'lov sifatida ham byerishlari, ularni boshqa yuridik shaxslarga ta'sis badali sifatida kiritishlari hamda bepul xayriya etishlari ham mumkin.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini davlat buyurtmasi, shuningdek o'zaro tuzilgan shartnomalar asosida sotish turli tayyorlov va qayta ishlovchi korxonalar, masalan, paxtani qabul qilish va qayta ishslash zavodlari, don mahsulotlari kombinatlari, jun zavodlari, yog'moy kombinatlari va boshqa shu kabi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Davlat 6uyurtmasini bajaruvchi tashkilotlar, shuningdek boshqa sotib oluvchi yuridik shaxslar qishloq xo'jalik korxonalariga shartnomada ko'rsatilgan dastlabki to'lovni amalga oshiradilar. Bunday to'lov larga qishloq xo'jalik korxonalarida quyidagicha buxgaltyeriya yozuvi qilinadi:

**Debet** 5110 -«Hisob-kitob » schyoti;

**Kredit** 6310- «Olingan bo'naklar» schyoti.

Tayyorlov va qayta ishlovchi korxonalarga qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish schyot-fakturalar va ularga ilova qilinadigan qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, tovar-transport naklodnoylari va boshqa hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu hujjatlar asosida qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingan daromadga quyidagicha buxgaltyeriya hisobi berilganadi:

**Debet** 4010 -«Xaridorlardan olinadigan schyotlar»

**Kredit** 9010- «Mahsulot sotishdan olingan daromadlar».

Shundan so'ng, dastlab, *xaridorlardan olingan bo'naklar summasi yopiladi va unga quyidagi yozuv berilganadi:*

**Debet** 6310 -«Olingan bo'naklar».

**Kredit** 4010 -«Xaridorlardan olinadigan schyotlar»

*Xaridorlardan oxirgi hisob-kitoblar bo'yicha qarzlarning kelib tushishiga quyidagicha yozuv qilinadi:*

**Debet** 5110 -«Hisob-kitob schyoti»

**Kredit** 4010 -«Xaridorlardan olinadigan schyotlar»

Qishlok xo'jalik mahsulotlarini bozorlarda aholiga sotish, odatda, birikirilgan mas'ul moddiy javobgar shaxslar (masalan, ombor mudirlari) tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu moddiy javobgar shaxslar tomonidan bozorlarda aholiga qishloq xo'jalik mahsulotlarini naqd pulga sotishdan olingan daromad kassaga kirim qilinadi. Kassa kirim ordyeri asosida qishloq xo'jalik mahsulotlarini naqd sotishdan olingan daromad summasiga quyidagicha yozuv qilinadi:

**Debet** 5010-«Kassadagi pul mablag'lari» schyoti;

**Kredit** 9010-«Mahsulot sotishdan olingan daromadlar» schyoti.

*Qishloq xo'jalik mahsulotlarini o'z xodimlariga mehnat haqi uchun to'lash sotishdan olingan daromad hisoblanadi va unga quyidagicha yozuv qilinadi:*

**Debet** 6710 -«Mehnat haqi bo'yicha qarz» schyoti;

**Kredit** 9010- «Mahsulot sotishdan olingan daromadlar» schyoti.

*Qishloq xo'jalik mahsulotlarini boshqa yuridik shaxslarga ta'sis badali sifatida kiritilishiga ta'sis shartnomalari va schyot-fakturalar asosida quyidagi yozuv qilinadi:*

**Debet** 0600-«Moliyaviy investisiyalar» schyoti;

**Kredit** 9010 -«Mahsulot sotishdan olingen daromadlar» schyoti;

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini boshqa yuridik shaxslarga bepul xayriya sifatida berilganishiga tuzilgan shartnomalar hamda schyot-fakturalar asosida quyidagi yozuvlar qilinadi:

a) *bepul berilgangan mahsulotlar qiymatiga:*

**Debet** 4010- «Xaridorlardan olinadigan schyotlar» schyoti;

**Kredit** 9010- «Mahsulot sotishdan olingen daromadlar» schyoti.

b) *bepul berilgangan mahsulotlar bo'yicha qarzning hisobdan chiqarilishga:*

**Debet** 9430- «Boshqa operasjoni xarajatlari» schyoti;

**Kredit** 4010 -«Xaridorlardan olinadigan schyotlar» schyoti.

**Sotish tannarxining hisobi.** Qishloq xo'jalik korxonalarida sotilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari tannarxining hisobi 9110 -«Sotilgan mahsulotlar tannarxi» schyotida yuritiladi. Hisobot yili davomida ushbu schyotning debetida sotilgan mahsulotlar reja tannarxi bo'yicha quyidagi yozuv bilan aks etgiriladi:

**Debet** 9110 -«Sotilgan mahsulotlar tannarxi» schyoti;

**Kredit** 2810 -«Tayyor mahsulotlar» schyoti.

Hisobot yili oxirida barcha haqiqiy ishlab chiqarish xarajatlari aniqlangach, sotilgan hamda omborlarda sotilmasdan qolgan mahsulotlarning haqiqiy tannarxi aniqlanadi. Shuningdek, 9110 «Sotilgan mahsulotlar tannarxi» schyotining debetida aks ettirilgan sotilgan mahsulotlarning reja tannarxidagi qiymati qo'shimcha yozuv yoki «storno» usullari bo'yicha haqiqiy tannarxidagi qiymatiga etkaziladi. Bunda, chunonchi, reja tannarx haqiqiy tannarxdan katta bo'lsa, u holda «storno» yoki «qizil yozuv» usulida

**Debet** 9110- «Sotilgan mahsulotlar tannarxi» schyoti;

**Kredit** -2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti yozuvni berilganadi.

Reja tannarx haqiqiy tannarxdan kichik bo'lsa, u holda «qo'shimcha yozuv» usulida

**Debet** 9110- «Sotilgan mahsulotlar tannarxi» schyoti;

**Kredit** 2010- «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti yozuvni berilganadi.

**Davr xarajatlarining hisobi.** Qishloq xo'jalik korxonalarida boshqa yuridik shaxslardagi singari davr xarajatlari asosan uchta guruhga bo'linadi: (1) sotish xarajatlari; (2) ma'muriy-boshqaruv xarajatlari; (3) boshqa operasjoni xarajatlari. Davr xarajatlarining tarkibi va ularnyng hisobini yuritishda qishloq xo'jalik korxonalarini Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldag'i 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida nizom»ga va 21-son BXMS «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalyeriya hisobi schyotlar rejasiga va uni qo'llash bo'yicha yuriqnomaga amal qilishlari lozim.

**Sotish xarajatlariga** qishloq xo'jalik korxonalarida etishtirilgan mahsulotlarni sotish bilan bog'liq barcha turdag'i xarajatlari, chunonchi, qishloq xo'jalik mahsulotlari yarmarka va vistavkalarini tashkil etishga, ularni reklama qilishga, kontraktlarni tuzishga, omborxonalarini saqlashga, sotish bilan shug'ullanuvchi xodimlarga mehnat haqi va ijtimoiy to'lov larga sarflangan hamda shu kabi boshqa xarajatlari kiradi. Sotish xarajatlarining hisobi 9410 -«Sotish xarajatlari» schyotida olib boriladi. Bu schyotning debetida yuqorida keltirilgan barcha turdag'i xarajatlari to'planadi, bunda 0200, 1000, 6010, 6990, 6710, 6520 va boshqa aniq xarajatlarni ifodalovchi schyotlar kreditlanadi. Hisobot yili oxirida 9410 - «Sotish xarajatlari» schyoti yopiladi, ya'ni uning debetida to'plangan summaga Debet 9910- «Moliyaviy natija» schyoti; kredit 9410-«Sotish xarajatlari» schyoti yozuvni berilganadi.

**Ma'muriy-boshqaruv xarajatlariga** qishloq xo'jalik korxonalarini boshqaruv apparatini saqlashga doir xarajatlari, chunonchi, boshqaruv apparati hodimiga hisoblangan ish haqi, ijtimoiy to'lov, amortizasiya ajratmlari, xizmat safarlari, gazeta va jurnallarga obuna, kanselyariya tovarlari va boshqa shu kabi xarajatlari kiradi. Ma'muriy-boshqaruv xarajatlarining hisobi 9420 -«Boshqaruv xarajatlari» schyotida olib boriladi. Bu schyotning debetida yuqorida keltirilgan barcha turdag'i xarajatlari to'planadi, bunda 0200, 1000, 6010,

6970, 6990, 6710, 6520 va boshqa aniq xarajatlarni ifodalovchi schyotlar kreditlanadi. Hisobot yili oxirida 9420- «Boshqaruv xarajatlari» schyoti yopiladi, ya'ni uning debetida to'plangan summaga Debet 9910 -«Moliyaviy natija» schyoti; Kredit 9420 -«Boshqaruv xarajatlari» schyoti yozuvi berilganadi.

**Boshqa operasion xarajatlarga** qishloq xo'jalik korxonalarining turli xayriya sifatida berilgangan mulkini hisobdan chiqarilishi, to'langan penya va jarimalar, ko'rsatilgan moddiy yordamlar, bank xizmatlari uchun to'lovlar, auditorlik tekshiruvlari va turli konsalting xizmatlari uchun to'lovlar, sotish hajmiga nisbatan pensiya fondiga, maktab ta'limini rivojlantirish fondiga va avtoyl fondiga majburiy ajratmalar, sud xarajatlari, voz kechilgan debtorlik qarzları va shu kabi boshqa xarajatlar kiradi. Boshqa operasion xarajatlarining hisobi 9430 «Boshqa operasion xarajatlar» schyotida olib boriladi. Bu schyotning debetida yuqorida keltirilgan barcha turdag'i xarajatlar to'planadi, bunda 0200, 1000, 4010, 5010, 5110, 6010, 6970, 6990, 6710, 6520 va boshqa aniq xarajatlarni ifodalovchi schyotlar kreditlanadi. Hisobot yili oxirida 9430 -«Boshqa operasion xarajatlar» schyoti yopiladi, ya'ni uning debetida to'plangan summaga Debet 9910 -«Moliyaviy natija» schyoti; Kredit 9430 -«Boshqa operasion xarajatlar» schyoti yozuvi berilganadi.

**Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarning hisobi.** Qishlok xo'jaligi korxonalarida asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarga asosiy vositalar va boshqa aktivlar (nomoddiy aktivlar, qimmatli qog'ozlar, matyeriallar)ni sotishdan olingan foyda, joriy ijara dan olingan foyda, xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalardan tushumlar, voz kechilgan kreditorlik qarzlar, beg'araz olingan moliyaviy yordam, inventarizasiyada aniqlangan ortiqchalar va boshqa shu kabi qo'shimcha daromadlar kiradi. Ushbu turda Daromadlarning hisobi 9300 -«Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar» schyotlar tizimida ochilgan alohida schyotlarning kreditida olib boriladi. Bunda 1000, 4800, 5010, 5110, 6010, 6900, 9210, 9220 va boshqa aniq daromadlarni ifodalovchi schyotlar debetlanadi. Hisobot yili oxirida 9300 «Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar» schyoti yopiladi, ya'ni uning kreditida to'plangan summaga Debet- 9300 «Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar» schyoti; Kredit 9910 -«Moliyaviy natija» schyoti yozuvi berilganadi.

**Moliyaviy faoliyatga doir daromadlarning hisobi.** Qishlok xo'jaligi korxonalarida moliyaviy faoliyatga doir daromadlarga dividend va foiz ko'rinishidagi daromadlar, uzoq muddatli ijara dan olingan daromadlar, qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan olingan daromadlar, xorijiy valyutada ifodalangan balans moddalari bo'yicha ijobiy kurs farqlari (tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan qishloq xo'jalik korxonalarida) kiradi. Bu turdag'i, daromadlarning hisobi 9500 «Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar» schyotlar tizimida ochilgan alohida schyotlarning Kreditida olib boriladi. Bunda 4010, 4800, 5020, 5200 va boshqa aniq daromadlarni ifodalovchi schyotlar debetlanadi. Hisobot yili oxirida 9500 «Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar» schyoti yopiladi, ya'ni uning Kreditida to'plangan summaga Debet 9500 -«Moliyaviy faoliyat olingan daromadlar» Kredit 9910 -«Moliyaviy natija» yozuvi berilganadi.

**Moliyaviy faoliyatga doir xarajatlarning hisobi.** Qishlok xo'jaligi korxonalarida moliyaviy faoliyatga doir xarajatlarga olingan kredit va qarzlar uchun to'langan foizlar, uzoq muddatli ijara bo'yicha foiz to'lovlar, qimmatli qog'ozlarni chiqarishga doir xarajatlar, xorijiy valyutada ifodalangan balans moddalari bo'yicha salbiy kurs farqlari (tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan qishloq xo'jalik korxonalarida) kiradi. Bu turdag'i xarajatlarning hisobi 9600 «Moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar» schyotlar tizimida ochilgan alohida schyotlarning debetida olib boriladi. Bunda 5200, 6010, 6900 va boshqa aniq xarajatlarni ifodalovchi schyotlar kreditlanadi. Hisobot yili oxirida 9600 «Moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar» schyota yopiladi, ya'ni uning debetida to'plangan summaga Debet 9910 - «Moliyaviy natija» schyoti; Kredit - 9600 «Moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar» schyoti yozuvi berilganadi.

**Foyda ko'rsatkichlarii aniqlash va ularning hisobi.** Qishlok xo'jaligi korxonalarida boshqa yuridik shaxslar singari beshta foyda ko'rsatkichi aniqlanadi va ular «Moliyaviy

natijalar to'g'risida hisobotda» da aks ettiriladi. Respublikamizda amalda bo'lган «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida Nizom»ga muvofiq ushbu foyda ko'rsatkichlari quyidagicha aniqlanadi:

## **1. Sotishdan olingen foyda yoki zarar(Fs) yoki (Zs)**

$$Fs (Zs) = St - Ts, \text{ mos ravishda}$$

$$Fs = agar St > Ts, \quad Zs = agar SK Ts$$

Bu yerda:

**St**- qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingen sof tushum;

**Te** -qishloq xo'jalik mahsulotlarining sotish tannarxi.

## **2. Asosiy faoliyatdan olingen foyda yoki zarar (Faf) yoki (Zaf)**

$$Faf (Zaf) = Fs (Zs) - Dx + Bod$$

Bu yerda: **Dx** - davr xarajatlari;

**Bod** – asosiy faoliyatdan olingen boshqa operasion daromadlar.

## **3. Umumxo'jalik faoliyatidan olingen foyda yoki zararlar (Fux) yoki (Zux)**

$$Fux (Zux) = Faf (Zaf) + Fmf - Zmf$$

Bu yerda: **Fmf** - moliyaviy faoliyatdan olingen foyda;

**Zmf** - moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan zararlar.

## **4.Soliqqacha foyda yoki zararlar (Fst) yoki (Zst)**

$$Fst (Zst) = Fux (Zux) + Ff - Fz$$

Bu yerda:

**Fd** - favqulotdag'i foyda;

**Fz** - favqulotdag'i zararlar

## **5.Sof foyda yoki sof qoplanmagan zararlar (Sf) yoki (Sz)**

$$Sf (Sz) = Fst (Zst) - Ds$$

Bu yerda:

**Ds** - foydadan olinadigan soliqlar - foyda solig'i, infrastrukturani rivojlantirish solig'i, yagona soliq (boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi qishloq xo'jalik korxonalari uchun).

Yakuniy moliyaviy natijalarni ifodalovchi foyda (zarar) ko'rsatkichlarining yig'ma hisobi 9910 «Moliyaviy natija» schyotida yuritiladi. Ushbu schyotning kreditida barcha turdag'i daromadlar, kreditida esa sotish tannarxi, davriy xarajatlari, moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar, favqulotdag'i zararlar hamda foydaning ishlatalishi aks ettiriladi. Hisobot davri oxirida bu schyotning kredit va debet oborotlari summasini o'zaro taqqoslash asosida yakuniy moliyaviy natija aniqlanadi. Agar kredit oborot summasi debet oborot summasidan katta bo'lsa, bu hisobot davrida olingen sof foydani, agar kredit oborot summasi debet oborot summasidan kichik bo'lsa, bu hisobot davrida ko'rilgan jami zararni bildiradi. Hisobot davrida olingen sof foydaning yopilishiga quyidagi buxgaltyeriya yozuvi berilganadi:

**Debet** 9910 -«Moliyaviy natija» schyoti;

**Kredit** 8710- «Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi (zarari)» schyoti.

Hisobot davrida ko'rilgan jami zararning yopilishiga quyidagi buxgaltyeriya yozuvi berilganadi:

**Debet** 8710 -«Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi (zarari)» schyoti;

**Kredit** 9910-«Moliyaviy natija» schyoti;

Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi qishloq xo'jalik korxonasi paychilari yig'ilishi qaroriga asosan ular o'ttasida taqsimlanishi, shuningdek o'tgan yillarning foydasi tarkibida

korxonada qoldirilishi mumkin. Ushbu xo'jalik operasiyalari hisobda quyidagicha aks ettiriladi.

a) *hisobot yilining taqsimlanmagan foydasini paychilar o'rtasida taqsimlanishiga:*

**Debet** 8710- «Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi (zarari)» schyoti;

**Kredit** 6610 -«Ta'sischilarga dividendlar bo'yicha qarz» schyoti;

b) *hisobot yilining taqsimlanmagan foydasini o'tgan yillar foydasiga kiritilishiga:*

**Debet** 8710 -«Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi (zarari)» schyoti;

**Kredit** 8720- «O'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi (zarari)» schyoti.

Hisobot yilining jami zarari o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi, shuningdek rezyerv kapitali evaziga qoplanishi mumkin: Ushbu xo'jalik operasiyalari hisobda quyidagicha aks ettiriladi.

a) *hisobot yilining jami zararining o'tgan yillar taqsimlanmagan foydasi hisobidan qoplanishiga:*

**Debet** 8720 -«O'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi (zarari)» schyoti;

**Kredit** 8710 -«Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi (zarari)» schyoti.

b) *hisobot yilining jami zararining rezyerv kapitali hisobidan qoplanishiga:*

**Debet** 8820 -«Rezyerv Kapitali» schyoti;

**Kredit** 8710 -«Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi (zarari)» schyoti.

## **10.2. Qishloq xo'jalik korxonalarini soliqqa tortish bo'yicha davlat siyosati va soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarning hisobi**

Davlatimizning soliq siyosatida belgilangan tartib-qoidalarga ko'ra qishloq xo'jalik korxonalari soliq to'lovchilar sifatida uch guruhga bo'linadi: (1) yagona yer solig'ini to'lovchilar; (2) yagona soliq, to'lovini to'lovchilar; (3) umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilar.

Ushbu guruhlarga kiruvchi qishloq xo'jalik korxonalari, shuningdek ular to'laydigan mos ravishdagi soliqlar o'zining ob'ehti, soliq stavkasi, hisob-kitobi, to'lash tartibi va boshqa jixatlari bo'yicha bir qancha xususiyatlarga ega. Quyida qishloq xo'jalik korxonalari to'laydigan soliqlarni hisob-kitob qilish va ular hisobi xususiyatlariga to'xtalamiz.

### **Yagona yer solig'i**

Soliq Kodeksining 362-moddasiga ko'ra yagona yer solig'ini to'lovchilar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- qishloq - xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar;

- qishloq xo'jaligi yo'naliishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba eksperimental xo'jaliklari va ta'llim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari.

Soliq Kodeksning ushbu moddasiga asosan bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga javob byeradigan yuridik shaxslar soliq solish maqsadida qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar jumlasiga kiradi:

- yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va o'zi etishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash yoxud yer uchastkalaridan foydalangan holda faqat qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar;

- qishloq xo'jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'zlariga belgilangan tartibda berilgangan yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar;

- qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va o'zi etishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash ulushi realizasiya qilish yoki qayta ishlash uchun olingan qishloq xo'jaligi mahsulotini o'z ichiga oluvchi qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlash umumiyy hajmida kamida 50 foizni tashkil etadigan yuridik shaxslar.

Soliq Kodeksi 362-moddasi ikkinchi qismining ikkinchi va uchinchi xatbosilarida nazardautilgan shartlarga javob byeradigan yangidan tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yagona yer solig'ini to'lovchilar bo'ladi.

Quyidagilar yagona yer solig'ini to'lovchilar bo'lib hisoblanmaydi;

- o'rmon va ovchilik xo'jaliklari;
- yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari.

Yagona yer solig'ini to'lash tartibini qo'llash uchun soliq to'lovchi har yili joriy soliq davrining 1 fevraliga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga o'tgan soliq davrida qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishslashning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi etishtirgan va qayta ishlagan ulushi ko'rsatilgan ma'lumotnomani taqdim etishi lozim. Qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishslashning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi etishtirgan va qayta ishlagan ulushii aniqlashda Soliq Kodeksining 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlar hisobga olinmaydi. Misol: o'tgan yilda jami sof tushum 2 milliard so'm, shundan o'zi etishtirgan va qayta ishlagan mahsulotni sotishdan olingan tushum (1) - holatda 600 mln 1 so'm, (2) - holatda 1,5 milliard so'm, deylik. Misol shartiga ko'ra, umumiy sof tushumda qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi etishtirgan va qayta ishlagan ulushi (1)- holatda 30 %, (2) - holatda 75 % ni tashkil etadi. Demak, (1)- holatda ushbu qishloq xo'jalik korxonasi yagona yer solig'ini to'lovchisi hisoblanmaydi, chunki uning umumiy sof tushumida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi etishtirgan va qayta ishlagan ulushi Soliq Kodeksining 362-modda uchinchi bandida belgilangan me'yordan past, aksincha (2)-holatda u yagona yer solig'i to'lovchisi hisoblanadi, chunki bu holatda qishloq xo'jalik korxonasing umumiy tushumida Qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi etishtirgan va qayta ishlagan ulushi belgilangan meyordan yuqori.

Agar o'tgan soliq davri yakunlari bo'yicha yagona yer solig'i to'lovchi Soliq Kodeksi 362-moddasining ikkinchi qismida belgilangan shartlarga javob byermasa, soliq to'lovchi joriy soliq davrining boshidan boshlab umumbelgilangan soliqlarni yoki yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishi kerak bo'ladi.

Mikrofirmalar va Kichik korxonalar toifasiga kiradigan soliq to'lovchi Soliq Kodeksi 362-moddasining ikkinchi qismida belgilangan shartlarga javob byermay qo'yan soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan Kechiktirmay davlat soliq xizmati organiga soliq solish tartibini tanlash to'g'risida yozma bildirish taqdim etishi lozim. Soliq to'lovchining yozma bildirishni belgilangan muddatda taqdim etmaganligi uning umumbelgilangan soliqlarni to'lashga roziligi deb hisoblanadi.

Yagona yer solig'ini to'lashdan umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan soliq to'lovchi Soliq Kodeksida nazarda tutilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan soliq davrining birinchi choragi uchun joriy to'lovlarini to'lashdan ozod qilinadi.

Umumbelgilangan soliqlarni yoki yagona soliq to'lovini to'lashga o'tgan yagona yer solig'ini to'lovchi 362-moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan tartibga muvofiq faqat navbatdagi soliq davri boshidan boshlab yana yagona yer solig'ini to'lashga o'tishga haqlidir.

Soliq Kodeksi 362-moddasining ikkinchi qismida belgilangan shartlarga javob byeradigan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar, shuningdek qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari faoliyatning yagona yer solig'ini to'lash tatbiq etiladigan qismi bo'yicha soliq solishning boshqacha tartibini tanlash huquqiga ega emas.

Qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishslash bilan bog'lik bo'limgan faoliyat turlarini amalga oshirishda yagona yer solig'i to'lovchi mazkur faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart.

Soliq Kodeksi 350-moddasining birinchi qismiga muvofiq soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlab qolning mikrofirmalar va kichik korxonalar faoliyatning boshqa turlari bo'yicha korxonalarini tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovi to'lashi mumkin. Mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kirmaydigan soliq to'lovchi umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tishi kerak.

Yagona yer solig'ini to'lovchilar uchun Soliq Kodeksining 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlarga soliq solinmaydi, dividendlar va foizlar, birgalikdagi faoliyatdan olingen daromadlar bundan mustasno.

Birgalikdagi faoliyatdan olinadigan daromadlarga yagona yer solig'i to'lovchida dividendlarga soliq solish uchun belgilangan stavkalar bo'yicha soliq solinadi.

Yer uchastkalari ijaraga (shu jumladan ichki xo'jalik pudratiga) berilganganida yagona yer solig'ini to'lash majburiyati ijaraga beruvchining zimmasida saqlanib qoladi.

**Izoh:** 1. Har bir xo'jalik bo'yicha qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymati O'zbekistan Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastroviy qo'shilishi tomonidan belgilanadi.

2. Belgilangan mezonlarga muvofiq yagona yer solig'i to'lovchilariga kiritiladigai baliqchilik xo'jaliklari tuman bo'yicha o'rtacha sug'oriladigan yerlar normativ qiymatidan kelib chiqib, yagona yer solig'ini to'laydilar.

Qonun hujjatlariga muvofiq qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga berilgangan yer uchastkasi soliq solish ob'ekti, yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normativ qiymati4 soliq solinadigan baza hisoblanadi.

Egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida vujudga kelgan yer uchastkalari uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga bo'lgan huquq vujudga kelgan oydan keyingi oydan boshlab hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan boshlab kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquqlar vujudga kelganda soliq solinadigan baza bu huquq vujudga kelgan oydan boshlab kamaytiriladi. Yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquq tugatilgan taqdirda, soliq solinadigan baza bu huquq tugatilgan oydan keyingi oydan boshlab ko'paytiriladi.

#### **Yagona yer solig'ini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:**

- Soliq Kodeksi 362-moddasi ikkinchi qismining ikkinchi va uchinchi xatboshtalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiq kelgan taqdirda, yangi tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan boshlab ikki yil muddatga. Mazkur imtiyoz tugatilgan fermer xo'jaliklari bazasida tashkil etilgan fermer xo'jaliklariga tatbiq etilmaydi;

- ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirdorlik sub'ektlari - yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish Qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib – taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar - yagona yer solig'i to'lovchilarga Soliq Kodeksi 282-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar ham tatbiq etiladi.

Yagona yer solig'ini to'lovchilari uchun kalendar yil soliq davri bo'lib hisoblanadi. kalendar yil uchun yagona yer solig'i summasi yer uchastkalarining normativ qiymatini yagona yer solig'ining belgilangan stavkasiga ko'paytirish orqali topiladi.

**Misol:** yagona yer solig'i to'lovchi «Yangi asr» fermer xo'jaligi uchun ajratilgan jami yer uchastkasi 2009 yil 1 yanvar holatiga 242,4 ga, shundan:

- yo'llar, ariqlar va zovurlar o'tgan yer maydoni - 17,0 ga;
- ekin yerlari maydoni - 43,4 ga;
- bog' uchastkalari maydoni - 83,0 ga;
- uzumzorlar maydoni - 93,4 ga;
- ko'p yillik daraxtzorlar maydoni - 1,3 ga;
- buz yerlar maydoni - 4,3 ga.

*I ga yer uchastkasining normativ qiymati:*

- ekin yerlari maydoni uchun - 947,2 ming so'm;
- bog' uchastkalari maydoni uchun - 462,3 ming so'm;
- uzumzorlar maydoni uchun - 467,4 ming so'm;
- ko'p yillik daraxtzorlar maydoni uchun - 947,2 ming so'm;
- bo'z yerlar maydoni uchun 15,1 ming so'm.

Yagona yer solig'i stavkasi - 3,5 %, yagona yer solig'i to'lovidan ozod qilingan yer uchastkalari maydoni (bog'lar va uzumzorlar bo'yicha 176,4 ga yoki normativ qiymati 82026,1 ming so'm, soliqqa tortiladigan yer uchastkalari maydoni 49,0 ga yoki normativ qiymati 42404,8 ming so'm).

Yuqorida keltarilgan shartli ma'lumotlar asosida to'zilgan yagona yer solig'i hisob-kitobi 10.1-jadvalda keltirilgan.

10.1-jadval

**«Yangi asr» fermer xo'jaligi bo'yicha 2009 yil uchun yagona yer solig'i hisob-kitobi**

№	ko'rsatkich	Yer maydoni, ga	Yerning qiymati, ming so'm		Summa, ming so'mda
			1 ga uchun	Jami	
<b>1.</b>	<b>Jami yer maydoni</b>	<b>242,4</b>		<b>x</b>	
	Shundan:				
1.1.	Yo'llar, ariq va zovurlar	17,0	x	x	x
1.2.	Ekin yerlari maydoni	43,4	947,2	41108,5	
1.3.	Bog' uchastkalari maydoni	83,0	462,3	38370,9	
1.4.	Uzumzor maydoni	93,4	467,4	43655,2	
1.5.	ko'p yillik daraxtzorlar	1,3	947,2	1231,4	
1.6.	Bo'z yerlar	4,3	15,1	64,9	
2.	Jami soliqqa tortiladigan yer uchastkalari(1- 1.1)	<b>225,4</b>	x	<b>124430,9</b>	
3.	Yagona yer solig'i stavkasi, %	x	x	3,5	
4.	Yagona yer solig'i summasi	x	x	x	4355,1
5.	Shundan:				
5.1.	Soliqdan ozod yerlar	176,4	x	82026,1	2870,9
5.2.	Soliq to'lanadigan yerlar	49,0	x	<b>42404,8</b>	<b>1484,2</b>

Yuqoradagi 10.1-jadvalda keltirilgan yagona yer solig'inining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davrining 1 mayigacha taqdim etiladi.

Yil davomida berilgangan yer uchastkalari uchun yagona yer solig'i yer uchastkasi berilganganidan keyiigi oydan boshlab to'lanadi. Yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) taqdirda, yagona yer solig'ini to'lash yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) oydan boshlab to'xtatiladi (kamaytiriladi):

Yer uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o'zgargan, shuningdek yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (to'gatilgan) taqdirda, soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1 dekabrigacha yagona yer solig'inining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari shart.

Soliq Kodeski 369-moddasida belgilangan tartibga ko'ra yagona yer solig'ini to'lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- hisobot yilining 1 iyuligacha - yillik soliq summasining 20 foizi;
- hisobot yilining 1 sentyabrigacha - yillik soliq summasining 30 foizi;
- hisobot yilining 1 dekabrigacha - soliqniig qolgan summasi.

Yagona yer solig'inining hisoblangan summasiga hisob-kitob asosida quyidagi buxgaltyeriya yozuvi berilganadi:

**Debet** 9430-«Boshqa operasion xarajatlar» schyoti;

**Kredit** 6410 -«Byudjetga soliqlar bo'yicha qarzlar» schyoti.

Maqsadli ishlatish sharti bilan to'lovdan ozod etilgan yagona yer solig'i summasiga quyidagi buxgaltyeriya yozuvi berilganadi:

**Debet** 6410 -«Byudjetga soliqlar bo'yicha qarzlar» schyoti;

**Kredit** 8840 -«Soliq imtiyozlari» schyoti.

Yagona yer solig'ining byudjetga o'tkazib berilganishiga to'lov topshiriqnomasi asosida quyidagi buxgaltyeriya yozuvi berilganadi:

**Debet** 6410 «Byudjetga soliqlar bo'yicha qarzlar»

**Kredit** 5110 «Hisob-kitob schyoti».

### **Yagona soliq to'lovi**

Soliq Kodeksining 362-moddasida belgilangan shartlarga ko'ra yagona yer solig'ini to'lovchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari maqomiga mos kelmaydigan, asosiy faoliyati qishloq xo'jaligi bo'lган kichik korxonalar va mikrofirmalar toifasiga kiruvchi, qishloq xo'jaligi korxonalari yagona soliq to'lovini to'lovchilari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida» PQ-1245-son qaroriga binoan kichik korxonalar (xodimlarining soni 50 kishigacha) va mikrofirmalar (xodimlarining soni 20 kishigacha) toifasiga kiruvchi asosiy faoliyati qishloq xo'jaligi bo'lган Kichik korxonalar va mikrofirmalar toifasiga kiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalari 6 % lik stavkada yagona soliq to'lovini to'laydilar. Asosiy faoliyatidan tashqari boshqa faoliyat turlari bo'yicha bu turdag'i korxonalar alohida hisob yuritishlari hamda yagona soliq to'lovini belgilangan stavkalarda to'lashlari lozim.

Yagona soliq to'lovini to'lovchi qishloq xo'jalik korxonalari ixtiyoriy tarzda ro'yxatdan o'tgan joyidagi davlat soliq xizmati organlariga navbatdagi chorak boshlanishiga qadar bir oydan kechiktirmay, yangi barpo etilayotgan mikro va kichik korxona maqomidagi qishloq xo'jalik korxonalari esa faoliyatni amalga oshirishni boshlashga qadar topshiriladigan ariza asosida qo'shilgan qiymat solig'ini tulalari mumkin, Yagona soliq to'lovi to'lovchilari tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan bosh tortish navbatdagi yil boshlanishiga qadar bir oydan kechiktirmsandan ro'yxatdan o'tgan joyidagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan ariza asosida navbatdagi yilning boshidangina amalga oshiriladi.

Yagona soliq to'lovini to'lash ob'ekti bo'lib qishloq xo'jalik korxonalarining barcha faoliyat turlaridan olgan yalpi tushumi hisoblanadi. Yagona soliq to'lovi summasi yalpi tushum summasini ushbu soliqning belgilangan me'yoriga ko'paytirish yo'li bilan topiladi. Bunda, ixtiyoriy tarzda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar uchun yagona soliq to'lovi summasi byudjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga, birok yagona soliq to'lovi summasining 50 foizidan ortiq bo'lмаган miqdoriga kamayadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida yagona soliq to'loviga tortiladigan yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

1. Naqd pulga va naqdsiz pulga sotilgan mahsulot, tovarlar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning hajmi.

2. Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar, chunonchi;

a) undirilgan yoki qarzdor e'tirof etgan jarimalar, penyalar, neustoykalar hamda xo'jalik shartnomalarining shartlarini buzganlik uchun boshqa jazo turlari;

b) hisobot yilda aniqlangan o'tgan yillar daromadlari;

v) renta daromadi, avtotransport korxonasi huzuridagi oshxonalardan tushumlar, boshqa xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan tushumlar;

g) asosiy vositalar va boshqa mol-mulkni sotishdan daromadlar;

d) kreditorlik va deponentlik qarzini qonun bilan belgilangan tartibda hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;

e) tovar - moddiy boyliklarini qo'shimcha baholash;

j) tekin moliyaviy yordam, shu jumladan, tekinga olingan mol-mulk;

- z) qisqa muddatli ijaradan daromadlar;
- i) ilgari chiqarib tashlangan xarajatlarni qoplash tariqasida olingan daromadlardan tashqari boshqa operasional daromadlar;
- 3. Moliyaviy faoliyatdan daromadlar, chunonchi:
- a) olingan royligi va kapital transfyerti;
- b) O'zbekistan Respublikasi hududi va undan tashqarida boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida ulushli ishtirok etishdan olingan daromadlar, aksiyalar bo'yicha dividendlar hamda obligasiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar;
- v) mol – mulkni uzoq muddatli ijara (lizing)ga byerishdan daromad (marja);
- g) chet el valyutasidagi operasiyalari bo'yicha kursdagi farqdan daromadlar (musbat va manfiy kurs farqlari urtasidagi saldo), bunda manfiy kurs summasi musbat kurs farqi summasidan oshib ketgan xrlda oshib ketish summasi yagona soliq to'lovini hisoblab chiqayotganda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi;
- d) qimmatli qog'ozlar, shu'ba korxonalar va hokazolarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholashlarni o'tkazishdan daromadlar;
- e) moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar;

#### 4. Favqulodda daromadlar.

Soliq solinadigan yalpi tushum hisoblab chiqilayotganda quyidagilar yalpi tushumdan chiqarib tashlanadi:

- a) ixtiyoriy ravishda o'z arizasiga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar uchun qo'shilgan qiymat solig'i summasi;
- b) davlat sub'sidiyalari summasi;
- v) davlat obligasiyalari va boshqa davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha
- g) to'lov manbaida soliq to'langanligini tasdiqlaydigan hujjatlar (ma'lumotnomalar) mavjudligida dividendlar va foizlar.

Yagona soliq to'lovi har chorakda o'sib boruvchi yakun bilan hisob-kitobni topshirish muddatidan kechiktirmay to'lanadi.

Yagona soliq to'lovi bo'yicha hisob-kitoblarning buxgaltyeriya hisobi 6410 bo'yicha «Byudjetga to'lovlari bo'yicha qarz» schyotida yuritiladi. Belgilangan tartibda hisoblab chiqilgan yagona soliq to'lovi buxgaltyeriya hisobida quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

**Debet** 9820 -«Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va yig'imlar bo'yicha xarajatlar» schyoti;

**Kredit** 6410- «Byudjetga to'lovlari bo'yicha qarz» schyoti;

Qishloq xo'jalik korxonalarini byudjetga yagona soliq to'lovi bo'yicha qarzlarining to'lanishiga quyidagicha yozuv qilinadi:

**Debet** 6410 -«Byudjetga to'lovlari bo'yicha qarz» schyoti;

**Kredit** 5110-«Hisob-kitob » schyoti.

#### Umumbelgilangan soliqlar

Yagona yer solig'ini hamda yagona soliq to'lovini to'lovchilari maqomiga mos kelmaydigan qishloq xo'jalik korxonalari quyidagi umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilari hisoblanadilar:

- QQS;
- foyda solig'i;
- mol-mulk solig'i;
- yer solig'i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lov;
- ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.

Qishloq xo'jaligi korxonalari to'laydigan ushbu umumbelgilangan soliq to'lovlari, soliq Qonunchiligi hujjatlarida keltirilgan tartiblarda hisoblanadi va byudjetga o'tkazib berilganadi. Quyida ularning ayrimlariga to'xtalamiz.

**QQS.** Umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi qishloq xo'jalik korxonalari qishloq xo'jalik mahsulotlari, tovarlar, bajarilgan ish ko'rsatilgan xizmatlar, mulkni ijara byerish, ularni sotish, bepul byerish va boshqa sotish operasiyalari bo'yicha QQS to'lovchi hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari, tovarlar, ish va xizmatlarni sotishdan olingan QQS summasi belgilangan stavka (20 foiz) bo'yicha ikkita usulda quyidagi formulalar asosida aniqlanadi:

**(1)- usul.** Soliqqa tortiladigan aylanma QQS siz belgilanganda:

$$\text{Sqqs} = \text{Say} \times \text{Sz}100 \quad (1)$$

bunda: **Sqqs** - buyurtmachilardan undiriladigan soliq summasi;

**Say** - soliqqa tortiladigan aylanma;

**S** - qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi.

**(2)-usul.** Soliqqa tortiladigan aylanmada QQS ham hisobga olinganda:

$$\text{Sqqs} = \text{Tq} \times \text{S z} (\text{S}+100) \quad (2)$$

bunda: **Tq** - qo'shilgan qiymat solig'i ham hisobga olingan aylanma.

**Misol:** Xaridorlarga sotilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari qiymati QQS bilan birgalikda schyot - faktura bo'yicha 72 ming so'm, deylik.

Ushbu misol bo'yicha sotishdan olingan QQS summasi (2) - formulaga asosan topiladi va u 12 mln. so'mni ( $72 * 20 \% / 120 \% = 12$ ) tashkil etadi. Bu holda sotilgan mahsulotning QQSsiz sotish qiymati 60 mln. so'mdan ( $72 - 12 = 60$ ) iborat bo'ladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida sotishdan olingan QQS summasi QQSsiz sotish qiymatidan (1)-formula bo'yicha hisoblanganda ham 12 mln. so'mni ( $60 * 20\% / 100 \% = 12$ ) tashkil etadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida naqdsiz pulga sotilgan tovar - moddiy boyliklar, ish va xizmatlarga to'g'ri keladigan QQS summasi xaridorlar va buyurtmachilarga taqdim etilgan schyot - fakturalarda alohida ustunchada ko'rsatiladi. QQS summasi xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlarning jami summasiga kiritiladi. Hisoblangan QQS summasiga schyot-fakturalar asosida quyidagicha yozuv qilinadi:

**Debet** 4010- «Olinadigan schyotlar» schyoti;

**Kredit** 6410-«Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz» schyoti;

Naqd pulga sotilgan tovar - moddiy boyliklar, ish va xizmatlarga to'g'ri Keluvchi QQS summasi buyurtmachidan Kassaga kirim qilingan jami tushum tarkibida o'z aksini topadi va unga quyidagicha yozuv qilinadi:

**Debet** 5010 -«Kassadagi milliy valyutadagi pul mablag'lari» schyoti;

**Kredit** 6410 -«Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz» schyoti;

Qishloq xo'jalik korxonalarida byudjetga to'lanadigan QQS summasi sotishdan olingan QQS summasidan ta'minotchilarga tovar-moddiy resurslar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun ma'lumotnomalar hamda schyot-fakturalar asosida to'langan QQS summasini ayirish yo'li bilan topiladi.

21-son BHMSga muvofiq taminotchilarga tovar-moddiy resurslar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun ma'lumotnomalar va schyot-fakturalar asosida to'langan QQS summasi hisobot davri mobaynida 4410-«Byudjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlar» schyotining debetida to'planadi. Bunda 6010-«Ta'minotchi va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar», 6100-«Ajratilgan bo'linmalar, shu'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga to'lanadigan schyotlar», 6990-«Boshqa majburiyatlar» schyotlari Kreditlanadi.

Hisobot davri tugagandan keyingi oyning 25 sanasigacha qishloq xo'jalik korxonanari davlat soliq organlariga QQS hisob-kitobini belgilangan aklda taqdim etishlari lozim. Shuningdek, ular soliq idoralariga QQS hisob-kitobiga ilova tariqasida soliq davri mobaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha schyot- fakturalar reestrini taqdim etishlari lozim.

QQS hisob-kitobi, shuningdek unga ilova qilinadigan reestr va taqsimot asosida 4410-«Byudjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlar» schyotining debetida to'plangan summaning kamaytirishga olib borilgan qismiga buxgaltyeriyyada quyidagi yozuv qilinadi:

**Debet** 6410- «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz» schyoti;

**Kredit** 4410- «Byudjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlar» schyoti;

kamaytirishga olib borilmagan va bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga mutanosib usul bo'yicha aniqlangan hamda kiritilgan QQS summasiga quyidagicha quyidagi buxgaltyeriya yozuvi qilinadi:

**Debet** 2010 «Asosiy ishlab chiqarish»,

2310 -«Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti;

2510 -«Umumishlab chiqarish xarajatlari» schyoti;

**Kredit** 4410- «Byudjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovleri» schyoti.

Oldingi hisobot davri uchun kamaytirishga olib borilgan QQS summasining hisobot davri uchun kamaytirishga olib borilgan soliq summasidan ortiq bo'lган summasi vujudga kelgan hollarda ko'rsatilgan ortiqcha summa hisobot davridan keyingi davrda kamaytirishga olib boriladi. kamaytirishga olib boriladigan QQS summasi hisoblangan QQS summasidan ortiq bo'lганida, unda bunday ortiqcha summa (manfiy saldo) qishloq xo'jaligi korxonasiga uning soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzi bo'lмаган taqdirda qonunda begilangan tartibda qaytariladi. Bunda ushbu ortiqcha summa qishloq xo'jaligi korxonasing shaxsiy schyotida ortiqcha to'lov sifatida emas, balm manfiy saldo sifatida hisobga olinadi. Ortiqcha to'langan QQS summsining qishloq xo'jaligi korxonasiga qaytarilishi buxgaltyeriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

**Debet** 5110 -«Hisob - kitob » schyoti;

**Kredit** 4410- «Byudjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovleri» schyoti;

Qishloq xo'jaligi korxonalarini byudjetga QQS bo'yicha qarzlarining to'lanishiga quyidagicha yozuv qilinadi:

**Debet** 6410 -«Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz» schyoti;

**Kredit** 5110 -«Hisob - kitob» schyoti;

Foya solig'i. Soliq qonunchiligi hujjatlariga ko'ra qishloq xo'jaligi korxonalarida boshqa xo'jalik yuritish sub'ektlaridagi kabi foya solig'ini hisob-kitob qilish uchun «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida Nizom»da nomlari keltirilgan foya (zarar) ko'rsatkichlaridan tashqari yana quyidagi ikkita foya ko'rsatkichi hisoblash yo'li bilan topiladi. Bular:

• **Soliqqa tortiladigan daromad (Std)**

**Std = Fst (Zst) + Stx + Sbx + Bom -Gr - Schx -D - F**

Bu yerda: **Fst (Zst)** - soliq tortilgo'ngacha bo'lган foya yoki zarar

**Stx** - soliq solish bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlar;

**Sbx** - hisobot davrida soliq bazasidan chegirilmaydigan, lekin kelgusida chegirilib boriladigan xarajatlar;

**Schx** - soliq bazasidan hisobot davrida chegiriladigan xarajatlar;

**Bom** - begaraz olingan mulk;

**Gr** - olingan grant va subsidiyalar;

**D** - olingan dividendlar;

**F** - olingan foizlar

• **Soliqqa tortiladigan foya (Stf)** — bu soliqda tortiladigan daromaddan foya solig'ini hisoblash uchun imtiyoz sifatida chegirib tashlanadigan xarajatlarni ayirgandan keyin qoladigan foya summasi, ya'ni:

**Stf = Std - I**

Bu yerda: **I** - imtiyoz sifatida soliqqa tortiladigan daromaddan chegiriladigan xarajatlar hamda soliqdan ozod etilgan foya summasi.

**Soliq solish bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlar** deganda Soliq Kodeksi va «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida nizom»ga muvofiq moliyaviy natijalarni shakllantirishda soliqqacha foya summasini kamaytirishga olib borilgan, hisobotda sotish tannarxi, davr xarajatlari va moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar tarkibida aks etgarilgan xarajatlar tushuniladi. Bunday

xarajatlar tarkibiga, chunonchi me'yordan ortiq ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar, me'yordan ortiq vakillik xarajatlari, moddiy yordam va kompensasiyalar, qishlok, xo'jaligi korxonasingning asosiy vositalari va boshqa aktivlarini sotish va boshqa chiqimlaridan Kurilgai zararlar va boshqa shu kabi xarajatlar kiradi. Ularning to'lik, ro'yxati Soliq Kodeksida (147-modda) va «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida nizom»ning 1-ilovasida keltirilgan. Soliq qonunchiliga asosan qishloq xo'jaligi korxonalari soliq solish bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlarni mustaqil hisoblashlari, ular summasini foyda solig'i hisob-kitobining alohida satrida ko'rsatishlari lozim.

***Hisobot davrida soliq bazasidan chegirilmaydigan, lekinda kelgusida chegirilib boriladigan xarajatlar*** deganda 9440-«kelgusida soliq bazasidan chegiriladigan xarajatlar» schyotda aks ettirilgan xarajatlar tushuniladi. Bunday xarajatlarning to'liq ro'yxati Soliq Kodeksida (146-modda) va «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida nizom»ning 1- ilovasida keltirilgan. Ushbu xarajatlar ham foyda solig'i hisob-kitobining alohida satrida ko'rsatiladi.

***Soliq bazasidan chegiriladigan xarajatlar*** deganda Nizomga keltirilgan 2-ilovaga muvofiq o'tgan hisobot yilda soliq bazasida chegirilmagan, lekinda keyingi hisobot davridan boshlab 10 yil muddat mobaynida soliq. bazasidan chegirilib boriladigan xarajatlar tushuniladi. Soliq qonunchiligi hujjatlariga asosan qishloq xo'jaligi korxonalari soliq bazasidan chegiriladigan xarajatlarni Soliq Kodeksi va Nizomda keltirilgan tartibga muvofiq maxsus hisob-kitob yordamida mustaqil hisoblashlari va ma'lumotnomma bilan tasdiqlashlari, ularning summasini foyda solig'i hisob-kitobining alohida satrida ko'rsatishlari lozim.

***Beg'araz olingan mulk*** deganda boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan haqi to'lanmaslik sharti bilan olingan mulk (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, o'rnatishga mo'ljallangan jihozlar, matyeriallar) tushuniladi.

***Grantlar*** deganda qishloq xo'jaligi korxonasiga davlat (hukumat) hamda nodavlat, chet el, halqaro tashkilot va fondlar tomonidan ma'lum maqsadlar uchun berilgangan beg'araz, gumanitar pul mablag'lari yoki moddiy texnik yordam summasi tushuniladi. Grant mablag'lari qat'iy belgilangan maqsadlar uchun ishlatiladi.

***Olingan dividendlar va foizlar*** Soliq qonunchiligiga muvofiq alohida 10 foizlik dividend solig'iga tortilishi munosabati bilan foyda solig'ini hisoblashda chegirib tashlanadi. Shuning uchun ularning summalarini foyda solig'i hisob-kitobining' alohida satrida ko'rsatiladi. Ushbu daromadlardan dividend solig'ni undirilganligi to'g'risida ma'lumotlar ularni byergan yuridik shaxslarning ma'lumotnomalari bilan tasdiqlanishi lozim.

***Foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar*** sifatida soliqqa tortiladigan daromad summasidan chegirib tashlaladigan xarajatlar, soliqdan ozod etilgan foydaning turlari hamda imtiyoz me'yorlari Soliq Kodeksida (158, 159-moddalar) ochib berilgangan.

***Foyda solig'i (Nf)*** summasi qishloq xo'jaligi korxonasingning soliqqa tortiladigan foydasi summasini (**Stf**) soliq me'yoriga (**Sm**) ko'paytirish va 100 foizga bo'lish yo'li bilan topiladi, ya'ni:

$$Nf = Stf * Sm / 100\%$$

Hisob-kitob asosida hisoblangan foyda, solig'i summasi buxgaltyeriya hisobida quyidagicha aks ettiladi:

**Debet** 9810 -«Daromad foyda) solig'i bo'yicha xarajatlar» schyoti;

**Kredit** 6410 -«Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz» schyoti;

Qishlok xo'jaligi korxonalarini byudjetga daromad (foyda) solig'i bo'yicha qarzlarining to'lanishiga quyidagicha yozuv qilinadi:

**Debet** 6410 -«Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz» schyoti;

**Kredit** 5110 -«Hisob-kitob schyoti» schyoti.

### 10.3. Qishloq xo'jalik korxonalarida majburiy ajratmlar va to'lovlarining hisobi

Umum davlat solig'larini to'lovchi qishloq xo'jalik korxonalari soliq to'lovlaridan tashqari davlatning byudjetdan tashqari maqsadli fondlariga quyidagi ajratmalar, to'lovlar va ushlanmalarni amalga oshiradilar (10.2-jadval).

10.2-jadval

#### Qishloq xo'jalik korxonalari to'laydigan majburiy ajratmalar, to'lovlar va ushlanmalar (2009 yil uchun)

Maksadli fondlar turi	Majburiy ajratma turi		Majburiy ushlanma turi	
	Ajratma bazasi	Stavka	Ushlanma bazasi	Stavka
1. Pensiya fondi	1.Sotishdan olingan sof tushum 2.Hisoblangan ish haqi fondi	1.6% 25%	1. Hisoblangan ish haqi fondi	6%
2. Yo'l fondi	1. Sotishdan va xizmatlar ko'rsatish (ishlar bajarish)dan olingan sof tushum	1.4%	1.Sotib olingan va vaqtinchalik olib kirilgan avtotransport vositalarining sotib olish narxi. 2.Sotib olingan va vaqtinchalik olib kirilgan 40 tagacha o'tirish joylari bo'lgan avtobuslar va 10 tonnagacha yuk ko'taradigan yuk avtotransport vositalarining sotib olish narxi	6% 20%
3. Ta'lim va sog'likni saqlash muassasalarini rekonstruk-siya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi	1. Sotishdan va xizmatlar ko'rsatish (ishlar bajarish)dan olingan sof tushum	0.5%		

Davlatning maqsadli fondlariga majburiy ajratma va ushlanmalarning hisob-kitoblari tasdiqlangan shakllarda tuziladi va belgilangan muddatlarda davlat soliq idoralariga taqdim etiladi. Ushbu hisob - kitob ma'lumotlari davlatning maqsadli fondlariga majburiy ajratma va ushlanmalarni buxgaltyeriya hisobida aks ettirishga asos bo'ladi.

Pensiya fondi, Respublika yo'l fondi, Ta'lim va sog'likni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga bajarilgan ishlardan olingan sof tushumga nisbatan mos ravishda belgilangan stavkalarda hisoblangan majburiy ajratmalar summasi hisobot oyida hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

**Debet** 9430 -«Boshqa operasjon xaratjatlar» schyoti;

**Kredit** 6520- «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar» schyoti;

Pensiya fondiga hisobot davrida hisoblangan ish haqi fondiga nisbatan belgilangan stavkada hisoblangan majburiy ajratma summasi hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

**Debet** Xarajat schyotlari (2010, 2310,2510, 9410, 9420, 9210, 0810)

**Kredit** 6520 -«Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar» schyoti;

Xodimlarga hisoblangan ish haqidan pensiya fondiga 6 foizlik majburiy ushlanmaning ushlab qolinishi hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

**Debet** 6710- «Xodim bilan ish haqi bo'yicha hisoblashishlar» schyoti;

**Kredit** 6520- «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar» schyoti;

Respublika yo'l fondiga sotib olingan yangi avtotransport vositalari uchun to'langan majburiy yig'im summasi 5-son BHMS «Asosiy vositalar»ga muvofiq ularning boshlang'ich qiyamatiga kiritiladi va hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

**Debet** 0820-«Asosiy vositalarni sotib olish» schyoti;

**Kredit** 6520- «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar» schyoti;

Davlatning maqsadli fondlariga majburiy ajratma va ushlanmalarning o'tkazib berilganishi hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

**Debet** 6520 -«Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar» schyoti;

**Kredit** 5110 -«Hisob-kitob schyoti» schyoti.

#### **10.4. Qishloq xo'jalik korxonalarida moliyaviy hisobotning turlari, tarkibi va uni taqdim etish muddatlari**

Qishloq xo'jalik korxonalarida, boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar singari, hisob jarayonining yakuniy bosqichi bo'lib moliyaviy hisobotni to'zish hisoblanadi. Respublikamizning «Buxgaltyeriya hisobi to'g'risida» qonuni (16-modda)ga muvofiq qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy hisoboti o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- buxgaltyeriya balansi;
- moliyaviy natijalar to'g'risida x, isobot;
- asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot;
- pul okimlari to'g'risida hisobot;
- xususiy Kapital to'g'risida hisobot;
- izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar.

Kichik biznes sub'ektlari hisoblangan qishloq xo'jalik korxonalariga moliyaviy hisobotni ixchamlashtirilgan tarzda to'zish va taqdim etishga ruxsat etiladi. Ushbu ixchamlashtirilgan moliyaviy hisobot o'z ichiga buxgaltyeriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot, debitorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risida ma'lumotnoma hamda tushuntirish xatini oladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida barcha xo'jalik yurituvchi subektlaridagi hisobot davri bo'lib taqvim yilning 1 yanvaridan 31 dekabrigacha bo'lgan davr hisoblanadi. Takvim yilining 1 oktyabridan keyin davlat ro'yxatidan o'tgan qishloq xo'jalik korxonalari uchun birinchi hisobot yili bo'lib davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan kelgusi yilning 31 dekabrigacha bo'lgan davr hisoblanadi. Ushbu davrda yuz byergan xo'jalik jarayonlari birinchi hisobot yiliga doir, deb tan olinadi va mos ravida shu davrning moliyaviy hisobotiga kiritiladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy hisoboti quyidagilarga majburiy tarzda taqdim etiladi:

- soliq idoralariga;
- ta'sis hujjatlariga muvofiq mulk egalariga;
- davlat statistika organlariga;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa organlarga.

Moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatlari ularning tashkiliy huquqiy maqomiga bog'liq. Chunonchi, xorijiy investisiyalar ishtirokidagi qishloq xo'jalik korxonalari faqat yillik moliyaviy hisobotni to'zadilar va uni keyingi yilning 25 martigacha taqdim etadilar. Shirkatlar, fermer va dehqon xo'jaliklari, shuningdek aksiyadorlik jamiyat ma'suliyati cheklangan jamiyat va xususiy korxonalar maqomidagi qishloq xo'jalik korxonalari yillik moliyaviy hisobotni keyingi yilning 15 fevraligacha taqdim etishlari lozim.

Kichik biznes sub'ektlariga kiruvchi qishloq xo'jalik korxonalari moliyaviy hisobotni faqat hisobot yili yakunlari bo'yicha taqdim etadilar. Ushbu maqomga ega bo'lмаган boshqa turdag'i tashkilotlar (xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalardan tashqari) yillik hisobotdan tashqari choraklik hisobotlarni ham to'zishlari va ularni choraklikdan keyingi oyning 25 sanasigacha tegishli organlarga taqdim etishlari kerak.

#### **10.5. Qishloq xo'jalik korxonalarida moliyaviy hisobot shakllarini to'lg'azish xususiyatlari**

Qishloq xo'jalik korxonalari boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kabi moliyaviy hisobot shakllarini to'lg'azishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2002 yil 27 dekabrda 140-son buyruq bilan tasdiqlangan «Moliyaviy hisobot shakllarini to'lg'azish bo'yicha tartib»ga asoslanishlari lozim. Qo'yida ushbu tartibga asoslanilgan holda moliyaviy hisobot shakllarining alohida moddalarini to'lg'azish xususiyatlariga to'xtalamiz.

### **Buxgaltyeriya balansi (1-shakl)**

**Asosiy vositalar (012-satr)da** qishloq xo'jalik korxonalari balansida bo'lgan asosiy vositalarning qoldiq qiymati aks ettiriladi. Ushbu satrda, chunonchi quyidagilar ko'rsatiladi.

- asosiy vositalarning mos ravishda boshlang'ich qiymatini hamda jamlangan eskirishini aks ettiruchi schyotlar (0110-0199 va 0210-0290)ning davr oxiridagi qoldiqlari summalarining farqi;

- belgilangan tartibga ko'ra asosiy vositalar tarkibiga kiritilgan o'zoq muddatli ijaraga olingan asosiy vositalarning, chunonchi lizing bo'yicha sotib olinadigan qurilish mashinalari va uskunalarining qoldiq; qiymati (mos ravishda 0310 va 0299 schyotlar qoldiqlari o'tasidagi farq summasi).

**Kapital quyilmalar (100-satr)da** qishloq xo'jaligi korxonalarining o'z maqsadlarida xo'jalik yoki pudrat usullarida olib borgan tugallanmagan Kapital investisiyalarining qiymati ko'rsatiladi.

**Ishlab chiqarish zahiralari (150-satr)da** omborlarda saqlanayotgan urug'liklar, ug'itlar, dori-darmonlar, em-xashak, yoqilg'i, qurilish matyeriallari, extiyot qismlar va boshqa matyerillarning korxonada belgilangan hisob baholaridagi qiymati aks ettiriladi. Ushbu satr summasi 1000 «Matyeriallarni hisobga oluvchi schyotlar» tizimida ochilgan barcha schyotlar qoldiqlarining yig'indisiga, shuningdek barcha moddiy javobgar shaxslarning hisobot davri ohiriga tuzgan matyerial hisoboti qoldiqlari yig'indisiga teng bo'lishi lozim. Agar matyeriallarni sotib olish va tayyorlash alohida olingan 1510 schyotda, ular qiymatidagi farqlar maxsus 1610 schyotda yuritilgan bo'lsa, ushbu schyotlarning qoldiqlari mos ravishda balansning bu satri summasida hisobga olinishi kerak.

**Tugallanmagan ishlab chiqarish (160-satr)da** qishloq xo'jalik korxonalarining hisobot yili oxirida kelgusi yil hosili uchun qilingan sarf-xarajatlardan summasi ko'rsatiladi.

**Tayyor maxsulotlar (170-satr)da** etishtirilgan, lekin xali sotilmagan qishloq xo'jalik mahsulotlarining haqiqiy tannarx ko'rsatiladi.

**kelgusi davr xarajatlari (190-satr)da** qishloq xo'jalik korxonalarining hisobot davrida asosiy ishlab chiqarish va davr xarajatlariga tegishli bo'limgan xarajatlari aks ettiriladi. Ushbu satrda qishloq xo'jalik korxonalari o'zlarining quyidagi xarajatlarini aks ettiradi:

- kelgusi davrda bajariladigan ishlar uchun to'lovlar;
- kelgusida joriy etilishi mumkin bo'lgan loyihalarni ishlab chiqarishga doir xarajatlari;
- kelgusi yilda chop etiladigan maxsus me'yoriy-texnik adabiyotlar uchun qilingan sarflar;
- kelgusi yil uchun o'tkazib quylgan ijara to'lovlar;
- mavsumiy xaraktyerga ega bo'lgan ishlar uchun oldindan to'lovlar, chunonchi, qishloq xo'jalik mashinalari va uskunalarini konsyervasiya qilish xarajatlari;
- yangi ishlab chiqarish turlari uchun kadrlarni jalb etish va tayyorlash xarajatlari;
- oldindan hisoblangan mehnat ta'tili xarajatlari;
- kelgusi yil uchun gazeta va jurnallar obunasi uchun to'lovlar;
- boshqa kelgusi davr xarajatlari.

**Jami debtorlik qarzlar (210-satr)da** qishloq xo'jalik korxonalariga hisobot davri oxiriga qarzdor shaxslarning jami qarzları ko'rsatiladi. Jami debtorlik qarzlar ularning alohida turlari bo'yicha balansning mos satrlarida (220, 240, 250, 260, 270, 290, 300, 310) ko'rsatiladi. Ushbu satrlarni to'lg'azishga 1- asos bo'lib debtorlik qarzlarning alohida turlarni aks ettiruvchi schyotlarning oxirgi qoldiqlari hisoblanadi.

**Taqsimlanmagan fonda (qoplanmagan zarar) (450-satr)da** qishloq xo'jalik korxonalarining yil oxiridagi jami taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari) ko'rsatiladi. Ushbu summa o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari) va hisobot yilning sof foydasi (qoplanmagan zarari) summalaridan tashkil topadi. Qoplanmagan zararlar balansning ushbu satrida minus ishorasi bilan ko'rsatiladi.

**Maqsadli tushumlar (460-satr)da** qishloq xo'jalik korxonalarining turli maqsadlarda olingan grantlari, dotasiyalari, subsidiyalari hamda soliqlar bo'yicha maksadli imtiyozlar summalari aks ettiriladi.

**Jami uzoq muddatli majburiyatlar (490-satr)da** qishloq xo'jalik korxonalarining bir yildan ko'p muddatga olgan kreditlari va qarzlari bo'yicha majburiyatlarining jami summasi ko'rsatiladi. Jami uzoq muddatli majburiyatlar ularning alohida turlari bo'yicha balansning mos satrlarida (500-590) ko'rsatiladi. Ushbu satrlarni to'lg'azishga asos bo'lib uzoq muddatli kreditorlik qarzlarning alohida turlarni aks ettiruvchi schyotlarning oxirgi qoldiqlari hisoblanadi.

**Jami joriy majburiyatlar (600-satr)da** qishloq xo'jalik korxonalarining bir yildan Kam bo'lgan muddatga olgan Kreditlari, qarzlari va boshqa majburiyatlarining jami summasi ko'rsatiladi. Jami joriy majburiyatlar ularning alohida turlari bo'yicha balansning mos satrlarida (610-760) ko'rsatiladi. Ushbu satrlarni to'lg'azishga asos bo'lib joriy kreditorlik qarzlarning alohida turlarni aks ettiruvchi schyotlarning oxirgi qoldiqlari hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik korxonalari balans valyutasining jami summasi aktivda va passivda alohida satrlarda (mos ravishda 390-satr va 780-satr) ko'rsatiladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining o'zlariga tegishli bo'limgan aktivlar va passivlar balansda «Balansdan tashqari schyotlarda hisobga olinadigan qiymatliklarning mavjudligi to'g'risida ma'lumot»da 790-920-satrarda ko'rsatiladi. Bunday aktiv va passivlarga, chunonchi quyidagilar kiradi:

- qisqa muddatga ijara olingan asosiy vositalar (790-satr);
- qayta ishlashga qabul qilingan matyeriallar (810-satr);
- o'rnatish uchun qabul qilingan uskunalar (830-satr);
- ssuda shartnomasi bo'yicha olingan mulklar (890-satr);
- kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar (900-satr);
- vaqtinchalik soliq imtiyozları (910-satr);
- foydalanishdagi inventar va xo'jalik jihozlari (920-satr).

#### **Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-shakl)**

Ushbu hisobotning asosiy maqsadi bo'lib qishloq xo'jalik korxonalarining hisobot davrlaridagi daromadlari, xarajatlari, fonda va zararlari to'g'risidagi yig'ma ma'lumotlarni aks ettirish hisoblanadi. Chunonchi, bunday ma'lumotlar hisobotda mos ravishda o'tgan yilning va hisobot yilning mos davrlari uchun ko'rsatiladi. Bu tartib mos hisobot davrlardagi o'zgarishlar tendensiyalarini o'rganish uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.

Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotni tuzishga asos bo'lib qishloq xo'jalik korxonalarining - barcha daromadlari va xarajatlari, foya, uni ishlatalishi hisobi uchun mo'ljallangan vaqtinchalik (tranzit) schyotlarning ma'lumotlari hisoblanadi. Hisobotning alohida satrlari quyidagi tartibda shakllantiriladi.

Satr Kodi	Satr nomi	Satrni to'ldirish tartibi
010	Mahsulot (tovarlar, ish va xizmat)larni sotishdan tushgan sof tushim	Etishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari, tovarlar, ish va xizmatlarni sotishdan tushgan sof tushum hisobi uchun mo'ljallangan 9010, 9020, 9030 schyotlarning Kredit oboroti summalari yig'indisidan qaytarilgan mahsulotlar (ish, xizmatlar) summalarini, berilgangan chegirmalar summalarini (9040 va 9050 schyotlarning debet oborot summalarini) ayirish orqali topiladi va daromadlar ustunchasida ko'rsatiladi.
020	Sotilgan mahsulot (tovarlar, tsh va xizmat) larning tannarxi	Etishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari, tovarlar, ish va xizmatlarning sotish tannarxi hisobi uchun mo'ljallangan 9110, 9120, 9130, 9140, 9150 schyotlarning debet oboroti summalari yig'indisi xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi.
030	<b>Mahsulot (tovarlar, ish va</b>	<b>010 va 020-satrлар summalarining farqi yoziladi. Ijobiy</b>

	<b>xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari)</b>	farq olingan foydani ko'rsatadi va u daromadlar ustunchasiga yoziladi. Salbiy farq sotishdan ko'rilgan zararni ifodalaydi va u xarajatlar ustunchasiga yoziladi.
<b>040</b>	<b>Davr xarajatlari, jami</b>	<b>050, 060, 070, 080-</b> satrlarning summalarini yig'indisi ko'rsatiladi.
	Shu jumladan:	
050	Sotish xarajatlari	Sotish xarajatlari hisobi uchun mo'ljallangan 9410 schyotning debet oborot summasi xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi
060	Ma'muriy xarajatlar	Ma'muriy xarajatlar hisobi uchun mo'ljallangan 9420 schyotning debet oborot summasi xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi
070	Boshqa operasion xarajatlar	Boshqa operasion xarajatlar hisobi uchun mo'ljallangan 9430 schyotning debet oborot summasi xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi.
080	kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari	kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari hisobi uchun mo'ljallangan 9440 schyotning debet oborot summasi xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi.
090	Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar	Asosiy faoliyatga doir boshqa daromadlar hisobi uchun muljallangan 9310 - 9390 schyotlarning kredit oborot summalarini yig'indisi daromadlar ustunchasida ko'rsatiladi
<b>100</b>	<b>Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)</b>	<b>030 satr - 040 satr + 090 satr. Foyda summasi daromadlar ustunchasida, zarar summasi esa xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi.</b>
<b>110</b>	<b>Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami</b>	<b>120, 130, 140, 150, 160 –satrlar summalarining yig'indisi</b>
	Shu jumladan:	
120	Dividendlar ko'rinishidagi daromadlar	Dividendlar ko'rinishidagi daromadlar hisobi uchun mo'ljallangan 9520 schyotning kredit oborot summasi daromadlar ustunchasiga yoziladi
130	Foizlar ko'rinishidagi daromadlar	Foizlar ko'rinishidagi daromadlar hisobi uchun mo'ljallangan 9530 schyotning kredit oborot summasi daromadlar ustunchasiga yoziladi.
140	Uzoq muddatli ijara (lizing)dan daromadlar	Uzoq muddatli ijara (lizing)dan daromadlar hisobi uchun mo'ljallangan 9550 schyotning kredit oborot summasi daromadlar ustunchasiga yoziladi.
150	Valyuta kursi farqidan daromadlar	Valyuta kursi farqidan daromadlar hisobi uchun mo'ljallangan 9540 schetning kredit oborot summasi daromadlar ustunchasiga yoziladi.
160	Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari hisobi uchun mo'ljallangan 9510, 9560, 9590 schyotlarning kredit oborot summalarini yig'indisi daromadlar ustunchasiga yoziladi.
<b>170</b>	<b>Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar</b>	<b>180, 190, 200, 210 satrlar summalarining yig'indisi xarajatlar ustunchasiga yoziladi.</b>
	Shu jumladan:	
180	Foizlar ko'rinishidagi xarajatlar	Foizlar ko'rinishidagi xarajatlar hisobi uchun mo'ljallangan 9610 schetning debet oborot summasi xarajatlar ustunchasiga yoziladi.
190	Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha foizlar ko'rinishidagi xarajatlar	Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) buyicha foizlar ko'rinishidagi xarajatlar hisobi uchun mo'ljallangan 9610 schyotning debet oborot summasi xarajatlar ustunchasiga yoziladi.
200	Valyuta kursi farqidan zararlar	Valyuta kursi farqidan zararlar hisobi uchun mo'ljallangan 9620- schyotning debet oborot summasi xarajatlar

		ustunchasiga yoziladi.
210	Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar	Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar hisobi uchun mo'ljallangan 9630, 9690 schyotlarning debet oborot summalarini yig'indisi xarajatlar ustunchasiga yoziladi.
220	<b>Umumxo'jalik faoliyati foydasi (zarari)</b>	<b>100-satr + 110-satr -170 –satr. Foyda summasi daromadlar ustunchasida, zarar summasi esa xarajatlar ustunchasida Ko'rsatiladi.</b>
230	Favqulotdagi foyda va zararlar	Favqulotdagi foyda hisobi uchun mo'ljallangan 9710 schyotning kredit oborot summasi daromadlar ustunchasiga va favqulotdagи zararlar hisobi uchun mo'ljallangan 9720 schyotning debet oborot summasi xarajatlar ustunchasiga yoziladi.
240	<b>Daromad (foyda) solig'ini tulago'nga qadar foyda (zarar)</b>	<b>220-satr (+ -) 230-satr. Foyda summasi daromadlar ustunchasida, zarar summasi esa xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi.</b>
250	Foyda solig'i	Foyda solig'i (yagona soliq to'lovi) hisobi uchun mo'ljallangan 9810 schyotning debet oborot summasi xarajatlar ustunchasiga yoziladi.
260	Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar hisobi uchun mo'ljallangan 9820,9830 schyotlarning debet oborot summalarini xarajatlar ustunchasiga yoziladi.
270	<b>Hisobot davrining sof foydasi (zarari)</b>	<b>240 -satr - 250-satr - 260-satr. Foyda summasi daromadlar ustunchasida, zarar summasi esa xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi.</b>

### Pul oqimlari to'g'risida hisobot (4-shakl)

Hisobotning asosiy maqsadi, bo'lib qishloq xo'jalik korxonalari hisobot davrida yuz byergan pul oqimlari (kirim va chiqim), shuningdek pul mablag'larining davr boshi, va oxiridagi holati to'g'risida yig'ma ma'lumotlarni aks ettirish hisoblanadi.

Pul oqimlari to'g'risida hisobot ikki bo'limdan iborat. Uning birinchi bo'limida milliy valyutadagi pul mablag'larining holati va harakati, ikkinchi bo'limida esa chet el valyutasidagi pul mablag'larining holati va harakati O'zbekiston Respublikasi markaziy bankning rasmiy e'lon qilgan kursi bo'yicha milliy valyutada aks ettiriladi.

Hisobotda pul oqimlarini aks ettiruvchi ko'rsatgichlar qishloq xo'jalik korxonalari pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni quyidagi faoliyat turlari bo'yicha ifoda etadi:

**1. Asosiy (operasion) faoliyat bo'yicha.** Bu bo'limda sotilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari, tovarlar ish va xizmatlar uchun tushumlar, tovar-moddiy boyliklar, ish va xizmatlar uchun ta'minotchi va pudratchilarga to'langan to'lovlar, xodimlar nomidan to'langan daromad solig'i va boshqa to'lovlar, ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlar, shuningdek asosiy faoliyatga doir boshqa turdagи to'langan pul mablag'lari mos ravishda kirim va chiqim ustunchalarida (010-050 satrlar) aks ettiriladi. Chet el valyutasidagi asosiy faoliyaga doir pul mablag'larining kirim va chiqimi ma'lumotnomaning 261, 262, 264, 271, 273-ustunchalarida ko'rsatiladi.

**2. Investisiya faoliyati bo'yicha.** Ushbu bo'limda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar, shuningdek uzoq va qisqa muddatli investisiyalarni sotib olish hamda sotishga doir pul oqimlari mos ravishda kirim va chiqim ustunchalarida (060-100 satrlar) ko'rsatiladi.

**3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha.** Bu bo'limda olingan va to'langan foizlar, olingan va to'langan dividendlar, aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan tushumlar, xususiy aksiyalarni sotib olishga sarflangan pul mablag'lari, uzoq va qisqa muddatli kreditlar va qarzlar bo'yicha pul tushumlari va to'lovlar, uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha pul tushumlari va to'lovlar, moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari to'lovlar mos ravishda kirim va chiqim ustunchalarida (110-180 satrlar) ko'rsatiladi. Chet el valyutasidagi moliyaviy faoliyatga doir pul mablag'larining kirim va chiqimi ma'lumotnomaning 263, 272- ustunchalarida ko'rsatiladi.

Hisobotda daromad (foyda) va boshqa soliq to'lovlari alohida bo'limda (190-210 satrlar) ko'rsatiladi.

Har bir bo'limdan keyin hisobotning alohida satrlarida faoliyat turi bo'yicha sof pul kirimzchiqimi ko'rsatiladi. Bu qishloq xo'jalik korxonalarida har bir faoliyat bo'yicha hisobot davrida ko'proq, kirimga yoki chiqimga yerishganlikni aniqlashga imkon byeradi.

Hisobotning alohida satrida (220-satr) qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy-xo'jalik fabliyatining jami sof pul kirimzchiqimi barcha faoliyat turlari bo'yicha birgalikda ko'rsatiladi. Buning uchun barcha faoliyat turlari bo'yicha pul tushumlari va to'lovlarning guruhlangan summalarini (050,100, 180, 210-satr)ning farqi (+,-) mos ravishda kirim yoki chiqim ustunida aks ettiriladi.

Hisobotning oxirgi ikkita satrida (230 va 240-satr) mos ravishda hisobot davning boshi va oxirida mavjud pul mablag'larining qoldiq summalarini ko'rsatiladi. Bunda 240-satrda ko'rsatilgan pul mablag'larining oxirgi qoldig'i 230-satrda ko'rsatilgan pul mablag'larining bosh qoldig'i va 220-satrda ko'rsatilgan hisobot davridagi pul mablag'larining sof kirim z chiqim summalarini yig'indisi yoki ayirmasiga teng bo'lishi lozim.

Pul oqimlari to'g'risida hisobot pul mablag'lari hisobi uchun muljallangan schyotlar (5000, 5100, 5200, 5500, 5600, 5700) ma'lumotlari asosida tuziladi.

### **Xususiy kapital to'g'risida hisobot (5-shakl)**

Ushbu hisobotning asosiy maqsadi foydalanuvchilarga qishloq xo'jalik korxonalarining xususiy kapitalining holati va uning o'zgarishi to'g'risida pul o'lchov birligidagi ma'lumotlarni byerish hisoblanadi.

Hisobot to'qqizta ustunchadan iborot. Uning 1 va 2-ustunlarida hisobotning ko'rsatkichlari va ularga birikilgan satrlarning raqamlari ko'rsatiladi. Hisobotning 3-8 ustunlari xususiy kapitalning turlarining holati va harakatiga doir ma'lumotlarni aks ettirishga mo'ljallangan.

Hisobotning har bir satrida xususiy kapitalning holati, ko'payishi va kamayishi, shuningdek turli boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi. Ushbu ma'lumotlar xususiy kapitalning elementlarini hisobi uchun mo'ljallangan schyotlardan (8300, 8400, 8500, 8600, 8700, 8800) olinadi.

### **Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqida ma'lumotnomma (2a- shakl)**

Ushbu ma'lumotnomaning asosiy maqsadi - qishloq xo'jalik korxonalarining hisobot davri oxiriga bo'lgan debitorlik va kreditorlik qarzlarini to'g'risida ma'lumotlarni turli belgilari bo'yicha guruhlab ko'rsatish. Ma'lumotnomma 12 ta ustunchadan iborot. Uning 2- ustunida debitorlar va kreditorlarning nomi, 3-ustunchada jami umumiyligi qarzlar, 4-ustunchada jami qarzlardan; muddati o'tgani ko'rsatiladi. Ma'lumotnomaning 5-12-ustunchalari qishloq xo'jalik korxonalariga taalluqli bo'limgan sabablar bo'yicha vujudga kelgan qarzlar to'g'risida axborotlarni byerishga mo'ljallangan, jumladan:

5- va 6- ustunchalarda bunday qarzlarning mos ravishda jami va muddati o'tgan summasi;

7- va 8- ustunchalarda xukumat qaroriga asosan oldindan xaq to'lamay sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar bo'yicha qarzlarning mos ravishda jami va muddati o'tgan summasi;

9-va 10- ustunchalarda davlat resurslari va jamg'armalaridan ko'zga tutilgan xom-ashyo va matyeriallar bo'yicha o'tkazilgan bank to'lovlarning mos ravishda jami va muddati o'tgan summasi;

11- ustunchada xukumat qarori bo'yicha kechiktirilgan qarzlar;

12-ustunchada qonun hujjatlariga muvofiq bildirilgan da'volar bo'yicha sud jarayonida ko'rib chiqilayotgan yoki xo'jalik sudi tomonidan kreditorlardan undirish to'g'risida qaror chiqqan qarzlar summasi ko'rsatiladi.

Ma'lumotnomada ko'rsatilgan debitorlik qarzlarning umumiyligi buxgaltyeriya balansining 110 va 210- satrlaridagi summalariga (alohida bo'linmalarning qarzlaridan

tashqari), shuningdek kreditorlik qarzlarning umumiy summasi buxgaltyeriya balansining 491 va 601-satrlaridagi summalariga mos kelishi shart.

Moliyaviy hisobotga yozilgan tushuntirish xatida qishloq xo'jalik korxonalarining hisob siyosatidagi o'zgarishlarning sabablari, moliyaviy-xo'jalik faoliyatida mavjud salbiy jihatlar, jumladan xo'jalik faoliyatini zarar bilan yakunlashga olib kelgan sabablar ohib berilganadi. Bunday tushuntirishlar moliyaviy hisobot foydalanuvchilarini qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlashda, shuningdek hisobot asosida to'g'ri boshqaruv qarorlar qabul qilinishida muhim ahamiyat kasb etadi.

## O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN TEST SAVOL-JAVOBLARI

### Xo'jalik muomalasi:

*"Yangi asr" fermer xo'jaligi ( tarmoq kodi 21120 ), xodimlarning jami soni 46 kishi, qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchisi sifatida yagona yer solig'i, boshqa faoliyat turlaridan yagona soliq to'lovini to'lovchisi hisoblanadi. Yer uchastkalari maydoni 242 ga, yer uchastkasining nomativ qiymati 42050 ming so'm, yagona yer solig'i stavkasi 3,5 % ( yer uchastkasi nomativ qiymatiga nisbatan).*

#### 2009 yilda yerishilgan natijalar:

-o'zi etishtirgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingan sof tushum 600 mln.so'm;

-chetdan olingan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslashdan olingan omuxta emni sotishdan olingan itushum 200 mln.so'm;

-chetdan sotib olingan emlarni ulgurji sotishdan olingan tushum 150 mln.so'm;

-sotish tannarxi jami 771 mln.so'm, shundan:

-o'zi etishtirgan mahsulotlarining sotish tannarxi 500 mln.so'm;

-chetdan olingan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslashdan olingan omuxta emning sotish tannarxi 156 mln.so'm;

-chetdan sotib olingan emlarni sotish tannarxi 115 mln.so'm;

-davr xarajatlari-80 mln.so'm, shundan sotish xarajatlari 12,5 mln.so'm, boshqaruv xarajatlari 27,5 mln.so'm, boshqa operasion xarajatlar 40 mln.so'm;

-olingan divedendlar (dividend solig'i ushlangan) -2 mln.so'm;

-to'langan foizlar 3 mln.so'm;

-favqulotdag'i zararlar 6 mln.so'm;

-beg'araz olingan mulk-10 mln.so'm;

-voz kechilgan kreditorlik qarzlar-4 mln.so'm.

Soliq qonunchiligi hujjatlariga ko'ra qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslash faoliyati 6 % lik, ulgurji savdo faoliyati 5%lik YaSTga tortiladi. Fermer xo'jaligining boshqa faoliyatidan olingan daromadlari uning tarmoq Kodiga mos ravishda soliqqa tortiladi. Byudjetdan tashqari pensiya fondiga majburiy ajratma stavkasi -1,6%, yo'l jamg'armasiga majburiy ajratma stavkasi -1,4%, ta'lim va sog'lijni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratma stavkasi -0,5% qilib belgilangan.

Ushbu xo'jalik situasiyasida keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi savollarga to'g'ri javoblarni toping.

**1. Fermer xo'jaligining yagona yer solig'iga tortiladigan sof tushumi teng:**

- a) 600 mln.so'm;                    b) 750 mln.so'm;  
v) 950 mln.so'm;                    g) 200 mln.so'm;

**2. Fermer xo'jaligining 6%lik yagona soliq to'loviga tortiladigan sof tushumi teng:**

- a) 600 mln.so'm;                    b) 750 mln.so'm;  
v) 950 mln.so'm;                    g) 200 mln.so'm;

**3. Fermer xo'jaligining 5 %lik yagona soliq to'loviga tortiladigan sof tushumi teng:**

- a) 600 mln.so'm;                    b) 150 mln.so'm;  
v) 950 mln.so'm;                    g) 200 mln.so'm;

**4. Fermer xo'jaligining yagona yer solig'i summasi teng:**

- a) 21 mln.so'm; b) 1,47 mln.so'm;  
 v) 4,74 mln.so'm; g) 2,47 mln.so'm;

**5. 1,6%lik pensiya fondiga ajratma summasi teng:**

- a) .9,6 mln.so'm;                            b) 12,0 mln.so'm;  
 v) 15,2 mln.so'm;                            g) 3,2 mln.so'm;

**6. 0,5%lik ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratma summasi teng:**

- a) 3,0 mln.so'm; b) 3,75 mln.so'm;  
v) 4,75 mln.so'm; g) 1,0 mln.so'm;

7. 1,4 %lik yo'l fondiga ajratma summasi teng:

- a) 8,4 mln.so'm; b) 10,5 mln.so'm;  
 v) 2,8 mln.so'm; g) 13,3 mln.so'm;

#### **8. Fermer xo'jaligining 2009 yil yakuni bo'yicha sotishdan olingan foydasi teng:**

- a) 100 mln.so'm; b) 179 mln.so'm;  
v) 115 mln.so'm; g) 156 mln.so'm;

9. Fermer xo'jaligining 2009 yil yakuni bo'yicha asosiy faoliyatdan olingan foydasi teng:

- a) 103 mln.so'm;  
v) 115 mln.so'm;

**10. Fermer xo'jaligining 2009 yil yakuni bo'yicha umumxo'jalik faoliyatdan olingan foydasi teng:**

- a) 102 mln.so'm; b) 103 mln.so'm;  
v) 112 mln.so'm; g) 105 mln.so'm;

**11. Fermer xo'jaligining 2009 yil yakuni bo'yicha soliqqacha foydasi teng:**

- a) 97 mln.so'm; b) 96 mln.so'm;  
 v) 107 mln.so'm; g) 106 mln.so'm;

**12. Fermer xo'jaligining 2009 yil yakuni bo'yicha 6%lik YaST summasi teng:**

- a) 45,0 mln.so'm; b) 12,0 mln.so'm;  
 v) 16,0 mln.so'm; g) 36,0 mln.so'm;

### **13. Fermer xo'jaligining 2009 yil yakuni bo'yicha 5 %lik YaST summasi teng:**

- a) 23,5 mln.so'm;  
v) 7,5 mln.so'm;

**14. Fermer xo'jaligining 2009 yil yakuni bo'yicha olingan sof foydasi teng:**

- a) 65,5 mln.so'm; b) 51,78 mln.so'm;  
 v) 32,25 mln.so'm; g) 85,3 mln.so'm;

**15. Byudjetga to'lanadigan yagona yer solig'i summasi aks ettiriladi:**

- a) Debet 9810 Kredit 6410 23,5 mln.so'mga;  
 b) Debet 9430 Kredit 6410 1,47 mln.so'm;  
 v) Debet 9430 Kredit 6410 16 mln.so'm;  
 g) Debet 9810 Kredit 6410 7,5 mln.so'm;

#### **16. Byudjetga to'lanadigan yagona soliq to'lovi summasi aks ettiriladi:**

- a) Debet 9810 Kredit 6410 19,5 mln.so'mga;  
b) Debet 9430 Kredit 6410 1,47 mln.so'm;  
v) Debet 9430 Kredit 6410 12,0 mln.so'm;  
g) Debet 9810 Kredit 6410 7,5 mln so'm;

17 Rybdjetidan fashgoari fondlarga maiburii airtamalar summasi aks ettiriladi:

- a) Debet 9810 Kredit 6410 33,25 mln.so'mga;  
b) Debet 9430 Kredit 6410 28,0 mln.so'm;  
v) Debet 9430 Kredit 6410 12,8 mln.so'm;  
g) Debet 9810 Kredit 6410 4,0 mln.so'm;

g) Debet 9810 Kredit 6410 4,0 mln. so m.,  
**18. kelgusi dayr xarajatlari goldig'i qaysi hisobet shaklida aks ettiriladi?**

- a) buxgaltyeriya balansida ; b) moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotda;  
v) xususiy kapital to'g'risida hisobotda; g) yuqorida keltirilgan hisobotlarda aks ettirilmaydi.

**19. Qishloq xo'jaligi korxonasining sof tushumi qaysi hisobot shaklida aks ettiriladi?**

- a) buxgaltyeriya balansida ; b) moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotda;  
v) xususiy kapital to'g'risida hisobotda; g) yuqorida keltirilgan hisobotlarda aks ettirilmaydi.

**20. Qishloq xo'jaligi korxonasining hisobot davridagi sof foydasi qaysi hisobot shaklida aks ettiriladi?**

- a) buxgaltyeriya balansida; b) moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotda;  
v) xususiy kapital to'g'risida hisobotda; g) yuqorida keltirilgan hisobotlarda aks ettirilmaydi.

**21. Qishloq xo'jaligi korxonasiga haridorlardan kelib tushgan pul mablag'lari qaysi hisobot shaklida aks ettiriladi?**

- a) buxgaltyeriya balansida ; b) moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotda;  
v) xususiy kapital to'g'risida hisobotda; g) pul oqimlari to'g'risida hisobotda.

**22. Qishloq xo'jaligi korxonasida muddati o'tib kelgan debitorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar qaysi hisobot shaklida aks ettiriladi?**

- a) buxgaltyeriya balansida ; b) moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotda;  
v) debitorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risida ma'lumotnomada;  
g) pul oqimlari to'g'risida hisobotda.

**23. Kichik biznes sub'ekti hisoblangan qishloq xo'jaligi korxonalari moliyaviy hisobotni topshiradilar:**

- a) har oyda; b) har chorakda;  
v) yil yakuni bo'yicha; g) ikki yilda bir marta.

**24. Kichik biznes sub'ekti hisoblangan qishloq xo'jaligi korxonalari topshiradigan moliyaviy hisobotni tarkibiga kirmaydi:**

- a) buxgaltyeriya balansida; b) moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotda;  
v) debitorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risida ma'lumotnomada;  
g) pul oqimlari to'g'risida hisobotda.

**25. Qishloq xo'jaligi korxonasi buxgaltyeriya balansi asosida uning joriy to'lov qobiliyati darajasi ( koefisienti) qanday topiladi?**

- a) balans valyutasi summasi majburiyatlar summasi bo'linadi ;  
b) joriy aktivlar summasi joriy majburiyatlar summasiga bo'linadi;  
v) pul mablag'lari joriy majburiyatlar summasiga bo'linadi;  
g) balans aktivi 2-bo'limi summasini balans passivi 2-bo'limi summasiga bo'lish yo'li bilan.

**O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR**

1. Qishloq xo'jalik korxonalarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarini va ularni hisobda aks ettirilishini tushuntiring?
2. Qishloq xo'jalik korxonalarini soliqqa tortish bo'yicha davlat siyosatini tushuntiring?
3. Qishloq xo'jalik korxonalarida soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarning hisobni tushuntiring?
4. Qishloq xo'jalik korxonalarida majburiy ajratmlar va to'lovlarining hisobga olinishini tushuntiring?
5. Qishloq xo'jalik korxonalarida tuziladigan moliyaviy hisobotning turlarini va tarkibini ayтиб byering?
6. Qishloq xo'jalik korxonalarida tuziladigan moliyaviy hisobotning taqdim etish muddatlarini tushuntirib byering?
7. Qishloq xo'jalik korxonalarida moliyaviy hisobot shakllarini to'lg'azish xususiyatlarini tushuntirib byering?

## **11-ma'ruza. STATISTIKA FANINING PREDMYETI, USULLARI VA STATISTIK KO'ZATISH**

**Ma'ruzaning asosiy maqsadi** talabalarga quyidagi tayanch iboralar va tushunchalar to'g'risidagi bilimlarni byerish hisoblanadi:

*Statistika, statistikaning predmeti, statistik kuzatish, ma'lumotlarni ishslash, statistik tahsil, statistik guruhlash, nisbiy miqdorlar, o'rtacha miqdorlar, balans usuli, kuzatish shakllari, statistik hisobot, yusushtirilgan kuzatish.*

*Ma'ruza rejasi:*

- 11.1. Statistika to'g'risida tushuncha.**
- 11.2. Statistikaning predmeti va uslubiyati.**
- 11.3. Statistik kuzatish mohiyati va uning oldiga qo'yiladigan talablar.**
- 11.4. Statistik kuzatish turlari.**
- 11.5. Statistik hisobot, maxsus kuzatish, biznes tekshirishlar va ro'yxatlar.**
- 11.6. Statistik kuzatish xatolari va ularni aniqlash yo'llari.**

### **MAVZUNI CHUQUR O'RGANISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ME'YORIY- HUQUQIY HUJJATLAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat Statistikasi to'g'risida"gi qonuni. 1993 yil 2-sentyabr.
  2. "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 8 yanvar 2003 yil 8 – sonli qarori.
  3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi haqida Nizom. 8 yanvar 2003 yil 8 – sonli Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan.
  4. "Davlat statistika hisobotini taqdim etish tartibini buzganlik uchun javobgarlik haqida" O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining qarori.
  5. Eliseeva I.I. Obaya tioriya statistiki. – M.: Finansi i statistika, 2005, 30-78 str.
  6. Soatov N.M. Statistika. Darslik. – T.: Tibbiyot nashriyoti, 2003, 36-93 b.
  7. Deev G., Krutova T. Metod osnovnogo massiva v statisticheskix nablyudeniyax. Vestnik statistiki, 1992, №5, 39-43 b.
- Yo. Abdullaev «Statistikaning umumiylari» Darslik. Toshkent «UKituvchi» 1993 yil.  
Yo. Abdullaev «Statistikaning umumiylari» UKuv Kullanmasi. Toshkent «UKituvchi» 2000 yil.  
Yo. Abdullaev «Statistika nazariyasi» 100 ta savol va javob. Toshkent «Mehnat» 2000 yil.  
11. AKbarova Z. R. "Mikroiqtisodiy statistika". O'quv qo'llanma.-T. TDIU. 2004- y.

#### **11.1. Statistika to'g'risida tushuncha**

Jamiyat hayoti, turmushi haqidagi ma'lumotlarga bo'lgan amaliy ehtiyoj statistikani yaratadi.

Ilk bor statistikaning vujudga kelishi amaliy ehtiyojlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Qadim zamonlardayoq qurolli kuchlarga layoqatli kishilar sonini bilish, soliqqa tortish ob'ektlarini belgilash zarurati tug'ilgan. Bu esa davlatni aholi soni va tarkibida bo'layotgan o'zgarishlar ustidan kuzatishlar olib borishga undagan. Qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq, hunarmandchilik, sanoat va boshqa sohalar hamda iqtisodiy aloqalarning taraqqiy etishi xo'jalikka oid hodisa va amallar ustidan muntazam ravishda kuzatish olib borishni taqozo etgan. Natijada baholar va savdo-sotiq statistikasi, mahsulotlarni ishlab chiqarish va taqsimoti statistikasi va boshqa iqtisodiy statistika tarmoqlari vujudga kelgan va rivoj topgan.

"*Statistika*" atamasi lotincha «status» so'zidan olingan bo'lib, hodisalarning holati, ahvolini bildiradi. «Status» so'zi negizada «stato» – davlat, «statiesta» - davlatni biluvchi, «statiestica», ya'ni davlat to'g'risida muayyan bilim ma'lumotlar yig'indisi degan tushunchalar kelib chiqqan.

Dastlab statistika davlatdagi ishlar holatini raqamlar yordamidagi ta'rifi bilan bog'langan. Hozirgi vaqtida statistika deganda ijtimoiy hayotdagi narsalarning hajmi, darajasi


va miqdorini ta'riflovchi raqamlarni, ya'ni statistik ma'lumotlarni tushunamiz. Hozirgi vaqtda statistika deganda:

- o'z ob'ektiga va usuliga ega bo'lgan mustaqil fan tushuniladi.
- amaliy faoliyatdagi mustaqil tarmoqlar, ya'ni makroiqtisodiyot va statistika vazirligi, viloyat iqtisodiyot va statistika bosh boshqarmalari, tumanlardagi iqtisodiyot va statistika bo'limlari;
- ijtimoiy hayotning turli tomonlarini ta'riflaydigan umumiyoq ko'rsatkichlar va statistik raqamlar tushuniladi.

Statistika faoliyatining o'zi – ijtimoiy hayotni tavsiflovchi ma'lumotlarni to'plash, ularni ishlab chiqish va tahlil qilishdir.

## 11.2. Statistikaning predmeti va uslubiyati

Predmet so'zi bir necha lug'aviy ma'noga ega:



**Statistika predmeti** deganda statistika o'rganadigan ob'ekt, ya'ni ommaviy hodisa va jarayonlarning sifat-miqdor aniqligi, ularning rivojlanish qonuniyatlarini miqdoriy nisbatlarda yuzaga chiqishi, o'rganilayotgan ob'ekt mazmunini belgilaydigan bilimlar majmuasi nazarda tutiladi. Bu masalaga statistika qo'llanish sohalari ham aloqadordir.

Statistika ommaviy hodisa va jarayonlarni o'rganadi. Ular biror narsalar to'plamida va o'zaro bog'langan to'plamlar orasida kechadi. Bu yerda hodisa so'zi jamiyat hayotida, turmushda, tabiatda, bir so'z bilan aytganda, moddiy dunyoda haqiqatda bo'lgan real voqeani bildiradi. **Masalan**, aholi soni, paxta hosili, hosildorlik, yalpi hosili, ishchilar soni, yog'ingarchilik (qor yoki yomg'ir yog'ishi), atrof-muhit bulo'g'anishi va hokazolar. Jarayon so'zi voqealar oqimini, ularning ma'lum makon va zamon sharoitida qanday tezlikda kechishini, yuzaga chiqish yoki chiqmasligini, o'zgarishini, hodisalar rivojlanishini anglatadi.

Demak, **ommaviy hodisa** - biror ob'ektlar to'plamida sodir bo'lgan voqeа, harakat natijasi. Masalan, O'zbekiston barcha dehqon, fermer va shirkat ho'jaliklari tomonidan bir yilda etishtirilgan paxta hosili, hamma oilalarda tug'ilgan bolalar soni, yoqqan qor va yomg'ir hajmi, hamma korxona va avtomobillar tomonidan atmosfyeraga chiqarilgan gazlar va hokazolar.

**Ommaviy jarayon** - bu ob'ektlar to'plamida sodir bo'lgan voqealar oqimi va uning xaraktyeri, ularning rivojlanish darajalari, to'plama hodisalar kechishidagi (harakatidagi) o'zgarishlar. **Masalan**, O'zbekistonda tug'ilgan bolalar sonining ko'payishi, tug'ilish darajasining o'zgarishi, umumiyoq ekin maydonida paxta salmog'inining kamayishi va don ekinlari ulushining ortishi va hokazolar.

Ammo ayrim holatlarda to'plam soni ko'paysa ham statistik qonuniyatlar yuzaga chiqmasligi mumkin. Turmushimizda, iqtisodiy hayotda bunday holat quyidagi hollarda kuzatiladi:

- o'rganilayotgan hodisalar qastdan, ataylab qilingan hatti-harakatlar natijasi bo'lsa;
- o'rganilayotgan to'plam tabiatan bir jinsli bo'limganda, ya'ni u har xil sifatga ega bo'lgan hodisalardan tashkil topsa;

Statistik qonuniyatlar namoyon bo'lishi uchun hodisa beg'araz hatti-harakat natijasi, to'plam bir jinsli bo'lishi kerak.

- ommaviy jarayonning turli unsurlariga ta'sir etuvchi ikkilamchi sabablar kuchli o'zaro bog'liq bo'lganda.

Statistika fani barcha ommaviy hodisa va jarayonlarni, qaysi sohalarga ular tegishlilikidan qat'iy nazar, o'rganadi. Bu holda uning univyersal, umumiylilik jihatni namoyon bo'ladi. Ammo, bunda qandaydir zararli unvyersalizm alomatlarini ko'rish noo'rindir. Har qanday fan ma'lum darajada umumiylikkiga ega.

Ommaviy hodisa va jarayonni o'rganayotib, statistika uni miqdoran ya'hi sonlar yordamida ta'riflaydi. Bu esa uning o'rganish predmetidan kelib chiqadi.

Shunday qilib, statistika fanining predmeti ommaviy hodisa va jarayonlarning miqdoriy-sifat aniqligini o'rganish, ularda aniq makon va zamon sharoitida namoyon bo'ladi. Qonuniyatlarini miqdoriy nisbatlar orqali ifodalashdan iborat

**Statistik yig'indi** – muhim belgilarda umumlashgan ob'ektlar yig'indisidir. Ijtimoiy hodisalarni o'rganishda statistika texnika va tabiat omillari ham e'tiborga olinadi. **Masalan**, etishtirilgan mahsulotlarni tekshirishda uning qanday sharoitda, qanday texnika vositalari yordamida etishtirilganligi va qanday agrotexnik tadbirlar ko'rilganligi hisobga olinadi.

**Statistika uslubiyati** deganda ommaviy hodisa va jarayonni ilmiy tekshirishda va boshqarishda, unda namoyon bo'ladi. Qonuniyatlarini o'rganish va ulardan amaliy foydalanish jarayonida qo'llanadigan o'ziga xos uslub, ya'ni usullar, metodlar, yo'llar, vositalar majmuasi tushuniladi. Ommaviy hodisa va jarayonlarning miqdoriy nisbatlarini aniqlash, ularda namoyon bo'ladi. Qonuniyatlarini oydinlashtirish maqsadida amalga oshiriladigan statistik tadqiqotlar bir necha bosqichlarga, ular esa fazalarga bo'linadi. Bosqich va fazalar o'zining maqsadi, vazifalari va xususiyatlari bilan bir biridan ajralib turadi. Shuning uchun har bir faza va bosqichda o'ziga xos tekshirish usullari, yo'llari, vositalari qo'llanadi. Shu bilan birga o'rganilayotgan soha va masalaning xaraktyeriga qarab, unga mos keladigan u yoki bu usul (yoki usullar to'dasi) aniq tekshirishda, uning muayyan fazasi va bosqichida asosiy, etakchi qurol sifatida ishlatiladi.

Ijtimoiy hodisalarning miqdoriy jihatidan o'rganishda statistik tadqiqotning uchta bosqichi mavjud:

1. **Statistik kuzatish**, ya'ni dastlabki statistik ma'lumotlarni to'plash.
2. **To'plangan ma'lumotlarni umumiylashish lab chiqish**. Bu jarayonda ma'lumotlar jamlanadi, umumiyligi ko'rsatkichlar hisoblanadi va natijalar tarzida ifodalanadi.
3. **Tahlil**, bu jarayonda olingan ma'lumotlarning asosiy mazmuni, statistik ma'lumotlarni ishlash natijalari xulosa va yakunlari tarzida ifodalanadi. Bunda mutloq, nisbiy, o'rtacha o'lchamlar, indeks va boshqa shu kabi statistik usullar qo'llaniladi.

Ilmiy statistik kuzatishning bu uch bosqichi o'zaro chambarchas bog'liq holda amal qiladi. Statistik kuzatishda hosil qilingan matyeriallar asosida ajratilgan guruhlar va tuzilgan jadvallar ilmiy hamda umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar olishga xizmat qiladi.

Statistikning eng muhim usullaridan biri *yalpi statistik kuzatishdir*. Bu usulning muhim vazifasi esa ijtimoiy hayotdagi voqealar va jarayonlar to'g'risida aniq, ishonchli hamda ilmiy jihatdan muhim matyeriallar to'plashdir. Bu usul vositasida birliklarning katta sonini ro'yxatga olish bilan rivojlanish qonuniyatlarini aniqlanadi.


**Statistik guruhash** usuli ham statistik kuzatishning muhim tarkibiy qismidir. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, bunda o'rganilayotgan yig'indilar u yoki bu muhim belgilariga qarab bo'laklarga ajratib o'rganiladi.

Ijtimoiy hodisalarni statistik o'rganishda statistik *jadvallar va grafiklar* katta ahamiyatga ega. Jadval va grafiklar statistika ma'lumotlarining natijalarini ifodalash uchun qo'llaniladi.

*Nisbiy va o'rtacha miqdorlar* hamda *iqtisodiy indekslar* va boshqa shu kabi hisoblash usullari muhim o'rinni tutadi, bu usullar vositasida ham ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini ochib ko'rsatiladi. Turli iqtisodiy statistik tahlillarda katta rol o'ynaydigan usullarning biri *balans* usulidir. Xalq xo'jaligi va uning ayrim tarmoqlarining rivojlantirishdagi asosiy proporsiyalarini o'rganishda ana shu usul qo'llaniladi.

### 11.3. Statistik kuzatish mohiyati va uning oldiga qo'yiladigan talablar

Iqtisodiy voqealarni bilish jarayonida statistika muhim rol o'ynaydi. Har qanday davrlarda bo'lganidek, bozor iqtisodiyotida ham iqtisodiy hodisalarni o'rganish ular ustida statistik kuzatishni yo'lga qo'yishdan boshlanadi, bu jarayonda hayotiy voqealar (faktlar) qayd qilinib, ular hisobga olinishi natijasida boshlang'ich ma'lumotlar to'planadi. So'ng'ra ularni qayta ishslash yo'li bilan umumlashgan statistik axborot va ko'rsatkichlar yaratiladi. Ularni statistika uslubi yordamida tahlil qilib ommaviy jarayonlarning statistik qonuniyatlarini aniqlanadi. Va nihoyat, bozor hodisalarini bilish jarayoni iqtisodiy qonuniyat va qonunlarni ta'riflash bilan yakunlanadi. 1-chizmada bu jarayon qanday o'zaro bog'langan bosqichlar ketma-ketligida Kechishi tasvirlangan.



1-chizma. Iqtisodiy voqealarni bilish jarayonining bosqichlari.

Ommaviy jarayonlarni statistika jihatidan o'rganish, ya'ni bir turli hodisalar va ularning belgilari orasidagi bog'lanishlarni miqdoriy ifodalab ularning to'plarida namoyon bo'ladi. Statistik qonuniyatlarini aniqlash uchun dastlab ular haqida, o'rganilayotgan ob'ektlar to'g'risida boshlang'ich ma'lumotlar yoki boshqa so'z bilan aytganda xom statistik matyeriallarni to'plash kerak. Mana shu jarayon **statistik kuzatish deb** ataladi.

Kuzatish so'zi quyidagi lug'aviy ma'noga ega:

- biror narsa (predmet, ob'ekt)ni bilish, aniqlash maqsadida sinchiklab ko'zdan kechirish;
- biror narsa yoki kimsani zimdan qarab tekshirib turish, ta'qib qilish;
- voqealarni o'rganish, tekshirish, biror narsa yoki maqsadni nazarda tutish.

**Statistik kuzatish** ommaviy hodisalarni, jarayonlarni sinchiklab tekshirish uchun ular haqida boshlang'ich matyeriallarni to'plashdir. U o'rganilayotgan ob'ektlarni va ularning unsurlarini hisobga olish bilan bog'liq. Hisob – bu biror predmet miqdorini sanab yoki o'lchab aniqlash, biror kimsa yoki narsa mavjud miqdorini belgilash uchun maxsus hujjatda u haqidagi ma'lumotlarni qayd qilish.

Statistik kuzatish xo'jalik va turmush voqealarining hisobiga asoslanadi. Turli shakldagi korxonalar va ularning uyushmalarida xo'jalik voqealari buxgaltyeriya va operativ texnika hisoblarida qayd qilinadi. Statistik kuzatish ko'pincha ana shu hisob turlari ma'lumotlariga tayanadi. Shu bilan birga ayrim iqtisodiy, ishlab chiqarish masalalarini o'rganish uchun bevosita kuzatish ham amalga oshiriladi.

Statistik kuzatish va uning natijasida to'planadigan ma'lumotlar uchta talabga javob byerishi kerak, ya'ni: 1) aniqlik va to'g'rilik; 2) to'lalik va har taraflamalik; 3) taqqoslamalik, solishtirmalik.

**Aniqlik** – bu ma'lumotlarni real hayotiyligi, haqiqatga to'la mos kelishi. Butun statistik kuzatish uslubi, uni tashkil etish va amalga oshirish yo'li ma'lumotlarning aniqligini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ma'lumotlarni **haqqoniyligi** avvalambor kuzatuvchi statistikning qobiliyatiga-uning malakasiga, mahoratiga, tajribasiga, masalaning tushuna bilishiga bog'liq. Ikkinchidan

kuzatish jarayonida foydalaniladigan qurollar sifatiga – kuzatish dasturi, statistik formulalar, savolnomalar, ularni to'ldirish uchun yo'riqnomalar (instruktsiyalar)larning mavjudligi, ular to'liq sodda va tushunarli qilib tuzilishi, jumla va so'zlarining yagona mazmunga ega bo'lishiga bog'liq.

Uchinchidan, ma'lumotlarni aniq va haqqoniyligi bo'lishiga kuzatilayotgan ob'ektning tayyorgarlik darajasi ham ta'sir etadi. **Masalan**, turmush voqealarini kuzatishda aholiga ommaviy axborot vositalari orqali o'tkaziladigan tekshirishning maqsadi, vazifalarini tushuntirish muhim ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, ma'lumotlarni aniqligi, haqqoniyligi kuzatish uslubiga, uslubiy masalalarining to'g'ri echilishiga bog'liq.

Beshinchidan, ma'lumotlarni aniqlik darajasiga ko'rsatkichning sosial funksiyasi ta'sir etadi. **Masalan**, chaqaloqlar o'limi darajasi haqidagi ma'lumotlar noaniqligi bu voqealarni ataylab noto'g'ri hisobga olinishidan kelib chiqadi. Chaqaloq tug'ilganidan so'ng bir oz o'tganda o'lib qolishini ko'pincha o'lik tug'ildi deb qayd qilinadi. O'lik tug'ilgan bola hodisalarini esa chala tug'ilgan bola deb hisobga oladilar. Jinoyatlar soni haqidagi ma'lumotlar ham ishonchsizlik tug'diradi, chunki ular tartibni saqlash va huquqiy tashkilotlar tomonidan qayd etilgan jinoyatlarnigina aks ettiradi.


Ma'lumotlarni to'liqligi, demak, kuzatish jarayonida hamma ob'ektlarni, birliklarni qamrab olish, har biri haqida barcha ko'zlangan ma'lumotlarni to'plashdir.

O'rganish uchun belgilangan ob'ektlarning ayrimlari kuzatishdan tushib qolsa, yoki ayrim belgi qayd qilinmay qolsa, ma'lumotlar ham to'liq bo'lmaydi va ishonchsizlik tug'diradi.

Shuning uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni to'liqligini ta'minlash maqsadida statistika tashkilotlari kuzatish ma'lumotlarining kamini to'ldirishga oid baholash ishlarini amalga oshiradi, ularni hisob to'ldirmalarini baholash deb atash mumkin.

Ayrim hodisalar haqidagi ma'lumotlar bir-birlari bilan taqqoslama, ya'ni vaqt, joy, hudud va uslub jihatidan yagonaviylikka, tuzilish o'xshashligiga ega bo'lishi, bir vaqtida va ma'lum makon chegarasida hamda yagona metodikada to'planishi kerak. Bundan tashqari, boshqa va oldin bajarilgan tekshirishlar bilan solishtirmaligi ta'minlanishi lozim, aks holda hodisa haqida to'g'ri xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Statistik kuzatishni tayyorlash uslubiyati statistik kuzatishning dasturiy-uslubiy va tashkiliy unsurlarini tashkil etadi (2-chizma).



2-chizma. Statistik kuzatishning dasturiy va tashkiliy masalalari.

Kuzatish ob'ekti - bu o'rganilayotgan hodisalar va jarayonlar, ya'ni korxonalar va tashkilotlar, xo'jaliklar, kishilar, oilalar, uy xo'jaliklari va hokazolarni ularning faoliyatini jihatidan qaralgan to'plami.

Kuzatish ob'ektini chegaralash maqsadida senzlardan foydalaniladi. Senz so'zi ikki ma'noga ega bo'lib, birinchi holda ro'yxatlarni anglatadi, ikkinchi holda esa belgi me'yorni bildiradi. kuzatish ob'ektini belgilashda bu tushuncha ikkinchi ma'noda qo'llanadi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi prezidenti 31.08.2003 yil Farmoniga binoan, 1 yanvar 2004 yildan boshlab kichik tadbirkorlik kategoriyasi uchun quyidagi senz belgilangan:

Mikrofirmalar – o'rtacha yillik xodimlar soni quyidagi chegaradan oshiq bo'limgan yuridik shaxs:

- ishlab chiqarish tarmoqlarida – 20 kishi;
- xizmat sohasi va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarida – 10 kishi;
- ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanishda – 5 kishi.

Kichik korxona – o'rtacha yillik xodimlar soni mikrofirmalarga belgilangan chegaradan ortiq ammo quyidagi songacha bo'lgan yuridik shaxs:

- engil va oziq-ovqat, metalga ishlov byerish va asbobsizlik, yog'ochga ishlov byerish, mebel sanoati va qurilish matyeriallari sanoati – 100 kishi;

- mashinasizlik, metalluriya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlov byerish, qurilish va boshqa sanoat ishlab chiqarish sohasida – 50 kishi;

- fan, ilm-fanga xizmat ko'rsatish, transport, aloqa xizmatlar sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa noishlab-chiqarish sohalarida – 25 kishi.

kuzatish ob'ekti bilan bir qatorda uning subekti mavjud. kuzatish subekti deb o'rganilayotgan hodisalar haqidagi ma'lumotlarni qayd qiladigan va to'playdigan yuridik yoki jismoniy shaxslar yuritiladi.

### Statistik kuzatish turlari

Tashkiliy va moliyalashtirish jihatidan statistik kuzatishlarni to'rtta turga bo'lish mumkin: 1) statistik hisobot; 2) maxsus doimiy tekshirishlar; 3) ro'yxatlar; 4) biznes tekshirishlar.

Voqealar sodir bo'lishini qayd qilish vaqtiga qarab statistik kuzatish uch turga ajraladi: 1) uzuksiz (joriy) kuzatish; 2) fursatl kuzatish; 3) bir yo'la kuzatish.

**Fursatl davriy kuzatish** deganda voqeal sodir bo'lgandan so'ng ma'lum vaqt o'tganda uni qayd qilish va kuzatishlarni teng vaqt oralig'ida takrorlab turish tushuniladi. Masalan, har o'n yilda aholi ro'yxatini o'tkazish, talabalar o'zlashtirish darajasini har yarim yilda reyting ballari orqali baholash.

**Bir yo'la kuzatish** deganda qandaydir masalani echish zaruriyati tug'ilganda turli muddat oralig'ida qaytarib turiladigan kuzatish nazarda tutiladi. Bunga misol qilib uy-joy fondi ro'yxati, ko'p yillik mevali daraxtlar ro'yxati, tabiiy ofat natijasida ko'rilgan zararlarni baholash ishlarini ko'rsatish mumkin.

O'rganilayotgan to'plam birliklarini o'z ichiga qamrab olishiga qarab, statistik kuzatish **yoppasiga** kuzatish va **qisman kuzatishga** ajraladi.

Yoppasiga kuzatishda to'plam barcha birliklari haqidagi zaruriy ma'lumotlar to'planadi. Statistik hisobot shu tarzda tashkil etiladi. Uni barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tuzadi va statistika tashkilotlariga taqdim etadi. Aholi ro'yxati, ekin maydonlarining yakuniy hisobi, chorva ro'yxatlari ham yoppasiga kuzatishga misol bo'la oladi.

Yoppasiga kuzatish, ayniqsa, aholi ro'yxati va boshqa ro'yxatlar mamlakatning bir vaqtda barcha hududlarida barcha qisqa muddatda amalga oshiriladi. Shuning uchun ularning dasturi sodda va ixcham kuch va mablag'larni talab qiladi.

Qisman kuzatishda asosiy uslubiy masala umumiyl to'plam birliklari ichidan kuzatish uchun bir qismini to'g'ri olishdan iborat. Bu kichik to'plam shunday shakllantirilishi kerakki, butun umumiyl to'plam birliklari orasidagi o'zaro munosabatlar yuqori darajali aniqlik bilan kuzatish uchun olingan birliklarda ham o'z ifodasini topsin. Shunday sharoitdagina qisman tekshirish natijalari asosida umumiyl to'plam haqida fikr yuritish, xulosa chiqarish imkoniyati (ehtimoli) tug'iladi. Statistikada qisman kuzatishning quyidagi turlari mavjud:

- a) anketa (savolnoma) orqali kuzatish;
- b) asosiy massivni kuzatish;
- v) monografik tasvirlash;
- g) tanlama kuzatish.

**Anketa orqali kuzatishning** mohiyati shundaki, unda tegishli savollar yozilgan varaqalar javob yozib yuborishni iltimos qilib respondentlar orasida tarqatiladi. Ammo varaqlarni to'ldirish ixtiyoriy bo'lgani uchun odatda tarqatilgan anketa ilarni faqat bir qismi javobi bilan qayta olinadi. Natijada qisman kuzatishga ega bo'lamiz.

Qisman kuzatish turlaridan yana biri **asosiy massivni tekshirish** deb ataladi. Uning xususiyati shundaki, kuzatish uchun o'rganilayotgan belgining umumiy hajmida eng salmoqli o'rin tutgan to'plamning asosiy qismi ajratib olinadi, boshqalari esa Kam salmoqqa ega bo'lganligi sababli tashlab yuboriladi, chunki, ular tekshirish natijasiga sezilarli ta'sir etmaydi..

**Monografik tasvirlash** deganda tipik hodisalarini har taraflama chiqur va sinchiklab o'rganish tushuniladi. U yoppasiga kuzatish natijalarini boyitish maqsadida o'tkaziladi. Monografik tasvirlash barcha to'plam haqida fikr yuritish uchun ma'lumot to'plashni ko'zlamaydi va shu bilan qisman kuzatishning boshqa turlaridan farq qiladi.

**Tanlama kuzatish** qisman kuzatish turlari ichida ilmiy asoslangan bo'lib, eng yaxshi natija byeradi. U to'g'ri tashkil etilganda olingen ma'lumotlar umumiy to'plam haqida to'la-to'Kis va aniq fikr yuritish imkoniyatini yaratadi. Tanlama kuzatish deganda umumiy bosh to'plamdan bir qismini ilmiy asoslangan, vakolatlikni to'la ta'minlab byeradigan usullar yordamida tanlab olib tekshirish tushuniladi. U statistika amaliyotida juda keng qo'llanadi. **Masalan**, uy xo'jaliklari byudjeti tanlama kuzatish orqali o'rganiladi. Bozor sharoitida tanlama kuzatishni qo'llash sohalari beqiyos kengayadi.

Statistik kuzatish jarayonida boshlang'ich ma'lumotlarni olish turli usullar yordamida amalga oshiriladi.

Shunga asosan statistik kuzatish to'rt turga bo'linadi:

1. **Bevosita kuzatish** – bu usulning xaraktyerli tomoni shundaki, tekshirishni amalga oshirayotgan tashkilotning vakili kuzatishda bevosita qatnashadi. U kuzatilayotgan narsalarni birma-bir ko'rib, sanab, tortib va o'lchab olgan natijalarini kuzatish varaqasiga yozadi.

2. Hujjatli kuzatish – zarur bo'lgan ma'lumotlar, har xil hujjatlardan olinadi. Bu usul ko'pincha hisobot usuli deb yuritiladi.

3. **Savol-javob yo'li bilan kuzatish** – kuzatilayotgan shaxslarga savollar berilganib, olingen javoblar asosida kuzatish varaqalari to'ldiriladi. Bu holda hech qanday hujjat talab qilinmaydi. Bu usulning o'zi ikkiga bo'linadi:

1. Og'zaki usul (ekspeditsiyon).
2. O'z-o'zini registratsiya qilish usuli.

Og'zaki usulda maxsus tayyorlangan kishilar (ro'yxatga oluvchi, hisobchi) kuzatilayotgan shaxslarga kuzatish varaqasidagi savollarni byerib, olgan javoblarni varaqaga yozadilar. **Masalan**, 1989 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxatida shu usul qo'llangan. O'z-o'zini registratsiya qilish usulida statistika tashkilotlarining vakillari kuzatish varaqalarini kuzatilayotgan shaxslarga tarqatadilar va ma'lum vaqtadan so'ng to'ldirilgan varaqalarini yig'ishtirib oladilar. Varaqalarni to'ldirayotgan shaxslarga tekshirish mohiyatini tushuntirish va yozilgan ma'lumotlarni har taraflama tekshirish vakillarning burchi hisoblanadi. Bu usul uy xo'jaliklar byudjetini tekshirishda, ayrim ro'yxatlarni (masalan 1961 yildagi maktablar ro'yxati) o'tkazishda qo'llanadi.


4. Respondentlar yordamida kuzatish usulida zarur ma'lumotlar statistika boshqarmalariga ixtiyoriy yoki yollanma muxbirlar tomonidan yuborib turiladi.

### **11.5. Statistik hisobot, maxsus kuzatish, biznes tekshirishlar va ro'yxatlar**

Hisobot korxona va tashkilotlar faoliyati haqidagi ma'lumotlarni uzlucksiz, belgilab qo'yilgan tartibda va vaqtda to'plashning muhim yo'li (shakli)dir. "O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistikasi haqidagi" Qonunga muvofiq respublika hududida joylashgan va yuridik

shaxs maqomiga ega bo'lgan barcha korxonalar va tashkilotlar, ularning mulkiy va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar, o'z faoliyati haqida aniq va to'la ma'lumotlarni belgilangan dasturda, tartibda va muddatda tegishli davlat statistika tashkilotlariga taqdim etishga majburdir.

Statistik hisobot shakllari xaraktyeri va mazmuni, hisobot davri, yuborish uslubi, umumlashtirish darajasiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi (3-chizma).



3-chizma. Davlat statistika hisoboti turlari.

Joriy maxsus statistik tekshirishlar deganda statistik tashkilotlar tomonidan maxsus respondentlarni yollab o'rganilayotgan hodisa, jarayon haqidagi boshlang'ich ma'lumotlarni muntazam yoki vaqtma-vaqt qayd qilib to'plash tushuniladi. Bunday kuzatishga uy xo'jaliklari byudjeti statistikasi, iste'mol baholari statistikasi, uyushmagan savdo statistikasi, dehqon xo'jaligi (fermer xo'jaligi bilan aralashtirib yubormang!) statistikasi va h.k. misol bo'lishi mumkin.

Biznes-tekshirishlar bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan statistik kuzatishdir. Ularning asosiy maqsadi tadbirkorlarning iqtisodiy faoliyatini o'rganishdan iborat. Joriy maxsus tekshirishlardan farqli o'laroq, biznes tekshirishlar tadbirkorlardan intyervyu olish, oldin tayyorlangan savollarga yozma yoki og'zaki javoblarni maxsus savolnomalarda qayd qilishga asoslanadi. Ularning o'ziga xos xususiyati shundaki, savolnomalar kompleks xaraktyerga ega bo'lib, o'zaro bog'langan bir-birini to'ldiruvchi savollandan, ularning ma'lum masalaga oid majmualardan tashkil topadi, natijada iqtisodiy faollikni har taraflama yoritish imkonini byeradi.

Joriy maxsus tekshirishlar va biznes tekshirishlar ma'lum masalalarni o'rganishda qo'llanadi. Bundan tashqari, ro'yxatlar ham statistik kuzatishning muhim tashkiliy yo'lli sifatida qo'llanish sohalariga ega.

Asta-sekin bo'ladijan o'zgarishlar jamg'arib, uzoq vaqt o'tganidan so'ng bunday hodisalarni yangi holatda gavdalanishiga sabab bo'ladi, natijada ularning ma'lum Keskin fursat holatidagi qiyofasini suratga olish ehtiyoji tug'iladi. Bunday kuzatishga hodisalarni ro'yxatga olish yordamida yerishiladi. Nisbatan barqarorlik holatiga ega bo'lgan hodisalarga misol qilib aholi soni va tuzilishi, yer maydonining qishloq xo'jaligi uchun yaroqligiga qarab taqsimlanishi, korxonalarning ishlab chiqarish turlari bo'yicha taqsimlanishini ko'rsatish mumkin.

Ro'yxatlar muvaffaqiyatli bo'lishini quyidagi talablar ta'minlaydi:

- ro'yxat qisqa muddatda o'tishi;
- ro'yxat bir vaqtning o'zida butun mamlakat hududida amalga oshishi;

- ro'yxatga olish vaqtı kuzatilayotgan hodisaning eng kam tebranishga ega bo'lgan holatiga tenglashtirilishi;
- har teng vaqt oralig'ida ro'yxatlarni takrorlab turish;
- yangi ro'yxatni o'tkazayotganda olinadigan natijalarni taqqoslamaligini ta'minlash niyatida oldingi kuzatish tartibini saqlab qolish kerak.


### 11.6. Statistik kuzatish xatolari va ularni aniqlash yo'llari

Har qanday kuzatish, qanchalik yaxshi tashkil etilib amalga oshirilmasin, xatolardan xoli bo'lmaydi. Ma'lumotlarni to'plash jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar kuzatish xatolari deb ataladi. Juda katta aniqlikka ega bo'lgan o'lchov vositalari yordamida bajariladigan bir predmetli kuzatishlarda ham xatolar bo'ladi. 4-chizmada statistik kuzatish xatolari turlarga ajratib tasvirlangan.

kuzatish xatolari ikki turga bo'linadi: a) muntazam xatolar va b) tasodifiy xatolar.

**Muntazam xatolari** o'z navbatida ikki xil bo'ladi: a) o'lchov xatolari va b) xususiy xatolar ya'ni kuzatuvchi shaxs xatolari.

Qisman kuzatishlarda voqealarni hisobga olish jarayonida qayd qilish va arifmetik xatolar bilan bir qatorda muntazam xatolar ham uchraydi. Ular g'arazli va g'arazsiz bo'ladi. G'arazli xatolar biror maqsadni ko'zlaydi. Beg'araz xatolar esa kuzatish uslubini, ayniqsa dasturni va yo'riqnomalarni umumiy ko'rinishda mujmal bayon etilishidan va kuzatuvchilarning ishini osonlashtirish uchun belgilangan tartibdan qisman chetlanishidan kelib chiqadi. Shu bilan birga qisman kuzatishlarda xususiy xatolar mavjud, ular reprezentativlik xatolari nomi bilan yuritiladi.



4-chizma. Statistik hisobot xatolari.

Reprezentativlik xatosi deganda tanlama kuzatish natijasida to'plangan ma'lumotlarga asoslanib aniqlangan umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni tekshirayotgan bosh to'planning aynan shunday haqiqiy ko'rsatkichlaridan farqi tushuniladi.

kuzatish natijalarini qabul qilish jarayonida ma'lumotlar har taraflama tekshiriladi.

Dastlab ma'lumotlarni arifmetik jihatdan to'g'riligi tekshiriladi. Bunda murakkab jamlama ko'rsatkichlar tuzilish, o'zaro bog'langan ko'rsatkichlar esa bog'lanish jihatidan arifmetik amallar yordamida (qo'shish, bo'lish va h.k.) tekshiriladi. Shu bilan birga istiqbolda ko'zlangan daraja va oldingi davrda yerishilgan natijalar bilan taqqoslab ham tekshirish amalga oshiriladi.

Ma'lumotlarni to'g'ri yoki to'g'ri emasligini aniqlashda mantiqiy nazorat alohida ahamiyatga ega. Mantiqiy nazorat deganda kuzatish matyeriallarini mazmunan tekshirish tushuniladi. Ular qanchalik xodisa mohiyatiga mos kelishi belgilanadi. Bunda ma'lumotlarda qarama-qarshilik bor-yo'qligi aniqlanadi.

### O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN TEST SAVOL-JAVOBLARI

#### 1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat Statistikasi to'g'risida"gi qonuni qachon qabul qilinlgan?

- a) 1993yil 15 fevral
- b) 1993yil 2 sentyabr
- v) 1992yil 8 dekabr
- g) 1992yil 2 mart

#### 2. Statistika to'g'risida tushunchangiz?

- a) "Statistika" atamasi lotincha «status» so'zidan olingan bo'lib, hodisalarining holati, ahvolini bildiradi.
- b) "Statistika" atamasi lotincha «status» so'zidan olingan bo'lib, hodisalarining holati, ahvolini taxlil Qilishni bildiradi.
- v) "Statistika" atamasi nemescha «status» so'zidan olingan bo'lib, hisoblash degan ma'noni bildiradi.
- g) To'g'ri javob yo'q.

#### 3. Statistika predmeti deganda nimani o'rghanadi.

- a) ya'ni ommaviy hodisa va jarayonlarning sifat-miqdor aniqligi, ularning rivojlanish qonuniyatlarini miqdoriy nisbatlarda yuzaga chiqishi, o'rganilayotgan ob'ekt mazmunini belgilaydigan bilimlar majmuasi nazarda tutiladi.
- b) deganda qandaydir masalani echish zaruriyati tug'ilganda turli muddat oralig'ida qaytarib turiladigan kuzatish nazarda tutiladi.
- v) deganda ommaviy hodisa va jarayonni ilmiy tekshirishda va boshqarishda, unda namoyon bo'ladigan qonuniyatlarini o'rganish va ulardan amaliy foydalanish jarayonida qo'llanadigan o'ziga xos uslub, ya'ni usullar, metodlar, yo'llar, vositalar majmuasi tushuniladi.
- g) To'g'ri javob b va g.

#### 4. Ijtimoiy hodisalarining miqdoriy jihatidan o'rganishda statistik tadqiqotning uchta bosqichi mavjud bular:

- a) statistik nazorat, statistik kuzatish, taxlil.
- b) statistik kuzatish, to'plangan ma'lumotlarni umumiy ishlab chiqish, taxlil.
- v) To'plangan ma'lumotlarni umumiy ishlab chiqish, taxlil, xulosa.
- g) statistik nazorat, taxlil, xulosa.

#### 5. Statistik kuzatish ....

- a) bu biror predmet miqdorini sanab yoki o'lchab aniqlash, biror kimsa yoki narsa mavjud miqdorini belgilash uchun maxsus hujjatda u haqidagi ma'lumotlarni qayd qilish.
- b) ommaviy hodisalarini, jarayonlarni sinchiklab tekshirish uchun ular haqida boshlang'ich matyeriallarni to'plashdir.
- v) biror narsa yoki kimsani zimdan qarab tekshirib turish, ta'qib qilish.
- g) To'g'ri javob a va g.

#### 6. Statistik kuzatish va uning natijasida to'planadigan ma'lumotlar uchta talabga javob byerishi kerak, bular....

- a) to'g'rilik, har taraflamalik, solishtirmalik
- b) aniqlik, haqoniyligi, sifati.
- v) aniqlik, to'lalik, taqqoslamlalik.
- g) To'g'ri javob a va g.

#### 7. Kuzatish ob'ekti ....

- a) voqeal sodir bo'lgandan so'ng ma'lum vaqt o'tganda uni qayd qilish va kuzatishlarni teng vaqt oralig'ida takrorlab turish tushuniladi.
- b) tipik hodisalarini har taraflama chuqur va sinchiklab o'rganish tushuniladi.
- v) bu o'rganilayotgan hodisalar va jarayonlar, ya'ni korxonalar va tashkilotlar, xo'jaliklar, kishilar, oilalar, uy xo'jaliklari va hokazolarni ularning faoliyati jihatidan qaralgan to'plami

g) To'g'ri javob a va g.

**8. Kuzatish ob'ektini chegaralash maqsadida senzlardan foydalaniladi. Senz so'zi ma'nosi...**

- a) ro'yxat. b) belgi me'yor.  
v) kursatgichlar. g) To'g'ri javob a va b.

**9. Kuzatish sub'ekti ... .**

- a) o'rganilayotgan hodisalar va jarayonlar, ya'ni korxonalar va tashkilotlar, xo'jaliklar, kishilar, oilalar, uy xo'jaliklari va hokazolarni ularning faoliyati jihatidan qaralgan to'plami.  
b) deganda ommaviy hodisa va jarayonni ilmiy tekshirishda va boshqarishda, unda namoyon bo'ladigan qonuniyatlarni o'rganish va ulardan amaliy foydalanish jarayonida qo'llanadigan o'ziga xos uslub, ya'ni usullar, metodlar, yo'llar, vositalar majmuasi tushuniladi.  
v) o'rganilayotgan hodisalar haqidagi ma'lumotlarni qayd qiladigan va to'playdigan yuridik yoki jismoniy shaxslar yuritiladi.

g) To'g'ri javob a va b.

**10. Mikrofirmalarga – o'rtacha yillik xodimlar soni ... .**

- a) 5-30 kishi b) 5-50 kishi  
v) 5-20 kishi g) 5-100 kishi

**11. Kichik korxonada – o'rtacha yillik xodimlar soni.... .**

- a) 25-100 kishi b) 25-50 kishi  
v) 25-75 kishi g) 25-150 kishi

**12. Tashkiliy va moliyalashtirish jihatidan statistik kuzatishlarni to'rtta turga bo'lish mumkin: bular...**

- a) 1) statistik hisobot; 2) maxsus doimiy tekshirishlar; 3) uzlusiz (joriy) kuzatish; 4) fursatl kuzatish;  
b) 1) statistik hisobot; 2) maxsus doimiy tekshirishlar; 3) ro'yxatlar; 4) biznes tekshirishlar.  
v) 1) biznes tekshirishlar; 2) maxsus doimiy tekshirishlar; 3) uzlusiz (joriy) kuzatish; 4) bir yo'la kuzatish  
g) To'g'ri javob a va b.

**13. Voqealar sodir bo'lishini qayd qilish vaqtiga qarab statistik kuzatish uch turga ajraladi:**

- a) 1) uzlusiz (joriy) kuzatish; 2) favqulotda kuzatish; 3) anketai orqali kuzatish  
b) 1) uzlusiz (joriy) kuzatish; 2) fursatl kuzatish; 3) bir yo'la kuzatish  
v) 1) uzlusiz (joriy) kuzatish; 2) fursatl kuzatish; 3) anketai orqali kuzatish  
g) 1) uzlusiz (joriy) kuzatish; 2) favqulotda kuzatish; 3) bir yo'la kuzatish

**14. Statistikada qisman kuzatishning quyidagi turlari mavjud:**

- a) anketai (savolnoma) orqali kuzatish;  
b) asosiy massivni kuzatish va tanlama kuzatish;  
v) monografik tasvirlash;  
g) To'g'ri javob a va b,v.

**15. Monografik tasvirlash deganda ... .**

- a) qisman kuzatish turlari ichida ilmiy asoslangan bo'lib, eng yaxshi natija byeradi.  
b) unda tegishli savollar yozilgan varaqalar javob yozib yuborishni iltimos qilib respondentlar orasida tarqatiladi  
v) tipik hodisalarini har taraflama chuqur va sinchiklab o'rganish tushuniladi.  
g) To'g'ri javob yo'q.

**16. Statistik kuzatish jarayonida boshlang'ich ma'lumotlarni olish turli usullar yordamida amalga oshiriladi. Shunga asosan statistik kuzatish to'rt turga bo'linadi:**

- a) 1) statistik hisobot; 2) maxsus doimiy tekshirishlar; 3) ro'yxatlar; 4) biznes tekshirishlar.  
b) 1) bevosita kuzatish; 2) savol-javob yo'li bilan kuzatish; 3) hujjatli kuzatish;4) respondentlar yordamida kuzatish;  
v) 1) statistik hisobot; 2) maxsus doimiy tekshirishlar; 3) uzlusiz (joriy) kuzatish; 4) fursatl kuzatish;

g) To'g'ri javob yo'q.

**17. Bevosita kuzatish ... .**

a) kuzatilayotgan shaxslarga savollar berilganib, olingan javoblar asosida kuzatish varaqalari to'ldiriladi.

b) zarur bo'lgan ma'lumotlar, har xil hujjatlardan olinadi.

v) bu usulning xaraktyerli tomoni shundaki, tekshirishni amalga oshirayotgan tashkilotning vakili kuzatishda bevosita qatnashadi.

g) To'g'ri javob a va v.

**18. Savol-javob yo'li bilan kuzatish ... .**

a) bu usulning xaraktyerli tomoni shundaki, tekshirishni amalga oshirayotgan tashkilotning vakili kuzatishda bevosita qatnashadi.

b) To'g'ri javob a va v.

v) kuzatilayotgan shaxslarga savollar berilganib, olingan javoblar asosida kuzatish varaqalari to'ldiriladi.

g) zarur bo'lgan ma'lumotlar, har xil hujjatlardan olinadi. Bu usul ko'pincha hisobot usuli deb yuritiladi.

**19. Savol-javob yo'li bilan kuzatish usuliga kura ikkiga bulinadi. Bular.... .**

a) 1) O'z-o'zini regitratsiya qilish usuli; 2) Hujjatli kuzatish usuli.

b) 1) Og'zaki usul (ekspeditsion); 2) O'z-o'zini regitratsiya qilish usuli.

v) 1) Og'zaki usul (ekspeditsion); 2) Hujjatli kuzatish usuli.

g) To'g'ri javob a va b

**20. Respondentlar yordamida kuzatish.... .**

a) kuzatilayotgan shaxslarga savollar berilganib, olingan javoblar asosida kuzatish varaqalari to'ldiriladi.

b) zarur bo'lgan ma'lumotlar, har xil hujjatlardan olinadi.

v) usulida zarur ma'lumotlar statistika boshqarmalariga ixtiyoriy yoki yollanma muxbirlar tomonidan yuborib turiladi.

g) To'g'ri javob a va v.

### **O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR**

1. Statistika to'g'risida tushunchangiz?

2. Statistikaning predmetini tushuntirib byering?

3. Statistikani uslubiyati deganda nimani tushunasiz?

4. Statistik kuzatishning mohiyati nima?

5. kuzatish maqsadi va vazifalari deganda nimalar tushuniladi?

6. kuzatish ob'ekti nima va u qanday tartibda chegaralanadi?

7. kuzatish sub'ekti nima?

8. Statistik kuzatishning oldiga qanday talablar qo'yilgan?

9. Statistik kuzatish turlari to'g'risida gapirib byering?

10. Senz nima?

11. Voqealarni qayd qilish vaqtiga qarab statistik kuzatishlar qanday turlarga bo'linadi, ularni mazmuni nimalardan iborat?

Hodisalarни hisobga olish usuli jihatidan statistik kuzatish qanday turlarga bo'linadi?

Yoppasiga kuzatish nima va qanday turlarga bo'linadi?

14. Qisman kuzatish nima?

15. Statistik hisobot va uning turlari haqida gapirib byering?

16. Maxsus kuzatish deganda nimani tushunasiz?

17. Statistik kuzatishda yo'l qo'yiladigan xatolar to'g'risida gapirib byering?

18. Statistik xatolar va ularni aniqlash yo'llarini tushuntiring?

## **12-ma'ruza. QISHLOQ XO'JALIGI STATISTIKASI**

**Ma'ruzaning asosiy maqsadi** talabalarga quyidagi tayanch iboralar va tushunchalar to'g'risidagi bilimlarni byerish hisoblanadi:

*Yer fandi, yer bonitirovKasi, yerdan foydalanish samaradorligi, yer monitoringi, Kadastr maydon, davlat yer Kadastro, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar, aralash ekinlar, bahorgi mahsuldor maydon, ko'p yillik mevali daraxtlar, saralangan urug' koeffisienti, takroriy ekinlar, shartli yalpi hosil, hosil, hosildorlik, hosildorlik, o'rtacha hosildorlik, hosildorlik dinamikasi, mahsuldorlik, sut, yalpi sut, jun mahsuloti, o'rtacha sutkalik o'sish vazni, bir bosh molning o'rta vazni, sigirlarning qisr qolishi, yalpi ishlab chiqarish, sotilgan mahsulot, yalpi qo'shilgan qiymat, sof qo'shilgan qiymat, rentabellik, mahsulot sotishdan olingan foyda, sotilgan mahsulotning rentabelligi, ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot tannarxi, mahsulot birligining tannarxi, tannarx yakka indeksi, tannarx umumiy indeksi.*

### ***Ma'ruza rejasi:***

- 12.1. Yer maydoni va yerdan foydalanish statistikasi.**
- 12.2. Ekin maydoni va ko'p yillik ekinlar statistikasi.**
- 12.3. Dehqonchilik statistikasi.**
- 12.4. chorvachilik statistikasi.**
- 12.5. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari statistikasi.**
- 12.6. Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi statistikasi.**

## **MAVZUNI CHUQUR O'RGANISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ME'YORIY-HUQUQIY HUJJATLAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining “Davlat Statistikasi to'g'risida”gi qonuni. 1993 yil 2-sentyabr.
2. “O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish haqida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 8 yanvar 2003 yil 8 – sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi haqida Nizom. 8 yanvar 2003 yil 8 – sonli Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan.
4. “Davlat statistika hisobotini taqdim etish tartibini buzganlik uchun javobgarlik haqida” O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining qarori.
5. Eliseeva I.I. Obaya tioriya statistiki. – M.: Finansi i statistika, 2005, 30-78 str.
6. Soatov N.M. Statistika. Darslik. – T.: Tibbiyot nashriyoti, 2003, 36-93 b.
7. Deev G., Krutova T. Metod osnovnogo massiva v statisticheskix nablyudeniyax. Vestnik statistiki, 1992, №5, 39-43 b.
8. Yo. Abdullaev «Statistikaning umumiy nazariyasi» Darslik. Toshkent «UKituvchi» 1993 yil.
9. Yo. Abdullaev «Statistikaning umumiy nazariyasi» UKuv Kullanmasi. Toshkent «UKituvchi» 2000 yil.
10. Yo. Abdullaev «Statistika nazariyasi» 100 ta savol va javob. Toshkent «Mehnat» 2000 yil.
11. AKbarova Z. R. “Mikroiqtisodiy statistika”. O'quv qo'llanma.-T. TDIU. 2004- y.
12. Ochilov S. va Yergasheva SH. T. Qishloq va suv xo'jaligi statistikasi. O'quv qo'llanma. T.: 2008 y.

### **12.1. Yer maydoni va yerdan foydalanish statistikasi**

Yer har qanday jamiyat, har qanday mamlakatning beqiyos boyligidir, Yer — bu bitmas-tuganmas xazina, otalar yurti, kelgusi avlodga qoladigan asosiy myeros. Yer — bu qishloq xo'jalinining asosiy ishlab chiqarish vositasi. Yerga ikki jihaldan, birinchidan, hudud, ikkinchidan, tirikchilik manbai, o'simlik va hayvonot dunyosi hayoti uchun zarur bo'lgan tuproq, inson uchun oziq-ovqat, sanoat uchun xomashyo etishtirib byeradigan ekin maydonlari sifatida qarash lozim.

Keyingi yillarda yerga egalik shakllari kengaymoqda. To'g'ri, qishloq xo'jaligi korxonalari qishloq xo'jaligi tasarrufidagi yerlarning 90 foizidan foydalanadi. Qolgan yerdan qishloq xo'jalik korxona va tashkilotlari, xo'jaliklararo korxonalar, dehqon xo'jaliklari va fuqarolar foydalanadilar. Dehqon (fermer) xo'jaliklari, shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish uchun fuqarolarga ajratiladigan yer maydonlari ulushi bundan keyin muttasil kengayib bormoqda. Ammo respublikada yer xususiy mulk bo'lolmaydi. Uning haqiqiy egasi davlat bo'lib, u bu yerkarni qishloq xo'jalik korxonalari, tashkilotlari va xo'jaliklarga, shaxslarga foydalanish uchun byerib qo'yan. Bu korxonalar, xo'jaliklar, shaxslar o'zları foydalanib to'rgan yerkarni sotishi yoki sotib olishi mumkin emas. Faqat uzoq yoki qisqa muddatli ijaraga byerishlari mumkin. Yerdan bunday foydalanishning sababi O'zbekistonda, umuman markaziy Osiyoda ekin maydonlarining cheklanganligidir. Chunki, dehqonchilik tarixan sug'orish madaniyatiga asoslangan.

Yer qishloq xo'jaligida asosiy vosita hisoblanadi. Lekin u o'zining ayrim xususiyatlari bilan boshqa vositalardan farq qiladi. Jumladan:

- 1) yer boshqa asosiy vositalar singari ishlatish mobaynida eskirmaydi va ishdan chiqmaydi. Aksincha, undan to'g'ri foydalanilsa, unumdorligi orta boradi;
- 2) har qanday asosiy vositalarni boshqa vositalar bilan almashtirish mumkin, lekin yerni almashtirib bo'lmaydi;
- 3) boshqa vositalar singari yer bir joydan ikkinchi joyga ko'chirilmaydi;
- 4) eng muhimmi uni insonning xohishi bilan cheksiz ko'paytirib bo'lmaydi, chunki u tabiatda cheklangandir. Shuning uchun ham xo'jaliklar o'zlariga biriktirilgan yerdan samarali foydalanishlari zarur.
- 5) ma'lumki, aholining ko'payishi, yo'llar, shaharlarning kengayishi va sanoatning intensiv rivojlanishi natijasida har bir kishiga to'g'ri keladigan haydaladigan yer maydoni ham tobora qisqarib bormoqda. Bu hoi ham yerdan unumli foydalanishga e'tiborni kuchaytirishni taqozo qiladi. Binobarin, har bir xo'jalikda yerdan unumli foydalanish choralar belgilanishi kerak.

Yer — boyliklar manbai. Uni qanchalik e'zozlasak, ardoqlasak, kuchiga kuch qo'shsak, u sahovatini, noz-ne'matini ayamay byeravyeradi. Shuning uchun ham har bir ishchi va mutaxassis yerning tejamli xo'jayini bo'lishi, hosildorlikni muttasil oshirishga yerishmog'i lozim.

Yerdan foydalanishni tahlil qilishning asosiy maqsadi va vazifasi:

- yer fondi tuzilishini yanada yaxshilash imkoniyatlarini aniqlash;
- ekin maydonlarining eng qulay rasional tuzilishini ishlab chiqish;
- barcha qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini iqtisodiy samaradorligini imkon boricha oshirish;
- yerning unumdorligini yanada ko'tarish;
- bo'sh yotgan yerkarni qidirib topish, ularni ekinzorlarga aylantirish;
- har bir gektar qishloq xo'jalik yerkarnidan samaraliroq foydalanish kabilardan iboratdir.

Mamlakat **yer fondi** deyilganda unda mavjud bo'lgan quruqlikdagi va suv ostidagi barcha yer maydonlari yig'indisi tushinaladi (11.1- jadval).

*11.1- jadval*

**Umumiy yer maydoni va uning taqsimlanishi (1996—2000 yillar, ming/ga)**

<b>ko'rsatkichlar</b>	<b>1996</b>	<b>1997</b>	<b>1998</b>	<b>1999</b>	<b>2000</b>
Umumiy yer maydoni (hudud) shu jumladan: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida foydalaniladigan yerlar shundan:	44890,1	44890,1	44890,1	44890,1	44890,1
— qishloq xo'jaligi korxonalar, xo'jaliklari va aholi yeri	29657,7	25359,5	25295,9	25789,8	25736,0
— o'rmon yer fondi	23999,6	20572,2	20462,8	20973,6	20915,6
— suv osti yer fondi	7294,4	8665,4	8696,5	8050,4	8073,2
— zahira yer fondi	797,4	798,5	799,3	810,2	813,8
	4585,6	7460,9	7488,6	7582,5	7596,1

Respublikamizning yer fondi 44,5 million gektarga teng. Barcha yerlar davlatning yagona yer fondini tashkil etadi. Bu fond foydalanish darajasiga qarab 7 ta toifaga bo'linadi:

1. Aholi yashaydigan yerlar. Bunga shaharlar, shahar tipidagi qishloqlar va aholi yashaydigan qishloq punktlarining yerlari kiradi.

2. Sanoat, transport, kurortlar, qo'riqxonalar uchun mo'ljallangan yerlar.

3. Davlat o'rmon fondi yerlari. Bunga o'rmon bilan qoplangan, shuningdek, o'rmonchilik xo'jaligining ehtiyoji uchun mo'ljallangan yerlar kiradi.

4. Davlat yer zahiralari. Bunga yerdan foydalanuvchilarga muddatsiz va uzoq muddat bilan foydalanishga berilgangan yerlarning hammasi kiradi.

5. Davlat suv fondi yerlari. Bunga daryolar, suv omborlari, kanallar, muzliklar, suv xo'jaligi inshootlari bilan qoplangan yerlar kiradi.

6. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar. Bunga xo'jaliklarga qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun byerib qo'yilgan yoki shu maqsadlar uchun mo'ljallab qo'yilagan yerlarning hammasi kiradi.

7. Yer fondining tarkibi doimiy bo'lmaydi. Masalan, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi jarayonida qishloq xo'jaligiga yaroqsiz yerlarning bir qismi qisqaradi. Natijada qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar maydonining kengayishi sodir bo'ladi. Yoki buning aksi, ya'ni xo'jalikda yerdan unumsiz foydalanganligi tufayli qishloq xo'jaligiga yaroqsiz yerlarning maydoni ko'payishi mumkin. Shuning uchun ham har bir xo'jalik tahlilni yer fondini tahlil qilishdan boshlanishi kerak.

Xo'jalikning yer fondi va uning tuzilishini tahlil qilish yer resurslarining sifat tarkibini o'zgartirish imkoniyatlarni aniqlashga va uni yaxshilash tadbirlarini belgilab chiqishga imkon byeradi.

Yer fondini tahlil qilishda 11.2- jadval shaklidan foydalanish mumkin.

*11.2- jadval*

**Xo'jalikning Yer fondi**

	<b>O'tgan yili</b>		<b>Hisobot yili</b>		<b>O'tgan yilga nisbatan o'zgarish(+ — )</b>	
	<b>ga</b>	<b>%</b>	<b>ga</b>	<b>%</b>	<b>ga</b>	<b>%</b>
Jami yer maydoni shu jumladan:	9508	100	9408	100	-40	99,6
Qishloq xo'jalik yerlari	8832	92,9	8812	93,1	' -20	99,8
Shundan:						
Haydaladigan yerlar	3309	33,5	3443	33,4	-134	104,1
Ekinzorlar	3149	33,1	3322	34,1	-173	105,5
Tomorqa yerlari	75	0,8	86	0,9	-11	11,60

Qishloq xo'jaligiga yaroqsiz yerlar	601	6,3	570	6,0	-31	94,9
-------------------------------------	-----	-----	-----	-----	-----	------

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadi, xo'jalik yer maydonining 93,1% qishloq xo'jalik yerlariga, shundan 33,4% haydaladigan yerlarga; 34,1% i ekinzorlarga to'g'ri keladi. Qolgan 0,9% yer tomorqa yerlarga; 6% esa qishloq xo'jaligiga yaroqsiz yerlarga kiradi.

Qishloq xo'jalik ekin maydonlarining hammasi o'z hosildorligi, mahsulot byerish jihatidan baravar emas. Haydaladigan yerlar qishloq, xo'jalik ekin maydonlarining eng aktiv qismidir. Shuningdek, ekinzorlar ham qishloq xo'jaligiga yaroqli yarlarning muhim qismidir. Ekinzorlarga har xil ekinlar va ko'p yillik o'simliklar o'stiriladigan yerlar kiradi.

Yer fonda tuzilishi tahlil qilinganda ilgari foydalanilmagan yarlarni tezroq qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi jarayoniga kiritish imkoniyatlari o'rganiladi. Bizning misolimizda qishloq xo'jaligiga yaroqsiz yerlar jami xo'jalik yerining 6,0 % ini tashkil qilgan yoki 570 gektarga tengdir. Biroq uning salmog'i hisobot yilda o'tgan yilga nisbatan 0,3 % ga kamaygan.

Qishloq xo'jaligiga yaroqsiz yerdan to'g'ri foydalanish, ularni tezda tiklash, unumdorligini oshirish — qishloq xo'jalik mahsulotlari olishni yanada ko'paytirishga imkon byeradi.

### **Yerdan unumli foydaianish omillari**

Aholining oziq-ovqatga, sanoatning xomashyoga bo'lgan talabini to'laroq qondirish muammosi yer resurslaridan to'la va unumli foydaianish yo'li bilan hal etilishi mumkin. Bozor iqtisodi davrida yerdan unumli foydaianish zaruriyati birinchidan, aholi soni tez o'sishi, ikkinchidan, aholining yuqori kaloriyali sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlariga talabi muntazam ortib borishi, uchinchidan, sanoat korxonalari va aholi yashash punktlarining tez o'sishi hamda rivojlanishi natijasida bir qism yerlar qishloq xo'jalik oborotidan chiqib ketishi, to'rtinchidan, hozirgi vaqtida katta hajmdagi yangi yarlarni o'zlashtirish imkoniyati yo'qligi, beshinchidan, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan keng ko'lamma foydaianish zaruriyati tufayli vujudga keladi.

Yerdan unumli foydalanishga yerishish omillaridan biri yer fonda ekin maydonlari hissasini oshirish, yangi yarlarni o'zlashtirish, botqoq yarlarning zaxini qochirish va boshqa tadbirkorlar hisobiga qishloq xo'jalik oborotiga yangi yerlar qo'shishdir.

Yer asosiy ishlab chiqarish vositasi. Uning asosiy xususiyati tuproqning unumdorligidir. Tuproq unumdorligini tabiiy (potensial), sun'iy va iqtisodiy (samarali) unumdorlikka bo'lish mumkin.

Tuproqning tabiiy (potensial) unumdorligi — bu uzoq vaqt davomida tabiat kuchlari, xususan, iqlim, tabiiy o'simliklar, mikroorganizmlar, oqar suvlar, yer osti suvlari va hokazolar ta'sirida tuproqda oziqa zahirasi to'planishidir. Tuproqning tabiiy unumdorlik darajasi undagi oziq moddasi zahirasi va uning o'simlik tomonidan iste'mol qilinish darajasi bilan aniqlanadi. Shunga ko'ra tuproq tabiiy unumdorlik darajasi jihatidan ozroq yoki ko'proq unumdor bo'lgan yerlarga bo'linadi. Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirishga yerishmoq uchun tuproqning sun'iy unumdorligini oshirish lozim.

Tuproqning sun'iy unumdorligi — bu tuproq madaniyatini yaxshilash, qo'shimcha kapital mablag' va fan-texnika yangiliklarini dehqonchilikka izchillik bilan joriy etish yo'li bilan hosil qilingan tuproq unumdorligidir.

Tuproqning tabiiy va sun'iy unumdorligining bir-biriga qo'shilishi natijasida tuproq unumdorligining orta borishiga tuproqning iqtisodiy unumdorligi deyiladi. Tuproqning tabiiy va sun'iy unumdorlik darajasi qancha yuqori bo'lsa, uning iqtisodiy unumdorligi ham shuncha yuqori bo'ladi. Tuproqning tabiiy unumdorligini oshirishga nisbatan uning sun'iy unumdorligini oshirish kam vaqt talab etadi. Tuproqning sun'iy unumdorligi tuproqqa minyeral va organik o'g'itlar solish, fan va texnika yangiliklarini hamda almashlab ekishni joriy etish kabi bir qator agrotexnik tadbirlar yordamida oshiriladi.

Yerdan unumli foydaianish tuproqning iqtisodiy unumdorligini oshirishga yerishish, tuproq unumdorligini oshirish tadbirlaridan biri esa organik va minyeral o'g'itlardan ilmiy

asosda foydalanishdir. Ma'lumki, qishloq xo'jalik ekinlari har safar tuproqdan ma'lum miqdorda ozuqa oladi. Tuproqda sarflangan oziqani qayta tiklamasdan turib, yerdan yuqori hosil olib bo'lmaydi. Ilmiy tadqiqot institutlarining ko'p yillik tajribasi qishloq xo'jalik ekinlaridan olinadigan hosilning yarmidan ko'prog'i minyeral o'g'it hisobiga, qolgan 50 % esa boshqa agrotexnika tadbirlari evaziga olinishini ko'rsatadi.

Yerdan unumli foydaianish irrigasiya va meliorasiya samaradorligini oshirishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Qishloq xo'jaligini meliorasiyalash — bu yerlarni tubdan yaxshilab, ularni ko'proq hosil olishga moslashtirish demakdir. Tuproqqa ta'sir qilish va uning tuzilishini yaxshilash jihatidan meliorasiya tadbirlarini quyidagicha uch guruhga bo'lish mumkin:

- a) fizik meliorasiya;
- b) kiyoviy meliorasiya;
- d) agro-o'rmonchilik meliorasiyasi.

Fizik meliorasiya maydonlarni sug'orish, botqoqliklarni quritish, dalalarni toshlardan va butalardan tozalash, yer kartalarini tekislash, konfigurasiyalash tadbirlarini o'z ichiga oladi.

Kimyoviy meliorasiyalashga tuproq strukturasini o'simlik o'sishi va rivojlanishi uchun yaroqli holga keltirish bilan bog'liq tadbirlar kiradi. Bunga nordon tuproqlarni ohaklash, sho'rxok yerlarni gipslash, tuproq unumdorligini oshirish maqsadida foydalaniladigan dorivorlarni kiritish mumkin.

Agro-o'rmonchilik meliorasiyasiga suv va shamol yeroziyasiga qarshi kurash, qum ko'chishini cheklash, jarliklar emirilishini to'xtatish va o'rmonchilik xo'jaligi bilan bog'liq agrotexnika tadbirlarini kiritish mumkin. Respublikamizda butun yer zonasasi u yoki bu turdag'i meliorasiya tadbirlariga muhtojdir.

#### **Yerdan foydalanish haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish usullari**

Yerdan foydalanish va yaroqli yerlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish uchun yer fondi maydonining umumiyligi hajmini, yaroqli yer turlari bo'yicha uning tarkibini, butun yer fondining yer turlari bo'yicha tuzilishini, yer turlarining yerdan foydalanuvchilarga bo'linishi, yaroqli yerlarning ayniqsa, qishloq xo'jalik yerlarning umumiyligi hajmidagi o'zgarishlarini, yerlarning yaroqli turlari bo'yicha bo'linishini, agrotexnika va iqtisodiy qiymati jihatidan yerlarning sifati va hokazolarni tavsiflab beruvchi bir qancha ko'rsatkichlar hisoblab chiqariladi.

Hisoblab chiqarilgan ko'rsatkichlarga yerlardan foydalanish rejasi va xo'jalik oldida to'rgan vazifalar nazarga olinib baho berilganadi. Shu bilan birga qanday yaroqli yer turlari o'zgarganini aniqlash muhimdir, bunda ayniqsa, haydar ekinladigan yer maydoni pichanzor va bog'lar hajmining o'zgarishiga e'tibor byerish lozim. Bu tur yerlarni kengaytirish manbalari-botqoqlarni quritish, butazorlarni tozalab o'zlashtirish va hakazolar aniqlanadi.

Qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish intensivligini tavsiflash uchun 100 hektar yerga nisbatan mahsulot etishtirish ko'rsatkichi keng qo'llaniladi. **Masalan**, etishtirilgan qishloq xo'jalik yalpi mahsuloti yoki ayrim mahsulot sut-go'sht va boshqalarning 1000 hektar qishloq xo'jalik yerlariga nisbati. Shu bilan birga barcha turdag'i sut va go'sht etishtirish 1000 hektar barcha qishloq xo'jalik yerlariga nisbat qilib hisoblab chiqariladi. Yer maydoni birligiga nisbatan mahsulot etishtirish ko'rsatkichi yerdan maqsadga muvofiq foydalanish, qishloq xo'jaligidagi ayrim tarmoqlarning, dehqonchilik va chorvachilik ixtisoslashtirishning mamlakat tumanlari bo'yicha maqsadga muvofiq joylashtirilganligi haqida to'g'ri tasavvur byeradi.

Yaroqli yerlar tuzilishini ko'rib chiqishda qishloq xo'jaligidagi yaroqli yerlarning umumiyligi yer maydoniga nisbatini, shuningdek, haydar eqiladigan yerlarning qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydoniga nisbatini aniqlash lozim.

Yerning yerdan foydalanuvchilar toifalari bo'yicha bo'linishini tavsiflaganda ular quyidagi guruhlarga ajratiladi; 1) shirkatlar; 2) fermer xo'jaliklar; 3) xo'jaliklararo uyushmalar; 4) qishloq xo'jalik ilmiy tekshirish muassasalarining va o'quv yurtlarining tajriba xo'jaliklari;

5) qishloq xo'jaligidan foydalanish uchastkalariga ega bo'lgan yordamchi va mol boqadigan xo'jaliklar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar;

6) davlat yer zahirasi (uzoq muddatga foydalanish uchun berilgangan yerlar mustasno);  
7) davlat suv fondi yerlari; 8) o'rmon xo'jalik korxonalari muassasa va tashkilotlarining yerlari.

Shaxsiy foydalanish uchun tomorqa yerlar olgan dehqonlar, ishchilar, xizmatchilar va boshqa fuqarolar mazkur xo'jaliklardan qaysi bittasining hududida yashasalar, ularning foydalanayotgan tomorqa yerlari o'sha xo'jaliklar hisobiga kiritiladi. Sanoat korxonalari, temir yo'l va avtomobil transporti, kurortlar, qo'riqxonalar, qishloq xo'jaligiga kirmaydigan boshqa korxonalarining yerlari alohida hisoblanadi.

Yerlarning sifatiy holatiga berilganadigan tavsif g'oyat muhimdir. Masalan, haydab eqiladigan yerlardan qabul qilingan standartga to'g'ri kelmaydiganlari (toshloqlar, torf chiqariladigan fojlardagi yerlar) alohida hisoblanadi.

## **12.2. Ekin maydoni va ko'p yillik ekinlar statistikasi. Ekin maydonlari toifalari**

Dehqonchilik mahsulotini etishtirish ekin maydonlarining hajmiga va qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligiga bog'liqdir, shuning uchun ham ekin maydonlarining hajmi va tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar eng muhim ko'rsatkichlar bo'lib, ular dehqonchilikning ahvoli va rivojlanishini tavsiflaydi. Statistikaning vazifasi ekin maydonlarining hajmini aniqlashdan, ularning ekinlar bo'yicha tuzilishini, Respublikamiz xo'jaliklari, tumanlari bo'yicha bo'linishini tavsiflashdan, ekin maydonlarining hajmi va tuzilishidagi o'zgarishlar dinamikasini hamda dehqonchilikni rivojlantirish rejasining bajarilishini tekshirish maqsadida shu rejaga taqqoslab ko'rishdan iborat.

Haydab eqiladigan yerlarning qishloq xo'jalik ekinlari bilan band bo'lib to'rgan qismi **ekin maydoni** deb ataladi.

Statistika ekin maydonlari besh asosiy toifaga bo'linadi: 1) ekilgan; 2) bahorgi mahsuldor; 3) ekin bilan band bo'lib to'rgan; 4) hosili yig'ib olinadigan; 5) yig'ib olingan maydonlar.

Urug' sepilgan yerlarning hammasi **ekilgan maydon** deb ataladi. Ikki marta urug' sepilgan maydon ikki marta hisobga olinadi. Shuning uchun ham ekilgan maydon ekin bilan band bo'lib to'rgan yer maydondan oshiq bo'lishi mumkin. Chunonchi, asosiy ekin maydoniga ko'p yillik o't urug'i, masalan, kuzgi bug'doy yeriga beda urug'i sepilgan, ekilgan maydon hisobiga bug'doy ham, beda ham hisobga kiradi. kuzda ekilgan bug'doy unmay qolib, o'rniga bahori bug'doy ekilsa, ekilgan maydon ikki marta hisobga kiradi — bir marta kuzda ekilgan bug'doy deb, ikkinchi marta bahorda ekilgan bug'doy maydoni deb hisobga olinadi.

Bu toifa ekin maydonlarining asosiy ahamiyati shundaki, uning hisoblari asosida qancha urug'lik, ish kuchi va texnika talab qilinishi talab qilinishi aniqlanadi.

Ekilgan maydon ikki xil bo'ladi: **biri** shu kalendar yilda ekilgan maydon, **ikkinchisi** — hosili shu yili yig'ib olinishi uchun ekilgan maydondir. Birinchisi bahorda ekilgan barcha maydonlarni va hosili kelgusi yilda yig'ib olinadigan shu yil kuzda ekilgan maydonlarni o'z ichiga oladi. Ikkinchisi esa shu yil bahorda va o'tgan yil kuzda ekilgan maydonlar kiradi.

**Bahorgi mahsuldor maydon** — bu bahorgi qish oxiriga kelib ekinlar bilan band bo'lgan va hosili shu yil yig'ib olinadigan ekin maydonlaridir.

Unga joriy yil bahorida ekilgan ekinlar, kuzda ekilib unmay qolgan ekin o'rniga qayta ekilgan maydon, hosilini bu yil olish uchun bultur kuzda ekilgan va bahorgi ekish oxirigacha saqlanib qolgan ekinlar hamda o'tgan yillarda ekilgan va hosili o'rib olinadigan ko'p yillik o'tlar kiradi. Bahorgi mahsuldor maydonning ekilgan maydondan farqi shuki, bunda qayta ekilgan maydonlari ikki marta hisobga kiritilmaydi, Unga bultur kuzda ekilib unmay qolgan ekinlar, ekinlar ustiga ekilgan ko'p yillik o'tlar, sidyeral ekinlar hisobga kiritilmaydi. Qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi yig'im maydonidan hisoblanmaydi, balki bahorgi mahsuldor maydondan hisoblanadi.

**Ekin bilan band maydon** — haqiqatda bahorgi ekish oxiriga kelib urug' sepilgan maydondir, hosilining yig'ib olinish — olinmasligining ahamiyati yo'q. Sidiyeral ekinlar

ekilgan, kuzda ekilib ekini unmay qolgan, ammo o'rniga boshqa ekin ekilmagan maydon shu hisobga kiritiladi. Bu toifa ekin maydonlari haydar eqiladigan maydonlardan foydalanish darajasini aniqlash uchun hisobga olinadi. Aslida bu bahorgi mahsuldor maydon bo'lib, unga sidyeral ekinlar va kuzda ekilib ekini unmay qolgan maydonlar qo'shiladi.

Hosili yig'ib olinishi loizim bo'lgan maydon ***hosili yig'ib olinadigan maydon deb*** ataladi. Bu maydon hajmi bahorgi mahsuldor maydon hajmidan yozda hosili nobud bo'lgan yerlar, hosili joriy yilda o'rilib olinmaydigan ko'p yillik o'tzorlar qirqib aniqlanadi. Bu toifa maydonga qarab hosilni yig'ib olish uchun zarur bo'lgan texnika va ish kuchi miqdori belgilanadi.

***Hosili yig'ib olinadigan maydon*** bu haqiqiy hosili yig'ishtirib olingan ekin maydonidir. Biron bir sabab bilan hosil yig'ib olinmay qolgan taqdrda bu toifa maydon hajmi hosili yig'ib olinadigan maydon hajmidan farq qilish mumkin.

### **Ekinlarning ayrim guruhlari bo'yicha ekin maydonlarini hisobga olish xususiyatlari**

Qishloq xo'jalik ekinlari etishtirish tartibiga va tutgan o'rniga qarab bir-biridan farq qiladi. Bu holat esa ularni hisobga olish ishiga ta'sir ko'rsatadi, bir qancha ekinlarni hisobga olinishning o'ziga xos xususiyatlari ham bor. Bu ekinlarning ba'zilarini ko'rib chiqaylik.

**G'alla ekinlari.** G'alla ekinlariga faqat don kiradi. ***Masalan***, jo'xori maydoni faqat doni uchun ekilgan taqdirdagina don ekinlarni maydoni qatorida hisoblanadi, silos va ko'kati uchun ekilgan don va dukkanakli ekinlar em-xashak ekinlari hisobiga kiritiladi.

**Bir yillik o'tlar.** Urug'lik uchun pichan, ko'k ozuqa va o'tloq uchun eqiladigan barcha bir yillik o'tlar shu guruh ekinlar qatoriga kiritiladi. Don olish uchun eqiladigan xashaka no'xat, achchiq va ozuqa lyupin va sorga donli ekinlar qatorida hisoblanadi. ko'kat uchun eqiladigan donli va dukkanakli ekinlar bir yillik o'tlar qatorida hisobga olinadi.

**Ko'p yillik o'tlar.** ko'p yillik o't ekinlari ikki guruhga bo'linadi: a) faqat o'zi alohida maydonga eqiladigan o'tlar; b) mustaqil maydon egallamay biron boshqa ekin ustiga eqiladigan qoplama o'tlar. Yakka o'zi mustaqil eqiladigan ko'p yillik o'tlar maydoni alohida hisobga olinadi va umumiy ekin maydoniga qo'shib hisoblanadi. O'tgan yillarda ekilgan bir xil o'tlar hamda joriy yilda o'rib olinadagan ko'p yillik o'tlar maydoniga taalluqlidir.

**Sabzavot ekinlar.** Karam, bodring, pomidor, osh lavlagi, sabzi, piyozi va h. k. bilan birlashtirilgan obdon pishib bo'lguncha sal xomligida yig'ib olinadigan dukkanakli ekinlar (xom loviya, fasol va no'xat) ham sabzavot ekinlari qatorida hisobga olinadi. So'tasi xomligida iste'mol qilish va konsyerva qilishiga mo'ljallab eqiladigan makkajo'xori ham sabzavot qatorida hisobga olinadi. ko'k piyozi, qoqu, ismoloq, mivit, shovul, qalampir, boshqa sabzavotlar qatoriga kiritib hisoblanadi.

Tugunchalari bilan band bo'lib to'rgan yoki ikki yillik ekinlar (sabzi, lavlagi va h. k.) ning tugunchalarini hosil qilish uchun ekilgan yerlar "urug'likka ekilgan ikki yillik va bir yillik sabzavot ekinlar" guruhiga kiritiladi. Hosildan faqat urug'lik olish uchun ekilgan bir yillik sabzavot ekinlari (bodring, pomidor) ham shu guruhga kiradi.

**Ozuqa ildi mevalar.** ko'chat va tugunchalar bilan band bo'lib to'rgan ekin maydoni mustaqil ravishda bitta ko'rsatkich "Ozuqa ildiz mevalilarning urug'lik va tugunchalar" ko'rsatkichi bilan hisobga olinadi. Ozuqa uchun ekilgan qand lavlagi ozuqa ildiz mevalar qatorida emas, balki alohida hisobga olinadi.

**Silos ekilgan ekinlar.** Silos uchun mo'ljallab ekilgan va haqiqatda silos uchun foydalanilgan barcha ekinlar shu guruhga kiritiladi. Silos uchun ekilgan jo'xori alohida hisobga olinadi. Yashil ozuqa ekilib silos uchun ishlatalgan ekinlar ham silosga eqilagan maydonlar qatoriga kiritib hisoblanadi.

Qator yerlariga ekilgan soya, fasol va boshqa ekinlar ikki marta hisoblanmaslik uchun umumiy ekin maydoniga kiritilmaydi, alohida hisoblanib yalpi ekin qatorida hisoblanadi.

Bog'lardagi qator oralariga ekilgan ekinlar umumiy ekin maydoni hisobiga kiradi va alohida "shu jumladan" grafasiga yoziladi, bu esa ekin yerlaridan samarali foydalanish darajasini to'g'ri belgilash uchun shunday qilinadi.

Ekin maydonlari to'g'risidagi ma'lumotlar dehqonchilikning ko'p hisobotlarida aks ettiriladi. Ammo bu hisobotlardan ba'zilarigina respublikamizdagi ekin maydonlari hajmini aniqlash uchun statistikada foydalanadigan manba bo'lib xizmat qiladi.

### **Ekin maydonlari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish usullari**

Tahlil qilishning asosiy vazifalaridan biri ekin maydoni hajmi va tarkibidagi o'zgarishlarni aniqlash va ularga to'g'ri baho byerishdir. Shu maqsadda ekin turlari bo'yicha ekin maydonlari hajmini, ularning xo'jalik toifalari bo'yicha bo'linishini, ekish va navli ekinlar tarkibi reja bajarish dinamikasi, tuzilish darajasi, ekinlarning turlari bo'yicha geografik joylashtirishini (xo'jalik ichida xo'jalik, fermer, bo'limlar bo'yicha) tavsiflovchi mutloq va nisbiy ko'rsatkichlardan foydalaniadi.

Qishloq xo'jalik ekinlarining asosiy guruhlari bo'yicha ekin maydonlari hajmi dinamikasi quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

1.3- jadval

**Qishloq xo'jaligi ekin maydoni (barcha xo'jalik turlarida ming/ga)**

	<b>1998</b>	<b>1999</b>	<b>2000</b>	<b>2000-yil 1999-yilga nisbatan, %</b>
Barcha ekin maydoni	4029,7	4019,5	3778,3	93,8
shu jumladan:				
-don ekinlari	1686,7	1720,5	1614,0	95,7
-texnika ekinlari	1614,1	1613,0	1512,5	93,7
Shundan:				
-paxta	1531,6	1517,4	1444,5	94,3
-kartoshka va sabza-				
vot, poliz ekinlari	231,4	233,3	222,8	96,3
shundan:				
- kartoshka	54,7	48,5	52,2	95,4
- sabzavot	127,3	138,7	129,9	102,0
- poliz	47,5	44,1	36,9	77,7
- ozuqa ekinlari	497,5	452,8	429,0	86,2

Yuqoridagi 11.3- jadvaldan ko'rinish turibdiki, barcha ekin maydoni yildan yilga kamayib borgan 2000- yil 1998- yilga nisbatan o'sish sur'ati 93,8 % ni tashkil qilgan. Shunga ko'ra don ekinlari, texnika ekinlari, kartoshka va poliz ekinlari o'smagan.

Ekin maydonlari dinamikasining mazkur ko'rsatkichlar viloyatlar, tumanlar va ayrim xo'jaliklar bo'yicha, xo'jaliklar ichida esa xo'jaliklar, fermerlar bo'yicha hisoblanadi.

Ekin maydonlarining faqat bir xil toifalarigina taqqoslash shu maydonlar dinamikasini o'rganishning muqarrar shartidir. **Masalan**, bahorgi mahsuldar maydonni hosili yig'ishtiriladigan mayden bilan taqqoslab bo'lmaydi. Viloyat yoki tuman bo'yicha ekin maydoni to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilishda hududlar taqqoslanadigan bo'lishi shart. Agar o'rganilayotgan davr ichida tuman yoki boshqa ma'muriy korxona chegaralari o'zgarib qolsa, u holda yangi chegaralarni hisobga olib turib bazis davrdagi ma'lumotlarni qaytadan hisoblab chiqish lozim. Xo'jalik yiriklashtirilgan yoki boshqa xo'jalikka qo'shib, yuborilgan taqdirda shu tariqa ish ko'rildi.

Ekin maydonlari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilishda ayrim ekinlar yoki ekinlar guruhini va xo'jalikning ixtisoslanishini tavsiflovchi strukturaviy ko'rsatkichlardan keng foydalaniadi. Bunda bir necha yillik ma'lumotlarni olib tuzilishdagi o'zgarishlarni o'rganish lozim. Eng kam mablag' va mehnat sarflagan holda mahsulot etishtirishning muvaffaqiyatli bajarilishi ko'pincha ekin maydonlarining muvofiq tuzilishini tanlashga bog'liqdir. Jadval ma'lumotlari asosida umumiyl ekin maydoniga nisbatan har bir qishloq xo'jalik ekinlar

guruhining salmog'i hisoblab chiqarilsa, ekin maydonlarining bir necha yil davomidagi tuzilishi hosil bo'ladi.

Ekin maydonlari to'g'risidagi ma'lumotlar bevosita xo'jalikning o'zida tahlil qilinadigan bo'lsa, ekin maydonlari tuzilishi umuman xo'jalik va xo'jaliklar (fermerlar, bo'limlar) bo'yicha hisoblanadi.

Ekin maydonlarining u yoki bu strukturasining maqsadga muvofiqligi ma'lum strukturasining iqtisodiy samaradorligiga qarab baholanadi. Buning uchun ekin maydonlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan birga hosildorlik, mehnat sarfi hamda dehqonchilikning rivojlanishini tavsiflaydigan boshqa muhim ko'rsatkichlar haqidagi ma'lumotlardan foydalaniladi. Respublikamizning bir qancha tumanlarida ba'zida ob-havo noqulay kelishi tufayli kuzgi va yozgi ekinlar nobud bo'ladi, natijada ishlab chiqarish xarajatlari oshib ketaidi va xo'jalik katta zarar ko'radi. Shu munosabat bilan statistika oldida kuzgi-qishki va yozgi ekinlarning nobud bo'lishini tavsiflaydigan ko'rsatkichlarni nobud bo'lgan yerlarning mutloq darajasi va foizini aniqlash zarurati tug'iladi, bu esa nobud bo'lgan mutloq darajaning ekilgan butun maydonga nisbati bilan belgilanadi.

Navli ekinlar ekishning kengaytirilishi darajasini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich bu ekin maydonlarining umumiyligini qilinadigan ekin maydonidagi salmog'idir. Uning salmog'i navli urug' ekilgan maydonni umumiyligini ekin maydoniga nisbat qilib (bo'lib) aniqlanadi. Navli ekinlar salmog'i ekinlar bo'yicha aniqlanadi. Shu bilan birga rayonlashtirilgan navlar urug'lari ekilgan maydonlar bo'yicha bo'lgan ko'rastkichlar alohida hisoblanadi.

Navli ekinlar to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilinadigan ekinlar va navlar bo'yicha navli ekinlar rejasining bajarilishi ko'rsatkichlari, shuningdek navli ekin maydonlarining o'tgan davrlariga nisbatan o'zgarish ko'rsatkichlari ham hisoblab chiqariladi.

### Ko'p yillik ekinlar statistikasi

Statistika ko'p yillik madaniy o'simliklardan hosil olishni o'rganadi. Bu o'simlik statistikada: meva, rezavor-meva, mevazor, tokzor, choyzor, tutzor va xmelzorlardan iborat besh guruhga bo'linadi. Meva-rezavor o'simliklar maydoni o'z navbatida yana olti guruhga bo'linadi:

- 1) urug'lilar (olma, nok, behi daraxtlari);
- 2) danakkilar (olxo'ri, olcha, gilos, o'rik, shaftoli);
- 3) yong'oqlar oilasi (yong'oq, funduk, bodom, pista);
- 4) subtropik mevalar (anjir, xurmo, anor, zaytun);
- 5) rezavor mevalar (zemlyanika, qulupnoy, malina, qora, oq va qizil smarodina, krijovnik);
- 6) citrus mevalar (limon, apelsin, mandarin).

Iqtisodiy nuqtai nazardan hozircha hosil byermaydigan yosh daraxt va butalarni alohida ajratib hisoblash ma'quldir. Daraxt va butalarni bu xilda ikki guruhga bo'lish jiddiy qiyinchiliklar bilan bog'liqdir, chunki ularning mevaga kirish, foydalanish yoshi hamma vaqt aniq-ravshan bo'lavyermaydi. Ammo statistikada daraxt va butalarning yoshi aniq ko'rsatilishi kerakki, bu ularni yosh o'simliklar yoki mevaga kirgan o'simliklarni ajratish uchun asos bo'ladi. katta tut daraxtlari ham geografik sharoitga qarab yertaroq yoki kechroq hosilga kirishi mumkin, ma'lumki, janubiy tumanlarda shimolroq tumanlardan ko'ra mevalar tezroq etiladi. Eski daraxt va butalarni o'z vaqtida yoshi bo'yicha hisobga olish kerak.

Meva, rezavor-meva, tok, tut, choy va xmeldaraxt va butalarini o'sishini tekshirib turish maqsadida ko'p yillik meva daraxtlari va butalari miqdorini turi, navi va yoshi bo'yicha hamda qachon o'tqazilgani, qanday parvarish qilinishiga qarab, daraxt va butalar maydonlarining hajmini belgilash statistikaning vazifasidir.

Xo'jalikning hisobot ma'lumotlariga ko'ra ko'p yillik daraxt va butalarning ahvoli va qanday rivojlanayotganligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar ishlab chiqariladi. Bu daraxt va butalarga xos va ularni tavsiflovchi ko'rsatkichlardan biri hosil yoshidagi o'simliklarning salmog'idir. Bu salmoq hosil yoshidagi o'simliklar maydoni (daraxtlar soni)ni shu nav o'imliklarning jami soniga bo'lib aniqlanadi. O'tqazilgan o'simliklarning zichlik siyrak-

qalinlik ko'rsatkichi, ya'ni bir gektar yerga to'g'ri keladigan meva daraxtlari yoki meva butalari sonini aniqlash ham muhimdir. Bu ko'rsatkichdan alohida bog'lari bo'lмаган xo'jaliklar hududidagi har joy-har joydagi daraxt va butalarni hisoblab gektarga aylantirish uchun hamda xo'jalikning ko'chatlar bilan ta'minlash darajasini aniqlash uchun foydalaniadi.

Yangi o'tqazilgan daraxt va butalarni tavsiflash uchun ularning tutib qolish koeffisienti hisoblab chiqariladi. Buning uchun tutib qolgan daraxt va butalarning o'tqazilgan daraxt va butalarning umumiy soniga nisbati aniqlanadi. Daraxt va butalarni parvarish va ulardan foydalanish davrida ba'zi daraxtlar (butalar) nobud bo'ladi, siyraklashib qoladi va, natijada hosil kamayadi. Bu holatni tavsiyalash uchun xo'jaliklarda nobud bo'lgan daraxt va butalar miqdori aniqlanadi va shu asosda ularining dastlab o'tqazilgan daraxt va butalar soniga yoki shu nav uchun xo'jalikda qabul qilingan o'tqazish me'yoriga nisbati-siyraklik koeffisienti hisoblab chiqariladi.

### **Ko'p yillik daraxtlar yalpi mahsulotini tahlil qilish**

Tahlil qilishdan asosiy maqsad — yalpi mahsulot etishtirish rejasining bajarilish darajasini, uning o'zgarishi sababini, mahsulotni ko'paytirish zahiralarini aniqlash va shu asosda arzon hamda ko'p mahsulot etishtirishdir. Bog'dorchilikda yalpi mahsulot etishtirish va uning hosildorligi rejasining bajarilishi aniqlagan holda daraxtlarning har bir turiga (urug'li, dukkakli, mevali) qarab tahlil o'tkaziladi. Bir necha yillik dinamik ko'rsatkichlarni o'rganish bilan, mevali daraxtlar maydonida qanday o'zgarishlar sodir bo'lganligi, har gektar yerga hisoblaganda daraxtlarning zichligi, navi va yoshidagi farqlar hisobga olinadi. Yalpi mahsulotni ko'paytirish zahiralarini aniqlash uchun quyidagilarni o'rganish zarur. Jumladan:

- a) ko'p yillik mevali daraxtlarining turi va naviga qarab, ularning tuzilishi (strukturasi);
- b) ko'p yillik daraxtlar strukturasining yoshiga qarab ularning meva byerish yoki berilganmaslik nisbati;
- d) xo'jalik bo'yicha va ayrim ekinlar bo'yicha yangi o'tqazilgan mevali daraxtlar rejasining bajarilishi;
- e) ko'p yillik daraxtlarni almashtirish rejasining bajarilishi (shikastlangan va nobud bo'lgan daraxtlarni almashtirish);
- f) daraxtlarni o'stirish rejasining bajarilishi;
- g) mevali daraxtlarni parvarishlashga doir agrotexnika chora-tadbirlari rejasining bajarilishi kabi masalalar aniqlanishi kerak. Tahlilni shu tartibda o'tkazish o'rganayotgan tarmoqning taraqqiyoti to'g'risida xulosalar chiqarish, ko'p yillik daraxtlar yalpi mahsuloti rejasining bajarilishi, uni tashkil etishini yaxshilashga doir aniq takliflar belgilash imkonini byeradi. Mahsulotni miqdor jihatdan aniqlash xalq xo'jaligi miqyosida amaliy vazifalar uchun zarurdir. Yalpi mahsulotni taqqoslanadigan narxlarda o'rganish narxlarning ta'sirini bartaraf qilish, ishlab chiqarish hajmining real o'zgarishini aniqlashga imkon byeradi. Yalpi mahsulotning qiymat ifodasi uning tuzilishini aniqlashga yordam byeradi. Taqqoslanadigan narxlardagi yalpi mahsulot fondlarning samaradorligi darajasini va fondlarning hajmini aniqlash; mehnat unumдорлик darajasini belgilash; yalpi mahsulot hajmining haqiqiy ko'rsatkichlarini taqqoslash; yalpi mahsulot qiymatining strukturasini hisoblash va boshqa qator maqsadlar uchun ham zururdir.

Natura va pul baholarida birga hisoblash esa etishtirilgan mahsulotning hajmi haqida, xo'jalik ishidagi muvaffaqiyatlar va kamchiliklar haqida, mahsulot etishtirish hajmini yanada ko'paytirish zahiralari haqida aniq ma'lumot byeradi.

Ko'p yillik daraxtlardan olinadigan yalpi mahsulotni yanada ko'paytirish maqsadida bog'larni yaxshilashga, yangi daraxtlar o'tqazish uchun maydon tayyorlashga, ko'chatlarni o'stirishga, daraxtlarni parvarish qilishga doir agrotexnikaviy tadbirlar o'tkazishga e'tibor byerish zarur.

Bog' va uzumzorlarning yiriklashtirilishi va ixtisoslashtirilishi bog'dorchilik va tokchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirishda eng salmoqli zahiralarni ochib byeradi.

Yiriklashtirilgan va ixtisoslashtirilgan tarmoqlarda mehnat unumdarligi tobora oshib, ular rentabelli sohaga aylanadi.

### 12.3. Dehqonchilik statistikasi

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri dehqonchilikdir. Dehqonchilik tarmog'ini to'g'ri tashkil qilish va maqsadga muvofiq holda yuritish dehqonchilik tizimiga asoslanadi.

Dehqonchilik tizimi deyilganda ko'plab arzon dehqonchilik mahsulotlari etishtirish uchun yerdan to'la foydalanish, tuproq unumdarligini oshirishga qaratilgan o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradigan tashkiliy-agrotexnik tadbirlar yig'indisi tushiniladi.

Dehqonchilik tizimi assosini dehqonchilik texnologiyasi, ya'ni agrotexnika tashkil qiladi. Bu tizim tuproq unumdarligini saqlash va yaxshilash sohasidagi agrotexnika tadbirlarning kompleksidan iborat bo'lib, parvarish qilinayotgan ekinlar xususiyatiga muvofiq qilish, ularning o'sish va rivojlanishiga ko'maklashish va pirovard natijada yuqori hosil etishtirishni ta'minlashi kerak. Har xil tabiiy-iqtisodiy va xo'jalik sharoitlarga muvofiq keladigan dehqonchilik tizimlari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishiga, ya'ni texnik, kimyoviy vositalar, ekinlarga ishlov byerish texnologiyasi va ishlab chiqarishni tashkil etishning takomillashuviga qarab doim o'zgarib, takomillashib keldi va shunday taraqqiy etib boravyeradi.

#### Hosil va hosildorlik statistikasining ahamiyati

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish va dehqonchilikda hosil va hosildorlik eng muhim natijajaviy ko'rsatkichdir. Barcha agrotexnika tadbirlari, yerlarni melorasiyalash texnika sotib olish va undan foydalanish uchun qilingan xarajatlar, mehnat sarflari, xo'jaliklar ishlarining tashkiliy-xo'jalik jihatidan takomillashtirish kabilar hosildorlikni ko'tarish va yalpi hosilni ko'paytirishda o'z aksini topadi. Shuning uchun ham o'simlikning (dehqonchilikning) va barcha qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning eng muhim ko'rsatkichlari hosildorlik va hosildir. Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligini keng ko'lamma kimyolashtirish, meliorasiya ishlarini rivojlantirish va dehqonchilik madaniyatini umumiy ko'lamma yuksaltirish uchun zarur bo'lgan moddiy vositalarning ko'payishi munosabati bilan hosildorlikni har tomonlama oshirish va shu asosda yalpi hosilni ko'paytirish g'oyasi katta ahamiyat kasb etadi.

#### Hosil va hosildorlik ko'rsatkichlari hamda ularni aniqlash usullari

**Yalpi hosil** deyilganda statistikada jami ekin maydonida etishtirilgan mahsulot hajmi yoki qishloq xo'jalik ekinlaridan olingan yalpi hosil tushiniladi.

**Hosildorlik** — bu maydon birligidan olingan o'rtacha hosildir. Bir xil ekin turi bo'yicha etishtirilgan jami hosilni shu ekin egallab to'rgan maydoniga bo'lib, o'rtacha hosildorlik aniqlanadi.

Dehqonchilik tarmoqlarini tashkil qilish, xo'jaliklarning istiqbolini va yillik rejalarini hamda ishlab chiqarish va fermerlarning xo'jalik hisobi topshiriqlarini ishlab chiqishda hal qiluvchi omil — qishloq xo'jalik hosildorligini aniqlashdir. Ekinlar hosildorligini rejalashtirish eng murakkab va shu bilan birga eng asosiy ko'rsatkichidir. Chunki hosildorlik ishlab chiqarishning hamma xususiyatlarini, ularning ekinga ta'sirini o'zida mujassamlashtiradi. Ishlab chiqarishning ayrim omillari ekinlar hosildorligiga bevosita ta'sir etsa va bu ta'sirni ma'lum darajada miqdor jihatdan hisoblash imkon bo'lsa (masalan, minyeral va organik o'g'itlar, suv ta'minoti va yerning zaxini qochirish, yangi urug' navi, shudgor qilish va hokazolar), lekin boshqalari ekinlar hosildorligiga bilvosita ta'sir etganligi uchun ularning ta'sirini bevosita miqdor jihatdan hisobga olish ancha qiyin.

Don hamda boshqa mahsulotlarning etishtirish rejalarining bajarilishini dehqonchilikda hisobga olish va nazorat qilish yalpi hosil va hosildorlik statistikasining asosiy vazifasidir. Ana shu maqsadlarda qishloq xo'jalik ekinlarining yalpi hosili va hosildorlik darjasini aniqlanadi, ularda sodir bo'ladijan vaqtida va rejaga nisbatan o'zgarishlar o'rganiladi. Hosilning kirimga olinishini tekshirish va yig'im-tyerim vaqtida uning nobud bo'lish darajasini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Statistikada bu vazifalarni xo'jaliklar va boshqa tashkilotlarning hisobotlarini to'plash, ishlab chiqishni tahlil qilish, maxsus tanlab

kuzatish, xo'jaliklar, ishchilar va xizmatchilarning shaxsiy yordamchi xo'jaliklarini tanlab byudjetli tekshirishni tashkil etish yo'li bilan hal qiladi.

Hosil va hosildorlikni tavsiflashda hosilning uchta asosiy toifasi farq qilinadi: 1) tasviriy; 2) ko'katiy; 3) haqiqiy yoki xirmoniy.

**Tasviriy hosil** — bu ekin pishishidan ancha oldin kutish mumkin bo'lgan hosildir. U ekin rivojlanishining turli davr navlarida xo'jalik agronomi tomonidan shaxsan sinchiklab ko'rib belgilanadi.

**Ko'katiy hosil** — bu haqiqatda etishtirilgan ammo hali yig'ib-tyerib olinmagan hosildir. Bu ekin bevosita o'z vaqtida yig'ishtirib olish oldidan aniqlanadi. Bu hosilni tasviriy hosilni belgilangandek, pishib etilib, yig'ishtirib olishga tayyor holga kelgan ekinlarga ob'ektiv baho byerish yoki tanlab olib, ob'ektiv ravishda o'lchab ko'rish yo'li bilan belgilash mumkin. Ob'ektiv usulning mohiyati shundaki, tanlab olingan yerga kvadrat metrli rom qo'yib ichidagi ekin o'rib yoki tyerib olinib tarozida tortiladi va shu tariqa bir kvadrat metrli rom ichidagi ekin hosili ma'lum bo'lgandan keyin bir gektar yerning o'rtacha hosildorligi va butun maydondan qancha hosil chiqishi aniqlanadi.

**Xirmoniy (haqiqiy) hosil**, bu yig'ishtirib va kirimga yozib olingan hosildir. Statistikada haqiqiy hosil dastlab yig'ib-tyerib olingan kirimga yozilgan fizik vazni bilan belgilanadi, bundan keyin hosilni tozalash natijasida hosil bo'ladigan chiqindilar hisobga olinmaydi. Bu tartib mahsulotning bundan keyingi holatini kuzatib borish uchun zarurdir.

Davlat statistika organlari qishloq xo'jalik ekinlarining haqiqiy yalpi hosilini va hosildorligini xo'jaliklarning hisobot yili tugagandan keyin tuzadigan yillik hisobotlari asosida belgilaydilar. Bu hisobotlardagi ma'lumotlar eng oxirgi va qat'iy ma'lumotlardir. Ammo mahsulot tayyorlash va ularni taqsim qilish, omborlar hajmini hisoblab chiqish uchun hosil miqdorini oldindan bilih shart. Shuning'uchun ham davlat statistika organlari mavjud hisobot ma'lumotlardan foydalanib yalpi hosil va hosildorlikni yil tugaguncha qadar belgilab byeradilar. Bunday ma'lumotlar dastlabki ma'lumotlar deb ataladi. Hosil miqdori hisobotda ekinlar bo'yicha ko'rsatiladi.

Davlat statistika organlari qishloq xo'jalik ekinlarining haqiqiy yalpi hosil to'g'risidagi oxirgi va qat'iy ma'lumotlarni "Dehqonchilik mahsulotlarini etishtirish va ularning qiymati" deb ataladigan yillik hisobot asosida aniqlaydilar. **Masalan**, don ekinlari yuzasidan yalpi hosil va hosildorlikni baholash uchun shu ekinlarning o'rtacha hosildorligi hisoblab chiqariladi va u o'rtacha arifmetik vaznli (tortqichli) formula bilan ifodalanadi:

$$H_{o'r} = \frac{\sum HM}{\sum M}$$

Bunda: **H** — ekin hosildorligi; **M** — ekin maydoni.

O'rtacha hosildorlikni hisoblab chiqarish tartibini "Yangi asr" fermer xo'jaligi misolida ko'rib chiqamiz (11.4- jadval).

11.4- jadval

**2008 yili "Yangi asr" fermer xo'jaligida don ekinlari**

Ekinlar	Hosildorlik, s/ga	Ekin maydoni, ga
Bahorgi bug'doy	26	60
Bahorgi arpa	20	50
Javdar	18	40
Suli	22	56

$$H_{o'r1} = \frac{26 \times 60 + 20 \times 50 + 18 \times 40 + 22 \times 56}{60 + 50 + 40 + 56} = \frac{4512}{206} = 21,9 \text{ s/ga}$$

Demak don ekinlarining o'rtacha hosildorligi 21,9 s/ga ni tashkil etadi.

Dehqonchilik mahsulotlari hajmi pul shaklida ifodalanishi mumkin. Agar har bir turdag'i mahsulot hajmini  $—q_i$  bilan, uning bahosini  $P_i$  bilan belgilasak, u holda mahsulotning umumiy hajmi  $\sum q_i P_i$  shaklida bo'ladi. Bizga ma'lumki, har qaysi dehqonchilik mahsuloti ikki element ko'paytmasi — ekilgan ekin maydoni va uning hosildorligining ko'paytmasidan iborat. Agar ekish maydonini  $M_i$  uning o'rtacha hosildorligini  $H_i$  bilan belgilasak, u holda umumiy mahsulot hajmi  $\sum M_i H_i P_i$  ko'rinishga ega bo'ladi. Shunga ko'ra, pulda ifodalangan umumiy mahsulot hajmini ekin maydoniga bo'lib bir gektar qishloq xo'jalik yeriga to'g'ri kelgan dehqonchilik mahsulotini aniqlaymiz. U quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

$$H_{o'r}P = \frac{\sum M_i H_i P_i}{\sum M_i}$$

Dehqonchilik mahsuloti har xil ekin maydonlaridan tarkib topadi (haydov yeridan, ko'p yillik ekin yeridan, tabiiy xashak yeridan, yaylov yeridan). Agar haydov yeridan olingan har qaysi ekin maydonini  $M_h$ , hosildorligini —  $H_h$ , bog'da etishtirilgan mahsulot egallagan yerni  $M_b$ , hosildorligi  $H_b$  va hokazo bo'lsa u holda dehqonchilik mahsulotlarining jami quyidagi formula shaklida ifodalanganadi.

$$\sum_{\substack{\text{Jami} \\ \text{dehqonchilik} \\ \text{mahsuloti}}} M_h H_h P + \sum_{\substack{\text{haydov yeri} \\ \text{mahsuloti}}} M_b H_b P + \sum_{\substack{\text{bog'} \\ \text{mahsuloti}}} M_p H_p P + \sum_{\substack{\text{pichanzor} \\ \text{mahsuloti}}} M_ya H_ya P$$

### **Hosildorlik, yalpi hosil va dehqonchilik mahsulotlari hajmi indekslari**

Qishloq xo'jalik ekinlari hosildoligining yalpi hosilining va dehqonchilik mahsulotlari umumiy hajmining o'zgarishlarini tavsiflash uchun indeks usulidan foydalaniadi. Ayrim ekinlarnig hosildorligi o'zgarishining alohida indekslari

$$i = \frac{H_1}{H_0}$$

ekinlarning yalpi hosili o'zgarishining alohida indeksi

$$i = \frac{M_1 H_1}{M_0 H_0}$$

ko'rinishga ega bo'ladi.

Bunda:  $M_1$  va  $M_0$  — joriy va bazis yilidagi ekin maydoni;  $H_1$  va  $H_0$  — joriy va bazis yilidagi hosildorlik.

Ayrim xo'jaliklar guruhi yoki ekinlar guruhi bo'yicha hosildorlikning o'rtacha darajasini taqqoslashda o'rtacha miqdor indeksi qo'llaniladi.

$$I_{o'r} = \frac{H_{o'r1}}{H_{o'r0}}$$

Bunda

$$H_{o'r1} = \frac{\sum M_1 H_1}{\sum M_1}; \quad H_{o'r0} = \frac{\sum M_0 H_0}{\sum M_0}$$

shunga ko'ra

$$I_{o'r} = H_{o'r1} : H_{o'r0} = \frac{\sum M_1 H_1}{\sum M_1} : \frac{\sum M_0 H_0}{\sum M_0}$$

## 12.4. Chorvachilik statistikasi

### Chorvachilik statistikasining vazifalari

Qishloq xo'jaligi statistikasi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning holati va rivojlanishini, bu tarmoqda yuz byerayotgan ommaviy hodisa va voqealarni miqdor tomonidan ularning sifat xususiyatlari bilan bog'liq holda o'rganadi.

Chorvachilik statistikasi qishloq xo'jalik statistikasining tarkibiy qismi bo'lib, u chorvachilik tarmog'iда sodir bo'layotgan hodisa va voqealarni miqdor tomonini ularning sifat tomoni bilan ajralmas holda o'rganadi. chorvachilik aholini g'oyat muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan, sanoatning ko'pgina tarmoqlarini xomashyo bilan ta'minlaydi, shuning uchun ham bu xo'jalik sohasini rivojlantirish davlat ahamiyatiga molik bo'lgan juda muhim vazifadir.

Chorvachilikni rivojlantirish yuzasidan belgilangan dasturning bajarilishini tavsiflovchi ma'lumotlarni hisobga olish va tahlil qilish chorvachilik statistikasining asosiy vazifasidir. Statistika chorva mollarining sonini, ularni ko'paytirishni, mahsuldorligini hisobga olib borishini, sut, go'sht, jun, tuxum va boshqa mahsulotlar etishtirish hajmini belgilash hamda bu mahsulotlarni etishtirishni kuchaytirish zahiralarini topishi lozim. chorvachilik statistikasida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishdan kelib chiqadigan xususiyatlar ham e'tiborga olinadi. Shunday xususiyatlar quyidagilardir:

1. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishda yer eng muhim ishlab chiqarish vositasidir. chorvachilik tarmog'i uchun yer ozuqa etkazib byerishda muhim rol o'ynaydi.
2. Qishloq xo'jaligida, iqtisodiy takror ishlab chiqarish jarayoni tabiiy, biologik jarayon bilan chambarchas bog'liqdir.
3. Qishloq xo'jaligida, shu jumladan, chorvachilikda ish davri bilan ishlab chiqarish davri o'rtasida tafovut bordir va shu kabilar.

Shunga ko'ra chorvachilik statistikasi qishloq xo'jaligidagi xususiyatlarini e'tiborga olna holda bu tarmoqning holatini va rivojlanishini o'rganadi.

### Qishloq xo'jalik chorva mollarining soni va ularni ko'paytirish ko'rsatkichlari

Chorvachilikning holati va rivojlanishiga har tomonlama baho byerish uchun statistikada ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Bu ko'rsatkichlarning ayrimlari ishlab chiqarish sharoiti va omillarini ifodalasa, boshqalari ishlab chiqarishi natijalarini ifodalaydi. Ular o'z navbatida mutloq, nisbiy, natural va qiymat ko'rsatkichlariga ajraladi.

Chorvachilik statistikasida barcha ko'rsatkichlar qo'yidagi guruhlarga ajratib o'rganiladi:

#### I. Chorvachilikning resurslarini ifodalovchi ko'rsatkichlar:

- 1) chorva mollarining bosh soni va tarkibi ko'rsatkichlari;
- 2) chorva mollarini takror etishtirish ko'rsatkichlari (mollar podasini to'ldirish ko'rsatkichlari);
- 3) em-xashak bazasi ko'rsatkichlari kabilar.

#### II. Chorvachilikda ishlab-chiqarish omillarini ifodalovchi ko'rsatkichlar:

- 1) chorvachilikni intensifikasiyalash darajasi;
- 2) chorvachilikni ixtisoslashtirish darajasi;
- 3) chorvachilikdagi konsentrasiyalash darajasi;
- 4) chorva mollarini ozuqaga bo'lgan talabini qondirish darajasi;
- 5) chorvachilik fyermalarini mexanizasiyalash darajasi;
- 6) chorva mollarini chorvachilik binolari bilan ta'minlash;
- 7) chorvachilikda mehnatni tashkil etish va foydalanish ko'rsatkichlari kabilar.

### ***III. Chorvachilikda ishlab chiqarish natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar:***

- 1) chorvachilik mahsulotlarining hajmi ko'rsatkichlari;
- 2) chorvachilik mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlari;
- 3) chorva mollarining mahsuldorlik ko'rsatkichlari.

### ***IV. Chorvachilikning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari:***

- 1) chorvachilikda mehnat unumdorligini ifodalovchi ko'rsatkichlari;
- 2) ozuqadan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari;
- 3) ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlari;
- 4) mahsulot tannarxi ko'rsatkichlari;
- 5) chorvachilik mahsulotlarini realizasiya qilishdan olingan foyda va ishlab-chiqarishning rentabellik darajasi ko'rsatkichlari kabilar.

### ***V. Chorvachilikni agrosanoat ishlab chiqarish va oziq-ovqat majmuasidagi ishtirokini ifodalovchi ko'rsatkichlari.***

Chorva mollarining bosh soni qishloq xo'jalik statistikasining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsuloti hajmini hisoblash hamda chorvachilikni ishlab chiqarish yo'nalishiga baho byerishda foydalaniladi. chorvachilik statistikasi chorva mollari va parrandalarning bosh sonini ularning turlari, yoshi va jinsi bo'yicha guruhlari, ishlab chiqarish yo'nalishi, iqtisodiy ahamiyati, zoti va boshqa belgilari orqali o'rganadi.

Mutloq natural ko'rsatkichlar jumlasiga qo'yidagilar kiradi: chorva mollari va parrandalar bosh soni, hisobot davrida tug'ilgan yosh mollar soni, podaning harakatini ifodalovchi ko'rsatkichlari, zotli mollar soni va boshqalar.

Statistik va iqtisodiy tahlilda eng ko'p foydalaniladigan o'rtacha ko'rsatkichlardan biri bo'lib, chorva mollarining o'rtacha yillik bosh soni ko'rsatkichi hisoblanadi. chorva mollarining bosh soni ko'rsatkichlari tahlilda katta o'rinni nisbiy ko'rsatkichlar egallaydi. Ona bosh sonidan foydalanish, yaroqsiz qilish koeffisientlari, bitta fyermaga va bir gektar yer maydoniga to'g'ri keladigan chorva mollarining bosh soni kabilar nisbiy miqdor ko'rsatkichlari jumlasiga kiradi. Podani yoshi, jinsi va zoti bo'yicha tarkibi o'rganilganda ham nisbiy miqdordan foydalaniladi.

Chorvachilik statistikasida chorva mollari va parandalarni bosh sonini o'rganishdan natural ko'rsatkichlardan tashqari qiymat ko'rsatkichlaridan ham keng foydalaniladi.

**Masalan:** katta yoshdagagi mahsuldor mollar va ish hayvonlari qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish fondlari tarkibiga kiradi. Yosh mollar va boquvdagi mollar oborot fondlar tarkibiga kiradi. Asosiy va oborot (aylanma) fondlari tarkibiga kiruvchi chorva mollari qiymatda (pulda) hisobga olinadi.

Chorva mollar soni dinamikasi asosan yil uchun hisoblanadi. Chunki, hayvonlar soni yil ichida, mavsumga qarab o'zgaradi: masalan, mollar ko'proq yerta bahorda tug'adi, kuzda mollar saralanadi.

Xo'jalikda chorva mollarining bosh soni tez-tez o'zgarib turadi, ya'ni yosh mollar tug'iladi, mollar sotib olinadi va sotiladi, go'shtga so'yiladi va nobud bo'ladi. Shuning uchun chorva mollarining sonini ma'lum vaqtga hisobga olish bilan birga, u yoki bu davr (oy, chorak, yil) uchun ularning o'rtacha soni ham hisoblanadi. Bunda o'rtacha arifmetik, o'rtacha xronologik usullardan foydalanish mumkin. chorva mollarining o'rtacha bosh sonini hisoblashning eng to'liq yo'li bo'lib, ozuqa kunlarining yig'indisini hisoblash davridagi kalender kunlar soniga bo'lish orqali topilgan ko'rsatkich hisoblanadi. Ozuqa kun deganda bitta chorva mol bosh sonini xo'jalikda bir sutka davomida boqilishi tushuniladi.

Bu usul asosida mollarining o'rtacha bosh sonini hisoblashni aniq misolda ko'ramiz.

**Misol:** "Yangi asr" fermer xo'jaligida birinchi chorak davomida sigirlar soni qo'yidagicha bo'lgan.

*1- yanvardan 16- fevralgacha 224 bosh*

*16- fevraldan 2- martgacha 240 bosh*

*1- martdan 1- aprelgacha 300 bosh*

I chorak uchun sigirlarning o'rtacha sonini hisoblaymiz. Buning uchun quyidagi usullardan foydalanamiz.

**Birinchi usul.** O'rtacha arifmetik usul, ya'ni chorakning boshi va oxiridagi sigirlar sonini qo'shib, yig'indisini ikkiga bo'lish yo'li bilan. Shunga ko'ra I chorak uchun sigirlarning o'rtacha soni:

$$\frac{224 + 300}{2} = \frac{524}{2} = 262 \text{ boshga teng.}$$

Bu yerda hisoblangan natija to'g'ri, lekin u to'liq ma'lumot emas. Chunki bunday hisoblashda chorak ichida sigirlar sonida bo'lgan o'zgarishlar e'tiborga olinadi. Imkonи boricha bunday o'zgarishlarni hisobga olish lozim.

**Ikkinci usul.** O'rtacha xronologik usulda 1 chorak uchun sigirlarning o'rtacha sonini hisoblaymiz. O'rtacha xronologik formula quyidagicha ko'rinishda yoziladi:

$$X_{\text{o'r}} = \frac{\frac{X_1}{2} + X_2 + X_3 + X_4 + \dots + \frac{X_n}{2}}{n - 1}$$

Bunda:  $X_1, X_2, X_3, \dots, X_n$  — har qaysi oy boshiga sigirlar soni;  $n$  — oylar soni.

Misolimiz ma'lumoti bo'yicha har qaysi bo'limda oy boshiga sigirlar sonini yozib chiqamiz.

- 1- oyda sigirlar soni — 224 bosh
- 2- oyda sigirlar soni — 224 bosh
- 3- oyda sigirlar soni — 240 bosh
- 4- oyda sigirlar soni — 300 bosh

Endi bu raqamlarni formulaga qo'yib, I chorak uchun sigirlarning o'rtacha sonini aniqlaymiz.

$$X_{\text{o'r}} = \frac{\frac{224}{2} + 224 + 240 + \frac{300}{2}}{4 - 1} = \frac{726}{3} = 242 \text{ bosh}$$

Bu o'rtacha ko'rsatkich ham to'g'ri, lekin u oldingi hisoblangan o'rtacha ko'rsatkichdan (262 bosh) biroz to'liqdir. Chunki bu usulda chorak ichida har bir oyning boshiga sigirlar sonida bo'lganda o'zgarishlar e'tiborga olinadi.

O'rganilayotgan davrni har bir kun bo'yicha sigirlar sonida bo'lgan o'zgarishlarni to'liq hisobga olish uchun sigirlarning o'rtacha soni ozuqa kunlari asosida hisoblanishi lozim.

**Uchinchi usul.** Ozuqa kunlari asosida I chorak uchun sigirlarning o'rtacha sonini hisoblaymiz. Buning uchun avvalo I chorak bo'yicha ozuqa kunlari sonini hisoblab olish kerak, keyin uni chorakdagи kunlar soniga bo'linadi. Ozuqa kunlari soni qo'yidagicha hisoblanadi.

1. 1- yanvardan 16- fevralgacha 46 kun bo'lib, har kuni 224 bosh sigir boqilgan, demak, ozuqa kunlar soni  $46 \times 224 = 10304$  ga teng;

2. 16- fevraldan 2- martgacha 14 kun bo'lib, har 240 bosh sigir boqilgan, ozuqa kunlar soni  $14 \times 240 = 3360$  ga teng;

3. 2- martdan 1- aprelgacha 30 kun bo'lib, har kuni 300 bosh sigir boqilgan. Ozuqa kunlar soni  $30 \times 300 = 9000$  ga teng.

Demak I chorak uchun sigirlarning o'rtacha soni

$$\frac{10304 + 3360 + 9000}{46 + 14 + 30} = \frac{22664}{90} = 252 \text{ boshga teng}$$

Shunday qilib, uchinchi usulda hisoblangan sigirlarning o'rtacha soni to'g'ri va to'liqdir. Binobarin, statistika amaliyotida ozuqa kunlari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida hisoblangan mollarning o'rtacha bosh soni to'g'risidagi ko'rsatkichidan keng foydalaniladi.

Chorvachilik statistikasida chorva mollarining o'rtacha bosh sonini aniqlashdan tashqari, ularni shartli bosh soniga aylantirish hisoblash ham muhim ahamiyatga ega. Bunday zaruriyat avvalo chorva mollarining em-xashak bazasi bilan ta'minlanganlik darajasini hisoblash vaqtida muhim rol o'ynaydi. Alovida chorva mollarining turlari, ularning yoshi va jinsi bo'yicha guruhlari bir biridan vazni, qiymati va em xashakka bo'lgan talabi bilan tubdan farq qildi. Bundan tashqari turli ixtisoslashish darajasiga ega bo'lgan xo'jaliklar bo'yicha chorva mollarining bosh soni ko'rsatkichlarini o'zaro solishtirish ko'pincha noto'g'ri xulosalar chiqarishga olib keladi.

Chorva mollarini shartli bosh soni birligi sifatida katta yoshdagagi qoramol qabul qilingan ularning qiymati yoki ozuqaga bo'lgan talabini katta yoshdagagi qoramolni qiymatiga yoki ozuqaga bo'lgan talabiga bo'lish orqali qo'yidagi koeffisientlardan aniqlash mumkin (11.5-jadval). Mollarni shartli bosh soniga aylantirish koeffisientlari qo'yidagicha:

11.5- jadval

#### Chorva mollarini shartli bosh soniga aylantirish koeffisinti

chorva mollarining turlari	Mollarni em-xashakka talabi bo'yicha	Mollarni qiymati bo'yicha
katta yoshdagagi otlar, sigirlar, buqalar va xo'kizlar	1,0	1,0
Boshqa qoramollar	0,6	0,5
Cho'chqalar	0,3	0,25
Qo'y va echqilar	0,1	0,1

Chorva mollarini shartli bosh songa aylantirish koeffisienti avvalo bosh son indeksini hisoblashda foydalaniladi. U qo'yidagicha aniqlanadi:

$$I = \frac{\sum Q_1 K}{\sum Q_0 K};$$

Bunda:  $Q_1$  va  $Q_0$  — chorva mollarining turlari bo'yicha hisobot va bazis davrdagi bosh soni;  $K$  — shartli bosh soniga aylantirish koeffisienti;

Chorva mollarining bosh soni ko'rsatkichi yil davomida o'zgarib turadi. Shuning uchun mollarning bosh soni ko'rsatkichlarini tahlil qilganda, doimo ayni bir davr ko'rsatkichlaridan foydalanish zarur.

#### Chorva mollari va ularining mahsuldarligi

**Chorvachilik mahsuloti** degahda, chorva mollarini so'ymasdan, ulardan olinadigan xom mahsulotni tushunamiz. Bu sut, jun, tuxum, hamda chorva mollarining nasli, yosh chorva mollarining o'sishi va boquvdagi mollarning semirishidir. chorvachilikdan turli xil mahsulotlar olinadi. Ularning bir qismi mollarni urchitish va parvarish qilish natijasida olinib, yil davomida tug'ilgan yosh mollar vazni o'tgan yillarda tug'ilgan yosh mollarning o'sishi natijasida ortgan vazni va boquvdagi mollarning semirgan vazni hisoblanadi.

Mahsulotning ikkinchi qismi esa, chorva mollaridan xo'jalikda foydalanish jarayonida olingan sut, jun, tuxum, asal va boshqa yordamchi mahsulotlardan iboratdir.

Chorvachilikning mahsuloti tarkibiga, qayta ishlov byerish natijasida olingan yog', qaymoq, pishloq yoki mollarni so'yish natijasida olingan go'sht, tyeri, mo'yna va shu kabilar kiritilmaydi, chunki ular sanoat mahsuloti hisoblanadi.

Statistika chorvachilik mahsulotlarini etishtirish hajmi va chorva mollarining mahsulorligini o'rganadi. Statistika ma'lum tur xo'jalikdagi tuman, viloyat va respublika ko'lamida ayrim guruh chorva mollarining va barcha chorva mollarining o'rtacha mahsulorligini (bir bosh sigirdan o'rta hisobda sog'ib olinadigan sut, bir bosh qo'ydan o'rta hisobda qirqib olinadigan jun, bir bosh chorva molining o'rtacha vazni, chorva mollarining o'rtacha o'sishi va semirishi, bitta tovuq o'rta hisobda tug'adigan tuxum va hokazolarni) o'rganadi.

Chorva mollarini o'stirish (etishtirish) mahsuloti o'rganiladigan davr ichida chorva mollari tirik vazn olishidan iborat bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) hisobot davrida chorva mollarining bolalashi;
- b) hisobot yilda va oldingi davrlarda tug'ilgan yosh chorva mollarining o'sishi;
- 3) boquvdagi chorva mollari vaznining ortishi.

Chorvachilikning ahvoli va rivojlanishini tahlil qilishda go'sht etishtirish haqidagi ma'lumotlarni etishtirilgan mahsulot ko'rsatkichlari bilan solishtirishi kerak. Bu go'sht uchun mo'ljallangan mollar nima hisobidan (mahsulot etishtirishini oshirish hisobidanmi yoki mol sotib olish hisobidanmi) realizasiyasidan orqadamiyo'qmi bilib olish uchun zarur.

**Go'sht etishtirish ko'rsatkichlari.** Go'sht va yog' etishtirish so'yilgan vaznda yoki tirik vaznga aylantirib hisoblanadi. Tirik vaznga aylantirib hisoblash go'sht etishtirishni chorva mollarini o'stirish hajmi bilan taqqoslash uchun va boshqa iqtisodiy hisoblar uchun zarurdir.

Qishloq xo'jalik statistikasida go'sht etishtirish deganda, chorva mollarining go'sht uchun sotilishi tushuniladi. Shuning uchun ham uni etishtirish hajmini hisobi amalda so'yiladigan mol va uning o'rtacha vaznni aniqlashdan iborat. O'rtacha vazn mollarining go'sht mahsulorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichdir. Amalda mollarining o'rtacha tirik va o'rta so'yilgan vazni aniqlanadi.

O'rtacha tirik vazn poda yoki guruh chorva mollari podasining ular soniga nisbati sifatida ifodalanadi. Go'sht uchun sotiladigan chorva mollarining o'rtacha vaznni oshirish go'sht etishtirishni ko'paytirishning muhim omilidir.

Mollarni boqish va yaylovda boqish, bo'rdoqiga va yaylovda boqiladigan mollarni bir sutkada o'rtacha semirtirish va shu turdag'i har bir bosh molning o'rtacha yillik semirishi ko'rsatkichlari bilan ham ifodalanadi.

**Sut etishtirish ko'rsatkichlari.** Yalpi sut etishtirishga hisobot davrida haqiqatda xo'jalikda etishtirilgan barcha sut, shu jumladan, buzoqlarga va boshqa hayvonlarga ichirilgan sutlar, shuningdek, saqlayotgan va tashilayotganda to'kilgan, achigan sutlar ham kiradi. Biroq buzoqlar sigirdan emgan sutlari yalpi etishtirilgan sut hisobiga kirmaydi.

Tuman, viloyat, respublikamizdagi barcha xo'jaliklarda sigir sutining yalpi etishtirilishini aniqlash uchun xo'jaliklarning chorvachilik yuzasidan berilgangan oylik hisobotlaridagi yoki yillik hisobotlaridagi ma'lumotlar jamlab hisoblanadi. Sut etishtirish to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilishda sotib olingan sut miqdorinigina emas, balki uning sifatini bilish ham kerak. Sut sifatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri uning yog'liligidir (ya'ni 100 g sutdagi yog' miqdoridir). Sutning syeryog'liligi odatda foiz bilan ifodalanadi. Sutning yog'lilik darjasini sigirlarning zotiga, yoshiga, eydigan ozuqasiga va boshqa sharoitiga bog'liqdir. Sigirlar sutining yog'liligi va sutning sifatini baholash uchun sigirlar podasi bo'yicha sutning o'rtacha yog'liligi yoki davlatga sotiladigan sutning o'rtacha yog'liligi hisoblab chiqariladi. Uni arifmetik tortqichli sifatida ifodalash mumkin.

**Misol.** "Yangi asr" fermer xo'jaligida etishtirilgan sutning o'rtacha yog'liligi 11.6- jadval ma'lumotlari asosida aniqlanadi.

**«Yangi asr» fermer xo'jaligida 2008 yil mayda sog'ib olinadigan sut**

<b>Qoramol fermerlari</b>	<b>Sog'ilgan sut (kg)</b>	<b>Sutning yog'liligi, (x)%</b>
1	1806	3,2
2	1574	3,4
3	1323	3,6

Bu qiymatlarni formulaga qo'yganimizda xo'jalik etishtirgan sutning o'rtacha yog'liligi:

$$X_{o'r} = \frac{\sum xf}{\sum f} = \frac{1806 \times 3,2 + 1574 \times 3,4 + 1323 \times 3,6}{1806+1574+1323}$$

$$= \frac{5779,2 + 5351,6 + 4762,8}{4703} = \frac{15893,6}{4703} = 3,38\%$$

Davlatga sotilgan sutning o'rtacha yog'liligi ham shu tariqa hisoblab chiqariladi. Sigirning mahsuldorligini oshirish yalpi sut etishtirishni ko'paytirishning g'oyat muhim omilidir.

Bir sigirdan o'rtacha sog'ib olinadigan sut, bu hisobot davrida yalpi sog'ib olingan sutni shu davrning o'rtacha hisobdagagi sigirlar bosh soniga bo'lishdan kelib chiqadigan bo'linmadir.

### **Chorva mollarining soni, mahsuldorligi va ularning mahsulotini iqtisodiy statistik tahlili**

Kishilarning farovonligini oshirish sur'atlari ko'p jihatdan qishloq xo'jaligini, shu jumladan, chorvachilikni muvaffaqiyatli rivojlantirishga bog'liq. chorvachilik qishloq xo'jaligining katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlaridan biridir. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan tobora o'sib borayotgan ehtiyojlarini to'liq qondirish imkoniyatlari ko'p jihatdan ana shu tarmoqni muvaffaqiyatli rivojlantirishiga bog'liqdir. Ayniqsa, shaharlar va zamonaviy tipdagi qishloqlarning yanada kengayishi, aholi sonining tez o'sishi natijasida chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj kun sayin oilib bormoqda. Bunday sharoitda chorvachilikni taraqqiy ettirish, uni sanoat asosiga ko'chirish, shu yo'l bilan aholini chorva mahsulotlari bilan, engil va oziq-ovqat sanoatlarini esa xom-ashyo bilan ta'minlash katta ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda aholi turmush darajasining muttasil o'sib borishi chorvachilikni yanada tezroq yuksaltirish vazifasini birinchi rejaga qo'ymoqda. Bu muhim vazifani bajarish uchun eng avvalo har bir xo'jalikda chorvachilik tarmoqlarini atroflicha tahlil qilish, undagi foydalanilmay kelinayotgan zahiralarini ishlab chiqarishga tadbiq qilish lozim.

Chorvachilik mahsulotlari etishtirishni tahlil qilishning asosiy vazifasi: rejalashtirilgan yalpi va tovar mahsulotlari etishtirishni; tarmoqlarning hajmi va ularning yo'nalishini; zoovetyerinariya tadbirlarini; mollarining tuyog'ini, mahsuldorligini, molxonalar bilan ta'minlanishini; fyermadagi ishlarning mexanizasiyasini darajasini; mollar uchun tayyorlangan ozuqa rasioni qanchalik iqtisodiy samara byerayotganligini; mehnatning to'g'ri tashkil etilganligini; mollar zoti va boshqa ko'rsatkichlarni hisobot ma'lumotlari bilan taqqoslash va shu asosda uni rivojlantirish tadbirlarini belgilashdir. Iqtisodiy - statistik tahlilning asosiy vazifasi chorvachilik sohasidagi foydalanilmayotgan zahiralarini topish va undan foydalanishdir.

Chorvachilikda uning rivojlanishiga yoki qoloqligiga sabab bo'layotgan kamchiliklarni aniqlash va ularning oldini olish; xato va kamchiliklarga barham byerish uchun ichki imkoniyatlarini aniqlash, ulardan chorvachilikni yanada jadal rivojlantirishda foydalanish zarurdir.

Ma'lumki, etishtirilgan chorvachilik mahsulotlarining hajmi chorva mollarining bosh soni va mahsuldarligiga o'zaro bog'liqdir. Shuning uchun ham mollar bosh sonini ularning mahsuldarligi bilan birga tahlil qilish kerak. Bunda chorva mollari va parrandalarning mahsuldarligini o'tgan yilga va bir xildagi tabiiy-iqtisodiy sharoitlarda joylashgan ilg'or xo'jaliklarga taqqoslash yo'li bilan iqtisodiy — statistik tahlil qilish lozim.

Chorvachilik yalpi mahsulot etishtirish hajmi ma'lum darajada chorva mollarining mahsuldorlik darajasiga bog'liqdir. Shuning uchun ham mahsuldorlikning o'sish dinamikasini tahlil qilish juda muhimdir. Xo'jalikda har bir sigirdan sog'ib olingan sut, parrandadan olingan tuxum, har quti qurt urug'i hisobiga pilla etishtirish kabi ma'lumotlardan foydalangan holda tahlil o'tkazilishi lozim. chorva mollari mahsulotlarini etishtirish dinamikasini quyidagi 11.7-jadvalda keltirilgan.

## 11.7- jadval

## **Chorva mollari mahsulotlarini etishtirish dinamikasi (1998-2002- yillar)**

Yillar	Yalpi chorvachilik mahsuloti ming so'm	Shartli bosh soni ming bosh	1 shartli bosh soniga to'g'ri kelgan mahsulot ming so'm	Ozuqa sarfi jami ming.t.k.ed.
2002	83,3	144	580	341,2
2003	92,9	153	607	387,1
2004	113,2	165	686	433,9
2005	113,4	160	709	419,2
<u>2003</u>				
2002	111,3	106,3	104,6	113,5
<u>2004</u>				
2003	121,8	107,8	113,0	112,1
<u>2005</u>				
2004	100,2	96,9	103,4	96,6
<u>2005</u>				
2002	135,8	111,1	122,2	122,9

Bu jadvaldan ko'rinib turibdiki, kuzatilayotgan davrda yildan yilga mahsulot hajmi o'sib borgan. 2001- yili 1998- yilga nisbatan 36,0 % o'sganligini ko'ramiz. Ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, chorva mollarining shartli bosh soni 24 % ga ozuqa sarfi esa 37,7 % ga oshgan.

Bu keltirilgan jadvalimizda chorva mollari mahsulotlarini etishtirish dinamikasi taqquoslash baholarda ifodalangan. Iqtisodiy tahlil quyidagi ikki usulda olib boriladi.

1) indekslar tipidan foydalanish yo'li orqali.

$$\frac{\sum S_1 Y_1 P}{\sum S_0 Y_0 P} = \frac{\sum S_1 Y_0 P}{\sum S_0 Y_0 P} \times \frac{\sum S_1 Y_1 P}{\sum S_1 Y_0 P}$$

chorva mahsulotining fizik hajmi indeksi      chorva mollari soni va strukturasinig indeksi      chovachilikning mahsuldarligi indeksi

Bunda:  $S_1$  va  $S_0$  — chorva mollarining bosh soni (hisobot va bazis davrda);  $Y_1$  va  $Y_0$  — chorva mollarining mahsuldarligi (hisobot va bazis davrda).

**2) Qishloq xo'jlik chorva mollari sonini shartli bosh soniga o'tkazish yo'li orqali.**

Chorvachilikda mahsulotning hajmi chorva mollari va parrandalarning soniga, ularning mahsuldarligiga bog'liq ekanligini 11.8- jadval ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin. Bunda ikkita guruhi xo'jaliklardagi o'zgarishlarni indeks usulidan foydalanib iqtisodiy statistik tahlil qilamiz.

**Sigirlarning o'rtacha mahsuldorligi tahliliga doir ma'lumotlar**

Xo'jaliklar raqami	Bazis yili		Hisobot yili		Hisoblangan ko'rsatkichlar			
	Bir sigirdan sog'ilgan sut, kg (y <sub>0</sub> )	Har bir xo'jalikda sigir salmog'i, (S <sup>*</sup> <sub>0</sub> )	Bir sigirdan sog'ilgan sut (y <sub>1</sub> )	Har bir xo'jalikda sigir salmog'i, (S <sup>*</sup> <sub>1</sub> )	y <sub>0</sub> S <sup>*</sup> <sub>0</sub>	y <sub>1</sub> S <sup>*</sup> <sub>1</sub>	y <sub>1</sub> S <sup>*</sup> <sub>0</sub>	y <sub>0</sub> S <sup>*</sup> <sub>1</sub>
<b>I guruhli xo'jaliklar</b>								
1	2976	0,294	2941	0,278	874,9	817,6	864,6	827,3
2	3634	0,274	3550	0,368	995,7	1306,4	972,7	1337,3
3	2115	0,432	2115	0,354	913,7	748,7	913,7	748,7
	<b>X</b>	<b>1,000</b>	<b>X</b>	<b>1,000</b>	<b>2784,3</b>	<b>2872,7</b>	<b>2751</b>	<b>2913,3</b>
<b>II guruhli xo'jaliklar</b>								
11	2608	0,227	2644	0,230	592,0	608,1	600,2	599,8
12	3181	0,348	3979	0,451	1107,0	1794,5	1384,7	1434,6
13	3772	0,425	3472	0,319	1603,1	1107,6	1475,6	1203,3
	<b>X</b>	<b>1,000</b>	<b>X</b>	<b>1,000</b>	<b>3301,1</b>	<b>3510,2</b>	<b>3460,5</b>	<b>3237,7</b>

Yalpi sut mahsulotini ko'paytirishning katta zahiralaridan biri xo'jalikda sigirlarning bosh sonini ko'paytirish va ularning mahsuldorligini oshirishdir. Chunki yalpi chorvachilik mahsuloti asosan ikki yo'l bilan: mahsulor chorva mollarining bosh sonini ko'paytirish va ularning mahsuldorligini oshirish yo'llari bilan ko'payadi. Shuning uchun ham bu omillarning har birini yalpi mahsulotga qanchalik bevosita ta'sir etishini alohida-alohida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bu yalpi mahsulotni yanada ko'paytirishga oid mavjud ichki zahiralarni ochishga imkon byeradi. Shuning uchun ham tahlil davomida ana shu omillarning mahsulot etishtirishga ta'sirini aniqlash juda muhimdir.

**3) Qishloq xo'jalik chorva mollari sonini shartli bosh soniga o'tkazish yo'li orqali.**

Birinchi guruh xo'jaliklarda bazis yili umumiy sut sog'ish 8 502 336 kg, sigirlar soni 3 045 boshni tashkil qildi, hisobot yili 9 963 564 kg, sigirlar soni 3 468 bosh bo'lgan. Ikkinci guruhda esa umumiy sut sog'ish bazis yili 8 628 126 kg, sigirlar soni 2613 boshni tashkil qiladi. Hisobot yili — 12 303 255 kg va 3 505 bosh sigir. Qolgan kerakli ma'lumotlarning hammasi jadvalda keltirilgan.

Birinchi guruh xo'jaliklari uchun berilgangan ma'lumotni ko'rib chiqamiz.

$$I = \frac{\sum y_1 S_1}{\sum y_0 S_0} = \frac{9963564}{8502336} = 1,172$$

Yalpi sut

$$I = \frac{\sum S_1}{\sum S_0} = \frac{3468}{3054} = 1,136$$

Sigirlar soni

$$I = \frac{\sum y_1 S_1^*}{\sum y_0 S_0^*} = \frac{2872,7}{2784,3} = 1,032$$

O'rtacha sut

Demak, I guruh xo'jaliklarda umumiy sut sog'ish 17,2 % ko'paydi, podalar soni esa 13,6 % shu bilan o'rtacha chorva mollari mahsuldarligi 3,2 % ga ortdi. Berilgangan ma'lumotlarga ko'ra o'rtacha sut sog'ish indeksini quyidagi ikki usul yordamida ko'rsatamiz. Birinchi usulga ko'ra o'rtacha sut sog'ish indeksi

$$\frac{\sum y_1 S_1^*}{\sum y_0 S_0^*} = \frac{\sum y_1 S_1^*}{\sum y_0 S_1^*} \times \frac{\sum y_1 S_0^*}{\sum y_0 S_0^*}$$

O'rtacha sut  
sog'ish indeksi      Hisobot davrida  
sut sog'ish struk-  
turasi indeksi      Bazis davrida poda  
strukturasi indeksi

## Bizning misolimizga ko'ra

$$y = \frac{\sum y_1 S_1^*}{\sum y_0 S_0^*} = \frac{2872,7}{2913,3} = 0,986$$

Bu yerda:  $y$  — hisobot yilida sut sog'ish indeksi.

Ikkinci usul bo'yicha o'rtacha sut sog'ish indeksi:

$$y = \frac{\sum S_1^* y_0}{\sum S_0^* y_0} = \frac{2913,3}{2784,3} = 1,046$$

*y* — bazis davrda poda strukturasi indeksi.

$$\frac{\sum y_1 S_1^*}{\sum y_0 S_0^*} = \frac{\sum y_1 S_0^*}{\sum y_0 S_0^*} \times \frac{\sum S_1^* y_1}{\sum S_0^* y_1}$$

## Bizning misolimizga ko'ra

$$I = \frac{\sum y_1 S_0}{\sum y_0 S_0} = \frac{2751,0}{2784,3} = 0,988$$

I—bazis yilida poda struktura o'zgarishida sut sog'ish indeksi

$$I = \frac{\sum S_1^* y_1}{\sum S_0^* y_1} = \frac{2872,7}{2751,3} = 1,044$$

I — hisobot yilida sut sog'ish indeksi.

Shunday hisoblash ishlarini II guruh xo'jaliklari uchun ham bajaramiz.

$$\frac{I}{Yalpi \ sut} = \frac{\sum y_1 S_1}{\sum y_0 S_0} = \frac{12303255}{8628126} = 1,426$$

$$I = \frac{\sum S_1}{\sum S_0} = \frac{3505}{2613} = 1,341$$

$$I = \frac{\sum y_1 S_1^*}{\sum y_0 S_0^*} = \frac{3510,2}{3302,1} = 1,063$$

II guruh xo'jaliklarda sut sog'ishning 42,6 % ga ko'payishiga sigirlar bosh sonining 34,1 % ga va o'rtacha mahsuldorlik 6,3 % ga oshganligi sabab bo'ldi.

Agar 11.7- jadval ma'lumotlariga qarasak, sut sog'ish 12- xo'jalikda tez ko'tarilgan, 13- xo'jalikda sezilarli darajada pasaygan. 11- xo'jalikda esa deyarli o'zgarmagan. Xo'jaliklarda sigirlar salmog'i 11- xo'jalikda deyarli o'zgarmagan, 12- xo'jalikda sigirlarning bosh soni sezilarli darajada o'sgan, 13- xo'jalikda esa qo'shimcha o'sish sur'ati kam bo'lganligi uchun ancha qisqargan. Hisobot yilida eng yuqori mahsuldorlik 12- xo'jalik yerishgan, Bunda quyidagi ikki usul yordamida ta'kidlanishini ko'ramiz.

Birinchi usul

$$I = \frac{\sum y_1 S_1^*}{\sum y_0 S_0^*} = \frac{\sum y_1 S_1^*}{\sum y_0 S_1^*} \times \frac{\sum S_1^* y_0}{\sum S_0^* y_0}$$

O'rtacha sut  
sog'ish

Demak bizning misolimizda shuni kuzatamiz.

$$I = \frac{\sum y_1 S_1^*}{\sum y_0 S_1^*} = \frac{3510,2}{3237,7} = 1,084$$

I — hisobot yilida sut sog'ish indeksi.

$$I = \frac{\sum S_1^* y_0}{\sum S_0^* y_0} = \frac{3237,7}{3302,1} = 0,981$$

y — bazis davrda poda strukturasi indeksi.

Ikkinchi usul.

$$I = \frac{\sum y_1 S_1^*}{\sum y_0 S_0^*} = \frac{\sum y_1 S_0^*}{\sum y_0 S_0^*} \times \frac{\sum S_1^* y_1}{\sum S_0^* y_1}$$

O'rtacha sut  
sog'ish

Bizning misolimizga ko'ra qo'yidagicha bo'ladi.

$$I = \frac{\sum S_1^* y_1}{\sum S_0^* y_1} = \frac{3510,2}{3460,5} = 1,015$$

I — hisobot yilida sut sog'ish indeksi.

$$I = \frac{\sum y_1 S_0^*}{\sum y_0 S_0^*} = \frac{3460,5}{3302,1} = 1,048$$

I — bazis yilida poda struktura o'zgarishida sut sog'ish indeksi.

Birinchi usul bilan hisoblangan indeks ko'rsatkichlariga ko'ra sigir bosh sonining o'zgarishi o'rtacha sut sog'ishga manfiy ta'sir ko'rsatdi. (struktura = 0,98)

Ikkinchisi usulda esa musbat ta'sir ko'rsatdi (J struktura = 1,02).

## **12.5. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari statistikasi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari haqida tushuncha**

Qishloq xo'jaligi tarmog'i moddiy ne'matlar ishlab chiqaradigan soha tarmoqlari orasida muhim o'rinni egallaydi. Qishloq xo'jalik mahsuloti — bu qishloq xo'jalik korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati natijasidadir. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarida etishtirilgan mahsulotlar (g'alla, paxta, kartoshka, sabzavot, meva, sut, jun, tuxum, mol va parandalarni etishtirish va boshqalar) yig'indisidan iboratdir.

Moddiy ne'matlar yaratadigan tarmoqlarning har biri o'ziga xos xususiyatlariga egadir. Qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishning sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishga nisbatan farq qiluvchi xususiyatlariga quyidagilar kiradi: qishloq xo'jaligida iqtisodiy takror ishlab chiqarish jarayoni tabiiy takror ishlab chiqarish jarayoni bilan qo'shilib ketadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda o'zi rivojlanuvchi, ko'payuvchi tirik biologik organizmlar ishtiroy etadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lib qatnashadi. Qishloq xo'jaligiga xos bo'lgan xususiyatlar mahsulot ishlab chiqarishning mavsumiy bo'lishga olib keladi. Agar sanoatda butun yil moboynida bir tekis, to'xtovsiz ravishda mahsulot ishlab chiqarilsa, qishloq xo'jaligida etishtirilgan mahsulot xalq xo'jaligiga mavsumiy ravishda (ko'pincha yilda bir marta) tushadi.

Qishloq xo'jaligi yalpi ishlab chiqarishning hajmi (YaICH) quyidagi mahsulotlar va xizmatlarni o'z ichiga oladi:

- Qishloq xo'jalik korxonalarida (shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklarida) yalpi ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiymati;
- Boshqa tashkilot va muassasalar tarkibida bo'lgan yordamchi xo'jaliklarda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari qiymati;
- Qishloq xo'jaligiga xizmat qiluvchi korxona va tashkilotlar tomonidan bajarilgan xizmatlar hajmi (qiymati).

Demak qishloq xo'jaligi yalpi ishlab chiqarishning hajmi shu uchala guruhdagi mahsulotlar va xizmatlar qiymatlarining yig'indisiga teng bo'ladi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilarining yalpi ishlab chiqarish hajmi o'z navbatida quyidagi elementlardan tashkil topadi.

1. Qishloq xo'jalik tayyor mahsulotlarining qiymatlari.
2. Tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'ining o'zgarishi.

Qishloq xo'jalik tayyor mahsulotlarining qiymati o'z navbatida aholi ist'emoli uchun, sanoatda qayta ishlab chiqarish va eksport uchun hamda qishloq xo'jalik ehtiyoji uchun mo'ljallangan tayyor mahsulotlar qiymatlari yig'indisidan tashkil topdi.

### **Qishloq xo'jaligi mahsulotlari dinamikasining statistik tahlili**

Qishloq xo'jaligi faoliyatini umumlashtiruvchi qiymat ko'rsatkichlarini dinamikasini dinamik tahlil qilish uchun indeks usuli keng qo'llaniladi. Buning uchun mahsulotlar hajmi dinamikasi, mahsulotlar fizik hajmi, mahsulotlar bahosi umumiyligi indekslaridan foydalaniib, umumlashtiruvchi qiymat ko'rsatkichlarining dinamikasini o'zgarishi statistik tahlil qilinadi va xulosalar chiqariladi.

Mahsulotlar hajmi dinamikasi indeksi hisobot davrida joriy baholar bo'yicha etishtirilgan mahsulotlar hajmining bazis davrida joriy baholar bo'yicha etishtirilgan mahsulotlar hajmiga nisbatan oshganligini yoki kamayganligini ifodalaydi. Bu indeksni aniqlash uchun hisobot davridagi mahsulotlarning haqiqiy qiymatini bazis davridagi mahsulotlarni haqiqiy qiymatiga bo'lish kerak:

$$I_{qp} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0}$$

Bunda:  $\sum q_1 p_1$  — hisobot davridagi qishloq xo'jalik mahsulotlarining hisobot davrida baholari bo'yicha qiymati;  $\sum q_0 p_0$  — bazis davridagi qishloq xo'jalik mahsulotlarining bazis davrida baholari bo'yicha qiymati.

Mahsulotlar qiymati dinamikasining o'zgarishi ikki omil hisobiga sodir bo'ladi (Bu indeks formulasidan ham ko'rinish turibdi):

- ishlab chiqarilgan mahsulotlar fizik hajmining o'zgarishi hisobiga;

- o'rtacha joriy baholarning o'zgarishi hisobiga.

Ushbu ikki omil ta'sirlarini aniqlash uchun quyidagi ikki umumiy indeksdan foydalanish kerak:

$$1) \text{ Mahsulot fizik miqdori umumiy indeksi: } I_{qp} = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0}$$

Bunda:  $\sum q_1 p_0$  — hisobot davrida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining bazis davridagi baholari bo'yicha qiymat (mahsulotlar shartli qiymati).

$\sum q_0 p_0$

$$2) \text{ Mahsulot bahosi umumiy indeksi: } I_{qp} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0}$$

Shu ikki umumiy indeks ko'paytmalarining yig'indisi mahsulot hajmi umumiy indeksiga teng kelishi shart:

$$\frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0} \times \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0}$$

Demak, ushbu indekslar orasidagi o'zaro bog'liqlik mavjud. Statistika har yili ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qiymatini aniqlaydi va uning dinamikasini bayon qilingan umumiy indekslar yordamida tahlil qiladi. Shu bilan bir qatorda statistika ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlar va xizmatlarning real hajmlari dinamikasini ham o'rganadi. Buning uchun qishloq xo'jalik mahsulotlari fizik hajmini umumiy indeksdan foydalaniladi.

Ushbu indeksni hisoblashdan oldin mahsulotlarning qayta hisoblangan hajmini aniqlash zarur. Buning uchun hisobot davridagi mahsulotlarning miqdorlarini bazis davridagi ularning baholariga ko'paytirib, qayta hisoblangan qiymati (hajmi) aniqlanadi. So'ngra qayta hisoblangan mahsulotlar hajmi (qiymati) ko'rsatkichini bazis davridagi mahsulotlarning haqiqiyhajmigabo'lish orqali qishloq xo'jalk mahsulotlarining fizik hajmi umumiy indeksi aniqlanadi:

$$I_q = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0}$$

Ushbu indeks qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning real dinamikasini ifodalaydi.

Statistika qishloq xo'jalik mahsulotlarining real hajmining o'zgarishi bilan bir qatorda baho o'zgarishini ham o'rganadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari bahosining umumiy indeksi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$I_{qp} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0}$$

Ushbu indeks qishloq xo'jalik mahsulotlarining o'rtacha bahosi hisobot davrida bazis davriga nisbatan necha martaga yoki necha foizga oshganligini bildiradi. Sur'ati bilan maxraji orasidagi farq baholarning oshishi (kamayishi) natijasida ishlab chiqarish hajmi qancha so'mga oshgan(kamaygan)ligini ko'rsatadi.

### **Mahsulotni sotishdan olingan foyda va rentabellikning statistik tahlili**

**Foyda** — ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan qo'shimcha mahsulotning bir qismidir va o'zgargan shaklidir. Demak, foyda ishlab chiqarish jarayonida qo'shimcha mahsulot tariqasida tashkil topadi, ammo u mahsulot sotilgandan keyin o'z shaklida namoyon bo'ladi. Mahsulot sotishdan olingan foydani aniqlash uchun sotilgan mahsulotlar qiymatidan (mahsulotni sotishdan olingan pul tushumdan) mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxini chegirib tashlamoq kerak, ya'ni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$\sum = \mathbf{qp} - \mathbf{qz}$$

Bunda: **q** — u yoki bu davrda sotilgan har bir mahsulotning miqdori; **p** — har bir sotilgan mahsulotning u yoki bu davrdagi o'rtacha sotish bahosi; **qp** — sotilgan jami mahsulotning qiymati (sotishdan olingan jami pul tushumi); **qz** — sotilgan jami mahsulotning tannarxi; **qp—qz** — mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda summasi.

Shu keltirilgan formuladan foydalanib bazis davri uchun ham, hisobot davri uchun yalpi foyda summasini aniqlash mumkin:

$$\text{Bazis davri uchun} \quad q_0 p_0 - q_0 z_0$$

$$\text{Hisobot davri uchun} \quad q_1 p_1 - q_1 z_1$$

Quyidagi 11.9- jadval ma'lumotlaridan foydalanib, paxtani sotishdan olingan yalpi foyda dinamikasi o'zgarishini statistik tahlilini ko'rib chiqamiz.

*11.9- jadval*

#### **Paxtani sotishdan olingan yalpi foyda dinamikasi**

<b>Nº</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Bazis yili</b>	<b>Hisobot yili</b>	<b>O'zgarishi (+;-)</b>
1	Sotilgan paxta miqdori, s (q)	34080	29137	-4943
2	1 s.paxta bahosi, so'm (p)	6631	7653	-1022
3	1s.paxtaning ishlab chiqarish tannarxi, so'm (z)	4921	6291	-1370
4	1 s.paxta sotishdan olingan foyda, so'm	1710	1361	-348
5	Jami paxtani sotishdan yalpi foyda, ming so'm (1 x 4)	58276	39684	-18892

Xo'jalik bo'yicha paxtani sotish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar hisobot yilidagi foyda summasidan bazis yilidagi foyda summasini chegirish orqali uning o'zgarishi (kamayishi yoki ko'payishi) aniqlanadi:

$$(q_1 p_1 - q_1 z_1) - (q_0 p_0 - q_0 z_0) = (29137 \times 7653 - 29137 \times 6291) - (34080 \times 6631 - 34080 \times 4921) = (222\ 985\ 461 - 183\ 300\ 867) - (225\ 984\ 480 - 167\ 707\ 680) = 39\ 684\ 594 - 58\ 276\ 800 = -18\ 592\ 206 \text{ so'm.}$$

Demak, paxtani sotishdan olingan foyda hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 18 592,206 ming so'mga kamaygan. Hisoblangan formuladan yalpi foydaning o'zgarishi quyidagi 3 omil ta'siri ostida sodir bo'lishi mumkin:

1) sotilgan mahsulotlar fizik hajmining o'zgarishi (ko'payishi yoki kamayishi) hisobiga (q);

2) sotilgan mahsulot bir birligining o'rtacha sotish bahosining o'zgarishi (oshishi yoki kamayishi) hisobiga (p);

3) sotilgan mahsulotlar bir birligining ishlab chiqarish tannarxini o'zgarishi (oshishi yoki kamayishi) hisobiga (z).

Ushbu omillarning yalpi foyda summasining o'zgarishiga ta'sirini indeks usulidan foydalanib aniqlaymiz. Yalpi foydaning o'zgarishiga (ko'payishi yoki kamayishi) birinchi

omilning, ya'ni sotilgan mahsulot miqdori o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun mahsulot fizik miqdori umumiy indeksidan foydalanamiz:

$$I_q = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0}$$

Bunda,  $r_0$  — bazis yilda bir birlik mahsulotlarni sotishdan olingan foyda sotish bahosi bilan bir birlik mahsulot tannarxi orasidagi farq:

$$(p_0 - z_0 = r_0).$$

$$I_p = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0} = \frac{29137 \times 7653}{29137 \times 6631} = \frac{222\,985\,461}{193\,207\,447} = 1,154 \text{ yoki } 115,4\%$$

Demak, paxtaning o'rtacha bahosining 1022 so'mga oshishi natijasida paxtani sotishdan olingan yalpi foyda 15,4 % yoki 29778,02 ming so'mga (222 985,467-193 207,447) ko'paygan.

Foydaning o'zgarishiga uchinchi omilning, ya'ni sotilgan mahsulot bir birligining ishlab chiqarish tannarxining ta'sirini aniqlash uchun tannarx umumiy indeksi formulasidan foydalanamiz:

$$I_p = \frac{\sum q_1 z_1}{\sum q_1 z_0} = \frac{29137 \times 6291}{29137 \times 4921} = \frac{183\,300\,867}{143\,383\,177} = 1,278 \text{ yoki } 127,8\%$$

Demak, 1 s. paxtaning ishlab chiqarish tannarxining 1370 so'mga oshib ketishi natijasida yalpi foyda 27,8 % yoki 39 917,690 ming so'mga (183 300 867 - 143 383 177) kamaygan.

Shunday qilib, ikki omilning salbiy va bir omilning ijobiy ta'siri ostida yalpi foyda 8592 ming so'mga kamaygan:

1. Sotilgan mahsulot miqdori hisobiga kamaygan — 8452 ming so'm;
2. Baho oshishi hisobiga ko'paygan — 29778 ming so'm;
3. Tannarx oshishi hisobiga kamaygan — 39918 ming so'm.

Yalpi foydaning jami o'zgarishi (minus) — 18592 ming so'm.

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, yalpi foydani ko'paytirish asosiy zahiralari bo'lib, tannarxni keskin kamaytirish, mahsulot sifatini oshirish hisobiga o'rtacha sotish bahosini oshirish hisoblanadi.

Sotilgan mahsulotlar rentabelligini aniqlash uchun mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foydani 100 % ga ko'paytirib, natijasini sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxiga bo'lamiz:

$$r = \frac{p - z}{z} \times 100$$

Bunda:  $r$  — sotilgan mahsulotlar bir birligining o'rtacha sotish bahosi;  $z$  — sotilgan mahsulotlar bir birligining ishlab chiqarish tannarxi;  $(p-z)$  — sotilgan mahsulotlar bir birligidan olingan foyda.

Ushbu formula yordamida rentabellik darajasini bazis va hisobot yillari uchun aniqlab olinadi, so'ngra solishtirib o'zgarishi aniqlanadi. Ushbu o'zgarish bevosita ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

- o'rtacha bahoning o'zgarishi hisobiga;
- o'rtacha tannarxning o'zgarishi hisobiga.

Rentabellikning umumiyl o'zgarishi quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{p_1 - z_1}{z_1} - \frac{p_0 - z_0}{z_0} = \pm \Delta_{PZ}$$

Baho o'zgarishining rentabellikka ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{p_1 - z_0}{z_1} - \frac{p_0 - z_0}{z_0} = \pm \Delta_P$$

Tannarx o'zgarishinig rentabellikka ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{p_1 - z_1}{z_1} - \frac{p_1 - z_0}{z_0} = \pm \Delta_Z$$

Shundan keyin rentabellik o'zgarishiga baho berilganib, uni oshirish bo'yicha fikrlar berilganishi kerak.

## **12.6. Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi statistikasi. Mahsulot tannarxi statistikasining mazmuni va vazifalari**

*Mahsulot tannarxi* bu uni ishlab chiqarish va realizasiyasi uchun qilingan sarflarning pul hisobidagi ifodasidir.

Qiymat, tannarx, baho, foyda kabi iqtisodiy kategoriyalarning harakat etish qonunlarini bilmasdan turib, yalpi va sof daromad, rentabellik, kapital mablag'laming qoplangan muddati kabi bir qator iqtisodiy kategoriyalarni tushunib bo'lmaydi. Busiz qishloq va suv xo'jaligida qiymat qonuni xarajatidan ongli ravishda foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yerishish mumkin emas.

Jonli va buyumlashgan mehnat sarfidan tashkil topgan ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari butun ishlab chiqarish usuliga tegishli bo'lib, jamiyat uchun zarur mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan haqiqiy mehnat miqdorini his ettiradi. Bu xarajatlar ish vaqt bilan o'lchanadi.

Jamiyatning mahsulot ishlab chiqarishga qilgan jami xarajatlari mahsulotlarning butun qiymati bilan belgilanadi. Jamiyatda bu xarajat uch qismdan iborat:

1. Ishlab chiqarish vositarining mahsulot qiymatiga o'tgan qismi — S.
2. Zaruriy mehnat bilan yaratilgan mahsulot qiymati — V.
3. Jamiyat uchun yaratilgan qo'shimcha mehnat mahsuloti — m.

Ijtimoiy qiymatning birinchi ikki qismi qishloq xo'jalik korxonalari mahsulotining tannarxini tashkil etadi ( $S = V$ ).

Mahsulot tannarxi shu mahsulot qiymatining pul bilan ifodalangan bir qismi bo'lib, bu qism iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositarini qiymati va mehnatga to'langan ish haqi qiymatini o'z ichiga oladi. Mahsulot tannarxi ijtimoiy xarajatning bir qismini tashkil etib, mahsulot etishtirish va uni realizasiya qilish xo'jalik uchun qanchaga tushganligini ko'rsatadi.

Mahsulot tannarxi yordamida xo'jalikda mahsulot etishtirish arzonga yoki qimmatga tushayotganligini aniqlash mumkin. Mahsulot tannarxi qishloq xo'jalik korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati natijalarini mujassamlashtiradigan ko'rsatkichdir. Uning yordamida xo'jalikda moddiy, pul va mehnat resurslaridan qay darajada foydalanayotganligini aniqlash, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, mahsulot etishtirish texnologiyasini muntazam ravishda takomillashtirish, ishlab chiqarishda iqtisodiy tejamkorlikni amalga oshirish, rahbarlik uslubini takomillashtirish, hisob-kitob ishlarini tartibga solish kabi bir qator iqtisodiy tadbirlar

amalga oshiriladi. Shuning uchun tannarx mehnat resurslaridan, yer fondidan, texnikadan boshqa ishlab chiqarish vositalardan qay darajada foydalanayotganligini ifodalaydi.

Mahsulot tannarxining doim pasaya borishiga yerishish lozim. Mahsulot tannarxi qancha past bo'lsa, unga shuncha kam jonli va buyumlashgan mehnat sarflangan, mahsulot birligi hisobiga shuncha ko'p foyda olingan bo'ladi.

Har bir korxona tomonidan xarajatlar, ishlab chiqarish vositalari va mehnatga xaq to'lash uchun sarf qilingan mablag'lar qiymat shaklida doim qoplab turilishining, binobarin, hisobga olib borilishining ob'ektiv zarurligi tannarxning alohida iqtisodiy darajasi bo'lishini taqozo qiladi. Shu sababli qiymatning tannarxda gavdalangan qismi har bir korxona uchun katta ahamiyatga egadir. Korxona o'z mahsulotini sotib, shundan kelgan daromad hisobiga o'z xarajatlarini, mahsulot tannarxini qoplaydi. Mahsulot tannarxi statistikasining vazifalari ana shulardan kelib chiqadi. Bu vazifalar esa tannarx darajasi va tuzilishini o'rganishdan, bu ko'rsatkich dinamikasini tkshirishdan, biznes reja bajarilishini tahlil qilishdan, reja bajarish darajasiga ta'sir etuvchi sabablarni aniqlashdan va tannarxni pasaytirishning qo'shimcha zahiralarini qidirib topishdan iboratdir.

### **Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi va mahsulot tannarxi**

Mahsulot tannarxi korxonalarining mehnat resurslari, ishlab chiqarish vositalari, fan va texnika yutuqlari hamda ilg'orlar tajribasidan qay darajada foydalanayotganliklari, ishlab chiqarishni nechog'li to'g'ri tashkil qilganliklarining asosiy ko'rsatkichidir. Xo'jaliklardagi mahsulot tannarxiga qarab mahsulotni etishtirish qanchaga tushayotganligini, ishlab chiqarishga qancha xarajat qilinayotganligini bilish mumkin.

Tannarx ko'rsatkichlarini aniqlashning uslubiy asosi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun bitta bo'lsa-da, ammo har bir tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjuddir. Masalan, sanoatda mahsulot birligining tannarx darajasini har bir ishlab chiqarish jarayoni tugallanishi bilan aniqlash mumkin bo'lsa, qurilishda ob'ekt qurilib bitgach, qishloq xo'jaligida esa faqatgina yil oxirida hosil yig'ib olingach aniqlanadi.

Mahsulot tannarxi tarkibidagi xarajatlarning xaraktriga ko'ra, ishlab chiqarish va to'la tannarxga, ishlab chiqarishdagi roliga ko'ra, rejadagi tannarx va haqiqiy tannarxga, ishlab chiqarish hajmiga qarab, butun korxona yoki uning bo'limlari (brigada va fyerma) tannarxiga bo'linadi.

**Alovida tannarx** ayrim korxonaga mahsulot qancha tushunganligini ko'rsatadi.

**Soha tannarxi** mahsulot shu korxonalar bevosita qaram bo'lgan sohaga o'rtacha qanchaga tushganligini ko'rsatdi.

**Ishlab chiqarish tannarxi** mahsulotlarni etishtirish va saqlash bilan bog'liq xarajatlardan tashkil topadi.

**To'la tannarx** mahsulotni etishtirish, saqlash va sotish bilan bog'liq xarajatlarni ifoda etadi. Shuning uchun ham ayrim hollarda to'la tannarxni kommyersiya tannarxi ham deb yuritiladi.

**Rejaviy tannarx** ishlab chiqarish rejasida mahsulot birligi etishtirish uchun rejalahtirilgan xarajatlar yig'indisidir. U me'yoriy raqamlar asosida bir sentnyer mahsulot yoki 1 hektar ekin maydoniga sarflanadigan mehnat, pul va moddiy xarajatlarga ko'ra hisoblab chiqiladi.

**Haqiqiy tannarx** mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan haqiqiy xarajatlar yig'indisidir. Haqiqiy tannarxni rejadagi tannarx, mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajat bilan solishtirish mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajat rejadagi xarajatdan ortiq yoki kamligini aniqlash va uni kamaytirish choralarini belgilash imkoniyatini byeradi.

Mahsulot etishtirishda qatnashishiga qarab xarajatlar asosiy va qo'shimcha xarajatlarga bo'linadi. Asosiy xarajatlar mahsulot etishtirishga bevosita qatnashib va mahsulot ular yordamida etishtiriladi.

Bu xarajatlarga bevosita mahsulot etishtirish uchun sarflangan mehnat haqi, urug'lik, o'g'it, yonilg'i, ozuqa sarflari, amortizasiya ajratmasi, traktor, kombayn va boshqa qishloq

xo'jalik mashinalari, binolar va inshootlarning joriy remonti, mayda inventarlar va mahsulot etishtirishda bevosita qatnashadigan boshqa xarajatlar kiradi. Bularsiz ishlab chiqarish jaryonini amalga oshirib bo'lmaydi.

Qo'shimcha xarajatlar asosan *ishlab chiqarishni boshqarish* va unga *xizmat* qilish bilan bog'liq xarajatlardan tashkil topadi. Bu xarajatlar, o'z navbatida ikki guruhga: ***umumishlab chiqarish* va *umumxo'jalik xarajatlari*** guruhlariga bo'linadi. Umumishlab chiqarish xarajatlariga tarmoqni tashkil etish va unga xizmat qilish bilan bog'liq xarajatlar kiradi. Umumxo'jalik xarajati ayrim korxonaning ishlab chiqarishini yuritish va unga xizmat qilish bilan bog'liq xarajatlardan tashkil topadi.

**Bevosita xarajatlar** u yoki bu turdag'i mahsulotni etishtirish uchun bevosita xarajatlarni ifoda etadi. Bu xarajat faqat bir turdag'i mahsulot yoki bir turdag'i chorva mahsuloti etishtirish uchun bevosita sarflanadigan xarajatlardir.

**Bilvosita xarajat** bir necha turdag'i mahsulot etishtirishda qatnashib, bir turdag'i mahsulot tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri qo'shib bo'lmaydigan xarajatdir. Shuning uchun bu xarajat yil oxirida bevosita xarajatga nisbatan taqsimlanadi, bir so'mlik bevosita xarajatga to'g'ri kelgan bilvosita xarajatga qarab ishlab chiqarilgan tannarxiga qo'shiladi.

Ishlab chiqarishni ilmiy asosda boshqarish va uning samaradorligini oshirish ko'p jihatdan mahsulot tannarxini to'g'ri hisoblashga bog'liqdir.

Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarni tannarxda tutgan o'rniga qarab guruhlash xarajatlar kalkulyasiyasini bildiradi. Xarajatlar kalkulyasiyasini mahsulot etishtirish uchun qanday turdag'i xarajatlar sarflanganligi va ulardan qancha miqdorda sarflanganligini ifoda etadi.

### **Mahsulot tannarxi tuzilishi va dinamikasi**

Mahsulot tannarxi to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilishda uning tuzilishi, ya'ni ma'lum xil mahsulotni etishtirish sarflarining tarkibi o'rganiladi. Bu maqsadda sarflarni ularning iqtisodiy elementlari va kalkulyasiya moddalari bo'yicha guruhlash tartibi qo'llaniladi.

Qishloq xo'jaligi mahsuloti tannarxining elementlari tuzilishi uch asosiy guruhdan iborat:

- 1) asosiy vositalarning eskirish miqdoridagi sarflari (amortizasiya ajratmalari);
- 2) xom ashyo, yonilg'i va yordamchi matyeriallar sarfi (urug'liklar, yonilg'i, em-xashak, dori-darmon va h.k.);
- 3) qishloq xo'jalik korxonalari xodimlariga to'langan mehnat haqlari.

Shu tariqa guruhlash barcha xarajatlarni iqtisodiy mazmuniga qarab bo'lishga, jonli va o'tmish mehnat sarflarining nisbatini aniqlashga, sof mahsulotni hisoblab chiqarishga imkon byeradi.

Statistikada qo'llaniladigan guruhlash tartibi sarflari hisob-kitoblar o'tkazish uchun, haqiqiy xarajatlarni rejaviy xarajatlar bilan solishtirish uchun, tannarx tuzilishini o'rganish va uni pasaytirish yo'llarini qidirib topish uchun zarurdir.

Xo'jaliklarning yillik hisobotlarida asosiy qishloq xo'jalik ekinlarini etishtirish sarflari quyidagi kalkulyasiya moddalari bo'yicha qilinadi:

1. Asosiy va qo'shimcha ish haqqi.
2. Yonilg'i va moylash matyeriallari.
3. Urug'liklar.
4. O'g'itlar.
5. Asosiy vositalar amortizasiyasini.
6. Asosiy vositalarning joriy remonti.
7. Avtotransport.
8. Boshqa asosiy sarflar.
9. Umum ishlab chiqarish va umumxo'jalik xarajatlari.

Chorvachilikdagi kalkulyasiya moddalari dehqonchilikdagi kalkulyasiya moddalaridan shu bilan farq qiladiki, chorvachilikda urug'lik va o'g'it xarajatlari bo'lmaydi, lekin uning o'ziga xos xarajatlari em-xashak va dori-darmon xarajatlari bor.

Xarajatlarni kalkulyasiya moddalari bo'yicha guruhlash barcha sarflarni ishlab chiqarishda tutgan o'rniga qarab bo'lishga, bevosita va kompleks sarflarni aniqlashga imkon byeradi.

Sarflarni kalkulyasiya moddalari bo'yicha guruhlash va ularni bevosita sarflarga bo'lish xo'jalikning rentabelligini tahlil qilishda va tannarxni pasaytirish omillarini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Mahsulot tannarxini pasaytirishning asosiy omillari: mehnat unumidorligini oshirish, qishloq -xo'jalik ekinlarining hosildorligini va chorva mollari mahsulordorligini oshirish, ma'muriy boshqarish xarajatlarini qisqartirish, em-xashak, yonilg'i, ehtiyoq qismlar va boshqa matyeriallar hamda pul mablag'larini tejab-tyergab sarf qilishdan iboratdir.

*11.10- jadval*

**"Yangi asr" fermer xo'jaligida don ekinlarini etishtirishda qilingan xarajatlar tuzilishi**

<b>Asosiy va qo'shimcha ish xaqi</b>	<b>Ming so'm</b>	<b>Jamiga nisbatan, %</b>
1 . Asosiy va qo'shimcha ish haqi	22157	28,6
2. Yonilg'i va moylash matyeriallari	1 591	2,1
3. Urug'liliklar	5212	6,7
4. Mahalliy va minyeral o'g'itlar	3345	4,4
5. Avtotransport	4062	5,2
6. Asosiy vositalarning amortizasiysi	11369	14,7
7. Asosiy vositalarning joriy remonti	8601	11,1
8. Boshqa asosiy xarajatlar	8100	10,5
9. Umumishlab chiqarish va umumxo'jalik xarajatlari	12958	16,7
<b>10. Jami xarajatlar</b>	<b>77395</b>	<b>100,0</b>
11. Shundan yordamchi mahsulotga ajratilgan	3851	
12. O'rib olingan 1 ga maydonga qilingan xarajatlar: (10 qator)/ 800 (10 qator — 11 qator)	96,74	
13.1s. donning tannarxi	24500	

*Eslatma.* O'rib olingan ekin maydoni 800 hektar, foydalanib bo'lmaydigan va qurib qolgan chiqitlarni chiqarib tashlagandan keyingi yalpi mahsulot 24 500 sentnyer. Xarajatlarning ayrim kalkulyasiyadagi moddalar o'zgarishidagi yo'nalishni aniqlash uchun xarajatlar tuzilishini uning dinamikasida taqqoslash juda muhimdir.

Har xil omillarning tannarxi darajasiga ta'sirini tahlil qilishda sarflar tuzilishi kalkulyasiya moddalari bo'yicha belgilanadi. Mahsulot tannarxini kalkulyasiya moddalari bo'yicha tahlil qilish uni kamaytirish yo'llarini topib olishga imkon byeradi. 39- jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinishicha, don etishtirish sarflarida ish haqi birinchi o'rinda turadi (28,6 %), umumishlab chiqarish va umumxo'jalik xarajatlari (16,7 %) ikkinchi o'rinni egallaydi. Mana bu keyingi xarajatlarni kamaytirish tannarxini kamaytirishning muhim zahirайди. Haqiqatda qilingan xarajatlarni reja ko'rsatkichlari bilan solishtirish ayrim moddiy vositalar va jonli mehnatga qilingan xarajatlarning tejalgan yoki ortiqcha sarf bo'lganligini aniqlash imkonini byeradi.

Ko'pincha iqtisodiy hodisalarni tahlil qilishda qo'llanilgani kabi, mahsulot tannarxi dinamikasini, tahlil qilishda statistik indeks usulidan keng foydalanadi. Mahsulot tannarxining dinamikasini o'rganishning muhim shartlaridan biri, o'rganilayotgan mahsulotning albatta solishtirma tovar mahsuloti bo'lishidir. Alovida olingan mahsulotlarning tannarx indekslari quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$I_q = \frac{Z_1}{Z_0}$$

Bunda:  $Z_0$  — mahsulot birligining bazis davrdagi tannarxi;  $Z_1$  — mahsulot birligining joriy davrdagi tannarxi.

Bu indekslar ayrim olingan korxonalarda qo'llanilishi mumkin. Xo'jaliklar guruhi bo'yicha umumiy indekslarni hisoblash uchun mahsulotning o'rtacha tannarxi olinadi. Bir xil mahsulot ishlab chiqarilgan xo'jaliklar uchun umumiy indeks formulasi qo'yidagicha bo'ladi:

$$I_z = \frac{Z_1}{\check{Z}_0}$$

Bunda:  $\check{Z}$  - mahsulot birligining xo'jaliklar guruhi bo'yicha o'rtacha tannarxi;

Buni aniqlash uchun xarajatlar summasi mahsulot miqdoriga bo'linadi.

Kengaytirilgan holda bu formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$I_z = \frac{\sum q_1 z_1}{\sum z_1} : \frac{\sum q_0 z_0}{\sum q_0} = \frac{Z_1}{Z_0}$$

Bunda:  $Z_1$  va  $Z_0$  — mahsulot birligining joriy va bazis davrdagi tannarxi;  $q_1$  va  $q_0$  — mahsulotning joriy va bazis davrdagi ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi.

Masalan, ikkita xo'jalikda ishlab chiqarilgan A mahsulot hajmi va uning tannarx darajasi quyidagicha bo'lgan (11.11- jadval):

11.11- jadval

#### Xo'jalikda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi va tannarxi darajasi

Xo'-jalik-lar	Bazis davr		Joriy davr	
	Ishlab chiqarildi, (s)	Bir sentnyer mahsulot tannarxi (ming so'm)	Ishlab chiqarildi, (s)	Bir sentnyer mahsulot tannarxi (ming so'm)
	<b>0</b>	<b><math>Z_0</math></b>	<b><math>Q_1</math></b>	<b><math>Z_1</math></b>
1	600	10,0	2000	9,0
2	1400	12,0	2000	10,5

Birinchi xo'jalikda tannarx indeksi 0,90 (9:10) yoki 90,0 %, tannarx 10 % pasaygan, ikkinchi xo'jalikda tannarx indeksi 0,875 (10,5:12) yoki 125 % pasaygan, natijada birinchi xo'jalikda mahsulot ishlab chiqarilgan mahsulotning har bir sentnyeriga 1000 so'm (9000—10000) ikkinchi xo'jalikda 1500 (10500-12000) tejalgan. Shunday qilib:

$$1- \text{xo'jalik } (2000 \times 1000) = 2 \text{ mln. so'm}$$

2- xo'jalik  $(2000 \times 1500) = 3 \text{ mln. so'm}$  tejab ikkala xo'jalikda tejalgan pul 5 mln. so'm bo'lgan.

Ikkala xo'jalikda ishlab chiqarilgan A mahsulotning o'rtacha tannarxi.

*Bazis davrda*

$$Z_0 = \frac{600 \times 10 + 1400 \times 12}{600 + 1400} = \frac{22800}{2000} = 11,4 (\text{m. so'm})$$

*Joriy davrda*

$$Z_1 = \frac{2000 \times 9 + 2000 \times 10,5}{2000 + 2000} = \frac{39000}{4000} = 9,75 (\text{m. so'm})$$

Ikkala xo'jalik ishlab chiqargan A mahsulotning indeksi  $(9,75:11,4) = 0,85$  yoki 85 % bo'ladi, demak u 14,5 % pasaygan, bunday o'zgaruvchan tarkibli indekslarga ikki omil tasir

ko'rsatadi: birinchi omil ayrim olingan xo'jaliklardagi mahsulot tannarxining o'zgarishi bo'lsa, ikkinchi omil umumiylasulotni ishlab chiqarishdagi xo'jaliklar salmog'iда yuz byergan tuzilmaviy o'zgarishlaridir.

Birinchi omilning umumiylasulotni indeksiga ta'sirini o'rganish uchun doimiy tarkibli indeks hisoblab chiqariladi:

$$I_z = \frac{\sum q_1 z_1}{\sum q_1} : \frac{\sum q_0 z_0}{\sum q_0} = \frac{2000 \times 9 + 2000 \times 10,5}{2000 + 2000} : \frac{2000 \times 10 + 2000 \times 12}{2000 + 2000} =$$

$$\frac{39000}{4000} : \frac{44000}{4000} = 9,75 : 11,0 = 0,886 \text{ yoki } 88,6\%$$

Ikkala xo'jalik bo'yicha A mahsulotning tannarxi har qaysi xo'jalikdagi mahsulot tannarxining pasayishi hisobiga 11,4% pasaygan.

Ikkinchi omilning umumiylasulotni indeksiga ta'sirini o'rganish uchun tuzilmaviy o'zgarishlari indeksi hisoblab chiqariladi.

$$I_z = \frac{\sum q_1 z_0}{\sum q_1} : \frac{\sum q_0 z_0}{\sum q_0} = \frac{2000 \times 10 + 2000 \times 12}{2000 + 2000} : \frac{600 \times 10 + 1400 \times 12}{600 + 1400} =$$

$$\frac{44000}{4000} : \frac{22800}{2000} = 11,0 : 11,4 = 0,965 \text{ yoki } 96,5\%$$

Mahsulot tannarxi pastroq bolgan birinchi xo'jalikning umumiylasulot ishlab chiqarishdagi salmog'i bazis davridagi 30 % dan (600 : 2000) x 100, joriy davrda 50 % ga (2000 : 4000) x 100 ga ko'tarilishi va ikkinchi xo'jalik salmog'ining bazis davrdagi 70 % dan (1400 : 2000) x 100, joriy davrda 50 % ga (2000 : 4000) x 100 pasayishi, ikkala xo'jalik bo'yicha A mahsulot tannarxi 3,5 % pasaytirilgan.

Bir necha xil mahsulot tannarxi dinamikasini o'rganishda umumiylasulot (agregat) indekslardan foydalaniladi. Bunda ham ikki xil holat, ya'ni:

- 1) ayrim olingan xo'jalik uchun hisoblangan umumiylasulotni indeks va
- 2) xo'jaliklar guruhi uchun qo'llaniladigan umumiylasulotni indeks e'tiborga olinadi.

## O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN TEST SAVOL-JAVOBLARI

### 1. Tuproqning tabiiy (potensial) unumidorligi ... .

a) bu tuproq madaniyatini yaxshilash, qo'shimcha kapital mablag' va fan-texnika yangiliklarini dehqonchilikka izchillik bilan joriy etish yo'li bilan hosil qilingan tuproq unumidorligidir.

b) bu uzoq vaqt davomida tabiat kuchlari, xususan, iqlim, tabiiy o'simliklar, mikroorganizmlar, oqar suvlar, yer osti suvlar va hokazolar ta'sirida tuproqda oziqa zahirasi to'planishidir.

v) To'g'ri javob yo'q.

g) bu yerkarni tubdan yaxshilab, ularni ko'proq hosil olishga moslashtirish demakdir.

### 2. Qishloq xo'jaligini meliorasiyalash ... .

a) bu uzoq vaqt davomida tabiat kuchlari, xususan, iqlim, tabiiy o'simliklar, mikroorganizmlar, oqar suvlar, yer osti suvlar va hokazolar ta'sirida tuproqda oziqa zahirasi to'planishidir.

b) bu tuproq madaniyatini yaxshilash, qo'shimcha kapital mablag' va fan-texnika yangiliklarini dehqonchilikka izchillik bilan joriy etish yo'li bilan hosil qilingan tuproq unumidorligidir.

v) bu yerlarni tubdan yaxshilab, ularni ko'proq hosil olishga moslashtirish demakdir.

g) To'g'ri javob a va b.

### **3. Tuproqning sun'iy unumdorligi ... .**

a) bu uzoq vaqt davomida tabiat kuchlari, xususan, iqlim, tabiiy o'simliklar, mikroorganizmlar, oqar suvlar, yer osti suvlari va hokazolar ta'sirida tuproqda oziqa zahirasi to'planishidir.

b) bu tuproq madaniyatini yaxshilash, qo'shimcha kapital mablag' va fan-texnika yangiliklarini dehqonchilikka izchillik bilan joriy etish yo'li bilan hosil qilingan tuproq unumdorligidir.

v) bu yerlarni tubdan yaxshilab, ularni ko'proq hosil olishga moslashtirish demakdir.

g) To'g'ri javob a va v.

### **4. Tuproqqa ta'sir qilish va uning tuzilishini yaxshilash jihatidan meliorasiya tadbirlarini quyidagicha guruuhlar bo'lish mumkin:**

a) fizik meliorasiya; b) kiyoviy meliorasiya;

v) agro-o'rmonchilik meliorasiyasi. g) To'g'ri javob a va b,v.

### **5. Fizik meliorasiya ... .**

a) maydonlarni sug'orish, botqoqliklarni quritish, dalalarni toshlardan va butalardan tozalash, yer kartalarini tekislash, konfigurasiyalash tadbirlarini o'z ichiga oladi.

b) tuproq strukturasini o'simlik o'sishi va rivojlanishi uchun yaroqli holga keltirish bilan bog'liq tadbirlar kiradi.

v) suv va shamol yeroziyasiga qarshi kurash, qum ko'chishini cheklash, jarliklar emirilishini to'xtatish va o'rmonchilik xo'jaligi bilan bog'liq agrotexnika tadbirlarini kiritish mumkin.

g) To'g'ri javob yo'q.

### **6. Agro-o'rmonchilik meliorasiya ... .**

a) To'g'ri javob yo'q.

b) tuproq strukturasini o'simlik o'sishi va rivojlanishi uchun yaroqli holga keltirish bilan bog'liq tadbirlar kiradi.

v) suv va shamol yeroziyasiga qarshi kurash, qum ko'chishini cheklash, jarliklar emirilishini to'xtatish va o'rmonchilik xo'jaligi bilan bog'liq agrotexnika tadbirlarini kiritish mumkin.

g) maydonlarni sug'orish, botqoqliklarni quritish, dalalarni toshlardan va butalardan tozalash, yer kartalarini tekislash, konfigurasiyalash tadbirlarini o'z ichiga oladi.

### **7. Statistika ekin maydonlari besh asosiy toifaga bo'linadi:**

a) 1) ekilgan; 2) kuzgi mahsuldor; 3) ekin bilan band bo'lмаган maydonlar; 4) hosili yig'ib olinadigan; 5) chul maydonlar.

b) 1) ekilgan; 2) bahorgi mahsuldor; 3) ekin bilan band bo'lib to'rgan; 4) chul maydonlar; 5) yig'ib olingan maydonlar.

v) 1) ekilgan; 2) bahorgi mahsuldor; 3) ekin bilan band bo'lib to'rgan; 4) hosili yig'ib olinadigan; 5) yig'ib olingan maydonlar. g) To'g'ri javob yo'q.

### **8. Bahorgi mahsuldor maydon .... .**

a) haqiqatda bahorgi ekish oxiriga kelib urug' sepilgan maydondir, hosilining yig'ib olinish — olinmasligining ahamiyati yo'q

b) bu bahorgi kish oxiriga klib ekinlar bilan band bo'lган va hosili shu yil yig'ib olinadigan ekin maydonlaridir.

v) hosili yig'ib olinadigan maydon. g) To'g'ri javob a va b.

### **9. Bir yillik o'tlar..... .**

a) urug'lik uchun pichan, ko'k ozuqa va o'tloq uchun eqiladigan barcha bir yillik o'tlar shu guruh ekinlar qatoriga kiritiladi.

b) ko'katni uchun ekilgan don va dukkakli ekinlar em-xashak ekinlari hisobiga kiritiladi.

v) mustaqil maydon egallamay biron boshqa ekin ustiga eqiladigan qoplama o'tlar.

g) To'g'ri javob a va b.

### **10. Hosil va hosildorlikni tavsiflashda hosilning asosiy toifasi farq qilinadi:**

a) tasviriy; b) ko'katiy;

- v) xirmoniy. g) To'g'ri javob a va b, g.
- 11. Tasviriy hosil.... .**
- a) bu haqiqatda etishtirilgan ammo hali yig'ib-tyerib olinmagan hosildir. Bu ekin bevosita o'z vaqtida yig'ishtirib olish oldidan aniqlanadi
- b) bu ekin pishishidan ancha oldin kutish mumkin bo'lgan hosildir. U ekin rivojlanishining turli davr navlarida xo'jalik agronomi tomonidan shaxsan sinchiklab ko'rib belgilanadi.
- v) To'g'ri javob yo'q. g) bu yig'ishtirib va kirimga yozib olingan hosildir.
- 12. Haqiqiy hosil .... .**
- a) bu ekin pishishidan ancha oldin kutish mumkin bo'lgan hosildir.
- b) To'g'ri javob yo'q. v) bu yig'ishtirib va kirimga yozib olingan hosildir.
- g) bu haqiqatda etishtirilgan ammo hali yig'ib-tyerib olinmagan hosildir.
- 13. Ko'katiy hosil.... .**
- a) bu yig'ishtirib va kirimga yozib olingan hosildir.
- b) bu ekin pishishidan ancha oldin kutish mumkin bo'lgan hosildir.
- v) ) bu haqiqatda etishtirilgan ammo hali yig'ib-tyerib olinmagan hosildir.
- g) To'g'ri javob yo'q.
- 14. Chorvachilikning resurslarini ifodalovchi ko'rsatkichlar:**
- a) ozuqadan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari;
- b) chorva mollarini takror etishtirish va em-xashak baza ko'rsatkichlari
- v) chorva mollarining bosh soni va tarkibi ko'rsatkichlari; g) To'g'ri javob b va v.
- 15. Chorvachilikda ishlab chiqarish natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar:**
- a) chorvachilik mahsulotlarining hajmi va sifati ko'rsatkichlari;
- b) chorva mollarining mahsuldarlik ko'rsatkichlari; v) To'g'ri javob a va b.
- g) chorva mollarining bosh soni va tarkibi ko'rsatkichlari;
- 16. Chorvachilikning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari:**
- a) chorvachilikda mehnat unumdarligini ifodalovchi, ozuqadan foydalanish samaradorligi, mahsulot tannarxi ko'rsatkichlari;
- b) chorva mollarining bosh soni va tarkibi, chorva mollarini takror etishtirish, em-xashak bazasi ko'rsatkichlari; v) To'g'ri javob yo'q.
- g) chorvachilik mahsulotlarining hajmi, sifati, chorva mollarining mahsuldarlik ko'rsatkichlari.
- 17. Foya .....**
- a) mahsulotni sotishdan olingan pul tushum
- b) ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan qo'shimcha mahsulotning bir qismidir va o'zgargan shaklidir
- v) daromaddan xarajatlarni ayirish. g) To'g'ri javob a, va b,v.
- 18. Mahsulot tannarxi .....**
- a) ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan qo'shimcha mahsulot
- b) bu uni ishlab chiqarish va realizasiyasi uchun qilingan sarflarning pul hisobidagi ifodasidir.
- v) To'g'ri javob yo'q. g) mahsulotni sotishdan olingan pul tushum.
- 19. Ishlab chiqarish tannarxi .....**
- a) mahsulotni etishtirish, saqlash va sotish bilan bog'liq xarajatlarni ifoda etadi.
- b) mahsulot shu korxonalar bevosita qaram bo'lgan sohaga o'rtacha qanchaga tushganligini ko'rsatdi.
- v) mahsulotlarni etishtirish va saqlash bilan bog'liq xarajatlardan tashkil topadi.
- g) To'g'ri javob a va b.
- 20. Haqiqiy tannarx .. .**
- a) tannarx ishlab chiqarish rejasida mahsulot birligi etishtirish uchun rejalaشتirilgan xarajatlar yig'indisidir.
- b) mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan haqiqiy xarajatlar yig'indisidir.
- v) To'g'ri javob a va b.
- g) ayrim korxonaga mahsulot qancha tushunganligini ko'rsatadi.

## **O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR**

1. Yer bonitirovkasi deb nimaga aytildi?
2. Yerni iqtisodiy baholash deganda nima tushuniladi?
3. Yerdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi deganda nimani tushunasiz?
4. Yer statistikasining asosiy vazifalari?
5. Yerdan foydalanish samaradorligini aniqlashda yalpi mahsulot, sof mahsulot ko'rsatkichlari qaysi baholarda ifodalanadi?
6. Ekin maydonlarining darajalari?
7. Ekin maydonlarining guruhlari?
8. Mahsuldor maydon deb nimaga aytildi?
9. Hosil va hosildorlik ko'rsatkichlari deb nimaga aytildi?
10. Hosildorlik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni qaysi statistik usullar asosida tahlil etish mumkin?
11. Hosildorlik ko'rsatkichlari va ularni aniqlang?
12. O'rtacha hosildorlikni statistik tahlilini ko'rsating?
13. Hosildorlik dinamikasi qaysa statistik usullar asosida tahlil etiladi?
14. chorva mollari sonini ifodalovchi ko'rsatkichlar?
15. chorva mollarining o'rtacha sonini aniqlash usullari?
16. chorva mollarining shartli soni ko'rsatkichi, uning zarurligi, ahamiyati, hisoblash usuli?
17. Sigirlarning qisir qolish va poda safini ta'mirlovchi yosh mollar bilan to'ldirish koeffisientlari?
18. Yalpi ishlab chiqarish hajmi, yalpi mahsulotdan farq qiladimi?
19. Yalpi ishlab chiqarish deganda nimani tushunasiz?
20. Yalpi qo'shilgan qiymat hajmi qanday aniqlanadi?
21. Sof qo'shilgan qiymat deganda qanday ko'rsatkichni tushunasiz?
22. Rentabellik deb nimaga aytildi?
23. Ishlab chiqarish xarajatlari deb qanday sarflar tushuniladi?
24. Ishlab chiqarish xarajatlari va ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi statistikasining vazifalari?
25. Mahsulot tannarxi deb nimaga aytildi?
26. Mahsulot tannarxi umumiy indeksi formulasi asosida tannarxni statistik tahlil qiling?

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Kontitusiyasi. -Toshkent, O'zbekiston. 2009 yil. 40 bet.
2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgaltyeriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. –T.: 1996 yil 30 avgust.
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat Statistikasi to'g'risida"gi Qonuni. –T.: 1993 yil 2 sentabr.
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2008 y. Qonunchilik palatasi tomonidan 23.11.2007 qabul qilingan. (25.12.2007 y. ORQ-136-son)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.
6. "Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 martdagi qarori, №PQ-304.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 26 yanvar, PQ-1047-son.
8. "2007 yilda qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 15 noyabrdagi qarori, №PQ-512.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Eksport qiluvchi korxonalarni moliyaviy va Kredit yo'li bilan qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 290-sonli qarori.–T.:31.12.2008 y.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Iqtisodiyotning real sektori sohasida korxonalarni va investision faollikni Kredit yo'li bilan qo'llab-quvvatlashni ta'minlash masalalarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risida" 288-sonli qarori. –T.: 31.12.2008 y.
11. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining «1 yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risida» nizom. O'Z AV tomonidan 1192-son bilan ro'yxatga olingan –T.: 2002 y.
12. O'zbekiston Respublikasining Buxgaltyeriya hisobining milliy standartlari, To'plam. T.: O'zR BAMA nashriyot markazi. 2009 y.
13. O'zbekiston Respublikasining Buxgaltyeriya hisobining milliy standartlari (21-BHMS). T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi". 2005 y.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tarkibi to'g'risida»gi Nizom. 54- qarori. –T.: 1999 y.
15. O'zbekiston Respublikasini jahon amaliyotida qabul qilingan hisob statistikasi tizimiga o'tkazish. Davlat dasturi. Vazirlar Mahkamasining 133-sonli qarori. 1994 yil 14 iyun.
16. Fermer xo'jaliklarida buxgaltyeriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to'g'risida Nizom. Moliya vazirligi va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 2008 yil 21 yanvardagi 1, 1z2-son qarori bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 6 martda 1781-son bilan ro'yxatga olingan.
17. Karimov I. A. "O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari".-T.: "O'zbekiston", 1995-y.
18. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2011 yil 27 dekabr.
19. I.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. -T.: "O'zbekiston". 2009y. -56 bet.

20. Mamlakatimizni modyernizasiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi ro'znomasi 2009 yil 14 fevral, № 33-34 (4696-4697)
- Urazov K. B. Boshqa tarmoqlarda buxgaltyeriya hisobining xususiyatlari. O'quv qo'llanma. T.: 2010.
21. Urazov K. B. Qishloq xo'jaligi korxonalarda buxgaltyeriya hisobining xususiyatlari. Ma'ruzalar kursi. Samarqand.: 2009.
22. Ochilov S. va Yergasheva SH. Qishloq va suv xo'jaligi statistikasi. O'quv qo'llanma. T.: 2008-y.
23. Vohidov. S. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgaltyeriya hisobining xususiyatlari. zO'quv qo'llanma. -T.: TDIU nashriyoti, 2009. -237 b.
24. Qo'ziev I.N. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgaltyeriya hisobining xususiyatlari.zO'quv qo'llanma. -T.: TMI, 2004.-286 b.
25. Sotivoldiev A. Zamonaviy buxgaltyeriya hisobi. 3 t. zDarslik. –T.: O'zR B va AMA , 2004. -505 b.
26. Hoshimov B. Buxgaltyeriya hisobi nazariyasi. Darslik.T.: "Yangi asr avlod", 2004-y.
27. Sanaev N. S. Fermer xo'jaliklarida buxgaltyeriya hisobining xususiyatlari. –T.: 2006-y.
28. Soatov N.M. Statistika. Darslik. – T.: Tibbiyot nashriyoti, 2003, 36-93 b.
29. Деев Г., Круглова Т. Метод основного массива в статистических наблюдениях. Вестник статистики, 1992, №5, 39-43 б.
30. Yo. Abdullaev «Statistikaning umumiy nazariyasi» Darslik. Toshkent «Ukituvchi» 1993 yil.
31. Yo. Abdullaev «Statistikaning umumiy nazariyasi» Ukv uullanmasi. Toshkent «Ukituvchi» 2000 yil.
32. Yo. Abdullaev «Statistika nazariyasi» 100 ta savol va javob. Toshkent «Mehnat» 2000 yil.
33. Akbarova Z. R. "Mikroiqtisodiy statistika". O'quv qo'llanma.-T. TDIU. 2004- y.
34. Пипко В.А. Учет производства и калькулирование себестоимости продукции в условиях агробизнэса: учеб. пособ. – М.: ИНФРА-М, 2010. – 208 с.
35. Jo'raev N., Abduvaxidov F., Sotvoldieva D. Molayaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. TDIU nashriyoti. -T.: 2010 y, 310 bet
36. Бухгалтерский финансовый учет: Учебник для вузов з Под ред. проф Ю.А. Баева. – М.: Вузовский учебник, 2006. – 525 с.
37. Каморджанова Н.А., Карташова И.В. Бухгалтерский финансовый учет. 4-е изд., доп. – СПб.: Питер, 2009. – 288 с.
38. Ibragimov va boshqalar. Molayaviy va boshqaruv hisobi.O'quv qo'llanma. -T. Iqtisod-moliya, 2006. 444 bet.
39. Soliqqa oid qonun hujjalari. T.: «Norma»-2008.
40. «Soliq solish va buxgaltyeriya hisobi» jurnalı. –T.: 2008-2012 yillar.
41. «O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» jurnal. –T.: 2008-2012 yillar.
42. «Bozor, pul va Kredit» jurnal. –T.: 2007-2012 yillar.
43. «Soliq va bojxona xabarları» gazeta. –T.: 2007-2012 yillar.
44. O'zbekistonning 2011 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'rsatkichlari. –T.: O'zbekiston, 2012.

#### **45. Intyernet saytlari:**

- «Norma» 2012.      [www.gaap.uz](http://www.gaap.uz) (BHMS).  
[www.gaap.ru](http://www.gaap.ru)      [www.naaa.ru](http://www.naaa.ru)  
[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).      [www.stat.uz](http://www.stat.uz) .